**Key words:** laser medicine, biofunctional nanoparticles, cell, tissue, magnetic resonance diagnostics.

So'nggi paytlarda nanotexnologiyaning jadal rivojlanishi ularning qo'llanilish ko'lamini kengayishiga olib keldi. Nanomateriallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar turli fan va texnologiya sohalarda qo'llaniladi: aeronavtikadan mikro va nanoelektronikagacha va biotexnologiyadan genetik muhandislikgacha. Tibbiyotda ham innovatsion nanotexnologiyalardan foydalanish zarurligi tushunib etildi.

Nanozarrachalarning tibbiyotda qo'llanilishi asosan ularning fizik-kimyoviy xossalari 1-100 nm o'lchamdagi ob'yektlar bilan ifodalangan xususiyatlar bilan bog'liq. Bunday obyektlarda atomlar soni  $10^2$ - $10^3$  bo'lgan qattiq jismlardagi elementar zarrachalardagi (elektronlar, fononlar) o'zaro ta'sir "kvant o'lchamli" effektlar kuzatiladi. Nanozarrachalar atomlari tizimlari va ular bilan bog'langan elektronlar o'lchamlari kristaldagi holatini tavsiflovchi de Broyl to'lqin uzunliklari darajasida bo'ladi. Natijada nanozarrachalarni tashkil etuvchi elektronlarning energiya spektrlari o'zgaradi, plazmon yutilish chiziqlarining siljishi kuzatiladi, lokal holatlar - "kvant nuqtalar" paydo bo'ladi. Bu nanozarrachalarni kristallardan ajratib turadigan bir qator o'ziga xos xususiyatlariga olib keladi. Shunday qilib, ba'zi metallarning nanozarralari (oltin, kumush) hujayralarning plazma membranalaridan osongina o'tishi mumkinligi kuzatilgan. Boshqa elementlar -  $Al_2O_3$ ,  $TiO_2$  va  $Fe_3O_4$ , aksincha, ular membranalar sirtida to'planadi va ularning ba'zilar bakterio- va sitotoksik ta'sirga ega. Lazer tibbiyotida nanozarrachalar nisbatan yaqinda qo'llanilgan va allaqachon ularning organizmga ta'sirining birinchi natijalari ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganishni rag'batlantirdi va "nanopreparatlar"ning farmakologik ta'sirini o'rganish, shuningdek, davolashning yangi usullarini ishlab chiqishni tezlashtirdi [1].

Hozirgi vaqtda tanaga kiritilgan va ma'lum biologik ishni bajarishi mumkin bo'lgan zarralar va bu zarrachalar tarkibiga kiruvchi komponentlar yordamida ishlaydigan

nanozarrachalarga nisbatan “biofunktsional nanozarralar” atamasi qoʻllaniladi. Zamonaviy sanoat kukunli nanomateriallarni ishlab chiqaradi, bu akademiklar Yu.D.Tretyakov va E.A.Gudilin tomonidan berilgan klassifikatsiya boʻyicha 3D nanostrukturali materiallarga (nanokeramika), tekis tuzilishga ega materiallarga – 2D (nanolistlar, nanoplyonkalar), bir oʻlchovli – 1D (nanotrubalar, nanotolalar, nanoagregatlar va nanosimlar) va 0D (nanokukunlar, nanokristallar, kvant nuqtalari), shuningdek, supromolekulyar (fraktal) oʻlchamdagi molekulyar materiallar – molekulyar zanjirlarni tashkil qiluvchi, tirik organizmlardagi biologik jarayonlarni imitatsiyalovchi qurilmalar va mashinalar. Tibbiyotda 1D, 0D oʻlchovli va “fraktal” nanomateriallar qoʻllaniladi. Ular orasida lazer tibbiyotida turli shakl va oʻlchamdagi nanotrubalar, nano changlar, nanokristallar (nanosferalar, nanorakovinalar, nanorosetkalar va boshqalar) qoʻllaniladi. Turli xil yoʻnalishda ishlatiladigan funktsional materiallarni sanoat sintezi usullari ishlab chiqilgan. Bunday materiallardan nanoobʻyektlarni sintez qilishning zamonaviy texnologiyalarida sintez uchun yuqori tozalikdagi komponentlarga ehtiyoj qayd etilgan [2].

Ushbu nano-obyektlarga biologik funksiyalarni bermoq uchun bir qator biokimyoviy usullar mavjud: biomaslashuvchan qoplamalar hosil qilish, nanozarrachalarni zol-gel usuli bilan sintez qilish, polimer molekulalari tizimi – ligandlarni nanozarrachalari yuzasiga qoʻyish va boshqa fazalararo kataliz usullari. Superkritik suyuqliklar yordamida gidrofil nanozarrachalar hosil qilishning fizik usullari ham maʼlum. Bundan tashqari, suyuqlikda metallarni lazer bilan ablyasiya qilish usulidan foydalanish juda istiqbolli hisoblanadi.

Submikron zarrachalarining kolloid eritmalarini yaratish uzoq vaqtdan beri maʼlum boʻlgan. Hozirgi vaqtda Au, Ag metallarning va qotishmalarning nanozarrachalarning kolloid eritmalarini olishning turli usullari mavjud. Shu bilan birga, olingan eritmalarining xossalari beqaror va ulardagi nanozarralar “bir-biriga yopishib qolishga moyil” – aglomeratsiya xususiyatiga ega. Bu ularning bir-biriga kichik masofada yaqinlashganda oʻzaro munosabati bilan bogʻliq. Ikkita shunday nanozarrachaning sirt atomlarining oʻzaro taʼsiri juda yaxshi aniqlik bilan Lenard-Djons potentsali bilan ifodalanadi:

$$U = \varepsilon_0 \{(\sigma/r)^{12} - (\sigma/r)^6\}$$

bu yerda  $\varepsilon_0$ ,  $\sigma$  - oʻzaro energiya va oʻzaro taʼsir fazoviy kengayishni tavsiflovchi parametrlar; kristallar uchun  $\sigma \sim d$ ,  $d$  - atomlararo masofa.

Katta masofalarda vandervals tortishish kuchlari ustunlik qiladi, ikkita zarracha orasidagi tortishish kuchlari 10 nm dan 0,2 nm gacha boʻlgan masofaga yaqinlashganda monoton ravishda 3 ta kattalik darajasiga koʻtariladi, ekstremunga yetadi va keyin itarish kuchlari tufayli keskin kamayadi. Nanozarrachalar ishlab chiqarishda nanozarrachalar qalinligi ~10 nm boʻlgan qoplamalar qoʻllaniladi, bu zarralarning bir-biriga yaqinlashishiga yoʻl qoʻyilmaydi va shu bilan eritmadagi zarrachalarning aglomeratsiyani oldini oladi.

Magnit nanozarrachalar uchun barqarorlashtiruvchi qoplamalarni yaratish ularning (magnit maydonga kiritilgandagi xususiy va hosil qilingan) dipol momentlarining oʻzaro taʼsir magnit kuchlarini hisobga olishni talab qiladi. Bundan tashqari, ushbu zarrachalarning domen tuzilishini hisobga olish kerak. Fe, Co va ularning qotishmalari, shuningdek ularning oksidlari  $\gamma$ - $Fe_3O_4$ ,  $CoO$  oʻtish metallarining magnit nanozarralari tibbiyotda keng qoʻllaniladi. Ushbu nanozarralar zaharli emas, organizm tomonidan nisbatan oson soʻriladi va bu ularning tibbiy diagnostika sohalarida keng qoʻllanilishi uchun sharoit yaratadi (ultratovush – UZI va magnit-rezonans - MRT), oʻsimta gipertermiyasi va hujayra terapiyasi. Magnitning biologik mos



keluvchi nanozarrachalari ( $\gamma\text{-Fe}_3\text{O}_4$ ) Amerika farmatsevtika idorasi (FDA) tomonidan qo'shma shtatlarda tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat etilgan.

Bunday nanozarrachalarning xossalari 1-chi jadvalda keltirilgan.

hossalari zarralar turi	SM8	MT20
Yadroning o'lchamlari, nm	5	8
Umumiy o'lcham, nm	$17 \pm 5$	$40 \pm 10$
Massa, g	$5 \cdot 10^{-21}$	$5 \cdot 10^{-21}$
Magnit qabul qiluvchanlik e.m.b./g	40	55

Suyuqlikdagi nanozarrachalarning harakati odatda Broun harakati bilan o'xshashdir. Biroq, biologik muhitning yopishqoq va elastik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bu harakatni zarrachalarning yopishqoq muhitdagi mustaqil harakati sifatida qaraladi. Bu yerda juftlik o'zaro ta'siri gidrofobik qobiqlar va muhitning yuqori yopishqoqligi bilan bartaraf etiladi. Shuning uchun, har xil tashqi ta'sir turlari (elektromagnit, akustik va boshqalar) ichki to'qimadagi suyuqliklar, to'qimalarga o'xshash gellar, fiziologik eritmalar kabi biologik muhitda ularning ko'chishini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Biotibbiyot tadqiqotlarida hujayralardagi nanozarrachalar va hujayradan tashqari muhitda optik manipulyasiya alohida ahamiyatga ega. Hatto nanozarrachalar kiritilishidan oldin ham bunday tadqiqotlarda hujayra membranalarini o'tkazuvchanligini boshqarish usullarini ishlab chiqadigan yo'nalish belgilandi. Hujayralar va nanozarrachalarning o'zaro ta'sirining biologik jarayonlarini o'rganish bunday o'tkazuvchanlikni nazorat qilish mexanizmini aniqlab berdi. Natijada, biologik hujayra to'siqlaridan oson o'tuvchi nanogellar ishlab chiqildi. Bu, o'z navbatida, biofunktional nanozarrachalar muhandisligi uchun asos yaratdi.

Nanozarrachalarning hujayralarga kirib borish qobiliyati butun dunyo biotibbiyot tadqiqotchilarining qiziqishni oshirdi va ularga e'tiborni tortdi. Juda ko'p chop etilgan ilmiy ishlarda nanozarralarni hujayralarga yo'nalishli transport qilish orqali ulardan maqsadli foydalanish xaqida ma'lumotlar berilgan. ammo hujayra miqyosida nanozarrani maqsadli boshqarish bir qancha qiyinchiliklar bilan bog'liq. Hujayra ichidagi va tashqarisidagi matriksdagi strukturasi bir jinsli bo'lmagani, hujayra interfeysi, hujayra elementlari va vezikulyar pufakchalar nanozarralarning tortishish va konsentratsiya markazlari bo'ladi va bu yerda dipol, vandervals, kulon va boshqa turdagi o'zaro ta'sirlar namoyon bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sirlar natijasida nanozarralar xarakatini uning maqsadli trayektoriyasini o'zgartiruvchi tashqi, tasodifiy yo'nalgan kuch ta'sirida harakat qiladi. Bunday ta'sirni kamaytirish uchun nanozarralarni va hujayralarni ma'lum holatda qamrab olib va ushlab turuvchi "optik pinset" deb nom olgan uskuna qo'llaniladi. Adabiyotlarda lazer bilan nurlantirishda lateks mikrosferalari uchun hujayra membranalarining o'tkazuvchanligining oshishi to'g'risida ma'lumot berilgan. O'tkazuvchanlikning oshishini mualliflar lazer nurlanishining fototermik ta'sirida fotoyutuvchi zarralarning qizdirish natijasida akustik va zarba to'lqinlarni hosil qilinishi bilan bog'ladilar. Lazer usulari yordamida biofunktional nanozarralarning to'qima ichidagi transportini boshqarish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Biomuxandislik usullari yordamida to'qimalarning shaklini lazer yordamida o'zgartirishda fotoyutuvchi sifatida endogen nanostrukturalar – magnit nanozarralarni qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki ularni muolajalardan so'ng tashqi magnit maydoni yordamida to'qimadan chiqarib yuborish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, biologik mos keladigan nanozarrachalar maqsadli dori-darmonlarni patologik organlarga yetkazib berish uchun qo'llaniladi. Bu dorilarni sog'lom

organlarga va umuman tanaga ta'sirni kamaytiradi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. Farmatsevtik preparatni og'iz orqali yuborilganda ko'pincha qon oqimiga kirgunga qadar to'liq parchalanmay qoladi. Dori yo'lidagi birinchi to'siq bu jigar, uni yuqori darajada parchalaydi. Shu sababli, terapevtik ta'sir bo'lishi uchun shifokorlar bemorlarga preparatning yuqori dozalarini buyurishga majbur bo'lishadi. Yuqori dozalarni yoki uzoq muddatli davolanish kursini qabul qilishning salbiy oqibatlari tufayli ko'p bemorlar dori-darmonlarni qabul qilishni to'xtatishga majburdirlar. Nanozarrachalar preparatga birinchi himoya to'sig'ini yengib o'tish imkonini beradi. Bundan tashqari, ular tananing immunitet tizimini "aylanib o'tishlari" mumkin. Nanozarrachalarning ko'p qatlamli yuzasi zarralar yoki nanokapsulalar tananing mudofaa mexanizmlari ta'siriga qarshilikni oshiradi, dori tuzilishi va faoliyatini uzoq vaqt davomida saqlab qolish imkonini beradi va manzilga to'liq etib borishini ta'minlaydi.

Lazer tibbiyotida biofunktional nanozarrachalarni qo'llash sohalari orasida, ularning lazer gipertermiyasida samarali qo'llanilishini ta'kidlash kerak, maqsadli dori etkazib berish, MRT diagnostikasi va fagositoz diagnostikasi, shuningdek hujayralar va to'qimalarning bioinjeneriyasida. Bundan tashqari, amaliy tadqiqotlar uchun ahamiyatini ta'kidlab o'tish kerak: kvant elektrodinamikasi, termoqovushqoq elastik xususiyatlarini o'rganishda, mikrofluidikada va boshqa sohalarda. O'tkazuvchanligi past to'qimalariga maqsadli dori yetkazib berish matritsaning transport xususiyatlarini lazer bilan boshqarish sharti bilan samarali bo'lishi mumkin.

O'smalarning lazer gipertermiyasida fotoyutuvchi nanozarrachalardan foydalanish haqida ham bizga ma'lum, bu yerda mualliflar o'simtani fotoyutuvchi oltin nanotuzilmani o'rtacha lazerli isitishdan muvaffaqiyatli foydalanganlar.

Minimal invaziv lazerli termoterapiya yoki gipertermiyada yaqin infraqizil diapazonidagi lazerlardan foydalanish aniq lokalizatsiyalangan o'smalarni davolash uchun juda istiqbolli sanaladi [3].

Tibbiyot fanining ilg'or yo'nalishi bo'lgan lazer tibbiyoti nanozarrachalarning organizmni o'rganish va inson kasalliklarini davolashdagi ahamiyatini yuqori darajada baholadi. Hozirgi vaqtda bunday tadqiqotlarga qiziqish biofunktional nanozarrachalardan foydalanish bilan olingan ajoyib natijalar tufayli ortib bormoqda. Ultratovushli va magnit-rezonans diagnostikasi sohasidagi ushbu yangi natijalar, maqsadli dori etkazib berish, hujayra lazer muhandisligi, lazer gipertermiyasi va termoterapiya yosh tadqiqotchilar e'tiborini tortadi. Faqat oxirgi yillarda yosh olimlar nanozarrachalar sohasida o'ndan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Biofunktional nanozarrachalarning fizik-kimyoviy xossalarini va organizmga ta'sir mexanizmlarini o'rganish bu noyob ob'yektlarni sir asrorlarini ochishdagi izlanish mavzusi hisoblanadi [4].

### **Adabiyotlar**

1. Connor E. E., Mwamuka J, Gole A., Murphy C. J., Wyatt M. D. Gold nanoparticles are taken up by human cells but do not cause acute cytotoxicity. // *Small* 2005; 1: 325\_7.
2. Бурханов, Г. С. Функциональные наноматериалы и высокочистые вещества. Перспективные материалы (2008) [Текст] / Г. С. Бурханов // Спец. вып.(6). – Ч.1. – С. 11–19.
3. А. И. Омельченко Биофункциональные наночастицы в лазерной медицине. Вестник Югорского государственного университета, 2011 г. Выпуск 2 (21). С. 40–50
4. Х. М. Нищонов, Г. Курбонова. Лазер и его применение в медицине.

## BUTSTREP USULI YORDAMIDA STATISTIK ISHONCH INTERVALLARINI QURISH

R.Muradov<sup>1</sup>, M.Ziyoitdinova<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan 160115, O'zbekiston, e-mail: [rustamjonmuradov@gmail.com](mailto:rustamjonmuradov@gmail.com)

<sup>2</sup> Andijon davlat universiteti, Andijon 170100, O'zbekiston, e-mail: [ziyoitdinov@yahoo.com](mailto:ziyoitdinov@yahoo.com)

*Annotatsiya.* Matematik statistikada ko'pgina baholash usullari yordamida tuzilgan statistik baholarning aniq yoki limit taqsimotlari bosh to'plamning noma'lum taqsimotiga bog'liq bo'lib qoladi va ularni amaliyotda qo'llanilishida bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi. Ushbu maqolada o'rganilgan butstrep usulida qurilgan baholar bunday kamchiliklardan holi bo'lib, ularni noma'lum xarakteristikalar uchun ishonch oraliqlari qurishda ham keng foydalanish mumkindir.

*Kalit so'zlar.* Butstrep usuli, statistik baho, ishonch oraliqlari, kvadratik risk, empirik taqsimot.

## ПОСТРОЕНИЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ ДОВЕРИТЕЛЬНЫХ ИНТЕРВАЛОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БУТСТРАП-МЕТОДА

Р.Мурадов<sup>1</sup>, М.Зиётдинова<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Наманганский инженерно-технологический институт, Наманган 160115, Узбекистан, e-mail: [rustamjonmuradov@gmail.com](mailto:rustamjonmuradov@gmail.com)

<sup>2</sup> Андижанский государственный университет, Андижан 170100, Узбекистан, e-mail: [ziyoitdinov@yahoo.com](mailto:ziyoitdinov@yahoo.com)

*Аннотация.* В математической статистике точные или предельные распределения статистических оценок, полученные с использованием многих методов оценки, зависят от неизвестного распределения населения и приводят к некоторым трудностям при их практическом применении. В данной статье исследован метод бутстрапа, оценки, построенные этим методом, лишены подобных недостатков и могут широко использоваться при построении доверительных интервалов для неизвестных характеристик.

*Ключевые слова.* Бутстрап-метод, статистическая оценка, доверительные интервалы, квадратичный риск, эмпирическое распределение.

## CONSTRUCTION OF STATISTICAL CONFIDENCE INTERVALS USING THE BOOTSTRAP METHOD

R.Muradov<sup>1</sup>, M.Ziyoitdinova<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan 160115, Uzbekistan, E-mail: [rustamjonmuradov@gmail.com](mailto:rustamjonmuradov@gmail.com)

<sup>2</sup> Andijan State University, Andijan 170100, Uzbekistan, e-mail: [ziyoitdinov@yahoo.com](mailto:ziyoitdinov@yahoo.com)

*Abstract.* In mathematical statistics, the exact or limit distributions of the statistical estimates made using many estimation methods depend on the unknown distribution of the population and lead to several difficulties in their practical application. In this article, the bootstrap method is studied, and the estimates constructed by this method are free of such shortcomings, and they can be widely used in the construction of confidence intervals for unknown characteristics.

**Keywords.** Bootstrap method, statistical estimation, confidence intervals, quadratic risk, empirical distribution.

### Kirish

Ushbu maqolada matematik statistikaning noma'lum xarakteristikalarini baholashda amaliy jihatdan samarador hisoblangan zamonaviy usullaridan biri bo'lgan butstrep baholash usulini o'rganishga bag'ishlangandir. Butstrep usuli muallifi AQSh statistik olimi Bred Efron bo'lib, u bu usulni 1979 yilda taklif etgan. Ma'lumki, matematik statistikada ko'pgina baholash usullari, masalan, haqiqatga maksimal o'xshashlik usuli, momentlar usuli, xi-kvadrat minimumi usuli va boshqalar yordamida tuzilgan statistik baholarning aniq yoki limit taqsimotlari bosh to'plamning noma'lum taqsimotiga bog'liq bo'lib qolib, ularni amalda qo'llanilishida bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi. Ammo butstrep baholar bunday kamchiliklardan holi bo'lib, ularni masalan noma'lum xarakteristikalar uchun ishonch oraliqlarini qurishda keng qo'llash mumkindir. Bundan tashqari, ular yordamida qurilgan ishonch oraliqlari berilgan ishonch ehtimolini o'zgartirilmagan holda odatdagi standart ishonch oraliqlaridan bir muncha torroq bo'lar ekan.

Noma'lum F taqsimotga ega bo'lgan bo'sh to'plamdan  $X^{(n)}=(X_1, \dots, X_n)$ - statistik tanlanma olingan bo'lsin. Bu yerda  $\{X_i, i = 1..n\}$  bog'liq bo'lmagan va bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlardir. Matematik statistikaning muhim masalalardan biri  $X^{(n)}$  bo'yicha F ning biror funksionali  $\theta=T(F)$  ni baholash masalasidan iboratdir. Ushbu maqolada biz  $\theta$ - bir o'lchovli skalyar bo'lgan holni ko'ramiz. Demak,  $\theta \in \Theta \subseteq R^1$ . Agar F taqsimotlar oilasi noma'lum parametrlar aniqligida berilgan bo'lib,  $\theta$  aynan mana shu parametrning o'zi yoki uning biror funksiyasi bo'lsa, u holda ko'rilyotgan masala parametrik, aks holda noparametrik deb ataladi.

Agar  $\theta_n=Y_n(X^{(n)})$  statistika  $\theta$  ning biror bahosi bo'lsa, odatda  $\theta_n$  ning sifati (xossalari) siljish kattaligi  $B_n(F) =M_F(\theta_n-\theta)$ , kvadratik risk  $D_n(F) =M_F(\theta_n-\theta)^2$  yoki biror bir boshqa xarakteristikalar orqali aniqlanishi mumkin. Ammo ko'p hollarda bahoning xossalari ifodalovchi bu kabi xatoliklar  $\theta_n$  statistikaning quyidagi noma'lum

$$G_n(x;F) =P_F\{x^{(n)}: \theta_n(x^{(n)})<x\}$$

taqsimotga bog'liq bo'lib qolib, ulardan foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu yerda  $P_F, M_F$  va  $D_F$  lar  $X^{(n)}$  tanlanmani elementlari F ga teng degan shartda hisoblangan ehtimollik, matematik kutilma va dispersiyalarni anglatadi. Hozirgina ta'kidlaganimizni tasdiqlovchi bir misol keltiraylik.

**1.1-misol.** Kuzatilayotgan tasodifiy miqdor X ning taqsimoti F va matematik kutilmasi  $\theta=M_F X$  bo'lsin. Agar  $X^{(n)}=(X_1, \dots, X_n)$  tanlanma X ni kuzatish natijasida olingan bo'lsa, u holda  $\theta$  uchun tabiiy, ya'ni momentlar usuli bahosi

$$\theta_n=\bar{X} =\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i$$

1. o'rta arifmetik qiymatdir. U holda

$$\begin{aligned} M_F \bar{X} &= \frac{1}{n} M_F \sum_{i=1}^n X_i = \frac{1}{n} \cdot n M_F X = \theta, \\ D_F \bar{X} &= \frac{1}{n^2} D_F \left( \sum_{i=1}^n X_i \right) = \frac{1}{n^2} \cdot n D_F X = \\ &= \frac{1}{n} M_F (X - \theta)^2 = \frac{1}{n} \int_{-\infty}^{\infty} (x - \theta)^2 dF(x) = \frac{\sigma_F^2}{n} \end{aligned} \quad (1.1)$$

Demak, (1.1) hisoblar asosida

$$B_n(F) = M_F(\theta_n - \theta) = M_F \theta_n - \theta = \theta - \theta = 0$$

$$D_F(F) = M_F(\theta_n - \theta)^2 = M_F(\theta_n - M_F \theta_n)^2 = D_F \bar{X} = \frac{\sigma_F^2}{n}$$

Agar  $\sigma_F^2 \in (0, \infty)$  bo'lsa, u holda markaziy limit teoremasiga asosan yetarlicha katta  $n$  larda:

$$P_F\left(\frac{\sqrt{n}(\bar{X} - \theta)}{\sigma_F} < x\right) = P\left(\bar{X} < \theta + \frac{\sigma_F \cdot x}{\sqrt{n}}\right) = G_n\left(\theta + \frac{\sigma_F \cdot x}{\sqrt{n}}; F\right) \approx \\ \approx \Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{t^2}{2}} dt - \text{standart normal qonun.}$$

Bu munosabatdan

$$G_n\left(\theta + \frac{x}{\sqrt{n}}; F\right) \approx \Phi(\sigma_F^{-1} \cdot x),$$

ya'ni  $\theta_n = \bar{X}$  bahoning taqsimoti nomalum  $F$  ga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Demak, yuqorida ko'rib o'tkanimiz kabi holatlarda noma'lum  $\theta$  uchun  $\theta_n$  yordamida ishonch oraliqlari qurish yoki biror gipotezalarni tekshirish uchun kriteriylarni qurishda muammolar yuzaga kelib qoladi. Amaliy statistikada uchraydigan bunday muammolarni hal qilishda  $\theta$  uchun butstrep baholar qulaydir. Endi biz butstrep baholarini qurish usullari bilan tanishib o'tamiz. Baholar qurishning butstrep usulini eng dastlab Bred Efron 1979-yilda [1,2,4] tavsiya etgan. Butstrepning mohiyati quyidagidan iboratdir.

**Asosiy masala.**  $(\Omega, A, Q)$  ehtimollik fazosida aniqlangan kuzatilayotgan  $X$  tasodifiy miqdor yaratgan ehtimollik fazosini  $(X, B, P)$  orqali belgilaymiz. Bu yerda  $X$  - to'plam  $X$  ning barcha mumkin bo'lgan qiymatlari to'plami,  $B$  esa  $X$  ning to'plam ostilaridan tuzilgan Borel to'plamlari  $\sigma$ -algebrasi va  $X$  ning taqsimot qonuni

$$P(B) = Q(\omega: X(\omega) \in B), \quad B \in B,$$

Biror noma'lum parametr  $\theta$  aniqligida berilgan (parametrik hol) yoki umuman (noparametrik hol)  $P$  oilaga tegishlidir, ya'ni

$$\{P_\theta, \theta \in \Theta\} = P \text{ ёки } \{P\} = P$$

$\hat{P}_n(\cdot)$  orqali  $P(\cdot)$  ning biror bahosini belgilaymiz.

Masalan, parametrik holda

$$\hat{P}_n(B) = P_{\theta_n}(B), \quad B \in B,$$

bo'lib, bu yerda  $\theta_n$  statistika  $\theta$  ning biror bahosi va noparametrik holda esa

$$\hat{P}_n(B) = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n I(X_k \in B), \quad B \in B, \quad (1.2)$$

- empirik baho bo'lsin. Bu yerda  $I(A)$  orqali  $A$  xodisaning indikatorini belgiladik. Agar  $B = (-\infty, x)$  deb olsak,  $P(B) = P((-\infty, t)) = F(t)$  - taqsimot funksiya bo'ladi va unga mos bahoni  $\hat{P}_n(B) =$

$\hat{P}_n((-\infty, t)) = \hat{F}(t)$  deb belgilaymiz. Hajmi  $m$  bo'lgan  $X_1^{(n)}, \dots, X_m^{(n)}$  tasodifiy miqdorlarni

$X^{(n)} = (X_1, \dots, X_n)$  tanlanma berilganligi shartidagi taqsimot qonuni  $\hat{P}_n(\cdot)$  bo'lsin. Bu esa o'z navbatida quyidagini anglatadi, bir ehtimollik bilan

$$Q(\omega: X_1^{(n)}(\omega) \in B_1, \dots, X_m^{(n)}(\omega) \in B_m / X^{(n)} = \prod_{k=1}^m \hat{P}_n(B_k), B_k \in B, k = \overline{1, m} \quad (1.3)$$

(1.3) tenglik bilan aniqlanadigan  $(X_1^{(n)}, \dots, X_m^{(n)}) = Y_m^{(k)}$  statistik tanlanma butstrep tanlanma deb ataladi. Odatda  $m=m(n)$  va  $n$  tanlanma hajmlaridan

$$0 < \liminf_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{m}{n}\right) \leq \limsup_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{m}{n}\right) < \infty \quad (1.4)$$

shart talab qilinadi [1,4] (masalan  $m=n$  deb tanlash mumkin). Butstrep tanlanmasining taqsimot funksiyasi  $\hat{F}_n(t)$  bo'lganligi sababli  $Y_m^{(k)}$  ni statistik modellash usulida tuzish mumkin.

$$\theta_{nm}^* = \Psi_{nm}(X_1^{(n)}, \dots, X_m^{(n)}) \quad \text{orqali } \theta \text{ uchun}$$

butstrep bahoni belgilab olamiz.  $\theta_{nm}^*$  ning taqsimot funksiyasini

$G^*(y) = P(y_m^{(n)} : \theta_{nm}^* < y / X^{(n)})$  orqali belgilab olib, uni baholashni quyidagi Efron taklif etgan uchta qadamlarda amalga oshiramiz:

**1-qadam:**  $X^{(n)}$  tanlanma orqali  $\hat{F}_n(t)$  bahoni qurib olamiz;

**2-qadam:** Berilgan  $m=1, \dots, M$  lar uchun  $\hat{F}_n$  taqsimotga ega bo'lgan  $(X_1^{(n)}, \dots, X_m^{(n)}) = Y_m^{(k)}$  butstrep tanlanmalarni va ular orqali esa  $\theta$  uchun  $\theta_{nm}^*$  butstrep baholarni qurib olamiz;

**3-qadam:**  $G^*$  ni baholash uchun  $Y_m^{(n)}$  orqali empirik bahoni quramiz:

$$G_M^*(y) = \frac{1}{M} \sum_{m=1}^M I(\theta_{nm}^* < y)$$

Biz  $M^*$  orqali  $G^*$  taqsimotga nisbatan hisoblangan matematik kutilmani belgilab olib,

$$B_n^* = M^* \theta_{nm}^* - \theta_n,$$

$$D_n^* = D^* \theta_{nm}^* = M^* (\theta_{nm}^* - M^* \theta_{nm}^*)^2,$$

lar orqali  $\theta_{nm}^*$  butstrep bahoning siljish kattaligi va dispersiyalarini kiritamiz. Bu xarakteristikalarini  $G_m^*$  empirik taqsimot yordamida baholaymiz:

$$B_{nm}^* = \frac{1}{M} \sum_{m=1}^M \theta_{nm}^* - \theta = \overline{\theta_{nm}^*} - \theta_n,$$

$$D_{nm}^* = \frac{1}{M} \sum_{m=1}^M (\theta_{nm}^* - \overline{\theta_{nm}^*})^2.$$

Butstrep baholarning odatdagi baholarga nisbatan afzalliklari ko'pgina mualliflar tomonidan ta'kidlab o'tilgandir [1,2,4]. Bunday baholarning afzalligini ko'rsatish uchun ularni noma'lum parametrlar uchun ishonch oraliqlari qurish masalalarida namoyish etamiz. Matematik statistikadan malumki [1-4], agar noma'lum  $\theta$  parametr uchun oddiy  $X^{(n)} = (X_1, \dots, X_n)$  tanlanma yordamida qurilgan  $\theta_n$  baho berilganida  $\theta_n - \theta$  farq taqsimoti aniq va u  $F$  ga bog'liq bo'lmasa u holda  $\theta$  uchun ishonch oralig'ini qurish qiyin emas. Haqiqatan, agar  $\theta_n - \theta$  ning aniq taqsimoti normal taqsimot  $N(0, \sigma_n^2)$  va bunda  $\sigma_n^2$  ma'lum (ya'ni  $F$  ga bog'liq emas) bo'lsa

$$P\left(\frac{(\theta_n - \theta)}{\sigma_n} < z\right) = \Phi(z), \quad z \in R,$$

u holda standart normal taqsimot  $F(z)$  ning  $\alpha$  va  $1-\alpha$  satxlardagi ishonch ehtimollariga mos  $Z_\alpha$  va  $Z_{1-\alpha}$  kvantillari uchun


$$(\Phi(Z_\alpha) = \alpha, \Phi(Z_{1-\alpha}) = 1-\alpha, Z_{1-\alpha} = -Z_\alpha):$$

$$P(\theta < \theta_n + z_\alpha \cdot \sigma_n) = P\left(\frac{\theta_n - \theta}{\sigma_n} > -z_\alpha\right) = 1 - \Phi(-z_\alpha) = \alpha,$$

va

$$P(\theta < \theta_n + z_{1-\alpha} \cdot \sigma_n) = P\left(\frac{\theta_n - \theta}{\sigma_n} > -z_{1-\alpha}\right) = 1 - \Phi(-z_{1-\alpha}) = 1 - \Phi(z_\alpha) = 1 - \alpha,$$

munosabatlar o'rinli bo'lib,  $\theta$  uchun izlanayotgan markaziy ishonch oralig'i



1-rasm.

$(\theta_n + z_\alpha \cdot \sigma_n; \theta_n + z_{1-\alpha} \cdot \sigma_n)$  dan iborat bo'ladi (1-rasmga qarang) va noma'lum  $\theta$  parametrning bu oraliq bilan qoplanishi ehtimolligi  $1-2\alpha$  ga teng bo'ladi:

$$P(\theta_n + z_\alpha \cdot \sigma_n < \theta < \theta_n + z_{1-\alpha} \cdot \sigma_n) = P(\theta < \theta_n + z_{1-\alpha} \cdot \sigma_n) - P(\theta < \theta_n + z_\alpha \cdot \sigma_n) = 1 - \alpha - \alpha = 1 - 2\alpha.$$

Endi  $\theta_n$  baho asimptotik normal taqsimotga ega bo'lgan holni ko'raylik:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P\left(\frac{\sqrt{n}(\theta_n - \theta)}{\sigma_F} < z\right) = \Phi(z),$$

ya'ni

$$\sqrt{n}(\theta_n - \theta) \xrightarrow[n \rightarrow \infty]{D} N(0, \sigma_F^2).$$

Bu holda  $\sigma_F^2$  dispersiya F ga bog'liq bo'lganligi sababli, biz yuqoridagidek aniq ishonch oralig'i qura olmaymiz. Bunday holatda odatda  $\sigma_F^2$  ni biror  $\hat{\sigma}_F^2$  statistika bilan baholab,  $\theta$  uchun taqribiy (asimptotik) ishonch oralig'ini

$$\left(\theta_n - \frac{\hat{\sigma}_n \cdot t_\alpha}{\sqrt{n}}; \theta_n + \frac{\hat{\sigma}_n \cdot t_\alpha}{\sqrt{n}}\right)$$

ko'rinishida quriladi. Bu yerda  $\Phi(-t_\alpha) = 1 - \Phi(t_\alpha) = \alpha$ . Bunday oraliqlar standart oraliqlar deb ataladi. Efron bunday oraliqlarni qo'llash qoniqarsiz ekanligini takidlab o'tgani edi [1,2,4]. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. Biz  $\sqrt{n}(\theta_n - \theta)$  ning asl  $G_n(z; F)$  - aniq taqsimoti o'rniga taqribiy  $\Phi(z/\hat{\sigma}_n)$  taqsimotdan foydalandik. Bunday standart oraliqlar kamchiliklarini yo'qotish uchun Efron butstrep usulini qo'llashni taklif etdi. Bu maqsadda u  $G_n$  ning butstrep bahosi bo'lgan  $G_m^*$  ning kvantillaridan foydalanishni tavsiya etdi. Buning uchun  $X^{(n)} = (X_1, \dots, X_n)$  dastlabki tanlanmadan  $Y_m^* = (X_1^*, \dots, X_m^*)$  butstrep tanlanmani tuzib olamiz.  $Y_m^*$  dan  $\theta_m^* = \theta_m^*(Y_m^*)$

bahoni  $\theta_n$  formulasi asosida tuzib olib, bu jarayonni  $M$  marta takrorlab  $\{\xi_m^* = \sqrt{n}(\theta_n^* - \theta^*), m=1, \dots, M\}$  larni hosil qilamiz.  $G_n(z; F)$  ning butstrep emperik analogini hisoblaymiz:

$$\hat{G}_M^*(z) = \frac{1}{M} \sum_{m=1}^M I(\xi_m^* < z). \quad (1.5)$$

Endi  $\hat{G}_M^*$  taqsimotning  $\alpha$  va  $1-\alpha$  satxdagi  $\xi_{\alpha}^*$  va  $\xi_{1-\alpha}^*$  kvantillarini qo'llab quyidagi butstrep ishonch oraliqlarini

$$\left( \theta_n + \frac{\sigma_n \cdot \hat{\xi}_{\alpha}^*}{\sqrt{n}}; \theta_n + \frac{\sigma_n \cdot \hat{\xi}_{1-\alpha}^*}{\sqrt{n}} \right)$$

yuqoridagidek  $1-2\alpha$  ehtimollik bilan aniqlaymiz. [1,2,4-8] maqolalarning mualliflari bunday ishonch oraliqlari asimptotik oraliqlarga nisbatan sezilarli darajada torroq ekanini ko'rsatganlar.

Biz ma'lum vaqt qulaylik uchun  $m=n$ , yani butstrep tanlanma hajmi dastlabki tanlanma hajmiga teng deb olamiz (demak (1.4) shart bajarilar ekan). Butstrep tanlanmani  $Y_n^{(n)} = (X_1^*, \dots, X_n^*)$  orqali va u yordamida tuzilgan emperik taqsimot funksiyani esa  $F_n^*(x)$  deb belgilab olamiz:

$$F_n^*(t) = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n I(X_k^* < t), \quad t \in R \quad (1.6)$$

$Y_n^{(n)}$  butstrep tanlanmani tuzishning eng qulay usuli  $X^{(n)} = (X_1, \dots, X_n)$  tanlamadan  $Y_n^{(n)} = (X_1^*, \dots, X_n^*)$  ni takrorlanadigan tanlash usulidan iboratdir. Masalan,  $n=3$  bo'lib,  $X^{(3)} = (X_1, X_2, X_3)$  dastlabki tanlanma bo'lsin. U holda  $Y_3^{(3)}$  butstrep tanlanma tarkibi  $Y_3^{(3)} = (X_3, X_2, X_3)$  – ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu holda  $X^{(3)}$  dan birinchi tanlashda  $X_1^* = X_3$  ni tanlab yana qaytarib  $X^{(3)}$  ga tashlaymiz,  $X_2^* = X_2$  ni ham va  $X_3^* = X_3$  larni ham shu tarzda tanlab, natijada yuqoridagi  $Y_3^{(3)}$  ni tuzib olamiz.  $Y_3^{(3)}$  dagi har bir,  $\{X_k^*, k=1,2,3\}$  larni  $X^{(3)}$  dan  $\frac{1}{3}$  ehtimollik bilan tanlash mumkin. Demak, umumiy

holda,  $Y_n^{(n)}$  elementlarining har birini  $X^{(n)}$  tanlanmadan  $\frac{1}{n}$  ehtimolliklar bilan tanlar ekanmiz. Bu esa aynan diskret tekis taqsimot, ya'ni emperik taqsimot qonunidir.

Shunday qilib,  $\{X_k^*, k = \overline{1, n}\}$  tasodifiy miqdorlarning taqsimot funksiyasi odatdagi empirik taqsimot funksiya

$$\hat{F}_n(t) = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n I(X_k < t), \quad t \in R, \quad (1.7)$$

ekan, yani (1.3) shart bajariladi. Masalan, agar  $\theta = M_F X_k$  (1.1-misolga qarang) bo'lsa, u holda  $\theta$  ga baho sifatida

$$\theta_n = \bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n X_k$$

deb odatdagi o'rta arifmetik qiymatni olamiz va (1.1) ga asosan

$$M_F \bar{X} = \theta, \quad D_F \bar{X} = \frac{\sigma_F^2}{n},$$

ammo

$$M_{\hat{F}_n} X_k^* = \bar{X}, \quad D_{\hat{F}_n} X_k^* = S^2 = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n (X_k - \bar{X})^2$$



Demak, markaziy limit teoreмага asosan:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P_{F_n} \left( \frac{\sqrt{n}(\bar{X}^* - \bar{X})}{S^*} < x \right) = \Phi(x), \quad x \in R, \quad (1.8)$$

bo'lib, bu yerda  $\bar{X}^* = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n X^*_k$ ,  $S^{*2} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n (X^*_k - \bar{X}^*)^2$ . Endi  $\theta$  uchun ishonch oralig'ini qurish masalasiga to'xtalib o'tamiz. Biz odatdagi

$$\left( \bar{X} - \frac{S \cdot t_\alpha}{\sqrt{n}}; \bar{X} + \frac{S \cdot t_\alpha}{\sqrt{n}} \right)$$

ishonch oralig'ini umumiy holda qo'llay olmaymiz, chunki  $t_\alpha$  soni standart normal  $N(0,1)$  taqsimotning  $\alpha$  satxdagi kvantilidir, ammo tanlanma hajmi katta bo'lmagan ( $n \rightarrow \infty$ ) holda  $\frac{\sqrt{n}(\bar{X} - \theta)}{S}$  ning taqsimoti (yani Student taqsimoti)  $N(0,1)$  dan ancha farqli bo'lishi mumkin.

Bunday hollarda yuqorida takidlab o'tilgan Efron tavsiyasiga asosan  $t_\alpha$  ni uning butstrep bahosi  $t_{\alpha^*}$  ga almashtiramiz.  $t_{\alpha^*}$  ni esa  $\frac{\sqrt{n}(\bar{X}^* - \bar{X})}{S^*}$  ning taqsimoti kvantilidan yetarlicha ko'p butstrep tanlanmalar orqali empirik usulda aniqlaymiz. Demak,  $\theta$  uchun butstrep ishonch oralig'i

$$\left( \bar{X} - \frac{S \cdot t_{\alpha^*}}{\sqrt{n}}; \bar{X} + \frac{S \cdot t_{\alpha^*}}{\sqrt{n}} \right)$$

bo'ladi, ya'ni

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P \left( \bar{X} - \frac{S \cdot t_{\alpha^*}}{\sqrt{n}} < \theta < \bar{X} + \frac{S \cdot t_{\alpha^*}}{\sqrt{n}} \right) = 1 - \alpha.$$

### Xulosa

Ushbu maqolada noma'lum parametrlarni statistik baholashning butstrep usuli va uning qanday hosil qilish ketma-ketligi o'rganilgan. Butstrep usulining boshqa baholash usullaridan afzalliklari keltirilgan. Noma'lum xarakteristikalar uchun ishonch oraliqlari qurish masalalari ham tahlil qilingan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bickel P.J., Freedman D.A. Some asymptotic theory for the bootstrap. // Ann. Statist., 1981, v.9, N.6, p. 1196-1217.
2. Efron B. Bootstrap methods: another look at the jackknife. // Ann. Statist., 1979, v.7, N.1, p. 1-26.
3. Боровков А.А. “Математическая статистика. Оценка параметров. Проверка гипотез”. М.: Наука, 1984, 472 с.
4. Кошевник Ю.А. Асимптотические свойства бутстреп оценок. // Заводская лаборатория 1987, т.53, N.10, с. 76-82.
5. Фармонов Ш.Қ., Абдушукуров А.А. “Математик статистика. 1-қисм: Параметрларни баҳолаш”. Т., “Университет”, 1994, 68-бет.
6. Мурадов Р.С., Зиёитдинова М.А. Бутстреп усули ва унинг статистик баҳолашда қўлланилиши. // “Ёш математикларнинг янги теоремалари 2022” Республика конференцияси материаллари, Наманган, 13-14 май, 2022. 345-346 бетлар.

7. Muradov R.S., Kamoliddinov M., Ziyoiddinova M. Taqsimotlar qorishmasini to'liq bo'lmagan tanlanmalar bo'yicha baholash //Proceedings of VI International Scientific conference STATISTICS and its applications, 19-20 October, 2022. pp. 263-264.

8. Michael R. Chernick Bootstrap Methods: A Guide for Practitioners and Researchers, Wiley, 2011.

УДК 517.916

## ELLIPTIK QISMI TEKISLIKNING TO'RTDAN BIR QISMI BO'LGAN SOHADA ARALASH TIPDAGI TENGLAMA UCHUN BIR NOLOKAL MASALA HAQIDA

<sup>1</sup>Zunnunov Rahimjon Temirbekovich

<sup>1</sup>V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti  
fizika-matematika fanlari nomzodi,

<sup>1</sup>Gmail: [zunnunov@mail.ru](mailto:zunnunov@mail.ru)

**Аннотасија.** Ushbu ishda spektral parametrli Trikomining umumlashtirilgan tenglamasi uchun elliptik qismi tekislikning birinchi choragi bo'lgan cheksiz sohada Bitsadze-Samarskiy tipidagi masala o'rganiladi. Masala yechimining yagonaligi energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan, yechimning mavjudligi esa Grin funktsiyalar usuli va integral tenglamalar usuli bilan isbotlangan.

**Калит со`злар.** Bitsadze-Samarskiy tipidagi masalasi, aralash turdagi tenglama, energiya integrallari usuli, Grin funktsiyalar usuli, integral tenglamalar usuli, cheksiz soha.

## ОБ ОДНОЙ НЕЛОКАЛЬНОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ СМЕШАННОГО ТИПА В ОБЛАСТИ, ЭЛЛИПТИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ КОТОРОЙ – ЧЕТВЕРТЬ ПЛОСКОСТИ

<sup>1</sup>Зуннунов Рахимжон Темирбекович

<sup>1</sup>Институт математики им. В.И. Романовского

<sup>1</sup>кандидат физико-математических наук

<sup>1</sup>Gmail: [zunnunov@mail.ru](mailto:zunnunov@mail.ru)

**Аннотация:** В данной работе для обобщенного уравнения Трикоми со спектральным параметром в неограниченной области эллиптическая часть, которой является первой четвертью плоскости, исследуется задача типа задачи Бицадзе-Самарского. Единственность решения задачи доказывается с помощью метода интегралов энергии, а существование решения задачи методом функций Грина и методом интегральных уравнений.

**Ключевые слова:** задача типа Бицадзе-Самарского, уравнение смешанного типа, метод интегралов энергии, метод функций Грина, метод интегральных уравнений, неограниченная область.

## ON A NON-LOCAL PROBLEM FOR A MIXED-TYPE EQUATION IN A DOMAIN THE ELLIPTIC PART OF WHICH IS A QUARTER-PLANE

<sup>1</sup>Zunnunov Rakhimjon Temirbekovich

<sup>1</sup>Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky

<sup>1</sup>Candidate of Physical and Mathematical Sciences

<sup>1</sup>E-mail: [zunnunov@mail.ru](mailto:zunnunov@mail.ru)

**Abstract:** A problem of the Bitsadze-Samarskii type is studied in this article for the generalized Tricomi equation with a spectral parameter in an unbounded domain the elliptic part of which is the first quarter of a plane. The uniqueness of the solution to the problem is proven using the method of energy integrals, and the existence of a solution to the problem is proved by the method of Green's functions and the method of integral equations.

**Keywords:** Bitsadze-Samarskii type problem, mixed-type equation, energy integral method, Green's function method, integral equation method, unbounded domain.

### Постановка задачи.

В неограниченной смешанной области эллиптическая часть которой первая четверть плоскости а гиперболическая часть неограниченный характеристический треугольник для обобщенного уравнения Трикоми в случае  $m=1$  и  $\lambda=0$  задача Трикоми исследована в работе Севастьянова Г.М. [1]. В работах [2-3] Севастьянов Г.М. показал, что задача Трикоми в указанной выше неограниченной области имеет место в околосзвуковой газодинамике. Решение ее можно применить для построения функции тока вдали от профиля, помещенного в плоский околосзвуковой поток конечной ширины, имеющий на свободной границе звуковую скорость.

Для модельных уравнений смешанного типа первого рода, то есть для уравнения (1), рассмотренного ниже при  $m > 0$  и  $\lambda = 0$  задача Трикоми исследована в монографии [4]. Обобщение задачи Трикоми в ограниченных областях, то есть задачи типа задачи Бицадзе-Самарского при  $m > 0$  и  $\lambda = 0$  исследовались в работах [4-6], а в бесконечных областях в работах [7-8].

Данная статья является продолжением этих исследований в случае  $\lambda \neq 0$ . Особенностью данной работы является наличие в краевых условиях не только классического оператора  $D_{sx}^\delta[f(x)]$ , но и оператора  $A_{sx}^{1,\lambda}[f(x)]$ , с помощью которых нелокальные условия связывают значения искомого решения, принимаемые на границе характеристического треугольника.

Рассмотрим уравнение

$$\text{sign } y |y|^m u_{xx} + u_{yy} - \lambda^2 |y|^m u = 0, \quad (1)$$

в неограниченной смешанной области  $\Omega = \Omega_1 \cup l_1 \cup \Omega_2$ , где  $\Omega_1 = \{(x, y) : x > 0, y > 0\}$ , а  $\Omega_2$  - область полуплоскости  $y < 0$ , ограниченная отрезком  $AB$  прямой  $y = 0$  и характеристиками

$$AC : x - [2/(m+2)](-y)^{(m+2)/2} = 0, \quad BC : x + [2/(m+2)](-y)^{(m+2)/2} = 1$$

уравнения (1), выходящими из точек  $A(0,0)$ ,  $B(1,0)$ . Введем обозначения

$$\beta = m/(2m+4), \quad l_1 = \{(x, y) : 0 < x < 1, y = 0\} \quad l_2 = \{(x, y) : x > 1, y = 0\}$$

$$l_3 = \{(x, y) : y > 0, x = 0\}, \quad \theta_0(x) = \left( \frac{x}{2}, - \left[ \frac{m+2}{2} \cdot \frac{x}{2} \right]^{\frac{2}{m+2}} \right).$$

Здесь  $\theta_0(x)$  является точкой пересечения характеристики уравнения (1), выходящей из точки  $(x,0) \in l_1$ , с характеристикой  $AC$ . Предположим, что  $m, \lambda \in \mathbb{R}$ , причем  $m = const > 0$ , а  $\lambda = \lambda_1$  при  $y > 0$ ,  $\lambda = \lambda_2$  при  $y < 0$ .

**Задача  $BS^\infty$ .** Найти функцию  $u(x, y)$  со следующим и свойствами:

- 1)  $u(x, y) \in C(\Omega \cup \bar{l}_2 \cup \bar{l}_3 \cup \overline{AC} \cup \overline{BC}) \cap C^1(\Omega) \cap C^2(\Omega_1 \cup \Omega_2)$ , причем  $u_y(x, 0)$  при  $x \rightarrow 0$  может иметь особенность порядка меньше  $1 - 2\beta$ ;
- 2) удовлетворяет уравнению (1) в областях  $\Omega_1$  и  $\Omega_2$ ;
- 3) удовлетворяет следующим краевым условиям

$$u(0, y) = \varphi(y), \quad 0 \leq y < +\infty; \quad u(x, 0) = \psi(x), \quad 1 \leq x < +\infty \quad (2)$$

$$\lim_{R \rightarrow +\infty} u(x, y) = 0, \quad y \geq 0, x \geq 0 \quad (3)$$

$$A_{0x}^{1, \lambda_2} \left\{ D_{0x}^\beta \left[ x^{2\beta-1} u(\theta_0(x)) \right] \right\} = a(x)u(x, 0) + b(x), \quad 0 < x < 1, \quad (4)$$

где  $\varphi(y)$ ,  $\psi(x)$ ,  $a(x)$ ,  $b(x)$  - заданные функции, причем  $\varphi(y) \in C[0, +\infty)$  а при достаточно больших  $y$  удовлетворяет неравенству  $|\varphi(y)| \leq M_1 y^{-1-m/2-\varepsilon}$ ;  $\psi(x) \in [1; +\infty)$  и при достаточно больших  $|x|$  справедливы неравенства  $|\psi(x)| \leq M_2 |x|^{-\delta}$ ;  $a(x) = x^\beta a^*(x)$ ,  $a^*(x) \in C^{(2, \alpha)}[0, 1]$ ;  $b(x) = x^\beta b^*(x)$ ,  $b^*(x) \in C^1[0, 1]$ . Кроме того,  $R^2 = x^2 + [2/m + 2]^2 y^{m+2}$ ,  $M_1, M_2 = const > 0$ ,  $\varepsilon, \delta$  - достаточно малые положительные числа.

Далее, мы будем пользоваться свойствами следующих интегральных и интегродифференциальных операторов  $A_{ax}^{1, \lambda} [f(x)]$ ,  $C_{ax}^{1, \lambda} [f(x)]$ , введенных и изученных в работе [9], а также операторами  $D_{ax}^\delta [f(x)]$  дробного интегродифференцирования Римана-Лиувилля [10].

## 2. Единственность решения задачи $BS^\infty$ .

Пусть  $u(x, y)$  – решение задачи  $BS^\infty$ . Введем обозначения

$$u(x, 0) = \tau(x), \quad 0 \leq x \leq 1; \quad \lim_{y \rightarrow 0} u_y(x, y) = \nu(x), \quad 0 < x < 1, \quad (5)$$

и предположим, что  $\tau(x) \in C[0, 1] \cap C^2(0, 1)$ ,  $\nu(x) \in C^2(0, 1)$  и причем  $\nu(x)$  при  $x \rightarrow 0$  или  $x \rightarrow 1$  может иметь особенность порядка меньше  $1 - 2\beta$ . Пользуясь представлением решения задачи Коши из [9] для уравнения (1) в области  $\Omega_2$  находим основное функциональное соотношение между  $\tau(x)$  и  $\nu(x)$  на  $AB$ , принесенное из области  $\Omega_2$ :

$$p(x)\tau(x) = \gamma_3 \int_0^x \nu(t)(x-t)^{-2\beta} \bar{J}_{-\beta} [\lambda_2(x-t)] dt + [\Gamma(\beta) / \Gamma(2\beta)] x^{1-\beta} b(x), \quad 0 \leq x \leq 1. \quad (6)$$

где  $p(x) = 1 - \frac{\Gamma(\beta)}{\Gamma(2\beta)} x^{1-\beta} a(x)$ ,  $\gamma_1 = \left[ (2-4\beta)^{2\beta} \Gamma(\beta) \right] / \left[ 2\Gamma(1-\beta)\Gamma(2\beta) \right]$ ,

$\bar{J}_\alpha = \Gamma(\alpha+1)(z/2)^{-\alpha} J_\alpha(z)$ ,  $J_\alpha(z)$  - функция Бесселя первого рода, а  $\Gamma(z)$  - гамма функция Эйлера [11].

**Теорема.** В области  $\Omega$  не может существовать более одного решения задачи  $BS^\infty$ , если выполнены следующие условия  $p(x) \neq 0$ ,  $p_1(x) > 0$ ,  $[p_1(x)]' \leq 0$ , где  $p_1(x) = 1/p(x)$ .

Сначала докажем следующую лемму.

**Лемма.** Если  $u(x, y)$  - решение однородной задачи  $BS^\infty$  и выполнены условия теоремы, то справедливо неравенство

$$\Delta = \int_0^1 \tau(x) \nu(x) dx \geq 0.$$

**Доказательство.** Пусть  $u(x, y)$  - решение однородной задачи  $BS^\infty$ . Тогда, согласно (6) справедливо равенство

$$p(x)\tau(x) = \gamma_1 \int_0^x \nu(t)(x-t)^{-2\beta} \bar{J}_{-\beta}[\lambda_2(x-t)] dt, \quad 0 \leq x \leq 1. \quad (7)$$

Принимая во внимание  $p(x) \neq 0$ , из (7) находим функцию  $\tau(x)$  и подставим в  $\Delta$ :

$$\Delta = \gamma_1 \int_0^1 \nu(x) p_1(x) dx \int_0^x \nu(t)(x-t)^{-2\beta} \bar{J}_{-\beta}[\lambda_2(x-t)] dt.$$

Отсюда, пользуясь формулами из [11]:

$$\int_0^\infty z^{\mu-1} \cos(kz) dz = \frac{\Gamma(\mu)}{k^\mu} \cos\left(\frac{\mu\pi}{2}\right) \quad (k > 0, 0 < \mu < 1),$$

$$J_\alpha(z) = \frac{(z/2)^\alpha}{\sqrt{\pi}\Gamma(\alpha+1/2)} \int_{-1}^1 (1-\xi^2)^{\alpha-(1/2)} \cos(\xi z) d\xi, \quad \text{Re } \alpha > -1/2$$

Получим 
$$\Delta = \gamma_2 \int_0^{+\infty} z^{2\beta-1} dz \int_{-1}^1 (1-\xi^2)^{-\beta-1/2} d\xi \times$$

$$\times \left\{ p_1(1) \sum_{k=1}^2 \left[ \left( \int_0^1 \nu(t) \cos(z_k t) dt \right)^2 + \left( \int_0^1 \nu(t) \sin(z_k t) dt \right)^2 \right] \right\} -$$

$$-\int_0^1 p_1'(x) \sum_{k=1}^2 \left[ \left( \int_0^x v(t) \cos(z_k t) dt \right)^2 + \left( \int_0^x v(t) \sin(z_k t) dt \right)^2 \right] dx$$

где  $z_k = z - (-1)^k \lambda \xi$ ,  $\gamma_2 = \left[ (2 - 4\beta)^{2\beta} \Gamma(\beta) \right] / \left[ 8\sqrt{\pi} \Gamma(\beta - 1/2) \Gamma^2(2\beta) \cos(\pi\beta) \right]$ .

В силу условий теоремы и  $\gamma_4 > 0$ , следует, что  $\Delta \geq 0$ . Лемма доказана.

**Доказательство теоремы.** Пусть  $u(x, y)$  - решение однородной задачи  $BS^\infty$ . Тогда в области  $\Omega_1$  справедливо тождество

$$(y^m uu_x)_x + (uu_y)_y - y^m (u_x)^2 - (u_y)^2 - y^m \lambda_1^2 u^2 = 0 \tag{8}$$

а на  $AB$  имеет место равенство (7).

Интегрируя тождество (8) по области  $\Omega_1$  и применяя формулу Гаусса-Остроградского, учитывая однородные условия (2)-(3), получим

$$\iint_{\Omega_1} \left[ y^m (u_x)^2 + (u_y)^2 + \lambda_1^2 y^m u^2 \right] dx dy + \int_0^1 \tau(x) v(x) dx = 0. \tag{9}$$

В силу утверждения леммы и  $u(x, y) \in C(\Omega_1 \cup l_1)$ , из (9) при  $\lambda_1 \neq 0$  сразу следует, что  $u(x, y) \equiv 0$  в  $\Omega_1 \cup l_1$ . Если  $\lambda_1 = 0$ , то из (9) с учетом  $u(x, y) \in C(\Omega_1 \cup l_1)$  получим  $u(x, y) \equiv const$  в  $\Omega_1 \cup l_1$ . Учитывая условия (2)-(3), и в этом случае, имеем  $u(x, y) \equiv 0$  в  $\Omega_1 \cup l_1$ . Отсюда следует, что на  $AB$   $u(x, 0) = 0$ ,  $u_y(x, 0) = 0$ . Принимая во внимание это и (6), согласно формуле решения из [9], получим  $u(x, y) \equiv 0$  в  $\bar{\Omega}_2$ . Следовательно,  $u(x, y) \equiv 0$  для  $(x, y) \in \Omega \cup \bar{l}_2 \cup \bar{l}_3 \cup \bar{AC} \cup \bar{BC}$ . Тем самым теорема доказана.

### 3.Существование решения задачи $BS^\infty$ .

Решая задачу  $N^\infty$  в области  $\Omega_1$  методом функций Грина, получим

$$u(x, y) = -\int_0^1 v(\xi) G(\xi, 0; x, y; \lambda_1) d\xi + \int_0^{+\infty} \eta^m \varphi(\eta) G_\xi(0, \eta; x, y; \lambda_1) d\eta - \int_1^{+\infty} \psi(\xi) G(\xi, 0; x, y; \lambda_1) d\xi \tag{10}$$

здесь  $G(\xi, \eta; x, y; \lambda_1)$  функция Грина задачи  $N^\infty$  (Неймана), имеющая вид:

$$G(\xi, \eta; x, y; \lambda_1) = q_1(\xi, \eta; x, y; \lambda_1) - q_1(-\xi, \eta; x, y; \lambda_1)$$

где  $q_1(\xi, \eta; x, y; \lambda_1) = k_1 (r_2^2)^{-\beta} H_3(\beta, \beta, 2\beta; \sigma_1; \sigma_2)$  - фундаментальное решение

уравнения (1), где  $k_1 = \frac{1}{4\pi} \left( \frac{4}{m+2} \right)^{2\beta} \frac{\Gamma^2(\beta)}{\Gamma(2\beta)}$ ,  $\sigma_1 = 1 - \frac{r_1^2}{r_2^2}$ ,  $\sigma_2 = \frac{1}{4} (\lambda_1 r_1)^2$ ,

$$\left. \begin{matrix} r_1^2 \\ r_2^2 \end{matrix} \right\} = (\xi - x)^2 + \frac{4}{(m+2)^2} \left( \eta^{\frac{m+2}{2}} \mp y^{\frac{m+2}{2}} \right)^2.$$

Полагая  $y = 0$ , из (10) получаем второе функциональное соотношение между  $\tau(x)$  и  $v(x)$  на  $l_1$ , из области  $\Omega_1$ :

$$\tau(x) = -\int_0^1 v(t)H(x,t)dt + f(x) \tag{11}$$

где  $f(x) = 4k_1\beta x \int_0^\infty \eta^m \varphi(\eta) \left( x^2 + \frac{4}{(m+2)^2} \eta^{m+2} \right)^{-\beta-1} d\eta - \int_1^\infty \psi(t)H(x,t)dt$

$$H(x,t) = k_1 \{ |x-t|^{-2\beta} - (x+t)^{-2\beta} \} + H_1(x,t)$$

$$H_1(x,t) = k_1 \sum_{n=1}^\infty \frac{\lambda_1^{2n}}{4^n n! (1-\beta)_n} \left[ |x-t|^{2n-2\beta} - (x+t)^{2n-2\beta} \right]$$

Исключая функцию  $\tau(x)$  из (6), (11), получим сингулярное интегральное уравнение относительно неизвестной функции  $v(x)$ , эквивалентное (в смысле разрешимости) задаче  $BS^\infty$ :

$$A(x)v(x) + \frac{B(x)}{\pi} \int_0^1 \left( \frac{t}{x} \right)^{1-2\beta} \left( \frac{1}{t-x} + \frac{1}{t+x} \right) v(t) dt + \int_0^1 P(x,t)v(t)dt = F(x), \quad 0 < x < 1 \tag{12}$$

где  $A(x) = \frac{\pi\gamma_1}{\sin 2\beta\pi} + \pi k_1 t g \beta \pi p(x)$ ,  $B(x) = \pi k_1 p(x)$

$$K(x,t) = p(x) \frac{d}{dx} \int_0^x (x-z)^{2\beta-1} H_1(z,t) dz +$$

$$+ \int_0^x Q(x,z) \left[ k_1 |z-t|^{-2\beta} - k_1 |z+t|^{-2\beta} + H_1(z,t) \right] dz, \quad Q(x,z) = (x-z)^{2\beta-1} O(1),$$

$$F(x) = f(x) - \Gamma(\beta) C_{0x}^{1,\lambda} \left[ x^{1-\beta} b(x) \right]$$

Поскольку  $A^2(x) + B(x)^2 \neq 0, \forall x \in \bar{l}_1$ , то существует регуляризатор, приводящий сингулярное интегральное уравнение (12) к интегральному уравнению Фредгольма второго рода [11] разрешимость которого следует из единственности решения задачи  $BS^\infty$ .

### Список литературы

1. Севостьянов Г.Д. Краевая задача Трикоми для полуполосы и четверти плоскости // Волжский математический сборник. – 1965. – №3. – С. 312-320.
2. Севостьянов Г.Д. Две краевые задачи Трикоми в безграничной области // Известия высших учебных заведений. – 1967. – № 1(56) – С. 95- 101.
3. Севостьянов Г.Д. Обтекание профиля звуковой струей газа // ИАН СССР. Серия мех. и жид. газа. – 1966. – Т. 30. – №2. – С. 53-59.
4. Смирнов М.М. Уравнения смешанного типа. – М. Наука. – 1985. – С.305.
5. Абрегов М.Х. Некоторые задачи типа задачи Бицадзе - Самарского для уравнения смешанного типа // Дифференциальные уравнения. – 1974. –Т. 10. – №1. –С. 3-6.

6. Кумыков В.К., Водахова В.А., Езаова А.Г. Задача типа задачи Бицадзе Самарского для уравнения смешанного типа // Современные наукоемкие технологии. –2016. – №. 9. – С. 73-78.
7. Андреев А.А., Рябов А.В. Некоторые краевые задачи типа задачи Бицадзе-Самарского для обобщенного уравнения Трикоми в неограниченных областях // Межвузовский сборник трудов по физико – математическим наукам «Дифференциальные уравнения и их приложения». –1975. – №. 2. – С. 9-15.
8. Рузиев М.Х. Задача с условиями Франкля и Бицадзе – Самарского на линии вырождения и на параллельных характеристиках для уравнения смешанного типа // Известия вузов.Математика. –2012. – №8. – С.43-52.
9. Салахитдинов М.С., Уринов А.К. Краевые задачи для уравнения смешанного типа со спектральным параметром. // –Ташкент. ФАН, – 1997. – 166 с.
10. Нахушев А.М. Уравнения математической биологии. // –М.: Высшая школа, – 1995. – 301 с.
11. Лебедев Н.Н. Специальные функции и их приложения. //– М.-Л., –1963. – 358 с.
12. Мухелишвили Н.И. Сингулярные интегральные уравнения. // –М., –1968.

#### **AVTOMOBIL YO'LI KO'PRIKLARINI TAMIRLASH O'RTASIDAGI XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH**

Saydazimov Nosirjon Tursunovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti, yo'l muhandisligi kafedrasida dotsenti

Gmail: [Snosirjon1964@gmail.com](mailto:Snosirjon1964@gmail.com)

*Annotatsiya:* Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni, magistral yo'llar va sun'iy inshootlarning transport va ekspluatatsiya holatini yaxshilashning muhim omillaridan biri ularning tamirlash oralig'idagi xizmat muddatini optimallashtirishdir.

R=CH<sub>3</sub> (H<sub>2</sub>L<sup>1</sup>), C<sub>6</sub>H<sub>5</sub> (H<sub>2</sub>L<sub>2</sub>), *m*-NO<sub>2</sub>-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (H<sub>2</sub>L<sub>3</sub>), *n*-NO<sub>2</sub>-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (H<sub>2</sub>L<sub>4</sub>), 2-OH-5-Br-C<sub>6</sub>H<sub>3</sub> (H<sub>2</sub>L<sub>5</sub>), C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>CH<sub>2</sub> (H<sub>2</sub>L<sub>6</sub>).

### Tahlillar va natijalar

Birikma I da gidrazon fragmentining mavjudligi tautomeriya uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday tuzilishli moddalar kamida uch xil tautomer shakllarda mavjud bo'la olishi mumkin: gidrazon (A), engidrazin (B) va siklik pirazolin (C) shakllarda. Bundan tashqari, ular uchun konfiguratsion izomerlar mavjud bo'lishini ham nazarda olish lozim [8-11].



A

B

C

Olingan ligandlarning tarkibi va tuzilishi element tahlil va spektroskopik usullar bilan o'rganildi. Sintez qilingan ligandlarni eritmada o'rganish maqsadida ΔMCO-d<sub>6</sub>+CCl<sub>4</sub> dagi eritmasida YaMR <sup>1</sup>H spektrlari olindi (1-jadval). Masalan, H<sub>2</sub>L<sup>2</sup> birikmasining toza tayyorlangan

$\Delta$ MCO- $d_6$ +CCl $_4$  eritmasida olingan YaMR  $^1$ H spektri tahlil qilinganda, moddaning gidrazon tuzilishiga mos keladigan signallar to'plami kuzatildi.

Bunda erituvchi sifatida  $\Delta$ MCO- $d_6$ +CCl $_4$  ishlatilganda boshqa erituvchilarga nisbatan gidrazonning ulushi ortadi. H $_2$ L $^2$  ligandning YaMR  $^1$ H spektrida  $\delta$  2.67, 4.602 va 11.45 m.h. da metil, metilen va N-H protonlariga tegishli bir qator singlet signallar kuzatildi. Oxirgi signalning kuchsiz maydondagi holati ligandning B konfiguratsiyda ekanligini ko'rsatadi, bu erda N-H va karbonil guruhlari o'rtasida xelat vodorod bog'i bo'lishi mumkin.


Signallarning holati va ularning intensivligi gidrazon (A) tuzilishiga mos keladi. Siklopentadienil halqalari protonlarining signallari  $\delta$  4.23, 4.27 va 4.87 m.h. da qayd qilindi. Spekrda  $\delta$  7.10, 7.76 va 8.05 m.h. dagi signallar to'plami aromatik halqaning protonlariga tegishlidir. Ligand H $_2$ L $^2$  da gidrazon – 5-gidroksipirazolin muvozanatda bo'ladi. Ligandning YaMR  $^{13}$ C spektrida 5-gidroksipirazolin holatidagi C atomining signali  $\delta$  94,90 m.h. da singlet signallar ko'rinishida qayd etildi.

1-Jadval.

H $_2$ L $^1$ -H $_2$ L $^6$  ligandlarning  $\Delta$ MCO- $d_6$ +CCl $_4$  eritmasidagi YaMR  $^1$ H spektri parametrlari ( $\delta$ , m.h.)

Birikma	CH $_2$	CH $_3$	C $_6$ H $_5$	Fc
H $_2$ L $^1$	3,58;	2,05	-	4,99; 4,55; 4,18
H $_2$ L $^2$	4,602	2,67	7,10; 7,76; 8,05	4,23; 4,27; 4,87
H $_2$ L $^3$	2,12	2,83	7,45; 7,55; 7,96	4,95; 4,57; 4,31
H $_2$ L $^4$	3,30	2,58	7,35; 7,56; 8,02	4,78; 4,31; 4,10
H $_2$ L $^5$	3,56; 3,75	2,40	7,50; 7,95	4,68; 4,38; 4,22
H $_2$ L $^6$	3,02	2,12	-	4,99; 4,55; 4,26

H $_2$ L tipidagi ligandlarning absolut etanoldagi eritmalari va metall atsetatlari M(CH $_3$ COO) $_2$  ning suv-ammiakli eritmalari ekvimolyar nisbatda aralashtirib qizdirish orqali ML·NH $_3$  tarkibli kompleks birikmalar olindi. Element tahlil va spektral tadqiqotlar tahlil natijalari bizga ushbu komplekslar uchun quyidagi mononukulyar tuzilish II ni taklif qilish imkonini berdi:



M=Cu(II), Ni(II) va Zn(II)


R=CH $_3$  (ML $^1$ ·NH $_3$ ), C $_6$ H $_5$  (ML $^2$ ·NH $_3$ ), *m*-NO $_2$ -C $_6$ H $_4$  (ML $^3$ ·NH $_3$ ), *o*-NO $_2$ -C $_6$ H $_4$  (ML $^4$ ·NH $_3$ ), 2-OH-5-Br-C $_6$ H $_3$  (ML $^5$ ·NH $_3$ ), C $_6$ H $_5$ CH $_2$  (ML $^6$ ·NH $_3$ ).

H $_2$ L $^1$ -H $_2$ L $^6$  ligandlari asosida sintez qilingan nikel(II) va rux(II) kompleks birikmalarining xloroform, DMSO va DMFA kabi erituvchilarda yaxshi eruvchanligi va diamagnit xossalari ularni va YaMR  $^1$ H spektroskopiyasi yordamida o'rganish imkonini berdi. YaMR  $^1$ H



spektrlarining tahlili va ularning diamagnetizmi eritmadagi sintez qilingan komplekslarning yassi-kvadrat tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.


Shuni ta'kidlash lozimki, sintez qilingan komplekslarning YaMR  $^1\text{H}$  spektrlari mos ravishda dastlabki ligandlarning spektrlaridan katta farq qiladi. Misol tariqasida  $\text{ZnL}^3\cdot\text{NH}_3$  kompleksining YaMR  $^1\text{H}$  spektrini ko'rib chiqamiz (1-rasm).  $\delta$  2,31 m.h. kuchli maydondagi yagona singlet signal  $\text{CH}_3$ -guruhining uchta protoniga tegishlidir. Ligandning almashinmagan siklopentadienil (5H) halqasi protonlarining (5H) signallari  $\delta$  4,07-4,41 m.h. da multiplet signallar ko'rinishida qayd etildi.



**1-Rasm.**  $\text{ZnL}^3\cdot\text{NH}_3$  kompleksining  $\Delta\text{MCO-d}_6+\text{CCl}_4$  eritmasida YaMR  $^1\text{H}$  spektri.

Almashingan siklopentadienil halqasi protonlarining signallari kuchsiz maydon tomon siljigan. 4,49 (2H, *o*- $\text{C}_5\text{H}_4$ ) va 4,27 (2H, *m*- $\text{C}_5\text{H}_4$ ) m.h. da kimyoviy siljishlar kuzatilgan. Kuchsiz maydonda 7.68, 7.78 va 7.87 m.h. da umumiy intensivligi to'rt protonga tegishli multiplet signallar fenil halqasining *m*-nitrobenjidrazid fragmentiga tegishlidir.  $\text{ZnL}^3\cdot\text{NH}_3$  kompleksida kuchli elektronoaktseptor  $\text{NO}_2$ -guruhining kiritilishi, kutilganidek, spektrdagi proton signallarining kuchsiz maydon tomon siljishiga olib keladi. YaMR  $^1\text{H}$  spektrda koordinatsiyalangan ammiak molekulasining protonlariga tegishli kengaygan intensivligi past signallar esa  $\delta$  12 m.h. da qayd etildi.

YaMR  $^1\text{H}$  spektrlarning tahlil natijalari **II** tuzilishga ega olingan kompleks birikmalar yassi-kvadrat tuzilishga ega degan xulosaga kelishga imkon beradi. YaMR  $^{13}\text{C}$  spektrlarning tahlili ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi (2-rasm).  $\text{ZnL}^3\cdot\text{NH}_3$  kompleksning YaMR  $^{13}\text{C}$  spektrida  $\delta$  39,524; 68,669; 69,672; 70,195; 81,299; 96,48; 118,554; 121,859; 130,397; 193,020 m.h. da signallar qayd etilgan.



**2-Rasm.**  $\text{ZnL}^3\cdot\text{NH}_3$  kompleksining  $\Delta\text{MCO-d}_6+\text{CCl}_4$  eritmasida YaMR  $^{13}\text{C}$  spektri.

Benzol halqasida Br-, OH- kabi o'rinbosarlarni saqlovchi aroilgidrazid fragmenti protonlarining signallari  $\text{NiL}^5\cdot\text{NH}_3$  kompleksining YaMR  $^1\text{H}$  spektrida, adabiyotda ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan farqli o'laroq, biroz boshqacha namoyon bo'ladi. Nikel(II) komplekslarining  $\Delta\text{MCO-d}_6+\text{CCl}_4$  dagi eritmalarida olingan YaMR  $^1\text{H}$  spektrlarining parametrlari 2-jadvalda keltirilgan.  $\text{NiL}^5\cdot\text{NH}_3$  kompleksidagi terminal guruhlar protonlarining

signallari  $NiL^2 \cdot NH_3$  kompleksidagi proton signallari bilan solishtirganda, kuchli maydon tomon siljigan, bu esa benzol halqasiga elektronodonor guruhlarni kiritilishi bilan izohlanadi.

Umumiy intensivligi 5 ta protonga tegishli  $\delta$  7,22 va 7,64 m.h. da qayd etilgan multiplet signallar fenil halqasi gidrazid qoldig'i protonlariga tegishlidir. Olingan nikel(II) kompleks birikmalari turli erituvchilar eritmalarida diamagnet xossani namoyon qiladi. YaMR  $^1H$  spektr tahlillari va diamagnetizmni o'rganish natijalari II tuzilishga ega nikel(II) kompleks birikmalari tekis-kvadrat tuzilishga ega degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Namuna sifatida  $NiL^2 \cdot NH_3$  kompleks birikmasining YaMR  $^1H$  spektrini ko'rib chiqamiz.  $NiL^2 \cdot NH_3$  kompleks birikmasining DMSO- $d_6$ + $CCl_4$  eritmasidagi YaMR  $^1H$  spektrida markazlari  $\delta$  7.31, 8.064 va 8.068 m.h. da aromatik yadro protonlariga tegishli multiplet signallar kuzatildi. Signallarning ko'rinishi ularning bir-birini qoplashi tufayli biroz murakkab bo'ladi. Koordinatsiyalangan ammiak molekulasini protonlarining signallari  $\delta$  10,2 m.h. da qayd etilgan va biroz pastroq integral intensivlikka ega.

Bizning fikrimizcha, bu ammiak molekulasining kuchli elektronodonor erituvchi molekulasini bilan qisman almashtirilishi bilan izohlanadi.  $NiL^4 \cdot NH_3$  kompleksining YaMR  $^1H$  spektri  $NiL^2 \cdot NH_3$  spektridan biroz farq qiladi. Molekula vinil qismi protonlaridan kelgan signallar  $\delta$  5.52 m.h. da qayd qilingan. Aromatik o'rinbosar protonlarning signallari molekulaning benzol halqasida bromning mavjudligi sababli murakkabroq ko'rinishga ega bo'lib,  $\delta$  7,87; 8,41; 8,75; 8,85 m.h. da signal beradi.

Koordinatsiyalangan ammiak molekulasining protonlari  $\delta$  10 m.h. da intensivligi past signal bergan. Vinil protonlari signallarining bir oz kuchli maydon tomon siljishi nikel(II) d-elektronlari va besh- hamda olti-a'zoli metallosikllar konyugatsiyalangan tizimining  $\pi$ -orbitallari o'rtasida d- $\pi$ -tipidagi dativ bog'lanishlarning paydo bo'lishi bilan izohlash mumkin.

2-Jadval.

II tuzilishli nikel(II) komplekslarining  $\Delta MCO-d_6+CCl_4$  eritmasida  $^1H$  YaMR spektr parametrlari ( $\delta$ , m.h.)

Birikma	-CH=	CH <sub>3</sub> -C=N	C <sub>6</sub> H <sub>5</sub>	Fc
$NiL^2 \cdot NH_3$	5,18	2,27	7,31; 8,064; 8,068	4,04; 4,45; 4,87
$NiL^3 \cdot NH_3$	5,48	2,51	7,12; 7,32; 7,64	4,12; 4,41; 4,69
$NiL^4 \cdot NH_3$	5,52	1,90	7,87; 8,41; 8,75; 8,85	4,20; 4,41; 4,57

### Xulosalar

Shunday qilib, YaMR  $^1H$  va  $^{13}C$  spektroskopik tadqiqotlari natijasida erituvchi sifatida DMSO- $d_6$ + $CCl_4$  qo'llanilganda ligandlar asosan gidrazon shaklda mavjud bo'lishi aniqlandi. Kompleks hosil bo'lish jarayonida ikki marta deprotonlangan ligand qoldig'i besh va olti a'zoli metallotsikllarni hosil qilish uchun yassi-kvadrat shaklida tridentat koordinatsiyalanadi. Nikel(II) va rux(II) komplekslari uchun benzgidrazid fragmentining aromatik halqasidagi o'rinbosarlar tabiatining komplekslar elektron tuzilishiga ta'siri YaMR  $^1H$  va  $^{13}C$  spektroskopiyasi bilan aniqlandi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Togni A., Hayashi T. (Eds.), Ferrocenes: Homogenous Catalysts, Organic Synthesis, Material Science, VCH. - Weinheim. - 1995. - 540 p.
2. Cullen W.R., Woollins J.D. Ferrocene-containing metal complexes// Coord. Chem. Rev. – 1981. – Vol. 39. – P. 1-30.
3. Colacot T.J. A Concise Update on the Applications of Chiral-Ferrocenyl Phosphines in Homogeneous Catalysis Leading to Organic Synthesis // Chem. Rev. . – 2003. –Vol. 103. – P. 3101-3118.
4. Умаров Б.Б., Сулаймонова З.А., Тиллаева Д.М. Синтез лигандов на основе производных ферроцена с гидразидами моно- и дикарбоновых кислот // Universum: Химия и биология. Россия, –2020. № 3(69). –С. 19-22 URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/8966>
5. Сулаймонова З.А., Умаров Б.Б. Получение *мета*-нитробен-зоилгидразона ферроценоилацетона и синтеза на его основе // Химическая технология. Контроль и управление. - 2021. - №4(100). - С. 5-11.
6. Умаров Б.Б., Сулаймонова З.А., Ачылова М.К. Синтез комплексов на основе монокарбонильных производных ферроцена с гидразидами карбоновых кислот // Universum: Химия и биология. Россия, - 2021. - №1(79). - С. 85-89 URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/11144>
7. Sulaymonova Z.A., Umarov B.B., Choriyeva S.A., Navruzova M.B. Synthesis of Complexes Based On Monocarbonyl Ferrocene Derivatives with Carbonic Acid Hydrases // International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR). - 2021. - Vol. 5. - С. 134-137.
8. Сулаймонова З.А., Наврузова М.Б., Чориева С.А. Термическое исследование производных ферроцена // SCIENTIFIC COLLECTION «INTERCONF». - 2021. - №45. - С. 473-478.
9. Sulaymonova Z.A., Umarov B.B., Choriyeva S.A., Navruzova M.B. Synthesis of Complexes Based On Monocarbonyl Ferrocene Derivatives with Carbonic Acid Hydrases // International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR). - 2021. - Vol. 5. - С. 134-137.
10. Казицына А.А., Куплетская Н.Б. Применение УФ-, ИК- и ЯМР-спектроскопии в органической химии. М.: Книга по Требованию. –2013. – 264 с.
11. Умаров Б.Б., Сулаймонова З.А. Синтез комплексов переходных металлов на основе моноацетилферроцена // ЎзФА академиги, к.ф.д., проф. Парпиев Н.А. таваллудининг 90 йиллик хотирасига бағишланган “Комплекс бирикмалар кимёсининг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Ташкент 2021, 14-15 сентябрь. - С. 56.



## IKIK VA IKTK KORROZIYA INGIBITORLARINING KISLOTALI MUHITDA METALLARNI KORROZIYADAN HIMOYALASH MEXANIZMI

Rayimov Zuhridin Xayriddin o'gli

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti doktoranti,

Buxoro, O'zbekiston,

G-mail: [zuhridinrayimov0@gmail.com](mailto:zuhridinrayimov0@gmail.com)

Haydarov Axtam Amonovich

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti dotsenti,

Buxoro, O'zbekiston,

E-mail: [axtam-xaydarov@mail.ru](mailto:axtam-xaydarov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda korroziyaga qarshi ingibitorlarni yaratishga bo'lgan ehtiyoj sanoat miqyosida ortmoqda. Shuning uchun metallarni korroziyadan himoyalovchi yangi ingibitorlar ishlab chiqarish kimyo va neft-gaz sanoatida muhim ahamiyatga ega. Maqolada IKIK va IKTK korroziya ingibitorlarining 1 M li xlorid kislotali muhitda 09G2S markali po'latni korroziyadan himoyalash mexanizmini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** korroziya, korroziyalanish tezligi, himoyalash samaradorligi, ingibitor, po'lat, adsorbsiya, elektron zichlik

## THE MECHANISM OF CORROSION PROTECTION OF METALS IN AN ACID ENVIRONMENT OF IKIK AND IKTK CORROSION INHIBITORS

Rayimov Zukhriddin Khayriddin ugli

Doctorant of the Bukhara Institute of Engineering and Technology,

Bukhara, Uzbekistan,

G-mail: [zuhridinrayimov0@gmail.com](mailto:zuhridinrayimov0@gmail.com)

Haydarov Axtam Amonovich

Docent of the Bukhara Institute of Engineering and Technology,

Bukhara, Uzbekistan,

E-mail: [axtam-xaydarov@mail.ru](mailto:axtam-xaydarov@mail.ru)

**Annotation:** Today, the need to create corrosion inhibitors is increasing on an industrial scale. Therefore, the production of new inhibitors that protect metals from corrosion is important in the chemical and oil and gas industries. The article presents the results of a study of the corrosion protection mechanism of 09G2S steel in a 1 M hydrochloric acid medium of corrosion inhibitors IKIK and IKTK.

**Keywords:** corrosion, corrosion rate, protection efficiency, inhibitor, steel, adsorption, electron density

## МЕХАНИЗМ ЗАЩИТЫ МЕТАЛЛОВ ОТ КОРРОЗИИ В КИСЛОЙ СРЕДЕ ИНГИБИТОРОВ КОРРОЗИИ ИКИК И ИКТК

Райимов Зухриддин Хайриддин угли  
Докторант, Бухарского инженерно-технологического института,  
г. Бухара, Узбекистан

G-mail: [zuhridinrayimov0@gmail.com](mailto:zuhridinrayimov0@gmail.com)

Хайдаров Ахтам Амонович  
Доцент, Бухарского инженерно-технологического института,  
г. Бухара, Узбекистан

E-mail: [axtam-xaydarov@mail.ru](mailto:axtam-xaydarov@mail.ru)

**Аннотация:** Сегодня потребность в создании ингибиторов коррозии возрастает в промышленных масштабах. Поэтому производство новых ингибиторов, защищающих металлы от коррозии, актуально в химической и нефтегазовой промышленности. В статье представлены результаты исследования механизма защиты от коррозии стали 09Г2С в 1 М солянокислой среде ингибиторов коррозии ИКИК и ИКТК.

**Ключевые слова:** коррозия, скорость коррозии, эффективность защиты, ингибитор, сталь, адсорбция, электронная плотность

Bugunga kelib xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini, jumladan, neft va gaz sanoati hamda kimyo sanoatini metallardan yasalgan uskunalarsiz tasavvur etish mushkul. Sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan uskunalarining tashqi va ichki muhit bilan doimiy ravishda ta'sirlashuvda bo'ladi hamda buning natijasida metall uskunalari o'zining boshlang'ich xususiyatlarini yo'qotadi. Bu esa o'z navbatida tashqi va ichki muhit bilan aloqa qilishi natijasida ekspluatatsiya qilinayotgan metallarning oksidlari va gidroksidlari hosil bo'lishiga sabab bo'ladi hamda metallardan yasalgan uskunalarining yemirilishi kuzatiladi.

Gazni qayta ishlash zavodlarida kimyoviy va elektrokimyoviy korroziya eng ko'p tarqalgan korroziya turlaridan biri hisoblanadi. Uglevodorod gazlarini nordon komponentlardan tozalashda yuzaga keladigan asosiy muammo – bu issiqlik almashinish qurilmalarining ichki korroziyasi hisoblanib, u asosanturli agressiv muhitlar ta'sirida korrozion yoriqlar ko'rinishda namoyon bo'ladi. Jahon sanoati jadal sur'atda rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning turli sohalarida metallar korroziyasidan himoyalani uchun, ingibirlovchi sistemalarni yaratish amaliy hamda nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O'zida azot va kislorod saqlagan organik moddalarning hosilalari metallarni kislotali muhitdagi korroziyadan himoyalashda yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Bu moddalardan sanoatning turli sohalarida qo'llash uchun asosiy arzon korroziya ingibitori sifatida foydalanish mumkin. Ushbu mahsulotlarni keng ko'lamda olish uchun aromatik dikarbon kislotalar va ularning angidridlarini ishlab chiqarish texnologiyalaridan yuqori darajada maqsadli foydalanish lozim. Ularni ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyo toshko'mir asosida olinadigan aromatik moddalar (naftalin, ortiksilol va boshq.) bo'lib hisoblanadi. Biz toshko'mir smolasi tarkibida uchraydigan ksilol, naftalin asosida olinadigan ftal kislota va ftal angidrid kabi moddalarning murakkab efirlarini vinilatsetilen yordamida olib, ulardan metallarni issiqlik almashinish qurilmalarini ichki yuzasini korroziyadan himoyalashda samarali ingibitorlar sifatida foydalanish juda muhim va eng arzon usullardan biri deb o'ylaymiz.

Olib borgan ilmiy tadqiqotlarimizda toshko'mir smolasining fraksiyalaridan olingan ftalangidrid va izoftal kislotalari asosidagi korroziya ingibitorining metallarni kislotali korroziyadan himoyalashdagi ingibitorlik samaradorligi 1 M li xlorid kislotada gravimetrik usulda 70°C va 100°C harorat oraliqlarida tadqiq qilindi. Tadqiqotlar 4.2-jadvalda ko'rsatilgan turli o'lchamli plastinka ko'rinishidagi po'lat 09G2C namunasida olib borildi. Tadqiqot davomiyligi 24 soat. Tadqiqotlar ingibitor sifatida tanlangan moddalarning 200 va 500 mg/l oraliqdagi miqdorlardagieritmalarida olib borildi. Olingan natijalar 1-jadvalda o'z aksini topgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 70°Cda ingibitorsiz muhitda korroziya tezligi 1,687 mg/sm<sup>2</sup>·s ga teng bo'lib, IKIK ingibitor miqdori 450mg/l bo'lganda himoyalalanish darajasi 91,5%, IKTK ingibitorida esa shuncha miqdorda 91,1% ga teng bo'ldi. 100°Cda ingibitorsiz muhitda korroziya tezligi 3,725 mg/sm<sup>2</sup>·s ga teng bo'ldi. IKIK ingibitor miqdori 450mg/l bo'lganda himoyalalanish darajasi 87,8%, IKTK ingibitorida esa bu qiymat 86,3% ga teng bo'ldi. Harorat ortishi bilan korroziya tezligini yuqori qiymatga ega bo'lishi va himoyalalanish darajasini pasayib borishi aniqlandi. Bunga sabab yuqori haroratda metallar yuzasining muhit bilan ta'sirlashish tezligi ortib, ingibitorlarning sirt yuzasidagi metall ionlari bilan koordinatsion bog' hosil qilish imkoniyati pasayadi.

1-jadval


**IKIK va IKTK ingibitorlarining 70°C va 100°C haroratda, 24 soat davomida 09G2C markali po'lat namunasini 1 M li HCl eritmasida himoyalash samaradorligi**

Harorat, °C	Ingibitor konsentratsiyasi, mg/l	IKIK		IKTK	
		K <sub>t</sub> , (mg·sm <sup>-2</sup> ·s <sup>-1</sup> )	Himoyalalanish darajasi, Z%	K <sub>t</sub> , (mg·sm <sup>-2</sup> ·s <sup>-1</sup> )	Himoyalalanish darajasi, Z%
70	0	1,687	-	1,687	-
	200	0,678	59,8	0,690	59,1
	250	0,634	62,4	0,642	61,9
	300	0,445	73,6	0,452	73,2
	350	0,295	82,5	0,301	82,1
	400	0,192	88,6	0,206	87,8
	450	0,143	91,5	0,150	91,1
	500	0,140	91,7	0,147	91,3
80	0	2,186	-	2,186	-
	200	0,935	57,2	0,944	56,8
	250	0,835	61,8	0,890	59,3
	300	0,603	72,4	0,618	71,7
	350	0,410	81,2	0,420	80,8
	400	0,267	87,8	0,292	86,6
	450	0,201	90,8	0,230	89,5
	500	0,197	91,0	0,216	90,1
90	0	3,221	-	3,221	-
	200	1,391	56,8	1,433	55,5
	250	1,269	60,6	1,130	58,7
	300	0,914	71,6	0,956	70,3
	350	0,618	80,8	0,695	78,4
	400	0,434	86,5	0,496	84,6
	450	0,351	89,1	0,393	87,8

	500	0,328	89,8	0,386	88,0
100	0	3,725	-	3,725	-
	200	1,650	55,7	1,698	54,4
	250	1,508	59,5	1,620	56,5
	300	1,110	70,2	1,170	68,6
	350	0,760	79,6	0,886	76,2
	400	0,529	85,8	0,652	82,5
	450	0,461	87,8	0,510	86,3
	500	0,447	88,0	0,495	86,7

Ingibitorlarni (IKIK,IKTK) korroziyadan himoyalash samaradorligining yuqori bo'lishiga sabab, ular tarkibidagi taqsimlanmagan elektron juftga ega bo'lgan azot va kislorod atomlarining metall ionlari bilan koordinatsion bog' hosil qilishi orqali tushuntiriladi.


Sintez qilingan IKIK va IKTK korroziya ingibitorlarining samaradorligi GOST 9.905-82 asosida 24 soat davomida aniqlandi. IKIK va IKTK ingibitorlarining 1 M li HCl eritmasida korroziyadan himoyalash samaradorligining haroratga munosabati 1-grafikda keltirilgan.




### 1-grafik. IKIK va IKTK ingibitorlarining 1 M li HCl eritmasida 09Г2С markali po'lat namunasini korroziyadan himoyalash samaradorligining haroratga bog'liqligi

Yuqoridagi 1-grafikda IKIK va IKTK korroziya ingibitorlarining 1 M li xlorid kislota eritmasida korroziya jarayonini ingibirlash darajasi 60°C haroratda mos ravishda 92,1% va 91,8% ni hamda 100°C haroratda esa 87,8% va 86,3%ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

IKIK va IKTK korroziya ingibitorlarining 1 M li xlorid kislota eritmasida himoyalash samaradorligining konsentratsiyaga bog'liqligi mos ravishda 2-grafik hamda 3-grafik da keltirilgan.



2-grafik. IKIK korroziya ingibitorining 1 M li HCl eritmasida 09Г2С markali po'lat namunasini korroziyadan himoyalash samaradorligining konsentratsiyaga munosabati



3-grafik. IKTК korroziya ingibitorining 1 M li HCl eritmasida 09Г2С markali po'lat namunasini korroziyadan himoyalash samaradorligining konsentratsiyaga munosabati

Jadvallardan ko'rinib turibdiki IKIK va IKTК ingibitorlarining konsentratsiyalari ortishi bilan, ularning himoyalaniş darajasi ortib bordi. Ingibitorlarning konsentratsiyasi 450 mg/l dan yuqori bo'lganda himoyalaniş darajasi sezilarli o'zgarishli kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, 09Г2С markali po'lat namunalari yuzasida IKIK va IKTК korroziya ingibitorlarining konsentratsiyasi oshgani sayin ingibitor adsorbsiyasi jadallashdi. Yuqori konsentratsiyalarda himoyalaniş darajasining stabil holatda turishi, po'lat namuna yuzasining ingibitor zarrachalari hisobiga to'yinishi bilan tushuntiriladi.





### Adabiyotlar

- 1.Ахмедов, Вохид Низомович, Бобир Баходир Угли Олимов, and Шомурод Комилович Назаров. "Электронная структура и квантово-химические расчёты виниловых эфиров фенолов." *Universum: химия и биология* 4 (70) (2020)
- 2.Жумаев Ж.Х., Ахмедов В., Шарипова Н.У. ВЛИЯНИЕ ПРИРОДЫ И КОЛИЧЕСТВА КАТАЛИЗАТОРА ПРИ СИНТЕЗЕ МОРФОЛИНОВЫХ НЕНАСЫЩЕННЫХ ПРОДУКТОВ ПРИ УЧАСТИИ ВИНИЛАЦЕТИЛЕНА // Москва. – 2021. – С. 58-61..
- 3.Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). PRODUCTION OF POLYETHYLENE TEREPHTHALATE. *Universum: технические науки*, (5-11 (98)), 58-62.
- 4.Садирова, С. Н., Темирова, М. И., & Алиева, Н. И. (2020). Исследование проквашенности каракуля с применением вторичных продуктов молочного производства. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 1(1), 39-44.
- 5.O'G'Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). ANALYSIS OF IMPORTANCE AND METHODS OF PRODUCTION OF BLOCK SOPOLYMERS BASED ON POLYETYLENTEREPHTALATE. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 3(1), 51-55.
- 6.Рахматов М.С. Влияние катализатора, температуры и растворителя на синтез и выход продукта реакции с виниловым эфиром салициловой кислоты в присутствии винилацетилена // *Universum: химия и биология*. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 16-20
- 7.Ниёзова, Раъно Нажмиддиновна. "Экологические и эксплуатационные свойства жированных кож на основе синтетических жирных кислот." *Science and Education* 2.12 (2021): 347-352.
- 8.Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). MECHANISMS OF ETHERIFICATION OF TEREPHTHALIC ACID WITH ETYLENGLYCOL. *Universum: технические науки*, (5-11 (98)), 63-67.
- 9.V.N.Axmedov, Z.X.Rayimov, G.A.G'afurova. Tereftal kislota hosilalari. ISBN 978-9943-9265-3-0 Monografiya "Durdona" nashriyoti. 2023. 152 bet.

## ОQAVA SUVLARNI BIOLOGIK TOZALASHDA PVC ASOSIDA OLINGAN MIS-POLIMER KOMPLEKSINING QO'LLANILISHI

<sup>1</sup>Inxonova Arofat, <sup>2</sup>Eshtursunov Davron <sup>3</sup>Fayzullayev Yusuf,

<sup>4</sup>Bekchanov Davron Jumazarovich, <sup>5</sup>Muhamediyev Muxtarjon Ganiyevich.

<sup>1,2,3</sup> O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti Polimerlar kimyosi kafedrası, tayanch doktoranti (PhD).

<sup>4,5</sup> O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti Polimerlar kimyosi kafedrası, k.f.d., professori.

<sup>1</sup>E-mail adress: [ainxonova@gmail.com](mailto:ainxonova@gmail.com) (88)-330-33-77

*Аннотация* Ushbu tadqiqot ishida anion almashinuvchi material (PVC&PEI) asosida Cu-polimer kompleksining sintezi va uning oqava suvlar tarkibida mavjud bo'lgan patogen mikroorganizmlarga qarshi antibakterial faolligini o'rganilgan. Cu-Polymer kompleksi sun'iy tayyorlangan eritmadagi mis ionlarini anion almashinadigan materialga sorbsiya qilish orqali sintez qilindi.

Cu-Polymer kompleksining strukturaviy morfologiyasini o'rganish uchun SEM va EDS analizlari o'rganildi.. Polimer-Cu kompleksining gram-manfiy E. coli va gramm-musbat S.aureus bakteriya shtammlariga qarshi faolligi o'rganildi. PVC&PEI-Cu<sup>+2</sup> va PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> antibakterial faollik namoyon qildi.

**Калит so'zlar:** anionit, adsorbsiya, polimer-metall kompleks, antibakterial faollik, E. coli, S. aureus.

## ДЛЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ПРИМЕНЯЕТСЯ МЕДНО-ПОЛИМЕРНЫЙ КОМПЛЕКС, ПОЛУЧЕННЫЙ НА ОСНОВЕ ПОЛИВИНИЛХЛОРИДА (ПВХ)

<sup>1</sup>Инхонова Арофат, <sup>2</sup>Эштурсунов Даврон, <sup>3</sup>Файзуллаев Юсуф,

<sup>4</sup>Бекчанов Даврон Жумазаарович, <sup>5</sup>Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич.

<sup>1,2,3</sup> PhD докторант, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улутбека.

<sup>4,5</sup> д-р хим. наук, доцент, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улутбека.

<sup>1</sup>E-mail adress: [ainxonova@gmail.com](mailto:ainxonova@gmail.com) (88)-330-33-77

**Аннотация.** Целью данной научно-исследовательской работы по синтезу медно-полимерного комплекса, полученного на основе анионообменного материала (PVC&PEI), является изучение его антибактериальной активности в отношении патогенных микроорганизмов, присутствующих в сточных водах. Комплекс Си-полимер синтезирован путем сорбции ионов меди из искусственно приготовленного раствора на анионообменный материал. Различные методы определения характеристик, такие как SEM и EDS, используются для изучения структурной морфологии комплекса Си-полимер. Изучена активность комплекса полимер-Си в отношении грамотрицательных штаммов E.coli и грамположительных бактерий S.aureus PVC&PEI-Cu<sup>+2</sup> и PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> проявили антибактериальную активность.

**Ключевые слова:** анионит, адсорбция, полимер-металлический комплекс, антибактериальная активность, E. coli, S. aureus.

## FOR BIOLOGICAL WASTEWATER TREATMENT, A COPPER-POLYMER COMPLEX BASED ON POLYVINYL CHLORIDE (PVC) IS USED

<sup>1</sup>Inkhonova Arofat, <sup>2</sup>Eshtursunov Davron, <sup>3</sup>Fayzullayev Yusuf,

<sup>4</sup>Davronbek Bekchanov, <sup>5</sup>Mukhtarzhan Mukhamediev

<sup>1,2,3</sup> PhD doctoral student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

<sup>4,5</sup> Dr. chem. Sci., Associate Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

<sup>1</sup>E-mail adress: [ainxonova@gmail.com](mailto:ainxonova@gmail.com) (88)-330-33-77

**Abstract.** *Through this research work, the synthesis of Cu-polymer complex obtained on the basis of anion exchange material (PVC&PEI) is to study its antibacterial activity against pathogenic microorganisms present in wastewater. The Cu-Polymer complex was synthesized by sorption of copper ions from an artificially prepared solution onto an anion exchange material. Various characterization methods such as SEM and EDS are used to study the structural morphology of the Cu-Polymer complex. The activity of the polymer-Cu complex against gram-negative E. coli and gram-positive S.aureus bacterial strains was studied. PVC&PEI-Cu<sup>+2</sup> and PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> showed antibacterial activity.*

**Keywords:** *anionite, adsorption, polymer-metal complex, antibacterial activity, E. coli, S. aureus.*

### Kirish

So'nggi paytlarda polimer-metall komplekslari (PMC) turli sohalarda[1], jumladan, materialshunoslik[2], biotexnologiya[3], atrof-muhitni o'rganish[4], tibbiyot[5], dorixonalar, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan materiallar sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Foydalanishning bunday o'sishi bakterial patogenlarning hozirgi vaqtda turli xil bakterial kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan ko'plab antibiotiklarga qarshi chidamliligining kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[6]. Binobarin, sog'liqni saqlash sohasida turli PMClarning antibakterial faolligi va ularning turli kasalliklarga qarshi kurashishdagi potentsial ahamiyati bo'yicha tadqiqotlarga talab ortib bormoqda.

Polimer-Au, Polymer-Ag, Polymer-Cu, Polymer-Ti va Polymer-Pt komplekslari kabi ko'plab polimer-metall komplekslari ularning antibakterial, sitotoksik va terapevtik qo'llanilishi uchun keng qamrovli o'rganilgan[7].

Polimer-metall nanozarrachalar sintezida polimer stabilizatorlari sifatida polivinilprolidon, polietilen glikol, polianilin, poliakrilamid, polivinilxlorid, xitozan, kraxmal, tsellyuloza va boshqalar ishlatiladi. Ag, Au, Zn, Cu ning metall nanozarralari bakteriya va zamburug'lar kabi biologik ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash uchun keng qo'llaniladi[8]. Nano o'lchamdagi Cu nanozarralari yuqori reaktivligi tufayli kimyoviy va biologik tozalashda yuqori sifatga ega. Mis (Cu) va kumush (Ag) nanozarrachalarini o'z ichiga olgan poliuretanlarning gramm-musbat va gramm-manfiy bakteriyalarga, shuningdek xamirturushga o'xshash zamburug'larga qarshi bakteritsid xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi[9]. Ushbu nanozarrachalarning mikroblarga qarshi faolligi ularning oqsil oksidlanishini qo'zg'atish, DNK va RNK molekulalarini parchalash va lipid peroksidatsiyasini boshlash qobiliyatiga bog'liq. Bundan tashqari, bu nanozarralar mikroblar hujayra membranasiga zarar etkazishi mumkin. Kumush (Ag), simob (Hg), mis (Cu) va qo'rg'oshin (Pb) kabi metallar sitotoksiklikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu metallar mikroorganizmlar bilan aloqa qilganda, ular organizmlarning biologik funksiyalariga xalaqit berishi mumkin [10].

Hai-feng Chenning ishida uglerod bilan qoplangan mis nanozarrachalari (Cu-NPs@C) eritmadagi mis xlorid va glyukoza aralashmasi orqali karbonlashtirish yo'li bilan sintez qilingan [11]. Olingan namunaning mikro tuzilishi o'rganilib, mis kukuniga nisbatan *E. coli*, *S. aureus* va *Pseudomonas* shtammlariga nisbatan ancha yuqori antibakterial faollikni ko'rsatdi. Mis nanozarralari g'ovakli grafitli uglerod qatlami ichida samarali tarzda tarqaldi. Ushbu tadqiqot *E. coli* patogen bakterial shtammiga qarshi mis nanozarralarining antagonistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. 12 nm o'lchamdagi nol valentli mis nanozarrachalari (Cu<sup>0</sup>) inert gaz kondensatsiyasi usuli yordamida sintez qilindi [12]. Bu argon atmosferasida mis metallining bug'lanishini, so'ngra nanozarrachalarning sovushini o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada biz yangi Polimer-Cu kompleksining antibakterial faolligini sintezi va baholashini taqdim etamiz. Kompleks polivinilxlorid va polietilenimin anion almashinuvi (PVX va PEI) materialida mis ionlarining sorbsiyasi orqali sintez qilindi. Polymer-Cu kompleksining tuzilishi va sirt morfologiyasini tavsiflash uchun skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) tasvirlari olindi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, sintezlangan Polimer-Cu kompleksi gramm-manfiy *E. coli* va gramm-musbat *S. aureus* bakteriyalari shtammlariga qarshi kuchli antibakterial xususiyatlarni namoyish etdi. Ushbu topilmalar bakterial infeksiyalarga qarshi kurashda ushbu yangi kompleksning istiqbolli salohiyatini ta'kidlaydi.

## **2. MATERIALLAR VA USULLAR**

### **2.1 Materiallar va kimyoviy moddalar**

Ushbu tadqiqot ishida ishlatilgan kimyoviy moddalar quyidagilar: Anion almashinuvchi material (IAM) polivinilxloridni (PVC) poletelinimin (PEI) bilan modifikatsiyasi asosida sintez qilindi, mis (II) xlorid tuzi (CuCl<sub>2</sub> \* 2H<sub>2</sub>O) (Zibo Rongzhi Chemical Corporation, Xitoy), etanol (C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH) (Xilong Scientific), etil asetat (C<sub>4</sub>H<sub>8</sub>O<sub>2</sub>), natriy gidroksid (NaOH), xlorid kislotasi (HCl), bakterial patogenlar gramm-musbat *Staphylococcus aureus* (*S.aureus*), gramm-manfiy ichak tayoqchasi (*E. coli*), *p.aeruginosa* va Miller-Hinton agar (TM) Media, Hindiston.) ishlatilgan. Ushbu tadqiqot ishida ishlatilgan boshqa kimyoviy moddalar analitik jihatdan toza edi. 200 ml tubi yassi kolbalar, 100 ml o'lchov stakanlari, petri chashkalaridan foydalanildi.

### **2.2. IAM va Cu-PMC ning sintezi**

Adabiyotlarga keltirilgan usullar yordamida IAM sintez qilindi. Anion almasinuvchi smolaga Cu (II) ionlari sorbsiya qilinib Cu-polimer kompleksi olindi [13-15]. Mis polimer kompleksini 3 MPa bosim ostida, 573 K da haroratda qizdirib polimer kompleksdagi Cu<sup>+2</sup> metal ionlarini Cu<sup>0</sup> qaytarib Cu<sup>0</sup>-PMC sintez qildik.

### **2.3. Antibakterial faollik**


Ion almashinuvchi smola asosida sintez qilingan polimer-metall kompleksining antibakterial faolligi in vitro sharoitda gram-manfiy *E.coli* va gramm-musbat *S.aureus* bakteriya shtammlarida diskli diffuziya usuli yordamida o'rganildi. Patogen mikroorganizmlar dastlab peptonli bulon muhitida 24 soat davomida 37°C haroratda inkubatsiya qilindi. Patogen va shartli patogen mikroorganizmlarning suspenziyalari Petri chashkachalarning gorizontaal yuzasiga Miller-Hinton agar ozuqa muhitida (TM Media, Hindiston) sterillangan tayoqchalari yordamida bir xilda ekildi. Patogen va shartli patogen bakteriya shtammlari o'stirilgan petri chashkachalari biroz quritildi va analitik tarozida 0,01 g dan o'lchab olingan mis polimer kompleks namunalari agarli oziq muhitiga joylashtirildi. Namunalar oziq muhitidagi faol moddalarga so'rilishi uchun 2 soat davomida muzlatgichda 4°C haroratda saqlandi, keyin esa bakteriyalar termostatda 36°C

da 16-18 soat davomida inkubatsiya qilindi. Sinovdan o'tgan na'munalarning mikroblarga qarshi faolligi sinov shtamplarining o'sish indeksini kamaygan yoki to'liq to'xtatilgan zonalar hajmiga qarab baholandi. Har bir tajriba uch marta o'tkazildi va o'rtacha qiymatlari olindi.

### 3. NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

#### 3.1. Polimer materiallarning elektron mikroskop tasvirlari

PVC&PEI -Cu<sup>0</sup> ning tashqi tuzilishi morfologiyasini tahlil qilish uchun skanerlash elektron mikroskop yordamida kompleks mikrofotosuratlar olindi. Olingan mikrofotosuratlar 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm PVX (A), PVC&PEI (B), polimer-Cu kompleksining (C) SEM tasviri, sirt polimer-Cu kompleksi (D) va EDS (E) spektridagi elementlarning tarqalish xaritasi**


Polimer yuzasida elementlarning tarqalish xaritasida Cu metall anion almashtirgichdagi azot atomlari kabi taqsimlanadi, bu esa misni koordinatsion aloqa (d) hosil qilib, azot atomlari bilan bog'langan degan xulosaga kelishimizga yordam beradi. Energiya dispersiv spektrometrik tahlil va elementlarning massa ulushidan ma'lum bo'lishicha, metall zarralari olingan material yuzasida ham atom, ham ion holatlarida (tuz shaklida) mavjud. Natijada sintez jarayonida PVC&PEI -Cu<sup>0</sup> kompleksi olindi.

#### 3.2.1 Antimikrobial testlar

Kirby Bauer yondashuvidan foydalangan holda Polymer-Cu kompleksining antibakterial xususiyatlarini aniqlash uchun disk diffuziya testi o'tkazildi. Tekshiruv uchun gram-manfiy E.coli va gramm-musbat S.aureus patogen bakteriyalarining ikki xil shtamlari olindi. Namunalarni inkubatsiya qilishdan 24 soat o'tgach, antimikrobiyal disk atrofidagi inhibitsion zonasi o'lchandi. Taqqoslash uchun nazorat na'munalari (PVC&PEI, polimer-Cu kompleksi) tekshirildi.



PVC &PEI, PVC&PEI -Cu<sup>0</sup> kompleksi va PVC&PEI -Cu<sup>+2</sup> kompleksining gram-manfiy E.coli va gramm-musbat S.aureus bakteriya shtammlariga qarshi mikroblarga qarshi faolligi 5-rasmda keltirilgan. PVC&PEI -Cu<sup>0</sup> kompleksi. Polimer-metall kompleks atrofida antibakterial

zona mavjud, E. coli uchun  $26,5 \pm 0,5$  mm va S. aureus uchun  $15,6 \pm 0,5$  mm, PVC&PEI -Cu<sup>+2</sup> kompleksida esa E. coli uchun  $20 \pm 0,5$  mm va S. aureus uchun  $4,5 \pm 0,5$  mm, antibakterial zonaga ega edi. Diametri patogen bakterial shtammlarga qarshi va 50 va 100 mg /g PVC&PEI -Cu<sup>+2</sup> S. aureus bakteriya shtampiga nisbatan antibakterial zona hosil qilmadi. PVV&PEI aninoniti har ikkala bakteriya turira nisbatan hech qanday antibakterail zona hosil qilmadi. Olingan namunalarning patogen mikroorganizmlarga qarshi



faolligi va zonaning diametri (mm)2- 3-raslarda tasvirlangan.

**2-rasm Mis-polimer kompleksining a) E. coli va b) S. aureus bakteriya shtammiga nisbatan antibakterial faollik (disk diffuziyasi bilan baholangan)**



### **3-rasm. Antibakterial zona diametrining polimer metal kompleksdagi Cu konsentratsiyasiga bog'liqligi.**

Olingan na'munalarning patogen mikroorganizmlarga qarshi faolligi va zonaning diametri (mm) 2-rasmda tasvirlangan. Antibakterial zonaning diametri polimer-metall kompleksida mis konsentratsiyasining ortishi bilan ortadi. Mis konsentratsiyasi 200 mg/g bo'lgan PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> kompleksi E. coli da S. aureus bakteriyasi shtammiga nisbatan yuqori antibakterial samaradorlikni berdi.

#### **Xulosa**

Mis ionlari polivinilxlorid va polietilenimin asosidagi PVC&PEI anion almashtirgichga adsorbsiya qilindi va kimyoviy qaytarilish usuli bilan PVC&PEI -Cu<sup>0</sup> kompleksi olindi. Olingan PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> kompleksining sirt morfologiyasini va elementlar tahlili o'rganishda SEM va EDS kabi zamonaviy usullar qo'llanildi. Sinov na'munalari patogen va shartli patogen mikroorganizmlar bo'lgan gram-manfiy E.coli va gramm-musbat S.aureusga qarshi yuqori antibakterial faollikni ko'rsatdi. PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> kompleksining mikroblarga qarshi antimicrobial zona diametri PVC&PEI-Cu<sup>+2</sup> kompleksinikidan kattaroqdir, bu polimer yuzasiga sorbsiya bo'lgan mis metalining konsentratsiyasiga hamda kimyoviy qaytarish yo'li bilan hosil bo'lgan nanoo'lchamdagi mis nanozarrachalarining o'lchami bilan izohlanadi. PVC&PEI anion almashinuvchisi mikroblarga qarshi faollikka ega emas, aksincha PVC&PEI anion almashinuvchisi asosida olingan PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> kompleksi yuqori antibakterial faollikni ko'rsatdi. Shuning uchun PVC&PEI-Cu<sup>0</sup> kompleksi kanalizatsiya va sanoat chiqindilaridan zaharli, og'ir metallar ionlarini adsorbsiyalashda va suvni biologik ifloslantiruvchi mikroorganizmlardan tozalashda, organik bo'yoqlarni fotokataliz yo'li bilan parchalashda, organik moddalarni olishda katalizator sifatida qo'llanilishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Fernandez-Garcia M, Munoz-Bonilla A. Polymeric Materials with Antimicrobial Activity. Progress in Polymer Science. 2012, Vol. 37, 281-339 pp.
2. Domenech B, Munoz M, Muraviev, DN, Macanas J. Polymer-stabilized palladium nanoparticles for catalytic membranes: ad hoc polymer fabrication. Nanoscale Research Letters. 2011, Vol. 6, 406: 1.
3. Ferrari MB, Bisceglie F, Fava GG, Pelosi G, Tarasconi P, Albertini R, Pinelli S. Synthesis characterization and biological activity of two new polymeric copper (II) complexes with  $\alpha$ ketoglutaric acid thiosemicarbazone. Journal of Inorganic Biochemistry. 2002, Vol. 89, 36-44 pp.
4. Dorian A. H. Hanaor, Maliheh Ghadiri, Wojciech Chrzanowski and Yixiang Gan. Scalable Surface Area Characterization by Electrokinetic Analysis of Complex Anion Adsorption. American Chemical Society. 2014, Vol. 30, 15143-15152 pp.
5. Prabhu S, Poulouse EK. Silver nanoparticles: mechanism of antimicrobial action, synthesis, medical applications, and toxicity effects. International Nano Letters, 2012, Vol. 32: 1-10.
6. Md Iqbal Ahmed Talukdar, Irshad Ahamad, Sajid Iqbal, Manzoor Ahmad Malik, Ovas Ahmad Dar, Md. Khursheed Akram, Tasneem Fatma, Athar Adil Hashmi, Fabrication of metal incorporated polymer composite: An excellent antibacterial agent, Journal of Molecular Structure, Volume 1225, 2021, 129091, ISSN 0022-2860.
7. Abdullah A Alswat, Mansor Bin Ahmad, Tawfik A. Saleh, Preparation and Characterization of Zeolite\Zinc Oxide-Copper Oxide Nanocomposite: Antibacterial Activities, Colloid and Interface Science Communications, 2017, Volume 16, Pages 19-24,



8. Palza, H. Antimicrobial Polymers with Metal Nanoparticles. *Int. J. Mol. Sci.* 2015, Vol. 16, 2099-2116 pp.
9. Y. Savelyeva, A. Gonchara, B. Movchanb, A. Gornostayb, S.Vozianovc, A. Rudenkoc, R. Rozhnovaа, T. Travinskayaа. Antibacterial polyurethane materials with silver and copper nanoparticles. *Materials Today: Proceedings.* 2017; Vol. 4. 87–94 pp.
10. Halima Khatoon and Sharif Ahmad. *ACS Applied Materials & Interfaces.* 2019, Vol. 11 (2), 2374-2385 pp.
11. Hai-feng Chen, Juan-juan Wu, Ming-yue Wu, Hui Jia. Preparation and antibacterial activities of copper nanoparticles encapsulated by carbon. *New Carbon Materials.* 2019, Vol. 34, 382-389 pp.
12. Shahnawaz Ahmad Bhat, Fahmina Zafar, Aftab Hossain Mondal, Azar Ullah Mirza, Qazi Mohd Rizwanul, Nahid Nishat. Efficient removal of Congo red dye from aqueous solution by adsorbent films of polyvinyl alcohol/melamine-formaldehyde composite and bactericidal effects. *J. Clean. Prod.* 2020. Vol. 255, 120062.
13. Бабожонова Гулбахор Курбанназаровна, Инханова Арофат, Зокиров Сардор, Бекчанов Давронбек Жумазарович, & Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич. Кинетика сорбции ионов Со (II) из растворов на анионообменника. *Universum: химия и биология*, 2021. (10-1 (88)), 79-83 с.
14. Бабожонова Гулбахор Курбанназаровна, Инханова Арофат, Сагдиев Наил Джадитович, Бекчанов Давронбек Жумазарович, & Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич. Кинетика сорбции ионов Cr (VI) из кислых растворов на анионообменника. *Universum: химия и биология*, 2021. (6-1 (84)), 60-64 с.
15. Инхонова А. Эштурсунов Д.А. Ботиров С. Муртазкулов М. Бекчанов Д.Ж. Антибактериальные свойства медь-полимерно комплекса. *Universum: химия и биология*, 2023. 10(112), 38-45 с.



03.00.00

**BIOLOGIYA FANLARI**  
**БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**BIOLOGICAL SCIENCES**

**O'SIMLIKLARNING TUZ STRESSIGA CHIDAMLILIGIDA miRNKLARNING ROLI.**

Usmanov Dilshod Erkinbaevich PhD., Abdukarimov Sharofiddin Sayfidinovich k.i.x., Sobirov Botirjon Masharif o'g'li k.i.x., Mirzaxmedov Muxammadjon Xoshimjonovich k.i.x., Azimov Avazxon Abbasovich k.i.x., Radjapov Farxod Sunnatullaevich k.i.x. Salaxutdinov Il'xom Baxtiyarovich PhD,  
Buriyev Zabardast Tojiboevich b.f.d.,  
O'zRFA Genomika va bioinformatika markazi.  
e-mail: [dilshodusmonov1987@gmail.com](mailto:dilshodusmonov1987@gmail.com)

***Annotatsiya.** MikroRNKlar (miRNKlar) kodlanmaydigan endogen kichik RNKlar sinfi (uzunligi 20-24 nukleotidlar) bo'lib, ular maqsadli mRNKning parchalanishi yoki translyatsiya jarayonining ingibitsiyasi orqali gen ekspressiyasini tartibga soladi. O'simliklar vegetatsiyasi davrida duch keladigan ko'plab abiotik va biotik omillarga javob berishda miRNKlar post-transkripsiya omili sifatida gen ekspressiyasini boshqarishda ishtrok etadi. miRNK lar gen ekspressiyasini boshqarishda nishon genga nafaqat to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi, balki transkripsiya omillari (TF) orqali ham tasir ko'rsatadi. miRNK lar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga, morfogenezga va stress omillarga javob berishda muhim ro'l o'ynaydi. Odatda, miRNK lar stress omillar tasirida ekspressiyasining oshishi ularning maqsadli nishon gen mRNK sining parchalanishi, ijobiy regulyator gen mRNK larining ekspressiyasining oshishiga olib keladi. So'nggi o'n yillikda o'simlik miRNKlarini tadqiq qilish borasida olib borilgan tadqiqotlar, asosan bir yoki bir nechta atrof-muhit omillari (sho'rlanish, qurg'oqchilik, sovuq, haroratning ko'tarilishi, mineral moddalarni o'zlashtirishning pastligi) ga javob beradigan o'simlik miRNKlarini aniqlash, ularning tuzilishini profillash hamda stressga javob berish va bardoshlilikdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Ushbu maqolamizda sho'rlanish stress sharoitida o'simliklarda aniqlangan miRNK lar haqida ma'lumotlar keltirib o'tamiz.*

***Kalit so'zlar:** miRNK, *A.thaliana*, mikroRNK ekspressiyasini tahlil qilish, ekspressiyalanish darajasi, Overekspressiya, short tandem target mimic (STTM)*

**РОЛЬ микроРНК В УСТОЙЧИВОСТИ РАСТЕНИЙ К СОЛЕВОМУ СТРЕССУ.**

Усманов Дилшод Эркинбаевич PhD., Абдукаримов Шарофиддин Сайфидинович м.н.с., Собиров Ботиржон Машариф угли м.н.с., Мирзахмедов Мухаммаджон Хошимжонович м.н.с., Азимов Авазхон Аббасович м.н.с., Раджапов Фарход Суннатуллаевич м.н.с., Салахутдинов Ильхом Бахтиярович PhD, Буриев Забардаст Таджибоевич д.б.н.,  
АНРУз Центр геномики и биоинформатики  
e-mail: [dilshodusmonov1987@gmail.com](mailto:dilshodusmonov1987@gmail.com)

**Аннотация.** МикроРНК (miRNA) являются классом эндогенных малых некодирующих РНК (длиной 20–24 нуклеотида), которые регулируют экспрессию генов посредством распада мРНК-мишени или ингибирования трансляции. В ответ на многие абиотические и биотические факторы, встречающиеся во время роста растений, микроРНК участвуют в регуляции экспрессии генов в качестве пост транскрипционных факторов. микроРНК не только напрямую связываются целевым геном в процессе контроля экспрессии, но и воздействуют на него через факторы транскрипции (TF). МикроРНК играют важную роль в росте и развитии растений, а также в морфогенезе и ответной реакции на стрессовые факторы. Обычно увеличение экспрессии микроРНК под влиянием стрессовых факторов приводит к деградации мРНК их генов-мишеней и к увеличению экспрессии мРНК позитивных регуляторных генов. В последнее время исследования микроРНК растений были в основном сосредоточены на одном или нескольких факторах окружающей среды (засоление, засуха, холод, низкое поглощение минералов) и были направлены на выявление микроРНК растений, которые реагируют на стресс, профилирование их структуры и определение их роли в ответной реакции на стрессовые факторы. В нашей статье мы представим информацию о микроРНК, обнаруженных у растений в условиях засоления.

**Ключевые слова:** miРНК, *A.thaliana*, анализ экспрессии микроРНК, уровень экспрессии, оверэкспрессия, короткий тандемный мишень-мимик (STTM).

#### THE ROLE OF MIRNAS IN PLANT RESISTANCE TO SALT STRESS.

Usmanov Dilshod Erkinbaevich Ph.D., Abdukarimov Sharofiddin Sayfidinovich junior researcher, Sobirov Botirjon Masharif ugli junior researcher, Mirzakhmedov Mukhammadjon Khoshimjonovich junior researcher, Azimov Avazkhon Abbasovich junior researcher, Radjapov Farkhod Sunnatullaevich junior researcher, Salakhutdinov Ilkhom Bakhtiyarovich Ph.D., Buriev Zabardast Tadjiboevich doctor of biological sciences,  
UzRFA Center for Genomics and Bioinformatics.  
e-mail: [dilshodusmonov1987@gmail.com](mailto:dilshodusmonov1987@gmail.com)

**Annotation.** MicroRNAs (miRNAs) are a class of endogenous small non-coding RNAs (20–24 nucleotides in length) that regulate gene expression by degrading the target mRNA or inhibiting translation. In response to many abiotic and biotic factors encountered during plant growth, microRNAs are involved in the regulation of gene expression as post-transcriptional factors. miRNAs not only bind directly to the target gene in the process of expression control, but also act on it through transcription factors (TF). MicroRNAs play an important role in plant growth and development, as well as in morphogenesis and response to stress factors. Usually, an increase in microRNA expression under the influence of stress factors leads to the degradation of mRNA of their target genes and to an increase in the expression of mRNA of positive regulatory genes. Recently, research on plant microRNAs has been mainly focused on one or more environmental factors (salinity, drought, cold, low mineral uptake) and aimed at identifying plant microRNAs that respond to stress, profiling their structure, and determining their role in response. responses to stressors. In our article, we will present information on miRNAs found in plants under saline conditions.

**Keywords:** miRNK, *A.thaliana*, microRNA expression analysis, expression level, Overexpression, short tandem target mimic (STTM).

## Kirish

Tuproq sho'rlanishi butun dunyo bo'ylab kengayib borayotgan ekologik muommolardan biri hisoblanadi. FAO tuproqlar portal malumotlariga asosan 118 ta davlatdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo yer maydonining 85% ni egallagan holda, 424 million gektardan ortiq tuproqning ustki qatlami (0-30 sm) va 833 million gektar er osti qatlami (30-100 sm) turli darajadagi tuz bilan zararlangan [1]. Sho'rlanish o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'simliklarni ko'paytirish uchun jiddiy muammo tug'diradi. Tuz konsentratsiyasi normal darajadan oshib ketganda, tuproqdagi suv potentsiali pasayadi, bu esa o'simlik ildizlari tomonidan suvning so'rilishini kamaytiradi. Sho'rlanish stress omili o'simliklarga tasiriga ko'ra uch yani giperosmotik, ion toksikligi va oksidlovchi darajalarga bo'linishi tasnif etilgan [2].

O'simliklarda sho'rlanishga chidamliligini oshirish uchun klassik transgenik yondashuv endogen mudofaa mexanizmlarini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi, ko'pincha bitta genli yondashuv orqali va odatda mos keladigan osmolitlar, antioksidantlar, poliaminlar sintezini kuchaytirish, gormonlar gomeostazini saqlash, transkripsiya omillari, tashuvchilarni yoki modifikatsiyani o'z ichiga oladi. Ba'zida tartibga soluvchi oqsillar yoki fitogormonlar darajasining genetik manipulyatsiyasi sho'rlanishga chidamliligini ta'minlaydi, ammo bularning barchasi o'simliklarning o'sishi yoki hosildorligining istalmagan pasayishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha biologik jarayonlarning boshqarilishida mikroRNKlarning muhim post-transkripsiya regulyatorlari sifatida rol o'ynashligi so'ngi 10 yillikda olib borilayotgan tadqiqotlarda yaqqol namoyon bo'ldi [3,4].

Tuz stress omiliga chidamlilikni fiziologik, molekulyar va transkripsiya darajalari o'simlik turlarida yaxshi tavsiflangan [5,6] lekin, miRNK larning o'simlik turlarida tuz stress omiliga chidamlilikni namoyan qilishidagi mexanizmlari yetarlicha to'g'ri tushuntirilmagan [7]. Chunki bitta miRNK stress signali javob reaksiyasida gen maxsuloti mRNK, transkriptom faktorlar va ularning xosilalari bilan bog'lanadi. miRNKlar o'simliklarni rivojlanishi ishtrok etishdan tashqari, o'simlik turlarida abiotik va biotik stress omillarga javobgar gen ekspressiyalarini ham tartibga solishda ishtrok etadi [8]. miRNK lar nishon genlarining aniqlanishi va ularga tasir qilish mexanizmlarini tushunish, abiotik va biotik stress omillarga chidamli o'simliklar olinishiga yordam beradi [9,10]

O'simliklarda miRNKlar aniqlangandan buyon aniqlangan miRNKlarning salmoqli foizi model o'simlik *Arabidopsis thaliana* (*A.thaliana*) ga to'g'ri keladi. So'ngi yillarda keyingi avlod sekvinotor (NGS) larining rivojlanishi tufayli nafqat model osimliklarda balki boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari viz. *alfalfa* [11], paxta [12], olma [13], switchgrass [14], artishok [15], tamarisk daraxtlari [16], donli ekinlari [17] va boshqalarda ham tuz stress omiliga javob beruvchi miRNKlar aniqlandi. Ulardagi tuzli muhitga javob beruvchi miRNK larni aniqlashda o'simliklarni belgilangan muhitda saqlash vaqtilari (3 soatdan 15 kungacha) va natriy xlor (NaCl) eritmasining turli darajadagi konsentratsiyalarida (80-600 mM) tajribalar olib borilgan [18]. Shu ilmiy tajribalar asosida o'simlik bargi, ildizi, poyasi, guli va mevalari hamda ularning rivojlanish bosqichlaridagi miRNKlar aniqlangan. Shu kabi tuzli muhit va tuzli eritma bilan ishlangan o'simliklarda vaqt oraliqlarida aniqlangan miRNKlar soni bir necha o'n baravrdan yuz barobargacha o'zgarib turadi, chunki bu o'simlik turlari, to'qimalarning o'ziga xosligi, rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin [19]. Biroq, tuz stressi ostida miRNKlarni keng miqyosda aniqlash juda zarur va muhimdir. Chunki, aniqlangan miRNKlar o'simlik turiga va o'rganlariga qarab turlicha

ekspressiyalanishni namoyon etadi. Masalan, tuzli muhit sharoitida *miR393* miRNKsi *A.thaliana*, *T.aestivum*, *A.stolonifera*, *H. spontaneum* osimliklarda yuqori darajada, *O.sativa*, *G.hirsutum*, *G. raimondii*, *S.alterniflora* o'simliklarda esa ushbu miRNK ekspressiyasining pasayishi aniqlangan. Shunga o'xshash xolat *miR396* miRNK sida ham kuzatilgan. Yani o'simliklarga tuzli eritma bilan ishlov berilganda uning ekspressiyalanish darajasi *A.thaliana*, *O.sativa*, *G. raimondii*, *S.alterniflora* da pasayishini, *S.lycopersicum*, *N.tabacum*, *G.hirsutum*, *A.stolonifera*, *R. sativus*, *P. virgatum* da esa oshishini ko'rsatgan. miRNK larning ekspressiyalanish darajasining o'zgarishi nafaqat o'simlik turlarida farq qilishi, balki o'simlik o'rganlarida ham farqlanishi aniqlangan. *Populus euphratica* o'simligida tuzli muhitda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan *miR398* miRNKsi ekspressiyasining o'simlik bargida ko'tarilishi va ildiz qismida pasayishini namoyon etgan [20]. Shu kabi manbalar miRNK lar haqida chuqurroq malumotlarga ega bo'lishni taminlash bilan bir qatorda miRNK tarmog'ini shakillantirishda poydevor bo'lib hizmat qiladi [21]. Tabiiy va suniy tuzli stress omillari tasiri ostida ko'plab o'simlik miRNKlari aniqlangan, ammo ko'p miRNKlar funksional jihatdan batafsil tavsiflanmagan [22]. Lekin, bioinformatik dasturlar yordamida aniqlangan miRNKlar va ularning nishon genlari hamda ularning ekspressiyalanish darajasi qRT-PCR yordamida tasdiqlash yordamida olingan natijalar ushbu miRNKlarni amaliyotda qo'llash uchun birlamchi malumot sifatida hizmat qiladi. Misol uchun, *miR169* kichik RNKsi *A.thaliana* o'simligida 300 mM NaCl tuzli eritmad kuchli ekspressiyalanishni ko'rsatgan [23]. Xuddi shu kichik RNK *G. hirsutum* nixollariga esa 50-300 mM NaCl eritmasi bilan tasir ko'rsatilganda uning ekspressiyalanish darajasi pasayganligi kuzatilgan [24]. Albattt yuqorida keltirilgan o'simliklar ikki urug'pallalilar oilasiga mansub bo'lsada ushbu kichik RNK ning 2 hil ekspressiyalanish darajasi kuzatilgan. Bu holat bir urug'pallalilar oilasiga kiruvchi *Z.mays* (makkajo'xori) o'simligida o'zgacha natija ko'rsatgan [36]. Yani o'simliklar 125 mM li NaCl eritmasi bilan ishlangandan 45 daqiqa o'tib tekshirilganda uning ekspressiyalanish darajasi susayishi, 15 kun davomida shu eritma bilan ishlov berilib tekshirilganda esa ekspressiyalanish darajasi oshganligini kuzatishgan [25]. Bu tadqiqotlardan shuni bilish mumkinki, miRNK larning ekspressiyalanish darajasi nafaqat o'simlik turlari o'rtasida farq qilish, balki tasir ettirilayotgan muhitning davomiyligi ham juda muhim hisoblanar ekan .

Turli hil muhitlarda mikroRNK ekspressiyalanish darajasini tahlil qilish bilan o'sha muhitlar uchun chidamli bo'lgan o'simlik genotiplarini olish mumkin. *miR156* tuzli stress sharoitida aniqlangan miRNK lar sirasiga mansub bo'lib, bir va ikki urug' pallali o'simliklarda bir xil ekspressiyalanish darajasini namoyon etgan. *A. thaliana*, *S. lycopersicum*, *G. hirsutum*, *T. aestivum* nihollari NaCl tuzining 100-300 Mm li eritmasi bilan ishlov berilganda *miR156* miRNKsining ekspressiyalanish darajasi oshganligi va aksincha uning maqsadli geni bo'lgan *Squamosa-promoter binding protein like (SPL)* ning ekspressiyasi susayganligi kuzatilgan [26]. Ushbu ma'lumotlar asosida ushbu miRNK ning ekspressiyasini kuchaytirilishi o'simlikalarda tuz stressiga chidamlilikni namoyon etgan [27].

mikroRNK ekspressiyalanish darajasini bioinformatik tahlil qilish asosida o'simliklar genomida aniqlangan miRNKlar va ularning nishon genlari funksiyasini kuchaytirish (overexpression) yoki qisman o'chirish/to'liq ochirish (knocked down/out) yordamida ularning haqiqiy funksiyalari ochib beriladi (jadval-2). Masalan, *A.thaliana* 7 kun davomida 150 mM NaCl eritmasi bilan ishlanishi natijasida *AtMIR397* miRNKsi ekspressiyasini kuchayishi va uning nishon genlari *LACCASE (LAC)*, ayniqsa *LAC2*, *LAC4* va *LAC17* ning sezilarli darajada pasayishiga kuzatildi. Bu esa lignin miqdorining kamayishiga olib keldi. Natijada o'simlik sho'r

stress chidamsiz fenotipni namoyaon qilgan [23]. *miR394a/b* miRNK si ekspressiyasini kuchaytirish natijasida uning nishon geni *LCR* ning ekspressiyasi darajasi pasaygan va o'simlik *lcr* mutant o'simlik kabi tuz stressiga kuchli sezuvchan fenotipni ko'rsatgan. *LCR* genini funksiyasini kuchaytirish natijasida tuz stressiga chidamli o'simliklar olingan [22]. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki *miR397* va *miR394a/b* miRNK lar ekspressiya darajasini susayishi tuzga chidamli osimlik genotiplarini olish imkonini beradi. miRNK o'simliklardagi faoliyatini ikki xil texnologiya asosida o'rganish ularning funksiyasini to'liqroq tushinishga yordam beradi. *miR164* miRNK sining ekspressiyalanish darajasi *Z. mays* va *O. sativa* 100-250 mM li NaCl eritmasida pasayish [28,29], *T. aestivum* da esa 300 mM li NaCl eritmasida kuchayishi [26] kuzatilgan. Bunday ma'lumotlar miRNK ga to'liq funksional tarif berish uchun yetarli hisoblanmaydi. Ushbu miRNK ni makka jo'xori o'simligida ekspressiyasini *short tandem target mimic (STTM)* texnologiyasi yordamida susaytirilishi o'simliklarga tuz stressiga kuchli chidamlilikni keltirib chiqargan. Aksincha uning ekspressiyasini kuchaytirilishi o'simliklarda tuz stresiga kuchli sezgir genotiplarni namoyon qilgan [30]. *Growth Regulating Factor (GRF)* geni faoliyatini boshqarilishida ishtrok etuvchi *miR396* miRNK si ekspressiya darajasini kuchaytirilishi *A.thalina* da tuz stressiga chidamsiz, aksincha susaytirilishi chidamlilikni namoyon qilgan [31]. Shu miRNK ning ekspressiyasini *S. lycopersicum* genomida susaytirilishi [32], *N. benthamiana* [33] va *O.sativa* [34] genomlarida kuchaytirilishi o'simliklarda tuz stressiga chidamlilikni ko'rsatgan. Shu kabi amaliy ilmiy tadqiqotlar miRNK va ularning nishon genlari funksiyalari haqida to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi.

#### **Xulosa**

Tuproqning sho'rlanishi sharoitida sho'rlanishga chidamli o'simliklarni yetishtirish biologik yaxshilashning eng tejamli va samarali texnologiyalaridan biridir. 2000-yillarning boshlarida o'simliklarda miRNK lar aniqlangandan beri o'simlik miRNK lariga qaratilgan tadqiqotlarda ajoyib o'sish kuzatildi. O'simlik miRNK lar haqidagi ilmiy ma'lumotlarini ko'payishi, bu 18-14 nukliotid uzunligidagi kichik molekular o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va ularning atrof-muhit tasiri javoblarida hal qiluvchi ro'l o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi. Abiotik stresslarda miRNKlarning molekulyar mexanizmlarini tushunish, ayniqsa iqlim va inson tomonidan o'zgartirilgan atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida o'simliklarni ko'paytirish uchun samarali vositadir. miRNK larning o'simlikning tuzli stressga javob berishdagi muhim tartibga soluvchi roli miRNK ni ekinlarda tuzli stressga chidamliligini oshirish uchun qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. So'nggi 10 yil ichida asosiy ekin va model o'simlik turlaridan ko'p miqdordagi abiotik va biotik stressga javob beradigan o'simlik-miRNKlar aniqlandi. Yuqori sekvenslash texnologiyalarini joriy qilinishi tadqiqotchilarga nafaqat model o'simliklarda balki qishloq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan o'simlik turlarida ham muhim abiotik stresslarga javobgar miRNK ekspressiyasini aniqlanishiga yordam berdi. Bu kabi tadqiqotlarda aniqlangan miRNKlarni arxivlashdan tashqari identifikatsiyalash, ekspressiyalanish profilini shakllantirish va nishon genini taxminiy aniqlash uchun turli xil hisoblash vositalari va bioinformatik dasturlar ishlab chiqilgan. Bioinformatik dasturlar miRNK larning nishon genini aniqlab bersada, ularning aniq funksional xolati o'sha aniqlangan miRNK ni ekspressiyasini susaytirish yoki kuchaytirish yordamida aniqlanadi. Aniqlangan miRNK lar stress omillarga chidamlilikni oshirish bilan bir qatorda o'simlikning o'sishi va rivojlanishida ham katta ro'l o'ynaydi. Chunki bitta miRNK bir vaqtning o'zida bir necha genlarni faoliyatini boshqarilishida ishtrok etishi mumkin.

miRNK larni o'simliklardagi faoliyatini turli stress omillar tasiri ostida o'rganish va buning yordamida shu stress omillarga chidamlilikni taminlovchi miRNK larning aniqlanishi, o'simliklarning yangi stress omillarga chidamli genotiplarini olishga hizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.fao.org/soils-portal/data-hub/soil-maps-and-databases/global-map-of-salt-affected-soils/en/>.
2. Kumar V., Khare T., Shriram V., Wani S. H. (2018). Plant small RNAs: the essential epigenetic regulators of gene expression for salt-stress responses and tolerance. *Plant Cell Rep.* 37, 61–75. 10.1007/s00299-017-2210-4.
3. Wani S. H., Kumar V., Khare T., Guddimalli R., Parveda M., Solymosi K., et al.. (2020). Engineering salinity tolerance in plants: progress and prospects. *Planta* 251, 76. 10.1007/s00425-020-03366-6.
4. Sun X., Lin L., Sui N. (2019). Regulation mechanism of microRNA in plant response to abiotic stress and breeding. *Mol. Biol. Rep.* 46, 1447–1457. 10.1007/s11033-018-4511-2.
5. Ahmad, H.M.; Wang, X.; Mahmood-Ur-Rahman; Fiaz, S.; Azeem, F.; Shaheen, T. Morphological and Physiological Response of *Helianthus annuus* L. to Drought Stress and Correlation of Wax Contents for Drought Tolerance Traits. *Arab. J. Sci. Eng.* 2021, 47, 6747–6761.
6. Awan, S.I.; Ahmad, S.D.; Ali, M.A.; Ahmed, M.S.; Rao, A. Use of Multivariate Analysis in Determining Characteristics for Grain Yield Selection in Wheat. *Sarhad J. Agric.* 2015, 31, 139–150.
7. Li, T.; Gonzalez, N.; Inzé, D.; Dubois, M. Emerging Connections between Small RNAs and Phytohormones. *Trends Plant Sci.* 2020, 25, 912–929.
8. Farrokhi, N.; Hahieghrari, B. Chronicles of Dolos and Apaté in Plant microRNAs. *Biologia* 2020, 75, 2441–2463.
9. Hombach, S.; Kretz, M. Non-coding RNAs: Classification, biology and functioning. *Adv. Exp. Med. Biol.* 2016, 937, 3–17.
10. Ferdous, J.; Hussain, S.S.; Shi, B.J. Role of microRNAs in plant drought tolerance. *Plant Biotechnol. J.* 2015, 13, 293–305.
11. Arshad M., Gruber M. Y., Wall K., Hannoufa A. (2017). An insight into microRNA156 role in salinity stress responses of alfalfa. *Front. Plant Sci.* 8, 356. 10.3389/fpls.2017.00356
12. Wang W., Liu D., Chen D., Cheng Y., Zhang X., Song L., et al.. (2019). MicroRNA414c affects salt tolerance of cotton by regulating reactive oxygen species metabolism under salinity stress. *RNA Biol.* 16, 362–375. 10.1080/15476286.2019.1574163
13. Ma Y., Xue H., Zhang F., Jiang Q., Yang S., Yue P., et al. (2021). The miR156/SPL module regulates apple salt stress tolerance by activating MdWRKY100 expression. *Plant Biotechnol. J.* 19, 311–323. 10.1111/pbi.13464
14. Liu Y., Li D., Yan J., Wang K., Luo H., Zhang W. (2019). MiR319 mediated salt tolerance by ethylene. *Plant Biotechnol. J.* 17, 2370–2383. 10.1111/pbi.13154
15. Wen F. L., Yue Y., He T. F., Gao X. M., Zhou Z. S., Long X. H. (2020). Identification of miR390-TAS3-ARF pathway in response to salt stress in *Helianthus tuberosus* L. *Gene* 738, 144460. 10.1016/j.gene.2020.144460

16. Ye Y., Wang J., Wang W., Xu L. A. (2020). ARF family identification in *Tamarix chinensis* reveals the salt responsive expression of TcARF6 targeted by miR167. PeerJ 8, e8829. 10.7717/peerj.8829
17. Cheng X., He Q., Tang S., Wang H., Zhang X., Lv M., et al. (2021). The miR172/IDS1 signaling module confers salt tolerance through maintaining ROS homeostasis in cereal crops. New Phytol. 230, 1017–1033. 10.1111/nph.17211
18. Waqar Islam, Abdul Waheed, Hassan Naveed, and Fanjiang Zeng. (2022). MicroRNAs Mediated Plant Responses to Salt Stress. Cells. 2022 Sep; 11(18): 2806.
19. Tao Xu, Long Zhang, Zhengmei Yang,1, Yiliang Wei and Tingting Dong1. (2021). Identification and Functional Characterization of Plant MiRNA Under Salt Stress Shed Light on Salinity Resistance Improvement Through MiRNA Manipulation in Crops. Front Plant Sci. 2021; 12: 665439.
20. Si, J.; Zhou, T.; Bo, W.; Xu, F.; Wu, R. Genome-wide analysis of salt-responsive and novel microRNAs in *Populus euphratica* by deep sequencing. BMC Genet. 2014, 15, S6.
21. Wilson Wen Bin Goh, Hirotaka Oikawa, Judy Chia Ghee Sng,2 Marek Sergot, and Limsoon Wong. (2011). The role of miRNAs in complex formation and control. Bioinformatics. 2012 Feb 15; 28(4): 453–456.
22. Song, J. B., Gao, S., Sun, D., Li, H., Shu, X. X., and Yang, Z. M. (2013). MiR394 and LCR are involved in Arabidopsis salt and drought stress responses in an abscisic acid-dependent manner. BMC Plant Biol. 13:210. doi: 10.1186/1471-2229-13-210.
23. Liu, H.H.; Tian, X.; Li, Y.J.; Wu, C.A.; Zheng, C.C. Microarray-based analysis of stress-regulated microRNAs in *Arabidopsis thaliana*. RNA 2008, 14, 836–843.
24. Yin, Z., Li, Y., Yu, J. et al. Difference in miRNA expression profiles between two cotton cultivars with distinct salt sensitivity. Mol Biol Rep 39, 4961–4970 (2012). <https://doi.org/10.1007/s11033-011-1292-2>.
25. Luan, M., Xu, M., Lu, Y., Zhang, L., Fan, Y., and Wang, L. (2015). Expression of zma-miR169 miRNAs and their target ZmNF-YA genes in response to abiotic stress in maize leaves. Gene 55, 178–185. doi: 10.1016/j.gene.2014.11.001.
26. Wang, B.; Sun, Y.F.; Song, N.; Wei, J.P.; Wang, X.J.; Feng, H.; Yin, Z.Y.; Kang, Z.S. MicroRNAs involving in cold, wounding and salt stresses in *Triticum aestivum* L. Plant Physiol. Biochem. 2014, 80, 90–96.
27. Kang, T., Yu, C. Y., Liu, Y., Song, W. M., Bao, Y., Guo, X. T., et al. (2020). Subtly manipulated expression of zmmiR156 in tobacco improves drought and salt tolerance without changing the architecture of transgenic plants. Front. Plant Sci. 10:1664. doi: 10.3389/fpls.2019.01664
28. Fu, R., Zhang, M., Zhao, Y., He, X., Ding, C., Wang, S., et al. (2017). Identification of salt tolerance-related microRNAs and their targets in maize (*Zea mays* L.) using high-throughput sequencing and degradome analysis. Front. Plant Sci. 8:864. doi: 10.3389/fpls.2017.00864.
29. Macovei, A.; Tuteja, N. MicroRNAs targeting DEAD-box helicases are involved in salinity stress response in rice (*Oryza sativa* L.). BMC Plant Biol. 2012, 12, 183.
30. Shan, T.; Fu, R.; Xie, Y.; Chen, Q.; Wang, Y.; Li, Z.; Song, X.; Li, P.; Wang, B. Regulatory Mechanism of Maize (*Zea mays* L.) miR164 in Salt Stress Response. Russ. J. Genet. 2020, 56, 835–842.

31. Pegler, J.L.; Nguyen, D.Q.; Oultram, J.M.J.; Grof, C.P.L.; Eamens, A.L. Molecular manipulation of the mir396/grf expression module alters the salt stress response of arabidopsis thaliana. *Agronomy* 2021, 11, 1751.
32. Cao, D., Wang, J., Ju, Z., Liu, Q., Li, S., Tian, H., et al. (2016). Regulations on growth and development in tomato cotyledon, flower and fruit via destruction of miR396 with short tandem target mimic. *Plant Sci.* 247, 1–12. doi: 10.1016/j.plantsci.2016.02.012.
33. Chen, L., Luan, Y., and Zhai, J. (2015). Sp-miR396a-5p acts as a stress-responsive genes regulator by conferring tolerance to abiotic stresses and susceptibility to *Phytophthora nicotianae* infection in transgenic tobacco. *Plant Cell Rep.* 34, 2013–2025. doi: 10.1007/s00299-015-1847-0.
34. Yuan, S., Zhao, J., Li, Z., Hu, Q., Yuan, N., Zhou, M., et al. (2019). MicroRNA396-mediated alteration in plant development and salinity stress response in creeping bentgrass. *Hortic. Res.* 6:48. doi: 10.1038/s41438-019-0130-x.

### TRITIKALE NAVLARINING SUVNI SAQLASH XUSUSIYATINI MAHSULDORLIKKA TA'SIRI

<sup>1</sup>O'roqov Sirojiddin Xudayberdiyevich\*, <sup>2</sup>Xadjayev Djurakul, <sup>3</sup>Usmanova Mahliyo  
Ibadullayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

<sup>1</sup>O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida o'qituvchisi.

<sup>2</sup>O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida o'qituvchisi.

<sup>3</sup>O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida PhD doktoranti.

\*E-mail: [usiroj1981@mail.ru](mailto:usiroj1981@mail.ru)

*Anotatsiya:* Ushbu maqolada Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari normal va qurg'oqchil sharoitlarida tritikale navlarining barglaridagi suvni saqlash qobiliyati o'rganilgan, hamda shu orqali navlarning qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatlari tahlil qilingan. Tajribada tadqiqotlar tritikalening "Tixon", "Valentin", "Svat", "Farxod", "Odessiy" navlarida olib borildi. Maqolada tritikale navlarida suvni saqlash natijalari bayon etilgan va mahsuldorlikka bog'liqligi yoritib berilgan. Samarqand viloyatida qurg'oqchilikka chidamli tritikale navlarini tanlashda moslanuvchanlikning fiziologik va biokimyoviy asoslarini tahlil qilish va shu hududga mos qimmatli yuqori mahsuldor navlarni ajratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, tritikale, suv, qurg'oqchilik, don, mahsuldorlik, fiziologik.

### ВЛИЯНИЕ ВОДОХРАНЯЩИХ ХАРАКТЕРИСТИК СОРТОВ ТРИТИКАЛЕ НА ПРОДУКТИВНОСТЬ

<sup>1</sup>Уроков Сироджиддин Худайбердиевич\*, <sup>2</sup>Хаджаев Джуракуль, <sup>3</sup>Усманова Махлиё  
Ибадуллаевна.

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

<sup>1</sup>Преподаватель кафедры физиологии растений и микробиологии.

<sup>2</sup>Преподаватель кафедры физиологии растений и микробиологии.

<sup>3</sup> аспирант кафедры физиологии растений и микробиологии.

\*E-mail: [usiroj1981@mail.ru](mailto:usiroj1981@mail.ru)



**Анотация:** В данной статье изучена способность запасать воду в листьях сортов тритикале в нормальных и засушливых условиях лугово-серых почв Самаркандской области, а также проанализированы особенности засухоустойчивости сортов. В опыте исследования проводились на сортах тритикале «Тихон», «Валентин», «Сват», «Фарход», «Одессий». В статье описаны результаты водосбережения у сортов тритикале и объяснена их зависимость от продуктивности. Описаны исследования по анализу физиолого-биохимических основ адаптации при селекции засухоустойчивых сортов тритикале в Самаркандской области, а также подбору и производству ценных высокоурожайных сортов, пригодных для этого региона.

**Ключевые слова:** Самарканд, тритикале, вода, засуха, зерно, урожайность, физиологический.

## EFFECT OF WATER STORAGE CHARACTERISTICS OF TRITICALE VARIETIES ON PRODUCTIVITY

<sup>1</sup>Urokov Sirojiddin Khudaiberdievich\*, <sup>2</sup>Khadjayev Djurakul, <sup>3</sup>Usmanova Mahliyo Ibadullayevna.

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

<sup>1</sup>Teacher of the Department of Plant Physiology and Microbiology.

<sup>2</sup>Teacher of the Department of Plant Physiology and Microbiology.

<sup>3</sup>PhD student of the Department of Plant Physiology and Microbiology.

\*E-mail: [usiroj1981@mail.ru](mailto:usiroj1981@mail.ru)

**Abstract:** This article examines the ability to store water in the leaves of triticale varieties under normal and arid conditions of meadow-gray soils of the Samarkand region, and also analyzes the drought resistance features of the varieties. Experimental studies were carried out on triticale varieties "Tikhon", "Valentin", "Svat", "Farkhod", "Odessa". The article describes the results of water saving in triticale varieties and explains their dependence on productivity. Research is described on the analysis of the physiological and biochemical bases of adaptation during the selection of drought-resistant triticale varieties in the Samarkand region, as well as the selection and production of valuable high-yielding varieties suitable for this region.

**Key words:** Samarkand, triticale, water, drought, grain, productivity, physiological.

### Kirish

Keyingi yillar Markaziy Osiyo respublikalari sharoitida sug'oriladigan yerlarga suv miqdorining yetishmasligi, yog'ingarchiliklarning kam bo'lishi, yozning issiq kunlarida havo haroratining me'yoridan yuqori darajaga ko'tarilishi va oqibatda tuproq namligining keskin kamayishi ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlariga salbiy ta'sir etib, natijada hosil miqdori va sifatining kamayib ketishiga olib kelmoqda. Bu muammoni hal etishda qurg'oqchilikka chidamli, serhosil navlarni tanlash va ularni ishlab chiqarishga tavsiya etish katta ahamiyatga ega.

Qurg'oqchilik ekinlar unumdorligining asosiy abiotik cheklovidir va iqlim o'zgarishi tufayli tobora og'irlashib borishi kutilmoqda. Qurg'oqchilik oziq-ovqat xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa o'simliklarni yetishtirish faqat yog'ingarchilikka bog'liq bo'lgan hududlarda. Yog'ingarchilik juda kam bo'lgan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda suvning yetishmasligi (qurg'oqchilik) asosiy muammo hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi va o'zgaruvchanlik natijasida ushbu hududlarning aksariyatida yog'ingarchilik kamayishi va yanada qurg'oqchil

bo'lishi kutilmoqda. Global isish, shuningdek, bug'lanishning ko'payishi orqali tuproq namligini kamayishi va shu bilan o'simliklarning o'sishiga to'sqinlik qilishi kutilmoqda [9].

So'nggi o'n yilliklarda global oziq-ovqat talabiga javoban qishloq xo'jaligi tizimlarining kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekologik izini oshirdi, bu chuchuk suv va landshaftning degradatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatdi [11]. Qishloq xo'jaligi global chuchuk suv resurslarining qariyb 70 foizini iste'mol qiladi (FAO, 2010) va u nitratlarni yuvishda yo'qotishlar tufayli chuchuk suvning tanazzulga uchrashining asosiy manbai hisoblanadi [4].

Tashqi sharoit omillarining o'zgarishi ko'pchilik o'simliklarda suv miqdorining o'zgarishiga olib keladi. Suv taqchil sharoitda esa o'simlik barglari va to'qimalarida suvning miqdori keskin kamayadi. To'qimalarda suv miqdorining kamayishi o'simliklar tanasida boradigan asosiy fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning sustlashishiga, natijada o'simliklarning o'sishi va rivojlanish jadalligining sustlashishiga sabab bo'ladi [18].

Suv tanqisligi butun dunyo bo'ylab ekinlarni yetishtirishda asosiy cheklovchi omil hisoblanadi. O'simlikning qurg'oqchilikka chidamliligini oshirish uchun ahamiyatli nav yaratish dasturini ishlab chiqishda bardoshlik mexanizmlarining genetikasi va fiziologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish kerak. Hosildorlik qurg'oqchilik sharoitida ishlatiladigan asosiy tanlov indeksidir [7].

Iqlimning qurg'oqchilik tomonga o'zgarishi qishloq xo'jaligining oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi. Bunday sharoitda donli o'simliklarda turli zang kasalliklari, zararkunanda hasharotlar ziyoni ko'payib, don yetishtirishning tannarxi ortib ketmoqda. Bu esa kasallik va zararkunandalarga chidamli bo'lgan, hosildor boshqa boshqoli don ekinlarini amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi. Shunday donli ekinlardan biri tritikale hisoblanadi.

Bugungi kunda tritikalening asosiy ishlab chiqaruvchilari Polsha, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Avstraliya, Vengriya, Chexiya va AQSH hisoblanadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2005 yilda tritikale 35,2 million ga maydonga ekilgan jahon miqyosida 13,5 million tonna don yetishtirildi. Eng yirik ishlab chiqaruvchi Polsha (3,7 million tonna), undan keyin Germaniya (2,7 million tonna), Frantsiya (1,8 million tonna), Xitoy (1,25 million tonna) va Vengriya (0,57 mln.t) [3].

Tritikale - bug'doy (*Triticum*) va javdar (*Secale*) o'simliklarini seleksioner olimlar tomonidan duragaylash natijasida hosil bo'lgan ekin turi. Bir asrdan sal ko'proq vaqt ichida tritikale biologik qiziquvchanlikdan amaliy hosilga aylandi. Seleksionerlar tritikalening asosiy muammolarini yengish uchun harakat qildilar. Bugungi kunda u em-xashak yoki don sifatida ishlatiladi. Tritikalening kimyoviy tarkibi bug'doy va javdar bilan o'xshash bo'lib, ko'plab parametrlarda oraliq qiymatlarni ko'rsatadi. Javdar oqsillari mavjudligi sababli tritikale unlari past kleykovinaga ega, kleykovina yopishqoqligi kam va shuning uchun bug'doydan past sifatli non ishlab chiqaradi. Biroq, tritikale hali ham inson oziq-ovqatlari uchun muqobildir, asosan tuproq va iqlim sharoitlari bug'doy o'sishini cheklaydigan joylarda [10].

Ko'pgina fermerlar bug'doyni tritikale (*Triticosecale*) bilan almashtiradilar, chunki uning hosildorligi yuqori bo'lishi, em-xashak va don sifatida hayvonlarning ozuqasiga bo'lgan mintaqaviy talab. Agrotexnik adabiyotlarda tritikale bug'doy bilan solishtirganda yuqori abiotik stressga chidamliligi bilan tavsiflanadi [1].

Ma'lumki, tritikale boshqa ekinlarga nisbatan past ishlab chiqarish xarajatlariga ega, biotik stresslarga nisbatan sezgirliги past, shuning uchun kimyoviy himoya va o'g'itlash talablarini

kamaytiradi va oziq-ovqat ekinlari uchun foydalanish mumkin bo'lmagan chekka muhitda ham yuqori don va katta biomassa ishlab chiqarishga olib keladi [2].

Tritikale – stress omillarga chidamli ekin bo'lib, kasalliklarga va yuqori haroratga chidamli, noqulay tuproq va iqlimga tez moslashuvchan ekindir [8]. Tritikalening qurg'oqchilikka nisbatan yuqori chidamliligi uning sarlavhali sanasi erta bo'lganligi va uning ildizlarining tuproqdan suv olish qobiliyatining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [5].

Don pishishda tritikale donalari qurg'oqchilik va yuqori haroratga bardoshli. Bunga kurtaklar ustidagi mum qoplamasi, rivojlangan ildiz tizimi va navning yuqori suvni ushlab turish qobiliyati yordam beradi. Shuning uchun abiotik stresslar tufayli ko'pchilik ekinlar uchun noqulay hisoblangan joylarda ekishni tavsiya qilinadi [15].

Tritikale qishloq xo'jaligida asosan yem-xashak, unli mahsulotlar va yashil ozuqa sifatida qo'llaniladi. Tritikale donidan chorva va parrandalar ratsioniga 50% ga odatiy ozuqalarni o'rninga almashtirish tavsiya etiladi [16].

Tritikale yashil massasining yuqori miqdordagi karotinoid va shakar moddasi uni chorva uchun to'yimli ozuqaga aylantiradi. Bir qator davlatlarda Ispaniya, Vengriya, Polsha, Kanada va AQSH da tritikale yaylov o'simligi sifatida yetishtiriladi [17].

Tritikale unidan qandolatchilikda keng foydalaniladi, ammo nonboblik xususiyati yaxshi emas. Shuning uchun ham bug'doy va boshqa donli o'simliklar uni bilan qorishmasida faol ishlatiladi. Bunday qorishma natijasida xamirturushsiz yopiladigan tritikale –bug'doy noni kattahajm, ajoyib ta'm va hidga ega [20].

Tritikale oqsili mikroblarga qarshi oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash uchun mos plyonka hosil qiluvchi xususiyatga ega [13].

Mamlakatimizda sug'oriladigan maydonlarda kuzgi tritikaleni yem-xashak ekini sifatida yetishtirish, ekish muddati, ekish me'yori va o'g'itlash me'yori bo'yicha И.В.Масинов (1989) hamda lalmi maydonlarda ekish va barqaror hosil olish uchun ertapishar seleksion materiallar yaratish yuzasidan M.Xayitboyev (2019), K.T.Isokov va boshqalar (2020) tomonidan mazkur ekin katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, olimlarimiz tomonidan tritikaleni nafaqat ozuqa uchun, turli stress omillarga chidamli, raqobatbardosh navlarni yaratish uchun ushbu ekinni asosiy iqtisodiy foydali belgilariga ko'ra chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Bu ekinni respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yanada faol joriy etishni taqazo etadi.

### **Materiallar va uslublar**

Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Payariq tumani o'tloqi-bo'z tuproqli sharoitda o'tkazildi. Tajriba ob'yekti sifatida tritikalening "Farxod", "Svat", "Tixon", "Odessiya", "Valentin" navlari olindi. Tajriba Samarqand viloyati sharoitida 2021-2022 yillarda o'tkazildi. Hududning iqlimi kontinental, quyosh radiatsiyasining kuchliligi, sutkalik va mavsumiy o'zgarib turishi, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz mavsumi hamda bir muncha sovuq qish bilan tavsiflanadi [19]. Yillik o'rtacha harorat 13,4°C, yanvarning o'rtacha harorati -1,2°C, iyulniki 27°C. Eng yuqori harorat 45°C, eng past temperatura -28°C. O'simliklar uchun qulay vegetatsiya davri 190-200 kungacha. Yillik o'rtacha yog'in 312 mm, asosan, qishda va bahorda yog'adi. Ammo bu muddatlarda har bir oyning iqlim sharoiti bir-biridan farq qiladi [6]. Bunday hududlarda bugungi kunda harorat nisbatan ortib bormoqda, buning natijasida qurg'oqchilik o'simliklarning o'sish va rivojlanishiga xavf solmoqda, tritikale kabi

qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamli o'simliklarni bunday hududlarda yetishtirish juda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki tritikale hududda yog'adigan kuzgi, qishgi va bahorgi yog'ingarchilikdan unumli foydalanadi [12].

Tadqiqotlar laboratoriya va dala tajribalari tariqasida amalga oshirildi. Bizning tadqiqotlarimiz ikki xil sharoitda o'tkazildi. Namlik yektarli bo'lgan sharoit CHDNS (cheklangan dala namlik sig'imi) - 70% da, qurg'oqchil sharoitda CHDNS - 50% da ushlab turildi. Tadqiqot davomida tritikale navlarining namli yektarli bo'lgan va qurg'oqchil sharoitda barglardagi suvni saqlash xususiyati rivojlanish fazalarida o'rganildi.

Ilmiy tadqiqotlar mobaynida to'plangan natijalar statistik qayta ishlash B.A.Доспехов [14], tavsiyalariga asosan bajarildi.

### Natijalar va muhokama

**Suvni saqlash qobiliyati.** Tadqiqot ishlarimizda namlik yektarli bo'lgan sharoit CHDNS (cheklangan dala namlik sig'imi) - 70% da, qurg'oqchil sharoitda CHDNS (cheklangan dala namlik sig'imi) - 50% da tritikale navlarining barglaridagi suv miqdori o'rganildi (1-jadval).

Barglardagi suv miqdori ertalabki vaqtlardan soat 14 gacha kamayib, so'ngra kechki vaqtlargacha suv miqdori yana ortib borishi kuzatildi. Bu qonuniyat barcha navlarda va fazalarda kuzatilgan. Suv miqdorining eng kamaygan vaqti soat 14 ga to'g'ri kelganligi aniqlangan.

### 1-jadval

Qurg'oqchil va namlik yektarli bo'lgan sharoitdagi tritikale navlarining barglardagi suvni saqlash qobiliyati 2022-2023 yillar (to'liq to'yinishga nisbatan % hisobida)

№	Navlar	Rivojlanish fazalari	CHDNS - 70%			CHDNS - 5%		
			Kunlik o'rtacha, %		Kunlik o'zgarish diapozon	Kunlik o'rtacha, %		Kunlik o'zgarish diapozon
			suvni yuqotish	suvni saqlash		suvni yuqotish	suvni saqlash	
1	Farxod	Tuplanish	14,1	85,9	5,8	12,5	87,5	5,1
2	Odissey		10,3	89,7	7,0	11,5	88,5	5,4
3	Valentin		12,4	87,6	5,1	13,2	86,8	6,0
4	Svat		13,2	86,8	6,8	12,8	87,2	5,4
5	Tixon		13,8	86,2	7,7	12,0	88,0	6,2
1	Farxod	Naychalash	17,1	82,9	8,6	16,9	83,1	6,8
2	Odissey		13,8	86,2	7,4	12,2	87,8	4,6
3	Valentin		14,7	85,3	8,2	16,6	83,4	7,5
4	Svat		15,8	84,2	8,3	15,7	84,3	6,0
5	Tixon		17,0	83,0	8,4	14,9	85,1	6,1
1	Farxod	Boshqoqlash	19,7	80,3	7,6	17,6	82,4	6,3
2	Odissey		15,8	84,2	8,2	14,7	85,3	5,2
3	Valentin		16,4	83,6	8,3	18,5	81,5	6,8
4	Svat		17,2	82,8	7,9	16,5	83,5	7,7

5	Tixon		18,7	81,3	8,8	15,5	84,5	5,7
1	Farxod	Gullash	21,1	78,9	8,1	18,1	81,9	6,9
2	Odissey		18,7	81,3	7,2	16,7	83,3	5,8
3	Valentin		17,6	82,4	8,7	19,1	80,9	7,5
4	Svat		19,4	80,6	9,1	17,2	82,8	8,4
5	Tixon		20,2	79,8	9,5	16,9	83,1	6,7
1	Farxod	Don pishish	20,1	79,9	8,5	19,3	80,7	6,6
2	Odissey		18,8	81,2	8,1	16,2	83,8	5,5
3	Valentin		17,1	82,9	8,8	19,5	81,5	7,4
4	Svat		19,8	80,2	9,0	18,6	81,4	8,3
5	Tixon		21,9	78,1	9,5	17,2	82,8	7,1

CHDNS (cheklangan dala namlik sig'imi) -70% sharoitda barcha fazasida suvni saqlash xususiyati yuqoriligi "Valentin" hamda "Odessiy" navlarida kuzatildi, suvni saqlash xususiyati nisbatan pastroq ko'rsatgich "Farxod" va "Tixon" navlarida kuzatildi. Naychalash fazasidan boshlab gullash fazasida tritikale navlarida barglardagi suv miqdori tuplanish fazasiga nisbatan biroz pasayganligi kuzatildi, bu fazalarda ham suvni saqlash xususiyati yuqoriligini "Valentin" va "Odessiy" navida ko'rish mumkin.

Tritikale navlarining suv yetarli va qurg'oqchil sharoitda yetishtirilgan na'munalaridagi suv saqlash qobilyati tahlil qilinganda qurg'oqchil sharoitda o'suvchi o'simliklarda suvni saqlash qobilyati bir oz yuqori bo'lishi kuzatildi. Suv cheklangan sharoitda tritikale navlarining qurg'oqchilikka chidamliligi ularning pastki bayroq bargi burchagi, pastki barg maydoni va stomata sonining kamligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [7].

Qurg'oqchil sharoitda "Valentin" va "Farxod" navlarida barglardagi suvni saqlash qobilyati nisbatan pastroq ko'rsatgichga ega bo'ldi. "Tixon" va "Odessiy" navlarida esa qurg'oqchil sharoitda barglardagi suvni saqlash qobilyati nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi.

Tuplanish fazasida suvni saqlash xususiyati yuqoriligi "Odessiy" hamda "Tixon" navlarida kuzatildi, kunlik o'rtacha suv miqdori "Odessiy" navida 88,5% hamda "Tixon" navida 88,0%, kunlik o'zgarish diapozoni "Odessiy" navida 5,4 va "Tixon" navida 6,2 bo'lishi aniqlandi. Suvni saqlash xususiyatini nisbatan pastroq ko'rsatgich "Valentin" navida kuzatildi.

Boshqalash, gullash va don pishish fazalarida ham suvni saqlash xususiyati yuqoriligi "Odessiy" hamda "Tixon" navlarida kuzatildi. Qurg'oqchil sharoitda yetishtirilgan tritikalening "Odessiy" va "Tixon" navlari boshqa navlarga nisbatan barcha rivojlanish fazalarida va kunning barcha vaqtida kamroq suv tanqisligiga uchrashi va qurg'oqchilikka nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi.

Biz tadqiqotlarimizda tritikalening mahsuldor ko'rsatkichlariga sharoitning ta'sirini o'rganishga xam e'tibor qaratdik va olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Tritikale navlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari (2022-2023 yillar)

№	Nav	1 m <sup>2</sup> - mahsuldor poyalar soni	Bo'y uzunligi (sm)	Oxirgi bug'un uzunligi (sm)	Boshqoq uzunligi (sm)	Boshqoq a boshqoq chalar soni	Boshqoqdag i donlar soni	1 boshqoqda gi don massasi (g)	1000 don massasi (g)
<b>CHDNS - 70%</b>									
1	Farxod	345	130,1	41,2	13,5	26,8	52,0	2,3	45,2
2	Odessiy	403	121,0	41,5	13,7	27,1	58,2	2,6	46,2
3	Valentin	370	130,9	37,5	13,2	31,3	55,4	2,4	43,1
4	Svat	359	115,7	29,7	13,6	29,4	50,0	2,3	47,6
5	Tixon	361	100,6	30,2	12,3	26,5	46,3	2,3	50,1
<b>Qurg'oqchil CHDNS - 50 %</b>									
1	Farxod	325	118,8	38,1	13,3	24,7	50,1	2,1	43,2
2	Odessiy	361	112,3	36,4	13,0	26,4	53,1	2,3	44,1
3	Valentin	323	118,5	34,2	13,5	28,0	50,6	2,1	41,7
4	Svat	340	111,4	26,1	12,7	27,6	48,3	2,2	45,3
5	Tixon	353	96,9	27,3	11,1	25,8	48,0	2,3	47,3

Tajribada morfologik ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilinganda CHDNS - 70% sharoitda tritikale navlarining poya balandligi o'rtacha 100,6 dan 130,9 sm, qurg'oqchil sharoitda tahlil qilinganda poya balandligi o'rtacha 96,9 dan 118,8 sm bo'lishi kuzatildi. Poya balandligi hamma vaqt ham hosildorlikni belgilab bermaydi. CHDNS -50% sharoitda "Tixon" qolgan navlarga nisbatan pastroq bo'lsada hosildorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi. Bu qurg'oqchil sharoitda tritikalening "Tixon" navi bardoshli ekanligidan dalolat beradi. Tritikale navlarida oxirgi bo'g'in uzunligi suv yetarli sharoit CHDNS - 70% sharoitda 29,7 - 41,5 sm oralig'ida bo'lishi aniqlandi, bo'g'in uzunligi eng past "Svat" navida 29,7 sm hamda yuqori natija "Odessiy" navida 41,5 sm bo'lishi qayd etildi. Qurg'oqchil CHDNS - 50% sharoitda esa, tritikale navlarida oxirgi bo'g'in uzunligi 26,1-38,1 sm oralig'ida bo'lishi aniqlandi, bo'g'in uzunligi eng past "Svat" navida 26,1 sm hamda yuqori natija "Farxod" navida 38,1 sm bo'lishi qayd etildi.

Tritikale navlarida boshqoq uzunligi bo'yicha tahlil o'tkazilganda, suv yetarli sharoit CHDNS-70% sharoitda uzun boshqoq "Odessiy" navida (13,7 sm), kalta boshqoq esa "Tixon" navida (12,3 sm) kuzatilgan bo'lsa, CHDNS -50% sharoitda uzun boshqoq "Valentin" navida (13,5 sm), eng kalta boshqoq "Tixon" navida (11,1 sm) kuzatildi. Namlik yetarli va qurg'oqchil sharoitda ham "Tixon" navida boshqoq uzunligi qolgan navlarga nisbatan kalta ekanligi aniqlandi.

Bir boshqoqdagi don soni bo'yicha yuqori natija CHDNS -70 % sharoitda "Odessiy" navida 58,2 dona kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich "Tixon" navida 48,0 dona bo'lishi qayd etildi. Qurg'oqchil CHDNS -50% sharoitda esa "Odessiy" navida 53,1 dona kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich "Svat" navida 48,3 dona dona bo'lishi qayd etildi.

O'tkazilgan tajribalar tahlil qilinganda bir boshqoqdagi don vazni bo'yicha yuqori natija CHDNS -70% va qurg'oqchil CHDNS -50% sharoitda ham "Odessiy" navida kuzatildi.

O'tkazilgan tajribalarda 1000 dona don vazni bo'yicha eng yuqori natija CHDNS -70% va qurg'oqchil CHDNS -50% sharoitda ham "Tixon" navida aniqlandi, past natija esa "Valentin" navida kuzatildi.

Qurg'oqchil sharoitda tritikale navlarining mahsuldorlig ko'rsatkichlari namlik yetarli sharoitga nisbatan bir oz pasayganligi, bunga sabab ayniqsa gullash fazasida changlanish, don hosil qilish suv tanqisligi ta'sirida fiziologik jarayonlarning sekinlashuvidir.

Tritikale navlari orasida "Odessiy" va "Tixon" navlari qurg'oqchilikka eng chidamli, "Valentin" navi esa suv ta'siriga eng sezgir genotip bo'ldi. Qurg'oqchilik stress sharoitida barglarda suvni saqlash xususiyati don hosildorligi bilan sezilarli va salbiy munosabatni ko'rsatdi, ularning nisbati esa namlik yetarli sharoitlarda sezilarli va ijobiy edi. Bu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, barglarda suvni saqlash xususiyati ham suv yetarli sharoitda, ham qurg'oqchil sharoitlarda don hosildorligiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

#### **Xulosa**

Ushbu tadqiqotda namlik yetarli bo'lgan CHDNS -70% va qurg'oqchil CHDNS -50% sharoitda barglarda suvni almashinuv xususiyati, mahsuldorlik natijalarini tahlil qilganda, natijalar shuni ko'rsatdiki, suvni saqlash xususiyati ham atrof-muhit sharoitida, ham, xususan, qurg'oqchilik stressi sharoitida don hosildorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, har ikkala muhit sharoitida "Odessiy" navi bardoshli ekanligini aniqlandi.

Qurg'oqchil sharoitda yetishtirilgan tritikalening "Odessiy" va "Tixon" navlari boshqa navlarga nisbatan barcha rivojlanish fazalarida va kunning barcha vaqtida kamroq suv tanqisligiga uchrashi va qurg'oqchilikka nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Blum A. The abiotic stress response and adaptation of triticale - A review. *Cereal Res. Commun.* 42, 359-375. <https://www.jstor.org/stable/24689411>
2. Cantale C., Petrazzuolo F., Correnti A., Farneti A., Felici F., Latini A., Galeffi P. Triticale for Bioenergy Production. Florence "Sustainability of Well-Being International Forum". 2015: Food for Sustainability and not just food, Florence SWIF2015. Agriculture and Agricultural Science Procedia 8 (2016) 609-616 (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0>)
3. Dobрева St. Triticale – past and future//Agricultural science and technology, 2016. Vol. 8(4). – P. 271–275. DOI:[10.15547/ast.2016.04.051](https://doi.org/10.15547/ast.2016.04.051)
4. Fowler D, Coyle M, Skiba U, Sutton M. A, Cape J. N, Reis S, et al. (2013). The global nitrogen cycle in the twenty-first century. *Philosop. Trans. Royal Soc. B: Biolog. Sci.* 368:20130164. <https://doi.org/10.1098/rstb.2013.0164>
5. Giunta F, Motzo R, Deidda M. Effect of drought on yield and yield components of durum wheat and triticale in a Mediterranean environment. *Volume 33, Issue 4*, June 1993, Pages 399-409 [https://doi.org/10.1016/0378-4290\(93\)90161](https://doi.org/10.1016/0378-4290(93)90161)
6. internet: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Payariq\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Payariq_tumani)
7. M. Lonbani and A. Arzani Morpho-physiological traits associated with terminal droughtstress tolerance in triticale and wheat *Agronomy Research* 9 (1-2), 315-329, 2011 <https://agronomy.emu.ee/vol091/p9105>
8. Mergoum M; Gómez-Macpherson H (2004). "Triticale improvement and production" (PDF). FAO. Retrieved 2010-11-25 <https://www.fao.org/3/y5553e/y5553e.pdf>
9. Munjonji L, Kwabena K Ayisi Leaf gas exchange and  $\delta^{13}C$  in cowpea and triticale under water stress and well-watered conditions. *Heliyon* 7 (2021) e07060 <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2021.e07060>
10. Oetter G, 2005. The fortune of a botanical curiosity – Triticale: past, present and future. *Journal of Agricultural Sciences*, 143, 329-346. DOI:[10.1017/S0021859605005290](https://doi.org/10.1017/S0021859605005290)

11. Tamagno S, Pittelkow CM, Fohner G, Nelsen TS, Hegarty JM, Carter CE, Vang T and Lundy ME (2022) Optimizing water and nitrogen productivity of wheat and triticale across diverse production environments to improve the sustainability of baked products. *Front. Plant Sci.* 13:952303. <https://doi.org/10.3389/fpls.2022.952303>
12. Tursunov A, Urokov S Effect of Microelements (B, Zn) on Cotton Plant's Productivity, Its Leaf Area and Plant Height *American Journal of Plant Sciences*, 2023, 14, 955-967 DOI:[10.4236/ajps.2023.148064](https://doi.org/10.4236/ajps.2023.148064)
13. Zhu F. Triticale: Nutritional composition and food uses. *Food Chem.* 2018 Feb 15;241:468-479. doi: 10.1016/j.foodchem.2017.09.009. Epub 2017 Sep 6. DOI:[10.1016/j.foodchem.2017.09.009](https://doi.org/10.1016/j.foodchem.2017.09.009)
14. Dospheov B.A. Methodology of field experience. - M.: Agropromizdat, 1985. -347 p. (Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.- М.: Агропромиздат, 1985. - 347 с.) [https://mf.bmstu.ru/assets/files/soil\\_books/uchebnik9.pdf](https://mf.bmstu.ru/assets/files/soil_books/uchebnik9.pdf)
15. Kozmina N.P. New grain crop - triticale and its technological properties / - M.: TsNIITEN, 1976 (Козьмина Н.П. Новая зерновая культура - тритикале и ее технологические свойства / - М.: ЦНИИТЭН, 1976 г) [http://www.rusnauka.com/6\\_PNI\\_2012/Agricole/5\\_102245.doc.htm](http://www.rusnauka.com/6_PNI_2012/Agricole/5_102245.doc.htm)
16. Mazurov V.N, Sanova Z.S, Dzhumaeva N.E, Ereemeev V.I. Guidelines for the use of winter triticale in feeding highly productive dairy cows - Kaluga, 2014. - P. 29 (Мазуров В.Н, Санова З.С, Джумаева Н.Е, Еремеев В.И. Руководство по использованию тритикале озимой в кормлении высокопродуктивных молочных коров – Калуга, 2014. – С. 29.)
17. Fedorov A. K., Triticale is a valuable grain crop // *Feed production*. 1997. – No. 5. – pp. 41-43. (Федоров А. К, Тритикале – ценная зерновая культура // *Кормопроизводство*. 1997. №5. - С. 41-43.
18. Khojaev J.Kh. Physiology of plants. - Tashkent: 2004.-223 p. (Хўжаев Ж.Х. Ўсимликлар физиологияси. – Тошкент: 2004.-223 б.) <https://e-library.namdu.uz>
19. Hasanov I.A, Ghulomov P.N. Natural geography of Uzbekistan. (part 1). - Tashkent, UzMU.-2009. -176 p. (Ҳасанов И.А, Ғулломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. (1-қисм).- Тошкент, УзМУ.-2009. -176 б.) <https://www.ziyouz.com/>
20. Shabolkina E.N., Goryanina T.A. Selection of winter triticale for baking // *News of the Samara Scientific Center of the Russian Academy of Sciences*. – Samara 2014. – Т. 16. – No. 5–3. pp. 1181-1183.(Шаболкина Е.Н., Горянина Т.А. Селекция озимого тритикале для хлебопечения // *Известия Самарского научного центра РАН*. – Самара. 2014.- Т.16.- №5-3. - С. 1181-1183.



**БИОМОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НОВЫХ МЕЖВИДОВЫХ МОНОСОМНЫХ ГИБРИДОВ F<sub>1</sub>, ПОЛУЧЕННЫХ ОТ СКРЕЩИВАНИЙ МОНОСОМНЫХ ЛИНИЙ ВИДА G.HIRSUTUM L. С ЛИНИЕЙ PIMA 3-79 ВИДА G.BARBADENSE L.**

Санамьян М.Ф., Ш.У. Бобохужаев, Уралов Ж.С., Рустамов А.Б.

Национальный университет Узбекистана им. М. Улугбека, г. Ташкент, Узбекистан

*Впервые было проведено биоморфологическое описание моносомных гибридов F<sub>1</sub> с замещениями отдельных хромосом (полученных от скрещивания моносомных Мо69, Мо71, Мо76, Мо81 линии вида G.hirsutum L. с линией Pima 3-79 вида G.barbadense L.). Новых межвидовых моносомных гибриды F<sub>1</sub> различались между собой по таким признакам, как облиственность куста, размер и форма листа, длина плодоножки и коробочки и другим.*

**Ключевые слова:** хлопчатник, хромосом-замещенные гибриды, форма листа, прицветник, выступ рыльца, длина плодоножки и коробочки.

**G.HIRSUTUM L. TURINING MONOSOMIK LINIYALARINI G.BARBADENSE L. TURINING PIMA 3-79 LINIYASI BILAN CHATISHTIRIB OLINGAN F<sub>1</sub> YANGI TURLARARO MONOSOMIK DURAGAYLARIDA BIOMORFOLOGIK TAHLILI**

*G'o'za o'simligida birinchi marodaba alohida xromosomasi-almashgan (G.hirsutum L. turining monosomik Mo69, Mo71, Mo76, Mo81 liniyalarini G.barbadense L. turining Pima 3-79 liniyasi bilan chatishtirib olingan F<sub>1</sub>.) F<sub>1</sub> monosomik duragaylarda biomorfologik tahlil olib borildi. Yangi turlararo monosomik F<sub>1</sub> duragaylarda bir birlari quyidagi belgilari bilan farqlandi, poyani barglanishi, barglarni shakli va o'lchami, ko'sak bandi va ko'sak uzunligi va boshqalar.*

**Kalit so'zlar:** g'o'za, xromosomasi-almashgan, barg shakli, gul osti kosacha bargi, tumshuqcha, ko'sak bandi va uzunligi.

**BIOMORPHOLOGICAL ANALYSIS OF NEW INTERSPECIES MONOSOMIC F<sub>1</sub> HYBRIDS OBTAINED FROM CROSSING MONOSOMIC LINES OF G.HIRSUTUM L. SPECIES WITH PIMA 3-79 LINE OF G.BARBADENSE L. SPECIES.**

*For the first time in the Republic of Uzbekistan, a biomorphological description of monosomics F<sub>1</sub> hybrids with substitutions of individual chromosomes was carried out (obtained from the crosses monosomics Mo69, Mo71, Mo76, Mo81 lines species G.hirsutum L. with line Pima 3-79 species G.barbadense L.). New interspecies monosomic F<sub>1</sub> hybrids differed among themselves according to such characteristics as the foliage of the bush, the size and shape of the leaf, the length of the peduncle and the bolls and others.*

**Key words:** cotton, chromosome-substituted hybrids, leaf shape, bract, stigma, stem length and bolls.

**Введение**

Для снижения негативных эффектов межвидовой несовместимости в течении интрогрессии целого генома хлопчатника, создаются хромосом-замещенные линии, которые несут единственную пару хромосом от другого вида. Существуют разные методы создания замещенных линий у видов полиплоидного происхождения [2; 3; 4; 5; 6; 8].

Saha S. с соавт. [10] впервые сообщили о характеристиках хозяйственно-ценных признаков у 13 полученных хромосом-замещенных линий хлопчатника (CS-B), у которых отдельные хромосомы или отдельное плечо хромосомы вида *G.hirsutum* были замещены соответствующими хромосомами или плечами вида *G.barbadense* с помощью гипоанеуплоидов. В результате было выяснено, что линии с замещением специфических хромосом от линии Pima 3-79 вида *G.barbadense* различались между собой по выходу, крепости и длине волокна, а также микронеюру относительно линии TM-1 вида *G.hirsutum*, являющейся генетическим для этого вида в США.

Позже Stelly D.M. с соавт. [19] зарегистрировали 17 дисомных хромосом-замещенных линий хлопчатника, которые наряду с ранее описанными [10]. Кроме того, позже была расширена программа по разработке линий с замещениями отдельных хромосом из первичного генофонда путем привлечения других тетраплоидных видов - *G.tomentosum* Nutt. Ex Seem. и *G.mustelinum* Miers Ex Watt. для улучшения хлопчатника [11,12].

Saha с соавт. [14] изучили результаты трех-видовой перетасовки хромосом для обнаружения хромосомной ассоциации важных признаков волокна среди CS линий с участием вида *G. tomentosum* (CS-T), а также вида *G.barbadense* L. (CS-B) и TM-1 (*G.hirsutum*) – рекуррентный родитель с улучшенными агрономическими признаками и качеством волокна.

Все линии CS произвели плодородные цветы и семена с волокнами из коробочки с волокнами с общей морфологией, такими как TM-1, рекуррентным родителем Upland. Большинство линий CS не имели фенотипов, таких как их родительский - донорам. Некоторые CS линии были фенотипически отличительными от TM-1, предполагая, что фенотип мог быть унаследован через замещенную интрогрессия хромосому или сегмент хромосомы. Например, CS-B18 продуцировал цветочные бутоны с открытым почерком, со стигмой выступающий из бутона во время его развития. CS-B04 линии более низкое растение, чем CS-M04 и CS-T04, а также CS-T04 линия раннее созревание с более открытым коробочкой, чем CS-M04 и CS-B04, у CS-M04 линии очень позднее цветение и созревание, чем выше линии CS-T04, CS-B04 [13]

#### Материалы и методы

Материалом для исследований служили моносомные линии хлопчатника различного происхождения из Цитогенетической коллекции хлопчатника вида *G. hirsutum*L. Национального университета Узбекистана им. Мирзо Улутбека [15,16, 17, 18], которые были созданы в единой генотипической среде высоко инбредной линии Л-458, полученной М.Ф. Абзаловым и Г.Н. Фатхуллаевой в результате многолетнего инбридинга и отбора среди сортовой популяции 108-Ф.

***Аннотация:** Роль таких суфизма, как Алауддин Аттар, работавших в тарикате, бесподобна в развитии учения Накшбанди. В статье раскрывается роль Алауддина Аттара в становлении и истории учения, мудрости пиров тарикаты, распространении принципов его учения. Подчеркивается, что он взял на себя инициативу в разработке вероучительных идей.*

***Ключевые слова:** Накшбандия, учение, тарикат, Аттар.*

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS FOR STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALAUDDIN ATTOR

Erkin Rakhmatov

doctoral student at Samarkand State University

e-mail: erkinrahmatov@mail.ru

***Annotation:** The role of such Sufists as Alauddin Attar, who worked in the Tariqa, is incomparable in the development of the teachings of Naqshbandi. The article reveals the role of Alauddin Attar in the formation and history of the teaching, the wisdom of tariqa pirs, and the dissemination of the principles of his teaching. It is emphasized that he took the initiative in developing doctrinal ideas.*

***Key words:** Naqshbandiya, teaching, tariqa, Attar.*

### Kirish

XIV-XV asrlarda ijtimoiy-ma'naviy hayotda tariqatlarning ta'siri kuchli edi. Xususan, Naqshbandiya tariqatining xalqchil hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga yaqin g'oyalari xalqni jipslashtirishga, hunarmandchilikning rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy-mafkuraviy omil sifatida o'z mavqeiga ega edi. Tariqatning ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi, tili va millatidan qat'iy nazar Movarounnahr va Xuroson o'lkalaridagi xalqlarni birlashtirdi. O'zida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, yakdillik, axloqiy poklik, beozorlik, bag'rikenglik, halol mehnat qilish kabi

yuksak g'oyalarni jamlagan bu mo'tadil tariqat oddiy fuqarodan tortib, podshohlarga qadar o'z ta'sirini ko'rsata olgan edi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Eron tasavvufshunos olimi Tohiri Iroqiy "Risolai qudsiya" ("Muqaddas so'zlar") asari so'z boshida "Temur asrida nashbandiyalar", deb nomlangan maqolasida bunday yozadi: "Xoja Abduxoliq G'ijduvoni va uning xalifasi Bahouddin Naqshband haqiqatdan ham islomiy tasavvuf islohotchilaridir, bu tariqat chillanishlik, xilvatninishlik, qalandarvash darveshlikni rad etadi. U zohiriy rasm-rusm, taqliddan uzoq bo'lgan, haqiqiy "irshod" va "irfon" ga asoslangan, tarbiya va odobni maqsad qilgan mo'tadil sunniy tariqatdir". Amir Temur va temuriy shahzodalarning naqshbandiya tariqatiga ixlosi va Bahouddin Naqshband hamda shogirdlariga ishonchi ushbu tariqatning keng targ'ib bo'lishiga imkon yaratgan edi. Temur tuzuklaridagi "Yana tajribamdan ko'rdimki, agar davlat dinu tartib asosida qurilmas ekan, to'ratuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har bir kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim" [4] - ushbu fikrlar temuriylar saltanati uchun muhim tamoyil sifatida amal qilgani yuqoridagi fikrimizni dalillaydi. Naqshbandiya tariqati tarbiya va poklanishga qaratilgan so'fiyona tajribalar inson kamolotining bekamu-ko'stligini, ruhiy-ma'naviy yuksalish yo'llarini ko'rsatib berdi. Bahouddin Naqshband o'z shogirdlarini (muridlarini) shu darajada sodiq qilib tayyorladiki, ular ushbu tariqat g'oyalarining umrboqiyiligiga munosib hissa qo'shdilar. Professor J.Xolmo'minov fikriga ko'ra, Xoja Bahouddin Naqshbanddan so'ng xojagon-naqshbandiya tariqati ikki yo'nalishga ajralib ketdi. Birinchi yo'nalish Xoja Alouddin Attor orqali Xoja Ya'qub Charxiyga (vaf. h.q. 851-y.), undan Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyga (vaf. h.q. 895-y.) borib taqalsa, ikkinchi yo'nalish Xoja Muhammad Porso orqali uning o'g'li - Abu Nasr Porsoga (vaf. h.q. 865-y.), undan Nizomiddin Xomushga, undan esa Hazrati Jomiyning murshidi - Shayx Sa'diddin Koshg'ariyga (vaf. h.q. 860-y.) yetib, keyingi davrlarda ahroriya, xilvatiya, kumushxonaviya va mujaddidiya kabi bir qancha tarmoqlar va sho'balarga bo'linib ketgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun qo'llaniladigan germenevtika, analiz, sintez va analogik tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

### **Tahlillar va natijalar**

Xoja Alouddin Attor naqshbandiylik tariqatining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U o'z davrida boshlang'ich ta'limni Buxoroning mashhur madrasalarida olgan. Uning Bahouddin Naqshband huzuridagi tahsili ilmga bo'lgan tirishqoqligi Bahouddin Naqshbandning nazari e'tiborini tortgan. Bu uning keyinchalik Bahouddin Naqshbandning qizlariga uylanib kuyov hamda birinchi xalifasiga aylanishiga sabab bo'lgan. Alouddin Attor ustoz Bahouddin Naqshbanddan tariqat ilmlarini chuqur o'rgangan. Shariat tariqat, ma'rifat darajalariga erishgan yirik murshid sifatida shakllangan. Uning dunyoqarashi avvalo Buxoroning ilm va ma'rifatga maskanlik muhiti, Buxoro madrasalaridagi diniy va dunyoviy ilmlar ayniqsa, Qur'on, hadislardan olgan saboqlari g'oyaviy asos sifatida o'z ta'sirini ko'rsatdi. Alouddin Attor shu ma'noda umrining oxirigacha naqshbandiylik ta'limoti sof e'tiqoddagi ta'limot ekanligini



himoya qilishda va targ'ib qilishda muhim rol o'ynadi. Xoja Muhammad Porso "Risolai qudsiya" asarida Alouddin Attorning "agar umr boqiy bo'lsa, inshoalloh, ulug' xoja (Bahouddin Naqshbandning) tariqatini joriy etgumdir" [7] degan fikrini keltiradi. Xoja Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" ("Qudsiy kalimalar haqida risola") asari Xoja Alouddin Attor taklifi bilan yozilgan. Faxriddin Ali Safiyning "Rashohati ayn ul-hayot" ("Obi hayot tomchilari") kitobida yozilishicha, uning to'liq ismi Muhammad ibn Muhammad al Buxoriy, asli Xorazmdan edi. U hali madrasani tugatmasdanoq Hazrati Xojani o'ziga pir tutib, uning sulukiga kiradi. Hazrati Xoja uni e'zozlab, domodlikka qabul qiladilar. Attor bir umr Hazrati Xoja bilan birga bo'lib, u kishining ishorati bilan ko'p kishilarni o'z tarbiyasiga oladi. U Hazrati Xoja vafotidan 11 yil o'tgach, 802 hijriy /1399-yilda vafot etadi [2].

Ya'ni, Naqshbandiya ta'limotini Hazrati Xoja vafotlaridan keyin yana 11 yil davomida birlik asosida minglab shogirdlarni hamjihatlikda birlashtirib, halollik yo'lini tanlab, ezgu amallar qilishiga bosh bo'ldi. Ta'limot markazini Chag'oniyonga olib o'tilishi bilan tariqat sarhadi va a'zolari safini ancha kengaytirdi. Asar ancha oldin yozib boshlangan, har xil sabablar bilan orqaga surilgan va oqibatda 804/1401-yildagina yozib tugatilgan [4]. Demak, u Hazrati Xoja vafotidan 13 yil, Xoja Alouddin Attor vafotidan 2 yil keyin yozilgan. "Risolai qudsiya" yozilayotgan vaqtda "Maqomat" hali yozib tugatilmagan edi. Muhammad Boqir esa Xoja Muhammad Porso asaridan foydalangani haqida shunday yozadi: "Bu zikr (xotira)lar Hazrati Eshonning ishonchli kishilari, chunonchi, Xoja Alouddin Attor va qutb ul-avliyo, ya'ni janobi hazrati Xoja Muhammad Porso... tillaridan bevosita yoki bevosita eshitilgan yoki naql qilgan mo'tabar kitoblaridan olinib, bu "Maqomat" ga kiritildi. [4]

Xoja Muhammad Porsoning "Moqomati Xoja Alouddin Attor" risolasida bayon qilinishicha Alouddin Attor Bahouddin Naqshband vafotidan keyin Chag'oniyonning Dehnav qishlog'iga (1389-1396y.) ko'chib kelgan. Alouddin Attorning eng katta xizmatlari Bahouddin Naqshband bilan birga yurib uning aytgan qudsiy kalimalarini yig'ib, kitob tartib berishi bilan izohlanadi. Jumladan, "Maqomat" asarining ko'p qismi Alouddin Attor tilidan olingan o'zi so'zlab bergan. Bu uslub Muhammad Boqirning "Maqomati Xoja Naqshband" asarida "Xoja Alouddin aytmishlar" deb saqlab qolingan. Alouddin Attorning tasavvufga doir ko'plab so'zlari va irfoniy qarashlari Xoja Muhammad Porso merosida o'z ifodasini topgan. Alouddin Attor va Muhammad Porsoning Bahouddin Naqshband g'oyalari, irfoniy so'zlari, naqshbandiya tariqati tamoyillarining keyingi davrlarga yetib kelishida, tariqatning rivojlanishi, olamshumul tariqatga aylanishidagi xizmatlari beqiyosdir. Chunonchi, Bahouddin Naqshband har ikkala shogirdlarining qobiliyati, salohiyatini yuksak baholagan. Ularni doim o'z yonida olib yurgan. Hamidjon Homidiy o'zining "Tasavvuf allomalari" kitobida "Bahouddin Naqshband Buxoroga qaytib kelgach olim shogirdlari Muhammad Porso va Alouddin Attor bilan birga Xuroson, Eron hamda iroq orqali Hajga jo'naydi. Ular yo'lda Balx, Marv, Hirot, Nishopur Bag'dod va Damashq kabi ko'plab shaharlarda bo'ladilar: Bistomiy, Junayd Bag'dodiy, Mansur Xalloy, Abu Abdullo Mag'ribiy singari mashhur so'fiy-mashoyixlar, Marv so'fizmi ta'limotining allomalari maqbaralarini ziyorat qiladi: "anal Haq" lik ijodkoriga katta hurmat ko'rsatgan" [9], deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Xoja Muhammad Porso va Alouddin Attor uning ma'ruzalarini, hikmatli so'zlarini yozib to'plab yurgan. O'tmishda yaratilgan "Hazrat Bahouddin Naqshband maqomatlari" ga kirgan barcha gaplar, ustozning fikrlari, uning dahosi xususidagi ko'plab rivoyatlar shu manbalardan olingan yoki ularga unga tayanib yozilganligini uqtiradi. Demak, bevosita Bahouddin Naqshbandning qudsiy suhbatlari, kalimalari, uning qarashlari asosida



shakllangan dunyoqarash Naqshbandiya tariqatining rivojida keyinchalik ta'limot darajasiga ko'tarilishida Muhammad Porso va Alouddin Attor xizmatlari ahamiyati katta bo'lgan.

#### **Xulosalar**

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Naqshbandiylik ta'limotida komil inson tarbiyasi uch asr mobaynida shakllangan tamoyillar asosida amalga oshirilgan. Bu tamoyillar halol mehnat qilib, o'zgalarning og'irini yengil qilish g'oyalari asoslangan. Natijada, "Dil ba yoru dast ba kor" bunyodkorlik g'oyasi shakllangan. Alouddin Attor qarashlaridagi jismoniy, nafsoniy, aqliy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy manfaatlarni uyg'unlashtirgan g'oyalar komil inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdulhusayn Zarrinko'b. Dunbole-ye justuju dar tasavvuf-e Iron. – Tehron: Amir-e Kabir, 1383.
2. Abdul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogordon (Manoqib) –T.: Yozuvchi, 1993.
3. Buzrukov M.. Temuriylar davri Samarqand ilmiy-ma'naviy muhitida tasavvuf namoyandlarining tutgan o'rni. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss., – Samarqand, 2023.
4. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri.- Toshkent: ma'naviyat, 2008.
5. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati. – T.: 1994.
6. Muxammedxodjayev A. Ideologiya naqshbandizma. – Dushanbe: Donish, 1991.
7. Falsafa qomusiy lug'at.(tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov) Toshkent: Sharq, 2004.
8. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasi.- Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004.
9. Xomidiy H. Tasavvuf allomalari.-Toshkent: Sharq, 2004.

## XOJA ISMAT BUXORIY FALSAFIY QARASHLARIDA INSON KAMOLOTI MASALASI

Raupova Ra'no Soyibovna  
BuxDU Islom tarixi va manbashunosligi,  
falsafa kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** *Xoja Ismat Buxoriyning o'rta asrning murakkab va ziddiyatli davrida Movarounnahr va Xuroson madaniy muhitida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, temuriylar davri yuksalishlariga munosib hissa qo'shgan, ikkinchi Renessans davri mutafakkiri, temuriyzodalar ustози, mudarris, shoir va olim ekanligini tarixiy manbalarga tayanib asoslangan. Mazkur maqolada Xoja Ismat Buxoriy qarashlarining inson kamolotidagi ahamiyati, inson kamoloti, xotirjamlik, ilohiy ishq, alloma merosining axloqiy-tarbiyaviy jihatlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ilohiy ishq, tasavvuf, panteistik ta'limot, iymon, ma'rifat, komil inson*

## ВОПРОС СОВЕРШЕНСТВА ЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДАХ ХОДЖИ ИСМАТА БУХОРИ

Raupova Rano Soyibovna  
Бухарский государственный университет, доцент кафедры История ислама и  
источниковедение, философия

**Аннотация:** *Опираясь на исторические источники, в сложный и противоречивый период средневековья Ходжа Исмаат Бухари занимал особое место в культурной среде Мавераннахра и Хорасана, внес достойный вклад в подъем эпохи Тимуридов, был мыслителем эпохи Второго Ренессанса, наставником Тимуридов, мударрисом, поэтом и ученым. В данной статье анализируется значение взглядов Ходжи Исмата Бухари на человеческое совершенство, развитие человека, душевное спокойствие, божественной любви, нравственных и воспитательных аспектов наследия ученого и их роли в воспитании молодежи.*

**Ключевые слова:** *божественная любовь, суфизм, пантеистическое учение, вера, Просветление, совершенный человек.*

## ISSUE OF HUMAN PERFECTION IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF KHOJA ISMAT BUKHARI

Raupova Ra'no Soyibovna  
Bukhara State University, Associate professor  
of history of Islam and source studies, philosophy

**Annotation:** *Based on historical sources that Khoja Ismat Bukhari was a poet and scientist, thinker of the second Renaissance period, teacher of Timurids, mudarris, who had a special place in the cultural environment of Movarunnahr and Khorasan in the complex and conflicting period of the Middle Ages, made a significant contribution to the rise of the Timurid era. This article analyzes the importance of Khoja Ismat Bukhari's views on human development, human development, calmness, divine love, moral and educational aspects of the scientist's legacy and their role in youth education.*

**Key words:** *divine love, Sufism, pantheistic teaching, faith, Enlightenment, perfect man.*

## **Kirish**

Xoja Ismat Buxoriy asarlarida islomning insonparvarlik mohiyatini, ilm va ma'rifat yo'lini talqin etadi. Shu ma'noda uning merosida diniy-falsafiy masalalar yechimida ahli sunna va jamoa e'tiqodi asosidagi mo'tadil axloqiy-tarbiyaviy g'oyalar muhim o'rin tutadi.

Mutafakkir merosining ekzestensial mohiyatida inson hayotining ma'nosi, mazmuni, tiriklik ne'matining bahosi o'z ifodasini topadi. Xoja Ismat Buxoriy o'rta asrlar xususan Amir Temur vafotidan keyin temuriyzodalar davridagi toju-taxt uchun kurashlar, jamiyat hayotidagi noqisliklar, insoniy munosabatlardagi darz ketgan qadriyatlarning guvohi bo'lgan. O'zi saroyda yashasada faqirona xotirjam hayot kechirishni ma'qul ko'rgan. Demak, mutafakkir fikricha, fozil kishilar uchun har qanday boylik ma'naviy boylikdan ustun bo'lolmaydi, insonning ruhiy-ma'naviy olamining boyligi uni yaxshi yashash, jamiyatda, kishilar orasida o'z o'rniga ega bo'lishga yo'l ochadi. Insonlarni iymonli, e'tiqodli, halol, pok, ma'rifatli bo'lishga undaydi. Bu fazilatlarga ega bo'lgan shaxslardan iborat jamiyat odil va ma'naviy barqaror bo'lib farovonlikka olib boradi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Xoja Ismat Buxoriyning ma'naviy merosi xususidagi tarixiy, tazkiraviy tUSDagi manbalar Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", Xondamirning "Habib us-siyar", Ali Taqiuddin Koshoniyning "Xulosat ul-ash'or va zubdat ul-afkor", Amin Ahmad Roziyning "Haft iqlim", Abdullo Kobuliyning "Tazkirat ut-tavorix", Mirsaid Roqim Samarqandiyning "Tarixi kasira", Lutf Alibek Ozarning "Otashkada" asarlarida o'z ifodasini topgan.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqolani tayyorlashda analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

## **Tahlil va natijalar**

Xoja Ismat Buxoriy merosida «ilohiy ishq» ontologik asnodan ifodlanadi. Bu albatta tasavvuf falsafasiga xos xususiyatlardan biridir. Chunki, sharqda tasavvuf adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida bu mavzu o'ziga xos tarzda irfoniy mohiyat kasb etgan. Olamning yaralishi, insonning Haqqa muhabbati va Haqning insonga muhabbati masalalari aynan «ilohiy ishq» tushunchasi bilan dalektik bog'lanadi. Insonning botinini poklash, botiniy ibodat, qalb tozaligi Haq vasliga yetishish yo'lidir. Xoja Ismat Buxoriy o'zining nazmiy asarlari temuriylar davri madaniy yuksalishlariga munosib hissa qo'shgan mutafakkir bo'lishi bilan birga jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan tariqat ahllari, oriflari, olimlari bilan yaqin munosabatlarda bo'lgan.

Ma'rifat ilmi tasavvuf tariqatlarining natijasi va bevosita davomchisi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Tasavvufda, tom ma'noda haqiqatni bilish va shu asosda ilohiy zotni sevish manbaidir. Tasavvuf ma'rifat aql o'lchovlaridan yuqori turadigan ilm hisoblanadi va inson qalbi irfon mahzaniga o'xshatiladi. Shuning uchun bu ta'limot qalb orqali inson o'z asli bo'lgan haqiqatni bila oladi degan fikrda turadi va tasavvufga mohiyatan haqiqat deb qaraladi. Xoja Ismat haqiqiy oshiq ma'rifatli bo'ladi, ya'ni asl haqiqat unga ayon bo'ladi deydi. Shu bilan insoniylik sifatleri mujassam, tasavvuf ahli eran, mard deydir mard komil insonlarni ham Xoja Ismat ishq vujudga keltiradi deydi. U bunday oshiqlar oyog'i tekkan tuproq ham kimiyoi saodat bo'lib, qiyomat kunida insonni obro'li qilishini yozadi. Donishmand shoir ruboiylarida mohiyatan kamtarinlik, niyozmandlik, halimlik, faqirlik va haqirlik fazilatlarini tarannum etadi. Inson kamolotiga daxldor bo'lgan oshiqni haqiqiy hur va erkin kishiga aylantiradi. Alloh ishqini

insondagi ilohiylik sifat deb qarab, uni vujudga keltiruvchi manba, kuch-quvvat, qudrat manbai sifatida ishqni yuqori baholaydi.

Xoja Ismat Buxoriy falsafiy merosining asosiy mavzularidan birini ishq mavzusi tashkil etadi. Buning o'ziga xos sabablari bor albatta. Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf falsafasida ham ishq mavzusi doimiy tarzda yetakchilik qilgan. Xoja Ismatulloh Buxoriy g'azallari va she'rlari o'z davrining mahsuli bo'lib, davrning mafkuraviy, falsafiy, adabiy an'analari bilan uyg'unlikda yaratilgan. Ularda oshiq va ma'shuqning vafo va sadoqati, ishq iztirobi va azobu uqubatlari, ayriliq g'ami, tanholik, raqib fitnasidan shikoyat kabi mavzular kuylanadi. Garchi Xoja Ismatulloh Buxoriy ijodi mavzu jihatdan Sharq tasavvufiy va adabiy an'anasi bilan mushtarak bo'lsa-da, o'zining mazmunan teranligi, betakror obrazlarga boyligi bilan alohida xususiyat kasb etadi. Shoir she'rlarida ifodalangan "ishq", "ishq g'ami", "ishq dardi" uning qalb qo'rida jilo topgan, yuksak badiiyatga ega fikr va tuyg'ulardir.

Xoja Ismat dunyoqarashi vahdati vujud (arabcha, jismoniy birlik) - abadiy yagona Alloh bor deb hisoblovchi panteistik ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, jismoniy olam, predmetlar dunyosi haqiqiy emas, Haqiqat faqat Allohga mujassamlashgan, moddiy olam Allohning nuri, shu'lasidir va vahdati mavjud (arabcha, mavjudot birligi) – Alloh bilan birga yagona moddiy olam bor deb hisoblaydigan ta'limot. Bu ta'limot tarafdorlari tabiatning abadiylikini tan oladilar. Alloh odamning o'zida, unga singib ketgan deb qaraydilar.

Shunday qilib, ishq ham iymonning tarkibiy tizilmasidagi ixlos- e'tiqoddur. Iymon diniy, ishq esa tasavvufiy ruhiy hodisadir. "Iymon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi – ishonchdir. Shariatda esa payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Alloh taolo tarafidan keltirgan barcha xabarlariga til bilan iqror etib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi, ya'ni Qur'oni Karim va hadisi shariflar orqali Alloh to'g'risida, jannat va do'zax, qiyomat kabi g'aybiy narsalar haqida berilgan xabarlariga ishonch – iymondir" [1]. Ishaq esa ong va tafakkurdan oziqlangan ruhiy qadriyat bo'lib, dil bilan iqror bo'lish, jon va ruh, ya'ni butun vujudini Alloh bilan birlashtirish, Allohdan yaralib, Allohga singish demakdir.

Xoja Ismat o'z ruboiysida ilohiy ishqda yongan komil inson haqiqiy, hur, ilohiy ishqda kuygan, qalbi jigarpora bo'lgan, o'zini bu yo'lda fido qilgan, ozod va erkin, murakkab va sodda inson timsolini yaratadi. Haq yo'lidan borayotgan Komil insonni Xoja Ismat shunday ta'riflaydiki, uning ilohiy vujudida ishq uzoq muddatdan beri mahrami rozdir. Shuning uchun ikki dunyoni sarmast qiladigan boda, uning paymonasidir.

Xoja Ismat bu ruboiysi bilan haqiqiy hur, ozod, erkin kishi ilohiy ishqda kuygan, qalbi, jigarlari pora bo'lgan, o'zini bu yo'lda fido qilgan inson ekanligini ta'kid etmoqda.

Ma'rifat ilmi tasavvuf tariqatlarining natijasi va bevosita davomchisi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Tasavvufda, tom ma'noda haqiqatni bilish va shu asosda ilohiy zotni sevish manbaidir. Tasavvuf ma'rifat aql o'lchovlaridan yuqori turadigan ilm hisoblanadi va inson qalbi irfon mahzaniga o'xshatiladi. Shuning uchun bu ta'limot qalb orqali inson o'z asli bo'lgan haqiqatni bila oladi degan fikrda turadi va tasavvufga mohiyatan haqiqat deb qaraladi. Xoja Ismat haqiqiy oshiq ma'rifatli bo'ladi, ya'ni asl haqiqat unga ayon bo'ladi deydi. Shu bilan insoniylik sifatleri mujassam, tasavvuf ahli eran, mard deydir mard komil insonlarni ham Xoja Ismat ishq vujudga keltiradi deydi. U bunday oshiqlar oyog'i tekkan tuproq ham kimiyoi saodat bo'lib, qiyomat kunida insonni obro'li qilishini yozadi. Barkamol, komil inson asl sifatlaridan biri ma'rifatdir. Ma'rifatni egallaganni orif deydir. Ma'rifat ilmdan, orif olimdan ko'p ustundir. Hujjat-ul Islom rutbasiga yetgan Imom G'azzoliy ta'kid etadiki, "Qalbda ma'rifat maydonga

kelgach, qalbning holi o'zgaradi, qalbning holati o'zgargach, a'zolarining amallari ham o'zgaradi. Ya'ni amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog'liq bo'lib qoladi". Ma'rifatni egallagan inson tavhid, vahdat sharobidan ichib, fard bo'ladi, bu esa uni mard bo'lishga yordam beradi.

Xoja Ismatulloh bu ruboiylar bilan komil inson insoniyat baxt-saodati yo'lida bor-budini fido etib, xizmatda bo'lib, tuproq sifatli bo'lganidan quyosh kabi qalb tafti bilan barchaga nur, hayot beradi deydi. Ammo nafs ilkinda bo'lib, shaklan odam, ammo hayvon sifatlarini ajal o'qi umuman yo'q qiladi. Ularning umri qisqa, izzsiz ketadilar. Komil inson barhayot, tirik insonlar. Demak, Xoja Ismatulloh Buxoriy barkamol inson tarbiyasida mehr-muhabbat, mehr-muruvvat, ilohiy ishqni o'rni kattaligini ta'kid etgan.

Xoja Ismat ishq va vujud bahsida "haqiqiy oshiq ma'rifatli bo'ladi, ya'ni asl haqiqat unga ayon bo'ladi. Insoniylik sifatleri mujassam insonda tasavvuf ahli eranlarini, mard va komil shaxslar fazilatini ko'rish mumkin" deydi. U bunday oshiqlar oyog'i tekkan tuproq ham kimiyoi saodat bo'lib, qiyomat kunida insonni obro'li qilishini bashorat qiladi. Komil insonning asl sifatlaridan biri ma'rifatdir. Ma'rifatli insonni orif deydilar. Ismat ta'biricha, ma'rifat amali bilan ilmdan, orif ilmi bilan olimdan ko'p ustundir.

"Hujjat-ul Islom" Imom G'azzoliy fikricha, qalbdagi ma'rifat maydonga kelgach, qalbning holi o'zgaradi, qalbning holati o'zgargach, a'zolarining amallari ham o'zgaradi. Ya'ni amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog'liq bo'lib qoladi [2].

Mutafakkir-shoir bunda: "Komil inson yurt baxt-saodati yo'lida bor-budini fido etadi, doimo el xizmatida bo'lib, tuproqsifatli – kamtarin bo'lgani uchun quyosh kabi qalb tafti bilan barchaga nur, hayot ulashadi. Komil inson barhayot, ma'rifati bilan tirik insondir. Ma'rifatli insonlar juda kamtarin, boshqalar oldida tuproq bo'lib, borliqni nuru ziyoli qilib yashaydilar. Ammo nafs ilkinda bo'lgan shaklan odam, ammo hayvon sifatlarini ajal o'qi umuman yo'q qiladi. Ma'rifatsiz insonlar, yomon ish qilib olamni buzadi. Ularning umri qisqa bo'ladi", deb tushunadi.

Demak, Xoja Ismat Buxoriy barkamol inson tarbiyasida mehr-muruvvat, ilohiy ishqning o'rni ulkan ekanligini ta'kidlaydi. Donishmand shoir ruboiylarida mohiyatan kamtarinlik, niyozmandlik, halimlik, faqirlik va haqirlik fazilatlarini tarannum etadi. Inson kamolotiga daxldor bo'lgan oshiqni haqiqiy hur va erkin kishiga aylantiradi. Alloh ishqini insondagi ilohiylik sifat deb qarab, uni vujudga keltiruvchi manba, kuch-quvvat, qudrat manbai sifatida ishqni yuqori baholaydi. "Ilohiy ishq sifatli insongina komil insondir", deb tushunadi. Mutasavif-shoir "iymon, e'tiqod va vijdon" tamoyili asosida yaxlit "ISHQ" formulasini (IYMON + E'TIQOD + VIJDON = "ISHQ") yaratadi, unga ijtimoiy-falsafiy tus beradi hamda o'zidan oldingi allomalarning purma'no fikrlarini badiiy jihatdan boyitib tarannum etadi. Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no mazmunini tashkil qiladi.

Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt saodatga gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni insonni shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidir. Shu ma'noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning "O'zligingni angla!" , -degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyati va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Mutasavvif shoirning komil inson haqidagi qarashlari tahlili orqali komil insonga quyidagicha ta'rif berish mumkin: komil inson - eng avvalo, ilohiy ishq asosida o'zi va qalbini poklagan, ilohiy go'zallik sari intiluvchi, ma'rifatli, yaxshi tarbiya ko'rgan, maqbul amallar qiladigan, go'zal xulq egasi bo'lgan, nafsini jilovlagan, botinini poklagan, halol mehnat asosida kun kechiradigan insondir.

Xulosa va takliflar

Mutasavvif shoir-komil inson yurt baxt-saodati yo'lida bor-budini fido etadi, doimo el xizmatida bo'lib, tuproq sifatli – kamtarin bo'lgani uchun quyosh kabi qalb tafti bilan barchaga nur, hayot ulashadi. Komil inson barhayot, ma'rifati bilan tirik insondir. Ma'rifatli insonlar juda kamtarin, boshqalar oldida tuproqdek kamtar bo'lib, borliqni nuru ziyoli qilib yashaydilar. Ammo nafs ilkida bo'lgan shaklan odam, ammo hayvon sifatlarini ajal o'qi umuman yo'q qiladi. Ma'rifatsiz insonlar, yomon ish qilib olamni buzadi. Ularning umri qisqa bo'ladi, deb tushungan.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Фалсафа, энциклопедик луғат. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010, 62
2. Абу Хамид Газали. Избавляющий от заблуждения. / Из истории философии Средней Азии и Ирана VII - XII вв. Москва: Наука, 1960. – С. 245.
3. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – 2020. – Т. 3. – №. 8. – С. 122-126.
4. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. – 2020. – Т. 5. – №. 10. – С. 60-65.
5. Turdiyev B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of eastern and western thinkers //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s. – С. 710-717.
6. Sobirovich T. B. The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Temurids Dynasty Reign //Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR). – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 18-22.
7. Sobirovich T. B. Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals //Scientific Bulletin of Namangan State University. – №. 10. – С. 243-250.



## QUSHAYRIYNING TASAVVUFYI QARASHLARIDA RO'YO VA TAMKIN HOLI

Qodirov Davronbek Hoshimovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti

[deviekhan@mail.ru](mailto:deviekhan@mail.ru)

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada so'fiy va mutafakkir Abulqosim Qushayriyning so'fiylardagi ro'yo va tamkin hollari haqidagi falsafiy qarashlari yoritiladi. Shu bilan birga, mutasavvifning inson kamoloti yo'lidagi transendental holatlar borasidagi falsafiy qarashlari tahlil etiladi.

*Kalit so'zlar:* tasavvuf, hol, tush, tamkin, ro'yo, poklik, sifat.

## РУЪЯ И СОСТОЯНИЕ ТАМКИН В СУФИЙСКИХ ВЗГЛЯДАХ КУШАЙРИ

Кодиров Давронбек Хашимович

Бухарский государственный университет доцент

[deviekhan@mail.ru](mailto:deviekhan@mail.ru)

*Аннотация:* В данной статье освещены философские взгляды суфия и мыслителя Абул Касима Кушайри о состоянии руъя-видения и тамкин-сдержанности у суфиев. А также, анализируются философские взгляды мистика о трансцендентальных состояниях на пути совершенства человека.

*Ключевые слова:* суфизм, состояние, сон, тамкин, видение, чистота, качество.

## RUYA AND THE STATE OF TAMKIN IN THE SUFI VIEWS OF KUSHAYRI

Kodirov Davronbek Khashimovich

Associate Professor at Bukhara State University

[deviekhan@mail.ru](mailto:deviekhan@mail.ru)

*Annotation:* This article highlights the philosophical views of the Sufi and thinker Abul Qasim Kushayri on the state of ruya-vision and tamkin-restraint among the Sufis. And also, the philosophical views of the mystic about transcendental states on the path of human perfection are analyzed.

*Keywords:* Sufism, condition, sleep, tamkin, vision, purity, quality.

### Kirish

Sharq Renessansining mashhur allomasi, islom tafakkurining yorqin namoyandasi, ko'pgina tasavvuf ta'limoti vakillarining ma'naviy ustozlaridan biri Abulqosim Abdulkarim Qushayriydir. Allomaning to'liq ismi Abdulkarim bin Havozin Abdulmalik bin Talxa bin Muhammad an-Naysaburiy Abulqosim al-Qushayriy an-Naysaburiy. Abulqosim Qushayriy asli xurosonlik bo'lib, 376 hijriy yilning rabi' ul-avval oyida (milodiy 986 yilning iyul oyida) Eronning shimoli-sharqida, Nishopurga yaqin joylashgan Ustuvo shahrida badavlat oilada tug'ilgan. Uning ajdodlari arab bo'lganlar. Ustuvo shahri toki XIII asrda mo'g'ullar istilosiga qadar xalifalikning sharqiy qismidagi eng boy madaniy markaz hisoblangan.

Qushayriyning nasl-nasabi Xuroson hududiga kelib qolib o'rnashgan, asli arab bo'lgan Bani Qushayr qabilasiga borib taqaladi. Allomaning onasi arab qabilasi Bani Sulaymdan bo'lib,



fozila ayol va ilm sohibasi edi.[1] Qushayriyning tog'asi Abu Oqil as-Sullamiy Ustuvu viloyatidagi bir qancha qishloqlarga egalik qilgan, shu bilan birga hadis ilmining taniqli bilimdoni ham bo'lgan. Aynan, uning tog'asi yoshligida birinchilardan bo'lib ilohiyot sohasida unga ustozlik qilgandi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Mutafakkirning yoshligi haqida ma'lumot kam. Ma'lumki, u yoshligida Abulqosim Olimoniydan arab tili va fasohat, adab ilmlarini mukammal o'rgangan.[2] Shu bilan birga u jang san'at, ot minish va kamondan otishni o'zlashtirgan. Qushayriyning otasi yoshligida vafot etgani uchun u bolaligidanoq faqat ichki sezgisi va bilimiga tayangan holda mustaqil qaror qabul qilishga majbur bo'lgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Qushayriy o'n besh yoshga to'lganida o'ziga qarashli bo'lgan qishloqdan olinadigan soliqlarni kamaytirish maqsadida hisob va xo'jalik yuritishni o'rganish uchun Xuroson poytaxti Nishopurga keladi. U chekka bir qishloqdan chiqqan o'smir bola bo'lganligi sabab o'sha davrdagi diniy-falsafiy fikr va oqimlardan yiroq edi. Shuning uchun Nishopurda har xil falsafiy, g'oyaviy va diniy qarashlarga ega bo'lgan turli maktablar hamda oqimlar tarafdorlaridan ta'sirlangan va kuchli taassurotdan, navqiron Qushayriy diniy va falsafiy ilmlarga qiziqishi ortib, ularni o'rganishni boshlaydi. U 1001 yilda Abu Ali Daqqoq (1015 y.v.e.) asos solgan mashhur tasavvuf maktabiga qo'shilib, tasavvuf ilmidan ta'lim olishni boshlaydi. Yigitning iste'dodini ko'rgan Daqqoq unga ilm berishda e'tibor qaratadi. Qushayriy ustozining eng sevimli shogirdi va keyinchalik davomchisiga aylanadi. Abu Ali Daqqoq hatto shogirdini qizi Fotimaga (1001-1088 yy.) uylantiradi va Qushayriy uning kuyoviga aylanadi.[1]

### **Tahlil va natijalar**

Qushayriy ustozini Daqqoqning vafotidan so'ng uning maktabidagi so'fiylar majlisi – majlis ut-tazqirga rahbarlik qila boshlaydi. U madrasada dars berishdan tashqari haftaning ikki kunini kitob yozishga bag'ishlaydi.[3] Bundan buyon uning murshidi va ma'naviy ustozini Sullamiy bo'ladi. Abu Abdurrahmon Muhammad bin al-Husayn as-Sullamiy (942-1021yy.) Xuroson tasavvuf maktabining yirik vakili, ko'pgina mumtoz tasavvufiy asarlar, xususan, "Tabaqot us-sufiya" (So'fiylarning darajalari) agiografik asarning muallifi hisoblanadi. Biroq, mutafakkirning yangi murshidi Abu Ali Daqqoqning vafotidan bir yil o'tib bu dunyoni tark etadi. Shuning uchun ham Qushayriy umrining oxirigacha o'zining ma'naviy ustozini va murshidi deb birinchi ustozini biladi. Shunday qilib, Sullamiyning vafotidan so'ng Qushayriy Xurosonning eng ko'zga ko'ringan diniy arboblardan biriga aylanadi.

Qushayriy ustozining maktabini boshqarar ekan, 1019 yilda Qur'on Karimga "Latoif ul-ishorot fil-Qur'on" (Qur'ondagi nozik ishoralar) nomli katta tafsirini yozib tugatadi. Bu tafsir uning ulamolar orasida yanada olim sifatida obro'ining oshishiga va maktabining mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi. Allomaning zamondoshi, shoir Abul-Hasan al-Boxarziy (1075 y.v.e.) uning ma'ruzalarida qatnashgach u haqda "Dumyat ul-qasr" (Saroy qo'g'irchog'i) shunday yozadi: "Agar u o'zining tanbeh beruvchi so'zlarining qamchisi bilan qoyalarni urganida edi, ular erib ketgan bo'lardi; agar Iblis uning xutbalarida eshitganida imon keltirib, haq dinni qabul qilgan bo'lar edi".[4]

Qushayriyning tasavvuf falsafasiga doir mashhur asarlaridan biri "Tartib us-suluk fi tariq Alloh" so'fiylarga nasihat va yo'riqnoma tarzida yozilgan bo'lib, unda ro'yo hamda tamkin hollari to'g'risida irratsional falsafiy fikrlar aks etadi. Mutafakkir ahli solihlarning ro'yosi

ulardagi sof ong (safo ul-va'iy) ongsiz (lo-va'iy) holatdagi soflikka borib taqaladi va ularning ikkalasi ham oxirgacha davom etadi deb ta'kidlaydi. So'fiyning ongi Allohning zikri va uning qo'rquvi (xashiyyat) bilan to'lib, mushohada va kashf bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, unga kuchli intilish (tatallu') va istak (tashavvuq) bilan bog'lanib, ong ostiga (lo-shuur) kirib boradi va uni egallab oladi. Ma'lumki, insondagi ong osti (lo-shuur) esa faqat uyqu vaqtida faol bo'ladi.

Umuman olganda, asfiyolarda ruhiy hayot ong osti va hissiy kechinmalar bilan birga kamol topadi. Shu sabab ajabmaski, tush to'liq yoki qisman bo'lsa-da ro'yobga chiqadi va ro'yo karomatlardan biri hisoblanadi deydi alloma.

Qushayriy so'fiylarning ro'yosi haqligiga ishonib, bu ro'yo Qur'onda zikr qilingani bilan asoslaydi. Ro'yo payg'ambar s.a.v., sahobalar, tobeyinlar, tariqat mashoyixlari tomonidan xabar berilgan. Mutafakkir ro'yoni tariflashda ustozlari Daqqoq va o'zining tajribasiga tayanadi. Subkiyning Qushayriy bilan bog'liq bir voqeani keltiradi: Bir kuni Qushayriyning o'g'li og'ir betob bo'lib qoladi. U tushida Haqni ko'radi va unga shikoyat qiladi. Shunda Parvardigor unga shifo oyatlarini to'plab, uni o'g'liga o'qishini va ularni bir idishga o'qib dam solib, farzandiga ichirish kerakligini aytadi. Qushayriy tushida ko'rganidek qiladi va o'g'li kasallikdan tuzalib ketadi.[5]

Qushayriy "Uyqudagi ro'yo" (Ru'ya an-navm) degan bobda tushdagi Haqdan keladigan ro'yo roiy (ko'ruvchi)ga ezgu orzu-umiddan dalolat beradi. Zahabiyning keltirishicha, Ibn Ammod Hanbaliy Qushayriydan ushbu rivoyatni hikoya qiladi: "Abulqosim Qushayriy aytadi: Men tushimda Rabbim azza va jallani ko'rdim va u menga xitob qildi, men ham unga murojaat qildim. Shu asnodda Rabbim menga bir solih kishini uchratishimni aytdi va u bo'lg'usi Ahmad Saolibiy edi".[5]

Qushayriy ro'yo masalasiga qiziqishini Qur'ondagi ro'yo haqida tilga olingan oyatlarni tafsir qilganidan ham bilish mumkin. Qushayriy Yusuf surasini tafsir qilgan ekan, uning ko'rgan ro'yosi afsuslanishiga sabab bo'lganligini, otasi tushini akalariga aytmashligi lozimligidan ogohlantirishiga qaramay ularga xabar berganligini aytadi. Qur'onda bu haqda: "Tushingni akalaringga aytmagin" degan oyat keltiriladi (Yusuf 12:5). Shu bilan birga Misr malikining tushi Yusufning najot topishiga sabab bo'lgan: "Podshoh: Men tushimda yettita sigirni ko'rdim" (Yusuf, 12:43).

Xulosa qilib aytsak, Qushayriyning ro'yo masalasiga e'tibor qaratishi uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq bo'lib, uning ruhiy tajribasidan va tadqiqotlaridan kelib chiqqan. Shu bilan birga mutafakkir so'fiylarning ro'yoga tayanishini e'tirof etgan.

Tamkin oriflar, avliyolar, muvahhidlar holi bo'lib, ma'rifat nuri aql, qalb va ruh bilan bog'lanadi. Qushayriy sirr us-sir va haqq ul-yaqin tushunchalarini kiritib, ularni shamning, chiroqning, to'lin oyning va quyoshning nurlari o'rtasidagi farqqa qiyoslaydi. Ulardan har birining nuri oldingisining nurini xiralashtiradi. Ya'ni nurlari boshqalariga nisbatan yorqinroq bo'ladi. Bunda quyosh hech qachon botmaydi va mutamakkin (mustahkam o'rnashgan) banda doimo uning nurlarida cho'miladi. Bu davomiylik bandaning yer yuzida o'z rizqini qidirib yurishiga xalaqit bermaydi, chunki u ne'matlarni berguvchi Razzoq hisoblanadi.

Tamkin holidagi so'fiyga Xudodan boshqa biror kishi istirohati va uyqusiga xalaqit bera olmaydi, chunki ularning uyquasi ham uyg'oqlikdir. U yolg'iz xilvatda bo'lganida Haq bilan uning uchrashuvi va qayta tirilishi bo'ladi. Qushayriyning ta'biriga ko'ra, tamkin holidagi muhim narsa bu sirning tamoman sokinligi (sukun us-sir sukunan) bo'lib, uning sokinligiga qarab talvin sodir bo'lmaydi va banda keladigan manfaatlarni ko'rib ortga qaytmaydi. Uning holi

ma'lum bir darajaga yetganda sobit qoladi. Bu xuddi suvning qaynash darajasiga o'xshaydi. Toza suv qanchalik olovda turmasin uning darajasi oshmaydi va bu daraja undagi qo'shimcha moddalarning miqdoriga qarab o'zgaradi.

Qushayriy nima demoqchi bo'lganligini uning risola oxirida keltirgan so'zlaridan bilish mumkin: "Bularning barchasi menda qaror topdi va yil davomida mening holim hissiyot quvvati (min quvvati-l-hiss) sababidan qaytmadi. Bu xuddi mening holimni ko'paytiradigan va ozaytiradigan narsa aks etmaganga o'xshardi".[5]

#### **Xulosa**

Qushayriy talvin va tamkin hollarini risolasida qiyoslagan. Talvin Haq yo'lida bo'lgan ahvol kishilarining (arbob ul-ahvol) sifati bo'lib, ammo tamkin haqiqat ahlining (ahl ul-haqoiq) sifati hisoblanadi. Talvin sohiblari holdan holga ko'tarilib, bir sifatdan boshqa sifatga o'tadi. Bir bosqichdan (marhal) chiqib, boshqa bir maydonga (murabba') yetadi. Qachonki u vosil bo'lsa, ya'ni Haqiqatga erishsa, tamakkun sohibiga aylanadi. Tamakkun imkoniyat, kuch-quvvat va bir joyda mustahkam o'rnashish degan ma'noni anglatadi.

Qushayriy bu bilan so'fiyning yuksak maqomda o'rnashishini nazarda tutadi. Talvin sohibi doimo ortish holida bo'ladi, tamkin sohibi esa to'liq Haqqa erishgan bo'ladi. Shunday qilib, haqiqat ahli balo va ofatlarning ta'siridan xalos bo'lgan bo'ladilar.

#### **Adabiyotlar:**

1. محمد إبراهيم خليل، مرال هاشم جميل، الإمام القشيري حياته – نشأته العلمية، مجلة العلوم الاسلامية. صفحة 166-168.
2. ابن خلكان، وفيات الأعيان، صفحة 205
3. القشيري ومنهجه في التربية الدعوية، مجلة التربية، جامعة الازهر، الجزء الثالث، يناير لسنة 2015. 318-319 ص
4. Дроздов В.А. Абу-л-Касим ал-Кушайри и уего трактат о суфизме // Востоковедение. -№27. – Санкт-Петербург, 2006. - С.233.
5. القشيري. ترتيب السلوك في طريق الله. 104 ص



**BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA  
MUHAMMAD MUSO AL-XORAZMIY MEROSINING O'RNI**

Berdieva Gulmira Aminovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi, Tarix fanlari nomzodi

[berdiyevagulmira@gmail.com](mailto:berdiyevagulmira@gmail.com)

***Annotatsiya:** Maqolada Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shgani, algebra fanining asoschisi ekanligi hamda "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingani, uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovropoda tarqalishiga sabab bo'lgani hamda mutafakkirning ilmi merosining bayoni keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xorazmiy, Algebra, Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala, Zij'i, arifmetika, ta'lim.*

**В ВОСПИТАНИИ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ  
МЕСТО НАСЛЕДИЯ МУХАММАДА МУСА АЛЬ-ХОРАЗМИ**

Бердиева Гульмира Аминовна

Бухарский инженерно-технологический институт, Старший преподаватель кафедры «Общественные науки», Кандидат исторических наук

[berdyevagulmira@gmail.com](mailto:berdyevagulmira@gmail.com)

***Аннотация:** В статье Хорезми внес большой вклад в науку о мире, что он является основоположником науки алгебры, а само слово «алгебра» взято из его трактата «Аль-китаб аль-мухтасар фи лисаб аль-джабр ва аль-мукабала», его трактат по арифметике основан на индийских числительных, используемой нами сегодня десятичной позиционной системе счета и представлены причины распространения операций в этой системе в Европе и наследие науки мыслителя.*

***Ключевые слова:** Хорезми, алгебра, Аль-китаб аль-мухтасар фи лисаб аль-джабр ва аль-мукабала, Зиджи, арифметика, образование.*

**IN RAISING A PERFECT GENERATION  
SITE OF THE HERITAGE OF MUHAMMAD MUS AL-KHORAZMI**

Berdieva Gulmira Aminovna

Bukhara Institute of Engineering and Technology, Senior teacher of the "Social Sciences" department Candidate of historical sciences

[berdyevagulmira@gmail.com](mailto:berdyevagulmira@gmail.com)

***Annotatsiya:** In the article, Khorezmi made a great contribution to the science of the world, that he is the founder of the science of algebra, and that the word "algebra" itself is taken from his treatise "Al-kitab al-mukhtasar fi lisab al-jabr wa al-muqabala", his treatise on arithmetic is based on Indian numerals, the decimal positional counting system we use today and the reasons for the spread of operations in this system in Europe and the legacy of the thinker's science are presented.*

**Key words:** *Khorezmi, Algebra, Al-kitab al-mukhtasar fi hisob al-jabr and al-muqabala, Zij'i, arithmetic, education.*

### **Kirish**

Buyuk matematik, astranom va geograf Muhammad Muso al-Xorazmiy (VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod) etgan. Bu davrda O'rta Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Rivojlanib kelayotgan feodal tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. O'sha davrning ilg'or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lib, Muhammad Muso al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo'lboshchisi edi.

Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro'poda tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning "al-Xorazmiy" nomi esa "algoritmi" shaklida fanda abadiy o'rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning "Zij'i Ovro'poda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, "o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha-shart sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri" (J. Sarton) bo'lgan bunday siymoning hayoti haqida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilib, o'sdi. Adabiyotlarda 783 yil uning tug'ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, O'rta Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan, deb bilmoq mumkin.

Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiy va al-Qutrubbuliy degan atamalar ham qo'shib aytiladi. Bularning birinchisi olim Xorazmning asli mahalliy aholisidan, ya'ni otashparastlar (arabcha – "majus" – otashparast degani) oilasidan, balki shu otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqanligini, shu bilan birga olimning o'zi yoki otasi majusiy bo'lib, ular islomni keyin qabul qilganligini ko'rsatadi. Xorazmda majusiylar islomdan keyin ham uzoq muddat o'z diniy urf-odatlarini saqlab kelgan. Bu haqda Beruniy o'zining "Osori boqiya" asarida guvohlik beradi. Keltirilgan ismlarning ikkinchisi, Xorazmiy mo'ysafiddik yillarini Bag'dod yaqinida Dajla bo'yidagi al-Qutrubbul dahasida o'tkazganligini ko'rsatadi. Odatda arablar biror kishining xarakterli xususiyatlari, hunarlari, sevimli odatlari yoki yashash joylariga qarab, unga bir necha xil ism – "nisbalar" beradilar. Xorazmiyning al-Qutrubbuliy ismi ham shu tariqa paydo bo'lgan.

Ma'lumki, al-Ma'mun 809 yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so'ng 813 yildan boshlab xalifa bo'ladi va 819 yilda Bag'dodga ko'chadi. Al-Ma'mun Marvda bo'lganida Xorazmiyni, O'rta Osiyolik va xurosonlik boshqa olimlarni o'z saroyiga jalb qilgan.

Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazm bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbos al-Javhariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag'dodda al-Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – "Bayt ul-hikma" faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, "Bayt ul-hikma"ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi. Uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828 yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasigon tog'ida 831 yilda barpo etiladi. Ikkala rasadxonaning ham (faoliyatini O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib turadi.

### **Asosiy qism**

Xorazmiy davrida "Bayt ul-hikma"da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn al-Bitriq, Husayn ibn Is'hoq va Kusto ibn Luqo al-Ba'albakkiylar bor edi. Bag'dodga kelgan o'rta osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg'oniy (vafoti 816 yil)ning nomini eslatish lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo'ldi. Rasadxonadagi ishlar haqida u "Bayt ul-hikma"ning mudiri Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo 831 yili vafot etganidan so'ng Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub "Zij al-mumtahan" ("Sinalgan zij") nomli astronomik asari ma'lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog'idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi. U ham o'z "Zij"ini tuzadi. Xolid Yer meridianining uzunligini o'lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib ("Hisobchi habash") laqabi bilan ma'lum bo'lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita "zij" tuzgan bo'lib, bular O'rta asr astronomlari tomonidan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, u tangens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy bilan Bag'dodda, keyinchalik "Ma'mun akademiyasi" deb tanilgan "Bayt ul-hikma"da ijod etgan olimlarning barchasini ham o'rta Osiyolik yoki Xurosonlik deyish xato bo'lardi. U yerda Suriya, Iroq, Eron va xalifalikning boshqa yerlaridan kelgan olimlar ham ishlagan. Biroq ular orasida O'rta Osiyoliklar salmoqli o'rinni egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850 yilda Bag'dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular "Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob" – algebraik asar. "Hind hisobi haqida kitob" yoki "Qo'shish va ayirish haqida kitob" – arifmetik asar; "Kitob surat-ul-arz", geografiyaga oid asar. "Zij", "Asturlab bilan ishlash haqida kitob", "Asturlab yasash xaqida kitob", "Asturlab yordamida azimutni aniqlash haqida", "Kitob ar-ruhoma", "Kitob at-ta'rix", "Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash xaqida risola". Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma'lum bo'ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola "Diksit Aggorizmi" ya'ni "Al-Xorazmiy aytdi" iborasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy to'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni

xam qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'lyozmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rnini bo'sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha asa hind raqamlari o'sha davrda Ovro'poda keng tarqalgan rim raqamlari bilan almashtirilgan.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlangan. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmashlikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Risolaniig boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o'z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligi qayd qilinadi.

U shunday deydi: "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni taklif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mos taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir".

Risolaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadigan lotincha qo'lyozmasining matnini 1857 yili B.Bonkompani nashr etgan. Mazkur qo'lyozmaning fotoreproduksiyasini tarixchi A. P. Goshkevich ham nashr etgan. Undan tashqari, A. P. Yushkevich o'z risolasida Xorazmiy risolasiga alohida paragraf bag'ishlagan. B. Bonkompanining nashri asosida Yu. X. Kopelevich va B. A. Rozegafeldlar risolaning ruscha tarjimasini nashr etishgan. Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983 yili bu asarning qayta nashri va o'zbekcha tarjimasi chop etildi.

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada seviliyalik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik to yangi davrgacha Ovro'po olimlari Xorazmiy risolasini qayta-qayta ishlaganlar, u asosida darsliklar yozganlar. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida "Algorizm kitobi" degan ibora bo'lgan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Ovro'poda, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Ovro'poga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi uchun ular "arab raqamlari" deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Ovro'poliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini "algoritmi" deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalaridagina bu nom "arifmetika" iborasi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgi kungacha "algoritm" yoki "algoritm" deganda har qanday regulyar hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi – "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala". Risolaning nomidagi "al-jabr" va "al-muqobala" so'zlari "to'ldirish" va "ro'para qo'yish" – o'rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. "Aljabr" (o'zi lotincha traskripsiyada "algebra" bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo'lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo'llanib o'lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan "Vasiyatlar kitobi" deb atagan, Xorazmiy o'z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmunni butunlay so'z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Asarning boshida Xorazmiy o'z oldiga qo'ygan maqsad - kompleks masalalarni aks ettirgan. Shu bilan birga Xorazmiy xalifalikda kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko'ra yuzaga keladigan masalalar, me'morchilik va irrigatsiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishni ham ko'zda tutganligini bildiradi. Umuman olganda, Xorazmiy algebrasi - bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fandır.

Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko'riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o'zini o'ziga ko'paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytiringda hosil bo'lgan kattalikdir. Xorazmiy ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir. U avval risolada ko'riladigan oltita chiziqli va kvadrat tenglamaning tasnifini keltiradi. Bundan keyin aniq misollar bilan boshqa har qanday tenglamalar risola mohiyatidagi asosiy amallar - aljabr va almuqobala amallari yordamida olti kononik ko'rinishga keltiriladi.

Xorazmiy asos solgan algebra fanini undan keyingi Sharq olimlari muvaffaqiyatli rivojlantirdilar.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o'laroq, uning algebraik risolasining uchta qo'lyozmasi saqlangan. Ular Qobulda, Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi.

Risola 1145 yili Seviliyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo'lyozmalari va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning "Zij"idir. Olim bu asarini 830 yil atrofida yozgan.

Xorazmiyning "Zij"i 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib "to'fon", "iskandar", "safar" va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi.

Xorazmiy o'z "Zij"ida boshlang'ich meridian sifatida, hind an'anasiga ko'ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujain) shahridan o'tgan meridianni tanlagan, Ovro'poda XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g'oyasining tarafdorlari bo'lganlar. Arin g'oyasiga ko'ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410 yili o'zining "Yer tasviri" nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487 yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o'ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko'ra, Arin g'oyasi unda Yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o'xshash joy bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmiyning "Zij"i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi.

Al-Xorazmiyning "Hisob al jabr val muqobala" asari XII asrda "Libir de algebra et al mucobala" nomi bilan lotin tilida bosilib chiqdi. Risola besh bo'limdan iborat edi, uning avvalgi bobida birinchi va ikkinchi darajali tenglamalar, ikkinchi bobida ularni yechishning handasiy asoslari, uchinchi, to'rtinchi boblarida jabr masalalarini yechish qoidalari, beshinchi bobida esa jabr hisobi yordami bilan bir necha praktik masalalarni hal etish misollari berilgan. Xorazmiyning algebraga oid bu asari bir necha asr davomida Ovro'pa matematiklari uchun shu sohadagi asosiy qo'llanma bo'lib xizmat etdi.

Shu ravishda, bu risola latin tiliga tarjima qilinishi natijasida jahon matematika fani taraqqiyotida juda katta rol o'ynadi. Fibonachchi, Luka Pagioli, Nikkola Tartalya, Jeralamo



Kardan, Lodoviko Ferrori kabi mashhur italyan matematiklari Xorazmiy asarining latincha tarjimasidan foydalanganlari ma'lum.

### **Xulosa**

Xorazmiyning hind hisob sistemasi haqidagi kitobi ham jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Bu kitob orqali butun Sharq xalqlari, XII asrda u lotin tiliga tarjima etilgach esa Ovro'pa xalqlari ham hind matematiklarining ulug' kashfiyotlari bilan tanishdilar. Bu – hozirgi zamonda hamma sohada va barcha tomonidan keng qo'llanilayotgan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi edi. Bu sistema kashf etilishining tarixda naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi quyoshday ravshan. Uni yozuvning kashf etilishi bilan tenglashtirish mumkin. Ana shunday buyuk matematik kashfiyot bilan Ovro'pani birinchi marta tanishtirgan kishi ulug' olim Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo'ldi.

Birinchi, ikkinchi darajali tenglamalar yechilishini Xorazmiy hal etganligini aytgan edik, undan keyin yashagan olimlar endi uchinchi darajali tenglamalarni yechishga kirishdilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Буюк сиймолар, алломалар. Т., 1995 й. 9-16 бетлар.
2. Ўзбекистонда ижтимоий – фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар: Ўқув қўлланма. Тошкент: Ўзбекистон, 1995 йил.
3. Қодиров Б.Р. Ақлий истеъдод ХХІ асрнинг энг қимматли мулкидир. Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил.
4. Абдуллажон Бегматов. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. Тошкент: Шарқ 2000 йил.
5. Ҳамиджон Ҳомидий. Кўхна Шарқ дарғалари. Бадий – илмий лавҳалар “Шарқ” нашриёти, Тошкент – 1999 йил.
6. Ҳақиқат манзаралари 96 мумтоз файласуф. Тошкент “Янги аср авлоди” 2002 йил.
7. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. *Imam al-Bukhari IBS Journal*, 2.
8. Turaev B. Falsafa tarixining qisqacha bayoni. // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2010. №2.



## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА СУВ ТАНҚИСЛИГИ

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich,

O'zMU tayanch doktoranti

alimardonsaodatov@mail.ru

+998 91 970 07 44

***Annatatsiya:** Maqolada sayyoramizdagi eng jiddiy ekologik muammolari haqida to'xtalib batafsil ma'lumotlar berganmiz. Orol dengizi, suv tanqisligi ham atroflicha tahlil etilib, ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlari:** Global, isish, suv, ekologik madaniyat, o'rmon, Orol dengizi, ekologiya, atrof-muhit, maqsad, vosita.*

## ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND WATER SCARCITY

Saodatov Alimardon Abdurakhmonovich,

Doctoral student of UzMU

alimardonsaodatov@mail.ru

+998 91 970 07 44

***Annotation:** In the article, we gave detailed information about the most serious environmental problems on the planet. The Aral Sea, water scarcity has also been analyzed in detail, and scientific conclusions and recommendations have been developed.*

***Keywords:** Global, heating, water, ecological culture, forest, island sea, ecology, environment, target, vehicle.*

## ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И НЕХВАТКА ВОДЫ

Саодатов Алимардон Абдурахмонович,

Докторант УзМУ

alimardonsaodatov@mail.ru

+998 91 970 07 44

***Аннотация:** В статье мы дали подробную информацию о самых серьезных экологических проблемах на планете. Также детально проанализировано Аральское море, дефицит воды, разработаны научные выводы и рекомендации.*

***Ключевые слова:** Глобал, отопление, вода, экологическая культура, лес, островное море, экология, окружающая среда, цель, транспортное средство.*

### Kirish

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan marosimda: "Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va er resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi.

Bizning vazifamiz – har ikki yunalishda ham muvazanatni saqlashdan iborat. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o'ylab, oqilona foydalanishimiz zarur.

Bu borada suvni, enirgiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun "yashil" va raqamli texnologiyalar, innavasion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo'lib turibdi"<sup>1</sup>deydi davlat rahbari.

Ekologik muammolarni asosan yuzaga keliruvchi ham va uni bartaraf etuvchi kuch ham avvalo inson ekanligini anglasak yoshlar qalbi va ongida ona tabiatga, tevarak-atrofga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

### **Asosiy qism**

**Sayyoramizdagi eng jiddiy ekologik muammolar haqida so'z borganda quyidagilarni sanab o'tishimiz lozim.**

1.1 Global isish-Okeanlarda va quruqlikdagi haroratning ko'tarilishiga olib keladi, qutbli muz qatlamlarining erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va toshqinlar, haddan tashqari qor va cho'llanish kabi tabiiy bo'lmagan yog'ingarchilik shakillanishiga olib keladi.

1.2 O'rmonlarni yo'q qilish-Turlarga boy o'rmonlar, ayniqsa tropik mintaqalarda, ko'pincha chorvachilik, palma yog'i plantatsiyalari, soya ekish va boshqa qishloq xo'jalik monokulturalariga joy ajratish uchun yo'q qilinmoqda.

Hozirgi kunda sayyoramiz yuzasining taxminan 30 foizini o'rmonlar qoplagan va har yili qariyb 18 million gektar vayron qilingan. Ushbu o'rmonlarni kesishning diyarli barchasi daraxtlarni kesish va yoqishdan kelib chiqadi.

Tabiiy o'rmonlar nafaqat bioxilma-xillikning suv omborlari vazifasini bajaradi, balki uglerodni atmosfera va okeanlardan saqlashga yordam beradi.

1.3 Ifloslanish-Havo, suv tuproq ifloslanishini tozalash uchun million yillar kerak bo'ladi. Sanoat va avtotransport vositalari sayyoramizdagi ifloslantiruvchi moddalarning asosiy manbaiy hisoblanadi. Og'ir metallar, nitratlar va plastmassa ifloslanish uchun javob beradigan taksinlardir. Suvning ifloslanishiga neftning to'kilishi, kislotali yomg'ir va shahar chiqindilari sabab bo'ladi. Havoning ifloslanishi sanoat tarmoqlari chiqaradigan turli xil gazlar va toksinlar hamda yoqilg'ining yonishi natijasida yuzaga keladi. Va nihoyat, tuproq ifloslanishiga sanoat chiqindilari sabab bo'ladi.

1.4 Okeanning kislotaliligi-bu ortiqcha karbonat angidrid ishlab chiqarishning bevosita ta'siri, karbonat angidridning 25% odamlar tomonidan ishlab chiqariladi. So'ngi 250 yilda okeanning kislotaligi oshdi, ammo 2100 ga ko'payib, bu miqdor 150 foizgacha ko'tarilishi mumkin.

1.5 Turlarning yo'q bo'lib ketishi-Quruqlikda yavvoyi hayvonlar go'shti, fel suyagi yoki "dorivor mahsuloti" uchun yo'q qilinish uchun ovlanadi. Dengizda yirik sanoat kemalari baliq populyatsiyasini yo'q qiladi. Turlar nafaqat mavjud bo'lishga loyiqdir, balki ular odamlar uchun muhim mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadilar. Masalan, asalarilar va changlanish ekinlar uchun zarurdir. Yashash joyining yo'q bo'lib ketishi ham mislsiz yo'q bo'lib ketadigan to'lqinlarning paydo bo'lishiga katta hissa qo'shadi, chunki bu odamlar tomonidan chiqadi. Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar ro'yxati o'sishda davom etmoqda.

1.6 Kislotali yomg'ir-Atmosferada ma'lum ifloslantiruvchi moddalar mavjudligi sababli paydo bo'ladi. Bunga yoqilg'ini yoqish, vulqonlar yoki chirigan o'simliklar sabab bo'lishi mumkin. Bu inson salomatligi, yovvoyi hayot va suv turlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ekologik muammo.

---

<sup>1</sup> <https://kun.uz/31129436>

1.7 Suvning ifloslanishi-Toza suv ichish noyob tovarga aylanib bormoqda. Odamlar aholisi ushbu resurs uchun kurashayotgan sababli suv iqtisodiy va siyosiy muammoga aylanib bormoqda. Sanoat rivojlanishi daryolar, dengizlar va okiyanlarni toksik ifloslantiruvchi moddalar bilan to'ldirib, inson salomatligi uchun kata xavf tug'dirmoqda. Ushbu muammoga yo'l qo'y'maslik uchun tavsiya etilgan variantlardan biri bu tuzni tozalash jarayonida foydalanishdir.

1.8 Jamiyat salomatligi muammolari-bugungi ekologik muammolar inson va hayvonlar sog'ligiga katta xavf tug'dirmoqda. Nopok suv dunyodagi sog'lik uchun eng katta xavf hisoblanadi va hayot sifat va aholi salomatligi uchun katta tahdidir. Daryo oqimi ko'plab toksinlar, kimyoviy moddalar va kasallik keltirib chiqaradigan organizmlarga ega. Kirleticiler astma va yurak-qon tomir muammolari kabi nafas olish muammolarini keltirib chiqaradi. Yuqori harorat deng kabi yuqumli kasalliklar tarqalishini kuchaytiradi.

1.9. Tuproqning digradatsiyasi-Haddan tashqari o'tlashish, monokulturatsiya plantatsiyalari, eroziya, tuproqning zichlashi, ifloslantiruvchi moddalarga haddan tashqari ta'sir qilish va erdan foydalanish konversiyasi-bu tuproqqa zarar etkazish usullaridan biri. Rasmiy hisob-kitoblarga ko'ra, har yili taxminan 12 million gektor fermir xo'jaliklari jiddiy tanazulga uchraydi. Oziq-ovqat xavfsizligi tuproqni yaxshi holatda saqlashga bo'liq ekan, bu muammoning etarli echimini topish kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun tuproqni muhofaza qilish dasturlari va tiklash texnikasi mavjud, ammo bu muammoni hozircha bartaraf etish uchun etarli emas.

1.10 Chiqindilarni yo'q qilish-Resurslarni haddan tashqari iste'mol qilish va plastmassalardan foydalanish global chiqindilarni yo'q qilish inqirozini keltirib chiqarmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ortiqcha miqdordagi axlatni ishlab chiqarish va bu chiqindilarni okeanga chiqarib yuborish bilan mashhur. Yadro chiqindilarining chiqindilari sog'liq uchun katta xavf tug'diradi. Plastik, tezkor ovqat, va inson farovonligiga tahdid soladi. Chiqindilarni yo'q qilish bugungi kunda eng dolzarb ekologik muammolardan biridir<sup>2</sup>.

## **2. Mintaqaviy va milliy ekologik muammolar haqida gapirganda qo'yidagilarni sanab o'tishimiz lozim.**

Mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlarining resurslarni ko'p hajmda iste'mol qilish va xomashyoga yo'naltirilganligi, samarasiz boshqaruv tizimi va tabiatdan jadal foydalanish Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida bir qancha umumiy ekologik muammolar shakllanishiga sabab bo'ldi.

Mintaqa tabiiy resurslaridan, shu jumladan suv-er, yoqilg'i-energetika, biologik zaxiralaridan keyingi rivojlanish istiqbolini inobatga olmasdan foydalanish alohida e'tiborga sazovordir.

### **2.1. Suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi**

Markaziy Osiyodagi beshta respublika o'rtasida suv taqsimlash sxemalariga muvofiq Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo'yicha O'zbekistonning limiti 100 foizli limitda yiliga 63,02 km<sup>3</sup>ni tashkil etadi.

Suv olish limitidan foydalanish tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston o'rta hisobda 85 foiz, 2008, 2011, 2018-yillardagi kabi suv kamchil yillarda esa 70 - 75 foizga yaqin suv oladi.

Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi yuqoriligicha qolmoqda.

<sup>2</sup> Lewis Jackson "Dunyo miqyosidagi eng yaxshi 10 ekologik muammo" 3.09.2023 yil.

Orolbo'ydagi vaziyat Markaziy Osiyo mintaqasining eng keskin ekologik muammolaridan biri hisoblanadi.

Ayni vaqtda O'zbekistonda mavsumiy qurg'oqchilik kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa Orol dengizining qurish jarayoni mintaqadagi iqlim sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Orol falokati yoz faslida qurg'oqchilik va jazirama issiqni kuchaytirib hamda sovuq va qahraton qish faslini uzaytirib, iqlimning kontinentalligini chuqurlashtirdi.

Bugungi kunda Orol suv havzasining qoldiq suv balansi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining oqib kelishi cheklanganligi, ayrim yillarda esa yo'qligi oqibatida nomutanosib holatga kelib qolgan bo'lib, natijada dengiz sathi pasayishi, uning yuza qismi maydoni qisqarishi va unda erigan elementlar konsentratsiyasi oshib borishi davom etmoqda.

Orolning qurib qolgan tubidan kuchli shamollar zaharli moddalar bilan to'yingan tuzlar va chang-to'zonni havoga ko'tarishi aholi sog'ligiga jiddiy xavf solmoqda, surunkali qon kasalliklarini, nafas olish yo'llari, buyrak, oshqozon-ichak trakti, yurak-tomir tizimi, shuningdek, o't pufakda tosh paydo bo'lishi, onkologiya va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarmoqda.

"O'zgidromet" ma'lumotlariga ko'ra, respublikaning suv oqimi asosan II va III toifalarga mansub toza va o'rtacha ifloslangan suvlar toifasiga kiradi.

Ifloslantiruvchi moddalarning suv obyektlariga tashlanishi ortib borayotganligi ochiq suv oqimlarining ifloslanishiga sabab bo'lmoqda va buning oqibatida suv flora va faunasiga o'nglab bo'lmas zarar yetkazilmoqda, shuningdek, aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

## **2.2. Atmosfera havosining ifloslanishi.**

Mamlakatda metallurgiya, energetika korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, neft-gaz va konchilik sanoati korxonalari hamda avtotransport atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalardir.

Atmosfera havosining joriy ifloslanish darajasi, shuningdek, kelajakda chiqindilar chiqarish hajmlarining yanada ko'payishi elektr va issiqlik energiyasi manbalarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etadi.

Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalari hajmi oshib borishiga transport vositalarining ekologik darajasi, foydalanilayotgan yoqilg'i va yo'l harakatini tashkil etish sifatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

## **2.3. O'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash.**

O'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi ekotizimlar holatiga bevosita bog'liqdir. O'zining geografik va iqlim xususiyatlariga ko'ra, ayniqsa, adir va tog' ekotizimlarining nozidligi va suv resurslarining cheklanganligi sababli O'zbekiston salbiy ekologik, shu jumladan transchegaraviy omillarning ta'siriga duchor bo'lmoqda.

Sug'orma dehqonchilikni ekstensiv rivojlantirish yo'li, sho'r bosish, botqoqlanish, tuproq eroziyasi, suvlarning ifloslanishi, daryolar oqimini tez-tez o'zgartirish, mollarni bir yaylovda qayta-qayta o'tlatish, daraxtzorlar va to'qay o'simliklarini kesish hamda boshqa omillar o'simlik va hayvonot dunyosining bir qancha turlari o'sadigan va yashaydigan joylar yo'qolishiga hamda ularning soni va reallari kamayishiga olib keldi.

Ayni vaqtda hayvonot dunyosining 91 turi Xalqaro Qizil kitobga, o'simlik dunyosining 324 turi va hayvonot dunyosining 184 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyada Konvensiya tomonlariga quruqlikdagi qo'riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi.

2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining o'rmon fondi 11572,6 ming gektarni yoki mamlakat hududining 25,7 foizini, shu jumladan o'rmon bilan qoplangan 3201,6 ming gektarni tashkil etadi.

O'rmonlar asosan ekologik (tuproqni muhofaza qilish, suvni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini va boshqa tabiat resurslarini saqlash va muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish, rekreatsion) vazifalar va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi.

Aholi ko'proq zich yashaydigan va yirik sanoat obyektlari yaqinidagi hududlarda o'sadigan daraxt va butalarga eng ko'p antropogen og'irlik tushmoqda.

#### **2.4. Chiqindilarni boshqarish.**

Antropogen faoliyat respublikada milliardlab tonna sanoat chiqindilari, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilar to'planib qolishiga olib keldi, ular ko'pincha talabga javob bermaydigan poligonlarda, otvallar va shlam saqlanadigan omborlarda joylashtirilgan.

Konchilik, neft-gaz qazib chiqarish, ko'mir va kimyo sanoati korxonalarida sanoat chiqindilari ayniqsa tez to'planmoqda.

Sanoat chiqindilari hosil bo'lishini kamaytirish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash yoki takroran foydalanish texnologiyalarining mavjud emasligi bunday chiqindilar to'planishiga imkoniyat yaratmoqda.

Orol dengizining qurishi 20 asrning eng katta ekologik fojialaridan biri bo'ldi. Dengiz qurigan sari uning oqibatlarini ortib bordi. Orolbo'yi mintaqalarida ekologik barqarorlik butkul izdan chiqqani, yerning sho'rlanish darajasi ortib ketgani, Orol dengizi atrofida insonlar balki tabiatga ham tabiatda yashaydigan qush va hayvonlarning kamayishi, turli kasalliklar ko'payishi kabi muammolar nafaqat O'zbekistonga balki qo'shni davlatlarga ham juda katta xavf tug'dira boshladi.

2023 yil 23 mart kuni Niyu-Yorkda suv masalalari bo'yicha BMT anjumanida Saida Mirziyoyeva O'zbekiston nomidan chiqish qilib, Orol dengizi mintaqasi uchun muhim bo'lgan "Suvga mo'l dengiz faqat Nukus muzeyida osilgan rasimlarda qolgan" deb ta'kidladi.

Saida Mirziyoyeva Orolbo'yidagi Mo'ynoq ilgari yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega port shahar bo'lgan, keyinchalik muvozanat buzulib, dengizning o'lik qirg'oqlari kemalar qabristoniga aylanganini ta'kidlab o'tdi.

Fojia oqibatlarini bevosita o'z boshidan kechirayotgan Qoraqolpog'iston xalqining matonati, mehnatsevarligi, yaratuvchanligi alohida e'tirof etildi. Mintaqaning og'ir sharoitida, ayniqsa, ayollar kuchli g'amxo'rlik va ko'makka muhtojligi, ular uchun imkoniyatlarni kengaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi<sup>3</sup>.

#### **Xulosa**

Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030 yilga kelib suvga bo'lgan talab mavjud bo'lgan suv ta'minoti o'rtasida 40 foiz tafovut bo'ladi. Suv muammosini hal qilish uchun bizda bor yo'g'I 15 yil bor xolos. Ta'kidlash joizki, 750 mutaxassisdan tarkib topgan jamoa tomonidan o'tkazilgan so'rovda toza ichimlik suvining tugab borishi butun dunyo aholisi

<sup>3</sup> Saodatov A.A. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda Orol dengizidagi o'zgarishlarning o'rni. O'zMU xabarlar. Toshkent. 2023. №1/5/1. B. 174-176.



uchun chinakamiga global xavf deb baholanadi. Aslida, ichimlik suvi muammosi dunyo aholisining qiynab kelayotgan muammolarning eng oldi qatoridan o'rin olib ulgurgan. Foydalanish uchun suv etarli bo'lmagan, kunni toza ichimlik suvini izlash uchun sarflaydiganlarga ham oson emas! Bu tuyg'ular suvni isrof qilayotganlar qayoqdan ham bilsin!<sup>4</sup>

O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi. Gidrosferaning faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qilishi haqida bilasizmi? Yoki qishloq xovjaligining ayrim sohalorida suv sarfini qiyosiy hisiblab ko'rsak, 1 tonna bug'doy eishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta etishtirish uchun 10 ming tonna suv sarflanishi haqida nima diya olasiz? O'z ekologik madaniyatingiz qay darajada deb hisoblaysiz?

Ekologik madaniyatni oshirish haqida so'z borganda, ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat bir nechta faktorlar natijasida o'laroq shakillanadi yoxud yuzaga keladi: jumladan, tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar, ko'nikmalar, ekologik tarbiya, qadriyat va an'analar ekologik madaniyat shakillanishiga sabab bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://kun.uz/31129436>
2. Lewis Jackson "Dunyo miqyosidagi eng yaxshi 10 ekologik muammo" 3.09.2023 yil.
3. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhafaza qilish. KONSEPSIYASI.
4. Saodatov A.A. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakillantirishda Orol dengizidagi o'zgarishlarning o'rni. O'zMU xabarleri. Toshkent. 2023. №1/5/1. B. 174-176.
5. Sh. Mamasoliyeva [xs.uz/uzkr/post/](https://xs.uz/uzkr/post/) Global ekologik muammolar barqaror taroqqiyotga katta tahdid solmoqda. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? 13. 11. 2020

---

<sup>4</sup> Sh. Mamasoliyeva [xs.uz/uzkr/post/](https://xs.uz/uzkr/post/) Global ekologik muammolar barqaror taroqqiyotga katta tahdid solmoqda. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? 13. 11. 2020



## OILANING TARBIYAVIY-TA'LIM SALOHİYATINI MUSTAHKAMLASH VA UNDA MEHR-OQIBATLILIKNI OSHIRISH DAVR TALABI

G'afurov Doniyor Oripovich-Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD).

[gafurovdoniyor1986@gmail.com](mailto:gafurovdoniyor1986@gmail.com)

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada ko'plab vatandoshlarimiz, olim-u-mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, imom-u boshqalar muhaddislarimiz ijod qilib, dunyo ilm-faniga, madaniyatiga va jahon tamadduniga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganliklari hamda oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maqsadlariga yetishib yashash va oila farovonligi-milliy farovonlik asosi ekanligi haqida bayon qilingan.

*Tayanch so'zlar:* Oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari, ta'lim, fan, tarbiya.

## ПОВЫШЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА СЕМЬИ

Гафуров Даниёр Орипович-Бухарский инженерно-технологический институт – доцент кафедры «Общественные науки», доктор философских наук (PhD).

[gafurovdoniyor1986@gmail.com](mailto:gafurovdoniyor1986@gmail.com)

*Аннотация:* В этой статье многие наши соотечественники, учёные и мыслители, учёные, имамы и другие создали и внесли большой вклад в мировую науку, культуру и мировую цивилизацию, а семейное счастье достигло мечтаний и целей людей. Благополучие является основой национального благополучия.

*Ключевые слова:* Семья, семейное счастье, брак, дети, родительские обязанности, образование, наука, воспитание.

## INCREASING THE EDUCATIONAL POTENTIAL OF THE FAMILY

Gafurov Daniyori Oripovich-Bukhara Institute of Engineering and Technology is an associate professor of the "Social Sciences" department, doctor of philosophy (PhD).

[gafurovdoniyor1986@gmail.com](mailto:gafurovdoniyor1986@gmail.com)

*Annotation:* In this article, many of our compatriots, scientists and thinkers, scholars, imams and others have created and made great contributions to world science, culture and world civilization, and family happiness has reached people's dreams and goals. It is stated that living and family well-being is the basis of national well-being.

*Key words:* Family, family happiness, marriage, children, parental duties, education, science, upbringing.

### Kirish

Oila va nikoh munosabatlari madaniyati tushunchasida oila millat parvozi uchun ilk uchish maydoni deb bekorga ta'riflanmagan. Chunki uning ma'nosi ko'p, ko'zga ko'rinmas sirli tomonlari ham bor. Bu sirni faqat oila qurgan er-xotin sezadi. Bu sir oila madaniyati, ma'naviyatining, farzand tarbiyasining o'ziga xos bir tomonidir. Ota-onalar farzandlarni dunyoga keltirib, tarbiyalab, voyaga yetkazib, ular bilan bir umr bog'lanib qoladilar. Ota-ona oilaning ichki ikirchikirlarini farzandlariga o'rgatadilar. O'zbek oilasida aqlli, zeharli bolalar o'z ota-onalarining so'zlarini, buyurgan ishlarini bajarishga o'rganadilar.



Mustaqillik tufayli bu kamchiliklarga barham berildi. Oila va nikoh munosabatlar madaniyati tizimi haqqoniylashib, barkamol oila yetishtirishga e'tibor berila boshlandi. Zero, islomda bu masalaga doimo jiddiy e'tibor berib kelishgan. Oila va nikoh munosabatlari madaniyati tushunchasida, oilani moddiy va ma'naviy ta'minlash halol mehnat orqali bo'lishiga da'vat etilgan. Jumladan, inson dunyoda yashar ekan, ehtiyoj sababli dunyodan foydalanmay iloji yo'q. O'zi va oilasini kiyim va ozuqa bilan ta'minlashi kerak. Dunyoda inson shu niyatda ishlaydi. Ammo oz-ko'p nasibasini halol yo'l bilan, dunyosi oxiratiga mone' bo'lmaydigan tarzda topadi.

Olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida oila va nikohsiz jamiyatni tasavvur qilish qiyinligini, oila jamiyat ma'naviy kamolotida, insonning axloqi, odobi, iymon-e'tiqodi shakllanishida birinchi o'rinda ekanini ko'rsatib o'tganlar.

### **Asosiy qism**

Ma'lumki, IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda "Renessans" (uyg'onish) davrida ko'plab vatandoshlarimiz, olim-u-mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, imom-u boshqalar muhaddislarimiz ijod qilib, dunyo ilm-faniga, madaniyatiga va jahon tamadduniga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. Xususan, Beruniy, Farobiy, Farg'oniy. Ibn Sino, Al-Buxoriy, At-Termiziy va ijodida nafaqat tabiiy fanlar, tibbiyot, ilohiyot, falakiyot sohasidagi ilmlar, balki oila va nikoh, oilaviy munosabatlar masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur "Fozil odamlar shahri" va "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarlarida bayon etadi<sup>5</sup>. Farobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi: "Rahbarlar (er yoki xotin) yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". Shuningdek, "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-ahloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarurligini ta'kidlaydi"<sup>6</sup>.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan<sup>7</sup>. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orkali sog'lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob- axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosh berib, kelin tushirdim"<sup>8</sup>.

Ahmad Donishning "Navodir ul-vakoe'" ("Nodir voqealar") nomli asarida inson muayyan yoshga yetgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo'ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo'ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib o'tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maqsadlariga

<sup>5</sup>Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1993. - Б.224.

<sup>6</sup>Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1993. - Б.224.

<sup>7</sup>Хасанов С. Хоразм маърифати - олам кузгуси. - Т.: «Укитувчи», 1996. –Б.304

<sup>8</sup>Хасанов С. Хоразм маърифати - олам кузгуси. - Т.: «Укитувчи», 1996. –Б.30

yetishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko'proq xotinlarga bog'liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq xech bir ne'mat yo'qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo'lidadir, degan fikrlarni hamda oila qurish motivlarini kengroq yoritib beradi<sup>9</sup> va uylanish shartlari hamda nikoh odoblari haqida to'xtalgan.

Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo'lganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi muhabbatda o'z ifodasini topganida edi, hayot deganlari chindan ham qop-qorong'u sahroga aylanib qolgan bo'lardi. Inson uchun yurakning ma'naviy olamidani tashqari hayotning yana bir buyuk olami – ijtimoiy faollik olami ham bor. Buni inkor etish yoki chetlab o'tishga urinish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham ming yillar davomida bu masaladagi manbalarga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganlar. Payg'ambarlar ummatlarini pok va halol oila qurishga da'vat etganlar. Bu masalada insoniyat tarixi davomida yashab o'tgan donishmand faylasuflarning diqqat-e'tiborlaridan ham chetga qolmagan. O'tmish ustozlarning fikrlari biz uchun hamisha qadrli. Ammo, ular o'z davrlaridan kelib chiqib, oilaga turlicha talablar qo'yganlar.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida hindlardagi oila va nikoh munosabatlarini keng tahlil qiladi. Hindlardagi nikohni faqat o'lim buzishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi va nikohning zarurligini uqtirib, nikohga xiyonat qilgan kishilarni akl-idroksiz hayvonlardan ham tuban turuvchilar, deb xulosalaydi. Tibbiyot dahosi Abu Ali Ibn Sino o'zining "Al-Shifo" asarida oiladagi bola tarbiyasi xususida shunday deydi: "Ota bolasiga yaxshi nom qo'yishi, emiziklik yoshidan o'tgandan keyin unga g'amxo'rlik qilishga, yomon ta'sirlardan asrashga burchlidir. Bola olti yoshga to'lganda unga qiyin bo'lmagan mashqlar o'rgatish kerak. Bunday bolalar sog'lom va yaxshi xulqli bo'lib ulg'ayadilar. Bu kabi tarbiyalarni olmagan bolalar esa, serjahl, diydasi qattiq, qo'rroq va zaif bo'lib o'sadilar". Chunki Ibn Sino fikricha, "Badan va ruh bir-biridan ajralmasdir". Demak, har bir bolaning o'z oilasida birinchi navbatda, yaxshi ma'naviy va axloqiy ta'lim olishi uchun har bir ota mas'uldir. XI asrning ulug' siymolaridan olim Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilik" ("Saodatga boshlovchi bilim") asarida axloq-odob, ilm-ma'rifat, bola tarbiyasi va oilaviy hayotning ko'pgina masalalarini o'rganadi. Uning fikricha, faqat oilaviy hayot kechirish jarayonida sog'lom turmush tarzini yaratish mumkin.

Kamolotta ham oilaviy tarbiya, oilaviy munosabatlarining yuksakligi, sadoqat, totuvlik orqali erishish mumkinligini ta'kidladi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilik" da shunday deydi:

O'g'ul qizga o'rgat bilik ham adab,

Anga ikki ajun aning asg'i tab.

(O'g'il qizga bilim va odob o'rgat, u ikki olam egasi bulib manfaat topadi).

Abu Nasr Farobiy ham o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida odob- tarbiya xususida juda chuqur to'xtalib, kishilar xulqini ikkiga, yomon xulqlarga ajratadi.

Bundan tashqari, oila mustahkamligida, oiladagi bola tarbiyasida, uning ma'naviy kamolotida, hadislarning o'rni juda katta. Bu borada buyuk muhaddislar: Imom Al-Buxoriy va Imom At-Termiziyalar xususida to'xtalib Al-Buxoriyning "Al-Jome' as-saxiyx" ("Ishonarli to'plam") da axloq-odob, ta'lim-tarbiya, bolaning ota-onaga hurmati to'g'risida fikr yuritiladi. Al-Buxoriyning quyidagi hadisi: "Hech qachon yomon so'zlamang. Agar birovni haqorat qilsangiz,

<sup>9</sup>Арапбаева Д. К., Арапбаева В. К. Шарқ мутафаккирларининг оила ва тарбия ҳақидаги қарашлари. - Т.: "Замонавий таълим", 2015. -Б. 67

o'zingizni haqorat qilgaysiz. Agarda Birovning ota-onasini haqorat qilsangiz, o'z ota-onangizni haqorat qilgaysiz. Bu hadis bugungi kunlarda katta ma'naviy tarbiyaga ega. Tibbiy savodxonlik, sog'lom turmush tarzi, tibbiy madaniyatni shakllantirish va salomatlik masalalari doimiy ravishda ilg'or mutafakkirlarimiz diqqat markazida bo'lgan. Mutafakkir Axmad Donish rivojlantirish, gullab-yashnashi uchun besh shart bajarilishi kerakligini aytib, ulardan biri har bir shaharda kerakli shifokorlarning bo'lishi ekanligini takidlaydi. Mutafakkir shahar va qishloqlarda sanitariya holatining juda yomon ekanligi turli xil yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lib, aholi o'rtasida o'lim ko'payganligini hikoya qiladi va shu o'rinda birinchi navbatda, salomatlikni asrashni talab qiladi. "Agar, - deydi mutafakkir, tabib donishmand bo'lmasa, xalq har xil kasallarga chalinadi va halok bo'ladi". Adolatli hukmdor haqida o'z fikrlarini bayon etib, bunday ovqatlanish va kiyinish odobiga e'tibor berishi kerakligini takidlaydi<sup>10</sup>.

### **Xulosa**

Ahmad Donish inson umri haqida shunday yozadi: "Agar inson iste'mol qilish tartib-qoidalariga, gigienaga amal qilsa, u albatta, bir yuz yigirma yil va undan ham ko'proq umr ko'rishi mumkin".

Darhaqiqat, mustahkam oilada tarbiya topib ulg'aygan yuksak ma'naviyatli farzand kelajakda munosib o'rniga ega bo'ladi. Zero, mustahkam oila va ma'naviyatli yoshlar jamiyat taraqqiyotining poydevoridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1993. - B.224.
2. Xasanov S. Xorazm ma'rifati - olam kuzgusi. - T.: «Ukituvchi», 1996. -B.30
3. Arapbaeva D. K., Arapbaeva V. K. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari. - T.: "Zamonaviy ta'lim", 2015. -B. 67
4. Donish A. Risola dar nazmi tamaddun va taovun. Dushanbe: Irfon, 1976. S.151.
5. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
6. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. *Ilm sarchashmalari/ Urganch* – 3.2023. 19-21.
7. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 43-47.
9. Yusupova N. Islomda ayol huquqlari. -T.: Islom universiteti. 2006. -B.38; Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoShlar tarbiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996, -B. 4.

<sup>10</sup> Дониш А. Рисола дар назми тамаддун ва таовун. Душанбе: Ирфон, 1976. С.151.



## ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORODAGI IJTIMOY-IQTISODIY VA SIYOSIY XAYOT

Alimova Moxichexra Muzafarovna.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchi. Tarix fani bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[alimovachexra1980@gmail.com](mailto:alimovachexra1980@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoroda hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi to'g'risida, sulola vakillari tomonidan amalga oshirilgan ichki va tashqi siyosat hamda xalq ommasining og'ir ahvoli, soliqlar davlat boshqaruvi tizimi o'sha davr manbalari asosida o'rganilgan, tahlil etilgan va tegishli ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, hukmdor, xon, davlat hokimiyati, ichki va tashqi siyosat, sulola, soliqlar, xalq ommasi, iqtisodiy va ijtimoiy hayot, amir, hokim, viloyat, tuman.

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В БУХАРЕ ВО ВРЕМЯ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ

Алимова Мохичехра Музафаровна.

Бухарский инженерно-технологический институт, старший преподаватель кафедры «Общественные науки». Доктор философии (PhD) по истории

[alimovachexra1980@gmail.com](mailto:alimovachexra1980@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье были изучены и проанализированы правившая Бухарой династия Аштарханидов, проводимая представителями династии внутренняя и внешняя политика, бедственное положение народа, система государственного администрирования налогов и сделаны соответствующие научные выводы по источникам того времени.

**Ключевые слова:** Бухара, правитель, хан, государственная власть, внутренняя и внешняя политика, династия, налоги, общественная, экономическая и общественная жизнь, эмир, наместник, область, район.

## SOCIO-ECONOMIC AND POLITICAL LIFE IN BUKHARA DURING THE ASHTARGKHANID DYNASTY

Alimova Moxichexra Muzafarovna.

Bukhara Institute of Engineering and Technology, Department of "Social Sciences" senior lecturer. Doctor of Philosophy (PhD) in History

[alimovachexra1980@gmail.com](mailto:alimovachexra1980@gmail.com)

**Annotation:** In this article, the Ashtarkhanid dynasty that ruled Bukhara, the domestic and foreign policy pursued by the representatives of the dynasty, the plight of the people, the system of state tax administration were studied and analyzed, and relevant scientific conclusions were drawn from the sources of that time.

**Key words:** Bukhara, ruler, khan, state power, domestic and foreign policy, dynasty, taxes, public, economic and social life, emir, governor, region, district.

## **Kirish**

Vatanimiz tarixini o'rganar ekanmiz albatta unda o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlar va sulolalar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim. Shu o'rinda O'rta asrlarda o'lkamizda turli mamlakatlar va sulolalar mavjud bo'lgan. Ulardan biri Buxoro xonligidagi Ashtarxoniylar sulolasidir. Bu sulola 1601-1756-yillarda hukmronlik qilgan. Bu sulolaning boshqaruv tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Ashtarxoniylar davlat tizimi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra Shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinar edi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo'lida o'yinchoq bo'lib qolgan bo'lsada, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, u ko'p hollarda mamlakatni inqirozga olib kelardi. Ashtarxoniylar Jo'ji naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Ashtarxon, Hoji Tarxon) va uning atrofidagi yerlar, xalqlar ustidan hukmronlik qilgan.

## **Asosiy qism**

1556 yilda Astraxanni Rossiya bosib olgandan keyin Astraxandan Yormuhammadxon oilasi bilan Buxoroga ko'chib kelgan. Shu vaqtda Buxoro xoni bo'lgan Iskandarxon (1563-1583) qizi Zuhraxonimni uning o'g'li Jonibekka bergan. Ana shu Jonibek Sulton Zuhraxonimdan uch o'g'il farzand ko'rgan: Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad.

1601 yilda oxirgi shayboniy hukmdor bo'lgan Pirmuhammadxon II ning taxtdan ag'darilishi bilan ushbu suloladan taxtga da'vogar qolmaganligi sababli Movarounnahrda siyosiy hokimiyat Ashtarxoniy (Astraxanliklar) lar sulolasi qo'lga o'tgan.

Shayboniylar sulolasining oxirgi vakili bo'lmish Pirmuhammadxon (1598-1601) 1599 yilda alohida xizmatlari uchun Boqi Muhammadni Samarqand viloyatiga hokim etib tayinladi. Biroq bu rag'batga javoban o'z mavqeini mustahkamlab olgan Boqi Muhammad unga itoatsizlik qilib, hujum qilishga hozirlik ko'ra boshladi. 1601 yilda Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammadxon o'rtasida adovat boshlandi. Jaloir (Saidbiy), do'rmon (Boqibiy, Aliqulibiy, Soqibek) va boshqa qabila boshliqlarining ig'vosi bilan Pirmuhammadxon va Boqi Muhammadxon o'rtasidagi munosabatlar buzilgan. Ular Pirmuhammadxonni avval Samarqandga qo'shin tortib, u yerdagi To'qay Temuriylar hokimiyatini tugatishga undadilar, keyin hal qiluvchi daqiqalarda unga sotqinlik qilib, Boqi Muhammadxon tomoniga o'tib ketdilar. Bundan tashqari, Boqi Muhammadxon o'zboshimchalik bilan ish tutgan, buning ustiga o'z ulusini kengaytirishga harakat qilgan. Masalan, 1601 yilda u Miyonqolning eng mustahkam qal'asi Dabusiyani bosib oldi, keyin Qarshi bilan Keshni qo'lga kiritdi. Bu hol katta harbiy to'qnashuvga sabab bo'ldi. Bo'lib o'tgan to'qnashuvda Buxoro qo'shinlari son jihatdan ko'p edi, Balxdan o'n ming kishilik qo'shin madadga kelgan edi. Shunga qaramay, Boqi Muhammadxonning qo'li baland keldi. Pirmuhammadxon va uning e'tiborli amirlari qatl etildi. Shunday qilib, 1601 yilda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol degan joyda Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasida jang bo'lib o'tdi va Pirmuhammadxon mag'lubiyatga uchradi. Shu voqea (1601 yil. iyun) dan keyin Boqi Muhammad Buxoro shahriga kirib taxtni egalladi va yangi sulolaning hukmronligini boshlab berdi[1].

Abdullaxonning vafotidan keyin Abdulmo'min olti oygina hokimiyat tepasida turdi va keyin fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Fitnachilarning tepasida Abdullaxonning eski amirlaridan Abdussamad bahodir miroxo'r va Muhammadqul bahodir tirandoz turdilar. Bu voqea 1598 yilning iyul oyida O'ratepa bilan Zomin oralig'ida bo'ldi. Shundan keyin Movarounnahrda

o'zaro feodal kurashlar kuchaygan. Shimol tomondan Tavakkalxon boshchiligida qozoqlar bostirib kirib, Toshkent bilan Samarqandni egallab, Buxoroga yaqinlashdilar. Lekin Buxoro amirlari orasida yakdillik bo'lmadi. Bir guruh Ibodullo Sulton (Abdullaxonning ukasi)ning o'n yetti yashar asrandi o'g'li Abdulamin (Ispond sulton) sultonni olib Balxga qarab ketdilar va o'sha yerda uni xon qilib ko'tardilar. Ikkinchi guruuh esa Abdulmo'min qirg'inidan omon qolgan Pirmuhammadni uch o'g'li bilan olib kelib, o'zini shayboniylarning oliy xoqoni deb e'lon qildilar. Hirotda hokimiyatni ashtarxoniylardan bo'lgan Yormuhammadxon (Jo'chining o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan)ning o'g'li Dinmuhammadxon egalladi. Ilgari u Seyistonni Abdullaxonning nomidan idora qilgan, 1586 yildan keyin esa Jom viloyatini boshqargan va so'ngra otasi Yormuhammadxonni xon deb e'lon qilgan edi. Ana shundan keyin qozoq qo'shinlari Buxoro vohasiga hujum qilib Miyonqolning Dabusiya va Kufin qal'alaridan tashqari barcha qishloqlarini bosib olib, talon-toroj qildi, Buxoro shahri ikki oy davomida qamal qilindi. Shunday qilib, 1601 yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola – joniylar (Joni Muhammadxon nomidan) yoki ashtarxoniylar (kelib chiqish bo'yicha) degan nom olgan To'qay Temuriylar sulolasi qo'liga o'tdi[2].

1603 yilning 25 martida Boqi Muhammad temuriylardan bo'lgan Kobul hokimi Muhammad Hakim Mirzoning jiyani Badiuzzamon bosib olgan Qunduz shahrini 3 oy qamal qilgach, yana qo'lga kiritadi. O'zining hukmronligi davrida Boqi Muhammad xonlikni boshqarish tizimi va soliqlarni tartibga solish, qo'shinni qayta tashkil etish kabi qator o'zgarishlarni amalga oshirib, mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik va obodonchilik ishlariga ko'p e'tibor beradi. Boqi Muhammad 1605 yilda vafot etadi.

Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" (XVII asr) asarida yozilishicha, Eron shohi Abbos Imoqulixonga qarshi kurashish uchun Vali Muhammadga 80 ming kishilik qizilboshlilar qo'shinini bergan. Ammo 1611 yilning 27 avgustida Samarqand yaqinidagi mashhur Bog'ishamoldagi jangda Imomqulixonning qo'li baland kelib, Vali Muhammad asirga olinadi va qatl qilinadi [3].

Imomqulixon Vali Muhammadxon Erondan olib kelgan qo'shinga qarshi Buxoro xalqining kurashiga boshchilik qilib, qozoqlar yordamida eroniylarni tor-mor keltirgan.

Buxoroda Imomqulixon hukmronligi davrida mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunishi rasmiylikicha qolavergan. Shunday bo'lsa-da mamlakatda ijtimoiy-siyosiy ahvol birmuncha barqarorlashgan va xo'jalik hayotida ayrim siljishlar ko'zga tashlangan. Xonlikka qarashli bo'lgan Toshkent, Balx va Samarqand kabi yirik viloyatlarning mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilishlari sindirib turilishi natijasida ichki nizolarga chek qo'yishga muvaffaq bo'lingan.

XVII asrning birinchi yarmida, Imoqulixon hukmronligi davrida Buxoroda darvishlarning, Jo'ybori xo'jalarining mavqei baland edi. Imomqulixon darvishlarni qo'llab quvvatlar, Jo'ybori xo'jalar bilan yaxshi munosabatda bo'lar, juda ko'p mol-mulklar ularning qo'lida edi.

Imomqulixon saroyida olimlar va shoirlar to'plangan, uning o'zi ham she'rlar yozgan. 30 yil (1611-1642) dan ortiq hukmdorligi davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilib, Hindiston, Eron va Rossiya bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. 1620-1622 yillarda Rossiyaning elchisi I.D.Xoxlov Buxoroda bo'lgan. Imomqulixon umrining so'nggi yillarida ko'r bo'lib qolgan va Buxoro taxtini ukasi Nadr (Nodir) Muhammadga topshirib, o'zi Makkaga haj safariga ketgan va o'sha yerda vafot etgan.

Nadr Muhammadxon ibn Dinmuhammadxon (1592-1651) Buxoro xonligini 1642-1645 yillarda boshqardi. U ko'p yillar davomida xonlikning yirik viloyatlaridan biri bo'lgan Balxda hokimlik (1606-1642) qilgan. Nadr Muhammadxonning hukmronligi davrida Buxoro xonligida ichki nizolar avj olib, hattoki uning o'g'illari (ular 12 nafar edi) ham itoat etmay qo'ygan. Bunga uning qaysarligi, o'ta takabburligi va mol-dunyoga o'chligi sabab bo'lgan hamda xalqning noroziligini keltirib chiqargan. Bundan tashqari mamlakatning shimolidagi ko'chmanchi qabilalarning ketma-ket hujum uyushtirib turishlari ham xonlikdagi vaziyatni murakkablashtirgan [4].

Abdulazizxon Buxoro xonligini 1645-1681 yillarda boshqaradi. Xon bo'lishidan avval, 1626 yildan boshlab Xurosondagi Xuttaloning hokimi, 1630 yildan boshlab Balx viloyati g'arbiy tumanlari hokimi bo'lib ishlagan edi. Abdulazizxon davrida aka-ukalar o'rtasidagi toj-taxt kurashlari avj olgan. 1651 yilda Balxning noibi bo'lgan Subxonqulixon tez orada Badaxshonni ham qo'lga kiritib akasiga bo'ysunmasdan, mustaqil siyosat olib bora boshlaydi.

Buxoro xonligini Abdulazizxon boshqargan yillarda Buxoro va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar bir maromda kechmagan, o'zaro to'qnashuvlar, talonchilikdan iborat bo'lgan yurishlar bo'lib turgan. Xususan, Xiva xoni Abulg'ozzi Bahodirxon hukmronligi davrida, 1655, 1658, 1662 yillarda Buxoroga tegishli Ko'kardlik, Gurdush (Qorako'l), Yoychi (Qorako'l), Vardanze, Narazm, Suyunch bolo va boshqa mavzelarga talonchilik yurishlari sodir etilgan. 1662 yilgi hujumda Xiva qo'shinlari Buxoroning Jo'ybor guzarigacha yetib keladilar. Shu yurishda Abulg'ozixon Buxoro shahrining Namozgoh darvozasi atrofidagi yerlarini o'n kun mobaynida g'orat qiladi. Abdulazizxon bu paytda Samarqandda edi. Podshosiz shaharni egallashni o'ziga or bilgan Abulg'ozixon esa orqasiga qaytib ketadi. Bunday yurishlar Xiva Xoni Anushaxon davrida ham davom etib, 1681, 1685 yillardagi talonchilikdan Buxoro, Qorako'l, Samarqand, Nasaf va Shahrisabz shaharlari aholisi ziyon ko'rgan [5].

Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, 1680 yilda keksayib qolgan Abdulazizxon Buxoro taxtini ukasi Subhonqulixonga topshiradi va o'zi haj safariga jo'naydi. Abdulazizxon 42 yil hukmdorlik qilib, 72 yoshda vafot etadi va Imomqulixonning qabri yonida dafn qilinadi. Buxoro xonligini Subxonqulixon boshqargan vaqtda Buxoroning Sharq davlatlari bilan diplomatik aloqalari yaxshilangan. Masalan, Boburiylardan bo'lgan Avrangzeb 1689 yilda Zabardastxon boshchiligidagi, Usmonli turk sultonlaridan Ahmad II 1691 yilda Mustafa Chovush boshchiligidagi elchilarini Buxoroga jo'natgan. Subxonqulixon bilan Avrangzeb o'rtasida bir necha marta (1671-1687 yillarda) o'zaro maktublar almashilgan.

Ubaydullaxon II (1702-1711) hukmronligi davrida Balx, Termiz va Shahrisabz hokimlari markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamaganligi bois ularga qarshi urushlar olib boriladi. Ubaydullaxon II murakkab vaziyatda Buxoro xonligini idora qiladi. Bir tomondan, mamlakat ichkarisidagi iqtisodiy tanazzul, ikkinchi tomondan Jung'or (Qalmoq)larning (Samarqandga) hujumi va buning natijasida ulardan qochib kelgan qozoq va qoraqalpoqlarning butun Movarounnahr (Toshkent atroflari va Zarafshon vodiysi) bo'ylab ko'chib yurishi, uchinchi tomondan, o'zaro ichki nizolarning avj olishi vaziyatni juda murakkablashtirib yuboradi.

Yuzaga kelgan vaziyatda Ubaydullaxon islohotlarni amalga oshirishga kirishadi. Birinchidan, ma'muriy boshqaruvga o'rta tabaqani, ya'ni hunarmandlar va savdogarlarni jalb etadi, ikkinchidan, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarining imtiyozlarini qisqartiradi (masalan, Jo'ybor xo'jalarini soliq to'lashga majbur etadi), uchinchidan, pul islohotini amalga oshiradi. Ubaydullaxon mamlakatda obodonchilik ishlariga e'tibor qaratgan. Uning

farmoni bilan shaharda madrasa va Buxoroning g'arbida 1709 yilda Xonobod chorbog'i barpo etilgan. Muarrix Mir Muhammad Amin Buxoriy uning saroyida bosh Munshiy (bosh kotib) bo'lib ishlagan va uning faoliyati haqida 1716 yilda "Ubaydullanoma" asarini yozgan.

Ubaydullaxonning o'rniga ukasi Abulfayzxon (1695-1747) Buxoro taxtini egalladi. Uning hukmronligi davrida o'zaro nizolar kuchayib, mamlakat chuqur iqtisodiy-siyosiy inqirozga yuz tutadi. Abulfayzxon hokimiyatni rasman, nomigagina boshqaradi. Xonlikda markaziy hokimiyat zaiflashib, amalda bir guruh amirlar davlat siyosatini olib boradi. Abulfayzxon hukmronligi davrida dastlab hokimiyatni Javshan qalmoq, uni o'ldirganlaridan keyin qushbegi Abudullobiy, keyinroq esa otaliq Muhammad Hakimbiy boshqargan. Buning oqibatida markaziy hokimiyat borgan sari zaiflashib borgan va xonlikning Eron ta'siriga tushib qolishiga olib kelgan. 1720-yillardagi ichki nizolar, isyonlar, ko'chmanchilarning dehqonchilik rayonlariga uyushtirgan xurujlari tufayli mamlakatning ko'p joylarida ocharchilik sodir bo'ldi. Buxoro shahrining ko'pchilik aholisi boshqa joylarga ketib qoldi [6].

1747 yilning iyun-iyul oylarida Rahimbiy olib kelgan qizilboshlar qo'shini Buxoroni ostitin ustun qilib tashladi. Ularning to'p-zambaraklaridan otilgan o'qlar nafaqat shahar tashqarisini, balki shaharning ichkarisini ham vayron etdi. Artileriya otishmalaridan omon qolish uchun aholi Qarshi darvozasidan to Labi Hovuzgacha bo'lgan guzarlarni tashlab chiqdi.

Qizilboshlarga qarshi kurashda Rahimbiy hunarmandlarni shahar devori va darvozalarini himoya qilishga safarbar etadi. Bir oylik qamaldan so'ng, Buxoroni egallay olmagan eronliklar tinchlik sulhini imzolashga majbur bo'ladilar. Rahimbiy ularning xavf-xatarsiz o'z yurtlariga qaytishini ta'minlashga va'da beradi. O'zaro asirlar almashtirilib, eronliklar jo'nab ketadilar. Abulfayzxonning o'limidan keyin Amudaryoning chap qirg'og'idagi yerlar – markazi Balx bo'lgan viloyatlar Buxoro bo'ysinuvidan chiqib ketdi. Shundan keyin esa hokimiyatni ming urug'i egallab olgan Farg'ona ham Buxoro tasarrufidan chiqdi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XVIII asrning birinchi yarmida og'ir iqtisodiy-xo'jalik qiyinchiliklarni hamda chet ellik bosqinchilarning istilosini boshidan kechirgan Buxoro shahri yangi sulola – mang'itlarning poytaxti bo'lib qoldi. Garchand davlat hokimiyati boshqa sulola qo'lga o'tgan bo'lsa-da, uning mohiyati o'zgarmadi. 1756 yilda Rahimbiy hokimiyatni to'la egallab, o'zini "amir" deb e'lon qiladi, chunki u xon avlodidan emas edi. Shu tariqa Buxoroda amirlik tuzumi va amir boshqaruvi boshlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T.1994, 192-193 b.
2. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T.1994, 184-195 b.
3. B.T.Mirzaqulov. Buxoro tarix zarvaraqlarida. 1-kitob. T., LESSON PRESS, 170-172 b.
4. A.Bahodirxon. Shajarayi turk. T.1992, 185-186 b.
5. B.Ahmedov. Ulug'bek. T.1994, 197-b.
6. Abduraxmon Taliy. Istoriya Abulfayzxana. T. 1956, S. 66. 133-134, 138.



## YOSHLAR TINCHLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA MA'NAVYIY-AXLOQIY VA G'OYAVIY-MAFKURAVIY TAMOYILLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich  
Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi.

**Annotasiya:** Mustaqil O'zbekistonning eng katta yutug'i bu mamlakatdagi etnik guruhlarning bir tom ostida birga yashashidir. Chunki yurt ravnaqi uchun milliy madaniyatni shakllantirish, xalqlar do'stligini mustahkamlash, mustaqil davlat bo'lish zarur. Mustaqillik nafaqat o'zbek xalqining, balki bu bepoyon hududda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning bog'i. Bizning vazifamiz jamiyatning ko'p millatliligini doimiy birlashtiruvchi omilga aylantirish, ya'ni kuchli milliy g'oyani shakllantirish, butun xalq orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishdir. Mustaqillik tushunchasining boshlanishi erkdir. Insoniyat boshidanoq ozodlikni sevib ulg'aygan. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, erkinlik insonning erkin tanlovi, Iroda erkinligidir. Tanlov bo'lmagan joyda erkinlik ham bo'lmaydi. Mustaqillik orqali xalq o'z xohish-istaklarini, ya'ni chuqur ildiz otgan an'ana va madaniyatini, dini va mentalitetini tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu maqolada mustaqil O'zbekistonda yoshlar tinchlik madaniyatini yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarning o'zaro aloqadorligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, Ma'naviyat, inson, tarbiya, madaniyat, jamiyat, millat.

## ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ И ИДЕЙНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖНОЙ КУЛЬТУРЫ МИРА

Абдумаликов Илимжон Абдухамжонович  
Андижанский государственный университет,  
независимый исследователь

**Аннотация:** величайшим достижением независимого Узбекистана является сосуществование этнических групп в этой стране под одной крышей. Потому что для процветания страны необходимо сформировать национальную культуру, укрепить дружбу народов, стать независимым государством. Независимость - это достояние не только узбекского народа, но и всех национальностей и сословий, проживающих на этой огромной территории. Наша задача - превратить многонациональный характер общества в постоянный объединяющий фактор, то есть сформировать сильную национальную идею, реализовать чаяния всего народа. Началом концепции независимости является ЭРК. Человечество с самого начала любило свободу. С философской точки зрения, свобода - это свободный выбор человека, свободная воля. Там, где нет выбора, нет и свободы. Благодаря независимости люди смогли выбирать свои собственные желания, а именно глубоко укоренившиеся традиции и культуру, религию и менталитет. В этой статье пойдет речь о взаимодействии духовно-нравственных и идеологических принципов в воспитании культуры мира среди молодежи в независимом Узбекистане.

**Ключевые слова:** молодежь, духовность, человек, воспитание, культура, общество, нация.

## INTERACTION OF SPIRITUAL-MORAL AND IDEOLOGICAL-IDEOLOGICAL PRINCIPLES IN THE ELEVATION OF YOUTH PEACE CULTURE

Abdumalikov Ilimjon Abdukhamjonovich  
Andijan State University, independent researcher.

*Annotation: the greatest achievement of an independent Uzbekistan is the coexistence of ethnic groups in this country under one roof. Because for the prosperity of the country, it is necessary to form a national culture, strengthen the friendship of peoples, become an independent state. Independence is not only the park of the Uzbek people, but also of all nationalities and elates who live in this vast territory. Our task is to turn the multiethnic nature of society into a constant unifying factor, that is, to form a strong national idea, to realize the aspirations of the whole people. The beginning of the concept of independence is ERK. Humanity has grown in love with freedom from the very beginning. From a philosophical point of view, freedom is a free choice of Man, Free Will. Where there is no choice, there is no freedom either. Through independence, the people were able to choose their own desires, namely a deeply rooted tradition and culture, religion and mentality. This article will talk about the interaction of spiritual and moral and ideological principles in raising the culture of Youth Peace in independent Uzbekistan.*

**Keywords:** youth, spirituality, man, upbringing, culture, society, nation.

### Kirish

Globalashuv sharoitida xalqimizning qadimiy tarixiy-madaniy va ma'naviy olamining chuqur ildizlarini aniqlash, ularni puxta o'rganish va falsafiy mujassamlashgan milliy merosimizni qayta tiklash oldimizda turgan vazifalardan biridir. O'zbek xalqining jahon sivilizasiyasiga o'ziga xos yo'l bilan kirib kelishiga imkon beradigan milliy ongimizning tub xususiyatlarini tahlil qilish muhim, bu esa keyingi taraqqiyotimizga asos bo'ladi. Bular asrlar qa'riga borib taqalgan qadriyatlar, ya'ni milliy birligimizni ta'minlovchi poydevordir. Globalashgan global tendensiyaga nazar tashlasangiz, u yangi zamonaviy texnologiyalar bilan yangilanib bormoqda.

Yoshlarning bilim olish, kasb tanlash, ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish kabi ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tishi hayot qonunidir. Ushbu ijtimoiy davrlarda shaxsning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida yoshlar ongida ma'naviy va an'anaviy qadriyatlarni shakllantirish, "zero Vatan oiladan boshlanadi" degan ota-onadan tarbiyalanadigan ezgu fazilatlarini bog'chada shakllantirish muhim. Hozirgi jamiyatda yoshlar orasida eng ko'p uchraydigan janjallardan biri kattaga hurmasizlik, kichikga hurmasizlikdir. Xususan, jamoat joylarida kattalarni hurmat qilmaslik, ota-onaga bo'ysunmaslik kabi hodisalar uchray turadi. Kattalar jamoat transportiga kirsam, yoshlar uni ko'rmagandek qilib, joy bermay qo'yishi bunga misol bo'la oladi.

Jamiyatimiz kelajagi bugungi yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun o'quvchilarni tarbiyalashda ularning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratish lozim. Hozirgi avlod tarbiyasidagi asosiy masala o'quvchilarni ma'naviy kamol toptirishdir. Ma'naviy yuksalish – o'z-o'zini takomillashtirish, hayotdagi o'rnini, mas'uliyatini anglash demakdir. Ma'naviy Kamolot – shaxs shakllanishining asosidir. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan.

### Adabiyotlar tahlili

Ma'naviyat inson ongi, ichki dunyosiga xosdir. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasida inson ongi va ichki dunyosini tanib olish, rivojlantirish va takomillashtirish ustida ish olib borish zarur. Umumiy ta'limning asosiy vazifasi - o'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish, har bir shaxsning qadriyatlarini, individualligi, o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishdir. Bu masalalar tarixning ma'lum turlari orqali bir-biri bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi. Har bir ta'lim turi o'z maqsad va vazifalariga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi asosiy masala esa bolaga hurmatdir. Har bir o'smir o'zini ma'naviy jihatdan yuksaltirish uchun o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashga intilishi kerakligini anglashi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya - tarbiyalanuvchining ongi, odatlari, maqsadlariga jamoat axloqi talablariga muvofiq tizimli ta'sir ko'rsatishdir. Forobiy tinchlikparvarlikning asosini insoniylikdan deb biladi. Shuning uchun ham alloma "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoklari lozim"<sup>11</sup>, - deb yozadi. Beruniy esa jamiyatni boshqarish masalasiga to'xtab "idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iboratdir,"<sup>12</sup> - deydi.

Uch ming yillikdagi yangi ijtimoiy-madaniy vaziyat munosabati bilan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, mazmuni, turlari, uslub va yondashuvlarini puxta o'ylab ko'rish, bu tarbiyaning tarixiy, falsafiy va pedagogik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. XXI asrga qadam qo'ysak, dunyo murakkab tarixiy burilishlar va ijtimoiy yangilanishlar sharoitida rivojlanmoqda. Bu bosqichda ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning yangi yo'nalishini belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois bugungi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham shaxs kamolotini shakllantirishga yangicha yondashuvga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan jahon sivilizatsiyalari hamjamiyatida zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini o'quvchilarning shaxsan kamol topishiga xizmat qiluvchi tamoyil va uslublar tashkil etadi. Bunday tamoyil va usullarning eng keng tarqalgan turlari: kuzatish, suhbat, insho, savol-javob, test, anketa va boshqalar.

Evropaning bir qancha davlatlarida bunday dolzarb masala "ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'z-o'zini bilish loyihasi, ya'ni o'z-o'zini bilish" fani orqali amalga oshiriladi. Yoshlarni axloqiy tarbiyalash sifatini oshirishning asosiy sababi ta'lim va tarbiya sohasida ilm-fanning rivojlanishidir. Bugungi kunda islohotni puxta va tezkor amalga oshirish o'qituvchi-pedagoglarning ilmiy-nazariy bilimi, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashi, bu bilimlar o'z-o'zini rivojlantirish asosiga aylanishi zarur.

Yosh avloddan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, sof ichki ma'naviy dunyosiga ega, yurtini, ona erini, oilasini sevuvchi, ana shu muqaddas tushunchalar yo'lida bor kuch-g'ayratini ayamaydigan fuqaro bo'lish talab etilmoqda. Bu fazilatlar esa bolaga ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali o'tadi. Bu borada ma'naviy-axloqiy tarbiyada xalqimizning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot tajribasiga tayanish zarur. Har bir xalqning ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos hikmatlari, an'analari bor. O'zbek xalqi azaldan axloqli shaxs tarbiyasiga katta ahamiyat berib kelgan. Shu o'rinda shuni unutmashimiz kerakki, donolik nasl-nasabi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy

<sup>11</sup> Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1993. -B. 186

<sup>12</sup> Абу Райхан Беруний. Избранные произведения, Т. II, 1963, 23-6.

qadriyatlariga alohida ta'sir ko'rsatadi. Maqollar ajdodlarimizning ko'p asrlar davomida aytgan falsafiy haqiqatlari, yosh avlod tarbiyasi manbaidir. O'zbek xalqi bolaning ichki ma'naviy dunyosi va tashqi madaniyatining birligiga alohida e'tibor bergan. Tabiatan do'stona va mehmondo'st xalqimizning axloqiy fazilatlariga ko'plab xorijlik olimlar e'tibor berib, ilmiy izlanishlar amalga oshirgan. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlash – jamiyat taraqqiyotining kafolati ekani aksiomadir. Biroq, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur fenomenlar eng avvalo ichki omillar bilan bog'liqdir. Davlat va jamiyatning tinchlik va barqarorlikni ta'minlay olishi betakror siyosiy mahoratni, ichki destruktiv hollarni o'z o'rnida, tez hal etishni, polietnik muhitni o'zaro hamkorlik asosiga qurishni, inson huquq va erkinliklaridan sosiokreativ maqsadlarda o'rinli foydalanish kabi rang-barang texnologiyani qo'llashni taqozo etadi.<sup>13</sup>

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi - bolalarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish, har bir bolaning qadriyatlari, individualligi, his-tuyg'ulari, o'zini o'zi qadrlashi, o'zini o'zi bilishini shakllantirishdir. Bolaning ongini, axloqiy ideallarini shakllantirish ham juda muhim. Bu g'oyalar doimo tarbiyaning bosh maqsadi bo'lishi kerak. Tarbiya sohasida ma'naviy-axloqiy tarbiya turli o'yinlar, suhbatlar, hikoyalar, filmlar tahlili orqali amalga oshiriladi. "O'z-o'zini anglash" fanida esa bu harakatlar maxsus darslar, belgilar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Darslikdagi taniqli mavzular bo'yicha boblar, har bir bobning darslarida matnlar mazmuni, matndan keyingi mashg'ulotlar o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilishi va o'z fikrlarini bildirishiga asoslanadi. Xalq og'zaki ijodi, jahon adabiyoti, mumtoz o'zbek adabiyotidan parchalar o'quvchilarning yoshiga qarab did bilan taqdim etiladi. Ko'rinib turibdiki, musiqa san'atiga oid qo'shiqlarni mavzu va bobga mos ravishda taqdim etish darslik mazmunini yanada oshiradi. "O'z-o'zini anglash" fani va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va manfaatlari mushtarak bo'lib, u bolani ezgulik, odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalaydi, ongi va harakatlarini ezgulik g'oyalari yo'naltiradi, ma'naviy munosabatlarni shakllantiradi.

### **Tadqiqod metodologiyasi**

Har qanday davrda ham insoniyat oldida turgan buyuk vazifa uning hayotini davom ettiradigan ongli avlodni tarbiyalashdan iborat. Avlod tarbiyasi – millat kelajagi, kelajak jamiyat tarbiyasidir. Jamiyatning kelajak egalarini har tomonlama etuk, aql-zakovatli, madaniy va ilm-fan vakili qilib tarbiyalash, hech shubhasiz, dolzarb vazifadir. "Bayroq yonida qiyshiq daraxt yo'q" deganlaridek, tarbiya yo'lining chorrahasi xalqda, ota-bobolarning urf-odat va an'analaridadir. Biz yosh avlodni milliy g'urur, milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalaganimizdek, xalqimizning ertangi kuni, donoligi ham xuddi shunday ravshandir. Donolik bilim bilan oziqlanadi. Donolikka yo'l uzoq va qiyin. Shunday ekan, yoshlarga asosiy muammolarni ko'ra oladigan, ijtimoiy ongga muvaffaqiyatli kirib borishiga yordam beradigan yaxshi yo'l boshchi kerak. Olimning vazifasi olim qonunlarini ochib berish va ularni so'zda formulaga aylantirishdir.

Yosh tadqiqotchining vazifasi olim kashfiyotini bilimga aylantirish vositasini topishdan iborat. O'qituvchining vazifasi olim va tadqiqotchining vazifalarini uyg'unlashtirgan holda tarbiyalanuvchining butun fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Bugungi kunda o'quvchilarga jahon andozalari darajasida madaniyatli asosda ta'lim-tarbiya berish, ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish o'qituvchi oldidagi katta vazifadir. Qadim zamonlardan oq insoniyat

<sup>13</sup> Қаранг: Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. – Москва: АСТ Хранитель, 2006. – С. 198-199.

tarixida qadriyatlarning shakllanishi mutafakkir va allomalar diqqat markazida bo'lib kelgan. Ularning tarbiyasi otadan o'g'ilga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ezgu fazilatlar va tuyg'ularga asoslanadi. Milliy qadriyat – xulq-atvorda muayyan yo'nalish, maqsad, tizimli milliy qarash, insonning xulq-atvori va ma'naviy ko'nikmalarini shakllantiruvchi tizimdir. Demak, kelajak avlod tarbiyasida ezgulik, donishmandlik, odob-axloq, ehtiyotkorlik kabi asosiy burchlarni ajratib ko'rsatish, tanlov qilishdan iboratdir. "Farzandni o'z tarbiyang bilan tarbiyalama, o'z millatingni o'zing tarbiyala" degan naql bor. O'zbek xalqining an'analari, urf-odatları, xulq-atvor madaniyatini o'rganishda o'quvchilarda milliy odob-axloqni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalashda milliy tajribani samarali joriy etish lozim.

Milliy tarbiya avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bebaho xazinadir. Bu kelajak avlodlarni yashashga tarbiyalovchi, o'rgatuvchi katta tarbiyaviy kitobdir. Shubhasiz, bu xazina bolaga milliy qadriyatlar orqali singdiriladi. Milliy qadriyatlar nima? Sodda qilib aytganda, milliy qadriyatlar muayyan millatning mulki, inson qadr-qimmati, ya'ni asrlar davomida to'plangan milliy ma'naviy va moddiy qadriyatlaridir. Bu ta'lim va tarbiya uchun zarur arxivdir. Bularga mehmondo'stlik, shaxsiyat, hurmat, odob-axloq, kamtarlik, farovonlik, muruvvat, mehr-oqibat, erkinlik, mehnasevarlik, xushmuomalalik, madaniyatlilik, ijodkorlik, ma'naviy boylik, muhabbat kabilar kiradi. Har qanday xalqning xarakteri besh tamoyilga asoslanadi. Birinchisi – til, ikkinchisi – din, uchinchisi – an'ana, to'rtinchisi – tarix, beshinchisi – Vatan. Qadriyatlar haqiqiydir, ular insonga bog'liq emas, lekin ular, birinchi navbatda, inson ongida joy oladi va ong orqali tushunish mumkin, buning natijasida inson qadriyatlarga ega bo'ladi va shunga mos ravishda harakat qiladi. O'zbek xalqi tarbiyasining asosiy tamoyili bola yomonlikdan jirkanuvchi, yaxshilikka intiluvchi, go'zal so'zdan, go'zal rang va rang-baranglikdan bahramand bo'ladigan, vazmin, tafakkurli bo'lib ulg'ayishi lozim ekanligidir. Nasl tarbiyasida kechikish jarohat bilan barobar. Tarbiyani bola tug'ilguncha berish kerak, degan naql bejiz aytilmagan.

### **Tahlil va natijalar**

Shaxsni milliy tarbiya, aniq harakatlar orqali tarbiyalashda quyidagi qadriyatlar mavjud bo'lishi kerak: faol muloqot: talaba va o'qituvchi har bir masala bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi; individual: har bir o'quvchining o'qituvchi individualligini rivojlantirish, jamiyat oldidagi mas'uliyatning mavjudligi; o'z-o'zini tarbiyalash: o'z-o'zini nazorat qilish va baholash bo'yicha qaror qabul qilishni o'rganish; sabr: turli fikrlarni qabul qilish, bir-birining fikri va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va qabul qilish qobiliyati. Milliy qadriyatlarimizni jahon talablari darajasiga olib chiqa oladigan shaxsni tarbiyalash: o'quvchilarning ongini shakllantirish; navqiron avlod ongiga o'z xalqiga hurmat, muhabbat va g'urur tuyg'ularini singdirish, milliy ma'naviyatni yuksaltirish; ona tili va diniga, uning tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatları, ma'naviy-madaniy merosiga hurmat bilan qarashga o'rgatish; o'sib kelayotgan yosh avlodda mehr-oqibat, ishonch, g'urur kabi milliy xususiyatlarni shakllantirish kabi vazifalarni ado etsakkina, bu maqsadga erisha olamiz.

Bolada milliy qadriyatlarni rivojlantirishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi: sinfdagi tarbiyaviy soatlar; matbuot va devoriy gazetalar; ommaviy axborot vositalari; tarbiyaviy tadbirlar (munozara, tarbiya soatlari, kechalar, ma'ruzalar va boshqalar); kitob o'qish; sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish; ijodiy loyihalarni himoya qilish; jamoat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish; sayohat; madaniyat uylarida qatnashish.

### Xulosa

Yangi O'zbekiston uchun o'zbek sivilizasiyasi, urf-odatlarini, tili va boshqalarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar kontekstida kengaytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Shunday ekan, milliy meros qadriyatlarini bugungi kundagi madaniy yutuqlar bilan uyg'unlashtirish oldimizda turgan katta maqsaddir. Yosh avlod tarbiyasida ahillik qonuni ustuvor bo'lishi kerak. Ya'ni, o'sib-ulg'ayish chog'ida oq sut bergan ota-onasi bilan ham, ko'zini ochgan ustozlari bilan ham til topisha olishi kerak. Shundagina shaxsda milliy ma'naviy fazilatlar asta-sekin shakllanadi. Shaxsda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish manbai oila, sulola, ijtimoiy muhit, davlat, milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, el-yurt oldidagi burch, ornomus, milliy ma'naviyat, milliy an'analar, yuksak ko'rsatkichdir. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash uchun, avvalo, milliy urf-odatlarimiz, muqaddas dinimiz, ajdodlarimiz targ'iboti va merosini ta'lim-tarbiya qoidalariga asoslanib, yoshlar ongiga singdira olishimiz zarur. Tarbiya manbai ajdodlarimiz merosi, hikmatli so'zlari desakkina, ularni targ'ib qiluvchi etakchi bo'lamiz. Har birimiz butun jamiyat uchun qayg'urishni, madaniyatli va bilimli bo'lishni boshlasak, yosh avlod tarbiyasi o'z samarasini berishi aniq.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1993. -B. 186
2. Абу Райхан Беруний. Избранные произведения, Т.II, 1963, 23-б.
3. Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. – Москва: АСТ Хранитель, 2006. – С. 198-199.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. 2017. 5 iyul.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-son Qarori. 2017. 28 iyul.

## ABDULHAMID CHO'L PON ESTETIK DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING OB'JEKTIV SHART-SHAROITLARI

Aymatov A.Q - Falsafa fanlari doktori Dsc  
Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy-estetik qadriyatlar va ma'naviy merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarganligi, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizdan biri hisoblangan Cho'lpon ijodi yoritib berilgan. Cho'lpon jadidlarning g'oyalarini xalqni ilmsizlikdan ma'rifatga, tobelikdan erkinlikka tomon boshlovchi harakat deb bildi, uning ijodkor sifatida shakllanishiga ana shular muhim ta'sir ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** estetika, etika, manaviyat, marifat, jadid, dunyoqarash, adabiy meros, mafkura, qadriyat, ijtimoiy tarixiy taraqqiyot.

## ОБЪЕКТИВНЫЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ АБДУЛХАМИДА ЧУЛПАНА

Айматов А.К. – доктор философских наук, доктор философских наук  
Самаркандский государственный университет

**Аннотация:** В данной статье после обретения нашей страной независимости в корне изменилось отношение к нашим национально-эстетическим ценностям и духовному наследию, Чулпан, который считается одним из наших предков, поднявших идею Просвещения в период Царский колониализм Чулпан рассматривал идеи нового времени как движение, ведущее народ от невежества к просвещению, от зависимости к свободе, и это оказало важное влияние на его становление как творца.

**Ключевые слова:** эстетика, этика, духовность, просвещение, современность, мировоззрение, литературное наследие, идеология, ценности, общественно-историческое развитие.

## OBJECTIVE CONDITIONS OF THE FORMATION OF THE AESTHETIC WORLD VIEW OF ABDULHAMID CHOLPON

Aymatov A.Q - Doctor of Philosophy Dsc  
Samarkand State University

**Annotation:** In this article, after the independence of our country, the attitude towards our national-aesthetic values and spiritual heritage changed radically, Cholpan, who is considered one of our ancestors who raised the idea of enlightenment during the period of Tsarist colonialism. Cholpon considered the ideas of modern times as a movement leading the people from ignorance to enlightenment, from dependence to freedom, and these had an important influence on his formation as a creator.

**Key words:** aesthetics, ethics, spirituality, enlightenment, modernity, worldview, literary heritage, ideology, value, socio-historical development.

Har bir ijodkorning estetik qarashlari u yashagan davrning ijtimoiy, tarixiy va milliy xususiyatlari, badiiy tajriba va an'analari ta'sirida shakllanadi. Bu tarixiy va mafkuraviy jarayonning oddiy ko'zgusi bo'libgina qolmay, uning istedodi, dunyoqarashi va estetik ideali birligidan tashkil topadi.

Bugungi kun Cho'lpon ijodini o'rganish tarixiy haqiqatlar va real voqelikka amal qilishni, ijodkorning boy adabiy, nazariy merosini ob'ektiv tadqiq etishni, ularga yopishtirilgan har qanday mafkuraviy, siyosiy va g'ayriilmiy illatlardan tozalanishni taqozo etadi. Buni qator sabablari bor. Birinchidan, Cho'lpon Turkiston xalqlarining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'li bilan yaqindan tanish bo'lib, bu jarayonda bevosita va bilvosita ishtirok etdi. Ikinchidan, Cho'lpon jadidlarning g'oyalarini xalqni ilmsizlikdan ma'rifatga, tobelikdan erkinlikka tomon boshlovchi harakat deb bildi, uning ijodkor sifatida shakllanishiga ana shular muhim ta'sir ko'rsatdi. Uchinchidan, Cho'lpon jahon adabiyoti va sanatining gumanistik g'oyalar bilan sug'orilgan shoh asarlaridan bahramand bo'ldi, yangi milliy adabiyot taraqqiyoti uchun qayg'urdi. To'rtinchidan, u bevosita Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat singari jadidchilik harakatining ilg'or vakillari bilan yaqindan aloqada bo'ldi va ularning milliy manaviy taraqqiyot haqidagi qarashlarini poetik obrazlar tilida ifodalashga harakat qildi.

1914 yili Cho'lpon Toshkentga kelib, «Sadoyi Turkiston» gazetasida xizmat qilgan kezlari unga Munavvar qori Abdurashidov «Cho'lpon» taxallusini bergan bo'lsa ham uning dunyoqarashi va ijodiy kamoloti, yangi poetik uslub yaratishida Fitratning tasiri kuchli bo'lgan. «Cho'lpon 1937 yil 10 avgust kuni bo'lib o'tgan so'roq paytida, -deb yozadi Naim Karimov, -Fitratni 1913-1914 yillardan boshlab taniganini aytadi. Yana uning aytishicha, Fitrat bu davrda Behbudiy tomonidan Samarqandda nashr etilgan «Oyna» jurnalida hamkorlik qilgan... Cho'lpon bergan malumotlarga qaraganda, Fitrat 1917 yili Samarqandda nashr etilgan gazetaning muharriri bo'lgan. Cho'lpon esa bu gazetada o'zining millatparvarlik ruhidagi she'rlarini Fitrat yordamida e'lon qilgan» [1].

Cho'lponning Fitrat bilan hamkorligi dastlab ijodiy muloqot, so'ngra ustoz-shogird munosabatlari ko'rinishida davom etgan aloqalari asta-sekin samimiy do'stlik va hamfikrijodiy hamkorga aylandi. Shuning uchun 1919 yili Fitrat tashkil etgan «Chig'atoy gurungi» jamiyatining faol azolaridan biri Cho'lpon bo'lishi tasodifiy emas edi. Fitrat o'zining publitsistik, dramatik va nazm sohasidagi asarlarida millatparvarlik, milliy uyg'onish va birlashish g'oyalarini faol targ'ib qilgan paytda Cho'lpondek shaxsning bu g'oyalardan chetda turishi mumkin emas edi.

Cho'lponning «Yorug' yulduzga», «Alamning o'limi», «Uch to'rtta yulduz», «Istash» singari she'rlarida yulduzga murojaat qilish va yulduz orqali insoniy dard va ijtimoiy muammolar haqida qayg'urish belgilarini ko'ramiz. Cho'lpon ham Fitrat kabi yulduzni najot timsoli deb biladi. Yulduz nurini xo'rliklar, tubanliklardan qutilish nuri sifatida talqin etadi:

Yashirin yotgan pardalarni, zulmatni,  
Qarab turma, nuring bilan yirt-yubor...

Cho'lpon dunyoqarashi shakllanishida u yashagan davrning tarixiy, ijtimoiy hamda adabiy hodisalari katta rol o'ynaydi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatidan norozilik va unga qarshi bo'lgan mahalliy millat vakillarining ma'rifatparvarlik g'oyalarining ijtimoiy ahamiyat kasb etishi kuchaydi. Yangi maktab ochish va musulmon bolalari orasida ilm-fan nurini tarqatish, o'z Vatani erkin, mustaqil ko'rish orzulari marifatparvar ziyolilarning dunyoqarashini ifodalardi.

Shoirning obrazli iboralari ramziy o'xshatishlarga, ma'nolarga boy bo'lib, tabiat go'zalliklari, ko'rinishlari va dahshatlarining barchasidan o'z qalbiga hamohang kayfiyat, holat izlaydi. Tasbeh donalariday chizilib ketgan qator-qator tog'lar unga goh uzoqdagi sevgi kabi chiroyli, goh tog'larning cho'qqilariga o'tirib olgan alvasti kabi vahimali tuyuladi. Shoirning romantik kayfiyati turfa xil bo'yoqlarda jilvalanadi. U xuddi rassom kabi manzara chizadi va



o'quvchi ko'z oldida jonli lavha hosil etadi: «Tog'larning ko'kimtir qora badanlariga chiqib qolg'on maysalar dengizga tushgan oy yog'dulariday ko'rinar edi»[2,84].

Tog'lar shoirga goh uni aldagan xayol kabi noaniq, mavhum «haqiqatlar» bo'lib yo'lini to'sadi, goh qo'rqitadi, yuragini to'lqinlantiradi, titratadi. Ana shu tariqa tabiat go'zalligi Cho'lpon poeziyasida qizil ip bo'lib eshiladi:

Daryo oshiq, tog'lar oshiq, Quyosh ishq,  
Qorlar oshiq, suvlar oshiq, Dengiz ishq,  
Ma'shuqalar kula-kula qocharlar,  
Oshiqlar yig'lay-yig'lay choparlar[2,84].

Cho'lpon abadiy va o'tkinchi tabiat hodisalarini kuzatar ekan, insoniy qadriyatlar, estetik kechinmalar va ruhiy holatlardagi abadiylik va o'tkinchilikka e'tiborni tortadi. Xayolchan, biroz parishonxotir, ayni choqda, go'zallikning doimiy chashmalaridan yurak hovurini tushirayotgan shoir yozadi.

Quyosh botar edi ...

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-estetik tafakkur yo'nalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. Bu harakatning O'rta Osiyoda keng tarqalishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari ziyolilarning xizmati katta. Qolaversa, Rossiya bilan Turkiston musulmonlari taqdiri va istiqboliga doir Behbudiyning o'tli mulohazalari barcha ilg'or fikrli kishilarni millat va Vatan taqdiri bilan bog'lab turardi. Cho'lpon ana shunday muhitda shakllandi.

20-yillarda yozilgan maqolalar Cho'lpon dunyoqarashining shakllanish jarayonlarini tasavvur qilish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Cho'lpon dunyoqarashini asrimiz avvallarida turkiy va tojik xalqlari taraqqiyparvar ziyolilari orasida vujudga kelgan, keng tarqalgan jadidchilik harakatidan xoli o'rganib bo'lmaydi. Garchi u 20-yillarda sotsialistik g'oyalar bilan qurollangan bo'lsa ham uning estetik qarashlari negizi jadidchilikka borib taqaladi.

Jadidchilik keng siyosiy, manaviy yo'nalish sifatida o'z dasturida adolatsizlik, nohaqlik, huquqbuzarlik, madaniy qoloqlik davrida o'z xalqlariga yangi turmush tarzi, yangicha fikrlash, zamonaviy ta'lim va madaniyatning ilg'or jihatlarini ang'ay bilgan shaxslarni birlashtirgan edi. Ular feodalizm botqog'idan, adovat va jaholatdan qutilish yo'llarini o'zlaricha o'ylagan, o'zlaricha kurashgan ma'rifatparvarlar edilar. 1906 yildan nashr etila boshlagan «Taraqqiy», «Xurshid», «SHuhrat» gazetalari xalq hayotini o'zgartirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar zarur ekanligini o'rtaga tashladilar. Yangi tipdagi maktablar ochishga tashabbuskor bo'lishdan tashqari Turkiya, Rossiya, Arabiston, Germaniya kabi horijiy mamlakatlarga yoshlarni yuborib o'qitish tashabbusi bilan chiqqanlar ham jadidlar bo'ldi.

Jadid-ma'rifatchilari o'z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo'lida tushov bo'lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o'quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish va ko'tarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy etibor qaratib, yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg'urish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o'zgartirish maqsadida turli ijtimoiy va milliy islohotlar yo'lini qidirish singari muammolarni o'rtaga tashladilar.



Cho'lponning dunyoqarashi insonparvarlik, millatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Cho'lponning ko'plab ocherk va publitsistik maqolalari xalq hayoti va taqdiriga bag'ishlangan edi.

Shuni alohida takidlash joizki, Cho'lponning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va erksevarlik g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarashi uning nazariy-estetik qarashlarida, yangi professional o'zbek teatrini shakllantirish borasidagi faoliyatida, sermazmun va badiiy yuksak asarlarida o'z ifodasini topdi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Каримов Наим. Истиқдолни уйғотган шоир. Тошкент, Маънавият, 2000 - 10-б.
2. Чўлпон. Яна олдим созимни. –Тошкент: Ф.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. -84 б.
3. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
4. Vladimirova N. CHO'lpon hikoyanavis. Cho'lponning badiiy olami. Toshkent: nashriyot, 1994.
5. Mamajonov S. Bizning Cho'lpon. -Toshkent: Yozuvchi, 1997.
6. Mamajonov S. Cho'lponning nasriy va dermaturgik ijodi. Cho'lponning badiiy olami. –Toshkent: nashriyot, 1994.
7. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –Toshkent: «DAVR PRESS», 2006.
8. Otamuratov S. Globallashuv va millat. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
9. Rizayev SH. Jadid dramasi. -Toshkent: SHarq, 1997.
10. Rahmat Majidiy. Iste'dod va burch. –Toshkent: Mehnat nashriyoti, 1974.



## GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXS QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASINING ASOSIY JIHLTLARI

Majitov Maxmud Abdimo'min o'g'li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha birinchi prorektori,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

[mazhitov1981@inbox.ru](mailto:mazhitov1981@inbox.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv jarayonlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarining shaxs ijtimoiy mohiyatiga ta'siri masalalari yoritilgan. Xususan, globallashuv sharoitida shaxsga xos qadriyatlar bilan bog'liq transformatsion jarayonlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, transformatsiya, shaxs, inson shaxsi, jamiyat, deformatsiya, qadriyat, milliy qadriyat, demokratiya normalari, ijtimoiy mohiyat.

## ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ЛИЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Мажитов сын Махмуда Абдимомина

первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе  
Термизского инженерно-технологического института,  
доктор философии (PhD) в области философии.

[mazhitov1981@inbox.ru](mailto:mazhitov1981@inbox.ru)

**Аннотация:** В статье описывается влияние процессов глобализации, ее особенностей и тенденций на социальную сущность личности. В частности, были проанализированы трансформационные процессы, связанные с личными ценностями в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** глобализация, трансформация, человек, человеческая личность, общество, деформация, ценность, национальная ценность, нормы демократии, социальная сущность.

## MAIN ASPECTS OF TRANSFORMATION OF PERSONAL VALUES UNDER GLOBALIZATION

Majitov is the son of Mahmud Abdimo'min

The first vice-rector for youth issues and spiritual and educational affairs of the Termiz  
Institute of Engineering and Technology,  
doctor of philosophy (PhD) in philosophy.

[mazhitov1981@inbox.ru](mailto:mazhitov1981@inbox.ru)

**Abstract:** The article describes the impact of globalization processes, its characteristics and trends on the social essence of the individual. In particular, transformational processes related to personal values in the context of globalization were analyzed.

**Key words:** globalization, transformation, person, human personality, society, deformation, value, national value, norms of democracy, social essence.

## **Kirish**

Ma'lumki, kishilik jamiyati shaxsning shakllanishi jarayoniga muttasil ta'sir ko'rsatib kelgan. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar, fenomenlar shaxs hayotiy maqsadlari xarakterini, dunyoqarashini, o'ziga yuklangan ijtimoiy rollarga munosabatini, o'z faoliyatida amal qiladigan tamoyillarini belgilovchi asosiy omil bo'lgan. Jamiyatdagi jarayonlar murakkablashgani, ko'lami kengaygani sayin ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'siri ham jiddiylasha bordi. Jumladan, o'tgan asrning so'nggi choragida shakllana boshlagan globallashuvga xos xususiyatlar, jarayonlar va tendensiyalar shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Globallashuv davrining shaxs ijtimoiy mohiyatiga ta'siri mazmuni shu qadar murakkab, ko'lami esa shu qadar kengki, inson shaxsi ijtimoiy taraqqiyotning biror o'zga davrlarida bu kabi transformatsion jarayonlarni boshidan kechirmagan.

## **Adabiyotlar tahlili**

Avvalo "transformatsiya" tushunchasining mazmuniga to'xtalsak. Ushbu tushuncha lotin tilidagi "transformatio" so'zidan olingan bo'lib, ibtidoda "o'zgarish", "burilish" ma'nolarini anglatgan.[1] Bugungi kunda ushbu tushuncha ayniqsa fizika, genetika, lingvistika, san'at va boshqa sohalarida keng qo'llaniladi. Xususan, fizikada u o'zgaruvchan elektr toki kuchlanishining pasayishi yoki oshishini ifodalaydi. Genetikada DNK molekulasi organizm hujayrasi tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni transformatsiya deb ataladi. Lingvistikada transformatsiya deganda so'zlar tartibini o'zgartirish orqali bir gap konstruksiyasidan boshqasini keltirib chiqarish nazarda tutiladi. San'atda aktyor tomonidan o'z qiyofasini tez o'zgartirishiga asoslangan estrada nomeri transformatsiya deb yuritiladi.[1]

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Falsafa va psixologiyada "transformatsiya" tushunchasining mazmuni nisbatan boyroq. Bunda mazkur tushunchadagi "forma" so'zi yunon falsafasidagi "eydos", "logos" (g'oya, mohiyat) tushunchalarining lotincha sinonimi ekanligiga e'tibor beriladi.[2] Bunday yondashuvga asoslanadigan bo'lsak, transformatsiya bir mohiyat o'rnini boshqasining egallashi bilan bog'liq jarayonni anglatadi. Binobarin, shaxs transformatsiyasi – uning ijtimoiy mohiyatini tarkib toptiruvchi elementlarning o'zgarishi jarayonidir.

Shaxs ijtimoiy mohiyatidagi transformatsion jarayonlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida uzluksiz davom etgan, albatta. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning ko'payishi mazkur jarayonlarga sifatlan yangicha xarakter baxsh qildi.

## **Tahlillar va natijalar**

Gap shundaki, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy jarayonlar inson shaxsida qator ijobiy o'zgarishlarning bo'y ko'rsatishiga va shakllanishiga ham zamin hozirladi. Masalan, bu davrga kelib fan va texnika taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha tus berishga qodir qudratli kuchga aylandi. Uning mahsullari kishilar turmushining turli jabhalariga jadal kirib kela boshladi. Buning natijasida shaxsning nafaqat fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari va tasavvurlari, balki ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o'zlashtirish qobiliyati ham rivojlandi. Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog'liq ilmiy muvaffaqiyatlar va kashfiyotlar esa shaxsning turli milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, o'zga xalqlarning turmush tarzi va faoliyat normalari haqidagi tasavvurlarining kengayishiga zamin yaratdi.

O'tgan asrning so'nggi choragida avj pallasiga kirgan globallashuv jarayonlari demokratiya normalarining butun dunyo bo'ylab tarqalishiga sabab bo'ldi. Ushbu tendensiya ham inson shaxsi uchun beiz ketmadi. Xususan, bugungi kundagi demokratiya normalari ustuvorligi jahonning turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan kishilarning ijtimoiy hayotga munosabatiga, ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Demokratiya normalari ustuvorligi turli jamiyatlarda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirishga bo'lgan intilishlarni kuchaytirmoqda. "Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalaridagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir".[3:35] Jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga bo'lgan intilishning umumsayyoraviy tus olishining o'ziyoq shaxs e'tiqodi, bilimlari, malakalari, hayotga munosabatiga, ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini o'tamoqda.

Xullas, zamonaviy ijtimoiy tendensiyalarning shaxs ijtimoiy mohiyatiga ijobiy ta'siri ham mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Biroq muammoning mohiyati bunda emas. Mohiyat shundaki, XX asrning so'nggi choragi va XXI asrning boshlariga kelib globallashuv tendensiyalari ta'sirida shaxs ijtimoiy mohiyatida tashvishli transformatsion jarayonlar sodir bo'la boshladi.

Zamonaviy tendensiyalar shaxs qadriyatlarini va ehtiyojlari tizimini tubdan o'zgartirdi. Mazkur ijtimoiy tendensiya shaxs ijtimoiy mohiyatida ham o'z ifodasini topdi: u an'anaviy jamiyat qadriyatlaridan yuz o'girdi va mutlaqo o'zgacha xarakterdagi ne'matlarni qadri deb biladigan bo'ldi. Uning qadriyatlarini tizimida moddiylik primati ko'zga tashlana boshladi. Shaxs qadriyatlarini olamidagi bunday evrilishlar tabiiy ravishda uning ehtiyojlari xarakteri va tarkibini ham o'zgartirdi.

An'anaviy jamiyatda shaxs moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'rtasida muayyan proporsionallik mavjud bo'lgan bo'lsa, globallashuv davrida bu mutanosiblik buzildi. Shaxs moddiy ehtiyojlari misli ko'rilmagan darajada oshib borayotgani bois jamiyatda ularni qondirishga xizmat qiladigan ob'ektlar soni ham ko'paymoqda. Masalan, Davlat statistika qo'mitasi taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda har 10 ming aholiga 22 ta chakana savdo ob'ekti xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 2018 yilga kelib, bu ko'rsatkich 37 taga yetgan.[4] Ayni paytda ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan intilishlarning zaiflashayotganini kuzatish mumkin. 2000 yilda har 1000 kishidan 109 tasi teatrlarga tashrif buyurgan bo'lsa, 2018 yilda kelib bu ko'rsatkich 72 taga tushib ketdi. O'zbekistonda 2000 yillarda 6027 ta kutubxona mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ularning soni 402 taga qisqarib ketgan. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarida 2000 yilda bitta foydalanuvchiga 20 ta, 2018 yilda esa 11 ta kitob yoki jurnal berilgan.[5]

Buning ustiga, shaxsda o'z moddiy ehtiyojlarini nooqilona qondirish kayfiyati yuzaga keldi. Jumladan, shaxs o'z moliyaviy imkoniyatlari bilan hohish-istaklari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganida ham moddiy ehtiyojlarini qondirish ilinjidan voz kechmaydigan bo'ldi. Fuqarolarga beriladigan iste'mol kreditlari sonining oshib borayotgani, iste'mol kreditlari va qarzlarni taqdim qiluvchi turli tashkilotlarning paydo bo'layotgani ham shundan dalolat beradi.

Natijada globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy rollari deformatsiyasi sodir bo'lmoqda. Biz ta'kidlab o'tganimizdek, inson o'z hayoti davomida ijtimoiy shart-sharoitlar taqazosiga ko'ra

turli rollarni ado etishga majbur bo'ladi, ularning ayrimlari butun umr mobaynida, boshqalari esa muayyan vaziyatda ado etiladi. Lekin ularning hammasi ham shaxsning shakllanishi jarayonida jiddiy ahamiyat kasb etavermaydi. Shaxsning butun umri mobaynida ado etadigan kasbiy, oilaviy va ijtimoiy-siyosiy rollarigina eng asosiy ijtimoiy rollar sifatida qayd etilishi mumkin. Biz yuqorida ta'kidlagan tendensiyalar aynan ana shu rollarning deformatsiyasi uchun zamin yaratdi.

Хусусан, jamiyatdagi oila to'g'risidagi ideallar va tasavvurlarning o'zgarishi ham shaxs oilaviy rollari xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, bu ideallar asrlar davomida shakllanib kelgan. Qadimgi Misrda bir necha ming yillar avvaloq oila muqaddas maskan sifatida qadrlangan va ulug'langan – buni papiruslarda saqlanib qolgan "Aka-uka" nomli hikoyadan bilish mumkin.[6:19] Lekin postmodern jamiyatda shaxsning oila haqidagi tasavvurlari mutlaqo yangicha tus oldi. Mazkur o'zgarishlarning oqibati o'laroq jamiyatda an'anaviy oila shaklidan farqli o'laroq fuqarolik kelishuviga asoslangan oilalar, bir jinsli oilalar vujudga kela boshladi. Bu jarayonlar, tabiiyki, shaxsning oiladagi rollari ijrosiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi: u bu rollarni ijrosi muhim va majburiy bo'lgan faoliyat sifatida qabul qilmay qo'ydi.

Shu bilan birgalikda shaxsning muayyan guruh vakili sifatida bajaradigan roli ham deformatsiyaga uchradi. Keyingi yarim asr davomida ildiz otgan xulq-atvor va axloq plyuralizmi, madaniyatning demokratiyalashuvi shaxsni turli xulq-atvor modellari, artefaktlar, qadriyatlarga moslashuvchan qilib qo'ydi. Zamonaviy shaxs o'zining jamiyatdagi har qanday rolini konformistik pozitsiyadan ado etmoqda. U o'z rolini o'zgardek bajarishga, o'zgar faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlashtirishga, jamiyatda taqdim qilingan faoliyat normalariga rioya qilishga intilmoqda. Bunday ijro shaxsni ortiqcha muammolardan xalos qilayotgan bo'lishi mumkin, lekin uni o'zligidan mosuvo qilmoqda, individualligiga putur yetkazmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, global jamiyat konformistik kayfiyatga berilmagan, umume'tirof etilgan faoliyat normalarini qabul qilmagan yoxud ulardan chekingan a'zosini tanqid ob'ektiga aylantiradi, uning hatti-harakatlarini keskin qoralaydi. Bunday yondashuv boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston hayotida ham tez-tez uchrab turadi.

Natijada globallashuv sharoitida insonning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga putur yetdi. Biz hayotda amal qiladigan prinsiplariga ega bo'lgan, o'z xulqi va faoliyatini ularga bo'ysundirgan kishinigina mustaqil shaxs sifatida e'tirof etish mumkinligini ta'kidlab o'tdik. Bunday prinsiplar shakllanishi uchun shaxs mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashi darkor. Jamiyatda bunga turtki beruvchi omillar ko'paygani sayin shaxs mustaqilligining qaror topishi imkoniyatlari ham kengayadi. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar insonning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga hojat qoldirmasa, mustaqil shaxsning shakllanishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Birgina oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini olaylik. O'zbekiston Axborot Agentligi taqdim qilgan ma'lumotlarga qaraganda, 2019-2020 o'quv yilida mamlakat oliy ta'lim muassasalariga jami 1 million 66 ming 925 nafar abituriyent hujjat topshirgan.[7] Tabiiyki, bunday katta kontingent uchun kirish imtihonlarini individual yoxud jamoaviy yondashuv asosida tashkil qilib bo'lmaydi. Vaziyatning o'zi jarayonni muayyan standartlar asosida o'tkazishni, unda ishtirok etayotgan xodimlar faoliyatini aniq ko'rsatmalar asosida yo'lga qo'yishni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda test tizimidan foydalanilayotgani bizga ma'lum. Biroq bu tizim o'qituvchiga xam, abituriyentga ham mustaqil, ijodiy fikrlash va ishlash uchun zaruriyat qoldirmayapti.

Shaxsning mustaqil yashash ko'nikmasiga ham ziyon yetmoqda. U turmush tarzini o'z orzu-umidlari, ehtiyoj va manfaatlariga qarab emas, umume'tirof etilgan hamda singdirilgan norma va tamoyillar asosida belgilashga, ularga moslashishga odatlanmoqda. "O'tgan asrning 60-yillaridagi avlod rokerlar, xippilar, panklar yoki bitniklar tarzida mavjud madaniyat tipiga norozilik bildirishni odat qilgan bo'lsa, 2000-yillarda shakllangan avlod jamiyatdan ajralmaslikka, turli madaniyat tiplariga befarq munosabatda bo'lishga odatlandi. J.-F.Liotar ta'biri bilan aytganda, bugun radiodan repni tinglaydilar, kinoteatrlarda vestern tomosha qiladilar, qorin to'yg'izgani Makdonaldsga boradilar, mahalliy pazandachilikka asoslangan restoranda tushlik qiladilar, Tokioda tayyorlangan parijcha duxini ishlatadilar va Gongkongda retro uslubida tikilgan kiyimlarni kiyadilar".[8:78] Bunday vaziyatda turmush tarzini mustaqil belgilash imkoniyatlari keskin cheklanmoqda, insonning mustaqil shaxs sifatida kamol topishi jarayoni cho'zilib ketmoqda. Shaxsning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga xalal beradigan bunday omillarning ko'payayotgani uning hayotda amal qiladigan prinsiplarining shakllanishiga to'sqin bo'lmoqda.

Bugungi kunda yuzaga kelgan tendensiyalardan biri odamlarning bir-biridan begonlashuvi, o'zining sun'iy virtual tor dunyosiga kirib olib, individuallik va jamoaviylik kabi ikki asosiy insoniylik belgisini yo'qota boshlaganidir. Yana bir tendensiya bu odamlarning mashinaning, kompyuter va televizorning bir bo'lagiga va asiriga aylanib qolayotganidir.[9]

Globalashuv sharoitidagi bu o'zgarishlar bir tomondan, shaxs fazilatlarini tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, ikkinchi tomondan esa, qator ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Buni "Ijtimoiy fikr" Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2018 yilda o'tkazilgan sotsiologik so'rovda qatnashgan respondentlarning 78,4 foizi qayd qilib o'tdi.[10] Xususan, ishtirokchilarning uchdan biri qayd qilishicha, shaxsning moddiy farovonlik bilan bog'liq hayotiy maqsadlariga xizmat qiluvchi, pragmatik xarakterdagi fazilatlarini jadal rivojlanib bormoqda, axloqiy fazilatlar rivoji esa bu sur'atdan ortda qolmoqda.[10]

Ayni paytda ayrim ijtimoiy illatlarning keng ildiz otayotgani ham kuzatilmoqda. Quyidagi ma'lumotga e'tibor beraylik. Tadqiqotchilar M.G'anieva va X.Axmedovlarning 2018 yilda o'tkazgan sotsiologik so'rovlarida ishtirok etgan respondentlarning 59,1 foizi poraxo'rlik, 42,5 foizi sotqinlik, 41,9 foizi ikkiyuzlamachilik, 40,9 foizi kibr, 21,9 foizi befarqlik, 16,6 foizi boqimandalik kabi illatlarni qoraladilar.[11:84] Modomiki, ishtirokchilar ushbu illatlarni kundalik turmushda uchratmagan, ularning salbiy oqibatlarini kuzatmagan bo'lsalar, bunday munosabat bildirmagan bo'lardilar.

### **Xulosalar**

Xulosa qiladigan bo'lsak, postmodern jamiyat shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayon o'zining pozitiv va negativ jihatlariga ega. Jumladan, zamonaviy tendensiyalar shaxsning ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirdi, uning e'tiqodi, hayotga munosabati, ijtimoiy faoliyatiga demokratik tus berdi. Ayni paytda postmodern jamiyat sharoitida shaxs hayotiy maqsadlari transformatsiyasi, tafakkurining fragmentarlashuvi, qadriyatlarini va ehtiyojlari tizimining deformatsiyasi, bajaradigan ijtimoiy rollari xarakteri va hayotiy prinsiplarining o'zgarishi sodir bo'ldi. Bu transformatsion jarayonlar oxir-oqibatda shaxs fazilatlarini tarkibi yangicha tus olishiga, ayrim ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo'ldi.

Globalashuv sharoitida ilmiy-texnika taraqqiyoti, axborot-aloqa texnologiyalari, axborot xuruji va tahdidi insonni juda og'ir ahvolga olib kelishi mumkinligi ayonlashmoqda. Chunki bu



davrda shaxs chinakam g'oyaviy kurashni boshdan kechirmoqda. Mana shunday vaziyatda birinchidan, ma'naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablari, globallashtirish, axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyat axborot xuruji, tahdidlarini hisobga olib qayta ko'rib chiqish, takomillashtirish zarur. Ikkinchidan, haqiqiy gumanizm va vulgar antroposenrizm o'rtasidagi farqni, inson erkinligi va mas'uliyati birligini, mumtoz qadriyatlar ahamiyatini yangicha, hozirgi zamon voqeligi bilan bog'lab talqin qilish kerak. Uchinchidan, odamlarni jamiyatda birlashtirishga qaratilgan, shaxslarning ongini zamonaviy ehtiyoj va talablarga muvofiq ifoda etish va shakllantirishga imkon beradigan milliy va diniy qadriyatlarni chuqur tadqiq etish davr talabidir.

#### **Foydalanilga adabiyotlar:**

- 1.Transformatsiya // Новый словарь иностранных слов.- М.: Azbukovnik, 2003.
- 2.Угьваев В., Бойчук В. Transformatsiya lichnosti kak mnogoaspektnaya problema // medpsy.ru.
- 3.Mirziyoev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O'zbekiston, 2018.- B.35.
- 4.Ichki savdo. Chakana savdoning asosiy ko'rsatkichlari // stat.uz.
- 5.Ijtimoiy soha, bolalar va onalar himoyasi statistikasi // stat.uz.
- 6.Teshaboev M. Yoshlarda axloqiy madaniyatni takomillashtirish // Jamiyat va boshqaruv, 2010, №3.- 19-b.
- 7.OTMga qabul tugadi // uza.uz, 2019, 16 iyul.
- 8.Bekmurodova G. Befarqlik va nopisandlik – ijtimoiy konformizm oqibati // QarDU xabarlari, 2018, №1, 78-b
- 9.A.V.Kostina.Massovaya kultura kak fenomen postindustrialnogo obshestva.M., 2011.
- 10.Duxovnost – vajnaya sennost // uza.uz, 2018, 13 mart.
- 11.Ganieva M., Axmedov X. Sotsialnoe samochuvstvie molodeji kak vajnyy indikator kachestva jizni // Davlat va boshqaruv, 2018, №2.- 84-c.



**NISSHE VA ABU ALI IBN SINO FALSAFIY QARASHLARIDA INSON KAMOLOTI  
XAQIDAGI O'HSHASH FIKRLARNING KOMPARATIVISTIK TAXLILI.**

Kabulniyazova G. -UzMU ijtimoiy fanlar fakulteti falsafa va mantiq kafedrasida prof. v.b. f.f.d.

*Annotatsiya:* Maqolada nemis faylasufi F. Nisshe va buyuk sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida inson ruhiy borlig'ining bosqichlari, komil inson tushunchasi yoritib berilgan. Ruhiy ustoz tushunchasi tadqiq qilingan, ikkala mutafakkirning qarashlari qiyosiy taqqoslangan.

*Kalit so'zlar;* Ma'ad, ruhiy rivojlanish darajalari, inkarnatsiya, ruh, tana, materiya va shakl, abadiy qaytish, ruhiy ustozlar.

**A COMPARATIVIST ANALYSIS OF THE SIMILAR IDEAS ABOUT HUMAN  
PERFECTION IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF NISSCHE AND ABU ALI IBN SINA.**

Kabulniyazova G. -Professor, Department of Philosophy and Logic, Faculty of Social Sciences,  
UzMU. etc. f.f.d.

*Abstract:* The article describes the stages of human spiritual existence and the concept of a perfect person in the views of the German philosopher F. Nissche and the great Eastern thinker Abu Ali Ibn Sina. The concept of spiritual mentor is explored, the views of both thinkers are compared.

*Keywords;* Ma'ad, levels of spiritual development, incarnation, soul, body, matter and form, eternal return, spiritual masters.

**КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ СХОДНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О  
ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОВЕРШЕНСТВЕ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ НИШЕ И АБУ  
АЛИ ИБН СИНЫ.**

Кабулниязова Г. – профессор кафедры философии и логики факультета социальных наук  
УзМУ. и т. д. ф.ф.д.

*Абстракт:* В статье рассмотрены этапы духовного существования человека и понятие совершенного человека в воззрениях немецкого философа Ф. Нише и великого восточного мыслителя Абу Али ибн Сины. Исследуется понятие духовного наставника, сравниваются взгляды обоих мыслителей.

*Ключевые слова;* Маад, уровни духовного развития, воплощение, душа, тело, материя и форма, вечное возвращение, духовные мастера.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkiri va faylasufi Abu Ali ibn Sino ijodidagi ko'pgina g'oyalar Fridrix Nisshe ijodidagi g'oyalar bilan hamohangdir. Masalan, insonlarning ruhiy jihatdan teng emasliklari masalasida ularning fikrlari deyarli bir joydan chiqadi. F.Nisshe inson ruhiy rivojini turli darajalarga bo'ladi, oriylar ruhini ajratib ko'rsatadi. Ibn Sino o'zining «Nurlanish» nomli asarida insonning ruhiy rivojini to'rt pog'onaga ajratadi. Eng birinchi yuqori pog'onadan komillikka erishgan ruhlar o'rin olgan. Eng quyi to'rtinchi pog'onada gunohga botgan, yomonliklar qilgan ruhlar joylashgan. F.Nisshe singari Abu Ali ibn Sino ham tafakkurning asosiy vazifasi tananing moddiy hayoti haqida qayg'urishdan iborat deb hisoblagan. Ibn Sino ta'limotida tana va ruh hayoti haqida ko'pgina Nisshe bilan o'xshash fikrlarni uchratamiz.

«Nurlanish» nomli traktatida Abu Ali ibn Sino ruhlarning ko'chib yurishi masalasini tahlil qiladi va uni insoniyat ruhiy rivoji ta'limoti bilan bog'laydi. Inkornatsiya (jonning qaytishi) va reinkornatsiya (jonning qayta tanaga kirishi) muammosini ko'rib chiqib, Abu Ali ibn Sino inkornatsiya konsepsiyasini tasdiqlovchi, isbotlovchi ko'pgina mantiqiy mulohazalarni keltiradi. Bunda u «ma'ad» tushunchasini kiritadi. Bu dunyoning narigi tomoni bo'lib, tana o'limidan so'ng ruh o'sha olamga o'tadi. «Ma'ad» so'zi arabcha «avd» (qaytish) ma'nosidan kelib chiqadi. «Ma'ad» – bu joy yoki holatdir, unda nimadir joylashgan, so'ng u joydan yoki holatdan ajralib, yana tanaga qaytadi. «Ma'ad» – bu insonlar o'limidan so'ng qaytadigan joydir, u realdir, lekin zaminiy hayotdan alohida joylashgan»[1].

«Ma'ad»da ruhlar keyingi tanaga kirgunlaricha yashaydilar. «Ma'ad» dunyosida ruh ta'lim oladi, hamma xatolari va adashishlari uning oldida namoyon bo'ladi va uni iztirobga soladi. Ana shu iztiroblar natijasida ruh poklanadi, keyingi tanaga kirishga tayyorlanadi.

Ibn Sino ruhning inson tanasiga, hayvonotga yoki o'simliklarga qaytib kirishi haqida gapirgan bir necha mualliflarning nuqtai nazarlarini keltiradi. Shuningdek, inkornatsiya va reinkornatsiya muammosini mantiqan o'ylab, Abu Ali ibn Sino inkornatsiya nazariyasini inkor etuvchi mualliflarning qarashlarini ham keltiradi. Ibn Sinoning ta'kidicha, mantiqiy yo'l bilan ruhni tanaga qaytib kirishini isbotlash ham mumkin, inkor qilish ham mumkin. Ibn Sino tomonidan keltirilgan ruhning qaytishi ta'limotini himoyalovchi dalillar uning aksiga nisbatan kuchli va salmoqlidir. «Sobit ibn Kurraning fikriga hayron bo'ladi. U bu bahsni hal qilib, ruhni tanaga qaytishi mumkin emas, deydi»[2].

Ibn Sinoning fikricha, ruhning qaytib kelishi nazariyasini isbotlovchi eng salmoqli dalil – bu ruhning evolyusiyasidir, insonni komillikka intilishidir. Garchi inson ruhi faqat tana bilan bog'liq bo'lganda edi, yerga faqat bir marotaba kelganda edi, yerda o'zini komillikka erishish imkoniyatidan mahrum bo'lardi. Ibn Sinoning uqtirishicha, ruh faqat moddiy tana bilan birgalikda, jumladan, tanadagi hayot orqali yerda mukammallikka erishadi. Ruh rivoji uchun bir tanadagi hayot yetarli emas. Mukammallashish jarayoni abadiydir, makon va zamondan tashqaridadir. Shuning uchun ham tana o'limidan so'ng ruh ma'adga qaytadi va ruhiy ta'lim oladi. Ma'addan so'ng ruh yerga qaytib, yangi tanaga kiradi. Inson ruhi abadiydir, u makon va zamonda yerda ham, samoda ham sayohat qiladi. Ibn Sinoning ushbu g'oyalari F.Nisshening «abadiy qaytish» ta'limotini esga soladi. «Zardo'sht tavallosi» asarida F. Nisshening yozishicha, ruh og'ir hayot yo'lini bosib o'tsa ham, yana qayta – qayta shu yo'ldan yurishini ta'kidlaydi.

“Ruh qo'rquvsiz, his – hayajonsizdir, u abadiy qaytishdan hayiqmaydi, qanchalik qiyinchiliklar, to'siqlar uchramasin, hammasini yengadi”[3].

Biz ta'kidlaganimizdek, ruhiy evolyusiyadan o'tayotgan ruhning tanaga qaytishi hamma inson uchun birdek kechmaydi. Eng birinchi pog'onada komillikka yaqin jon joylashgan. Bu jonlar hayotiy qiyinchiliklardan, iztiroblardan, yo'qotishlardan o'tib ana shu hayotning o'zida poklanadilar, ma'adga qaytadilar va ichlaridan nurlanadilar. Ular nurlangan jonga aylanadilar va komillikka erishadilar. Nurlangan jonga ega bo'lgan insonlar ana shu yer hayotida komillikka erishadilar.

Ruhiy rivojlanishning ikkinchi pog'onasida haqiqatni biluvchi insonlar joni joylashgan. Ular ezgulikni yovuzlikdan ajrata oladilar, lekin ularning moddiy ehtiyojlari, nafs va hirslari shunchalik kuchliki, ularni nazorat qila olmaydilar. Ruhiy rivojlanishning ushbu pog'onasida turgan insonlarning irodasi kuchli emas, ular o'z istak – xohishlarini nazorat qila olmaydilar. Inson o'limidan keyin bu jonlar ma'ad dunyosida poklanadilar. Xudoning marhamati orqali

yuqoriroq darajaga o'tadilar. Ikkinchi pog'onada turuvchi insonlarning jonlari yerda komillikka erisha olmaydi, lekin ma'ad dunyosida yuqori darajaga ko'tariladi.

Ruhiy evolyusiyaning uchinchi pog'onasida turuvchi jonlar, o'zlarining zaminiy hayotida hech kimga yomonlik qilmaydilar. Lekin komillikka erishishga intilmaydilar ham. Ular hayot girdobida aylanayotgan xas – cho'p holatini eslatadi. Lekin ular taqdir gardishidan chiqib ketish uchun jon – dillaridan harakat qiladi. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsiz tugab, zoe ketadi. Ular g'amgin va ayanchli holatda qoladi. Ular kundalik muammolari to'rlariga tobora o'ralashib, xudbin manfaatlari chegarasidan chiqolmay qoladi. Ana shu pog'onada turuvchi insonlar jonini F.Nisshe «Zardo'sht tavallosi» asarida qoyilmaqom timsol orqali ifodalaydi. Ular misoli shilliq qurt kabi o'zlarining tor dunyolari devoriga bekinib oladi. O'zgarish shamoli ularni vahimaga soladi. Ular hech qanday o'zgarishni xohlamaydi. Zotan, bu hayotiy to'fon ularning eski dunyosini buzish uchun xavf soladi va qotib qolgan qadriyatlarni ham ag'darib tashlaydi. Ibn Sinoning fikricha, ushbu qalblar ma'ad dunyosida do'zax olovida kuymaydi. Lekin jannat eshiklari ham ular uchun yopiq. Ularning joyi arosatdadir.

Ruhiy rivojning to'rtinchi eng quyi pog'onasida gunohkor jonlar joylashgan. Bunday jonga ega bo'lgan insonlar o'z xohish – ehtiroslariga butunlay tobe bo'lgandir. Ular o'z maqsadiga erishish uchun jinoyatdan ham, o'ldirishdan ham toymaydi. O'limdan so'ng bunday insonlar qalbi ma'ad olamiga tushib, yerda amalga oshirgan yomonliklari, vahshiyliklari, yolg'onlari, ayyorliklari uchun javob beradi. Shunday qilib, Abu Ali ibn Sinoning fikricha, ma'ad dunyosiga nafaqat jonlar, balki ularning yerdagi qilmishlari ham qaytadi. Bu qilmishlar yaxshimi yoki yomonmi – uning farqi yo'q. Ruhlarining ko'chib yurishi ta'limotiga nisbatan Abu Ali ibn Sino juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. U moddiy tana bilan ruhning bog'liqligiga ko'pgina dalillar keltiradi. Ibn Sinoga ko'ra, jon ruhiy quvvat sifatida namoyon bo'ladi, u tanani harakatga keltiradi. Quvvat sifatida uning o'zi ham doimiy o'zgarish va komillikka erishish holatida bo'ladi. O'zining ruhiy rivojlanish yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengib o'tadi.

Jon tomonidan yengib o'tilgan qiyinchiliklar uning ruhiy quvvatini kuchaytiradi. Jon, Abu Ali ibn Sinoning fikricha, tana bilan materiya va shakl kabi munosabatda bo'lmaydi. Materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl materiyasiz mavjud bo'lmaydi. Shuningdek, jon tananing shakli emas, u tananing o'limi bilan yo'qolmaydi. Jon tanadan ancha ilgari yaratilgan, shuning uchun u tanada ham, tanasiz ham yashay oladi. Bundan tashqari, jon tanadan bo'lak, undan farqlanadigan o'zining nozik qobig'iga ega. Jonning ana shu nozik qobig'i nurdan tuzilgan. Kasal tanada jonning nozik qobig'ini ayrim joylari xira tortadi va buziladi. Jonni ana shu buzilishlardan va xiraliklardan tozalash inson ruhiy evolyusiyasining asosiy shartidir. Ruhiiy rivojning eng yuqori birinchi pog'onasida turgan jon ichki nurga, yog'duga ega bo'ladi va olamiy jonga qo'shiladi, o'z komilligiga erishadi.

Ibn Sinoning ta'biricha, yakka jonning olamiy jon bilan qo'shilishi inson ruhiy evolyusiyasining asosiy maqsadidir. Olamiy jonga qo'shilishning asosiy belgilaridan biri hissiy rohatlanishdan ruhiy rohatga o'tishdir.

Ibn Sino fikricha, ruhiy rohat hissiy rohatlanishdan nimasi bilan farq qiladi? Hissiy rohatlanish asosida jismoniy xohish, ehtirosni qondirish yotadi. Ruhiiy rohatlanishda bularning hammasidan voz kechib, inson o'z ichki olamiga kiradi. Bunday ichki olamga o'tish ekstaz holatida yuz beradi. Ibn Sinoning yozishicha, hissiy bilim insonning ichki ruhiy olamidagi bilimni ochishga yordam bermaydi. Hissiy bilim hodisa va jarayonlarning haqiqiy mohiyatiga yetib bormaydi.

Aqliy bilimni Abu Ali ibn Sino ikki shaklga bo'ldi. Birinchi shakli tananing amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Aqliy bilimning ikkinchi shakli qalb va undagi ichki bilimlar bilan bog'liq. Aqliy bilimning bunday shaklini Abu Ali ibn Sino faol aql deb nomlaydi. Uning yordamida haqiqat ochiladi. Faol aql ruhiyatimiz faoliyatidir. Faol aql yordamida amalga oshirilgan bilim, inson ongida atrof – olamni in'ikos etish emas. Faol aql yordamida insonda ruhiy ong uyg'onadi, uning qalbi Olamiy ruh bilan qo'shiladi. Shuning uchun ham faol aql yordamida inson Alloh bilan birlashadi, ichki ruhiy quvvati kuchayadi va zaminij muhabbati ilohiy muhabbatga aylanadi.

Shunday qilib, Ibn Sino ijodiy merosining ayrim tomonlarining tahlili bizga shuni ko'rsatadiki, unda intellektual va intuitiv bilimlar bir – biri bilan chatishib ketadi. Uning falsafiy merosining ruhiy va irratsional tomonlari Fridrix Nisshening irratsional g'oyalari va timsollari bilan hamohangdir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan biz quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelamiz:

Abu Ali ibn Sino va F.Nisshening borliq masalasiga doir ko'pgina fikrlari o'zaro bir – biriga yaqin va o'xshash ekanligini har qadamda yaqqol his qilib turish mumkin. Ulardagi o'xshashlik zaminida irratsional dunyoqarash muayyan negiz – asoslari yotadi.

Ibn Sino va F.Nissheda borliq aslida hodisa va jarayonlarning timsolidir. Yevropadagi panteizm Sharqdagi hulul va ittihad konsepsiyasining yangi tarixiy sharoitda yuzaga kelgan davomidir.

Ibn Sino va F.Nissheda ruhiy borliqning markazini inson tashkil etadi. Inson butun koinotni o'zida mujassam etuvchi mikrokosmosdir. Bunday maqomga erishish insondan nihoyatda katta irodani talab etadi.

1. A'lo inson va komil inson ko'p jihatlardan bir – biriga o'xshashdir. Ular o'zlarini o'zgartirish bilan birgalikda atrof – muhitni ham tubdan o'zgartirishga qodir inson shaxsining namoyon bo'lishidir.

2. F.Nissheda va Ibn Sino insonlarni ruhiy darajalarga ajratib, ruhiy rivojlanishning bir necha bosqich va o'ta muhim jihatlarini har tomonlama tahlil qilishga muyassar bo'ldi.

3. F.Nissheda ruhiy evolyusiyani uchta bosqichga ajratgan bo'lsa, Ibn Sino to'rtta bosqichga ajratadi.

Yuqorida amalga oshirgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki ibn Sino va Nisshening fikricha, ruhiy ustozlar oddiy avom xalqdan doimo ajralib turadi. Ularga kuchli iroda va ichki ruhiy erkinlik xosdir.

4. Barcha insonlarning komil inson darajasiga erishishi amrimaholdir. Lekin ikkala faylasuflarning fikricha, insonlar o'z ustida ishlab komillikka erishish uchun harakat qilishlari kerak. Shu harakat orqali ular qalbida yashiringan qobiliyatini yuzaga chiqarishlari mumkin. Aks holda insonga xos bo'lgan salbiy psixik holatlar uni tubanlik, pastkashlik va yovuzlikdan iborat bo'lgan hissiyotlar jar yoqasiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Ницше Ф. Так говорил Заратустра: Кн. для всех и не для кого. – М.: СП. Интербук, 1990.
2. Ницше Ф. Воля к власти. – Минск: 1999. – С. 354.
3. Жалолiddин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 107.
4. Румий Ж. Маънавий маснавий. – Тошкент, 1998. – Б. 56.
5. Абу Али ибн Сина. Избр. произв. Т.1. – Душанбе: Ирфон, 1980. – С. 330 – 331.
6. Абу Али ибн Сино. Фалсафий қиссалар. – Тошкент: 1963. – Б. 34.

## YOSHLAR MA'NAVİYATINI UZVIY SHAKLLANTIRISHDA VORISLIK MUAMMOSI

Namangan davlat universiteti  
erkin tadqiqotchisi Sherzodbek Sharobiddinov

**Annotasiya.** Ushbu maqola yoshlar o'rtasida ma'naviyatni shakllantirish jarayonida vorislikning roli va ahamiyatini o'rganadi. Mualliflar qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosning oldingi avlodlardan o'tishi yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladilar. Maqolada merosxo'rlikning turli jihatlari, jumladan, oilaviy tarbiya, ta'lim institutlari, diniy jamoalar va ijtimoiy-madaniy muhit ko'rib chiqiladi. Muallif empirik tadqiqotlar natijalari va holatlar tahlilini taqdim etadi, bu vorislikka faol e'tibor yoshlar o'rtasida ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga va ularning jamoat mas'uliyatini oshirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy jamiyatda vorislikni uzatish bilan bog'liq muammolar va muammolar muhokama qilinadi va bu jarayonni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Tahlilga asoslanib, maqola ta'lim va ijtimoiy-madaniy amaliyotlarda vorislikni samarali joriy etish yoshlar ma'naviyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va yanada uyg'un va mas'uliyatli avlodni yaratishga hissa qo'shishi mumkin degan xulosaga keladi.

**Kalit so'zlar:** vorislik, yoshlar ma'naviyati, qadriyatlarni shakllantirish, an'analar, madaniy meros, oilaviy tarbiya, ta'lim institutlari, diniy jamoalar, ijtimoiy-madaniy muhit, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy rivojlanish, yoshlar avlodi.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ МОЛОДЕЖНОЙ ДУХОВНОСТИ

**Аннотация.** Данная статья исследует роль и значимость преемственности в процессе формирования духовности среди молодежи. Авторы проводят анализ того, как передача ценностей, традиций и культурного наследия от предшествующих поколений влияет на духовное развитие молодежи. В статье рассматриваются различные аспекты преемственности, включая семейное воспитание, образовательные институты, религиозные общины и социокультурное окружение. Автор представляет результаты эмпирических исследований и анализ случаев, демонстрируя, как активное внимание к преемственности может способствовать укреплению духовных ценностей среди молодежи и повышению их общественной ответственности. Статья также обсуждает вызовы и проблемы, связанные с передачей преемственности в современном обществе, и предлагает практические рекомендации для укрепления этого процесса. Исходя из проведенного анализа, статья приходит к выводу о том, что эффективное внедрение преемственности в образовательные и социокультурные практики может оказать положительное воздействие на формирование молодежной духовности и способствовать созданию более гармоничного и ответственного поколения.

**Ключевые слова:** преемственность, молодежная духовность, формирование ценностей, традиции, культурное наследие, семейное воспитание, образовательные институты, религиозные общины, социокультурное окружение, общественная ответственность, духовное развитие, молодежное поколение.

## THE EFFECTIVENESS OF CONTINUITY IN THE FORMATION OF YOUTH SPIRITUALITY

**Annotation.** *This article explores the role and significance of continuity in the process of formation of spirituality among young people. The authors analyze how the transfer of values, traditions and cultural heritage from previous generations affects the spiritual development of young people. The article examines various aspects of continuity, including family upbringing, educational institutions, religious communities and socio-cultural environment. The author presents the results of empirical research and case analysis, demonstrating how active attention to continuity can contribute to strengthening spiritual values among young people and increasing their social responsibility. The article also discusses the challenges and problems associated with the transfer of succession in modern society, and offers practical recommendations to strengthen this process. Based on the analysis, the article concludes that the effective introduction of continuity in educational and socio-cultural practices can have a positive impact on the formation of youth spirituality and contribute to the creation of a more harmonious and responsible generation.*

**Keywords:** *continuity, youth spirituality, formation of values, traditions, cultural heritage, family upbringing, educational institutions, religious communities, socio-cultural environment, social responsibility, spiritual development, youth generation.*

### Kirish

Yoshlar har doim ijtimoiy rivojlanishning asosiy toshi hisoblangan. Uning e'tiqodlari, qadriyatlar va ma'naviy rivojlanishi jamiyat kelajagini shakllantiradi. Biroq, zamonaviy yoshlar o'zlarining ma'naviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu maqolada biz yoshlar ma'naviyatini shakllantirish vositasi sifatida vorislikning samaradorligini va uning zamonaviy jamiyatdagi rolini ko'rib chiqamiz.

#### 1. Vorislik va uning jamiyatdagi roli

Vorislik-bu bilim, qadriyatlar, urf-odatlar va tajribalarni avlodlar o'tkazish. Ushbu jarayon jamiyatning madaniy va ma'naviy merosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlar avvalgi avlodlardan ijobiy ma'naviy asoslar va qadriyatlarni olishlari ayniqsa muhimdir.

#### 2. Yoshlar va ma'naviyat

Yoshlar – bu shaxsiyat va qadriyatlar shakllanadigan hayot davri. Ma'naviyat axloq, axloq, diniy e'tiqod va o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi[1]. Kuchli ma'naviyat yoshlarga o'z ongini rivojlantirishga va muhim hayotiy qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

#### 3. Vorislik va yoshlar ma'naviyati

Vorislik yoshlar ma'naviyatini quyidagi yo'llar bilan shakllantirishga yordam beradi:

\* Qadriyatlarni uzatish: keksa avlodlar o'z qadriyatlarini va e'tiqodlarini yoshlar bilan baham ko'rishlari mumkin, bu ularga hayotda nima muhimligini va nimani qadrlash kerakligini tushunishga yordam beradi.

\* Tarixiy tajriba: yoshlar tarixdan oldingi avlodlar qanday xatolarga yo'l qo'yganliklari va qanday yutuqlarga erishganliklari haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu dunyo va jamiyat haqida chuqurroq tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

\* Mentorlik: keksa odamlar yoshlar uchun Mentor bo'lib, ularga o'z qobiliyatlari, qobiliyatlari va ma'naviy ongini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **4. Zamonaviylik muammolari**

Zamonaviy jamiyat yoshlar ma'naviyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular orasida o'z joniga qasd qilish fikri, giyohvandlik, ijtimoiy izolyatsiya va axloqiy ko'rsatmalarni yo'qotish[2]. Vorislik bu qiyinchiliklarga qarshi himoya mexanizmi bo'lib xizmat qilishi mumkin, yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi va ularning ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Yoshlar har doim jamiyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning qadriyatlari, e'tiqodlari va ma'naviy rivojlanishi jamiyat kelajagini shakllantiradi. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning asosiy jihatlardan biri bu qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni oldingi avlodlardan olib keladigan vorislikdir. Ushbu maqolada biz nima uchun vorislik samaradorligi yoshlar ma'naviyatini shakllantirish uchun juda muhimligini ko'rib chiqamiz.

Vorislik bilim va tajribani keksa avlodlardan yoshlarga o'tkazishni anglatadi. Bu yoshlarga o'z jamiyatlarining qadriyatlari va an'analarini o'rganish va tushunishga imkon beradi[3]. Yoshlar o'z madaniyati tarixi bilan tanishib, ota-bobolari uchun qanday qadriyatlar muhim bo'lganligi haqida bilib olgach, ular o'zlarining qadriyatlar tizimini ongli ravishda qurishlari mumkin. Vorislik madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish va uning globallashtirish va standartlashtirishning zamonaviy dunyosida yo'qolishining oldini olishga imkon beradi.

Vorislik, shuningdek, yoshlarning o'ziga xosligini shakllantirishga yordam beradi. Yoshlar o'zlarining kelib chiqishi va ildizlarini bilganlarida, ular o'zlarining madaniy va ijtimoiy aloqalarida o'zlarini yanada mustahkam his qilishadi. Bu ularning psixologik va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan o'z qadr-qimmatini va ishonchini mustahkamlaydi.

Ta'limda vorislik muhim rol o'ynaydi. O'z tajribasi va bilimlarini yosh avlodlarga etkazadigan o'qituvchilar va murabbiylar bu jarayonda asosiy shaxslardir. Ular yoshlarga oldingi avlodlarning xatolaridan saboq olishga va yanada ongli va uyg'un dunyoni qurishga yordam beradi[4]. Vorislikning bu jihati ta'limda ayniqsa muhimdir, chunki u nafaqat bilimlarni uzatishga, balki tanqidiy fikrlash va axloqiy ongini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Dunyo tobora globallashtirib bormoqda va texnologiya va kommunikatsiyalarning rivojlanishi bilan yoshlar turli xil madaniy ta'sirlarga duch kelishmoqda. Vorislik jahon madaniyatida xilma-xillik uchun muhim bo'lgan madaniyatlar va an'analarning o'ziga xosligini saqlashga yordam beradi. U yangi g'oyalarni qabul qilish va eski qadriyatlarni saqlashga muvozanatli yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Vorislik yoshlarning axloqiy tarbiyasiga ham hissa qo'shadi. Keks avlodlar o'zlarining hayotiy saboqlari va axloqiy qadriyatlarini yoshlar bilan bo'lishishlari mumkin. Bu ularga mas'uliyat, hamdardlik va adolat tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi, bu yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning muhim jihati hisoblanadi.

Vorislik mojarolar va muammolarni hal qilish bo'yicha tajribani uzatishga yordam beradi. Yoshlar oldingi avlodlarning qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishlari haqida o'rgatilganda, ular hozirgi muammolarni hal qilish va nizolarning oldini olishda ko'proq malakaga ega bo'ladilar.

Yoshlar har doim jamiyatdagi o'zgarishlarning asosiy katalizatori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Oldingisini almashtiradigan bu avlod o'zi bilan yangi g'oyalar, qadriyatlar va e'tiqodlarni olib keladi[5]. Biroq, doimiy o'zgarish davrida ma'naviy yaxlitlik va axloqiy asoslarni saqlab qolish vorislikka alohida e'tibor berishni talab qiladi. Vorislik-bu bilim, an'ana va

qadriyatlarni yoshlarning keksa avlodidan o'tkazish. Ushbu maqolada biz vorislik yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda qanchalik samarali ekanligini ko'rib chiqamiz.

### **Yoshlar ma'naviyati tushunchasi**

Yoshlar ma'naviyati-bu yosh avlodni tavsiflovchi e'tiqodlar, qadriyatlar, e'tiqodlar va ideallarni o'z ichiga olgan murakkab tushuncha. Bu yoshlarning hayotiga ma'no beradigan va ularning dunyoga va o'zlariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan narsa. Ma'naviyat hayotning turli jabhalarida, jumladan diniy e'tiqodlar, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabat va madaniy an'analarda namoyon bo'lishi mumkin.

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vorislik muhim rol o'ynaydi. Bu sizga oldingi avlodlar tomonidan to'plangan qimmatli bilim va tajribani yoshlarga etkazish imkonini beradi. Bu oila, ta'lim, diniy jamoalar va ijtimoiy-madaniy guruhlar kabi turli kanallar orqali sodir bo'ladi.

**1. Oilaviy vorislik:** oila vorislikning birinchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Ota-onalar o'zlarining qadriyatlari va e'tiqodlarini farzandlariga muloqot, tarbiya va misol orqali etkazadilar[6]. Bunga yoshlarning ma'naviy asoslarini shakllantirishga yordam beradigan diniy marosimlar, urf-odatlar va urf-odatlar kiradi.

**2. Ta'lim uzluksizligi:** ta'lim institutlari ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar va professorlar talabalarni nafaqat bilim olishga, balki ularning qadriyatlari va axloqiy e'tiqodlarini rivojlantirishga ilhomlantirishi va rag'batlantirishi mumkin.

**3. Diniy vorislik:** ko'p odamlar uchun din ularning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Diniy jamoalar o'z e'tiqodlari va urf-odatlarini avlodlardan avlodga o'tkazadilar. Diniy amaliyot bilan shug'ullanadigan yoshlar o'z hayotlarida qo'llab-quvvatlash va yo'nalishni topishlari mumkin.

**4. Ijtimoiy-madaniy vorislik:** madaniy guruhlar, jamoat tashkilotlari va jamoalar ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga yordam beradi. Ular shaxsiy qadriyatlar va o'ziga xoslikni rivojlantirishga yordam beradigan turli tadbirlar va tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

### **Vorislikning afzalliklari**

Vorislik yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda bir qancha muhim afzalliklarga ega:

1. Barqarorlik va ishonchlik: vorislik yoshlarga tez o'zgaruvchan dunyoda barqaror ko'rsatmalar va ishonchli qadriyatlarga ega bo'lish imkonini beradi.

2. Madaniy merosni saqlash: bu ma'naviy rivojlanishning muhim jihati bo'lgan madaniy an'analarni va tarixni saqlashga yordam beradi.

3. Qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya: vorislik yoshlarga jamiyat va ijtimoiy guruhlar bilan bog'liqligini his qilishga yordam beradi, bu esa ularning integratsiyasiga yordam beradi.

4. Axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish: bu axloqiy qadriyatlarni, axloqiy e'tiqodlarni va ularning harakatlariga ongli munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda uzluksizlik muhim rol o'ynaydi. U qadriyatlar, urf-odatlar va bilimlarni keksa avlodlardan yoshlarga etkazadi, o'ziga xoslikni mustahkamlashga yordam beradi, o'quv jarayonini boyitadi, madaniy xilma-xillikni saqlaydi, axloqiy tarbiyani rivojlantiradi va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Jamiyat uchun bu yanada uyg'un va



barqaror kelajakni, yoshlar uchun esa oldingi avlodlarning donoligi va tajribasi asosida o'sish va rivojlanish imkoniyatini anglatadi. Shu sababli, mustahkam va ma'naviy jihatdan boy yoshlar populyatsiyasini yaratish uchun uzluksizlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhimdir. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda uzluksizlikning samaradorligini ortiqcha baholash qiyin. Bilim, tajriba va qadriyatlarni keksa avlodlardan yoshlarga etkazish sog'lom jamiyatni rivojlantirish uchun muhim bo'lgan kuchli va barqaror ma'naviy e'tiqodlarni rivojlantirishga yordam beradi. Yoshlar turli qiyinchiliklarga duch kelayotgan zamonaviy dunyoda uzluksizlik ularning ma'naviy o'sishi va farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ushbu jarayonni saqlab qolish jamiyatning ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Fowler, J. W. (1981). Stages of faith: The psychology of human development and the quest for meaning. HarperOne.
2. Kegan, R. (1994). In over our heads: The mental demands of modern life. Harvard University Press.
3. Smith, C., & Denton, M. L. (2005). Soul searching: The religious and spiritual lives of American teenagers. Oxford University Press.
4. Roehlkepartain, E. C., King, P. E., Wagener, L., & Benson, P. L. (2006). The handbook of spiritual development in childhood and adolescence. Sage Publications.
5. Benson, P. L., Roehlkepartain, E. C., & Rude, S. P. (2003). Spiritual development in childhood and adolescence: Toward a field of inquiry. *Applied Developmental Science*, 7(3), 205-213.
6. Taylor, M. J., & Robbins, M. (2019). Religion and spirituality as resiliency resources: Positive youth development in adolescence. In R. M. Lerner, J. V. Lerner, J. B. Benson, N. C. Maddox, & F. S. Rasmussen (Eds.), *Handbook of adolescent psychology* (3rd ed., pp. 609-651). Wiley.



## ANALYZING EASTERN PHILOSOPHY IN THE SILK ROAD ECONOMIC BELT

Zhou Ruihong,

PhD Candidate

National University of Uzbekistan Named after Mirzo Ulugbek, Uzbekistan ;

Teacher

Inner Mongolia University of Finance and Economics, China;

E-mail: sonia200309@163.com

**Abstract:** *The Silk Road was an important channel of trade and cultural exchange between East and West in ancient times, and the Silk Road Economic Belt is a new economic development region formed based on the concept of "ancient Silk Road". The Silk Road Economic Belt, connecting the Asia-Pacific Economic Circle in the east and the European Economic Circle in the west, is considered "the longest and most promising economic corridor in the world", reflecting the idea of centralized and coordinated development of all parts of the corridor. The Silk Road Economic Belt is the need for comprehensive, balanced and sustainable development within the Chinese state, as well as the need for China's external cooperation and development, it is also the common need of most countries along the Silk Road for economic development.*

**Keywords:** *Economic Belt, Silk Road, interconnection, cooperation, Eastern philosophy, development.*

**Key words:** *Silk Road Economic Belt, Interconnection, Cooperation and Win-Win, Eastern Philosophy*

## АНАЛИЗ ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПОЯСЕ ШЕЛКОВОГО ПУТИ

**Аннотация:** *Шелковый путь в древности был важным каналом торговли и культурного обмена между Востоком и Западом, а Экономический пояс Шелкового пути – это новый регион экономического развития, сформированный на основе концепции «древнего Шелкового пути». Экономический пояс Шелкового пути, соединяющий Азиатско-Тихоокеанский экономический круг на востоке и Европейский экономический круг на западе, считается «самым длинным и перспективным экономическим коридором в мире», что отражает идею централизованного и скоординированного развития всех частей этого коридора. Экономический пояс Шелкового пути – это необходимость всестороннего, сбалансированного и устойчивого развития внутри китайского государства, а также необходимость внешнего сотрудничества и развития Китая, это также общая потребность большинства стран, расположенных вдоль Шелкового пути, в экономическом развитии.*

**Ключевые слова:** *Экономический пояс, Шелковый путь, взаимосвязь, сотрудничество, восточная философия, развитие.*

## ШАРҚ ФАЛСАФАСИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ИПАК ЙЎЛИ ИҚТИСОДИЙ КАМАРИДА

**Аннотация:** Қадимда Ипак йўли Шарқ ва Ғарб ўртасидаги савдо ва маданий алмашинувнинг муҳим канали бўлиб, Ипак йўли иқтисодий камари "қадимги Ипак йўли" концепцияси асосида шаклланган иқтисодий ривожланишнинг янги минтақасидир. Шарқда Осиё-тинч океани иқтисодий доирасини ва ғарбда Европа иқтисодий доирасини боғлайдиган Ипак йўли иқтисодий камари "дунёдаги енг узун ва истиқболли иқтисодий коридор" ҳисобланади, бу ушбу коридорнинг барча қисмларини марказлашган ва мувофиқлаштирилган ривожлантириш гоёсини акс эттиради. Ипак йўли иқтисодий камари-бу Хитой давлати ичида ҳар томонлама, мувозанатли ва барқарор ривожланиш зарурати, шунингдек, ташиқ хамкорлик ва Хитойнинг ривожланиши зарурати, шунингдек, Ипак йўли бўйлаб кўплаб мамлакатларнинг иқтисодий ривожланиш учун умумий еҳтиёждир.

**Калит сўзлар:** Ипак йўли иқтисодий камари, ўзаро боғлиқлик, хамкорлик ва ўзаро ёрдам, Шарқ фалсафаси

The Eastern philosophy of Confucianism, with its profound humanistic values and practical significance, focuses on the concept of harmonious coexistence, believing that all things in the world are interconnected and interdependent. The ideas of Confucianism, such as honesty and trustworthiness, harmony and difference, harmonious coexistence and harmonious development, have profoundly influenced the development and realization of the Silk Road Economic Belt connectivity.

"The Silk Road Economic Belt has attracted a great deal of attention from academics and people from all walks of life, and the Silk Road Economic Belt has developed a wide range of cooperation involving energy cooperation, economic trade, regional cooperation, financial cooperation, and connectivity. The 2014 Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC) meeting in Beijing identified three major themes, among which "Strengthening All-Round Infrastructure and Connectivity Construction", especially connectivity in the Asia-Pacific region, is the highlight, which will start the 3.0 phase of the "Building Asia-Pacific Partnership" (BAPP). The 3.0 era of "Building Asia-Pacific Partnership" will begin.<sup>14</sup>

"Our ancestors created many miracles of connectivity under extremely difficult conditions. The Silk Road is a model." President Xi Jinping made these remarks on November 8, 2014, when he attended and hosted the Dialogue on Strengthening Connectivity Partnerships. Xi pointed out that "the connectivity we want to build is not just building roads and bridges, not just flat and single-line connectivity, but should be a trinity of infrastructure, systems and regulations, and personnel exchanges; it should be a parallel development of the five major areas of policy communication, facility connectivity, trade facilitation, financial integration, and people-to-people exchanges. This is an all-round, three-dimensional, network-like grand connectivity, a vibrant, group-oriented open system." According to Xi's new elaboration, "connectivity" involves

---

<sup>14</sup> Jiang Wei. Two major breakthroughs at the APEC meeting in Beijing: officially launching the Asia-Pacific Free Trade zone process to jointly develop a blueprint for connectivity [N]. 21st Century Business Herald, 2014-11-12(2).

both "hard connectivity" in terms of infrastructure, such as roads, and "soft connectivity" in terms of rules and regulations, as well as "people connectivity" in terms of the movement of people. It will also promote the "human connection" of mobility. With good ideas, positive action is even more commendable. At the Dialogue, Xi solemnly announced that China will contribute \$40 billion to set up the Silk Road Fund. The fund will "provide investment and financing support for projects related to connectivity, such as infrastructure, resource development, industrial cooperation and financial cooperation in countries along the Belt and Road."<sup>15</sup> The Silk Road Economic Belt connectivity, such a composite, win-win, open approach to cooperation and exchange reflects the wisdom of Eastern philosophical thought.

The eclectic nature of Confucianism in Eastern philosophy determines its pluralism and inclusiveness, and the Eastern philosophy of "harmony and difference" is the cultural foundation for the Silk Road Economic Belt's interconnection and win-win cooperation. "Gentlemen are in harmony but different, while small people are in agreement but not in harmony." In ancient Chinese philosophy, there is a big difference between 'harmony' and 'sameness': 'sameness' cannot accommodate 'differences'. 'Harmony' not only tolerates 'differences', but there must be 'differences' in order to call it 'harmony'. "<sup>16</sup> "To be in Harmony but Not Uniformity is to have one's own central thought, to be able to reconcile conflicting opinions on the left and right, while one's own central thought remains independent and unshifted."<sup>17</sup> "Harmony but Not Uniformity" is directed at the many differences and diversities of things, so that the power of wholeness and commonality can be stimulated. It is only by blending diversity that something new can be produced, and likeness is creative. Reconciling and balancing different things realizes "harmony". The fusion of different things is "common", and there is a difference between the connotation of "common" and "same", i.e., "common" is multifactorial, "sum", while "same" is only a single thing. It is true that harmony can produce new things and stimulate creativity, but a single-minded pursuit of commonality will not lead to sustainable development. A single sound will not be very beautiful, a single color will not be very colorful, a single flavor will not be very attractive, a single thing always seems monotonous. Only through "Harmony but Not Uniformity" can we gather energy and create greater social wealth.

"Harmony but Not Uniformity" is directly reflected in the cooperation of the Silk Road Economic Belt connectivity, which is based on the principle of win-win cooperation, and insists on the inclusive development of countries, sharing of opportunities, meeting of challenges, and creation of prosperity, so that the countries along the route can benefit from China's development and have mutual benefits. The connectivity of the Silk Road Economic Belt advocates the strengthening of equal dialogue and equality and inclusiveness among all ethnic groups in the context of multiculturalism, and the elimination of barriers and the establishment of mutual trust through the enhancement of mutual knowledge and understanding. Through such equality and inclusiveness, it is possible to promote cooperation and to share the fruits of the material and spiritual civilization of mankind.

---

<sup>15</sup> Xi Jinping's "Belt and Road" Strategic Concept Spreads with Ease as Connectivity Continues to Gain Momentum <http://www.scio.gov.cn/ztk/wh/slxxy/gcy11/Document/1471767/1471767.htm>, 2014-11-9, Source: Guangming.com

<sup>16</sup> Feng Youlan. History of Modern Chinese Philosophy [M]. Guangzhou: Guangdong People's Publishing House.1999:253-254.

<sup>17</sup> Nan Huaijin. The Analects of Confucius [M]. Shanghai: Fudan University Press, 2010: 539.

"All things grow together without harming each other, and the Way runs in parallel without contradicting each other." <sup>18</sup> Everything under the sky can develop together without harming each other, all kinds of behavioral norms can be carried out at the same time without contradicting each other, everything grows competitively without harming each other, the sun and the moon run, and the four seasons change without conflicting with each other. The way of heaven and earth is like a flowing river, with clear veins and a continuous flow; like a great virtue, it is grand and infinite. This is the law of the operation and development of all things in heaven and earth, the reason for the greatness of heaven and earth. It embodies the spirit of tolerance and the way of harmony in the laws of the universe and nature. This sentence emphasizes the importance of harmony, coexistence and unity, realizing the harmonious coexistence of man and nature, and revealing to the equal respect and harmonious coexistence in interpersonal and diplomatic relations. There is no single civilization in the world, and the legitimacy of the existence and development of each civilization should be recognized. The economic belt is an "innovative mode of cooperation", which should go beyond the traditional regional economic model and realize cooperation not through the establishment of an exclusive customs union or a supranational management body, but on the premise that all countries agree on the same concepts and rules, expand economic exchanges in an equal, mutually beneficial and win-win manner, reduce the interference of unfavorable factors, and jointly respond to the changes in the international market. At the same time, such cooperation should also include mutual trust among countries, humanistic closeness and peaceful coexistence in terms of security, which will help to establish long-term friendly and very stable relations among countries, and disputes can be resolved through peaceful diplomacy.

Guided by the oriental thought of "Harmony but Not Uniformity", with infrastructure as the first step, institutional norms as the outline, and humanistic exchanges as the basis, we will realize connectivity with countries and regions along the "Silk Road Economic Belt" through various cooperation paths, such as perfecting the transportation network, strengthening agricultural cooperation, building a comprehensive information platform, realizing resource sharing and industrial upgrading, constructing a multilateral cooperation mechanism, building regional financial centers and cross-border cooperation parks, and strengthening humanistic and educational exchanges. Through improving transportation networks, strengthening agricultural cooperation, building comprehensive information platforms, realizing resource sharing and industrial upgrading, constructing multilateral cooperation mechanisms, building regional financial centers and cross-border cooperation parks, and strengthening humanistic education and exchanges, it will realize tolerance, peace, development and win-win situation through connectivity with countries and regions along the Silk Road Economic Belt. As "heaven and man are one" and "all things are born together", only when all countries follow the path of the world, get along with each other, discuss and build together can we share a win-win situation. The peoples of the world are striving to build a community of human destiny and to make the world a better place.

---

<sup>18</sup> Zhongyong, chapter 30.

## References

1. Jiang Wei. Two major breakthroughs at the APEC meeting in Beijing: officially launching the Asia-Pacific Free Trade zone process to jointly develop a blueprint for connectivity [N]. 21st Century Business Herald, 2014-11-12(2).
2. Xi Jinping's "Belt and Road" Strategic Concept Spreads with Ease as Connectivity Continues to Gain Momentum <http://www.scio.gov.cn/ztk/wh/slx/gcyl1/Document/1471767/1471767.htm>, 2014-11-9, Source: Guangming.com
3. Feng Youlan. History of Modern Chinese Philosophy [M]. Guangzhou: Guangdong People's Publishing House. 1999:253-254.
4. Nan Huaijin. The Analects of Confucius [M]. Shanghai: Fudan University Press, 2010: 539.
5. Zhongyong, chapter 30.

## AXBOROT ERKINLIGINING XAVFSIZLIGI VA UNI HIMOYALASH GENEZESI

Pulatov Jalol Rustamovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada axborot erkinligi, ularning genezisi to'g'risida atroflicha fikr va mulohaza yuritilgan. Shuningdek axborotlarning qay darajada muhimligi, xavfsizlik nuqtai nazardan turkumlashgani, axborotning ximoyalash maqsadlari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, genezes, evolyutsiya, axborot xavfsizligi, axborotni himoyalash, tasniflash.

## БЕЗОПАСНОСТЬ СВОБОДЫ ИНФОРМАЦИИ И ГЕНЕЗИС ЕЕ ЗАЩИТЫ

Пулатов Джалал Рустамович

Шароф Рашидов, Самаркандский государственный университет

**Аннотация:** В статье содержится комплексное мнение и размышление о свободе информации, ее генезисе. Также представлена информация о важности информации, ее классификации с точки зрения безопасности и целях защиты информации.

**Ключевые слова:** информационные технологии, генезис, эволюция, информационная безопасность, защита информации, классификация.

## SECURITY OF FREEDOM OF INFORMATION AND THE GENESIS OF ITS PROTECTION

Pulatov Jalal Rustamovich

Sharof Rashidov, Samarkand State University

**Annotation:** The article contains a comprehensive opinion and reflection on freedom of information, its genesis. It also provides information on the importance of information, its classification from the point of view of security, and the purposes of information protection.

**Keywords:** information technologies, genesis, evolution, information security, information protection, classification.

Mamlakatimiz milliy iqtisodining hech bir tarmog'ı samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari har bir davlatning iqtisodiy va xarbiy salohiyatini tashkil qiluvchi asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot - kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash kengayadi.

Turli xildagi axborotlar qaysi xududda joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga "Internet" halqaro kompyuter tarmog'ı orqali kirib kelmoqda. Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog'ı orqali tezlik bilan shakllanib bormokda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari mutlaqo yod tushunchaga aylanmoqda. Jahon kompyuter "www" tarmog'ı davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda.

**Axborot erkinligi** - bu shaxs yoki odamlarning axborotni nashr etish va iste'mol qilish erkinligi. **Axborotga kirish** - bu shaxsning ma'lumotni samarali izlash, olish va tarqatish qobiliyati. Bunga ba'zan "ilmiy, mahalliy va an'anaviy bilimlar; axborot erkinligi, ochiq bilim resurslarini yaratish, shu jumladan, ochiq Internet va ochiq standartlar, hamda ma'lumotlarga ochiq kirish va mavjudligi; raqamli merosni saqlash; madaniy va til xilma-xilligini hurmat qilish, shu kabilar kiradi. Mavjud tillarda mahalliy kontentdan foydalanishni rag'batlantirish sifatida, hamma uchun sifatli ta'lim, shu jumladan elektron ta'lim; yangi ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi va ko'nikmalarini tarqatish, shuningdek, ijtimoiy inklyuziya, jumladan, nogironlar uchun qobiliyatlar, ta'lim, jins, yosh, irq, etnik kelib chiqish va ulardan foydalanish imkoniyatiga asoslangan tengsizliklarni bartaraf etish; va ulanish imkoniyati va arzon AKT, jumladan, mobil, internet va keng polosali infratuzilmalarni rivojlantirish"[3.2021,107].

Axborotning muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usul va vositalar qo'llanilgan. Ulardan biri - sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at - sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bularidan tashqari uni o'g'iraydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi[2.2019,79].

Axborot tizimlarida axborotlar o'zining hayotiy davriga ega bo'ladi. Bu davr uni yaratish, undan foydalanish va kerak bo'lmaganda yo'qotishdan iboratdir.

Axborotlar hayotiy davrining har bir bosqichida ularning himoyalanganlik darajasi turlicha baholanadi.

Maxfiy va qimmatbaho axborotlarga ruxsatsiz kirishdan himoyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Sababi, axborot o'g'irlashdan ko'ra uni himoyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Axborotni vositachi egalari va foydalanuvchilarning mulki huquqlarini himoyalash - bu ishlab chiqarilayotgan axborotlarni jiddiy iqtisodiy va boshqa moddiy hamda nomoddiy zararlar keltirishi mumkin bo'lgan turli kirishlar va o'g'irlashlardan himoyalashdir.

Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi.

Ilgarigi xavf faqatgina konfidentsial (maxfiy) xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. Bularidan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi.

Axborotning himoyasi deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi[1.2002,4].

Axborotning egasiga, foydalanuvchisiga va boshqa shaxsga zarar yetkazmoqchi bo'lgan nohuquqiy muomaladan har qanday xujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan xolda moddiy jismda qayd etilgan.

Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan axborotni quyidagicha turkumlash mumkin:

- maxfiylik - aniq bir axborotga fakat tegishli shaxslar doirasigina kirishi mumkinligi, ya'ni foydalanilishi qonuniy xujjatlarga muvofik cheklab qo'yilib, xujjatlashtirilganligi kafolati. Bu bandning buzilishi o'g'irlik yoki axborotni oshkor qilish, deyiladi;

- konfidentsiallik - inshonchliligi, tarqatilishi mumkin emasligi, maxfiyligi kafolati;

- yaxlitlik - axborot boshlang'ich ko'rinishda ekanligi, ya'ni uni saqlash va uzatishda ruxsat etilmagan o'zgarishlar qilinmaganligi kafolati; bu bandning buzilishi axborotni soxtalashtirish deyiladi;

- autentifikatsiya - axborot zaxirasi egasi deb e'lon qilingan shaxs haqiqatan ham axborotning egasi ekanligiga beriladigan kafolat; bu bandning buzilishi xabar muallifini soxtalashtirish deyiladi;

- apellyatsiya kilishlik - yetarlicha murakkab kategoriya, lekin elektron biznesda keng qo'llaniladi. Kerak bo'lganda xabarning muallifi kimligini isbotlash mumkinligi kafolati.

Yuqoridagidek, axborot tizimiga nisbatan quyidagicha tasnifni keltirish mumkin:

- ishonchlilik - tizim meyoriy va g'ayri tabiiy xollarda rejalashtirilganidek o'zini tutishlik kafolati;

- aniqlilik - hamma buyruqlarni aniq va to'liq bajarish kafolati;

- tizimga kirishni nazorat qilish - turli shaxs guruhlari axborot manbalariga xar xil kirishga egaligi va bunday kirishga cheklashlar doim bajarilishlik kafolati;

- nazorat qilinishi - istalgan paytda dastur majmuasining xohlagan qismini to'liq tekshirish mumkinligi kafolati;

- identifikatsiyalashni nazorat qilish - hozir tizimga ulangan mijoz aniq o'zini kim deb atagan bo'lsa, aniq o'sha ekanligining kafolati;



• qasddan buzilishlarga to'sqinlik - oldindan kelishilgan me'yorlar chegarasida qasddan xato kiritilgan ma'lumotlarga nisbatan tizimning oldindan kelishilgan xolda o'zini tutishi.

Axborotni ximoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- axborotning kelishuvsiz chiqib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi, soxtalashtirilishlarning oldini olish;

- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bo'lgan xavf – xatarning oldini olish;

- axborotni yo'q qilish, o'zgartirish, soxtalashtirish, nusxa kuchirish, tusiqlash bo'yicha ruxsat etilmagan xarakterlarning oldini olish;

- xujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida xuquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuv kurinishlarining oldini olish;

- axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiylikini va konfidentsialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion xuquqlarini ximoyalash;

- davlat sirini, qonunchilikka mos xujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;

- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llashda sub'ektlarning huquqlarini ta'minlash.

Axborotlarga nisbatan xavf-xatarlar. Ilmiy va amaliy tekshirishlar natijalarini umumlashtirish natijasida axborotlarga nisbatan xavf xatarlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Xavfsizlik siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri himoya tizimida potentsial xavfli joylarni qidirib topish va ularni bartaraf etish xisoblanadi.

Tekshirishlar shuni kursatadiki, tarmoqdagi eng katta xavflar - bu ruxsatsiz kirishga mo'ljallangan maxsus dasturlar, kompyuter viruslari va dasturning ichiga joylashtirilgan maxsus kodlar bo'lib, ular kompyuter tarmoqlarining barcha ob'ektlari uchun katta xavf tug'diradi[4.2000,119].

Zamonaviy axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarining yutuqlari ximoya uslublarining bir qator zaruriy instrumental vositalarini yaratish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tmishdan to shu kunga qadar axborotlar turli ko'rinishda va turlicha shakl shamoilga ega bo'lmasin doimo axborotlardan erkin foydalana olish, hamda unga bo'lgan huquqlari doimo deyarli o'zgarishsiz kelmoqda. Shunday ekan bugungi kunda raqamli axborotlashgan dunyoda axborot texnologiyalarning erkinligi masalasi juda murakkabligicha qolmoqda. Sababi, unga bo'lgan mulk huquqi, saqlovchi va qabul qiluvchi o'rtasida axborotlarning himoyalanganlik darajasi bilan farq qilmoqda. Ayni damda axborotlarning himoyasi bu to'laqonli shaxs erkinligi bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. David Banisar. Freedom of information international trends and national security. Geneva centre for the democratic control of armed forces (dcaf) conference paper. 3rd-5th October 2002.
2. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Darslik. –Samarqand: 2019-yil.
3. YuNESKO. 2015.p. 107. Asl nusxadan arxivlangan 2018 yil 11 noyabr. 2021-yil 3-yanvar.
4. Кастельс Э. Информационная эпоха. Экономика, общество и культура. –Москва: 2000-г.



10.00.00

**FILOLOGIYA FANLARI**  
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PHILOLOGICAL SCIENCES**

UDK 003.05. 003.03

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TINISH BELGILAR**

G'aniyeva Xayriniso Baxtiyarovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabagcha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til kafedrasini mudiri.

[xayriniso0102@gmail.com](mailto:xayriniso0102@gmail.com)

*Аннотация.* Ushbu maqolada dastlab qo'llangan punktuatsion belgilar so'zlarni va jummalarni bir-biridan ajratish uchun qo'llanilganligi yoritib berilgan. Muayyan til nutqida uning vazifasi, tinish belgilarining turlari, qay o'rinlarda va qay tartibda qo'llanilishi haqida so'z boradi.

*Калит so'zlar:* punktuatsiya, tinish belgilari, aksentema, melodikalar, morfema, diakritik belgi.

**ЗНАКИ ПРЕПИНАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ**

Ганиева Хайринисо Бахтияровна

Директор кафедры иностранных языков до школы и начального образования Жиззахского государственного педагогического университета.

[xayriniso0102@gmail.com](mailto:xayriniso0102@gmail.com)

*Аннотация.* В данной статье объясняется, что знаки препинания, которые первоначально использовались, использовались для отделения слов и предложений друг от друга. В речи того или иного языка говорится о его функции, видах знаков препинания, где и в чем порядок их использования.

*Ключевые слова:* пунктуация, пунктуация, ударение, мелодика, морфема, диакритический знак.

**PUNCTUATION MARKS IN UZBEK LINGUISTICS**

Ganiyeva Khayriniso Bakhtiyarovna

Director of the Foreign Language Department for before school and Primary Education at Jizzakh State Pedagogical University.

[xayriniso0102@gmail.com](mailto:xayriniso0102@gmail.com)

*Abstract.* In this article, it is explained that the punctuation marks that were originally used were used to separate words and sentences from each other. In the speech of a particular language, it is discussed about its function, types of punctuation marks, where and in what order they are used.

*Key words:* punctuation, punctuation, accent, melodic, morpheme, diacritical mark.

## **Kirish**

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (soʻzlar, morfemalar) bilan koʻrsatish mumkin boʻlmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, yozma nutqni toʻgʻri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini taʼminlashda benihoya zaruriy vositadir. [1,5,10] Ilmiy manbalarda, oʻquv qoʻllanmalarida tinish belgilarining qoʻllanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi taʼkidlanadi. Bunda mantiqiygrammatik tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda toʻgʻri ifodalashga qaratilgan boʻlsa, differensiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining qoʻsh holda qoʻllanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak boʻlganda, ulardan foydalanish yoʻllarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qoʻllanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik toʻgʻri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi boʻlmaydi. Zarurat tugʻilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin. Muayyan tildagi punktuatsiya anʼanalarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilarining qoʻllanish qoidalarini umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega. [1,15]

## **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Hozirgi oʻzbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning oʻrganilishi Fitrat, S.Ibrohimov, H.Gʻoziev, O.Usmonov, Gʻ.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bogʻliq. Punktuatsiya masalalari bilan bevosita shugʻullangan H.Gʻoziev («Oʻzbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti», 1969, 1979), Gʻ.Abdurahmonov («Punktatsiya oʻqitish metodikasi», 1968), K.Nazarov («Tinish belgilari va yozma nutq», 1974; «Oʻzbek tili punktuatsiyasi», 1976)larning asarlari nashr etilganiga ancha yillar boʻldi va ulardagi tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar oʻzgardi. Buning ustiga, «muallif punktuatsiyasi», yaʼni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga boʻysunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qoʻllash holatlari uchraydiki, bu ham keng oʻquvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi. [2,5,8]

Punktatsiya (lot. punktum – nuqta) – tinish belgilari tizimi va ulardan foydalanish boʻyicha ishlab chiqilgan va qatʼiy belgilangan qoidalar majmuasi. Bu termin ikki maʼnoda: tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmuyiga va tinish belgilarining oʻziga nisbatan ishlatiladi. Bugungi kunda tinish belgilari fonografemalar tarkibidagi muhim belgilar tizimi (prosodemografema) boʻlib, yozma nutqning semantik, intonatsion va grammatik boʻlinishining asosi sifatida qoʻllaniladi. Tinish belgilari jumla tarkibidagi soʻzlarning semantik va grammatik munosabatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, fikrni taʼkidlab, ajratib koʻrsatishga yordam beradi. Tinish belgilarining qoʻllanish oʻrinlarini bilish va ularning funksional imkoniyatlari muallifning oʻz fikrini yozma ravishda toʻgʻri yetkazishga yordam beradi. Mutolaa davomida bu jarayon yozuv vositasida yetkazilgan emotsional-ekspressiv holatlarni tez va tabiiy anglashga koʻmaklashadi. Zamonaviy oʻzbek tilida qoʻllangan tinish belgilari yozuv bilan uzviy bogʻlangan va bir-birini taqozo etadigan semantik va

strukturaviygrammatik asoslarga qurilgan. Tinish belgilari yozma nutqning turli ustsegment bo'linishlarini aks ettiradi, alohida so'zlar va so'z turkumlari o'rtasidagi mantiqiy-mazmuniy aloqa va munosabatlarni, yozma matn qismlarining turli semantik o'rinlarini ko'rsatadi. [2,10,15]

### **Muhokama va natijalar**

Yozuv tarixiga e'tibor qaratilganda, dastlabki qo'llangan tinish belgilari matndagi jummalarni ajratish, to'xtash o'rinlarini belgilash uchungina ishlatilgan. Ular "yozuvdan keyin paydo bo'lgan va ijtimoiy vazifa ifodalagach, yozuvning tarkibiy qismiga aylangan. Eng qadimgi yozuvlar ko'proq piktografik yoki logografik (alohida shakllar, belgilar orqali fikr ifodalash) shaklda bo'lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj sezilmagan" Dastlabki tinish belgilari yozuv tarkibida semantik va grammatik funksiyalar bajarish uchun qo'llanmas-da, lekin ma'lum darajada jummalarning intonatsion sifatlarini o'zida aks ettirgan. O'z navbatida, tinish belgilarining og'zaki nutqda namoyon bo'lishi, albatta, ohang kabi murakkab prosodik hodisa bilan uzviy bog'liq. Jahon tilshunosligida punktuatsion belgilarining shakllanish tarixi va evolyutsiyasiga nazar tashlanganda, dastlab tinish belgilarining prototiplari sifatida bo'shliq (interval)lar tanlangan. Xususan, "qadimgi yunonlar antik davrda so'zlarni bo'shliqlar bilan ajratib, jummalarning boshini katta harf bilan yozishni qo'llaganlar". Tinish belgilari oraliq masofani ifodalashdan tashqari, oddiy belgilar, shuningdek, ba'zi tipografik belgilarni anglash, o'qish va tushunish, kerakli o'rinlarda sukut qilish hamda ovoz chiqarib o'qish kabi so'zlardagi turli aksentema va melodikalar bilan uyg'unlashgan. [3,5,8]

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq. Ularning aksariyati 19- asr 2yarmida ayrim gaz. va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan. [3,10,12]

Tinish belgilarining qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi Qo'llanish usuliga ko'ra tinish belgilari quyidagicha guruhlanadi: Yakka holda qo'llanuvchilar. Bunga faqat ikki nuqta kiradi.

Yakka va qo'sh holda qo'llanuvchilar. Bu tinish belgilari yakka holda (alohida-alohida, mustaqil) qo'llanishi bilan birga, qo'sh holatda ham qo'llana oladi. Tinish belgilari qo'sh qo'llanganda ikki va undan ortiq tinish belgisi bir o'rinda ketma-ket (birgalikda) ishlatiladi. Bular qo'sh qo'llanganda:

a) o'z shaklini to'liq saqlaydi (so'roq+undov tipida: ?! );

b) o'z shaklini o'zgartiradi (qo'shtirnoq va qavs kabi);

d) bir tinish belgisi ikkinchisining hisobiga qisqaradi (vergul va ko'p nuqta qo'sh qo'llanganda, vergul qisqaradi);

g) bir belgining o'zi (mas., undov belgisi) takrorlanadi.

Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi.

Tinish belgilari tuzilish jihatidan ikkiga ajraladi:

Bir elementli tinish belgilari: vergul, nuqta, tire.

Ko'p elementli tinish belgilari:

a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nuqta, nuqtali vergul, so'roq, undov va qavs;

b) uch elementli tinish belgilari: ko'p nuqta;

d) to'rt elementli tinish belgilari: qo'shtirnoq.

Buni o'z mohiyatiga ko'ra "juft elementli" yoki "qo'sh elementli" tinish belgisi deb ham yuritish mumkin. Bir elementli tinish belgilari tarkibi jihatidan qismlarga ajralmaydi. Ular shartli bir belgidan (bir grafik shakldan) iborat bo'ladi. Ularni o'z mohiyatiga ko'ra sodda tinish belgilari

deb yuritiladi. Ko'p elementli tinish belgilari birdan ortiq tinish belgilarining birikuvidan tashkil topadi. Bularni qo'shma yoki tarkibli tinish belgilari deyiladi.

Ko'p elementli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq shartli belgidan (shakldan) tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta nuqtaning vertikal usuldagi kombinatsiyasi asosida (ikkita nuqtaning birikuvi zaminida) vujudga kelgan, ya'ni [;]; ko'p nuqta nuqtaning gorizontaal usuldagi kombinatsiyasi asosida (uchta nuqtaning birikuvi zaminida) paydo bo'lgan, ya'ni [...]; nuqtali vergul nuqta va vergulning qo'shiluvi asosida tug'ilgan, ya'ni [;]. Bunda vergul va nuqta ustma-ust qo'yilgan. Qavs ham ikki elementdan iborat bo'lib, uning birinchisi "ochiluvchi qavs", ikkinchisi "yopiluvchi qavs" deb yuritiladi. "Yopiluvchi qavs" ba'zan "yarim qavs" ham deyiladi va numerativlarni bildiruvchi raqam hamda harflardan so'ng qo'llanadi. So'roq, undov va qo'shtirnoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. So'roq belgisi ham, undov belgisi ham ikki elementdan iborat. Ma'lumki, "undov belgisi lotincha lo - undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan"

Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra tasnifi. Tinish belgilari, o'z vazifasiga ko'ra, uch guruhga bo'linadi: Chegaralovchi tinish belgilari. Bular yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o'rinish doirasini ko'rsatadi. Bunga qo'shtirnoq, qavs (qo'sh qavs) kabi tinish belgilari kiradi.

Ayiruvchi tinish belgilari. Bular yozma matnlarni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: bunday ajratish logik-grammatik jihatdan bo'ladi. Bularga nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul kiradi.

Murakkab vazifali tinish belgilari. Bular yozma matn qismlarini o'rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba'zan ham birlashtirish vazifalarini bajaradi.

a) "ajratish + birlashtirish" vazifasini bajaruvchilar (ikki nuqta);

b) "ajratish + chegaralash + birlashtirish" vazifasini bajaruvchilar (vergul, tire);

d) fikrning bo'linishi, qisqarishni va turli emotsiyalarni bildiruvchilar (ko'p nuqta). "O'zbek tili va adabiyoti" jumalida tilshunos olimlar prof. N.Mahmudov, katta ilmiy xodimlar A.Madvaliyev, N.Mahkamov tomonidan chiqarilgan "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" da tinish belgilari 2 turga ajratilgan holda yoritiladi: Tinish belgilarining gap oxirida qo'llanilishi bo'limida nuqta, so'roq, undov va ko'p nuqta belgilarining qo'llanish holatlari misollar asosida izohlanadi.

Tinish belgilarining gap ichida qo'llanilishi bo'limida esa vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo'shtirnoq kabi belgilarning ishlatilish holatlariga to'xtalinadi.

### **Xulosa**

Tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, dastlab qo'llangan punktuatsion belgilar so'zlarni va jumalarni bir-biridan ajratish, og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lgan turli aksentema va melodikalarni ifodalash uchun qo'llangan. Ular bugungi kunda tinish belgilari yordamida yuzaga keladigan semantik va grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qilmagan. Mazkur maqolaning yangiligi shundaki, hozirgi o'zbek tilshunosligida tinish belgilari haqidagi umumiy ma'lumotlardan foydalanish uchun bir nechta tilshunoslikka oid kitoblardan izlashimiz yoki internet ma'lumotlarini ko'rib chiqishimiz kerak bo'lar edi. Bu albatta ko'p vaqt talab qiladi. Ushbu maqolada men tinish belgilarini turlarini sanab o'tdim. Bu albatta foydalanuvchi uchun biroz yengillik bo'ladi degan umiddaman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alimuhammedov R. Qadimgi turkiy bitiklarda punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatilgan ishoralar haqida Xorijiy filologiya. 1-son. –Toshkent, 2016
2. Abdurahmonov G., Punktuatsiya o'qitish metodikasi, T., 1968; Nazarov K., O'zbek tili punktuatsiyasi, T., 1976.
3. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi" - Muhammadjon Shakirov, 2010, Yangi asr avlodi nashriyoti, 300 b.
4. "O'zbek tilshunosligi asoslari" - Tohirbek Aminov, 2005, Yosh Gvardiya nashriyoti, 250 b.
5. "O'zbek tilining tarixi va uning mazmuni" - Hamidulla Qosimov, 2012, Sharq nashriyoti, 180 b.
6. "O'zbek tilshunosligi" - Sarvar Rahimov, 2016, Fan va texnologiya nashriyoti, 200 b.
7. "O'zbek tilidagi isti'lobiy savollar" - Rahmonullo Zohidov, 2008, Yosh Gvardiya nashriyoti, 150 b.
8. "O'zbek tili" - Zayniddin Muxammad, 2015, Sharq nashriyoti, 220 b.

### **ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA BADIY TALQIN (Adiba hikoyalarida ota va bola munosabatlarining badiiy talqini)**

Egamberdiyeva Kamola Ibroximovna  
ToshDO'TAU 2-kurs tayanch  
doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining hikoya va romanlari o'zbek adabiyotda yaratilgan asarlar orasida o'zining qiziqarliligi, ta'sirchanligi, hayot haqiqati va insoniy harakterlarni ishonarli gavdalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqilgani bilan ajralib turishi, shuningdek, uning ijod olamiga kirib kelganidan tortib bugingi kungacha bo'lgan ijodiy kamolotini tadrijini tadqiq etish orqali ijodkorning nasriy asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlar, yutuqlar va kamchilik sabablari ko'rsatib berilgan.*

*Z.Qurolboy qizi nasrining muhim xususiyatlaridan yana biri uning chinakam mukammal romanlar yaratish yo'lida ijodiy izlanishlar olib borayotgani hisoblanadi. Uning ko'plab hikoyalari esa go'zal va ta'sirchan nasr yaratishga intilishning eng yaxshi sabablaridan biridan deb baholanishga loyiqdir.*

***Kalit so'zlar:** hikoya, obraz, syujet, Rustam shaxmat, makon, zamon.*

### **ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ИСТОРИЯХ ДОЧЕРИ ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ**

**(Художественная интерпретация отношений отца и сына в рассказах Адибы)**

Эгамбердиева Камола Ибрагимовна

***Аннотация.** Рассказы и романы Зульфии Куролбой кызы относятся к числу произведений узбекской литературы, которые интересны, трогательны, убедительно воплощают реалии жизни и человеческой природы, смело поднимают сложные жизненные вопросы. Тот факт, что произведения З.Куролбой кызы поднялись на уровень серьезного события в литературе, определяет актуальность темы данной статьи.*

*Поэтапно изучая творческую зрелость дочери З.Куролбой с момента ее вхождения в творческий мир и до наших дней, сделана попытка показать особенности, успехи и недостатки ее прозаических произведений.*

Еще одна важная черта прозы дочери З.Курулбой – творческий поиск для создания действительно совершенных романов. Многие его рассказы заслуживают того, чтобы считаться одной из лучших причин стремиться к красивой и трогательной прозе.

**Ключевые слова:** повесть, образ, сюжет, Рустам, шахмат, пространство, время.

## ARTISTIC INTERPRETATION IN THE STORIES OF ZULFIYA KUROLBOY'S DAUGHTER

(Artistic interpretation of father-son relationship in Adiba's stories)

**Annotation.** *Zulfiya Kurolboy qizi's stories and novels are among the works of Uzbek literature that are interesting, touching, convincingly embody the realities of life and human nature, and boldly raise complex issues of life. The fact that the works of Z.Kurolboy qizi have risen to the level of a serious event in the literature determines the relevance of the topic of this article.*

*By gradually studying the creative maturity of Z.Kurolboy's daughter from the moment she entered the world of creativity to the present day, an attempt was made to show the peculiarities, successes and shortcomings of her prose works.*

*Another important feature of Z.Kurolboy's daughter's prose is that she is doing creative research to create truly perfect novels. Many of his stories deserve to be considered one of the best reasons to strive for beautiful and moving prose.*

**Keywords:** story, image, plot, Rustam, shaxmat, space, time.

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki odamlar bir-birlari bilan mudom aloqada, bir-birlariga ehtiyoj sezib yashaydi. Shunisi ham borki, bu aloqa doimo u yoki bu tarafning manfatlari ustunligiga zamin hozirlaydi. Boshqacha qilib aytganda, insoniyat o'zi ehtiyoj sezayotgan hamrohi bilan doimiy ziddiyatlar hamrohligidagi murosas yo'lini tutadi. Bunga asosiy sabab esa kishilar dunyoqarashidagi turlichaliklardir. Bu, ayniqsa, avlodlar almashinuvida yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, har bir avlod hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydi.

Ma'lumki, kishilararo munosabatlarda aloqaga kirishayotgan tomonlar bir-birlariga qanchalik yaqin bo'lishsa, ayniqsa qondosh bo'lsa, yaqinlik yoki ziddiyat shunchalik chuqur ildizga ega bo'ladi. Yaqin qarindoshlikda esa er-xotinlik hamda ota-bola munosabatlarichalik mustahkami bo'lishi mumkin emas. Er va xotin – bir olmaning ikki pallasi, yoki bir butunning ikki tomoni. Ular bir-birlarini mudom to'ldirib, bir-birlaridan kuch olib yashashadi. Balki shuning uchunmi, hayotda o'z juftini to'g'ri tanlay olgan kishilar dunyodagi eng baxtiyor odamlarga aylanishadi. Ammo ota va bola munosabatlarida bu gapni aytish qiyin. Garchand farzand otaning davomchisi, ota qonidan bino bo'lgan bo'lsa-da, bunga asosiy sabab qilib ota va o'g'ilning turli avlod vakillari ekanligi, insoniyat tamadduni avlodlar almashinuvi davomida muayyan o'zgarishlarga uchrab borishini ko'rsatish mumkin. O'zbek adabiyotida otalar va bolalar muammosini maxsus tadqiq qilgan Foziljon Kiyikbaev ajdodlar va avlodlar ziddiyatining kelib chiqishi, qay yo'sin yoki qay darajada namoyon bo'lishini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) ijtimoiy-siyosiy tuzum;
- 2) iqtisodiy-madaniy turmush tarzi;
- 3) mafkuraviy-axloqiy qarashlar;

4) ruhiy-ma'naviy holat<sup>19</sup>.

Bu tasnifni yanada to'ldirib, kengaytirish ham mumkin, biroq u shu holida ham ko'p narsani oydinlashtiradi. Binobarin, "o'g'ilning otaga isyoni adabiyotning eng qadim mavzusi va dunyoning eng ko'hna muammolaridandir"<sup>20</sup>.

"Ey yer, tutg'il. Qobilni ashuqing'a tegi tutdi. Qobil qo'rqdi, aydi: "Ey ota, rahm qilg'il". Aydi (Odam ota – K.I): "Sen qarindoshingga rahm qilmading, man senga netak rahm qilayin"<sup>21</sup>.

Darhaqiqat, ota va bola ziddiyati hazrati Odam otaning noqobil farzandi Qobil o'zi jigari Hobilga tosh otgan vaqtdan beri odam farzandlariga yo'ldosh. Dastlabki qotillikka hasad, nafs, kibr, baxillik, manfaatparastlik, xiyonat sabab bo'lgan bo'lsa, vaqtlar o'tgani sari bunga sabab bo'ladigan omillar ortsa ortdiki, aslo kamaymadi. Kishilik jamiyatidagi ijtimoiy muhit ob-havosiga mos ravishda sabablar ham muttasil yangilanib bordi. Zero, "inson tabiatan olijanob-razil, omadli-omadsiz, baxtli-baxtsiz bo'lishi faqat uning o'ziga bog'liq emas, balki u yashagan, faoliyat ko'rsatgan, unga ta'sir qilgan sharoit va ijtimoiy muhitga bog'liq"<sup>22</sup>.

Diniy manbalarda ham, folklor asarlarida ham bu ziddiyat u yoki bu ko'rinishda o'z aksini asrlar davomida topa bordi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ota va o'g'ilning yetuk obrazlari yaratilib, liro-epik asarlar, xususan, hazrat Alisher Navoiy "Xamsa"sining aksariyat dostonlarida bu muammoga alohida e'tibor qaratilgan.

Ijtimoiy-siyosiy silsilalar hosilasi o'laroq yangilangan XX asr o'zbek adabiyotida bu muammo adabiyotning bosh mavzulari qatoriga qo'shildi. Badiiy adabiyotning har uchala turida, ayniqsa, dramaturgiyada muammoning ildizi ilmsizlikda deb ko'rsatildi. Chunonchi, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon va boshqa adiblar dramalarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Nasrda esa, janrning keng imkoniyatlaridan kelib chiqib, bu muammo yanada chuqurroq ochib berilib, masalaga atroflicha nazar tashlash barobarida ota va bolaning chinakkam badiiy obrazi yaratilishiga muvaffaq bo'lindi.

"Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz"<sup>23</sup>, – deydi "O'tkan kunlar" romanining bir joyida O'zbek oyim eri Yusufbek hojiga qarata. Anglashiladiki, Otabek tarbiyasida onasidan ko'ra otasining ta'siri katta. Otaki – ham jamiyatda, ham oilada tarozining posangisini to'g'ri ushlaydigan uddalay biladigan.

Abdulla Qodiriy Yusufbek hojini, o'zi ko'rishini istagan nuqtada: mulohazali, og'ir bosiq, diniy va dunyoviy bilim egasi tarzida gavdalantiradi. Zero, "hayotni insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, odamning o'zini mukammallashtirishga bo'ysundirib qayta qurish – insoniyatning va adabiyotning qadim orzusidir"<sup>24</sup>.

"Asarda, – deydi akademik Naim Karimov, – Yusufbek hoji keng ko'lamlı siyosiy arbob, oddiy oilaviy munosabatlarda, ota va o'g'il muammolarida ham teran fikr yurituvchi dono oila

<sup>19</sup> Кийикбаев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси, реалистик талқини (1970-2000). Ф.ф.н., илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: 2013.

<sup>20</sup> Кафка Ф. Закон. Новеллы и притчи. – М., Политиздат, 1991. – С. 550.

<sup>21</sup> Rabg'uziy N.B. Qissasi Rabg'uziy. Adabiyot xrestomatiyasi. 44 jildlik. 32-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom NMAK, 2018. – B. 39.

<sup>22</sup> Имомова Г. Миллий характер яратишда бадий нутқнинг ўрни. Ф.ф.н., илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс автореферати. – Тошкент: 1993. – Б. 9.

<sup>23</sup> Қодирий А. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б. 103.

<sup>24</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 68.



boshlig'i sifatida gavdalanadi. Shu ma'noda yozuvchi Yusufbek hojiga Otabekdan ko'ra ko'proq mas'uliyatni yuklaydi, to'g'rirog'i, u asarning bosh qahramoni maqomida turadi"<sup>25</sup>.

Darhaqiqat, Yusufbek hoji tom ma'nodagi ota timsoli. Umuman, muqaddas kitoblarda ota siymosi salohiyati va darajasidan qat'iy nazar e'zozlashga buyurilgan. Bu haqida Qur'oni karimda "Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik" (Qur'oni karim. Ahqof surasi, 15-oyat. Alouddin Mansur tarjimasini), deyiladi. Ammo odam bolasi hom sut emgan banda. Huquqini yaxshi biladi-yu, majbariyatiga kelganda ko'pincha unutib qo'yadi. Bu, ayniqsa, bir-biriga teng bo'lmagan tomonlar, xususan, ota va bola munosabatlarida qabarib ko'rinadi. Hamma otalar ham Yusufbek hoji singari farzandiga do'stona munosabatda bo'lavermaydilar, axir. Bunga ko'pincha, qo'pol qilib aytadigan bo'lsak, otalar dunyoqarashidagi noqislik sabab bo'ladi.

"Ibn Umardan rivoyat qilinadi:

"Alloh ularni otalariga va bolalariga yaxshilik qilganlari uchungina abror (yaxshilar) deb nomlagandir. Xuddi ota-onangning senda haqqi bo'lganidek, bolangning ham senda haqqi bor"<sup>26</sup>.

Afsuski Hadisi sharifda keltirilgan bu rivoyat hamma otalarga ham birday qo'llanma emas. Hatto, diniy bilimga ega kishi bo'lsa ham. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Razzoq so'fi obrazida ana shunday otalarning badiiy umumlashmasini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, uning yolg'iz farzandi ojiza – qiz bola. Shunga qaramay, so'fi xotini va qizining do'ppi tikib topgan nonini yeb kun kechirishdan uyalmaydi. Aksincha, o'z "boquvchilari"ga erlik va otalik maqomidan (garchand har ikkala majburiyatini ham o'rinlatmagan bo'lsa-da) turib zug'im o'tkazadi. Aytishimiz mumkinki, Razzoq so'fi o'z piri eshinning etagini ko'r-ko'rona ushlagan mutaasib dindor. Aks holda u qizining baxtini qora qilishgacha borib yetmasdi. Razzoq so'fi, garchand sirtiga chiqarmasa-da, qiziga otalarcha mehrl edi. Ammo uning mutaasib tabiati tufayli bu mehrni na xotini, na qizi ko'ra oldi. Bu ham bir ota.

A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" idagi Solih maxdum Razzoq so'fidan farqli ravishda madrasa ko'rgan ilm-ma'rifatli kishi. Ammo ilm ham to'g'ri qo'llanilsagina samarali bo'larkan. Agar so'fining chalamullaligi fojiga zamin hozirlagan bo'lsa, maxdum domlaning ochko'zligi farzandi baxtiga chang soladi. Demak, aytishimiz mumkinki, chinakkam OTA maqomini egallash oson ish emas.

A.Qodiriy hajviy xarakter yaratish orqali Solih maxdum obrazining xarakter mantiqini asoslasi, uning fojiali bolaligini tasvirlash orqali ochko'zligi sababini ko'rsatib berib, ota qanday qilib o'z qizining baxtini qurbon qilishdan ham toymasligi mumkinligini tasvirlaydi. Adiblar bu asarlardagi otalar obrazlari orqali inson bolasining hayot murakkabliklariga yengilishga moyilligini, pirovardida nafs o'zini boshqarishiga yo'l qo'yib berishini ko'rsatadi. Zero, "badiiy ijod protsessi – hayotni o'rganish protsessidir"<sup>27</sup>.

Solih maxdum, garchand, ochko'z bo'lsa-da, ziyoli qatlamga mansub. Bu narsa farzandlar (Anvar va Ra'no) tarbiyasida o'z rolini bajarib bo'lgan. Xo'sh, "ko'zi och ota" o'qimishli bo'lmasa-chi? Unda fojining ikki barobar kattalashishi ehtimolini kutish mumkinmi? Said Ahmadning "Ufq" romanidagi Inoyat oqsoqol yoki Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur" hikoyasidagi Dovul tegirmonchilar singari burnining tagidan narisini ko'ra olmasa-chi? Unda farzandlarning

<sup>25</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 532.

<sup>26</sup> Одоблар ҳазинаси. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Ал-адаб ал-муфрад" китобининг шарҳи. Биринчи жуз. – Тошкент: Нилol-nashr, 2020. – Б. 241.

<sup>27</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 63.

taqdiri nima bo'ladi? Negaki, ota hali bir butunlik degani emas. Uning ikkinchi yarmi – farzand. Alaloqibat, otalarning bolalar taqdirida hal qiluvchi rol o'ynashi hych kimga sir emas. Otaning birgina xatosi farzand taqdirini boshqa o'zanga solib yuborishi tayin. Zero, olmaning tagiga olma tushadi.

“Yozuvchi har konkret tarixiy davr va sharoitning mahsuli bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi”<sup>28</sup>.

Zulfiya Qurolboy qizining “Tafakkur” hikoyasida Ikkinchi jahon urushi yetimi bo'lgan ota – Dovul tegirmonchi obrazi yaratilgan. Tegirmonchi urush paytidagi ocharchilikdan ba'zo'r omon qolib hayotning achchig'ini yetarlicha tortganlardan. Bu esa uning keyingi hayotida och qolmaslik hayotiy maslagiga aylanganligini asoslaydi. Bir amallab kolxozga tegirmonchi bo'lib ishga joylashib, hayotini yo'lga qo'ygan Dovulning tegirmoni och qolmaslik vositasidan, hayotining mazmuni darajasiga ko'tariladi. Biroq, bolaligidagi ochlik dahshati uni hali hamon tinch qo'ymaydi, “hali hamon tushlarida tosh g'ajiydi”<sup>29</sup>. Bu esa obraz mohiyatini yanada bo'rttirib ko'rsatadi.

Dovul tegirmonchi sharoit taqazosiga ko'ra (urush tufayli) ota tarbiyasidan mosuvo bo'lib o'sgan. Buning ustiga, na diniy bilimga, na dunyoviy bilimga ega. Qisqasi – johil odam. Netongki, ana shu johil otaning katta o'g'li iqtidor egasi bo'lib chiqdi. Mohir shaxmatchi. Ammo buning ota uchun zarracha ahamiyati yo'q. Dovul tegirmonchi uchun Tangriberdi bolasi halos. Uning hayotiy falsafasiga ko'ra, otalik maqomi o'g'lining taqdirini yolg'iz o'zi hal qilishi huquqini beradi. Hych kimning, hatto o'g'lining ham, bunga etiroz bildirishga haqqi yo'q.

Zulfiya Qurolboy qizi tegirmonchi xarakteridagi bunday xususiyatlarni gavdalandirar ekan o'tgan asrning 70-90-yillaridagi otalarning umumlashma qiyofasini yaratadi. Zero, “obraz – insonning ozmi-ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u – hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davrda va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir”<sup>30</sup>

Adiba tegirmonchining o'tmishini tasvirlash orqali uning xarakter dinamikasini ko'rsatib berish bilan birga tegirmonchi va uning o'g'li fojiasining asl sababini ham ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

“Diyirmonchining bolasi-da, go'r bo'larmidi?!”<sup>31</sup> Bu tegirmonchining o'z o'g'liga, pirovardida o'ziga ham, bergan bahosi. Tegirmonchini tarbiyalagan, u hamon yashab kelayotgan muhit shundan boshqacha fikrlashga imkon bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, tegirmonchi, shoir aytganidek, o'z zamonidan qayga ham yiroq tushsin?! Shuning uchun o'g'liga ham, o'ziga ham zamonasi o'lchovi bilan nazar solardi. Darhaqiqat, tegirmonchilik, garchand zaruriy kasblardan bo'lsada, hych qachon mo'tabar bo'lgan emas.

Ammo tegirmonchining qaysidir ajdodidan yashirin o'tgan gen katta o'g'li Tangriberdida bo'y ko'rsatdi. Taassufki, tegirmonchida buni anglashga farosat yetarli emas. Shuning uchun ham Shovqi muallimning kuyinib aytgan gaplariga “Qishloqdi dunyo tanidi nima, tanimadi nima? Birov kelib qurbaqa bosgan qudug'imga toza suv quyib beraymidi? Yo ulimni musobaqaga yuborganim uchun davlat menga bir so'm beraymidi? Shohmotning ketidan kim boyib ketdi o'zi, a, kim?”<sup>32</sup>, deb javob berishi tabiiy.

<sup>28</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 106.

<sup>29</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий кўшиқ. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – Б. 34.

<sup>30</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 106.

<sup>31</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий кўшиқ. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – Б. 20.

<sup>32</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий кўшиқ. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – Б. 18.

“Ijod jarayonida san'atkorning diqqat markazida turadigan narsalardan biri – insonning shaxs sifatidagi konkret xususiyatlarini, individual belgilarini ko'rsatishdir. Tomchida quyosh aks etganidek, badiiy asarda inson hayotining konkret manzaralari, individual belgilari orqali hayotdan olingan umumlashmalar ifodalanadi”<sup>33</sup>.

XX asr jahon tarixida bo'lganidek, O'rta Osiyo xalqlari tarixida ham esda qolarli voqyealarga boy bo'ldi. Bu asrda kishilar bir och qolsalar, bir to'kin-sochinlikda yashashdi. Bularning hammasi kishilarning ongosti xotirasida muhirlandi. Qozonda bori cho'michga chiqqanidek, ongostidagi xotiralar vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqib turishi ham bor gap. Tegirmonchining xarakteridagi beqarorlikning sababi ham ana shunda. Garchand u o'qimagan, omi bo'lsa-da, o'g'lida o'zi anglamagan qandaydir bir narsalar borligini ota qalbi bilan his etadi.

“Bilaman, Xudo bu bolaning kuch-quvvatini miyasiga bergan. Hademay qo'yni-qo'nji to'lib kelib qoladi”<sup>34</sup>. Ammo rivojlanishdan yiroq, hayot to'xtab qolganga o'xshab ko'rinadigan zerikarli bir qishloq muhitida shakllangan ongi vaziyatga teranroq nazar solishiga imkon bermaydi. Ota o'g'lining iqtidorini yana pul bilan o'lchay boshlaydi. Tangirberdining musobaqadan quruq qo'l bilan, to'g'rirog'i bir varaq “fahriy yorliq” (tegirmonchining nazarida quruq qo'l bilan kelish edi bu) kelganini ko'rgan tegirmonchi jazavaga tushib ketadi.

Tabiiyki, omi tegirmonchi “jazava”sining natijasi ota va bola o'trasida aslida yo'q yaqinlikning yanada yo'qolishiga zamin hozirlaydi. Endilikda, qush uyasida ko'rganini qiladi deganlaridek, bolasining istagi bilan hisoblashmaydigan (aslida bolasida ham istak bo'lishi mumkinligini o'ylamaydigan) otaning farzandi Tangirberdi otasining istagiga qarshi o'laroq undan bекitib musobaqalarga qatnasha boshlaydi. Boshqacharoq aytganda, ekilgan urug'lar bo'y ko'rsata boshlaganidan tegirmonchi g'aflatda qoladi.

“Umumlashma tipik obraz – hayotda bor prototipning fotografiyasi ham emas, yozuvchi shaxsining jo'n bir nusxasi ham emas. Yozuvchi yangi bir asar yozganda hayotiy materiallardan o'z g'oyaviy-badiiy rejasiga mos tushadiganlarini qanday saralab olsa, o'z ichki dunyosida borini ham xuddi shunday saralab oladi. Saralash esa yozuvchi oldida turgan asosiy g'oyaviy maqsadga muvofiq bo'ladi”<sup>35</sup>.

Urushdan keyingi, ayniqsa, turg'unlik yillarida mamlakatimizda aholining aksar qatlami urushdan keyingi xalq xo'jaligini qayta tiklashga jalb qilinib, zamonaviy ilm-fan yangiliklaridan uzoqda qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, kishilar dunyoqarashidagi cheklanganlikka sabab bo'ldi. Yangiliklarni tezda qabul qila olmaslik hayotdagi o'zgarishlarga moslashishning qiyin kechishiga, pirovardida avlodlar o'rtasidagi tafovutning chuqurlashuviga olib keldi. Zulfiya Qurolboy qizi ota va bola obrazlarini yaratishda ana shu ko'zga ko'rinmas ziddiyatni asos qilib oladi. Kasalni yashirsang istmasi oshkor qiladigandek, Tangirberdining yoshi ulg'aya borishi hamda tegirmonchining qariy boshlashi bu ziddiyatdagi tegirmonchining mutloq ustunligini savol ostiga qo'yadi. Shuning uchun ham harbiy hizmatga borib ancha dadillanib kelgan o'g'lini majburlab uylantirish orqali oyog'iga tushov solish, ota uchun masalaga yechim bo'lib ko'rinadi. Ananaga sodiq holda umr savdosi masalasida ham farzandning xohishiga e'tibor qaratilmaydi:

<sup>33</sup> Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўзбекистон. 2002. – Б. 47.

<sup>34</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: О`zbekiston, 2012. – Б. 20.

<sup>35</sup> Адабиёт назарияси 2 том. –Тошкент: Фан. 1979. – Б. 109.

“Qarindosh urug‘danmi, begonadanmi, tuzuvroq qiz top! Uylantirib, bu bolaning oyog‘iga tushov solib qo‘ymasak, qochib ketishdan ham toymaydi. Lekin qiz haddan chiroyli bo‘lsin”<sup>36</sup>. Mana, tegirmonchining oqsoq falsafasi.

“O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytavur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq”<sup>37</sup>, – deydi Yusufbek hoji o‘g‘liga uni ikkinchi marotaba uylantirishdan oldin.

O‘g‘il tomonidan qilingan javob otaning gapidek – dono:

“Aqllik kishilarning o‘g‘illari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas”<sup>38</sup>. Shunday otaning farzandi ham unga mos darajada – xon qiziga loyiq yigit. Uning sevgilisi ham o‘ziga mos. Kumushbibi deyish bilan cheklanmay Oltinbibi deyidigan siyratda.

“Roman voqyeligiga kiritilayotgan har bir personaj goho sezilarli, goho ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas iplar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Ular asarda muallifning badiiy niyati muhim rol o‘ynab, bosh konsepsiyaning amalga oshuviga xizmat qiladi”<sup>39</sup>. Ko‘chirmadagi roman so‘zini badiiy ijodning boshqa janrlari bilan almashtirsak ham mohiyat o‘zgarmaydi. Darhaqiqat, badiiy asarga kirib kelgan har bir personaj o‘z o‘rniga ega bo‘lishi barobarida asarda ko‘tarilgan bosh masalaning oydinlashuviga xizmat qiladi. Tangirberdining istagiga qarshi o‘laroq kelgan yangi kelin haqida ham shu gaplarni aytish mumkin. Kelin – tushgan oilasiga mosgina. Mana, uning turmush o‘rtog‘iga iddao bilan aytgan gapi:

“Ota-enangizning o‘tidan kirib, suvidan chiqsam”<sup>40</sup>.

Er-xotinlik munosabatini shundagina iborat deb biluvchi ayoldan yana nimani ham kutish mumkin. Bu ayol dunyoga yana qaytadan kelgan taqdirda ham na erini tushunishga, na qo‘llab-quvvatlashga qodir. Shuning uchun ham Tangirberdi nogironlik aravasiga mixlanib qolganida, garchand talog‘ini olmagan bo‘lsa-da, yosh bolasini yeb-ichishdan boshqaga yaramay, tuqqan onasini ham tanimaydigan bo‘lib qolgan eriga tashlab boshqaga turmushga chiqib ketaverishi uning tabiatiga xos. Adiba bu o‘rinda erkakning o‘sib-ulg‘ayishida, chinakkam baxt topishida xotinning roli xam ota-onasinikidek muhim ekanligini tasvirlaydi.

Darvoqe, tegirmonchining xotini – Tangirberdining onasi ham eridan oshib fikrlamaydi. To‘g‘ri, u birinchi navbatda – ona. Eri o‘g‘lini o‘lasi qilib kaltaklab yerto‘laga qamab qo‘yganida ham, Tangirberdi nogironlar aravasiga mixlanib tirik-o‘lik holatga tushganida ham, bolasini o‘ylab qattiq iztirob chekadi. Biroq u ona bo‘lib o‘g‘li bilan hamfikir bo‘lishga, o‘g‘lini qo‘llab quvvatlashga, uni bir bor tinglashga, uni tushunishga o‘zida majburiyat sezmaydi. Buvzilol baychani tarbiya qilgan muhit unga bu narsalardan ta‘lim bermagan. Mana, kelinining o‘g‘lidan shikoyat qilib kelgan vaqtidagi qaynonaning javobi:

“Ha, esi yo‘q xotin! Ering ket desa ketaberasanma? Qachondan beri u xotin haydaydigan bo‘lib qopti? Bu uyning kattalari o‘lganma”<sup>41</sup>.

“Yozuvchi qay darajada mohir bo‘lmasin, asar uchun obrazlarni jalb qilishda juda ham erkin harakat qila olmaydi. San'atkor bu ishda doim ikkita mantiqqa asoslanadi. Ulardan biri – hayot mantiqi, ikkinchisi muayyan asardan kuzatilgan badiiy mantiqdir. Yozuvchining mahorati

<sup>36</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012. – Б. 26.

<sup>37</sup> Қодирий А. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б. 104.

<sup>38</sup> Ўша жойда.

<sup>39</sup> Тўлаганова С. Бадий асар морфологияси. – Тошкент: Turon zamin ziyo. 2016. – Б.83.

<sup>40</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012. – Б. 38.

<sup>41</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012. – Б. 45.

uning mana shu mantiqqa mukammal amal qila bilishida ko'zga tashlanadi. Bu ikki mantiqda chekinishlar asarning mukammal chiqishiga zarar yetkazadi"<sup>42</sup>.

Ko'rinib turganidek, Buvzilol baychanning keliniga "o'g'limning ko'nglini ololmasang qanday xotin bo'lding" deyishga farosati yetaydi. U uchun ham kelin birinchi navbatda qaynona-qaynotaning xizmatchisi. O'g'lining ikkinchi yarmi emas. Tangirberdiga uylanishi uchun maslahat solinmaganidek, xotini bilan qanday munosabatda bo'lishini ham kattalar belgilab berishi kerak. Tegirmonchi oilasining mantig'i shuni taqazo qiladi. (Tegirmonchi oilasi misolida o'sha paytdagi aksar oilalarning mantig'i ham.) Shunga ko'ra muallif ona obrazini ham shu mantiq asosida yaratadi.

Tangri taolo insonni yaratganida unga dunyo ne'matlari bilan birga fikrlash ne'matini ham ato etgan. Suvni mushtingga solib qancha siqqaning sari barmoqlaring orasidan chiqib ketganidek, zug'um ortgani sari isyon olovlanib boraveradi. Bu ayniqsa, inson ilojsizlik burchagiga qattiq siqilganida yaqqol namoyon bo'ladi. Aslida Tangirberdi u qadar noqobil farzand emas. U ham otasini, o'z tarbiyasi o'laroq, hurmat qiladi, o'zining o'g'illik itoatkorligi bilan bo'yin egadi. Ammo otasining o'z bilganida o'jarlik bilan turib olishi hamda o'g'lining istaklariga zarracha e'tibor qaratmasligi uni chegaradan chiqishiga majbur qiladi. Tangirberdining navbatdagi musobaqaga borishiga otasining har doimgiday qat'iy qarshiligi uni mehvaridan chiqarib yuboradi.

"Boraman, baribir boraman! – deb baqirib yubordi Tangirberdi jazavaga tushib. – pul bermasangiz bermang, o'zim topaman. Lekin bilib qo'ying, endi butunlay ketaman"<sup>43</sup>.

"Adabiyot badiiy obrazlarning murakkab sistemasi orqali inson tuyg'ulari, ehtirosi, psixologiyasi va ongining jamiyat, davlat, tarix va tabiat bilan bog'liqlik darajasini ochib beradi. Adabiyot insonni tasvirlash orqali real voqeyelikni gavdalantiradi"<sup>44</sup>.

Endi Tangirberdi uchun otasining rozi yoki noroziligining farqi yo'q. Pichoq suyakka borib taqalgan. Ammo jamoa xo'jaligidan oladigan maoshini oyma-oy otasi olib turganidan yonida sariq chaqasi ham yo'q bo'lganligi uchun duch kelgan yerdan, hatto "o'tgan yili falon pulga olgan taxtalarini"<sup>45</sup> o'z uyidan o'g'rilab sotib bo'lsa-da, pul topish ilinjiga tushib qolgan yigit o'z xatti-harakatlarini boshqara olmaydigan holatga kelib qolganini o'zi ham sezmay qoladi. Vaziyat shu darajaga yetib keladiki, qariyb bir yildan beri ishlab yurgani – jamoa xo'jaligi idorasidagi o'zi guvohi bo'lgan nohaqliklarni oilasidagi muammolar bilan chalkashtirib yuboradi. Bu voqyealarga xuddi rais buva aybdorday qaray boshlab, undan pul so'rab boradi. So'raganida ham jo'n emas, dag'dag'a bilan "bermasangiz ustingizdan raykomga ustingizdan arz qilib qing'ir ishlaringizni yozib beraman" deb bosim o'tkazishga harakat qiladi.

To'g'ri, Tangirberdining shuuridan oniy lahzalarda "nega Eshboevga yopishib qoldim... o'tqazib qo'ygan joyim bormi... cho'ntagida pul bo'lsayam istasa beradi, istamasa yo'q"<sup>46</sup>, degan sog'lom fikr yarq o'tadi. Ammo jahl kelsa aql ketadigandek, uni yana jazavaga tushgan jahli boshqara boshlaydi. O'zini bosa olmay qolgan Tangirberdi hammasiga rais sababchidek "Eshboevni yakson qilishim kerak"<sup>47</sup>, degan fikrda uning ustidan dumaloq xat yoza boshlaydi.

<sup>42</sup> Адабиёт назарияси, 1-том. – Тошкент: Фан. 1978. – Б. 285-286.

<sup>43</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O`zbekiston, 2012. – Б. 40.

<sup>44</sup> Адабиёт назарияси. 1 том. – Т.: Фан. 1978. – Б. 153.

<sup>45</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O`zbekiston, 2012. – Б. 41.

<sup>46</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: O`zbekiston, 2012. – Б. 44.

<sup>47</sup> Ўша жойда.

Ammo kelin bo'lib tushganiga bir yil bo'lgan "farosatsiz" kelinning erining kayfiyatini bir qarashda anglab ololmasdan o'zicha fol ochib "men o'z oyog'im bilan kelmaganman yo'ldan qo'shilib, izzatimni qilib olib kelmabmidingizlar, endi bezzat bo'lib qoldimma"<sup>48</sup>, deb o'rinsiz ming'irlashi ishning beliga tepadi. Xullas, kelin arazlab otasining uyiga ketib qoladi.

Guvohi bo'lganimizdek, bu oilada voqyelikni har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi. Birov-birovni tushunish, tirgak bo'lish degan tasavvur umuman yo'q. Kelini ketib qolganidan xabar topgan ota-ona o'g'lini o'rta olib baqir-chaqir qilib, dag'dag'a bilash mushtini do'laytirib xotinini olib kelishini tayinlashadi. Ammo "nima bo'ldi o'zi" deb so'rash, "mehrionlari"ning birontasining ham xayoliga kelmaydi. Ota-ona o'g'lini shu kelinga uylantirishgan. Tangirberdi u bilan axil yashashga majbur. To'g'ri, oila muqaddas dargoh. Uni parchalash hych qaysi zamonda ham yaxshilik sanalmaydi. Biroq oila majburiyat ostida yashaydigan joy ham emas-da.

Oqibat shu bo'ldiki, Tangirberdi arazlab otasining ketib qolgan xotinini olib kelishga borib qaytayotganida ikkita barzangining "hujum"iga uchrab, fojiaga yo'liqadi. o'lasini qilib kaltaklangan yigitning sog' joyi qolmagan, umurtqa pog'onasi uch joyidan singan, bosh miya qattiq chayqalishidan oylab o'ziga kelmadi. Va nihoyat to'rtinchi operatsiyadan keyin ko'zini ochgan Tangirberdi tirik-o'lik holatiga tushib qolgani ma'lum bo'ladi. U endilikda hych kimni, hatto oq sut bergan onasini ham, o'z ismini ham eslay olmaydi.

"San'atkor oddiy kishilardan shu bilan ham farq etadiki, uning asarlarida hayot hodisalari, faktlar faqat qayd etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya – yozuvchining, san'atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida – kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug'orilgan bo'ladi"<sup>49</sup>.

Adiba shu voqyeadan keyingi tegirmonchi va uning xotini xatti-harakatlarini tasvirlar ekan, "balki harbiyga ketganida bu falokatga yo'liqmasmidi"<sup>50</sup>, deb o'g'lining nogiron bo'lib qolganidan qattiq kuyingan otaning holatini gavdalantiradi. Endilikda tegirmonchi o'g'li uchun hamma narsaga tayyor ota sifatida namoyon bo'ladi. U hatto "tirgavuchga shaxmat taxtasini osib, o'g'lining karavoti yoniga qo'yadi"<sup>51</sup>. Qaniydi buning zig'ircha foydasi bo'lsa. O'z vaqtida ko'rsatilmagan e'tiborning, mehrionchilikning foydasi bo'lmaganidek, bu "marhamatlar"ning o'g'li uchun endi ahamiyati yo'q.

So'z – qudratli qurol. Uni ishlatishda ehtiyot bilan mulohaza yuritish lozim bo'ladi. Yana shunday gap ham borki, yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar omin deydi. Muallif Dovul tegirmonchining – "sen, bola, baribir, go'r ham bo'lmaysan-ov"<sup>52</sup>. – , deb aytgan gapining oqibatda fojiali tarzda yuzaga chiqqanini tasvirlar ekan, faqatgina ota-ona emas farzand ham ota-ona uchun omonat ekanligini ta'kidlaydi, go'yo.

Hikoya sarlavhasi "Tafakkur" deb nomlangan. Adiba hikoya oxirida tirik-o'lik holatga tushib qolgan Tangirberdining xotirasi o'ziga qaytishi, qaytganda ham shaxmat taxtasidagi murakkab yurishlar fonida tasvirlab, inson tafakkurining qudrati har narsaga qodirligini urg'ulaydi. Mazkur faslda ota va bola munosabatlarining badiiy talqini masalasiga e'tiborni qaratganimiz vajidan bu tarafga aytarli urg'u bermadik. Bundan tashqari, hikoyada bir qancha

<sup>48</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: О`zbekiston, 2012. – Б. 45.

<sup>49</sup> Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Фафур Фулом. 2010. – Б. 14.

<sup>50</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: О`zbekiston, 2012. – Б. 61.

<sup>51</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: О`zbekiston, 2012. – Б. 61.

<sup>52</sup> Қуролбой қизи З. Тафаккур // Қадимий қўшиқ. – Тошкент: О`zbekiston, 2012. – Б. 17.

kamchiliklar ham uchraydi. Chunonchi, muallif hikoya avvalida o'quvchilarni voqyealar ro'y beradigan qishloq bilan tanishtirar ekan "qishloq odamlarining tili qarluq lahjasida edi"<sup>53</sup>

, deydi, ularni xuddi shu joyning o'zida "sof jo'qchilar" deb ta'riflaydi. Hyech kimga sir emaski o'zbek tilining faqatgina "qipchoq" lahjasidagilargina "jo'qchi"lar hisoblanadi. Buning ustiga hikoyadagi personajlar nutqida ham bu narsa yaqqol ko'ringan. Hamma personajlar qipchoq lahjasida gapiradi. Nima uchun adiba ularning shevasini "qarluq lahjasida" deb yozadi. Bunisini tushunmadik.

Umuman olganda, shu va boshqa kamchiliklariga qaramasdan Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur" hikoyasida ota va bola obrazlarining yangicha talqinini ko'rishimiz mumkin. Adiba bu obrazlar orqali kishilararo munosabatlarning mohir kuzatuvchisi ekanligini isbotlagan, deya olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kiyikbaev F. O'zbek nasrida otalar va bolalar muammosi: genezisi, realistik talqini (1970-2000). F.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2013.
2. Kafka F. Zakon. Novellы i pritchi. – M., Politizdat, 1991. – S. 550.
3. Rabg'uziy N.B. Qissasi Rabg'uziy. Adabiyot xrestomatiyasi. 44 jildlik. 32-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom NMAK, 2018. – B. 39.
4. Imomova G. Milliy xarakter yaratishda badiiy nutqning o'rni. F.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss avtoreferati. – Toshkent: 1993. – B. 9.
5. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 103.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 1980. – B. 68.
7. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 532.
8. Odoblar hazinasi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Al-adab al-mufrad" kitobining sharhi. Birinchi juz. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020. – B. 241
9. Qurolboy qizi Z. Tafakkur // Qadimiy qo'shiq. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B. 34.
10. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston. 2002. – B. 47.
11. Adabiyot nazariyasi 2 tom. –Toshkent: Fan. 1979. – B. 109.
12. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 104.
13. To'laganova S. Badiiy asar morfologiyasi. – Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016. – B.83.
14. Adabiyot nazariyasi, 1-tom. – Toshkent: Fan. 1978. – B. 285-286.

<sup>53</sup> Qurolboy qizi Z. Tafakkur // Qadimiy qo'shiq. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B. 12.



## 21 OKTYABR – O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

Mirzoxidova Nozima Ulug'bek qizi

Toshkent texnologiyalar universiteti "Til va talim texnologiyalari" kafedrasida o'qituvchisi

Gmail: [mirzahidovanozima00@gmail.com](mailto:mirzahidovanozima00@gmail.com)

**Annotatsiya.** «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi va o'zbek tili xuquqiy asosga ega bo'ldi. Qonun o'zbek millatining ma'naviyatini, ruhiyatini, qadrini ifodalaydigan muhim omil, ya'ni tilning maqomi xuquqiy mustahkamlandi. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "o'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizning ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi... Til millat boyligi, qadriyati va mulki hisoblanadi".

**Kalit so'zlar:** aloqa va an'analar, meros, millat boyligi, til muhim vosita, til millat bilan bog'lovchi vosita, til bag'rikenglik.

## 21 OKTYABRYA DEN'Y GOSUDARSTVENNOGO YAZYKA – UZBEKSKOGO YAZYKA.

Мирзахидова Нозима Улуғбек қизи

Ташкентский технологический университет

Кафедра "Иностранный язык и технология

образования" преподаватель

Gmail: [mirzahidovanozima00@gmail.com](mailto:mirzahidovanozima00@gmail.com)

**Аннотация.** Был принят Закон «О государственном языке Республики Узбекистан», и узбекский язык получил правовую основу. Закон является важным фактором, отражающим духовность, психику и достоинство узбекской нации, то есть статус языка был законодательно усилен. В своем выступлении по случаю тридцатой годовщины официального статуса узбекского языка Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев сказал, что «узбекский язык стал мощной силой, объединяющей наш народ и мобилизующей наше общество для достижения великих целей ...»

**Ключевые слова:** общение и традиции, наследие, национальное богатство, язык - важный инструмент, язык - средство связи с нацией, язык - толерантность.

## OCTOBER 21, DAY OF THE STATE LANGUAGE – UZBEK LANGUAGE.

Mirzokhidova Nozima Ulug'bek qizi

Teacher of Department of Language and Educational

Technologies of Tashkent University of Technologies

Gmail: [mirzahidovanozima00@gmail.com](mailto:mirzahidovanozima00@gmail.com)

**Abstract.** The Law "On the State Language of the Republic of Uzbekistan" was adopted and the Uzbek language gained a legal basis. The law is an important factor that reflects the spirituality, psyche and dignity of the Uzbek nation, that is, the status of the language has been legally strengthened. In his speech on the occasion of the thirtieth anniversary of the official status of the Uzbek language, President of



*the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev said that "the Uzbek language has emerged as a powerful force uniting our people and mobilizing our society for great goals ...*

**Keywords:** *communication and traditions, heritage, national wealth, language is an important tool, language is a means of connecting with the nation, language is tolerance.*

Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas  
tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib  
hurmat va ehtrom ko'rsatish barchamizning  
vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev

### **Kirish**

1989 yil oktyabr oyining 21 va 31 sanalarida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasida mamlakatimizning ma'naviy va iqtisodiy tomondan mustaqilligini amalda ta'minlovchi o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Va shu kundan e'tiboran o'zbek tili qonun darajasida huquqiy asosga ega bo'ldi. Ushbu Qonun bilan o'zbek millatining manaviyatini, ruhiyatini, qadrini ifodalaydigan muhim omil, ya'ni tilning maqomi huquqiy mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi qonunga yuksak baho berarkan: «O'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi...

Bu qonun xalqimizning o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi azmu qarorining yorqin namoyoni bo'ldi» dedi.

### **Natijalar va mulohaza**

Til millat boyligi, qadriyati va mulki hisoblanadi. Har bir o'zini hurmat qiladigan xalq, elat o'z ona tiliga ega. Zero ona tilidagina xalqning milliy madaniyati to'la aks etadi. Shuningdek, til iqtisodiy rivojlanishda, taraqqiyotda va farovonlikda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til – millatdan ajralmas eng muhim vositadir.

O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasi aholisining ko'pchiligini tashkil etuvchi o'zbek xalqining ona tilidir. Ona tili millat jipsligining muhim omili hisoblanadi. O'zbek xalqining madaniyatini ifoda etadi. Shunday ekan, o'zbek tilining davlat tili maqomidek salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish nafaqat hukumatimizning, shuningdek xalqimizning muhim vazifasidir.

O'zbek tili turli elatlar orasida faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Rasmiy uchrashuvlar va muzokaralarning o'zbek tilida o'tkazilishi, O'zbekistonda ko'plab nufuzli universitetlarning barpo etilishi hamda xorijdagi ta'lim muassasalarida o'zbek tili markazlari tashkil etilishi, o'zbek tilini o'rganishga qiziquvchilarni ko'paytirmoqda.

Til bu millatni millat bilan bog'lovchi eng muhim, asosiy vositadir. Tilni bilish jahonni bilish bilan barobardir. Boshqa millat vakillarining tilini bilgan insonlar nafaqat yana bir muloqot vositasiga ega bo'ladilar, balki boshqa bir millatning madaniy-ma'naviy boylıklaridan bahra olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Eng muhimi, til bilish muloqotni kuchaytiradi, iqtisodiy

rivojlanishga, farovonlikka asos yaratadi. Buni har bir millat vakili bilib, unga amal qilsa, foydadan holi bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida yana shunday dedi: «O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli, hozirda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda. Toshkent shahri va joylarda faoliyat ko'rsatayotgan 140 ga yaqin milliy madaniy markaz ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib etishsin...»

2019 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmoniga imzo chekdi

Ushbu Farmonga ko'ra, o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida: 21 oktyabr sanasini «O'zbek tili bayrami kuni» deb elon qilindi; Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi hamda ushbu Departament oldiga muhim vazifalar yuklatildi.

O'zbekiston Prezidentining ushbu Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ushbu vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ydi: «O'zbek tili bayrami kuni»ni belgilash bo'yicha qonun loyihasini; «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish; xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish bo'yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish to'g'risida qaror qabul qilish; 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritish: mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarda, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish; davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish; mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish; davlat tilining xalqaro miqyosdagi

o'zni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish kabi vazifalarni bajarishga kirishdi...

Tilimizga davlat tili maqomi berilganiga mana 34 yil to'lyapti. Demak, o'tgan yillar mobaynida qonun ijrosini ta'minlash, uni hayotga tadbiiq etish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun, biz ham ushbu maqolada o'zbek tilining, shuningdek davlatimizning nufuzini, obro'-e'tiborini oshirishga qaratilgan ayrim mulohazalarimizni bildirishni joiz deb bildik.

Respublikamizda yashayotgan turli millat vakillarining o'zbek tiliga bo'lgan hurmatini bolalar bog'chasi dan boshlash kerak, deb hisoblaymiz.

«Shu yurtda yashayapsanmi, shu elning non-tuzidan bahramand bo'lyapsanmi, uning tilini ham bilishing shart», degan tushunchani bolalarning ongiga go'dakligidan boshlab singdirishga harakat qilish joiz.

Alohida takidlash kerakki, respublikamizda boshqa millat va elat vakillariga o'zbek tilini o'rganishlari uchun hukumatimiz tomonidan yetarlicha mablag'lar sarflanyapti, qulay shart-sharoitlar yaratib berilyapti, masalan, barcha ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatish kurslari bepul tashkil etilgan. Bu masalaga jiddiy qaragan, qalbdan masuliyatni his qilgan ayrim millat vakillari o'zbek tilini o'rganib, avvalo mehnat faoliyatida o'zbek tilida ish yuritib, shuningdek o'zaro kundalik muomalada o'zbek tilida muloqot qilib, o'zlarining o'zbek xalqiga bo'lgan hurmat-e'tiborlarini namoyon etmoqdalar. Bu albatta, quvonarli hol.

Yurtimizda yashovchi turli millat vakillariga ona tilimizni o'rgatishda aslo shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu borada majburlash mumkin emas, ortiqcha ehtirolarga, shaxsiyatlariga ozor berish hollariga aslo o'rin bo'lmasligi lozim. Ularga o'zbek tilini o'rgatish har tomonlama o'ylangan reja asosida, ixtiyoriy ravishda, tilni o'rganish foydadan holi emasligini tushuntirgan holda, turli, sifatli o'quv vositalarini qo'llagan holda yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz ilgari surayotgan takliflardan yana biri shundan iboratki, ma'lum muddat O'zbekistonda ishlash uchun xorijiy davlatlardan kelgan fuqarolarga O'zbekistonda elchi etib tayinlanayotgan kishilarga tegishli tartibda o'zbek tilini yaxshi bilishlari zarurligini shart qilib qo'yish lozim. Ulardan nafaqat o'zbek tilida to'g'ri talaffuzda gapirish, balki har hil hujjatlarni ona tilimizda orfografik va grammatik jihatdan to'g'ri yuritishni bilishlar talab etilish kerak. O'zbekistondan xorijga diplomatik sohada ishlash uchun ketayotgan o'zbek fuqarolari tegishli yurt tilini mukammal bilishlari zarurligi talab etiladi... Bunday tadbirning ikki tomonlama amal qilinishi o'zbek tiliga va Vatanimizga bo'lgan hurmatni chet elliklarga namoyish etishning muhim usullaridan biridir. Bu vazifalar bir kunda yoki bir yilda bajariladigan vazifalar emas. Buning uchun uzoq vaqt talab etiladi.

Zamon talabidan kelib chiqqan holda o'zbek tilini boshqa xalqlar tomonidan o'rganilishi uchun yangi-yangi qirralarini izlab topishimiz, til o'rganishga ehtiyojni oshirish, turli millat vakillarining o'zbek tilini qanday va nima uchun o'rganayotganliklarini bilish maqsadida so'rovlar o'tkazib turish, ilmiy-amaliy konferentsiyalar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davrlarda, turli sabablar bilan O'zbekistondan chiqib ketgan boshqa millat vakillari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida turli soha mutaxassislari ham bor. Ana shularni inobatga

olgan holda, tegishli soha mutaxassislariga asqotadigan lug'atlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tuzilib, nashr etish yo'lga qo'yilsa, juda yaxshi ish qilingan bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: «Ona tilimiz va milliy adabiyotimizni ulug'lash, uning boy xazinasi, tarovati va nafosatini yosh avlodimizga etkazish maqsadida yurtimizda atoqli shoir va adiblarimiz nomlaridagi ijod maktablarini tashkil etdik. Muhammad Rizo Ogahiy, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Halima Xudoyberdieva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarida eng avvalo o'zbek tili va adabiyotini, badiiy ijod sirlarini chuqur o'rganish uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni jahon miqyosida 50 million kishiga yaqinlashib qoldi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgan O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham katta hissa qo'shmoqda.

O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universiteti va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda...

O'ylaymanki, o'zbek tili bayramining mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng nishonlanishi xalqimizning milliy ruhi va g'ururini yuksaltirish bilan birga, davlat tilini hayotimizda to'laqonli joriy etishga xizmat qiladi...»

#### **Xulosa**

Millatidan, elatidan, etnik guruhidan qat'iy nazar, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan, boshqa millatga mansub fuqarolar o'zbek tilini xuddi o'z tillarini sevgandek, unga mehr qo'yib o'rganishlariga erishishimiz lozim. Zero, o'z tiliga va xorijiy tillarni o'rganishga jiddiy e'tibor bergan davlatlar iqtisodiy jihatdan rivojlanib borishi, farovon yashashi bejiz emas. Shuningdek, biz o'zbeklar ham bu borada ularga ibrat ko'rsatishimiz, o'z ona tilimizni mukammal bilishimiz joiz, o'zbek tili jahondagi eng chiroyli tillardan biri ekanligini tashviq qilishimiz, mamalakatimizda yashab mehnat qilayotgan turli millatlar va xorijlik fuqarolarning qalbida o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlarini o'z bilimlarimiz bilan kuchaytirishimiz zarur. Bu borada jonbozlik ko'rsatish esa har bir yurtdoshimizning fuqarolik vazifasiga aylanishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. [Mirziyoyev Sh. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan. – Tashkent: “Uzbekistan”, 2016.]
2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. [Mirziyoyev Sh. The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people. –Tashkent: “Uzbekistan”, 2017.]
3. Mirziyoyev Sh. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. [Mirziyoyev Sh. Selected works. 4 volumes. – Tashkent: “Uzbekistan”, 2019.]



## ONOMASTIK KO'LAM TUSHUNCHASI VA UNDA GODONIMLARNING O'RNI

Sattarova N.O. tadqiqotchi,  
ADPI, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi  
nargizasattarovagmail.com

**Annotatsiya:** Maqola onomastik ko'lam tushunchasi va ularning tarkibidagi mikroko'lamning kichik ko'lamchasi bo'lgan godonimlarning tadbiriq masalasiga bag'ishlangan. Godonimlarning paydo bo'lishi va ularning boshqa onomastik birliklar asosida shakllanishiga oid masalalar ham ko'tarilgan. Shuningdek, bu maqolada godonimlarning xalq genezisi, milliy-madaniy tarixini o'rganishdagi roli haqida mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** urbanonim, godonim, fitonim, onomastik birlik, onomastik ko'lam, leksik-semantik tasnif.

## ПОНЯТИЕ ОНОМАСТИЧЕСКОГО ОБЪЕМА И МЕСТО НАЗВАНИЙ В НЕМ

Саттарова Н.О. Исследователь,  
АДПИ, старший преподаватель кафедры узбекского языка и литературы  
nargizasattarovagmail.com

**Annotatsiya:** В статье рассматривается понятие ономастической сферы и вопрос применения омонимов, которые по своему содержанию представляют собой малый масштаб микроскопа. Также были затронуты вопросы, связанные с возникновением годонимов и их формированием на основе других ономастических единиц. Также в данной статье даются комментарии о роли годонимов в изучении генезиса народа, национальной и культурной истории.

**Ключевые слова:** урбаноним, годоним, фитоним, ономастическая единица, ономастический объем, лексико-семантическая классификация.

## THE CONCEPT OF ONOMASTIC VOLUME AND THE PLACE OF NAMES IN IT

Sattarova N.O. Researcher,  
ADPI, senior teacher of the department of Uzbek language and literature  
nargizasattarovagmail.com

**Annotation:** The article discusses the concept of the onomastic sphere and the issue of using homonyms, which in their content represent a small microscope scale. Issues related to the emergence of godonyms and their formation on the basis of other onomastic units were also raised. This article also provides comments on the role of godonyms in the study of the genesis of a people, national and cultural history.

**Key words:** urbanonym, godonym, phytonym, onomastic unit, onomastic volume, lexico-semantic classification.

### Kirish

O'zbek tilining onomastik ko'lami nihoyatda murakkab va keng hajmli tushuncha hisoblanadi. Tildagi barcha makroko'lam, mikroko'lam va ko'lamchalarga kiruvchi atoqli ot materiallarini sinchiklab o'rganish, ularning nominativ, motivatsion, funksional xususiyatlarini tadqiq qilish o'zbek nomshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday keng ko'lamli tadqiqot onomastika sohasi uchun faqat nazariygina emas, balki amaliy jihatdan ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday ilmiy izlanish natijalari tilimiz lug'at boyligining g'oyat murakkab va serqirraligini namoyish qiladi, tabiiy-jug'rofiy obyektlarni nomlash ishini ilmiy asoslarda olib borishga yaqindan yordam beradi, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati, ma'naviyati hamda tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetish uchun boy material manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot ishining metod va materiallari.** Ma'lum bir tildagi atoqli otlarning barcha mavjud tiplari va hajmini jamlab o'rganish o'sha tildagi atoqli otlar doirasini, ularning onomastik ko'lamini aniqlashga ko'maklashadi. Ushbu muammo onomastikaga oid tadqiqotlarda "onomastik ko'lam" ("onomasticheskoe prostranstvo") deyilgan tushuncha va atama bilan bog'langan holda talqin qilinmoqda[1]. Onomastik nomlarning butun to'plamini belgilash uchun qo'llanadigan onomastik (toponomastik) ko'lam iborasini ilmiy bahsga dastlab V.N.Toporov olib kirgan, keyinchalik A.V.Superanskaya o'z izlanishlarida "onomastik ko'lam", "toponimik ko'lam" atamalaridan foydalangan [2]. "Prostranstvo" so'zi ko'p ma'noli bo'lib, u: 1) falsafada fazo, makon, bo'shliq; 2) oddiy ma'noda: keng sath, maydon, joy, bo'shliq; 3) yer sathidagi katta kenglikni ifodalaydi[3]. Demak, bu atamani onomastik sath, onomastik maydon deb ham olish mumkin. Ammo E.Begmatov onomastika sohasida o'rganiladigan tushunchalar mohiyati: 1) biror-bir tilda atoqli otlarning qanday turlari mavjud; 2) atoqli otlarning nutqiy amaliyotda tarqalish chegarasi; 3) umuman bu tildagi onomastik leksikasining hajmi kabilar tashkil qilinishiga qarab, ushbu ma'nolarni anglatish uchun sath, maydon atamaları torlik qilishini ta'kidlaydi. Shuning uchun "prostranstvo" so'zini "ko'lam" so'zi bilan ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi deb keltiradi. **Bu so'zning ma'nolari unga berilgan izohdan ham anglashiladi. "Ko'lam - biror ish faoliyatning yoyilish, qamrash doirasi, hajmi, miqyosi, rivojlanish, avj olish darajasi"**[4].

A.V.Superanskaya "onomastik ko'lam" tushunchasining to'g'ri va qulayligini toponimik ko'lam misolida quyidagicha ta'riflaydi: "Bu atama nomlar va nomlangan obyektlarning makonda joylashishi, ya'ni ularning bir-biridan alohida holda mavjud bo'lishi va bu ularning yer yuzi, shuningdek, undan tashqarida ekanligini ko'zda tutishi jihatidan ham qulaydir"[5].

Onomastik ko'lamni biror konkret tildagi atoqli otlarning umumiy majmui, yig'indisi tashkil qiladi. A.V.Superanskaya fikricha: "Onomastik ko'lam - bu muayyan xalq tilida real, taxminiy va xayoliy obyektlarni nomlash uchun qo'llanadigan atoqli otlar majmuidir"[6].

Agar biz ana shu ta'rifdan kelib chiqib, o'zbek onomastikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, o'zbek tilining onomastik ko'lamini shu tildagi barcha atoqli ot tiplari, ko'rinishlarining majmui tashkil qiladi. Taniqli nomshunos olim Ernest Begmatov o'zining tadqiqotlarida onomastik ko'lamni mikro (kichik) va makroko'lam (yirik) kabi turlarga bo'ladi. Olim o'zining maqolasida o'zbek onomastikasi superko'lamiga kiruvchi 22 ta makroko'lamni ko'rsatadi [7]. O'zbek onomastikasi makroko'lamiga antroponimiya, zoonimiya, teonimiya, toponimiya, kosmonimiyalar kiradi. Bizning fikrimizcha, makroko'lam tarkibiga kiruvchi birliklar mikroko'lamni tashkil etadi. Toponimiya tarkibiga kiruvchi oykonim, komonim, urbanonim, agroonim, nekronim, terronim, regionim, dromonim, xoronim, drimonim, insulonim kabi birliklar toponimiyaning mikroko'lamini tashkil etadi. Toponimika ham onomastikaning lisoniy birligi bo'lib, u o'z ichiga aniq birliklarni oladi.

**Albatta, onomastik ko'lamlarni belgilashda – asosiy mezon, ya'ni atoqli otning nominativ-vazifaviy xususiyatidan kelib chiqadi, ammo mana shu xususiyat, ehtiyoj konkret**

onomastik birliklarning yaratilishiga asos bo'ladi. Bu birliklar so'z tiplaridan biri – atoqli ot sifatida o'ziga xos lisoniy material, lug'aviy birlikdir. Lug'aviy birlik esa til boyligi, unga mansub hodisadir.

*Urbanonim*larning tarkibiy qismi hisoblanuvchi *godonimlar* shartli ravishda toponimik nomlarning *mikroko'lam* qismiga kiruvchi guruhi hisoblanadi.

Tadqiq ishining materiali Andijon viloyati Andijon shahar *godonimlari* bo'lib, bunda tadqiqot ishi muallifining o'z kuzatishlari jarayonida to'plangan joy (ko'cha, mahalla, qishloq) nomlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalaridan to'plangan toponimikaga doir faktik dalillardir.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan geografik nomlarni o'rganishning turli jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ommalashib bormoqda, chunki ular muayyan hududning etnogenezi va demogenezi muammolarini yoritib beradigan ajralmas manbadir. Ko'cha nomlari har bir shahar va tuman hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular xalq tarixi, madaniyati va an'analari asosi sifatida katta ahamiyatga ega. S.I.Ojegov lug'atida quyidagi ta'rif berilgan: "Toponimika - bu har qanday aholi punkti, mamlakat toponimlari to'plami. Tilshunoslikning *toponimlarni* o'rganuvchi bo'limi".[8] "Shahar toponimiyasining turlaridan biri ko'cha nomlari – *godonimlardir*". "*Godonimlar* lug'at qatlamining eng harakatchan va o'zgaruvchan shakli bo'lib, milliy madaniyat ko'zgusi hisoblanadi, ularda etnomadaniy qadriyatlar, an'analar, mentalitetning o'ziga xosligi va muayyan til jamoasiga xos dunyoqarash xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlar jamlangan bo'ladi. Ular shaharlar tarixini olis ajdodlar nigohi bilan ko'rish imkonini beradi." [9].

Onomastikaga oid ishlarda toponimikaning ichki turlari tasnifiga oid atamalardagi har xillik ushbu masala o'zining uzil-kesil nazariy yechimini topmaganligini ko'rsatadi. *Urbanonim* shahar ichki obyektlarini bildirsa[10], unga oppozitsiyada turuvchi *vikonim* atamasi qishloq hududiga oid ichki obyektlarni ifodalaydi[11].

G.B.Madiev va V.I.Suprunlarning fikriga ko'ra, *vikonimlar urbanonimlardan* farq qilmaydi - faqat nomlar qishloq ichidagi chiziqli obyektlar (Mezenko, Razumov) bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati nomlangan obyektlarning qishloq aholi punktida joylashganligidadir; aks holda, ular bir xil modellar bo'yicha shakllanadi va urbanonimlar kabi bir xil sotsiologik qonuniyatlarni aks ettiradi. Shu bilan birga mualliflar qishloq ko'chalari va maydonlari nomlari uchun *rustikonim* atamasi mantiqiyroq bo'lar edi deb hisoblaydilar[12].

T.V.Shmeleva shaharga oid makon obyektlarini 2 guruhga ajratadi: *hududiy va chiziqli*. Birinchi guruhga *xoronim* atamasi mos keladi; Ikkinchisi uchun, o'z navbatida, yana ikkita atama taklif etiladi: *godonim* - ko'cha, yo'nalish, tor ko'cha, yo'lak, bulvar, sohil kabilar va *agoronim* - maydon nomi. Agar zamonaviy shahardagi barcha mumkin bo'lgan chiziqli obyektlar birinchi atamaning talqiniga kiritilgan bo'lsa, u holda ro'yxatga shahar uzunligidagi *prospekt, boshi berk ko'cha, avtomagistralni* ham qo'shish kerak bo'ladi[13].

Ya.I.Avlaqulov, A.Nizomov (G.Raximova, N.Rasulova hammuallifligida) ishlarida ko'cha va yo'llar nomiga nisbatan *dromonim* atamasi qo'llangan [14]. **Dromonim** - (yunoncha "dramas" - chopish, harakat, yo'l) ko'cha, yo'llar nomini anglatuvchi toponimlar: *Xon yo'li, Buyuk ipak yo'li, Amir Temur ko'chasi* kabi. N.V.Podolskaya esa *dromonim* atamasini "har qanday aloqa yo'li: yer usti, yer osti, suv, havo liniyalariga nisbatan" qo'llaydi[15]. Bundan ko'rinadiki, *godonim* atamasi, bir tomondan, makon nuqtai nazaridan *urbanonim (va vikonim)* bilan, boshqa tomondan

esa kommunikatsiya tarmog'i nuqtai nazaridan *dromonim* bilan giponim-giperonim munosabatiga kirishadi.

Shuni ta'kidlash joizki, agar hozirgi vaqtda godonim ko'pincha urbanonimik makonni o'rganish doirasida ko'rib chiqilsa va urbanonim atamasi godonim atamasining sinonimi sifatida ishlaydi (N.Yu.Zabelin, S.D.Oleynikova, R.V.Razumov), keyin dastlab u shahar va qishloq chiziqli obyektlarini nazarda tutgan.

### **Tahlil va natijalar:**

Zamonaviy onomastika fanida esa godonim ta'rifi bo'yicha bir nechta fikrlar mavjud:

1) N.V.Podolskaya, A.Yu.Asanov, E.N.Bekasova, I.B.Gorlanova, N.Yu.Zabelin, Yu.G. Pushkarevalarning qarashlari bo'yicha godonim - urbanonimning turi; shahardagi barcha obyektning nomi, jumladan, shoh ko'cha, ko'cha, yo'lak, yo'lak, qirg'oq va boshqalarning nomi.

2) S.V. Ganova, T.A. Golikova, L.N. Rabadanova, T.V. Shmelevalar esa godonim - shahardagi chiziqli va nuqta (maydon) narsalarning nomi. Shahar maydonining nomi odatda belgilanishiga qaramay agoronim atamasi (yunoncha agorfi - "maydon, bozor, xalq yig'ilishi") bu so'zning qo'llanilishi ham qulaylik nuqtai nazaridan, ham kvadrat nomlarining leksik-semantik va hosilaviy jihatdan o'xshashligi bilan bog'liq [16].

3) V.A. Bakutov, E.A. Batotsyrenov, N M. Ivanov, S. G. Karimov, E. A. Lukyanova, S. N. Sheudjenlarning godonim haqidagi keng miqyosdagi talqinida - shahar va qishloq tipidagi aholi punktidagi manzil obyektining (ko'cha, mahalla, tor va berk ko'cha, maydon va boshqalar) nomi. Avvalo, bu pozitsiya atamaning paydo bo'lish tarixi va uning etimologiyasi bilan bog'liq: godonim so'zi yunoncha **odos** ko'cha, yo'l + **onoma** nom, ism so'zlaridan kelib chiqqan.

4) R.V. Razumov vikonim atamasiga aniqlik kiritib, uni vikonimiyadan chiqarib tashlagan holda, "toponimning bir turi, har qanday qishloq ichidagi topografik obyektning rasmiy nomi" shuningdek, qishloq savdo obyektlari va fermer xo'jaliklarining nomlari, qishloq ichidagi obyektlarning norasmiy nomlari sifatida belgilashni taklif qiladi [15].

Shunday qilib, vikonim atamasi mahalliy tilshunoslar tomonidan urbanonim emas, balki godonim so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda onomatologlarning eng muhim vazifalaridan biri mavjud onomastik terminologiyani tartibga solishdir.

Bizning fikrimizcha, godonim atamasi manzil obyektining nomi (ko'cha, shoh ko'cha, maydon, xiyobon, boshi berk ko'cha va hokazo) shahar yoki tuman tarkibi tushunilishi kerak. Shuning uchun "shahar godonimi", "qishloq godonimi", iboralarini qo'llash mumkin bo'ladi.

Godonimiya, lingvistikaning boshqa quyi tizimlari kabi, funktsional jihatdan bir-biriga bog'langan elementlardan tashkil topgan, ichki tartibga solingan, ierarxik hodisadir.

Ko'chaning nomi ma'lum darajada odamning nomiga o'xshaydi. U o'z tarixini aytib berishi, bu yerda yashagan odamlarning faoliyati haqida ma'lumot berishi, har bir mamlakat yoki mintaqaga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalashi bilan birga, bu ko'cha qayerga olib borishini ko'rsatishi mumkin. Ko'cha nomlari tarixini o'rganish nafaqat ma'lum bir joy, balki butun shahar, ba'zan esa butun mamlakat taqdiri bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, joy nomlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida bir mamlakatning til tarixi, aholi punktlari tarixi va etnik tuzilishi, joyning geografik xususiyatlari haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bu joy nomlari, tarix, geografiya, folklor kabi ko'plab fan sohalarini o'rganishga hissa qo'shishi mumkin.

Shahar urbanonimik makonining barcha ko'rinishlari va turlari orasida *godonimlar* alohida ajralib turadi. Ko'cha nomlari odamlarning so'zlashuv nutqida paydo bo'ldi. Ko'chaga nom



berishda bir kishi uning barchaga ayon bo'lgan o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsatishi bilan belgilangan. Avvallari, aholisi bir-birini taniydigan, bir yoki ikkita ko'chadan iborat bo'lgan qishloq va mahalla, ko'chani nomlash shart emas edi. Biror bir mulk egasining yoki o'sha mahallaning oqsoqoli ismini aytish kifoya edi va hamma turar-joyning qaysi qismi haqida gapirayotganini bilardi. Shaharlarning yanada o'sishi va rivojlanishi ko'cha nomlarining paydo bo'lishiga va uy xo'jaliklarini raqamlashning joriy etilishiga olib keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E. Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013.
2. Топоров В. Н. Из области теоретической топонимистики // Вопросы языкознания. 962. № 6. С. 3-4;
3. Русча-ўзбекча луғат. Икки жилдди. II жилд. Тошкент, 1984. 264-бет.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдди. II жилд.. М., 1981. 414-бет
5. Теория и методика ономастических исследований. С. 8.
6. Ожегов С.И., Шведова, Н.Ю. Толковый словарь русского яз., Российская академия наук. Институт русского яз.им. В. В. Виноградова. – 4-е изд., М.: Азбуковник, 1999. - 940 .
7. Мезенко А. М. Урбанонимия Белоруссии : автореф. дис. ... д-ра филол. наук / Белорус. гос. ун-т. Минск, 1991. Подольская Н.В.
8. Мезенко А. М. Белорусские виконимы в контексте современной культуры // Русский язык: система и функционирование (к 80-летию проф. П. П. Шубы): материалы Междунар. науч. конф. : в 2 ч. Минск: РИВШ, 2006. Ч. 1. С. 135–138.
9. Мадиева Г.Б., Супрун В.И. Система современной русской урбанонимической терминологии // Вопросы ономастики. 2017. Т. 14. № 2. С. 115–125
10. Шмелева Т. В. Ономастика: учеб. пособие. Славянск-на-Кубани: Издательский центр филиала ФГБОУ ВПО «КубГУ» в г. Славянске-на-Кубани, 2013. – С. 101
11. Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: филол.фан. номз. дисс... автореф. Тошкент, 2012.; Низомов А., Рахимова Г., Расулова Н. Топонимика, Т.: “Нафис безак”, 2013.- Б.6
12. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. – С. 57
13. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: 1976. – 112, 224 с
14. Т. Nafasov. V. Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. –Toshkent., 2007. – В.49.
15. Разумов Р.В. Особенности современных российских систем виконимов (на примере Некоузского, Первомайского, Рыбинского, Тутаевского районов Ярославской области) // Ярославский педагогический вестник. 2013. Т. 1, № 1. С. 145–149
16. Шмелёва Т.В. Современная годонимия: семантика и семиотика // Лингвистическое краеведение: межвуз. сб. науч. тр. Перм, 1991. С. 33–37.

## VIRTUAL MULOQOTNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Isroilova Barchinoy Abdug'appon qizi

Andijon davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida doktoranti,

[ollidamas@mail.ru](mailto:ollidamas@mail.ru) 90 770 62 14

**Annotatsiya:** Katta hajmdagi axborotni saqlash va tezkor uzatish, audio va video aloqa kanallarini o'z ichiga olgan, butun dunyo bo'ylab ko'plab ishtirokchilar bilan bevosita muloqot qilish imkonini beruvchi yangi axborot texnologiyalari bugungi kun haqiqatiga aylandi. Kompyuter nafaqat axborot bilan muloqot qilish xarakterini, balki aloqa jarayoni haqidagi g'oyalarimizni ham butunlay o'zgartirdi. Shu munosabat bilan kompyuter orqali amalga oshiriladigan aloqani aloqaning maxsus turi sifatida ajratish qonuniyatidir. Ushbu turdagi aloqaning lingvistik korrelyatsiyasi kompyuter yoki elektron nutqdir, virtual nutq shakllaridan biri sifatida keng tushuniladi, lekin bu ishda elektron vositalar bilan cheklanadi.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, elektron nutq, kompyuter aloqasi, virtual muloqot, internet muhiti.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИРТУАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Isroilova Barchinoy Abdug'appon qizi

**Аннотация:** Новые информационные технологии, включающие хранение и быструю передачу больших объемов информации, каналы аудио- и видеосвязи, позволяющие осуществлять прямую связь со многими участниками по всему миру, стали сегодняшней реальностью. Компьютер полностью изменил не только природу передачи информации, но и наши представления о процессе общения. В связи с этим правомерно выделить общение, осуществляемое посредством компьютера, как особый вид общения. Лингвистическим коррелятом этого типа общения является компьютерная или электронная речь, широко понимаемая как форма виртуальной речи, но ограниченная в данной работе электронными средствами массовой информации.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, электронная речь, компьютерная коммуникация, виртуальное общение, Интернет-среда.

## LINGUISTIC FEATURES OF VIRTUAL COMMUNICATION

Isroilova Barchinoy Abdug'appon qizi

**Annotation:** New information technologies, including the storage and rapid transmission of large amounts of information, audio and video communication channels, which allow direct communication with many participants around the world, have become today's reality. The computer has completely changed not only the nature of information communication, but also our ideas about the communication process. In this regard, it is legal to distinguish the communication carried out through the computer as a special type of communication. The linguistic correlate of this type of communication is computer or electronic speech, widely understood as a form of virtual speech, but limited in this work to electronic media.

**Key words:** Information technologies, electronic speech, computer communication, virtual communication, Internet environment.

## **Mavzuning dolzarbligi**

Hodisaning yangiligi, kompyuter aloqasi holatining ishlab chiqilmaganligi va uning tuzilishi va lingvistik xususiyatlari haqida nazariy qoidalarning yo'qligi psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar va tilshunoslarning ushbu hodisaga doimiy qiziqishini belgilaydi. Shu bilan birga, ko'plab asarlarda "virtual haqiqat" tushunchasi ilmiy tushunchaga ega emas va unga xos bo'lgan va haqiqiy voqelikda erishib bo'lmaydigan aloqa sharoitlarini hisobga olmagan holda kompyuter yordamida qurilgan sun'iy muhit ma'nosi bilan cheklanadi. Virtual nutqning umumiy xususiyatlariga bag'ishlangan monografiyalarni tahlil qilish hodisani ham, uning tarkibiy qismlarini ham bir butun sifatida ko'rib chiqishda nomuvofiqlikni, uning tuzilishini o'rganishga yaxlit yondashuv yo'qligi aniqlandi. [1] Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, tadqiqotning dolzarbligi kompyuter, internet aloqasini virtual nutqning muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflash zarurati, shuningdek, virtual muloqotning lingvistik xususiyatlarini har tomonlama o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot obyekti** virtual aloqa bo'lib, biz uni kompyuter orqali amalga oshiriladigan subyektlarning kommunikativ o'zaro ta'siri deb tushunamiz, bunda voqelikning maxsus modeli yaratiladi, unda shaxsning mavjudligi ta'siri bilan tavsiflanadi va unga xayoliy va real obyektlar bilan harakat qilish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot predmeti** – Internet-elektron aloqaning tarkibiy qismlari va lingvistik xususiyatlari.

**Tadqiqotning maqsadi** virtual nutqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mahalliy onlayn janrlarning janr xususiyatlarini aniqlash va virtual anjumanning kommunikativ maydonining lingvistik tahlilini o'tkazishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator muammolarni hal qilish kerak edi:

- "virtual muloqot", "virtual muloqot makoni" tushunchalarini aniqlash va ularning matn lingvistikasi tushunchalari tizimidagi o'rnini aniqlash;
- elektron aloqaning kommunikativ jarayonining konseptual apparatini ishlab chiqish;
- yangi kommunikativ muloqotda muallifning virtual shaxsini amalga oshirish xususiyatlarini ko'rib chiqish;
- kompyuter anjumanini elektron nutqning maxsus janri sifatida tavsiflash;
- kompyuter anjumanlari janriga nisbatan virtual muloqotning eng muhim lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqot gipotezasi** zamonaviy madaniyatda nutqning yangi turi - virtual, ya'ni har xil turdagi qismlarni birlashtirgan har xil (mavzu, uslub, kompozitsiya, lingvistik xususiyatlar to'plami bo'yicha) matnlar to'plami paydo bo'lishi haqidagi nutqiy taxmindir: bank, siyosiy, ilmiy, huquqiy, reklama va kundalik - va turli xil ma'lumotlarni birlashtirish (vizual, ovozli, interaktiv). Virtual nutq o'zining asosiy ochiqqligi (matnlar, ma'lumotlar banklari, havolalar) bilan ajralib turadi, bu ishtirokchiga asl matnni qo'shish, o'zgartirish yoki o'chirish imkoniyatini beradi. U o'z xususiyatlariga ko'ra nominatsiyaga muhtoj bo'lgan virtual o'ziga xoslikning maxsus turini shakllantirib, mustaqil nutqiy amaliyotga aylanadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** Internet matnlarini o'rganishga kompleks yondashuvdadir. Birinchi marta virtual kommunikantning lingvistik shaxsini uning tarkibiy qismlarining barcha xilma-xilligida "nutq niqobi" tushunchasi orqali ko'rsatishga harakat qilindi. Virtual nutq doirasidagi matnlarning strukturaviy, semantik va pragmatik parametrlari tavsiflanadi, kompyuter aloqasining asosiy grafik, semantik, sintaktik va matn xususiyatlari aniqlanadi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati** virtual muloqotning konseptual apparatini ishlab chiqishda, shuningdek, matn tilshunosligining kompyuter nutqining o'ziga xos xususiyatlari, uning turlari va janrlari kabi muammolarini ko'rib chiqishdadir. Tildagi virtual nutqning tavsifi ba'zi hodisalarning universalligi tufayli boshqa til materialiga ekstrapolyatsiya qilinishi mumkin.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** uning nazariy qoidalari va amaliy natijalaridan aloqa nazariyasi, umumiy tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot bo'yicha ma'ruza kurslari va seminarlarini ishlab chiqishda, terminologik lug'atlarni yaratishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi, shuningdek Internet muhitida o'zaro ta'sirning samaradorligi belgilaydi.

#### **Asosiy qism.**

Aloqa nazariyasi kontekstida aloqa turlari, an'anaviy va yangi turlarning o'ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlariga tegishli savol hisoblanadi. Muloqot jarayonining tuzilishi haqidagi asosiy qoidalarni bilish, ichki tashkilot va til tarkibiy qismlarining tavsifi o'zaro ta'sir jarayonini tartibga solish va yangi aloqa makonida muloqot qoidalarini shakllantirish bo'yicha oqilona tavsiyalar berishga imkon beradi.

Muloqot va falsafiy ma'noda kommunikatsiya ikki asosiy jihatda farqlanadi. Birinchisi, muloqot ham amaliy (moddiy), ham ma'naviy (axborot), ham amaliy-ma'naviy xususiyatga ega, kommunikatsiya esa sof axborot jarayoni – ma'lum xabarlarini uzatishdir. Ikkinchi munosabat - o'zaro ta'sirga kiruvchi tizimlar orasidagi bog'lanishning o'zi.

Kommunikatsiya - bu subyektning u yoki bu obyekt - odam, hayvon, mashina bilan axborot aloqasi. Bunday hollarda axborotni qabul qiluvchi obyekt bo'lib, u qabul qilishi (sof axborot ma'nosida), to'g'ri dekodlanishi, yaxshi o'zlashtirilishi va shunga muvofiq harakat qilishi kerak. Shuning uchun, bunday qabul qiluvchining odammi yoki texnik qurilmami, farqi yo'q. Kommunikatsiyada bir yo'nalishli jarayon sodir bo'ladi va aloqa nazariyasi qonunlariga ko'ra, jo'natuvchidan qabul qiluvchiga o'tganda axborot miqdori kamayadi. Axborot jo'natuvchisi qabul qiluvchini obyekt emas, balki subyekt sifatida ko'rganda tubdan boshqacha vaziyat yuzaga keladi, chunki bu holda u bu ma'lumotlar individual ravishda noyob va faol bo'lgan tizimga qaratilganligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, sheriklar o'rtasida aylanib yuradigan ma'lumotlar ko'payadi va boyitiladi. Shuning uchun, muloqotda xabarlarini jo'natuvchi va qabul qiluvchi yo'q - umumiy ishda suhbatdoshlar, sheriklar mavjud.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida suhbatdoshlar o'zaro hamkorlikning umumiy rejasini, maqsadlarini, vositalar va operatsiyalarni tanlash bo'yicha umumiy nuqtayi nazarni ishlab chiqadilar. Hamkorlikni tashkil etish faoliyatni amalga oshiruvchilar o'rtasidagi muloqotda amalga oshiriladi. Muloqot "muloqotchilarning o'zaro ta'sirini va ularning o'zaroaktivligini ta'minlaydigan faoliyat" sifatida qaraladi. Ushbu faoliyatning predmeti - bu boshqa kommunikant nutqning passiv qabul qiluvchisi sifatida paydo bo'lgan sharoitda nutq so'zlarini ishlab chiqaruvchi shaxs. U faqat nutq faoliyati uchun shart sifatida ishlaydi.

Psixolingvistikada nutqiy muloqot deganda kommunikantlarning o'zaro ta'siri va aktual (nutq) muloqotini o'z ichiga olgan ijtimoiy o'zaro ta'sir tushuniladi. Kommunikantlar o'rtasidagi muloqot lingvistik va nolingvistik belgilar, faoliyat almashinuvi va mehnat mahsuloti almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Kommunikatsiya deganda muloqotni tartibga soluvchi xabarlar almashinuvi tushuniladi, ya'ni aloqa uni belgilovchi ancha murakkab va ko'p qirrali hodisaning tarkibiy qismlaridan biridir.

Shunday qilib, kommunikatsiyaning o'zi, xabarni uzatish va bunday uzatish usullari, ya'ni matnning lingvistik va nutqiy xususiyatlari "muloqot vazifalari aloqa obyektining xatti-

harakatlarini tartibga solish zarurati bilan belgilanadi. Muloqotning vazifalari esa muloqotda tashkil etiladigan birgalikdagi faoliyat maqsadlari bilan belgilanadi”.

Kommunikativ aktning psixolingvistik modeli, bizningcha, bir qancha kamchiliklarga ega. Birinchidan, psixolingvistikada muloqotga nisbatan ijtimoiy tabaqalashtirilgan nuqtayi nazar mavjud emas. Faoliyat nazariyasining asosiy tamoyillariga asoslanib, psixolingvistika ijtimoiy o'zaro ta'sir va nutq aloqasining psixologik tahlilini amalga oshiradi. Ammo tadqiqot predmetiga "psixikaning ijtimoiy determinatsiyasi" ni kiritish uchun ijtimoiy o'zaro ta'sir elementlariga ijtimoiy talqin berish kerak. Ikkinchidan, bu model kommunikantlarning ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olmasdan qurilgan. Nutqni shakllantirishda kommunikator nutqiy harakatlarni bajarish shartlarini hisobga oladi. Bu operatsiya va harakatlarni bajarish usulini tanlashda namoyon bo'ladi. Nutq muloqotida qabul qiluvchi har doim uning appersepsiya imkoniyatlari va ijtimoiy xususiyatlari hisobga olinadigan sharoitlarga kiradi. Tinglovchining appersepsiyasiga e'tibor qabul qiluvchiga tushunarli bo'lgan matn ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi, ijtimoiy xususiyatlarga e'tibor esa axloqiy cheklovlar bilan muqobil lingvistik vositalarni tanlashda namoyon bo'ladi. Uchinchidan, suhbatdoshga xabarni ishlab chiqarishda qatnashmaydigan passiv qabul qiluvchi sifatida qaraladi.

Kompyuter aloqasi "virtual" so'zini keng qo'llashga olib keldi (virtual o'rta lotincha virtualis - mumkin bo'lgan). Kompyuter terminologiyasida virtual "haqiqatdan ham mavjud bo'lmagan yoki amalga oshirilganidan boshqacha qabul qilinadigan" obyekt sifatida tushuniladi. "Virtual haqiqat" tushunchasi kompyuter, internet vositalari yordamida yaratilgan dunyoni anglatadi. Bu haqiqatan ham mavjud emas, lekin kompyuter insonning vizual, eshitish va boshqa his-tuyg'ulariga ta'sir qilishi mumkin, bu unga bu dunyoga sho'ng'ish xayolotini beradi.

Maxsus ilmiy atama sifatida "virtual haqiqat" bir xil voqelikka tegishli bo'lgan ko'plab har xil (haqiqiy va deyarli mavjud) obyektlarning mavjudligini nazarda tutadi. Virtual darajadagi obyektlar quyi darajadagi obyektlar tomonidan yaratilgan, ammo "hosil bo'lganligidan qat'iy nazar, ular yaratuvchi voqelik obyektlari bilan ontologik jihatdan teng huquqlikda o'zaro ta'sir qiladi". [4]. Yaratuvchi voqelikka nisbatan virtual obyektlar to'plami virtual haqiqatni tashkil qiladi.

Virtual obyektlar "bu yerda va hozir" faqat haqiqatda mavjud; avlod jarayoni tugashi bilan ular yo'qoladi. Virtual haqiqat o'z makoniga va vaqtiga ega, o'z qonunlariga muvofiq ishlaydi va shuning uchun real hayot obyektlaridan mustaqildir.

"Virtual voqelik" atamasi odatda real voqelikdan (harakat qilishdan) farqli o'laroq, mumkin bo'lgan (bo'lishdagi) haqiqat sifatida tushuniladi. Zamonaviy falsafiy lug'at "virtual" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "o'ta sezilmaydigan mohiyatga kiritilgan va amalga oshirishga qodir bo'lgan subbatsiya qilingan, ammo hali namoyon bo'lmagan narsa". Falsafiy ensiklopediyada voqelik shunday talqin qilinadi: "Haqiqatda mavjud bo'lgan narsa, voqelik – mavjud narsadir, u mavjud narsalarning yig'indisidir"[5].

Funksional jihatdan virtual voqelik - bu subyektlar, baholash va reytinglar, deputatlar, axloqiy qadriyatlarni bilish maydoni, qonunlar, normalar va maqomlarning ramziy muhiti.

Shunday qilib, virtuallikning kommunikativ maydoni hamma narsaning va har bir kishining virtual holatga, ya'ni tasavvur qilinadigan, xayoliy tekislikka o'tishiga asoslanadi.

### **Xulosa**

Bizning fikrimizcha, "virtual muloqot" tushunchasi axborot texnologiyalari yordamida qurilgan va real dunyodan yiroq, mavjud bo'lmagan olamga sho'ng'ish illyuziyasini keltirib

chiqaradigan sun'iy muhit ma'nosi bilan cheklanmaydi. Muloqotning yangi turi - kompyuter aloqasining paydo bo'lishi hozirgi voqelikda ba'zi o'ziga xos va erishib bo'lmaydigan aloqa sharoitlari bilan ajralib turadigan maxsus kommunikativ muloqotning shakllanishi haqida gapirishga imkon beradi. "Virtual voqelik adabiy asar muallifi ekspozitsiya yaratishda qo'llagan matnlarga o'xshash matnlar orqali yaratiladi. An'anaviy yozma matndan farqli o'laroq, virtual dunyo bir-biri bilan "haqiqiy" muloqot qiladigan haqiqiy odamlar tomonidan "to'ldirilgan". Elektron hamjamiyat zamonaviy odamning "hayotini" odatdagi muhitda - uyda, maktabda, parkda, do'konda va hokazolarda aks ettiradi. Ushbu kommunikativ muhitda insonning o'zi ma'lumot va bilimlarni yaratadi va lingvistik dizaynda yorqin, tabiatda yorqin bo'lgan noyob hodisani ifodalovchi "matn" tushunchasi sifatida ishlaydi.

Virtual shaxslar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya, asosan matnlar orqali o'rnatiladi. Shu sababli, zamonaviy jamiyatda matn - manba material va ishlab chiqarish mahsuloti sifatida - axborot almashishning universal va yagona vositasi maqomini oladi. Aloqa tarmog'i doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi va axborot oqimlari kesishishi tufayli Internetdagi matnlar bir-biriga bog'lanib, gipermatnlilikka aylanadigan yangi matnlarni hosil qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Антонова Л.Г., Жуленова Е.С. Специфические черты современного электронного эпистолярия // Коммуникативные исследования 2003. Научное издание. Отв. ред. И.А. Стернин. Воронеж: Изд. "Исток", 2003. С.25-31.
2. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Сов. энциклопедия, 1990. С. 136-137.
3. Арутюнова Н.Д. Жанры общения // Человеческий фактор в языке. Коммуникация, модальность, дейксис. — М., 1992. С. 52-102.
4. Елышева А.С., Самигуллина Г.Ю. ОСОБЕННОСТИ ВИРТУАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2010. – № 3. – С. 41-42.
5. <http://netess.ru/3jazykoznanie/12301-1-lingvisticheskie-osobennosti-virtualnogo-kommunikativnogo-prostranstva.php#>



## SINTAKTIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN SO‘ROQ GAPLAR

Ganiyeva Shodiya Azizovna,  
Qo‘qon Davlat pedagogika instituti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada leksik frazeologik birliklardan ba‘zi komponentlari erkin almashishi bilan farq qiluvchi, ammo turg‘unligi va umumiy ko‘chma ma‘no anglatishi bilan o‘xshash bo‘lgan sintaktik frazeologik birliklar haqida fikr yuritiladi. Sintaktik frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, so‘roq gap shaklida keluvchi sintaktik frazeologik modellar misolida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘roq gap, turg‘un birliklar, so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari, ritorik so‘roq gap, sintaktik frazeologik birlik, frazeologik qurilma, yaxlit umumiy mazmun, bo‘lishsiz shakl, o‘tgan zamon fe‘li.

## ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ, ОБРАЗОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ СИНТАКСИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Ганиева Шодия Азизовна

Докторант Коканского государственного педагогического института, доктор философии  
(PhD) по филологическим наукам

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются синтаксические фразеологизмы, которые отличаются от лексических фразеологизмов тем, что некоторые компоненты свободно взаимозаменяемы, но сходны по устойчивости и общему переносному значению. Анализируются специфические особенности синтаксических фразеологизмов на примере синтаксических фразеологических моделей в форме вопросительных предложений.

**Ключевые слова:** вопросительное предложение, устойчивые единицы, вопросительные местоимения, вопросительные частицы, риторическое вопросительное предложение, синтаксическая фразеологическая единица, фразеологическая конструкция, целостное общее содержание, отрицательная форма, глагол прошедшего времени.

## INTERROGATIVE SENTENCES FORMATED ON THE BASIS OF SYNTACTICAL PHRASEOLOGICAL UNITS

Ganieva Shodiya Azizovna

Doctoral student of the Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of Philological Sciences  
(PhD)

**Abstract.** This article deals with syntactic phraseologisms, which differ from lexical phraseologisms by the fact that some components are freely interchangeable, but similar in stability and common figurative meaning. The specific features of syntactic phraseologisms are analyzed on the example of syntactic phraseological models in the form of interrogative sentences.

**Keywords:** interrogative sentence, static units, interrogative pronouns, interrogative predicate, rhetorical interrogative sentence, syntactic phraseological unit, phraseological device, integral general content, indivisible form, past tense verb.

## **Kirish**

Tildagi har bir sathga mansub birliklar umumiy integral belgi asosida birlashadi. Shuningdek, tilning turli sathiga xos birliklar orasida ham umumiy jihatlar koʻzga tashlanadi. Mazkur oʻxshash belgilar ayrim murakkabroq sathga tegishli lisoniy birliklarning noaniq nuqtalarini tadqiqotchiga tanish boʻlgan boshqa birliklarga qiyoslagan holda aniqlash uchun imkon beradi. Lugʻaviy, frazeologik hamda ayrim sintaktik birliklar oʻrtasida ham shunday izomorflik mavjud boʻlib, bu oʻxshashlik mazkur birliklarning mazmuniy tuzilishi bilan birga, ularning nominativ funksiyasida ham yaqqol koʻrinadi.

Sintaktik frazeologik birlikning komponentlari tarkibida doimiy turuvchi aʼzolar boʻlishi bilan birga, ularning erkin komponentlari ham mavjud boʻladi. Ayrim olimlar tomonidan sintaktik frazeologik birliklarning leksik frazeologik birliklardan farqlanuvchi eng muhim belgisi sifatida ularda boʻsh oʻrinlarning mavjudligi bilan birga, shu boʻsh oʻrinlar semantik va grammatik mutanosiblik asosida toʻldirilishi orqali koʻrsatiladi. Umuman olganda, oʻzbek tilshunosligida sintaktik frazeologik birliklar alohida tadqiq obyekt boʻlgani yoʻq. Bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Keyingi yillarda tilshunoslikda sintaktik frazeologik birliklarni tadqiq etishga ham kirishildi. Bu borada tilshunoslarning xilma-xil yondashuvlari maydonga keldi. Lim Su Yon rus tilidagi koʻrsatish olmoshi orqali shakllangan sintaktik frazeologik birliklarni tahlil etgan boʻlsa[4], A.V.Pavlova hamda M.L.Alekseyevalarning nemis va rus tillaridagi sintaktik frazeologik konstruksiyalarni leksikografik asosda tadqiq etdilar[11], S.V.Nepomnyashaya esa murakkab tarzda soʻz birikmalari va frazeologik modellar oʻrtasidagi munosabatni ochib berdi[9], A.P.Ushakova oʻz ishida kinoyaviy mazmun ifodalovchi sintaktik frazeologik birliklarni chuqur tadqiq etdi[12]. Bu borada baʼzi ishlarda sintaktik frazeologik birliklarning amaliy jihatlari ham eʼtiborni tortdi. Masalan, A.V.Velichkoning sintaktik frazeologik birliklar bilan bogʻliq oʻquv qoʻllanmasi[3], V.Y.Melikyanning shunday birliklardan iborat bir necha lugʻatlarini[7; 8] qayd etish mumkin.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik va distributiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

## **Tahlil va natijalar**

Maʼlumki, soʻroq gap shakli vositasida darak, buyruq singari maʼnolarning ifodalanishi orqali shakl hamda mazmuniga xos tasdiq va inkor, soʻroq va darak, soʻroq hamda buyruq singari mazmuniy munosabatlar oʻrtasida nomuvofiqlik yuzaga chiqadi. Oʻzbek tilshunosligida gaplarning shakliy va mazmuniy nomuvofiqligiga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud[1; 5; 6; 10; 13]. Xususan, M.Xaynazarovanning oʻzbek tilidagi soʻroq gaplarda shakl va mazmun masalasiga, ulardagi nomuvofiqlikka doir ilmiy tadqiqot ishida bunday qurilmalarni *turgʻun birliklar asosida tuzilgan soʻroq gaplar* sifatida talqin qilgan. Olima bunday soʻroq gaplarni hosil qiluvchi vositalarni uch guruhga ajratadi: “Soʻroq gaplarni hosil etuvchi vositalar soʻroq olmoshlari, soʻroq yuklamalari va ohang ekanligini hisobga olib, turgʻun birliklar asosida shakllangan soʻroq gaplarni ham uch guruhga ajratamiz”[13,16].

Ritorik soʻroq gap shaklidagi sintaktik frazeologik birliklarning shakllanishida soʻroq olmoshlari hamda soʻroq yuklamalari muhim oʻrin tutadi.



O‘zbek tilida so‘roq olmoshlari hamda so‘roq yuklamalari vositasida shakllangan sintaktik frazeologik modellar ham mavjud bo‘lib, ularda so‘roq mazmuniga nisbatan murakkabroq mazmun ifodalanishi mumkin. M.Xaynazarovanning ta’kidlashicha: “So‘roq gaplarda yashirin ifodalangan darak yoki buyruq xarakteridagi axborot bu gaplarning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. So‘roq gaplarda yashirin ifodalangan darak, buyruq axborotlari gapning shakliy tuzilishiga muvofiq holda ochiq ifodalangan so‘roq axborotga mazmunan teng kelmasa, shu gapning mazmunan tarkibiy komponenti sifatida yuzaga chiqsa, u holda, bunday so‘roq gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab bo‘ladi”[13,7].

O‘zbek tilida *shu* ko‘rsatish olmoshi hamda *-mi* so‘roq yuklamasi orqali shakllangan *shu ham ... bo‘ldimi?* sintaktik frazeologik birligi ko‘p uchrab turadi.

Bu sintaktik qurilmaning yaxlit umumiy ma’nosi norozilik munosabati asosida “nomunosiblik” semasi atrofida birlashadi va frazeologik qurilmaning bo‘sh o‘rinlari shaxs, joy, predmet, jarayon anglatuvchi birliklar bilan to‘ldiriladi.

Bu sintaktik frazeologik birlik ko‘pincha “shaxs” semali birliklar bilan to‘ldirilganda, so‘zlovchi tomonidan subyektga nisbatan noloyiqlik, norozilik bahosini kuchaytirgan holda fikr namoyon etiladi:

*shu ham odammi (bo‘ldimi)?*

*shu ham otami?*

*shu ham onami?*

*shu ham farzandmi?*

*shu ham rahbarmi?*

*shu ham o‘qituvchimi?*

O‘zbek tilidagi sintaktik frazeologik birliklar tarkibida o‘zaro zid ma’no ifodalovchi birliklarni ham uchratamiz. Xususan, yuqoridagi *shu ham ... bo‘ldimi?* modeli frazeologik birlik umumiy yaxlit holda, yuqorida aytilganidek, “nomunosiblik” semasini ifodalab, so‘zlovchining subyektiv bahosini namoyon etadi.

*Shu ham ... bo‘ldimi?* sintaktik frazeologik birligi *mana, bu* kabi ko‘rsatish olmoshlari bilan shakllangan *mana buni ... desa bo‘ladi (deyish mumkin)* frazeologik birligi bilan mazmunan zid baho munosabatini namoyon etadi.

Berilgan o‘zaro zid baho ifodalashga xizmat qilayotgan qurilmalarni qiyoslaymiz:

<i>shu ham ...mi (bo‘ldimi)?</i> (“nopisandlik”, “norozilik” semasi)	<i>mana buni ... desa bo‘ladi</i> (“mamnunlik”, “maqto‘v” semasi)
<i>shu ham ishmi (bo‘ldimi)?</i> <i>shu ham gapmi (bo‘ldimi)?</i> <i>shu ham ovqatmi (bo‘ldimi)?</i> <i>shu ham hayotmi (bo‘ldimi)?</i> <i>shu ham bayrammi (bo‘ldimi)?</i>	<i>mana buni ish desa bo‘ladi</i> <i>mana buni gap desa bo‘ladi</i> <i>mana buni ovqat desa bo‘ladi</i> <i>mana buni hayot desa bo‘ladi</i> <i>mana buni bayram desa bo‘ladi</i>

Sintaktik frazeologik birliklar tarkibida norozilik, alam ma’nolarini ifoda etuvchi *...ga shu(ning o‘zi) yetmasmidi? ... shu(ning o‘zi) kammidi?* ritorik so‘roq gap shaklli qurilmalari ham mavjud. Ularda amalga oshirilgan voqelik, kutilmagan holatlar natijasida yuzaga chiqadigan hodisani aks ettiruvchi qurilmalar namoyon bo‘ladi.

Har ikki sintaktik birlik uchun deyarli bir xil ma’no anglashiladi, ular bir-birining o‘rnida qo‘llanilishi ham mumkin.

Sintaktik frazeologik birlik	To'ldiruvchi omil (kishilik olmoshi)	Hosil bo'lgan qurilma
<i>...ga shu (ning o'zi) yetmasmidi?</i>	<i>I shaxs birlik</i>	<i>menga shu (ning o'zi) yetmasmidi?</i>
	<i>II shaxs birlik</i>	<i>senga shu (ning o'zi) yetmasmidi?</i>
	<i>III shaxs birlik</i>	<i>unga shu (ning o'zi) yetmasmidi?</i>
<i>... shu(ning o'zi) kammidi?</i>	<i>I shaxs ko'plik</i>	<i>bizga shu (ning o'zi) kammidi?</i>
	<i>II shaxs ko'plik</i>	<i>sizlarga shu (ning o'zi) kammidi?</i>
	<i>III shaxs ko'plik</i>	<i>ularga shu (ning o'zi) kammidi?</i>

O'zbek tilidagi sintaktik frazeologik birliklar orasida kishilik olmoshlari orqali namoyon bo'ladigan *... nima qilib yurib...?* shaklli model ham o'ziga xos uslubiy funksiyani bajarishga xizmat qiladi. Bunday sintaktik frazeologik birlik kishilik olmoshlari yordamida to'ldirilib, o'zi bog'lanayotgan harakat ifodalab kelayotgan so'z bilan shaxs-sonda moslashadi:

Bunday sintaktik qurilmalar yordamida o'pkalanish, norozilik, ba'zan yaqinlik ma'nolari ham anglashiladi. *Shaharga kelib, xabar ham bermabsiz, biz nima qilib yuribmiz bu yerda?* Berilgan gapda ishtirok etgan *biz nima qilib yuribmiz?* sintaktik qurilmasi orqali keltirilgan *biz* kishilik olmoshi *men* olmoshining o'rnida qo'llanilgan, matnda adresantning tinglovchini o'ziga yaqin olgani, o'pkalanish, afsuslanish ma'nolari namoyon bo'lyapti.

Tahlil qilinayotgan frazeologik birliklar orasida *Shu ...dan boshqasi qurib qolibdimi?/ Shundan boshqa ... qurib qolibdimi?* modeli sintaktik frazeologik birliklar ham mavjud bo'lib, ularning mazmunidan nopisandlik, mensimaslik maqsadi anglashilib turadi.

Ritorik so'roq gap shaklidagi sintaktik frazeologik birliklarning mazkur modellari aslida shu ko'rsatish olmoshiga birikib kelayotgan shaxs, predmet, narsa-hodisa, jarayon bildiruvchi otlar bilan to'ldirilsa-da, ayrim hollarda obrazlilikni yanada kuchaytirish maqsadida adresant tomonidan shundan ko'rsatish olmoshining o'zi qo'llanilishi ham mumkin.

Bunday qurilmalarning kesimi ko'pincha uchinchi shaxs shaklida kelishi bilan ko'zga tashlanadi.

Bu sintaktik frazeologik birlikning bo'sh o'rnini ba'zan otlashgan so'zlar bilan to'ldirilishi kuzatiladi: *Shu cho'loq/kar/chuvrindidan boshqasi qurib qolibdimi?* Bunday sintaktik qurilmada nopisandlik, mensimaslik mazmunlarini otlashgan sifatning lug'aviy ma'nosi ham to'ldirib kelmoqda. Shuni ta'kidlash zarurki, yuqoridagi qurilmalar sintaktik frazeologik birlikning ikkinchi variantida qo'llash mumkin emas.

To'ldiriluvchi bo'lak atoqli otlar, ba'zan turdosh otlar bilan ifodalanganda, sintaktik frazeologik birlik tarkibidagi ko'rsatish olmoshi tushib qoladi: *Naziradan boshqasi qurib qolibdimi?*

*Shu qizdan boshqasi qurib qolibdimi? - Shundan boshqa qiz qurib qolibdimi?*

*Shu cho'loqdan boshqasi qurib qolibdimi?*

Demak, frazeologik birlikning ikkinchi variantini to'ldiruvchi birliklar, odatda, umumiy tur nomi sifatida kelib, ana shu tur ichidagi boshqa jinslardan ko'ra noloyiqligini ifodalaydi.

### Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib, aytish mumkinki, sintaktik frazeologik birliklar model bo'lib, ular ko'pincha ko'rsatish va so'roq olmoshlari, shuningdek ayrim yuklamalar bilan shakllanadi. Ular ko'p hollarda ritorik so'roq gaplar orqali shakllangan bo'ladi, biroq ayrim

ritorik so‘roq gaplardan farqli holda, ularning komponentlari to‘liq barqaror shaklda bo‘lmaydi. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida leksik frazeologik birliklarning turli jihatlarini tadqiq etilgan. Sintaktik frazeologik birliklar, ularning boshqa birliklardan farqlari, ularni tashkil etgan komponentlari singari masalalarni yoritish muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar

1. Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. Farg‘ona: Classic, 2023.
2. Ganiyeva Sh.A. Leksik va sintaktik frazeologizmlar // O‘zMU xabarlarini. – 2023. 1/3/1. – B. 255-257.
3. Величко А. В. Синтаксическая фразеология для русских и иностранцев / А. В. Величко. – М. : МГУ, 1996. – (96 с).
4. Лим Су Ён. Принципы анализа синтаксических фразеологизмов(на материале синтаксического фразеологизма Вот мастер; Вот так мастер; Вот мастер так мастер; Вот тебе и мастер) // Язык, сознание, коммуникация. Сб. статей/ Отв. ред. В.В. Красных, А.И. Изотов. – М.: МАКС-Пресс, 2000. – Вып. 15. – С.93-106.
5. Лутфуллаева Д.Э. Гапни семантик-синтактик қолиплаштириш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2005
6. Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия.- Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
7. Меликян В. Ю. Словарь фразеосинтаксических схем русского языка / В. Ю. Меликян. – Ростов н/Д. : Ростиздат, 2000. – (229 с.).
8. Меликян В. Ю. Синтаксический фразеологический словарь русского языка / В. Ю. Меликян. – М. : Флинта ; Наука, 2013. – (400 с.)
9. Непомнящая С.В. Синтаксические модели фразеологизмов с этимологической структурой сложного словосочетания (на примере предметных фразеологических единиц с компонентом-вестонимом в русском языке). Уральский Федеральный университет. Электронный научный архив. – С.49-54.
10. Нурмонов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1982.
11. Павлова А.В., Алексеева М.Л. Синтаксические фразеологические конструкции: теоретическое осмысление в аспекте двуязычной лексикографии // А.В.Павлова, М.Л.Алексеева. - Текст : непосред-ственный // Филологический класс. – 2022. – Том 27, № 2. – С. 52–67.
12. Ушакова А.П. Синтаксические фразеологизмы с семантикой иронического неодобрения в современном русском языке: дис. канд.наук. Ярославль, 2018.
13. Хайназарова М.М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиклиги: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 1999.
14. Юсупова О.С. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

## USMON AZIM SHE'RIYATIDA METAFORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna, Qo'qon universiteti dosenti, v.b (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyatida metaforalarning namoyon bo'lishi, tabiatdagi har bir bo'lakning she'r tarkibida poetik vazifa bajarishi uchun mahorat bilan singdirib yuborilganligi, ijodkorning o'ziga xos bo'lgan ma'no ko'chish uslublari haqidagi xulosalar shoirning bir qancha she'rlari tahlili asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiat lirikasi, detal, metafora, peyzaj unsurlari, metamorfoza, an'ana, ramz, obraz, poetik tafsil, poetik ramz.

## ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОРОВ В ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА.

Джуманова Шахноза Икромжоновна, и.о доцент Коканского Университета, (PhD)

**Аннотация.** В статье проявление метафоры в поэзии народного поэта Узбекистана Усмана Азима, умелое поглощение каждого кусочка природы для выполнения поэтической функции в стихотворении, передача уникального для творца смысла, выводы о его стиле. выделены на основе анализа ряда стихотворений поэта.

**Ключевые слова:** Природная лирика, деталь, метафора, элементы пейзажа, метаморфоза, традиция, символ, образ, поэтическая деталь, поэтический символ.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF METAPHORS IN USMAN AZIM'S POETRY.

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna, assistant professor of Kokan University, (PhD)

**Abstract.** In the article, the manifestation of metaphors in the poetry of the People's Poet of Uzbekistan Usman Azim, the fact that every part of nature is skillfully incorporated to perform a poetic function in the composition of the poem, the transfer of meaning unique to the creator. conclusions about his style are highlighted based on the analysis of several poems of the poet.

**Key words:** nature lyric, detail, metaphor, landscape elements, metamorphosis, tradition, symbol, image, poetic detail, poetic symbol.

### Kirish

Jahon adabiyotshunosligida insonning tabiiy muhitga munosabati, tabiatning inson hayotidaga o'rni kabi masalalar doimo dolzarb sanalgan. Ayniqsa, keyingi yillarda adabiyotshunoslikda tabiat va inson muammosini o'rganishda katta tajribalar orttirildi, an'analar shakllandi. Metaforada, odatda voqelik yoki kechinmani badiiy kashf etishda moddiy materialni ruhiy umumlashtirishga, konkret predmet yoxud tushunchalarning mavhum tasavvurga o'tish jarayoni aks etadi. Bu jarayonda shoirning badiiy niyati, tafakkurining miqyosi, estetik baholash darajasi oydinlashadi.

### Adabiyotlar tahlili

O'tgan asrning 60-yillarida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi shoirlar o'zbek she'riyatini yanada yuqori darajaga olib chiqishdi. 70-yillar esa zamonaviy o'zbek she'riyati uchun chin ma'noda "yuksalish bosqichi" bo'ldi. Bu davrda Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Muhammad Rahmon kabi shoirlar o'zbek she'riyatidagi poetik tafakkurni yangiladilar. Bu avlod ichida Usmon Azim o'zining o'ktam ovozi, sermahsul va

barakali ijodi, individual badiiy-ijodiy tamoyillariga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Uning she'riyati negizida tabiatdan ruh olgan, inson va tabiat munosabatlarini omixtalashtirgan ozod va hur inson obrazi turadi. Usmon Azim – “ko'ngli erkin, ruhi va fikri erkin, eng yaxshi she'rlarida ishq va e'tiqod shu'lasini porlab turadigan”, “armonning ranglari va ohanglari tasviri zaminida nekbin ruh, hayotsevarlik g'oyasi yotadigan” shoir.

“Tabiat tasvirlari shoir tafakkurining asl maqsadi emas; u ularni murakkab ramzlar sifatida, allegorik majoziy tilning birligi sifatida ishlatadi, uning yordamida chuqur, abstrakt kechinmalarini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi.” Muallif badiiy olamidagi ruhiy shakllanish, shuningdek, uning g'oyalarini ramzlar va metaforalarga berkitadigan tabiat tasvirlari bizga shoir qarashlarini yaxlit bir tizimga solishga ko'mak beradi. Ijodkorning tabiatga qarashi, lirik asarlaridagi tabiat tasviri masalalarini o'rganish shoir mahoratining ayrim qirralarini yoritishga imkon beradi.

Tabiat vositalari chegaralanmagan, shoir atrofini qurshab turgan, o'zi yashab, his qilayotgan tabiatning istalgan bo'lagini poetik detal yoki obrazga aylantirib, she'rga olib kira olishi mumkin.

Usmon Azim she'rlarida shahar peyzajini yaratishda “devor”, “avtolar”, “deraza”, “xiyobon”, “sershovqin yo'l”, “yomg'ir”, “ichkaridagi odam”, “telefon” kabi detallardan umumli foydalanadi. Ushbu detallar lirik qahramonni shahar ichida yurganini, shoirning kengliklar tusagan ko'ngli tor shaharga sig'may borayotganini anglatadi. Shahar manzarasi Usmon Azim balladalarida etakchi unsur emas, balki, og'ir ziddiyatlar domida qolgan lirik qahramonning kayfiyati, ruhiyati, og'riq iztiroblarining yaxlit manzarasini ko'rsatishga xizmat qiluvchi detallardir. Shoirning qabariq iztiroblari, ruhiy kechinmalarini aks ettirishda shahar peyzaji qo'l keladi. Ammo balladalarda shaharning yorqin manzarasini emas, ko'pincha chuqur ruhiy iztiroblar iskanjasida qolgan lirik qahramon kayfiyatiga mos tund kayfiyatdagi shahar tasvirini ko'ramiz. Bu esa she'rning umumruhiyatini yanada kuchaytiradi, o'quvchiga kayfiyat yuqumliligini oshiradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Usmon Azimning deyarli har bir she'rida tabiatning bitta unsurini his qilish mumkin. Shu kichik detal tabiatning bir lahzalik tasvirini o'quvchi ko'z o'ngiga keltiradi.

Usmon Azimning birgina “Saylanma”si tarkibiga kiruvchi she'rlar o'rganilganda quyidagi manzara hosil bo'ldi<sup>54</sup>.

<b>1</b>	<b>Jami she'rlar</b>	<b>380 ta</b>
<b>2</b>	Tabiat tasviri aks etgan she'rlar	163 ta
<b>3</b>	Sof peyzaj lirikasi	8 ta
<b>4</b>	Peyzaj detallari ishtirok etgan she'rlar	155 ta

Tabiat vositalarining she'rdagi harakatni rivojlantirishda ahamiyati yuqori. Harakat drammatizmga xos bo'lsa-da, she'riyat bu xususiyatni o'zida aks ettiradi.

Usmon Azimning “Saylanma”[2] siga kiritilgan she'rlar misolida shoir ijodida eng ko'p uchraydigan peyzaj unsurlari aniqlandi va quyidagi jadvallarda aks ettirildi:

<sup>54</sup> Usmon Azim. *Saylanma*. –Toshkent: Sharq, 1995.



T/R	Makon va zamoni ifoda etuvchi obrazlar	Necha o' rinda qaytarilgan
1	Tun-kun	63 marta
2	Tong	8 marta
3	Bog'	42 marta
4	Boysun	30 marta
5	Tog'	24 marta
6	Dengiz	15 marta
7	Dasht	13 marta
8	Daryo	11 marta
9	Shahar	11 marta
10	Dala	10 marta
11	Adir	9 marta
12	Tog' cho'qqisi	5 marta

T/R	Hayvonlar va qushlar	Necha o' rinda qaytarilgan
1	Turna	18 marta
2	Qarg'a	6 marta
3	Ot	9 marta
4	Bo'ri	4 marta
5	It	4 marta
6	Ohu	2 marta

T/R	O' simliklar	Necha o' rinda qaytarilgan
1	Daraxt	28 marta
2	Maysa	11 marta

T/R	Koinot jismlarini ifodalaydigan obrazlar	Necha o' rinda qaytarilgan
1	Tosh	62 marta
2	Osmon	55 marta
3	Quyosh	43 marta
4	Yulduz	31 marta
5	Oy	25 marta

T/R	Tabiat hodisalarini ifodalaydigan motiv obrazlar	Necha o' rinda qaytarilgan
1	Shamol	49 marta
2	Yomgir	31 marta
3	Bulut	17 marta
4	Qor	15 marta

**Muhokama va natijalar.** Usmon Azim she'rlari qay mavzuda bo'lmasin, qay obraz tasvirlanmasin, unda shoirning alamlari, o'kinchlari, eng asosiysi insonning azaliy og'riqlari, abadiy g'ussalari tajjassum topadi. Usmon Azim ijodini o'qir ekanmiz, shoir yaratgan har bir obrazdan zavqlanamiz, tashbehlar qalbimizga hayrat soladi. "Dekabr balladasi" shu fikrimizga misol bo'la oladi.

Shavqat yo'qdir g'ussa ro'zida,  
Bo'ldi. Ketdim. Qolmadi sabr.  
Tashqarida asfalt ustida

Behush yotar sovuq dekabr[3].

Lirik qahramonda sabr qolmadi va ko'chaga yo'naldi, shu o'rinda shoir "g'ussa ro'zi" metaforik sifatlashidan foydalanadi, tashqarida asfalt ustida sovuq dekabrning behush yotgani tasvirlanadi. Shoir keyingi bandda o'quvchini hayratga solishda davom etadi:

Namxushgina tumandan yana  
Kichraymish bu dunyo qafasi.  
Muzladingmi, sharfni ol, mana,  
Shamollama, mana, nafasim[3].

"Namxush tumandan dunyo qafasi kichraygani" – metaforik birikma, bu ham yetmagandek, shoir "nafasi"ning shamollab qolishidan cho'chib, sharf uzatmoqda. "Nafas" orqali "jonlantirish" san'ati yuzaga kelmoqda.

O'ringdan tur, bag'rimga bosay,  
Men har holda kabirman, kabir.  
Ustingda qor oq choyshab yozar...  
Shubha tushdi dilga dekabr.[3]

Shoir taxayyuli shu qadar kengki, dekabrni bag'riga bosmoqchi. O'zini dekabrdan-da kabir (katta) hisoblagan lirik qahramon unga qarata "dilga shubha tushgani"ni ochiqlyaydi. Uchinchi satrda esa "dekabr ustida qorning oq choyshab" yozayotgani "jonlantiriladi", ayni chog'da qor oq choyshabga mengzalib metafora hosil bo'lmoqda. Lirik qahramon keyingi bandda dekabrga qarata "o'n besh kunlik umrida nolishga haqqi yo'qligini" eslatib, moshin tagidan tortib olishga ulgurishini ham bildiradi. Sovuq dekabr va inson orasida yaqinlik paydo bo'la boshlaydi.

So'ng ustingdan qorni qoqaman,  
Silkitaman: "Kerakmasmi jon?"  
Yolg'izmassan – senga akaman.  
Tanidingmi? Men – Usmon! Usmon...[2]

Usmon Azim – dekabrning akasi. Bu metaforani tasavvur qilish uchun she'rning umumruhini his qilish kerak. So'ng shoir dekabrga "nasihatlar aytadi", "bu tumanlig' zaharli kunda" dilini "tumanlardan forig' qiladi".

Aniq bildim, o'zgardi taqdir,  
O'z azmidan to'xtadi qaror.  
Qayga tashlab ketaman, axir,  
Bu dunyoda mening ukam bor...[3]

She'r yakunida o'zgacha qaror bor. Lirik qahramon va shoirning yaxlit ichki qarori. G'ussalardan bu hayotni tashlab ketib bo'lmaydi, dekabr bu – hayot. Usmon Azim chuqur drammatizm va badiiy vositalar orqali dekabrni bizga odam qilib tasvirlab beradi. Bu holat shoirning badiiy obraz yaratish mahoratiga ham yaqqol dalildir.

Usmon Azimning yana bir individual uslubiga xos xususiyat – bu she'rlarida aks etadigan obrazlarning jonsiz buyumlar ekanidir. Shoir ularga odamga xos harakat, o'y va iztirob yuklaydi. Jumladan, "Avtomobil haqida ballada" she'rida avval lirik manzaraga guvoh bo'lamiz, keyin bu manzarada odam emas, avtomobil harakatlana boshlaydi:

Faqat sog'inch oydin kechada,  
Faqat armon-  
Ushalmas diydor-

Ajib avto chiqdi ko'chaga-  
Muyulishda turdi beqaror[3].

Keyingi bandda "avtomoshina"ning tasviri chiziladi: "chiroqlari beziyo", "temirlari eski", "turishi ma'noli". Shoir esa "oynasidan mudroq bosgan kechki yo'lovchi ko'rinmasligiga, haydovchi yo'qligiga, hatto chambaragi ham beegaligiga" ajablanadi.

Xuddi tushdan tushganday- yengil,  
Yurgan kabi o'zi ham tushda,  
O'tgan kabi fojeaga tegib,  
G'ildiragi to'rttamas, uchta.

Shoir o'zi taajjublanishi bilan birga o'quvchini hayratga solishda davom etadi. Avtomobil shahar oralab kezadi, biror mashina chiqib qolsa, o'zini chekkaga oladi.

Bir sog'inchli oydindir dunyo,  
Chuvalmishdir o'kinchlar rozi.  
Ko'chalardan boradi avto -  
Turolmasdan sitamli "oh" i[3].

"O'kinchlarning rozi chuvalgan", "bir sog'inchli oydin dunyo" metaforasi shoir taxayyulining mahsuli. Keyingi poetik tasvirda avtomobil odamga xos harakatlarda davom etadi: pichirlab duo qiladi, bekatlarni tavof qiladi va holat qabristonga ko'chadi:

Buriladi so'ng qabristonga,  
Chaqiradi - keldim! - besabr...  
Tosh haykallar yo'qroq tomondan  
Tebranganday bo'lar bir qabr[1].

Keyingi bandlarda shu oydinlashadiki, tasvirlangan qabrda shu avtomobilning egasi yotibdi, u yangi mashina olgach, o'sha bilan yo'lga otlanadi va avtohalokat tufayli olamdan ko'z yumadi. Shoir kutilmagan suhbatni uyushtiradi: avtomobil va uning marhum sohibi suhbatlashadi. Nadomatli suhbatdan so'ng mashina qabristonni tark etadi. Odamzotning siyrati, harakati ko'chirilgan avtomobilga odamzotning fojiali qismati ham tamlangani she'r yakunida o'z tasdig'ini topadi:

Jonu jismin kesib o'tarkan,  
Avtogenning olovli uchi-  
Uzmasa ham nigohin ko'kdan,  
O'lmoqlikka yetadi kuchi[2].

She'rda avtomobil orqali sadoqat, vafo tuyg'ulari aks ettirilgani shoirning yuksak mahoratidan darak beradi.

Asl san'atkor aytmoqchi bo'lgan fikrini chiroyli pardalar bilan o'rab, o'quvchini fikrlashga, mushohada qilishga undaydi. Bu tarzda yopiqlikni paydo qilish she'riy matnning badiiyatini oshiradi. Ushbu jarayonda badiiy obrazning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Vaqt kelar - dunyoning boqchalaridan  
Tutunday tarqaydi o'lik xitoblar.  
Zamonning yuksak did tokchalaridan  
Yiqilib tushadi yolg'on kitoblar[2].

Shoirning tom ma'noda ijtimoiy mavzudagi she'rlaridan biri bo'lgan ushbu she'rda "o'lik xitoblar", "yuksak did tokchalari", "yolg'on kitoblar" kabi metaforalar qo'llangan. Usmon Azim bir kun kelib odamlar yuksak did sohibi bo'lgan pallada haqiqat yozilmagan kitoblar



tokchalardan bir-bir qilashini bashorat qiladi. O'lik xitoblar tutun singari yo'q bo'lib ketadi, dunyoda faqat haqiqat qoladi.

Yillarning oldida aldoqlar xordir!

Mangulik – qalblarda yarq etgan hayot.

Na unvon, na shuhrat, na mansab bordir,

Faqat hayot bordir, ey, Adabiyot![2]

Jamiyatda urchigan yolg'onlar, aldovlar hech qachon beiz ketmaydi. Xalqimiz "qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham bilinar", deb bejiz aytmaydi. Usmon Azim ham yillar oldida yolg'onlarning xorligini, haqiqat esa mangulik bo'lib, qalblarda yarq etgan asl hayot ekaniga ishonadi. U Adabiyotga qarata bu dunyoda unvon ham, shuhrat ham, mansab ham o'tkinchi ekaninini, faqat hayot borligini, hayot esa yolg'onlarni mangu asramasligini uqtiradi. Bu da'vatni shoirning o'z qalbiga xitobi deb qabul qilsak bo'ladi.

Haqiqat shamoli guvlasa shitob,

To'zg'isa, yorilsa maqtov ko'pigi.

Ko'rinar – beshafqat satrlar aro –

Yotgani kimlarning qoni to'kilib[2].

Bu bandda shoir tabiat unsurlarini g'oyaviy-badiiy maqsadini bayon qilishda foydalanadi. "Haqiqat shamoli" metaforasi, "maqtov ko'pigi"ga zidlanadi. Beshafqat satrlar aro kimlarning qoni to'kilib yotgani ma'lum bo'lishi ta'kidlanadi. She'rning xulosasida esa "vijdon bilan yashash shuncha qiyinmi?", deya maqsadu muddaoga ko'chadi.

#### **Xulosa**

Peyzaj lirikasinig obrazlar olami keng va rang-barangdir. Masalan, an'anaviy "daraxt" va "tog'" obrazlarini odatda, daraxt – mag'rurlik, tog' - sabr tarzida qo'llash mavjud. Ko'pchilik ijodkorlarda esa daraxt, masalan, bir o'rinda jabrdiyda (Shavkat Rahmon) etib tasvirlansa, bir o'rinda zamonadan ortda qolgan odam (Usmon Azim) kabi ifodalangan. Tog' esa nimjon (Xurshid Davron), yolg'izlik (Azim Suyun) kabi ma'nolarda talqin etiladi.

Xullas, shoirning barcha she'rlarida jo'shqin tuyg'ular harakatga tushadi, shoir har bir she'rida bitta obrazni jonlantirib, o'z tuyg'ular oqimini, kayfiyatini unga ko'chiradi. U xoh jonsiz predmet bo'lsin, u xoh tabiatning bir kichik bo'lagi bo'lsin, shoir unga yurak berib, harakatga keltiradi. Shu sababli dekabr ham, avtomobil ham, deraza ham metamorfozani boshdan kechirib, ikki qo'l, ikki oyoqli, ongli, tuyg'uli mavjudotga – insonga evriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Quronov D. Mamajonov M, Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akadernashr, 2010.
2. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
3. Usmon Azim. Kuz. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2001.

## SHARQDA TAZKIRANAVISLIK VA XORAZM ADABIY MUHITI

Do'stova Surayyo Savronovna-Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dotsent, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharqda tazkiranavislik va uni Xorazm adabiy muhitidagi davomiyligi haqida so'z boradi. Tazkiralar muhim manba sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab olgan. Adabiyotshunoslikka daxldor dastlabki tazkiralar adabiyot va yondosh sohalarga bag'ishlangan asarlar tarkibida, uning ma'lum bir qismi o'laroq yozilgan.

**Kalit so'zlar:** devon, manba, kotib, nusxa, fond, g'azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she'r, varaq, muallif, adabiy muhit, meros, devon.

## ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА ТАЗКИРАНАВИЗМА И ХОРАЗМА НА ВОСТОКЕ

Достова Сурайё Савроновна-Джизакский государственный педагогический

университет. Доцент, ф.ф.ф.д. (Кандидат наук)

**Аннотация:** В данной статье говорится о тазкиранависе на Востоке и его преемственности в хорезмийской литературной среде. Тазкирас как важный источник освещал различные сферы общественной жизни. Первые очерки, связанные с литературоведением, были написаны в составе сочинений, посвященных литературе и смежным областям.

**Ключевые слова:** диван, источник, секретарь, экземпляр, фонд, газель, маснави, произведение, письмо, литература, стихотворение, страница, автор, литературная среда, наследие, диван.

## THE LITERARY ENVIRONMENT OF TAZKIRANAWISM AND KHORAZM IN THE EAST

Dostova Surayyo Savronovna-Jizzakh State Pedagogical University

Associate professor, f.f.f.d. (PhD)

**Abstract:** This article talks about tazkiranavis in the East and its continuity in the Khorezm literary environment. Tazkiras as an important source covered various spheres of social life. The first essays related to literary studies were written as a part of the works devoted to literature and related fields.

**Key words:** divan, source, secretary, copy, fund, ghazal, masnavi, work, letter, literature, poem, page, author, literary environment, heritage, divan.

Sharqda tazkiranavislik an'anasi qadimdan mavjud. O'zbek adabiyotida ham bu janrda yozilgan asarlar ancha qadimga borib taqaladi. Ma'lumki, «Tazkira – ma'lum bir davrda yashab ijod etgan shoir va adiblar, ularning asarlari haqida ma'lumot beruvchi, ilmiy-adabiy manba tarzidagi asar. Tazkira arabcha «zikir» so'zidan olingan bo'lib, «eslash», «eslatish», «yodga olish» ma'nolarini anglatadi». Arab adabiyotida bu janrdagi asarlarni مُقتطفات – muqtatafaat, مختارات – muxtaraat deb ataladi.

Tazkiralar muhim manba sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Jumladan, Attorning «Tazkirat ul-avliyo», Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds», Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» va Rushdiyning «Tazkirayi avliyai turkiy»sida tariqat ahllari, Rudakiyning «Tazkirayi xattoton»ida xattotlar, Qozi Ahmad Qumiyning «Tazkirayi xushnavison va musavvironi Iron»da xattot va musavvirlar

hayoti va ijodi yoritilgan. Tazkiralarning nomlanishi haqida Mustafon Eson alohida to'xtalib o'tgan. «Shoirilar hayoti va ijodidan so'z yuritganlariga «Tazkirayi shuaro» yoki «Tazkirat ush-shuaro», eranlardan hikoya qiluvchilariga «Tazkiratu-l-avliyo», xattotlar tarjimai holidan so'z yuritganlariga esa «Tazkiratu-l-xattotin» (ba'zan «Tazkiratu-l-dabir») deyiladi.»[12]

Adabiyotshunoslikka daxldor dastlabki tazkiralalar adabiyot va yondosh sohalarga bag'ishlangan asarlar tarkibida, uning ma'lum bir qismi o'laroq yozilgan. Ayni chog'da tazkirnavislikning bunday jihati keyingi davrda ham ko'zga tashlanib turgan. Bunday tazkiralalar zamima tazkiralalar deyiladi. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Kitob ash-she'r» (XI-XII asrlar), Muhammad Rovandiyning «Tazkirayi musavvara (1172 y.), Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Mirxondning «Ravzat us-safo», Boburning «Boburnoma»si kabilar shular jumlasidandir.

Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi tazkiralalar ham yaratilgan. Tazkira yozish an'anasi dastlab arab va fors adabiyotlarida, keyinroq turkiy adabiyotda ham keng ommalashgan.» Birinchi alohida tazkira arab shoiri Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat ud-dahr fi mahosin ahlu-l-asr» (X asr) asaridir. «Tazkirada har bir adib xususida qisqagina hayotiy ma'lumot bergandan keyin, uning asarlaridan namunalar keltiradi va Suriya (Shom), Iroq, Jibol, Xuroson (Movaraunnahr ham bu doiraga kiritilgan) o'lkalariga qarab turkumlanadi.»

Fors tilidagi tazkira Muhammad Avfiy Buxoriyning «Lubob ul-albob»i hisoblanadi. (1222 y.). Asar «bir muqaddima va o'n ikki bobdan iborat bo'lib, unda davrning shoirlari haqida navbatma-navbat ma'lumot beriladi. She'ning xususiyatlaridan, ma'no va mafhumidan, she'riy ijod bilan shug'ullangan hukmdorlar va olimlar haqida gap boradi». Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» (1487) asari ham eng qadimgi tazkiralardan biri bo'lib, unda IX-XV asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Eronda yashagan 350 ta mashhur shoirlar haqida ma'lumot bilan birga ular ijodidan namunalar ham berilgan. U bir debocha, yetti bob va xotimadan iborat va Alisher Navoiyga bag'ishlangan.

O'zbek adabiyotidagi tazkirachilikning mumtoz namunalaridan biri Navoiyning «Majolis un-nafois» (1491, 1498) asaridir. Unda XV asrda Xurosonda yashagan jami 450 dan ortiq ijodkorning bilim darajasi, dunyoqarashi, xulq-atvori va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar berilgan, ularning ijodidan namunalar keltirilgan.

Arab adabiyotida antologiya janri bo'yicha tadqiqot olib borgan arab olimi Bilal Orfaliiy tazkiraning quyidagi 10 ta turini sanab o'tgan:

1. Shakl bilan bog'liq poetik antologiyalar
2. Ensiklopedik, ya'ni qomusiy antologiya
3. Mavzu va motivli antologiya
4. Qiyoslashga asoslangan, ya'ni qiyosiy antologiya
5. Mono tematik, ya'ni bir mavzuli antologiyalar
6. Geografik antologiyalar
7. Musiqiy antologiyalar
8. Nutq shakllari bilan bog'liq antologiyalar
9. Xronologik biografik antologiyalar
10. Ma'lum bir ijodkorning asarlari uchun tuzilgan antologiya<sup>55</sup>.

<sup>55</sup> Orfali.B.A Sketch Mar of Arabic Poetry Anthologies up to the Fall of Baghdad. Journal of Arabic Literature 43(2012) Brill NV, Leiden, 2012.P.38-59.

Tadqiqotchi H.Sulaymonova «Bizningcha, bu tasnifni shartli deyish o‘rinli bo‘ladi, chunki muayyan bir antologiya bir vaqtning o‘zida yuqorida sanab o‘tilgan bir necha turga mansub bo‘lishini kuzatdik. Bilol Orfaliyning tasnifiga, o‘n birinchi, ya‘ni aralash tazkiralari turini qo‘shish o‘rinlidir»<sup>56</sup>, deb yozadi.

Adabiyotimiz bilimdonlaridan Maqsud Shayxzoda «Tazkiralari ko‘pincha yo geografik, yo monografik, yo xronologik, yo sulolaviy, yo ijodiy prinsipga quriladi. Ammo bu prinsiplarning ikki-uchtasini qo‘shib, aralastirib tazkira tuzgan mualliflar ham bor», deb yozgan. Biz, M.Shayxzodaning bu so‘zlariga qo‘shilgan holda o‘zbek adabiyotidagi tazkiralarni ham quyidagi turlarga ajratdik:

1. Monografik
2. Xronologik
3. Geografik
4. Sulolaviy
5. Ijodiy
6. Aralash

Alisher Navoiyning «Majolis un nafois» asari 1-3-majlislar xronologik, 4-6-geografik, 7-sulolaviy, 8-monografik. Laffasiyning tazkirasini ham aralash, ya‘ni xronologik, geografik va sulolaviy prinsipda berilgan.

Adabiyotshunos B.Valixojayev tazkiralarni vaqt omili nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratadi: «1) tarixiy- zamonaviy (salaflar va zamondoshlar; 2) zamondoshlar haqida tazkiralari». Navoiyshunoslik kitobi mualliflari esa, «Tazkiralari asosan tarixiy-irfoniy mavzuda, shoirlarga doir va ba‘zan badiiy janrlar bo‘yicha tuzilgan», deb yozishgan.

«Arab adabiyotida adabiy tazkira tuzish tushunchasi zamirida tuzuvchi – muallif muayyan maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan holda, aniq bir tanlov tamoyillariga asoslanib, badiiy parchalarni (u xoh she‘riy, xoh nasriy bo‘lsin) jamlashga qaratilgan mehnat mahsuli nazarda tutiladi. Tazkirada har bir badiiyat namunasi ularning tarixiy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyatidan qat‘i nazar yuksak baholanadi, ya‘ni unga eng avvalo adabiy asar sifatida qaraladi». O‘zbek adabiyotidagi tazkiralarni Maqsud Shayxzoda «Navoiy, tazkiralarning vazifasi –shoir va adiblarning nomi zamon sahifalaridan o‘chmasin deb, ularning nomlarini kitoblarga naqsh qilib qo‘yishdan iboratdir, deb ko‘p to‘g‘ri tushunadi», deb yozgan. Shoirlarga oid tazkiralarni «bu turdagi tazkiralarda shoirlar va ularning she‘rlariga munosabat bildirish asnosida tazkira mualliflari o‘zlarining adabiy qarashlarini ham bayon qilib o‘tganlar»[3], deya izohlaydi Navoiyshunoslik kitobi mualliflari.

Adabiyot bilimdoni Maqsud Shayxzoda tazkira tarkibida quyidagi komponentlar bo‘lishini alohida ta‘kidlaydi: «a) shoir ismi, laqabi, qaerdanligi haqida qisqacha ma‘lumot; b) shoirning hayoti, xarakteri, ba‘zi xususiyatlari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot; v) shoirning ijodi, asarlari, asarlarining xususiyati, asarlarni o‘z davrida qay darajada shuhrat topganligi; g) bu shoirga tazkira muallifining munosabati va yoki, aksincha, shoirning tazkirachiga nisbatan tutgan mavqeyi (bu ma‘lumot shoir bilan tazkirachi o‘rtasida shaxsiy tanishlik bo‘lgan taqdirdagina beriladi); d) shoir haqida el og‘zida yoxud muallif xotirasida saqlangan biron qiziq voqea yoki latifa; ye) shoirning nazmidan biron misol (bu, odatda, g‘azal yo qasidaning matlai, biron masnaviy yoki ruboiy va yoxud qit‘a bo‘ladi; j) shoir umrining oxiri (agar o‘lgan bo‘lsa, qaerda

<sup>56</sup>Сулаймонова Ҳ. Абу Мансур Саолибийнинг “Канзу-л-кутуб” тазкираси ва унинг манбашунослик тадқиқи: Филол. фан. фалс. док. (PhD) дис. автореферати. – Тошкент. 2020. – Б.12.

dafn etilgani, albatta, ko'rsatiladi)». Demak, tazkiralarda, albatta, ushbu talab va xususiyatlar aks etishi lozim.

Navoiy tazkisasi tazkiranavislik uchun etalon vazifasini o'tagan. Zero, «o'zbek tazkirachiligining to'ng'ich asari bo'lgan «Majolis un-nafois» o'zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua hamda bayozlarning vujudga kelishiga yo'l ochdi va bir namuna bo'lib xizmat qildi»[1]. Keyinchalik uning ta'sirida Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy, Maliho Samarqandiy, Sodiqiy Kitobdor, Faxriy Hirotiy, Som Mirzo Safaviy, Mir Alisher Qone' Tattaviy, Voze singari o'nlab mualliflarning tazkiralari yaratilgan.

Bular bilan birga XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan adabiyotlar tarixi, adabiy janr, ularning nazariy jihatlarini, adabiy maktablar, adabiy jarayon, uning namoyandalari haqidagi muhim ma'lumotlar ham tazkiralarda orqali bizgacha yetib kelgan.

O'zbek adabiyoti tarixida tazkirachilik an'analari Xiva xonligi davrida ham o'ziga xos tarzda davom ettirilgan. Jumladan, shoir va ijod ahli xususida alohida tazkiralardan tashqari Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komyob kabilarning tarixiy asarlarida zamima tarzida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bu jihatdan adabiyotshunos B.Valixojayev fikrlari e'tiborga molik: «Munis Xorazmiyning bu asarida («Firdavs ul-iqbol»-S.S) Xorazm diyoridagi tarixiy, madaniy, adabiy muhit, uning ayrim namoyandalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xuddi shu manba tufayli adabiyot tarixi uchun Mavlono Vafo, Pahlavonquli Ravnaq, Muzaffarxo'ja Kiromiyga o'xshash qalamkashlar kashf etildi». Shuningdek, Ogahiyning «Riyoz ud-davla», «Gulshani davlat», «Shohidu-l-iqbol» va boshqa tarixiy asarlarida ham o'tmishda yashagan va o'ziga zamondosh bo'lgan ijodkorlar to'g'risida muhim ma'lumotlarni qayd etadi. Masalan, u «Riyoz ud-davla» asarida mashhur donishmand shoir va kurashchi Pahlavon Mahmud (1247-1326) fazilatlarini shunday ta'riflaydi: «Firdavsbahr shahri Xivaqda qudvat ul-avliyo, murshid ul-atqiyo maxsus borogohi mulki vadud hazrati Pahlavon Mahmud quddisa sirruhu». Bundan tashqari «Riyoz ud-davla»da «Xorazm adabiy muhitining yana bir zabardast namoyandasi Dilovarxoja haqidagi ma'lumotlar ham alohida qiziqish uyg'otadi. Ular Munisning o'limiga yozilgan marsiya munosabati bilan bayon etiladi. Dilovar Ogahiy talqinicha, baland martabali shaxs bo'lib, davrning yirik ma'naviyat arbobi, mo'jizasi, shoirlar podshosi, fuzalo-bilimdonlar fozili sifatida namoyon bo'ladi.»[5] «Gulshani davlat» asarida esa Xivadagi adabiy jarayon va uning vakillari Muhammad Nazar, Pahlavon Niyozboy va Xolis haqida ma'lumotlar beradi: «Fazilat va ilm egasi Muhammad Nazar munshiy va shoirdir, shirin so'zli shoir Pahlavon Niyozboykim, taxallusi Komildir va zarif shoir Xolisdir»[6]. «Shohidu-l-iqbol»da: «Muhammad Nazar devonning juda mukammal, betakror tarixi muallif tomonidan alohida e'tirof etilib asarga kiritilgan. Ular Xorazm adabiy muhitining darajasini belgilashda ham ahamiyat kasb etadi»[7] Shu jihatlarga ko'ra tazkiralarni ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) tazkiralarda; 2) zamima tazkiralarda. Yuqoridagi zamima tazkiralarda bilan birga Xiva adabiy muhiti ijodkorlari xususidagi alohida tazkiralarda ham bunyodga kelganligi haqida ham fikr yuritdik. «XIX asrning yirik madaniy adabiy markazlardan biriga aylangan Xiva shahrida badiiy asarlar yaratish, to'plamlar tuzish, mutolaa qilish va targ'ib etish ishlari kuchayib, o'sha asr oxiridan XX asrning boshlarigacha bo'lgan Feruz davrida yanada keng qamrovlik kasb etdi. Zero, mumtoz tazkirachilikning xuddi shu davrda yuzaga kelishi va qisqa vaqtda turli xarakterdagi tazkiralarning tuzilishi ham ana shu omillar bilan dalillanadi.»[8] Jumladan, Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiyning tazkiralari shunday asarlar qatoriga kiradi.

Tabibiyning «Majmuai si shuaro'i payravi Feruzshohiy» tazkisasi Feruz tashabbusi bilan 1908-1909 yillarda yaratilgan. 29 toshbosma nusxa 1640 betdan iborat, 11-betidan Feruzning «Zihi bordur zuhuringg'a azal birla abad paydo...» radifli g'azali berilgan, so'ng boshqa shoirlarning payrav g'azallari bilan asar davom etgan. «Tazkira debocha, g'azallarni o'z ichiga oluvchi asosiy qism va xotimadan iborat. Asar debochasi, shoirlar haqidagi ma'lumotlar hamda asar xotimasi she'riy tarzda berilgan bo'lib, masnaviy yo'lida qofiyalangan. Tazkirada Feruzning 101 g'azali va ularga bitilgan payravlar jamlangan bo'lib, jami 3331 g'azalni tashkil etadi. Barcha namunalar to'liq berilgan»[7].

Bobojon Tarroh-Xodimning «Xorazm shoir va navozandalari» asari 1965-1967 yillar oraliqida yozilgan bo'lib, unda 31 nafar saroy shoirlari haqida ma'lumotlar berilgan. Asarning birinchi qo'lyozma nusxasi shoirning nevarasi Anbara Otamurodova qo'lida saqlanadi. Bu asar 2011 yil nashr qilindi va uning so'z boshisida Ismoil Bekjonov Bobojon Tarroh Xodimning «Xorazm shoir va navozandalari» asari haqida, «muallifning qiz nevarasi adabiyotshunos va keksa jurnalist Anbara Otamurodovanning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Asarning matni 20x30 o'lchamdagi ikkita daftarga joylashgan bo'lib, arab alifbosida goh to'taki va goh qora siyohda Xodimning o'z qo'li bilan yozilgan. Ayrim o'rinlarda Xodim tuzatishlari mavjud. Bu xususda: «...o'z xotiralarini kelgusi avlodga yozib qoldirib, Feruzshoh vujudga keltirgan adabiy muhitning asl qiyofasini abadiylashtirish va shu bahonada o'z yuragidagi boshqa gaplarni ham aytib qolish»ni maqsad qilgan», deb yozgan. Bu asarning yana bir nusxasini Davlatyor Rahim 1994 yil «Xorazm navozandalari» nomi bilan nashr qilgan.

Laffasiyning «Tazkirayi shuaro» tazkirasida 58 nafar shoir haqida ma'lumot, ularning ijodidan namuna she'rlar va har bir shoir uchun atab yozilgan masnaviylar keltirilgan. Shu jihatdan ta'kidlash lozimki, Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiy tazkiralari davr adabiy muhitini yoritishda qimmatli ahamiyatga ega.

Laffasiy tazkisasi haqida G.Ismoilova, «shoirlar hayotiga doir voqealarga, ular fe'l-atvoriga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlarga ko'proq to'xtalgan. Ijodkorlarning eng muhim qirralari, o'z davrida ma'lum darajada nom qozonishiga bois bo'lgan alohida qobiliyatlari haqida gapirib o'tiladi», deb yozgan.

Keltirilgan bu ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, uchala asar ham tazkira qoidalarini o'zida aks ettirgan. Xodim tazkisasi xotiralar asosida tuzilgani va biografik ma'lumotlardan iborat bo'lgani sababli unda namuna she'rlar keltirilmay, har bir shoirning adabiy jarayondagi o'rni qayd etilgan. Shuningdek, Tabibiy va Laffasiy tazkiralari ham «shoirlarning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasini kengroq gavdalantirgan, ular haqidagi mavjud biografik ma'lumotlarni to'ldirish hamda yangi faktlar bilan boyitishga xizmat qiladi»[7].

Har uchala asar ham dalil va ma'lumotlar xarakteriga ko'ra muhim va o'ziga xos hamda Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar haqida ma'lumot va ularning she'rlaridan namunalar berishi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatga ko'ra uchalasi ham tazkiradir. Zero, tazkira adabiyot tarixini, adabiy muhitni o'rganishda, shoirlar va ularning asarlarini tadqiq etishda adabiyotshunoslikda katta o'rniga ega bo'lgan janrdir.

Xulosa qilib aytganda, «Tazkirachilik tarixi ma'lum ma'noda adabiyotshunoslik tarixi hamdirki, uni o'rganmay turib, milliy adabiyot tarixini keng ko'lamda tasavvur etish va yoritish mumkin emas». «Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqida muxtasar ma'lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar keltiriladi va umumiy baho beriladi. Tazkiralarda adabiyotga tazkira ma'lumotlari orqali nazar solish, sulolaviy ijodkorlar hamda ularning asarlari borasida



ma'lum darajada tasavvur paydo qilish, adabiyotshunoslikda hali ma'lum bo'lmagan ba'zi bir ijodkorlarning nomlari bilan tanishtirishda muhim manba bo'lib, davr adabiyotining muhim xususiyatlarini o'rganishga imkon yaratadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1965. – B .515.
- 2.Mustafo E. Tazkiradan biografiyaga. Monografiya. – T.: Mumtoz so'z. 2012. –B.38.
- 3.Orfali.B.A Sketch Mar of Arabic Poetry Anthologies up to the Fall of Baghdad. Journal of Arabic Literature 43(2012) Brill NV, Leiden, 2012.P.38-59.
- 4.Ogahiy. Riyoz ud- davla. O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 5364 raqamli qo'lyozma 374<sup>a,b</sup> varaqlar.
- 5.Ogahiy. Gulshani davlat. O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 7572 raqamli qo'lyozma 102<sup>b</sup> varaq.
- 6.Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2006. – B. 15.
- 7.Salaev F., Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – B.241
- 8.Sulaymonova H. Abu Mansur Saolibiyning “Kanzu-l-kuttab” tazkirasi va uning manbashunoslik tadqiqi: Filol. fan. fal. dok. (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2020. – B.12
- 9.Tabibiy. Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy. O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi 29 toshbosma nusxa.

## EMOTIV-EKSPRESSIVLIKNING LINGVISTIK ASOSLARI

Jabbarova Anora Javlievna-PhD-Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda antroposentrizm nuqtai nazaridan tilda insonning his-tuyg'ul, hissiyot va fazilatlarini tavsiflovchi frazeologik birliklarni o'rganish dolzarbdir, chunki ushbu frazeologik birliklar o'zbek tilida strukturaviy va semantik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Insonning his-tuyg'ulari va xarakter-xususiyatlarini tavsiflovchi frazeologik birliklarni tahlil qilish, shuningdek, ularning lingvokulturologik jihatlarini tavsiflash muhim ahamiyatga ega, chunki o'zbek tilining frazeologik fondini to'liq o'rganish frazeologiyani quyida tizimlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** antroposentrizm, frazeologik birliklar, frazeologiya, emotsional-ekspressiv, emotsionallik, ekspressivlik, baho-munosabat.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОСТИ

Джаббарова Анора Джавлиевна-доцент Джизакского государственного педагогического университета

**Аннотация:** В настоящее время с позиций антропоцентризма актуально изучение фразеологизмов, описывающих чувства, эмоции и качества человека в языке, поскольку в узбекском языке эти фразеологизмы структурно и семантически изучены недостаточно. Важно проанализировать фразеологизмы, описывающие чувства и черты характера человека, а также описать их лингвокультурологический аспект, поскольку для полноценного изучения фразеологического фонда узбекского языка необходим анализ подсистем фразеологии.

**Ключевые слова:** антропоцентризм, фразеологизмы, фразеология, эмоционально-экспрессивность, эмоциональность, экспрессивность, оценочное отношение.

## LINGUISTIC BASIS OF EMOTIONAL-EXPRESSIVENESS

Jabbarova Anora Javlievna-associate professor of Jizzakh State Pedagogical University  
Associate Professor

**Abstract:** Currently, from the perspective of anthropocentrism, it is relevant to study the phraseological units that describe the feelings, emotions and qualities of a person in the language, because these phraseological units have not been sufficiently studied structurally and semantically in the Uzbek language. It is important to analyze phraseological units describing human feelings and character traits, as well as to describe their linguistic and cultural aspects, because a complete study of the phraseological fund of the Uzbek language requires the analysis of subsystems of phraseology.

**Key words:** anthropocentrism, phraseological units, phraseology, emotional-expressive, emotionality, expressiveness, evaluation-attitude.

Frazeologik birliklarning hissiy-emosional va ekspressiv xususiyatlari yetarlicha o'rganilgan emas. Insonning his-tuyg'ulari va hissiyotlari lingvopoetik, lingvofalsafiy hodisa bo'lib, ob'ektiv haqiqat, atrofimizdagi muhit inson hissiyotlarining asosiy manbai hisoblanadi. Inson real olamni turlicha idrok etadi va his qiladi, chunki u nafaqat tafakkurda, balki barcha his-tuyg'ular bilan ham o'zining ob'ektiv olamda mavjudligini ta'kidlaydi va e'tirof etadi.



Inson hayotining o'zi turli his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi bilan bog'liq, chunki inson his-tuyg'ularsiz hech qachon haqiqatni topmagan va topa olmaydi. Inson his-tuyg'ulari psixologiya va falsafaning yetakchi o'rganish ob'ektidir. Til esa inson hissiyotlarini aks ettirish vositasidir. Tilshunoslar hissiyotlarni tilning semantik tizimda aks etishi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Til birliklarining emosionalligi, ekspressivligi muammolari tilshunoslik fanida eng munozarali va murakkab sohadir.

Lingvistik emosionallikni Ye.M.Galkina-Fedoruk ekspressivlikka nisbatan torroq tushuncha, yaxlitlikka nisbatan qism sifatida, shu bilan birga, haqiqatga munosabat sifatida qaraydi[1].

Inson nutqining hissiy tabiati har qanday til so'zlarining ma'nosida aks etadi, emosionallikni voqelikka munosabat va tinglovchiga hissiy ta'sir sifatida tushunish mumkin.

Emosionallik va ekspressivlik hodisalari bir-biridan ajralmasdir. Bir o'rinda emosionallik, ikkinchisida ekspressivlik, uchinchisida ikki xil emosionallik yetakchi pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkin, shu sababli birinchisini ekspressiv, ikkinchisini emosional, uchinchisini emosional-ekspressiv deb atash maqsadga muvofiq. Tuyg'ular – bu psixologik jarayon, ya'ni insonning narsa va voqea-hodisalar jarayoniga munosabatidir. Bu munosabat nutqda quvonch, qayg'u, g'azab, nafrat shaklida amalga oshiriladi.

Fransuz tili frazeologiyasining tadqiqotchisi G.G.Sokolova frazeologik birliklarning emosionallik-hissiylik, ekspressivlik, baho-munosabat va uslubiylik komponentlari[2] ni farqlaydi.

Bizning fikrimizcha, konnotasiya frazeologik birliklarning emosional-ekspressiv, baholovchi va uslubiylikni ifoda etadigan muhim elementidir.

*Emosional konsept* bir til doirasida emosional konseptlarning milliy o'ziga xosligini yaqqolroq ko'rsatish, ham leksik birliklarni, ham frazeologik birliklarni yaxlitlikda o'rganishni taqozo qiladi. Emosional kechinmalarni ifodalovchi konseptlar tarkibida his-holatni bildiruvchi (*aqldan ozmoq, yuragi qon bo'lmoq*) yoki sub'ektning ob'ektga munosabatini (*jon dilidan yaxshi ko'rmog, xayoldan ketmadi, yurakka yaqin olmoq*) ifodalovchi frazeologik birliklar mavjud. Masalan, *ichini mushuk tatalayapti*[3] frazeologizmi insonning muayyan psixoemosional, qayg'u holatini anglatadi.

Konsept voqelikni kategoriyalashtiradi va voqelikni mantiqiy-tushunchaviy asosda o'rganib, olam haqidagi tasavvurlarni aks ettiruvchi ob'ekt, borliqdagi hodisa va tafakkur-tushunchani ifodalaydi.

Psixologik yondashuv, kulturologik yondashuv, integrativ yondashuv konseptlarni lingvistik, kognitiv, kulturologik, sosiologik nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi. Buning natijasida hodisaning eng ko'z ilg'amas qatlamlarini ham ochib berish imkoni tug'iladi.

So'nggi yillarda frazeologiya masalalariga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarda frazeologik birliklarning hissiy va ekspressiv mohiyati masalasi tobora ko'proq ilmiy tahlil bahsiga aylanmoqda. Frazeologik birliklarning emosional-ekspressiv imkoniyatlariga qiziqish bejiz emas, chunki frazeologizmlar o'z tabiati bilan til jarayoniga hissiy-emosional, hissiy-ekspressiv aloqa jarayonini boyitish funksiyasiga ega lingvistik birlik sifatida shakllangan. Turli tillardagi frazeologizmlarni o'rganish sezilarli darajada rivojlangan va ushbu istiqbolli ilmiy sohaning turli nazariy jihatlarini bo'yicha ko'plab yangi qarashlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asarlar tarkibida frazeologik birliklardan foydalanish masalasi shu

paytgacha hissiy-emosional va ekspressiv tarzda yetarlicha o'rganilgan emas. Ushbu muammo frazeologiya, stilistika va boshqa lingvistik fanlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Til birliklarining emosional va ekspressiv ma'nolari notiqning tuyg'usi va uning atrofidagi voqelikka munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Atrofdagi haqiqatni idrok etish bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyati emotiv hissiyotlar ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas.

V.G.Gak tilning hissiy va ekspressiv imkoniyatlari to'g'risida nazariy qoidalarni ishlab chiqib, quyidagi xulosaga keladi: "Inson nutqining hissiy tabiati har qanday til so'zlarining ma'nosida aks etadi"[5].

Turkiyshunoslikda ham, o'zbek tilshunosligida ham hanuzgacha emosional-ekspressiv frazeologizmlarga bag'ishlangan maxsus ishlar kamchilikni tashkil etadi. A.Mamatovning "O'zbek tilida emosional-ekspressiv, baho-munosabat ifodalovchi frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasi[1] shular jumlasidandir.

O'zbek tilshunosligida emosional-ekspressiv so'zlar muayyan darajada o'rganilgan. O'zbek tilining emosional-ekspressiv leksik qatlami tavsiflangan, ulardan uslubiy maqsadlarda foydalanish masalalari yoritib berilgan.

Emosional-ekspressivlik lingvopoetik vosita sifatida tavsiflanib, tilda, odatda, emosionallik ekspressivlik bilan teng tushishi e'tirof etiladi, shuning uchun emosional-ekspressivlik atamasidan foydalanish ta'kidlanadi.

Nutqning emosionalligi bu nafaqat tinglovchining aql-idrokiga ta'sir qiladigan, balki his-tuyg'ularini uyg'otadigan fazilatlaridir. Emosionallik nutqning maxsus hissiy "semantikaga" ega bo'lgan so'z va iboralardan (sevgi, nafrat), balki turli xil vosita, so'z, so'z birikmalari yoki sintaktik konstruksiyalardan mohirona va o'rinli foydalanish orqali ham yaratiladi[3].

Tuyg'ular – bu psixologik jarayon, insonning narsa va voqea hodisalariga munosabatidir. Bu munosabat nutqda quvonch, qayg'u, g'azab, nafrat shaklida amalga oshiriladi.

Tilshunos olimlarning yuqoridagi fikrlari ekspressivlik va emosionallik inson nutqini obrazli, rang-barang va ifodali qiladigan vositadir degan xulosaga kelish uchun to'liq asos beradi.

Hissiy baho ifodalashning lisoniy vositalari insonning his-tuyg'u va hissiyotlarini ifodalaydigan frazeologik birliklarga tegishli. Ko'rinib turibdiki, so'nggi paytlarda hissiy jihatdan baholanadigan frazeologik birliklar, ularning tematik-semantik guruhlari, tarixiy shakllanishi va funksional ishlatilishi tadqiqotchilarni tobora ko'proq jalb qilayotganligini ta'kidlash lozim.

Frazeologizmlar hissiyot va shaxs holatlarini ifodalashning lingvistik tizimda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, chunki frazeologik birliklar mohiyatiga ko'ra potensial hissiy va ekspressiv-modal ma'noga ega. Shu nuqtai nazardan A.V.Kuninning "frazeologik birliklarga xos bo'lgan voqelik, narsa va hodisalarning emosional-ekspressiv xarakteristikasi, ularning nominativ xususiyatlarini istisno qilmaydi, balki unga faqat ma'lum uslubiy yo'nalish beradi"[6] degan fikri o'rinlidir.

Badiiy asarlar tarkibida emosional-ekspressiv va baholovchi frazeologik birliklar asarning g'oyaviy, badiiy va semantik yo'nalishini, ularning umumiy mazmun-mohiyati hamda uslubiy rang-barangligini belgilaydi.

Emosional-hissiylik, ekspressivlik, baho-munosabat, uslubiylik zamonaviy o'zbek tilining ko'plab frazeologik birliklariga xosdir. Jumladan, *boshi osmonga yetdi, ko'ngli tog'day ko'tarildi, sevinchi ichiga sig'maydi, do'ppisini osmonga otmoq* va b. insonning holati, quvonch, zavq kabi bir qator hissiyotlarini ifodalaydi. *Ko'zlari qinidan chiqib ketdi, ko'ziga qon to'ldi, tepa sochi tik bo'lib ketdi* va b. shaxsning g'azablanish, noroziligi hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklardir.

Frazeologik birlikning semantik tarkibida konnotativ ma'noning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud bo'ladi. Birinchidan, har bir frazeologik birlik insonning emosional-ekspressiv hissiyotlarini ifoda etishda ma'lum darajada emosionallikka ega. Ikkinchidan, ular baho munosabat qiymatiga ega, chunki ular ijobiy va salbiy baholarni ifodalaydi. Uchinchidan, frazeologik birliklar ekspressiv ma'no tufayli u yoki bu darajada butun gapning ma'no qudratini oshiradi. To'rtinchidan, har bir frazeologik birlik ma'lum funksional uslubda ishlatiladi. Nutqqa emosionallik, ekspressivlik berish frazeologik birliklar turli xil emosional baholarining namoyon bo'lishiga yordam beradi. Frazeologik birliklarni boshqa leksik ekvivalentlar bilan taqqoslash jarayonida hissiy ekspressivlik alohida ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy nutqdagi frazeologizmlarning emosionalligi frazeologik birliklarning lisoniy ma'nosida, ularning kontekstual ishlatilishi natijasida paydo bo'ladigan hissiy rang-baranglikning ochib berilishida alohida ahamiyatga ega. Emosional va ekspressiv xususiyatlar frazeologik birliklarning lisoniy ma'nosiga singdirilganligi bois ma'lum uslubiy maqsadlarga erishishda keng qo'llaniladi.

Hozirgi o'zbek tilida frazeologik iboralar insonning hissiy holatini ifodalaydi: *og'zi qulog'iga yetdi, terisiga sig'may ketdi, qo'yi mingga yetdi, quvonchi olamga sig'maydi* va boshqalar. O'zbek tilidagi ushbu frazeologik-semantik guruh odamning quvonish, quvnoq holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday frazeologik birliklarning leksik ekvivalenti - **quvonch** leksemasidir.

Boshqa bir frazeologik-semantik guruh shaxsning g'azablanish, norozilik hissiy holatini ifoda etadi: *ko'zlarining paxtasi chiqdi, g'azabi qaynadi, ko'zi qonga to'ldi, tepa sochi tik bo'lib ketdi*<sup>57</sup> kabilarning leksik ekvivalenti **g'azablanish**dir.

Ajablanish, sarosimaga tushish holatini ifodalaydigan frazeologik-semantik guruhni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin: *og'zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* frazeologik birliklarining leksik ekvivalenti **ajablanmoq** leksemasidir.

Kuzatishlar ko'rsatib turibdiki, insonning hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklar ekspressivligi va emosional-hissiyliigi jihatidan tegishli leksik ekvivalentlar bilan taqqoslanganda ma'noni kuchli va obrazli ifodalashi ko'zga tashlanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, frazeologik birliklardan foydalanishda emosionallik va ekspressivlikning namoyon bo'lishini ularning lisoniy ma'nolaridan izlash kerak. Frazeologik birliklarning semantik tarkibida emosionallik va ekspressivlikning mavjudligi bir vaqtning o'zida frazeologik birliklar ma'lum uslubiy maqsadda ishlatiladigan nutq predmeti va ob'ektiga ijobiy yoki salbiy munosabatni xarakterlaydi.

Har qanday tilning frazeologiyasini o'rganishda frazeologik birliklarning obraz, emosionallik, ekspressivlik, uslubiy buyuqdorlik va baholash kabi xususiyatlarini anglash ahamiyatlidir. Yuqoridagi xususiyatlardan o'zbek tilining ko'plab frazeologik birliklariga xos bo'lgan baholash qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda shaxsga berilgan sifatiy bahoni ifoda etadigan frazeologik birliklarning baholash xususiyatiga alohida e'tibor beriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda, frazeologiya inson faoliyati bilan bog'liq his-tuyg'ulari va hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi, shuning uchun frazeologiyada odamlarning turli xil his-tuyg'ularini, ularning aqliy va

psixofizik holatini, inson xarakterining ba'zi xususiyatlariga, xulq-atvoriga berilgan baholash xususiyatlarini aks ettirishi tabiiydir.

Frazeologizmlarda kategorial va semantik ma'nolar farqlanadi. Kategorial ma'noda frazeologik birliklarning grammatik ma'nosi tushuniladi, bir-biriga semantik jihatdan aloqasi bo'lmagan va umumiy elementga ega bo'lgan frazeologik birliklar nazarda tutiladi. Frazeologik birliklarning semantik ma'nosi shaxs yoki ob'ektga nisbatan barqaror hamda ijobiy yoki salbiy xususiyatni ifodalaydi.

O'zbek tilida *bir qop yong'oq, aplotun miya, labidan bol tomadi, yuragi daryo, dili ochiq, ko'ngli keng* kabi frazeologik birliklar shaxsning ijobiy fazilatlarini, xarakterini ifodalaydi, shu bilan birga so'zlovchining nutq mavzusiga ijobiy hissiy-emosional munosabatini ham bildiradi. Shuningdek, *bez bo'lib turmoq, sirkasi suv ko'tarmaydi, tirnoq orasidan kir izlamoq, it emgan, ilonning oyog'ini yalagan* va boshqalar so'zlovchining nutq mavzusiga salbiy hissiy munosabatini ifodalaydi. Ushbu frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, tabiiyki, hissiylik, ekspresivlik va baholash xususiyatlarini o'z ichiga oladi, shuning uchun, bizning fikrimizcha, bunday frazeologik birliklar emosional-baho frazeologizmlaridir.

Frazeologik birliklarning semantikasiga bag'ishlangan ko'plab asarlarda (Yu.Yu. Avaliani, A.P. Mordvilko, V.P. Jukov, A.M. Emirova va boshqalar) frazeologik birliklarning baholash imkoniyati frazeologik-semantik va mavzuiy guruhlarini aniqlash asosida ko'rib chiqiladi. Bu shuni anglatadiki, bajaradigan vazifasiga ko'ra frazeologik birliklarni turli semantik turlarga ajratish mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda ularni konsept nuqtai nazaridan o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Semantik maydon" ma'lum ma'no doirasini qamrab oladigan lingvistik birliklar majmuidir. A.V. Kunin frazeologik semantikaning uchta jihatini ajratib ko'rsatadi: signifikativ, denotativ va konnotativ ma'nolar[6]. Ekstralingvistik kategoriya bo'lgan til va tafakkurning buzilmaydigan birligi, shuningdek, denotasiya va ma'no tomoni o'rtasidagi sifat farqi ham hisobga olinishi kerak[10].

Til birliklari ma'nosining konnotativ tomoni deganda ma'noning uslubiy tomoni, uning tarkibiy qismlari ma'nosining signifikativ va denotativ ma'nolariga hamroh bo'lgan qo'shimcha ma'nosi nazarda tutiladi. Konnotasiyaning beshta tarkibiy qismi ajratiladi: motivasion, emosional-ekspressiv, baholovchi, funksional-uslubiy va obrazli komponent. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, obrazlilik frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biridir, chunki frazeologik birliklarning aksariyati majoziy asosda vujudga keladi. Ushbu ob'ektiv sababni hisobga olgan holda tasvirning tarkibiy qismlarini, bizning fikrimizcha, ma'noning denotativ tomoniga bog'lash lozim.

Frazeologik semantikaga bag'ishlangan ilmiy nashrlarda frazeologik birliklar pozitiv-emosional va negativ-emosionallikka ajratiladi.

Agar tilda emosionallik atrofimizdagi moddiy olam dalillaridan kelib chiqadigan turli xil tuyg'ular: quvonch, qayg'u, qo'rquv, tajriba, tahdid va boshqalarni bildirsa, ekspressivlik nutqning ekspressivligi va tasvirini kuchaytiradi. Ta'kidlanganidek, emosiya har doim ekspressiv va baho-munosabatdir, aksincha emas. Shuni tan olish kerakki, emosionallik har doim, har qanday sharoitda ham ekspressivlik bilan dialektik aloqada bo'ladi, garchi ekspressivlik tilda emosionallikdan kengroq tushuncha bo'lsa ham.

Lingvistik-stilistik kategoriya sifatida baho “shaxsning ob’ektga nisbatan ob’ektiv-sub’ektiv yoki sub’ektiv-ob’ektiv munosabati, lisoniy vositalar bilan eksplitsit yoki implitsit tarzda ifodalanadi.

Aynan frazeologik birliklar ruhiy holatni, hissiy tajribani va insonning turli xil his-tuyg’ularini (hayrat, zavq, quvonch, ajablanish, g’azab, bezovtalik, qayg’u, befarqlik, qo’rquv, nafrat va h.k.) ifodalaydi va barqaror birliklar obrazli-majoziy asosining o’ziga xosligini belgilaydi.

Hissiy frazeologik birliklar badiiy asarlar mavzusini, badiiy qahramonlarning obrazli xususiyatlarini ochishda muhim o’rin tutadi. Ular badiiy asar poetikasining umumiy fonini hissiy mazmun va ekspressiv jihatdan boyitadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. -Тошкент, 1991. –Б.274
2. Е. М. Галкина-Федорук. «Безличные предложения в современном русском языке». – М.: 1949.
3. Соколова Г.Г. Фразеобразование во французском языке. - М., 1986. - Б.46
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т., 1992
5. В.Г.Гак.Проблемы лексико-грамматической организации предложений (на материале французского языка в сопоставлении с русским). – М.: 1968.
6. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М. 1986. – Б. 234.
7. Маматов.А. Ўзбек тили фразеологияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Наврўз, 2019.
8. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус провербал фразеологизмларида миллий-маданий хусусиятлар. Ҳозирги замон тилшунослигида когнитив лингвомаданиятшунослик ва гендер тилшунослиги йўналишларига доир масалалар. –Т., 2013. – Б. 68.
9. Ниязметова. Д. Ўзбек ва инглиз тилларидаги фразеологизмлар маданий хусусиятларининг учта даражаси.“Илм сарчашмалари” УрДУ илмий-методик журнали. – Урганч, 2016. №6. – Б. 23.
10. Равшанов М. Сопоставительный анализ особенностей фразеологических лингвокультрем. Тил ва Адабиёт журнали. –Т., 2018. 9-сон. – Б. 64.

## “AVESTO” – RAHIM VOHIDOV TALQINIDA

Saidova Nodira Mustakimovna-Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning O‘rta Osiyo xalqlarini mushtarak yodgorligi “Avesto”ga doir tahlil va talqinlariga munosabat bildirilgan. Shu bilan birga olimning mumtoz matn mohiyatini ochishda s o‘z tanlash va s o‘z qo‘llash mahorati keng ochib berilgan. Badiiy matn tahlilida hermenevtik yondashuvning afzallik tomonlariga alohida urg‘u berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, badiiy matn, hermenevtika, sharhlash, tahlil, izohlash, tadqiqot, talqin, mohiyat, mazmun

## «АВЕСТО» - В ИНТЕРПРЕТАЦИИ РАХИМА ВАХИДОВА

Саидова Нодира Мустакимовна- Преподаватель Бухарского государственного университета.

**Аннотация.** В статье дается ответ на анализ и толкование ученым-литературоведом Рахимом Вахидовым “Авесты”, общего памятника народам Средней Азии. При этом широко раскрывается умение ученого подбирать слова и использовать слова в раскрытии сущности классического текста. В анализе художественного текста особое внимание уделяется преимуществам герменевтического подхода.

**Ключевые слова:** Авеста, художественный текст, герменевтика, интерпретация, анализ, исследование, сущность, содержание.

## "AVESTO" - IN THE INTERPRETATION OF RAHIM VAHIDOV

Saidova Nodira Mustakimovna- Teacher of Bukhara State University

**Annotation.** The article provides an answer to the analysis and interpretation of the Avesta, a common monument to the peoples of Central Asia, by the literary scholar Rahim Vakhidov. At the same time, the ability of a scientist to select words and use words in revealing the essence of a classical text is widely revealed. In the analysis of a literary text, special attention is paid to the advantages of the hermeneutic approach.

**Keywords:** Avesta, literary text, hermeneutics, interpretation, analysis, research, essence, content.

### Kirish

Ma‘lumki, Istiqlolning ilk kunlaridanoq mumtoz asarlarni nashr etish, ularga oid ilmiy, ilmiy-ommabop tadqiqotlarni amalga oshirish ishlariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa yozma manbalar, mumtoz asarlarni adolat mezonlarida baholash, ularni xolis va ishonarli talqin qilish imkonini berdi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarga turli rakuslardan baho berish natijasida mumtoz mantlarga oid turli talqinlar yuzaga kela boshladi. “Zero, “tahlil va talqinlar-badiiy asar bahosini belgilashdagi bosh mezon” [6;341].

Mumtoz adabiyot - hikmat xazinasi (R. Vohidov ). Uni tadqiq qilish zamonaviy adabiyot haqida fikr yuritishga nisbatan murakkabroqdir. Buning bir necha omillari bor, albatta. Bunday murakkabliklar, birinchidan ming yillik adabiyotimizdagi dunyoqarashning xilma-xilligi, ikkinchidan, tilning murakkabligida, uchinchidan, mumtoz adabiyot namunalarning bizga

qadar bir xil maromda yetib kelmaganligidadir. Bunday omillarni yana ko'plab keltirish mumkin. Shunday bo'lishiga qaramay, mumtoz adabiyot durdonalarini tadqiq qilish, ularni xalqqa tanishtirish, ijodkorlarning o'lmas g'oyalari kelajak avlodga yetkazish borasida o'zbek adabiyotshunosligida qator tadqiqotchilar yetishib chiqdiki, ularning ilmiy tekshirish ishlari natijasida boy o'tmish adabiyotimiz anchagina keng va chuqur o'rganildi. Bunday harakatlarini birinchilardan bo'lib A. Fitrat boshlab berdi. S. Ayniy, Olim Sharafiddinov, Porso Shamsiyev, Oybek, G'ulom Karimov, Homil Yoqubov, N.Mallayev, M. Shayxzodalarning ko'plab tadqiqotlari mumtoz adabiyot tadqiqiga daxldor. Bu borada Boturxon Valixo'jayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'afforov, Suyuma G'aniyevalarning o'rni o'ziga xosdir. O'zbek adabiyotshunoslardan biri filologiya fanlari doktori, professor navoiyshunos olim Rahim Jo'rayevich Vohidov o'zining mumtoz adabiyot va hozirgi zamon o'zbek adabiyoti masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqola hamda monografiyalari bilan adabiyotshunosligimiz taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi. Olim tadqiqotlarida badiiy matnni talqin qilishga qaratilgan germenevtik (adabiy talqin) yondashuvning ustivor ekanligi ko'zga tashlanadi. Germenevtika badiiy matnni o'quvchiga tahlil va talqin orqali tushuntirishni ko'zda tutadi. Sh.Jabborov "Germenevtika-tushuntirish ilmi" nomli tadqiqotida "Germenevtika bilish, tushunish, sharhlash va izohlash" [5;154] orqali badiiy matnni anglashga qaratilganligini qayd qiladi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Ta'kidlash kerakki, Rahim Vohidov tadqiqotlarini birgina metodga bog'lab qo'yish ham u darajada to'g'ri emas. Boisi, olim tadqiqotlarini kuzatganimizda ularda germenevtik metod bilan birga biografik, lingvistik, tarixiy-qiyosiy kabi yondashuvlar asosli qo'llangani ham yaqqol ko'rinadi. O'zbek adabiyotshunosligida germenevtikaga oid ilmiy qarashlarni o'rgangan olim B. Karimov talqin turlari haqida "talqindagi xilma-xillik negizi, badiiy talqin va ilmiy talqin muvozanati, badiiy asarni tushunish va tushuntirish, ilmiy talqin va unga boshqa omillarning ta'siri oydinlashadi",- deb yozadi [7;5]. Rahim Vohidovning tadqiqotlarida ham bevosita mana shu xususiyat ko'zga tashlanadi. Olimning shakllangan uslubida badiiy va ilmiylik qorishib ketganligini ko'rish mumkin .

Rahim Vohidovning diqqat markazida boy adabiy merosimizning xilma-xil muammolari - adabiy aloqalar, adabiyot va ma'naviyat, Alisher Navoiy ijodi, adabiyot tarixi masalalari turgani diqqatga sazovordir. Ularni o'rganish va yoritishda Rahim Vohidov fidoyilik ko'rsatdi, desak mubolag'a bo'lmas.

Istiqlolimiz yillarida esa Rahim Vohidov tadqiqotlari milliy istiqloq g'oyalari talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirildi, ularda ma'naviyat va ilohiyot, so'z qadri va qimmatiga oid masalalar, badiiyat muammolari keng ko'lamda yoritildi. Bularning har biri haqida ko'plab fikrlar bildirish mumkin. Bu tadqiqotlarda nigohi keng fikrli olimning adabiyot tarixiga qarashlari yanada chuqurlashib, adabiy merosimizning bir necha yirik namoyondalari ijodiga, ularning asarlariga yondashishi mukammallashdi va go'zallashdi. Ana shunday mo'tabar manbalardan biri, O'rta Osiyo xalqlarini mushtarak yodgorligi "Avesto". Olimning mazkur manba haqidagi qarashlari "Armonga aylangan adabiy orzular" [3] risolasi hamda Oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishiga mo'ljallangan darslikda [4] o'z ifodasini topgan.

### Natijalar va muhokama

“Armonga aylangan adabiy orzular” risolaning dastlabki fasli “Avesto” tadqiqiga bagʻilanadi. Undagi “Avesto” - *noyob maʼnaviy yodgorlik*”, “Avesto” – *tadqiqotchilar nigohida*”, “Axura Mazda – *yakkaxudolik timsoli*”, “Avesto”ning tarkibi”, “Nur va zulmat bahsi”, “Avesto”da axloqiy-tarbiyaviy masalalar talqini” kabi sarlavha ostida berilgan tahlil va talqinlarda manba keng va qiziqarli tahlil qilinadi.

Eʼtiborlisi shundaki, mazkur risolada olimning badiiy matn tahlilida oʻziga xos yondashuv koʻzga tashlanadi. Yaʼni olim mumtoz manba tahlil va taqinida mahoratli ijodkor sifatida namoyon boʻladi. Shuning uchun bunday talqinlarni nafaqat mutaxassis adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar ommasi qiziqib oʻqiydi. Rahim Vohidov “Avesto”ga oid tadqiqotida salmoqdor mushohadalari va teran qarashlarini ilmiy-ommabop yoʻsunda, oʻrni – oʻrni bilan badiiyat unsurlaridan foydalangan holda bayon qiladiki, bunday yondashuv “Avesto”day muazzam manbani tushunishga juda qoʻl kelgan va uni tushunishni osonlashtirgan.

Olim dastlab asar tahliliga kirishish uchun hazrat Alisher Navoiyga murojaat qiladi. Ulugʻ adibning “Tarixi muluki Ajam” asarida islomga qadar boʻlgan davrda Eron-u Turon zaminida saltanat surgan hukmdorlar - Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar haqida maʼlumotlar keltirilgan. Ulugʻ mutafakkir ikkinchi tabaqaga mansub Gushtosbga doir maʼlumot beradi va yozadi: “Gushtosb Halab mulkida taxtqa oʻlturdi va **zardusht aning zamonida zuhur qildi**. Va ul **gabr** dinida riyozatlar va mujohadalar tortib erdi, **“Zind” kitobin** tasnif qilib, elni ul dingʻa daʼvat qildi. Chun **hakim erdi** va riyozat jihatidin elni sayd qilib erdi, Gushtosbni ham firifta qildi. Gushtosb zardusht dinin ixtiyor qilib, elni ham ul millatqa kiyurdi va Rumda qaysargʻa kishi yiborib, ani dagʻi bu dingʻa dalolat qildi...” [1;210] Mazkur iqtibosga eʼtibor bergan olim undagi “Gabr” va “Zind” atamalariga diqqat qiladi. “Lugʻatlarda Gabr “Otashparast, oʻtga topinuvchi, zardusht dinidagi, majusiy” tarzida izohlansa, Zind yoki Zandga “yirik, ulkan, katta; “zardushtlarning pahlaviy (qadimgi fors tili) tilidagi diniy kitobi” qabilidagi talqinga duch kelamiz. Ayrimlari eslatilgan jihatlardan ayonlashadiki, ulugʻ oʻzbek shoiri Avesto va uning yaratilish tarixidan yetarli xabardor boʻlgan” [3;4]. Navoiy “Zand” yoki “Avesto”ning asoschisini esa “hakim erdi” tarzida ulugʻlaydi. Keltirilgan iqtibosda olim soʻzlarning lugʻaviy maʼnolargi orqali “Avesto”ga doir maʼlumotlar oydinlashtirsa, ikkinchida, Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridagi maʼlumotning qimmatligini taʼkidlaydi.

Tarix – abadiyat devorlariga yozilgan haqiqatdir. Uni davrlar manfaati va mafkurasiga qarab oʻzgartirishga yoki buzib talqin qilishga hech kimning haqqi yoʻq [8ʻ156]. Ayni haqiqat, R. Vohidovning “Avesto” haqida talqinlarida ham koʻzga tashlanadi: “Bagʻoyat yuksak insoniy fazilatlar va oʻlmas umumbashariy gʻoyalarni oʻzida mujassam etgan mazkur shoh asar boshiga tushgan tazyiqu qirgʻin barotlarni pisand etmay, sarhad-u til toʻsiqlarini yengib Mashriqu Magʻrib maʼrifatparvarlari diliga ziyo nurini sochib kelayotir” [3;5]. Koʻrinib turibdiki, olimni qiziqtirgan va ulugʻ manbani tahlil-u talqiniga undagan narsa “oʻlmas umumbashariy gʻoyalar” sanaladi. Ana shu maqsada maʼnaviy durdona bagʻridagi gʻoyalarni oʻz oʻquvchilariga tahlil va talqinlari orqali koʻrsatib berishni niyat qiladi.

Maʼlumki, “yaxshiroq tushunish” germenevtikaning muhim tamoyilaridan biridir. Bu tamoyilni olib kirgan Shlermaxerning fikrcha, resipient<sup>58</sup> matnni muallifdan ham koʻra chuqurroq va kengroq tushunishi mumkin. Talqinchi faqatgina matnda badiiy talqin qilingan

<sup>58</sup> Retsipiyyent – badiiy sanʼatni talqin qiluvchi kishi.



voqea – hodisalar bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy voqealar, muallif hayotiga daxldor ma'lumotlarga ham tayanadi. Bunday xususiyat R. Vohidov tadqiqotlarida yart etib ko'zga tashlanadi. Olim "Avesto" dek muazzam asar tahliliga ma'lum bir tayyorgarlik bilan kirishadi. Asar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni nazardan o'tkazadi, ularga baho beradi.

Risolaning "Axura Mazda - yakkaxudolik timsoli" faslida olim e'tibor qaratgan masala juda muhim sanaladi. Risolada Ahura Mazda nomini Mashriq zamin manbalarida "Uhra Mazda", "Hurmazda", "Hurmazd", "Uramazda", "Ahuriy Mazd", "Mazda Ahura" ko'rinishlarida tilga olishini manbalar asosisida ta'kidlanadi: "Ahura Mazda ikki tarkibdan iborat bo'lib, har bir qism o'z talqiniga ega: **Ahura** – "Xudo", "yaratguvchi", "ulug'" ma'nolarini anglatadi; **Mazda** – "hushyor", "dono", "ogoh" kabi mazmun jilolariga egadir. Birikma holda esa "**dono sarvar**", "**ogoh rahnamo**", "**hushyor yaratguvchi**"ni bildirib keladi" [3;7]. Olim fikr tasdig'ni tarixiy manbalardan izlaydi: Jumladan, qadimgi yunon donishmandi Porfiriy tasavvurida Ahura Mazda – Xo'rmuzdning "**tanasi** – Nur, yog'du, qalbi – Haqiqat" ramzi bo'lib ko'ringanligini qayd etadi. Tahlil va talqin nuqtasini "Avesto"dagi leksik birliklardan boshlanishi ham badiiy matn tadqiqi uchun muhim sanaladi. Har bir so'z matnda butunning qismi sifatida tasavvur prizmasidan o'tkaziladi, ma'no qirralari izohlanadi. Buni olim tomonidan mo'tabar manbadagi qo'yidagi iqtibosning izohlanishida ham ko'rishimiz mumkin. "Yasna"ning birinchi duosi (namozi) birinchi bandida Ahura Mazda "eng go'zal (jism) sohibi" sifatida e'tirof qilinadi. Shu o'rinning o'zida "Quyosh - Ahura Mazdaning ko'zlari" tarzida talqin etiladi. Shuningdek, "Yasna"ning 31 – hoti sakkizinchi munojotida o'qiymiz: "... **Ey mazda!** Qachonki men seni butun borlig'im bilan tiriklikning ibtido va intihosi, Ezgu niyatning otasi deb tanidim, o'shanda men seni **qalb ko'zi bilan ko'rdim**. Sendan Ashah – Haqiqatning haqqoniy yaratguvchisi va olam ahli amallarining hakami" [3;10]. Olim tomonidan keltirilgan iqtibosdagi ikki nuqtaga e'tibor qaratiladi. Birinchisi, parchadagi "**Ashah**"- "**rostlik, haqqoniyat, haqiqat, hakam, tartib-qoida, mukammal nazm**" kabi ma'nolarni anglatishi, biroq ta'kidlangan ma'no jilolari "Ashah"ning "Avesto"da kelgan barcha talqinlarini yetarlicha ifodalay olmasligi, ikkinchisi, "**seni qalb ko'zi bilan ko'rdim...**" jumlasidir. Olim ikki gapdan iborat matni sharhlash uchun juda ko'p manbalarni ko'radi, lug'atlardagi izohlarga e'tibor qaratadi va irfoniy-falsafiy adabiyotlarda tez-tez ko'zga tashlanadigan bu jumlaning ("seni qalb ko'zi bilan ko'rdim...") sarchashmasi "Avesto" emasmikan?! -degan mulohazani o'rtaga tashlaydi. Olim shu tariqa fikrlarini davom ettiradi.

Ta'kidlash kerakki, har qanday badiiy matn o'z davrining mahsul sifatida yuzaga kelar ekan, unda davr ifodasi o'z muhrini qo'yadi. Uni tadqiq qiluvchi tadqiqotchi esa mazmunni talqin qilishda erkin yondashadi, natijada matnning ma'no qirralari kengayib boradi. Hatto uning muallifi nazarda tutmagan talqinlarning yuzaga kelishi mumkin. Bunday jarayon "Avesto"ning R. Vohidov tomonidan qilingan talqinlarida ham kuzatiladi.

Insoniyat yaratilibdiki, olamning yaralishi bilan bog'liq ilohiy qarashlarga qizib, uning mohiyatini tushunishga harakat qilib keladi. "Germenevtikaning predmeti va ta'limoti esa butushunish nazariyasi, ya'ni olam va odam borlig'i hamda birligini tushunish muammosi. Vaholanki, Alloh tomonidan yaratilgan har bir narsa va mavjudotning o'rni va ahamiyati borligini tushunish, uning mavjudligi bilan kelishish, o'zaro nifoq, ayniqsa, intiqomga o'rin yo'qligini tushunish va atrofdagilarga shu tushunilgan g'oyani yetkazish haqidagi ta'limot" [9;173]. Zardusht ham buyuk faylasuf sifatida borliqning paydo bo'lishi, uni kim yaratgani,

koinotning tuzilishi, shakl-u shamoyili haqida bosh qotiradi va bu muammoni yechishga urinadi. Buning uchun Axura mazdadan madad so'raydi.

*"-Ey, Ahura!*

*Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber:*

*Oyoqlarimiz ostida to'shalgan zaminni kim yaratdi?*

*Boshimizda yiqilmay turgan osmonni yaratgan kimdir?*

*Suv va giyohlarni kim bunyod etdi?*

*Kim shamol va qora bulutlarga shitob baxsh ayladi?"*

*- Ey, Mazda!*

*Ezgu niyatni yaratgan kim?*

*- Ey, Ahura!..*

*Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber:*

*Qay bir ustoz yorug'lik va zulmatni yaratdi?*

*Qay bir ustoz uyqu va bedorlikni yaratdi?*

*Yaratuvchining paymonini ado etish uchun tong, tush va tunni kim yaratdi?"*

Keltirilgan iqtibosda olamni anglashning falsafiy, ilmiy asoslari haqida fikr yurtlayotgani kunday ravshan. Biroq olimning badiiy matnga yondashuvi, uni talqin qilishdagi mahorati orqali keltirilgan matn bugun bilan bog'lanadi. "...Hatto ibtidoiy jamoa odamlari ham atrof-muhitga juda befarq bo'lmagani, ularni o'rganish, bilishga intilishdan tashqari, ulug' mo'jizaviy qudrat tomonidan bunyod etilgan *betakror va go'zal borliqni muhofaza qilish* bilan aloqador dolzarb muammolar ham o'rtaga qo'yiladi. Yana bir masala: tabiat nafosatini asrab-avaylash, uning go'zalligi hamda boyliklariga vahshiyona munosabatda bo'lmaslik kabi oqilona da'vat -chaqiriqlar "Avesto" sahifalarida ham ko'zga tashlanadi. Eslatilgan dilbar lavhalar qomusiy yozma yodgorlikning umumbashariy mazmun-mohiyatidan tashqari, unda ilgari surilgan bunday o'lmas g'oyalar bugungi avlodning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi yo'lida beminnat xizmat qilishi bilan ham qadrlidir" [3;8].

Ta'kidlash kerakki, yuqorida tahlilga tortilgan matn va unga olimning munosabatida talqinning grammatik va psixologik turlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni olim badiiy matnni o'z tarixiy davrining mahsuli va aksi sifatida talqin qiladi, unda ilgari surilgan g'oya va mazmunni ochib berishga harakat qiladi, uni yaratgan xalq, millat (agar u yozma yodgorlik bo'lsa - S. N) yoki muallifning asl niyatini oydishlashtiradi. Bunday yondashuv esa psixologik talqinning vazifasi sanaladi. Leksik talqinda esa badiiy matnning til qurilishi va leksik tizimi o'rganiladi. Talqinning har ikkala turi ham badiiy asarini tushunishga yo'l ochadi. Ularning bir-biri bilan almashinib turishi badiiy matn tushunishga olib boradi.

Diqqat qilsak, R. Vohidov talqinlarida tushunishning ikki ko'rinishi - grammatik va psixologik talqin birgalikda olib borilgan. Matndagi har bir so'zi ma'no bilan bog'langan, so'zning ma'no qirralari farqlangan va izohlangan. Bundan tashqari, olim talqinlarining mohiyati ko'proq qiyoslarda ravshanlashadi. Jumladan, yuqorida keltirilgan iqtibos sharhida Qur'oni karim suralariga murojaat qilinadi va ular o'rtasidagi g'oyaviy bog'liq ochib beriladi. "... Oллоh osmonlarni sizlar ko'rgudek ustunlarsiz ko'tarib qo'ygan, so'ngra o'z arshini egallab quyosh va oyni O'z amriga bo'ysundirgan zotdir... U yerni yoyiq qilib yaratib, unda bog'lar va daryolar paydo qilgan zotdir. U yerdagi har mevani ikkitadan juft-juft (ya'ni erkak-urg'ochi) qilib yaratdi. U kechani kunduz ustuniga yoyar (kecha-kunduz ham bir-birlarining juftlaridir)" (O'sha kitob, 168-bet). Bunday lavhalar ming yillar davomida Yaratgan Qodir Egamning mo'jizasi

sifatida bunyod etilgan va vujudida ilohiy ruhni ko'tarib yuruvchi Odam Ato zurriyotlari tomonidan olg'a surilgan ezgulik xususidagi tafakkur durdonalarini avloddan-avlodga, kitobdan-kitobga ko'chib, sayqallanib yashayotganligidan yorqin nishonadir [3;9].

Tushunish – germevtikaning asosi. Tushunishda esa faqatgina matn mohiyati anglashilmaydi, balki uni tushuntiruvchi, talqin qiluvchi shaxs - resipientning ma'naviy olami, bilimi, tafakkur kengliklari ham namoyon bo'ladi. Xuddi shunday xususiyat R. Vohidovning "Avesto"ga oid talqinlarida ham ko'zga tashlanadi. Olim, birinchi navbatda, "Avesto" matniga oid tahlillarda nafosat va go'zallikka e'tibor qaratsa, ikkinchi tomondan, yozma manbadagi muammolarni bugun bilan bog'laydi, shu orqali tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan muammolarga munosabat bildiradi. Bunday tahlillarda esa olim nafosat kuychisi, millat va uning taqdiriga kuyukchan inson qiyofasida namoyon bo'ladi. "Aslida, haqiqiy talqin adabiyot go'zallik haqida mulohaza yuritish, kitobxonni nafosat olamiga boshlashdir. Haqiqiy talqiniy asarlarda estetika dunyosining ajoyibotlari, sir-sanoatlari yuzaga chiqadi, kitobxon borligini chulg'ab oladi". Olimning badiiy matnga shunday yondashuvini quyidagi matn talqinida ham ko'rishimiz mumkin.

*"Zardusht Ahura Mazdadan so'radi:*

- *Ey Ahura Mazda! Ey, olamlar nuri!*

- *Ey, yaxshilik dunyosini yaratguvchi! Ey, Ashavan!*

*Sen – Ahura Mazdasan, men – Zardushtman. So'yla- chi, mendan boshqa odamlar ichidan yana kimdan hol – ahvol so'rading?*

*Kimga Ahura va Zardusht dinini oshkor qilding?*

*Ahura Mazda javob berdi:*

- *Ey, Ashavan Zardusht!*

*Men - Ahura Mazda – sen Zardushtdan tashqari odamlar orasidan birinchi bo'lib quyosh yuzli, yaxshi suluvarlar sohibi Jamdan hol so'rdim hamda Ahura va Zardusht dinini unga oshkor qildim".*

Iqtibosda Zardusht va Ahura Mazdaning savol – javoblari berilgan. Olim matn sharhini *yaxshilik va yomonlik* dunyosining kurashiga bog'lab izohlaydi. Ba'zan "zulmat"ning qo'li baland kelsa, g'alaba ko'pincha "nur" tarafida bo'lib turgan. Buning uchun Zardushtning murojat-u munojotlariga Ahura Mazda – Jamning yaxshilik tarafida turib hakim Zardushtni himoya qilganligi asosiy sabab hisoblanadi" [3;15]. Olim sharh jarayonida ezgulikning g'alabasi sifatida "Jam yer yuziga ikki odim kenglik baxsh ayladi. Bu kenglik bag'riga suruvlar, tevalar uyuri, odamlar kelishdi. Ular ko'ngillari tusagan yerlarni vatan tutishi"ni ta'kidlaydi. O'z xulosalarida Vendidot sahifalaridagi umumbashariy g'oyalar, adolat tantanasiga bo'lgan ishonchning ustivorligi "Avesto" yashovchanligini ta'min etgan tayanch vositalardan biri ekanligini talqin etadi.

### **Xulosa**

qilib aytganda, olimning teran, mushohadaga boy talqinlari esse janrini esga soladi. Bunday talqinlarda ma'rifiy-axloqiy, badiiy-estetik g'oyalar, ijtimoiy-falsafiy qarashlar ilmiy-ommabop tilda, badiiy vositalarga tayangan holda bayon qilinadi. Bu esa kitobxonga badiiy matn mohiyatini tushunishda birmuncha osonlik va qulayliklar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, XVI tom. –T.: Fan, – 2000.
2. Avesto. "Sharq" nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyat. –T.: 2001.

3. Vohidov R. Armonga aylangan adabiy orzular. –T.: Fan, 2009.
4. Vohidov R. H. Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Hammuallif: H. Eshonqulov. 2005.
5. Jabborov Sh. Germenevtika-tushuntirish ilmi.T.: Akademiya, 2010.
6. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonova Q., Sh.Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2012.
7. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –T.:Akademnashr, 2014.
8. Mirzo Kenjabek. Beruniy haqiqatlari. Kitobda:Yoshlarga dil o‘zlarim (Yosh ijodkorlarga samimiy tavsiyalar.) –T.: “Adabiyot”. 2021.
9. Tojiboyev M. Germenevtika va badiiy nutq. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2023.

### SHAVKAT RAHMON TARJIMA SHE‘RLARINING ESTETIK IMKONIYATLARI (FRANSUZ TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA)

Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna-Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Shavkat Rahmonning fransuz tiliga tarjima qilingan she‘rlari lingvopoetik tahlilga tortilgan bo‘lib, ijodkor mahorat bilan qo‘llagan leksik birliklarning badiiy-estetik vazifalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Ularning tarjimada poetik aktuallashtirish jarayoni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** individual uslub, ijodkor mahorati, tarjimon mahorati, estetik vazifa, leksik birlik imkoniyati, poetic tahlil, metafora

**Аннотация:** В данной статье стихотворения Шавката Рахмана, переведенные на французский язык, анализируются в лингвопоэтике, при этом особое внимание уделяется художественно-эстетическим функциям лексических единиц, используемых художником. В переводе раскрывается процесс их поэтической актуализации.

**Ключевые слова:** индивидуальный стиль, творческое мастерство, переводческое мастерство, эстетическая задача, возможность лексического единства, поэтический анализ, метафора.

### AESTHETIC POSSIBILITIES OF SHAVKAT RAHMAN'S POEMS IN TRANSLATION (EXAMPLE OF FRENCH TRANSLATIONS)

Eshboyeva Tursuntosh Sokhatmamatovna- student of Samarkand State University, PhD

**Abstract:** In this article, the poems of Shavkat Rahman, translated into French, are analyzed in linguopoetics, with special attention paid to the artistic and aesthetic functions of the lexical units used by the artist. The translation reveals the process of their poetic actualization.

**Key words:** individual style, creative skill, translation skill, aesthetic task, the possibility of lexical unity, poetic analysis, metaphor.

Badiiy matnning estetik vazifasini tahlil qilish lingvopoetikaning birlamchi muammolaridan biri bo‘lib, estetik ta‘sirni oshiruvchi badiiy aktuallashtirish leksik vositalarning tahlili she‘riyatda juda muhim sanaladi. Ayniqsa, badiiy matn tarjimasida bu masala alohida e‘tibor talab qiladi. Inchunin, ijodkorning individual uslubi, so‘z qo‘llash mahorati ta‘sirida har bir leksik birlik o‘ziga xos estetik vazifa bajaradi. Bu esa, albatta, tarjimondan alohida

yondashuvni talab qiladi. Chunki tarjimada leksik birliklarning original matnda bajargan estetik vazifalari xiralashsa, nafaqat matnning ta'sirchanligi kamayadi, balki o'quvchining diqqatini chalg'itadi ham. Biz mazkur kuzatishlarimizda o'ziga xos so'z qo'llash mahoratiga ega shoir Shavkat Rahmonning fransuz tiliga tarjima qilingan she'rlaridagi leksik vositalarning poetik-estetik imkoniyatlariga e'tibormizni qaratdik. Chunki shoirning she'rlaridagi metafora va uni hosil qiluvchi leksik-grammatik hodisalarni o'rganish nafaqat Shavkat Rahmonning tildan foydalanish mahoratini, balki ona tilimizning keng imkoniyatlarini ham ochib beradi. Shavkat Rahmon o'z she'rlarida so'zning turli ma'no qirrasini, so'z ma'nosining ko'lamini va qurshovini alohida noziklik bilan qo'llaydi. Ayniqsa, shoir qo'llagan metaforalar diqqatga sazovor. Metafora poeziyada, albatta, yangilik emas.

Lekin u har bir iste'dodli shoirda o'ziga xos jilvalarda namoyon bo'ladi. Shavkat Rahmon metaforalarining o'ziga xosligi ularning qamrovida va mavzuga mayin, tabiiy romantik ohangdoshligida. Unda ayrim obrazlargina emas, balki butun she'r metafora harakatiga quriladi, metafora poetik tilga, obraz mantig'iga, she'riy tafakkur boyligiga aylanadi. Shoirning fransuz tiliga mahorat bilan tarjima qilingan "Bahorning ilk kunida ayolini ko'rgan shoir kechinmasi" nomli she'ridagi deyarli har bitta lisoniy birlik estetik vazifa bajargan, muallifning o'ziga xos dunyoqarashini aks ettirib, she'rda lingvomadaniy mazmun shakllantirgan. Shuningdek, she'rning kompozitsiyasi ham o'ziga xos.

Bu ayol...

Ko'zimga qushday ko'rindi,  
musicha, kaptarday — surganda xayol.  
Qaydanam sozladim tasavvurimni,  
qushga o'xshayverar hadeb bu ayol!  
Go'yo xob elitgan...  
Suvrati so'lg'in,  
sezdirmay jilmayar go'yo humoylik.  
So'lish yo giryami — g'alati to'lqin,  
ko'zlari hazinlik yoxud xumorlik.  
Bahorga o'xshatsam...  
bahor yarashmas —  
bu ayol bahordan ming bora go'zal.  
Poyiga tashlashga — qalbni tarashlab,  
yoniq so'zlar kerak,  
samimiy so'zlar.  
Bahorning bir zumrad bo'sag'asida  
kaftlari qushlarday...  
Ovozsiz so'ylar.  
Dunyo, bu ayolga o'xshatadigan  
bormi biror timsol qushingdan bo'lak.  
Hadikli nigohni sirli qirida  
osmonni chog'larkan qushday beg'ubor,  
sezaman,  
ayolning nozik kiftida  
qanday og'ir so'zlar,

g'amgin so'zlar bor.

Ko'rinmas so'zlarni ayol kiftidan

birma-bir olaman sehrigar kabi.

Qo'llari titraydi ayolning birdan,

ko'zlari titraydi,

titraydi labi...

Go'yoki parvozdan oldingi holat;

nozik kaftlarida eng so'nggi malol —

go'yoki so'nggi so'z,

og'ir so'z qolgan,

so'nggi so'zni olsang,

uchguday ayol.

She'rda ayol qushga o'xshatiladi va bu metafora butun she'r mazmunida asoslanadi, ya'ni har qanday qushga emas, musicha, kaptarga o'xshatiladi, chunki u beozor. Ammo shoir she'r matnida beozor degan so'zni qo'llamasdan o'z o'quvchisiga o'zining shu xulosasini uqtira olgan. Xuddi shu o'rinda shoir "So'lish yo giryami — g'alati to'lqin, ko'zlari hazinlik yoxud xumorlik" deya ritorik so'roq ishlatish orqali lingvopoetikaning yana bir vositasini mahorat bilan estetik mazmun ifodalashga xizmat qildiradi. Bu o'rinda "g'alati to'lqin" ning hosil bo'lishi ham e'tiborni tortadi. So'lish yo giryami(yig'i)ning ham to'lqini bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa ham bunday to'lqin "g'alati" bo'lishi tabiiy. Shu o'rinda "g'alati" so'zi shunday estetik vazifa bajarganki, bu tarjimada ham o'ziga xos qiyinchilik paydo qiladi. Ya'ni bu kabi mahorat bilat ifodalangan his-tuyg'ularni ohorli, orginal ifodalash tarjimondan alohida mahorat, ijodiy yondashuv talab qiladi. Keyingi misralarda ijodkor o'zining o'xshatishining qanchalik asosli ekanligini isbotlashga urinadi, ya'ni ayolni bahorga o'xshata olmasligini, uning bahordan ming bora go'zalligini keltirar ekan yangicha yondashuvni o'rtaga tashlaydi.

Ma'lumki, tilshunoslikda o'xshatishlarning an'anaviy va xususiy (individual) kabi turlari farqlanadi. Shavkat Rahmon she'rlarida ham bir-biriga o'xshamagan, boshqa ijodkorlar qo'llamagan metaforalar, sintaktik figuralar, sintaktik-stilistik shakllar fikriy-mantal vosita sifatida yetakchilik qiladi. Ayollarni go'zal bo'lgani uchun ko'pincha bahorga mengzash an'anaga aylangani sir emas, ijodkor esa o'zining individual o'xshatishiga o'quvchini ishonitirish uchun ana shu o'xshatishni inkor qilishga harakat qiladi. Mahorat bilan she'r mazmuniga singdirilgan bu dalil ijodkorning o'ziga xos bilimini ham ifodalashdek estetik vazifa bajaradiki, o'quvchida aslo e'tiroz paydo qilmaydi. Aksincha, shoirning ijodiy yaratig'ining ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, tilshunos olimlar X. Abdurahmonov va N. Mahmudovlar «Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun esa, «narsalarning qat'iy, yalang'och mohiyati» emas, balki ularning yuksak ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bo'lmagan nutqda o'zaro bog'lanishi chegaralangan so'zlarni bog'lash orqali turli ma'no nozikliklarini, ekspressivlik, emotsionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir» [1] degan fikrlarni bejizga bildirmaydilar. Zero, bunday poetik go'zallik til va adabiyot tutashib ketgan o'rinlardagina yuzaga keladi. Shuningdek, shoir o'zini, she'rning lirik qahramonini sehrigarga o'xshatish orqali ham yuqoridagi o'xshatishiga yana bir bor dalil keltirganini ko'rishimiz mumkin. Metafora nuqtning ta'sirchanligini oshiruvchi, uni ziynatlovchi hodisa sanalasa, uni dalillab ifodalash ijodkor individual uslubining, mahoratining belgisidir. She'r matnida har bir

lisoniy birlik shunday o'rinlashganki, ularning har biri o'ziga xos estetik vazifa bajarib yaxlit butunlikni hosil qilgan hech birini boshqasiga almashtirib bo'lmaydigandek taassurot qoldiradi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta'sir quvvatini namoyon etadi"[2]. Ma'lumki, so'zni ko'chma ma'noda qo'llash badiiylikni kuchaytiribgina qolmay o'quvchining estetik zavqini ham oshiradi. Yuqoridagi she'r misralarida xuddi shunday holatning guvohi bo'lamiz, "qalbni tarashlamoq", "yoniq so'zlar", "zumrad bo'sag'a", "ovoqsiz so'ylamoq", "nigohning sirli qiri", "og'ir so'zlar", "ko'rinmas so'zlar" kabi birikmalarda turli so'z turkumlariga oid so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanilib hissiyotlar ifodasining estetik ta'sirini oshirgan. Badiiy matnda ijodkorlar qo'llagan epitetlar ham o'ziga xos estetik vazifa bajarishi sir emas. Yuqoridagi she'r matnida ham mahorat bilan yaratilgan epitetlarning o'ziga xos estetik vazifa bajarganligining guvohi bo'lamiz. Birgina "so'z"ga nisbatan "yoniq", "samimiy", "og'ir" (2 marta), "g'amgin", "so'nggi" (2 marta) kabi beshta sifatlashning ishlatilishi muallifning ayolga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan so'zlashni, ya'ni unga samimiy, yoniq so'zlarni aytish kerak degan fikrini hamda ayolning so'zlari ham boshqacha ekanligini ifodalashga xizmat qilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, butun she'r matni estetik zavq beruvchi o'xshatishlarga boy, buni o'xshatish vositalarining soni bilan ham isbotlashimiz mumkin, ya'ni "go'yo" vositasi 4 o'rinda, "day" vositasi 6 o'rinda, "kabi" vositasi 1 o'rinda, "o'xshamoq", "o'xshatmoq", "ko'rinmoq" kabi o'xshatish vositasi vazifani bajaruvchi fe'llar 4 o'rinda, tire tinish belgisi o'xshatish-qiyoslash vazifasini bajargan o'rinlar 3 ta o'rinda kelgan. Jami belgili vositalar orqali ifodalangan o'xshatishlarning yigirmaga yaqin ekanligi butun she'r matnining o'xshatish poetik vositasiga boyligini isbotlaydi. E'tiborli tomoni yuqoridagi o'xshatishlarning katta qismi individual o'xshatishlardir va bular tarjimada ham mahorat bilan ifodalanib estetik vazifalarini saqlab qola olgan.

Yuqoridagi kuzatishlarimizdan ko'rinadiki, she'rlaridagi har bir fikr xuddi hikmatli so'zdek jaranglaydigan Shavkat Rahmon she'riyatida metaforalar alohida uslubiy vazifa bajaradi va bu metaforalarni hosil qilishda ijodkor turli so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarning estetik imkoniyatlaridan yetarli darajada mahorat bilan foydalana olgan. Shavkat Rahmon ijodida o'quvchiga estetik zavq beruvchi vositalar juda ko'p, ular faqatgina badiiy-tasviriy vositalar emas, balki, ritorik so'roqlar, takrorlar, so'zlarning turli shakllari va yangicha ko'rinishdagi kompozitsion qurilmalardir ham. Xulosa qilib aytganda, serqirra ijodkor Shavkat Rahmon she'rlarida o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilarga o'zgacha estetik zavq beruvchi hissiyotlar ifodasini bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: "Фан", 1981. – Б.41.
2. Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, N2 (11). – Б.51
3. Мирзаев И.К. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: «Университет», 2002. –Б.20-23.
4. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.
6. Мукаррамов М. Метафора ясовчи ўхшатиш воситаларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1971. 2- сон. – 51–53 б.

7. Раҳмон Ш. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 1997.

### TILSHUNOSLIKDA “O’LIM” KONTSEPTINING MADANIYATLARARO TALQINI

Karimova Diloromxon Shavkat qizi-Andijon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada o’lim kontseptining asosiy maqsadi hisoblangan o’limni insonlar ongida qanday ifodalanishi, va insonlar o’limni o’zlarining yashash joylari, e’tiqodiga qarab kutib olishlari haqida yoritilgan. Turli davlatlar va elatlarda uning gavdalanishini, aks etishini misollar va olimlarning fikrlari orqali o’z aksini topganini ko’rishingiz mumkin.

**Kalit so’zlar:** o’lim, konsept, vafot etish, ajal, ta’ziya, me’zon, hisob-kitob, amal kitobi, barzax, sof va oq sayohatchi, provoslav.

### МЕЖКУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В ЛИНГВИСТИКЕ

Каримова Дилором Шавкатовна-Преподаватель Андиганского государственного педагогического института

**Аннотация:** В данной научной статье описывается, как смерть, являющаяся основной целью концепции смерти, выражается в сознании людей, и как люди встречают смерть в зависимости от места жительства и убеждений. Ее воплощение и отражение в разных странах и народах можно увидеть на примерах и мнениях ученых.

**Ключевые слова:** смерть, понятие, умирание, смерть, соболезнование, критерий, расчет, деловая книга, барзач, чистый и белый путник, provoslav.

### INTERCULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF "DEATH" IN LINGUISTICS

Karimova Diloromkhan Shavkat qizi-Teacher of Andijan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This scientific article describes how death, which is the main goal of the concept of death, is expressed in the minds of people, and how people meet death depending on their place of residence and beliefs. You can see its embodiment and reflection in different countries and peoples through examples and opinions of scientists.

**Key words:** death, concept, dying, death, condolence, criterion, calculation, book of deeds, barzach, pure and white traveler, provoslav.

Mamlakatimizda o’zbek tilshunosligida kontsept tavsifi, tasnifi va talqini borasida turli-tuman yondashuvlarga asoslangan qarashlar mavjud. Kontseptlar har bir millat, xalq, elat ongida o’ziga xos kontseptosferani tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida amalga oshirilayotgan izlanishlar umumiy va xususiy til nazariyalari, shuningdek, fanlarning o’zaro kesishuvi negizida paydo bo’lgan lingvokognitologiya, lingvistik pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik kabi zamonaviy yo’nalishlarning rivojiga ham sezilarli darajada turtki bo’lmoqda. Davlatimiz rahbarining “dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo’nalishida qo’lga kiritilgani tasodifiy emas” ligi xaqidagi so’zlari bu boradagi ishlar ko’lami kengligi



isbotidir. Ushbu loyixalar isbotini taʼminlash esa tilning turli satxlarida munozarali boʻlgan masalalarni tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Inson bu dunyoda yashar ekan, koʻpincha u oʻzining ajalini, oʻlimi keladigan vaqtni juda uzoq deb oʻylaydi. Orzu umidlari koʻpligidan ham u shunday fikrga boradi. Ajali esa unga kutilmaganda keladi. Oʻlim farishtasi uning ruhini qabz qilish uchun keladi. Jon berish achchigʻi, azobi uning butun badan aʼzolariga tarqaladi. Boshining uchidan oyogʻining ostigacha oʻlim mastligiga gʻarq boʻladi.

Oʻlimning lugʻatda ikki xil maʼnosi bor:

1. Hayotning ziddi qilib yaratilgan vujudiy sifat.
2. Yoʻqlik.

Oʻlim ikki hayot – bu dunyo hayoti va oxirat abadiy hayoti oʻrtasidagi koʻprik deb qaraladi. [1:-116] Vafot etish – toʻla maʼnoda yoʻq boʻlish degani emas, balki u ruh bilan tana muloqotining uzilishi hamda ularning bir-biridan uzoqda va xoli boʻlishi, holatning oʻzgarishi, shuningdek, bir diyordan boshqa bir diyorga koʻchishdir. Oʻlim ruhning badandan ajralishidir. Oʻlim qalbda oʻchmas iz qoldiradi. Uni esga olish koʻngilni yumshatadi va Alloh taolaga tavba bilan yuzlanishga chorlaydi. Shu boisdan Qurʼoni karimda oʻlim qayta-qayta zikr etilgan. Undagi oyatlar kofir va osiylarni oʻlim roʻbaroʻ kelgandagi azob bilan qoʻrqitsa, oʻlimga hozirlik koʻrib, amallarini u keladigan kunga taxt qilib qoʻygan moʻmin kishilarga quvonchli xushxabar beradi. Oʻlimni eslatuvchi oyatlar Qurʼoni karimda juda koʻp zikr qilingan. Alloh taolo aytadi:

«**Har bir jon oʻlimni totguvchidir**» (*Oli Imron surasi, 185-oyat*).

«(Ey, Muhammad!) **Ayting: «Agar sizlar oʻlishdan yo oʻldirilishdan qochsaniz, bu qochish sizlarga sira foyda bermas»**» (*Ahzob surasi, 16-oyat*) [2:-445].

Inson oʻlimdan omon qolmaydi. Qaysi joy, qaysi vaqt boʻlmasin, oʻlim uni izlab topadi. Shularni bayon qilib, Alloh subhanahu va taolo bunday deydi:

«**Qayerda boʻlsangiz, hatto mustahkam qalʼalar ichida boʻlsangiz ham, oʻlim sizlarni topib olur**» (*Niso surasi, 78-oyat*).

«**Alloh jonlarni oʻlgan vaqtida, oʻlmaganlarni esa uxlayotgan paytlarida olur. Bas, Oʻzi oʻlimga hukm qilgan jonlarni (qaytarmasdan) ushlab qolur, boshqalarini esa belgilangan bir muddatgacha (ajallari yetguncha) qoʻyib yuborur. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavm uchun alomatlar bordir**» (*Zumar surasi, 42-oyat*). Insonda “katta oʻlim» va “kichik oʻlim” boʻladi. Kattasi – ajal yetganda ruhning tanadan chiqib ketishi. Kichik oʻlim – bu, uyqu. Uxlagan odam oʻlikka oʻxshatiladi. Chunki oʻlik kabi u ham beshta sezgi aʼzosi va aqldan vaqtincha boʻlsa ham xoli hisoblanadi. Qurʼoni karimda “vafot” soʻzining oʻzagidan olingan va “uyqu” maʼnosini ifoda etadigan iboralar kelgan. [2:-445] Oʻlim kishi boshiga uygʻoqligida ham, uyqusida ham kelib qolishi mumkin. Demak, uyqu insondan oʻlimni daf qila olmaydi. Umuman olganda, biror holat, vaqt va yo biror joy, narsa yoʻqki, insonni oʻlimdan saqlab, asrab qololsa. Shularni oʻylagan oqil odam oʻlim har lahzada kelib qolishidan hushyor boʻlishi, ezgu amallarni bajarishi, savol-javob qilinadigan kun kelmasidan avval oʻzini hisob-kitobga tutishi, tarozi uning foydasi yo zarariga tortilmasdan burun amallarini oʻlchab koʻrishi lozim.

Alloh taolo insonni ogohlantirar ekan, unga bu dunyo oxiratdan voz kechishiga arzimasligini, chunki uning noz-neʼmatlari oz, vaqti qisqa, oxirat esa, doimiy qarorgoh va haqiqiy maskan ekanini taʼkidlaydi:

«**Ularga ayting: «Dunyo matosi ozginadir**» (*Niso surasi, 77-oyat*).

«**Oxirat diyorigina (haqiqiy) hayot (joyi)dir**» (*Ankabut surasi, 64-oyat*)<sup>[5]</sup>.

Dunyoga mukkasidan ketgan, uning aldovlariga ishonib, shahvatlar og'ushida qolgan kishining qalbi, shubhasiz, o'limni eslash amalidan g'ofil, bu ne'matdan bebahradir. Bunday odam o'limni esga olishni yoqtirmaydi, bundan qochadi. Alloh taolo deydi:

**«Ayting: «Sizlar qochayotgan o'lim, albatta, sizlarga yo'liqquvchidir! So'ngra sizlar yashirin va oshkora narsalarni biluvchi Zotga (Allohga) qaytarilursiz. Bas, (U) Zot sizlarga qilib o'tgan amallaringizning xabarini berur!» (Jum'a surasi, 8-oyat) [3:-204].**

Demak, odamlar uch xil bo'ladi:

- dunyoga mukkasidan ketganlar;
- tavba yo'liga kirganlar;
- kamolga yetgan oriflar.

Dunyoga mukkasidan ketgan kishi o'limni eslamaydi. Eslagan taqdirda ham dunyosi qolib ketayotganiga afsus qilib, bunga o'lim sababchi bo'lyapti, degan bema'ni xayolga boradi. O'limni bu tarzda eslash Allohga yaqinlik vujudga kelishiga emas, balki Allohdan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Tavba yo'liga kirgan kishi o'limni ko'p eslaydi. Eslagani sayin qalbi qo'rqinchu istig'fora, vujudi xushu' va xuzu'ga limmo-lim to'lib boradi. To'g'ri, u ba'zan o'lim qo'qqis kelib, tavba tamomiga yetmay, oxirat ozig'i g'amlanmay qolishidan cho'chib, o'limni xohlamaydi. Lekin uning bu holati uzrli. Shuning uchun ham u Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning quyidagi hadisida aytilgan kishilar jumlasiga kirmaydi. Balki o'zining qusur va nuqsonlari sabab Alloh diydoriga yetish kabi buyuk ne'matni boy berib qo'yishdan xavfsiraydi. Go'yo u suyuqlikini xushnud etadigan uchrashuvga tayyorlanish bilan mashg'ul bo'lib, visolga kechikishdan cho'chiyotgan kishiga o'xshaydi. Visolga kechikishdan cho'chish esa visolni xohlamaslik emas. Orif kishi o'limni uzluksiz eslaydi. Negaki, u yaxshi biladi: o'lim suyuqlik Zot huzuriga ilk qadam, diydorlashuv, va'dalashilgan manzil. Habib mahubuning visol va'dasini aslo unutmaydi. Ko'pincha, orif zot osiylar uyi bo'lmish ushbu isyonli dunyodan batamom qutulib, butun olamlar Parvardigoriga yaqin bo'lish uchun o'limning kelishini intizorlik bilan kutadi. O'limni eslash, unga tayyorgarlik ko'rish har bir kishiga mustahabdir. O'limga tayyorgarlik ko'rish gunohlardan tiyilish, toat-ibodatga kirishish bilan bo'ladi[2:-215]. Alloh taolo bunday degan:

**«Bas, kimki Parvardigori bilan muloqotda bo'lishdan umidvor bo'lsa, u holda ezgu amal qilsin va Parvardigoriga ibodat qilishda hech kimni (Unga) sherik qilmasin!» (Kahf surasi, 110-oyat). [5:-hidoyat.uz]**

Turli tizimli tillar madaniyatlarida o'limning bir necha qiyofalari mavjud bo'lib, *qora plash, o'roq, skelet tabassumi* va qadimgi jamiyatlarda o'limni turli yo'llar bilan Yunonlar mifologiyasida qanotli gipper Tanatos bilan, Skandinaviya mifologiyasida yolg'iz va g'amgin Xel qiyofasida, hindlarda bo'lsa urf-odatlariga ko'ra vahshiyona bezatilgan qirol timsollari bilan insonlar go'yoki o'limni ko'rganlar.

Biz hammamiz baham ko'ra oladigan va birdek his eta oladigan kam sonlik natijalardan biri bu – o'lim bo'lib, uni barcha tirik mavjudodlar tan olishga majburdirlar. O'limni eslaganda insonlarning juda ko'plarida birinchi paydo bo'ladigan tuyg'u bu qo'rquvdir. Aslida esa bizga azal – azaldan ma'lumki, barcha o'ladi va vaqti kelib qayta tiriladi. Bu fikrga qo'shilgan insonlarni bir ozgina bo'lsa-da qo'rquv tark etadi. O'lim tashvishi bu – ko'p qirrali tuzilma bo'lib uning bir necha xillarini aniqlash mumkin: o'z o'limidan qo'rqish, boshqalarning o'limidan qo'rqish, yaqin insonini o'lim tufayli yo'qotish qo'rquvi. Insonlar ongli ravishda bu masaladan bir necha usullarda o'zlarini olib qochishga ham harakat qilishlarini ko'rish mumkin. Masalan:

o'lim bo'lgan joylarga bormaslik (go'yoki shunday qilsa, o'lim undan uzoqroq yuradi), dafn marosimlarida qatnashmaslik, hatto chaqirilsa ham bormaslik, uning xayolida insonni o'limdan uzoqlashtiradi. Aslida esa ongli tirik mavjudod, inson dafn marosimlarida qatnashishi uning o'limga bo'lgan qo'rquvini yengishga va bu real hodisa ekaniga uning fikrini tayyorlashga yordam beruvchi katta kuch ekanini anglab yetmog'i darkor. Dunyo madaniyatlari va ularda yashovchi insonlar o'lim tashvishi paydo bo'lishi bilan bir-birlaridan juda katta farq qiladi.

Madaniyatlararo va dinlararo o'lim qo'rquvini va undan keyingi hayotga ishonishni o'rganishda hind olimlari Parsuram va Sharma (1992) ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Hindistondagi 3 din vakillari: hindular, nasroniylar va musulmon xalqlari solishtirilganda, hindlarning o'limga nisbatan bo'lgan tashvishlari eng past darajada ekanligi aniqlangan. Ular hamma xalq vakillaridan ham ko'proq o'limga, qayta tirilishga, keyingi hayotga ishonishlarini ko'rsatgan. Ulardan keyingi ko'rsatgichni musulmonlar jamiyati vakillari ko'rsatgan. O'limga nisbatan eng ko'p qo'rquv nasroniylarda bo'lishi aniqlangan[9:-215].

Luqmoni Hakimning o'g'liga: "O'g'lim! O'limning qachon kelishini bilmaysan. Bas, to'satdan senga yo'liqishidan oldin o'limga hozir tur" deb qilgan nasihatidaga jumlar insonni bir daqiqiga larzaga soladi. Bu borada dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karimda ham juda ko'plab zikrlar keltirilgan. Alloh taolo aytadi: "Har bir jon o'limni totguvchidir" [10:-145]

Islom butun insoniyatga yuborilgan so'nggi haq din lekin Nasroniy dini ham jaxon dinlaridan biri hisoblanadi. Tarrakkiy etgan davlatlarning asosiy qismi xristian diniga mansub kishilarni o'z ichiga oladi. Nasroniylik dinining Eski va Yangi Ahd kitoblarida o'lim va boqiylik haqida alohida ta'limotlar mavjud bo'lib, unda qilingan gunohlar uchun "o'lim" jazodir va Iso barcha odamzot uchun o'lib tirilgandir. Masalan: "Qachonki mo'minga o'lim hozir bo'lsa, Iso Masih doimo hayot, o'limga qarshilik ko'rsating." (Eski Ahd, 24) [12:-145,204]. Yevropada "memento mori" mashhur iborasi mavjud bo'lib, ushbu ibora doimo o'limni eslashga, uni kutilmaganda kelishini aks ettirib shaxsni o'ylanishga va doimo bu haqda fikrlashga undaydi. "O'limni anglash" iborasi esa insonni o'zini o'limga tayyorlashi va uni tabiiy qabul qilishiga ishora bulgan. Falsafiy nuqtai nazardan o'limni tasvirlash va uni insonlar ongiga singdirish turli yo'llar bilan muhokama qilingan va tushuntirilgan. Masalan, faylasuv olim Aflotun "o'lim"ning o'lmas ekanligi inson ruhi u o'lganidan so'ng ham insonlar oldida qolishi mumkinligini ta'kidlaydi. Lekin o'limga hayotning yutug'i sifati qarash kerakligiga ishonadi[13:-451]. Olim Epikur esa buning aksini tushuntiradi: "O'lim-ruh o'lgan va tana halokatiga uchraganda sodir bo'ladi" – deb ta'riflaydi. Odatda, insonlar balog'at yoshida va o'rta balog'atga yetganlarida o'limni hali kelmaydi deb hisoblasalar, yoshlari kattaroq bo'lgani sari uning tobora yaqinlashib borayotganini angelaydilar. Lekin ushbu kattalik (qarilik) davrida insonlarda "o'lim" qo'rquvi ko'proq kuzatiladi. Kastembaumning fikricha, "O'lim qo'rquvi bizning barcha ongimizdagi qo'rquvlarning ildizidir. TSivilizatsiya bizning o'lim qo'rquvimizni nazorat ostida ushlab turishga qaratilgan umidsiz urinishdir" deb ta'riflaydi[16:-125].

Polyak xalqi o'lim "ko'pincha oq libos kiygan oddiy ayol" suratida aks ettirilgan ekan va *Pol. Ćmierü matula* (onam o'limi); *babusia Ćmierü* (buvam-o'limi); *kuma ģmierü* (ona Xudoning yoki Bibi Mar'yamning o'limi) kabi so'zlar bilan ifodalaydilar.

Dastlab Hindistonda Manu qonunlari she'riy tarzda yozilgan bo'lib, ular 12 bob 2685 ta maqola va ikki misralik she'rlar shaklida ifodalangan. Manu qonunlarida har qanday kishi uchun o'lim jazosini davlatga qarshi suiqasd yoki ijtimoiy tartibni buzish, bundan tashqari, rejalashtirilgan qotillik, er-xotinning har qanday xiyonati, uchinchi marta qilingan o'g'irlik

uchun, hatto ayollar ham o'lim jazosiga hukm qilingan. Masalan: 231-moddada *“Yong'in paytida o'g'irlik qilgan jinoyatchiga o'ziga mos yong'in o'rnatiladi va shu tarzda uning ruhi Yauma xudosiga yuboriladi”*.

Qadimgi Xitoyda o'lim jazosi keng tarqalgan va shafqatsiz shakllardan biri bo'lgan. Hatto soliq to'lashdan bosh tortganlar ham o'limga hukm qilingan. Qadimda Xitoy davlatida o'lim jazosini amalga oshirish kuz yoki qishda bo'lganligi sababli ko'plab badiiy asarlarda ushbu hodisa o'z aksini topgan. Konfutsiyning fikricha, bahor va yozda tirik mavjudotni o'ldirish, tabiat uyg'onganda, uni buzish bilan barobardir. Xan sulolasiga mansub, konfutsiylik maktabi vakili Sima TSYan (206 y. eramizdan oldin – 220 y.) [18:-421] o'zining *“Shi tsi”* (*“Tarixiy yozuvlar”*) asarida *“Odamlar xuddi yashil maysadek, shamol qay tarafga essa, maysa ham shu tarafga egilar”* deb e'tirof etgan. *“Maysa”* yoshlikni hali ko'p narsani tushunmaslikni ifodalasa, *“shamol”* uni tarbiyalash mumkinligini aks ettirgan.

Qadimgi Rimda *“Hayotda munosib yashash uchun o'lim qo'rquvini yengish kerak”* degan so'zlar keng tarqalgan bo'lib, odamlar o'limni tabiiy qabul qilishlari va undan qo'rqqanliklari o'sha davrning taniqli shoiri Petroniyning *“So'nggi harakat”* she'riy to'plamida aks etgan. Masalan: *“Do'stlaringga so'zladim o'limimni va qalbmning o'lmasligini ular esa kuylashar va hazil she'rlar o'qishar.”* Qadimgi Rimda ko'plab faylasuflar o'lim bilan bog'liq qarashlarni chuqur anglab yetishmagan, shuning uchun o'lim tushunchasi ko'plab asarlarda afsonalar shaklida ifodalangan. Muqaddas kitob *“Injil”* da odamlarning o'limdan so'ng qayta tirilishi bilan bog'liq bir nechta aniq misollar keltirilgan bo'lib, *“Ilyos payg'ambardan bashorat qilinishicha, Xudo faqatgina yosh bolalarni bevaqt o'limlari sababli qayta tiriltiradi deb ta'kidlaydilar”*. Yana Injilda aytilishicha, Masihlar va Solihlar, albatta, Alloh huzurida qayta tiriladilar. O'lganlarning qayta tirilishiga va u dunyoning borligiga ishonishlari ularning dini dastlabki paydo bo'lgan davrdan qolgan e'tiqod bo'lib, ularda, odatda, o'tgan inson bomdod vaqtida dafn qilingan. Birinchi Pravaslaf cherkovlari paydo bo'lgan vaqtlarda o'lgandan so'ng insonlarning qayta tirilishiga ishonish boshlangan. Hanuzgacha nasroniy cherkovlarida insonlarning o'lganlaridan so'ng qayta tirilishi haqidagi fikrlarga qattiq ishonadilar va shunga jismni tayyorlaydilar. Islom dinida esa o'limdan keyingi hayot atamasiga Alloh taolo o'lgan insonni faqat o'zigina tiriltiradi deb ishoniladi. O'lgan inson jasadi to' qiyomat kuniga qadar (ya'ni, ularning hayotda qanday yashashlariga qarab hukm qiladigan kun) qabrda qoladi deb qaraladi. O'sha kuni inson qabrdan ko'tarilib, hayoti davomida qilgan ishlari uchun hukm qilinadi. Alloh huzuriga keltiriladi. Ushbu jarayon tananing tirilishi deb ataladi. Islom ta'limotida o'lim hayotning tugashi va keyingi hayotning boshlanishidir. Muqaddas kitob Qur'oni Karimda aytilishicha, *“Hech bir jon Allohning iznisiz o'lmas. Bu, yozilgan ajaldir”* (Qur'on, 3:145) [3:-145]. Islom ta'limotida yaxshi amallar qilgan insonlarga jannatga kiradilar, yomon amallar qilganlar esa do'zax azobida yonadilar deb ishoniladi. Lekin Alloh mehribon ekani va yomon inson ham umri mobaynida afsus qilib yaxshi amallar qilib yashasa kechirilishi aytilgan. Qur'oni Karimda yana shunday jumlar bor, *“Yaxshilik qilsalar, hargiz inkor etilmaslar. Alloh taqvodorlarni yaxshi biluvchi Zotdir. Albatta, kufr keltirganlardan mollari ham, bolalari ham hargiz Alloh azobidan hech narsani qaytara olmaslar”* deb ta'riflanadi (Qur'on, 3:115,116). Islom dinida inson vafot etganidan so'ng 8 ta etapdan o'tishligi bashorat qilingan.

1. **Barzax** – islomda inson vafot etgach, uning ruhi barzax deb nomlangan kutish holatiga kiradi deb ishoniladi. Bu dunyo va oxirat o'rtasidagi o'tish davri hisoblanib, yana o'liklar va tiriklar o'rtasidagi parda deb ham qaraladi.

2. **Sur chalish** – qiyomatning boshlanishi uchun farishtalar tomonidan qiyomat alomatlarining boshlanish vaqtida sur chalinadi. Farishta asbobni ikki marta puflaydi va insonlar qayta tirilib qiyomat joyiga to'planadilar.

3. **Qiyomat** – bu o'lgan odamning qiyomat kuni ko'tarilishi va uning savol-javob joyiga borish jarayonidir. Alloh taollo oyatlarning birida shunday deydi, "Ey odamlar! Robbingizdan qo'rqing! Albatta, soat (qiyomat) zilzilasi ulkan narsadir"

4. **O'limdan so'ng qayta tirilish** – tirilish turli yo'llar bilan sodir bo'ladi. Insonlar ham ruhan ham jismonan tiriladilar va Alloh huzuriga keltiriladilar.

5. **Yig'ilish joyi (mahshar)** – u yerga barcha yaxshiyu yamon o'lganlar yig'iladilar. Ular amal kitobini olish uchun to'planadilar bu haqda Qur'onda ham keltirilgan.

6. **Amal kitobini olish** – bu vaqtda ruhlar amal kitoblarini olish uchun yig'iladilar. Bu kitob ularning yaxshi va yomon amallari yozib borilgan kitob deb yuritiladi (uning qay holda bo'lishi ma'lum emas) o'lganlar ushbu kitobda o'zlarining hayot yo'llarini ko'radilar.

7. **Hisob-kitob** – insonlar kitobni olgach, ularga hukm qilinadi va amallari hisoblanadi. Qur'onda bu haqida shunday deyilgan: "Bugungi kunda har bir jon o'zi qilgan kasbga (amalga) yarasha jazo olur. Bugungi kunda zulm yo'qdur. Albatta, Alloh hisobni tez qilguvchi zotdir" (Mu'min (G'ofir) surasi, 17-oyat).

8. **Mezon** – bu amallar o'lchanadigan qismidir. Agar insonning yaxshi amallari ustun kelsa najod topadi, aksi bo'lsa jazolanadi. Shuni unutmaslik kerakki do'zaxga kirgan mo'minlar ham jazosi tugagach jannatga kirishlari mumkin.

Inson boshiga tushadigan sinovlardan biri atrofidagi kishilarning vafot etishidir. Inson musibat kelganda: "*Inna lillahi va inna ilayhi roji'un*" – Albatta, biz Allohnikimiz va, albatta, biz Unga qaytuvchimiz (Baqara surasi, 156-oyat) deb unga sabr qilmog'i darkor.

*Ta'ziya* – bu yupatish, hamdardlik bildirish hisoblanib, unda "Alloh sizga sabr bersin", "marhumni mag'firat qilsin" yoki "o'tganlarni joylari jannatda bo'lsin" degan kabi ta'ziyali gaplar aytiladi. Motam va aza marosimlari bizni dinimiz bilan bir qatorda butun dunyo xalqlarida o'ziga xos an'analar bilan o'tkaziladi. Yaqinlaridan bir umrga ayrilish barcha tirik mavjudodni g'amga soladi. G'arb dunyosida esa aksincha bo'lib, o'lim marosimlari deyarli mavjud emas. Qo'shma Shtatlarda ko'pincha insonlar yaqinlarini yo'qotishsa, ushbu qayg'uni faqat o'zlari va oila a'zolarigagina taalluqli deb hisoblashadi. Bu esa ularning yaqinlari, tengdoshlari va hamkasblari ularning ahvolini bilishni istamasliklari bilan o'z isbotini topsa, yozuvchi Mergan O'rourk o'zining "The New York" gazetasidagi (2010.20.01) maqolasida "so'ra aytma" siyosatini bizning dunyo vakillari qabul qildi. Bu borada motam aza tutuvchilarni so'rovnoma orqali fikrlari bilan qiziqdik deb yozib o'tadi. Ba'zi olimlar qayg'u urf-odatlarining pasayishi uchun ishora qiluvchi vabo sifatida ham qarashgan. Bu qadimgi g'arbda vabo tarqalgan zamonlardan beri saqlanib kelayotgan an'analardan bo'lib, o'sha davrda vabodan vafot etgan insonlarni uyga olib kelish, saqlash, ularni yuvintirish, poklash va qabristonga dafn etish qattiq taqiqlangan bo'lib, ularni faqat yoqib yuborish va shu bilan xotiralaridan ham o'chirishlari ta'kidlangan.

Yevropaning Sharqiy qismidagi davlatlar va xalqlarda esa dafn marosimlari Provaslov cherkovining nasroniy e'tiqodlariga asoslangan. Sharqiy Yevropada o'lganlar uchun motam tutish juda muhim hisoblanadi, ular 9 kunda ruh tanani tark etadi, 3 kunda jon tanani tark etadi, 40 kundan so'ng esa butun tana o'z faoliyatini tamomila yakunlaydi deb qattiq ishonadilar.

Ruslar o'limni "yaxshi" va "yomon" deb ikkiga bo'lib qabul qiladilar. Yaxshi o'lim – bu keksalikdagi farzandlari va yaqinlari mehr- muhabbatlarini anglagan holda xudoning irodasi bilan o'lish bo'lsa, yomon o'lim esa qotillik, o'z joniga qasd qilish yoki kasallik va baxtsiz hodisalar natijasida umrning zavol topishi deb hisoblaydilar. Ular keyingi hayotni "boshqa dunyo, xudo bilan uchrashuv" deb atashadi.

Ruminiyaliklar esa o'zlarini 80 % Sharqiy Provaslov nasroniylari deb ataydilar. Ular o'lgan odamni "sof va oq sayohatchi" deb ataydilar, chunki oq libosda dafn etilgan jasad 40 kun mobaynida sayohat qilib, so'ngra tangri huzuriga yetib boradi deb ishonadilar. Ularda o'liklar uchun maxsus kuylanadigan qo'shiqlarni aytish uchun yollanma kuychilar chaqiriladi, kun davomida kuylab ruhni o'z joyiga kuzatadilar. Aks holda ruh qaytib kelib tiriklarni bezovta qiladi deb o'ylashadi.

Bulardan mustasno tarzda ukrainaliklar esa o'zlarining qadimiy dafn marosimlariga juda sodiqlik bilan qaraydilar. O'limdan so'ng uchinchi, to'qqizinchi va qirquinchi kunlari yaqinlariga ziyofat berish yaxshi an'analaridan biri hisoblanadi. Ularda "Provodiy" deb nomlangan o'lganlarni xotirlash bayrami ham bor. Ushbu bayramda ular butun yaqinlari bidlan o'lganlar qabri atrofiga yig'ilishadi bu esa marhumning ruhini tinchlantiradi deb ishonishadi.

An'anaga ko'ra Buyuk Britaniyada dafn marosimi o'tkazish uchun xabarnoma tarqatiladi. Va ushbu taklifnomaga quyidagi so'zlar yoziladi:

Take a photo

***Forever in our hearts!***

*Please join us to celebrate the life of*

**Danielle West**

*Sunday October 4.2020 at 2 am*

*Northway Golf street 14526 avenue USA America.*

*We will be gathering to share our favorite memories of our wonderful Danielle and dine on some delicious food.*

Taklifnoma yaqinlarga tarqatiladi va ta'ziyaga keladilar va dafn marosimlari odatdagi kabi yig'ilish, marhumni so'nggi manzilga kuzatish va qabristonda bajariladigan amallarni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." -Toshkent: O'zbekiston, 2017.- B.171
2. Muhammad ibn Ali Haskafiy. «Durrul-muxtor». Bayrut: "Dorul-kutubil-ilmiya". 2002, 116-bet.
3. Vahba Zuhayliy. «Al-Fiqhul-islamiy va adillatuhu». Damashq: «Dorul-fikr». 1980. 2-juz, 445-bet.



4. Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot– matbaa birlashmasi. 2004, 420-bet.
5. Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot– matbaa birlashmasi. 2004, 404-bet.
6. Vahba Zuhayliy. «Al-Fiqhul-islamiy va adillatuhu». Damashq: «Dorul-fikr». 1980, 2-juz. 446-bet.
7. <https://hidoyat.uz/>
8. <https://bigthink.com/life/death>
9. James Gire Virginia Military Institute, "How Death Imitates Life: Cultural Influences on Conceptions of Death and Dying" [girejt@vmi.edu](mailto:girejt@vmi.edu) (10-11) 12-1-2014
10. <https://tazkiya.uz/tazkiya/item/326-ulim-talvasasi-va-shu-holatda.html>
11. Oli Imron surasi, 185-oyat.
12. Eski Ahd. Muqaddas kitob "Tavrot" b 24.1.15
13. The *Apology* of Socrates, by *Plato*, is a Socratic dialogue in three parts that cover the Trial of Socrates (399 BC):
14. Naragon, S. "[Letter to Herodotus](#)" (PDF). *manchester.edu*. Manchester University, Indiana. Retrieved 13 June 2021
15. Levinson, Stephen C. 1992. Space in Australian languages questionnaire. In Stephen C. Levinson (ed.), *Space stimuli kit 1.2: November 1992*, 29-40
16. Kastenbaum 1972:137; Becker 1962
17. Laws of Manu. Translation of Elmanovich S.D., Ilyin G. F., M., 1961.
18. Sima TSYaнь (206 y. eramizdan oldin – 220 y.)
19. "[Justin Martyr on the Resurrection](#)". Retrieved 26 March 2013
20. Qur'on, Mu'min (G`ofir) surasi, 17-oyat

## “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TERMINLARINING ETIMOLOGIK VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi-Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** O‘zbek tilshunosligida soha terminologiyasiga oid tadqiqotlar ko‘paymoqda. Biroq badiiy asar terminologiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar sanoqli. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan terminlarni aniqlash, tahlil qilish Navoiy asarlari tilini o‘rganish uchun ham, terminologiya tarixi uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Alisher Navoiy asarlarida turli sohalarga, kasb-hunar va fan tarmoqlariga oid ko‘plab terminlar qo‘llanilgan. “Xamsa” ning uchunchi dostoni bo‘lgan “Layli va Majnun” dostonida ham turli mavzularga oid bir qancha terminlarni uchratish mumkin. Jumladan, diniy, tasavvufiy, ekologik, zoologik, tibbiyotga, musiqaga, harbiy soha, astronomiyaga oid terminlar va h.k. Biz bu maqolada dostonida qo‘llanilgan terminlarning kelib chiqishi va yasalish xususiyatlari haqida to‘xtaldik. Doston matnida davr tiliga xos xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, dostonida qo‘llanilgan terminlarning aksariyati fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar, nisbatan ozroq qismi turkiycha so‘zlar ekanini kuzatdik. Shuningdek, dostonidagi terminlarning yasalish xususiyatlari ham o‘ziga xos.*

***Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Layli va Majnun, termin, arabcha, fors-tojik, turkiycha so‘z, yasalish.*

## ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ И ПРОИЗВОДНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ ЭПОСА «ЛАЙЛИ И МЕДЖНУН»

Убайдуллаева Умида Абдушуккур қизи – докторантка Самарқандского государственного университета

***Абстракт.** В узбекском языкознании расширяются исследования по отраслевой терминологии. Однако исследований по терминологии художественного произведения немного. В частности, выявление и анализ терминов, используемых в произведениях Алишера Навои, несомненно, послужит важным источником для изучения языка произведений Навои и истории терминологии. В произведениях Алишера Навои используется множество терминов, относящихся к различным областям, профессиям и отраслям науки. В эпосе «Лейли и Меджнун», который является третьим эпосом «Хамса», можно встретить ряд терминов, относящихся к различным темам. Включая религиозные, мистические, экологические, зоологические, медицинские, музыкальные, военные, астрономические термины и т. д. В этой статье мы рассмотрели происхождение и особенности терминов, используемых в эпосе. В тексте эпоса мы можем увидеть особенности языка того периода. Например, мы заметили, что большая часть терминов, используемых в эпосе, — это слова, заимствованные из персидско-таджикского и арабского языков, и сравнительно небольшое количество — тюркские слова. Уникальны и особенности формирования терминов в эпосе.*

***Ключевые слова:** Алишер Навои, Лейли и Меджнун, термин, арабский, персидско-таджикский, турецкое слово, конструкция.*

## ETYMOLOGICAL AND DERIVATIVE CHARACTERISTICS OF THE TERMS OF THE EPIC "LAYLI AND MAJNUN"

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi- doctoral student of Samarkand State University



**Annotatsion.** *In Uzbek linguistics, research on field terminology is increasing. However, there are few studies on the terminology of artistic work. In particular, identifying and analyzing the terms used in the works of Alisher Navoi will undoubtedly serve as an important source for learning the language of Navoi's works and for the history of terminology. In the works of Alisher Navoi, many terms related to various fields, professions and branches of science are used. In the epic "Layli and Majnun", which is the third epic of "Khamasa", you can find a number of terms related to various topics. Including religious, mystical, ecological, zoological, medicine, music, military, astronomy terms, etc. In this article, we have discussed the origin and features of the terms used in the epic. In the text of the epic, we can see the characteristics of the language of the period. For example, we observed that most of the terms used in the epic are words borrowed from the Persian-Tajik and Arabic languages, and a relatively small number are Turkish words. Also, the characteristics of the formation of terms in the epic are also unique.*

**Key words:** *Alisher Navoi, Layli and Majnun, term, Arabic, Persian-Tajik, Turkish word, construction.*

Ma'lumki, har qanday fanning shakllanishi va rivojini terminlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tilshunoslik fani turli soha terminlarini tilning qonun-qoidalariga mos ravishda tartibga soladi, unifikatsiya qiladi. Shu sababli har doim fanda bu sohaga doir ishlarga katta zaruriyat, ehtiyoj seziladi. So'nggi yillarda tilshunosligimizda terminologik tadqiqotlarning sezilarli darajada oshishi quvonarli, albatta. Shu bilan bir qatorda, terminologiyada hali yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Xususan, mumtoz badiiy asarlar terminologiyasi bo'yicha tilshunosligimizda hali monografik planda tadqiq amalga oshirilgan emas. O'zbek tilshunosligida badiiy asar terminologiyasiga doir qilingan ilmiy ishlar sanoqli. Bu borada dastlab X.Shamsiddinov o'zining nomzodlik ishida badiiy matnda terminning qo'llanish xususiyatlariga to'xtalgan. Mazkur tadqiqotda she'riy matnda terminning uslubiy vazifalari, shuningdek, terminning funksional sinonimlarini qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan[8]. Keyinchalik, N.Jalilova badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifini o'rgandi[2]. D.Jamoliddinovaning doktorlik dissertatsiyasi ham badiiy asarlarda terminlarning qo'llanishi haqida bo'lib, badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari bir necha nasriy asarlar misolida tahlil qilingan[3].

O'zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy asarlari terminologiyasini o'rganish – o'zbek tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero, "Navoiy asarlarida qo'llangan terminlarni tarixiy planda tadqiq qilish: bu muammo hozirgi terminologiyamizning tarixini oydinlashtirishga, terminlar rivojini aniqlashga xizmat qiladi"[6:59]. Shuningdek, Navoiy asarlarida qo'llanilgan terminlarni o'rganish, lug'atlarga kiritish boshqa tillardan ko'plab terminlarni o'zlashtirishning oldini oladi va ona tilimizni begona til unsurlaridan asrashga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, terminlar Navoiy tiliga, umuman eski o'zbek tiliga tayyor til birliklari sifatida predmetlar va tushunchalar bilan birga kirib kelgan. Agar hozirgi davr terminologiyasi bilan solishtiradigan bo'lsak, Navoiy asarlarida, jumladan, "Layli va Majnun" dostonida qo'llanilgan terminlar, asosan, forsha, arabcha terminlardan iborat ekanligini kuzatamiz; hozir ular arabcha, forsha, asosan, ruscha yoki rus tili orqali tilimizga o'zlashtirilgan inglizcha terminlardir. E'tiborli jihati Navoiy davrida ham, hozirgi tilimizda ham, asosan, chetdan o'zlashgan terminlar faol ishlatiladi. Navoiy davrida ham, hozirgi tilimizda ham sof o'zbekcha terminlar kam va buni tilshunos Y.Berdaq o'zining maqolasida Navoiy davrida yuksak

uslubda yozish arabcha, forscha so'zlarni mo'l-mo'l ishlatishni talab etganligi; Navoiy tili naddialekt xarakterga ega, ya'ni dialektlarga nisbatan invariant holda bo'lganligi va O'rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilgandan keyin nafaqat din, balki boshqa fanlar ham arab tilida olib borilgani, u fan tili hisoblangani bilan izohlashga harakat qiladi[5:28].

"Layli va Majnun" dostonida ishlatilgan terminlarning kelib chiqishini quyidagicha guruhladik:

- **arabcha-turkiycha terminlar:** azosiz, bulbullik, durfishonliq, jarrorliq;
- **forscha terminlar:** band-band, buluj, gazdasta, go'shanishin, javona, zaminro'b, sebarga;
- **arabcha terminlar:** Baqar, vadiat, javome' ul-kalim, jaroyim, Zuhal, Zuhra, zilzila, jallod, ibn;
- **forscha-tojikcha terminlar:** ganjfishonlik;
- **forscha-arabcha:** guharnisor;
- **turkiycha terminlar:** jayran, junoq;
- **arabcha-forscha:** jafoko'sh, ishqpechon, qadano'sh, silohsho'r;
- **forscha-turkiycha:** jahonnamoliq.

"Layli va Majnun" dostonidagi terminlarning asosiy qismi tuzilishiga ko'ra **sodda tub terminlardir:** *qafas, qamish, jamoza, yel, dom, gul, nazm, nasr, go'r va b.q.* Shuningdek, **sodda yasama terminlar** ham qo'llanilgan: *azosiz, jarrorliq.* Shu bilan bir qatorda oz miqdorda **takror** shaklda qo'llangan terminlarni (*band-band*) hamda **birikma** holida kelgan terminlarni (*javome'i ul-kalim, gavzi jayran*) ham uchratamiz.

Ma'lumki, tilda sodda shakldagi terminlar bilan birga *qo'shma* so'z shaklidagi terminlar ham mavjud. Hozirga qadar u yoki bu soha terminlariga bag'ishlangan katta-kichik tadqiqotlarda terminlarning struktur jihatlariga e'tibor qaratiladi. "Layli va Majnun" dostonidagi *qo'shma* so'z qolipidagi terminlarning leksik-semantik jihatlarini, yasaliş modellarini o'rganar ekanmiz, avvalo, *qo'shma* so'z va *qo'shma* terminlarning umumiy va farqli jihatlarini esga olishimiz joiz. Ma'lumki, yuqoridagi har ikki til birligi umumtil leksikasiga mansub, ularning yasaliş modellari va tiplari deyarli bir xil. Ammo *qo'shma* so'zlar barcha mustaqil so'z turkumlarida mavjud bo'lsa, *qo'shma* terminlar, asosan, ot turkumida uchraydi hamda otdan boshqa turkumiga mansub *qo'shma* terminlarning terminlik maqomi matnda belgilanadi. Shuningdek, aksar *qo'shma* so'zlarning komponentlari yangi yasalma tarkibida so'zlarining mustaqil ma'nolarini saqlab qolmaydi, *qo'shma* terminlar bo'lsa, ko'p hollarda mustaqil lug'aviy ma'nolarini saqlab qoladi."Layli va Majnun" dostonidagi *qo'shma* terminlarning quyidagi derivatsion qoliplarini ajratishimiz mumkin:

- **Ot+ot:** gulbarg, gulob, ishqpechon, silohsho'r, yaraqon, tiyrboron.
- **Ot+fe'l:** qadahno'sh
- **Fe'l+ot:** no'shdoru
- **Ot+fe'l:** saf chekmoq, o'q chekmak,
- **Son+ot:** sebarga (uch yaproqli ko'kat)
- **Sifat+ot:** xafaqon

"Layli va Majnun" dostoni matnida ishlatilgan terminlarning katta qismida **-liq** faoliyat-jarayon oti yasovchi *qo'shimchasi* faol ishlatilgan (bulbullik, durfishonliq, jarrorliq, judoliq, jahonnamoliq, ganjfishonlik kabi). Buni biz bevosita qofiya talabi bilan bog'ladik. Shuningdek, dostonida quyidagi *qo'shimchalar* bilan yasalgan otlarni uchratamiz:

**-gah (-goh) qo'shimchasi bilan:** qiblagah, bazmgoh, sajdagoh;

**-iston qo'shimchasi bilan:** go'riston, kavkabiston;

**-chi qo'shimchasi bilan:** qaroqchi, tilanchi;

**-zada qo'shimchasi bilan:** motamzada;

**-la qo'shimchasi bilan:** ovla;

**-ma qo'shimchasi bilan:** titratma;

**-xona qo'shimchasi bilan:** xaylxona;

**-mand qo'shimchasi bilan:** hiradmand.

“Layli va Majnun” dostonida ishlatilgan terminlarning mavzuiy guruhlariga sinchikovlik bilan e'tibor qaratsak, ba'zilarining (adabiyotshunoslik, diniy) terminologiyasi Navoiy davrida shakllanib ulgurganining, ba'zilarining terminologik sistemasi hali shakllanib ulgurmaganining, bunday terminlarni Navoiy ilk bor qo'llaganining guvohi bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, uning so'z san'ati qanchalar buyuk bo'lganiga yana bir bor amin bo'lamiz. “Layli va Majnun” dostonida terminlarning tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, takror hamda birikma holidagi terminlar qo'llanilgan. Dostonda qo'llanilgan terminlarning aksariyati arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlar bo'lsa-da, asarda turkiycha terminlarning ham o'rni salmoqli ekanligini kuzatdik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy “Layli va Majnun”. -Toshkent, 2020.
2. Jalilova N.R. Badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifi: Фалсафа доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б;
3. Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari: Fan doktori...diss.avtoref. – Toshkent, 2021.
4. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. M.Abdulxayr. Toshkent. 2018. - B.135.
5. Бердақ Ю.Навоий асарларида иқтисодий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 4-сон, 28- бет.
6. Дониёров Р. Навоий ва ҳозирги ўзбек тили терминологияси муаммолари // Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. Тошкент,1991.59-бет.
7. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 165-226
8. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1984.



## COGNITIVE PROCESSES IN THE FORMATION OF LINGUISTIC TERMS AND CONCEPTS

Dalieva Madina Khabibullaevna-PhD, Head of the English Methodology Department

**Abstract:** *It is known that at the present stage of development of linguistics, and in particular cognitive linguistics, the study of various concepts is relevant, since it allows us to create a certain idea about the peculiarities of thinking and conceptualization of the world of certain people. The term "concept" is one of the main terms of cognitive linguistics. Also, according to many well-known scientists, today this term can be confidently described as "the most traditional term", and this process leads to a holistic study of the phenomenon of understanding and indicates the existence of many research works devoted to the analysis of the features of various concepts present in conceptual systems individual languages.*

**Keywords:** *term, cognitive linguistics, thinking, conceptualization, concept, language.*

## КОГНИТИВНЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ И КОНЦЕПТОВ

Далиева Мадина Хабибуллаевна-PhD, заведующая кафедрой методики английского языка, Узбекский государственный университет мировых языков

**Аннотация:** *Известно, что на современном этапе развития языкознания, и в частности когнитивной лингвистики, изучение различных концептов является актуальным, поскольку позволяет создать определенное представление об особенностях мышления и концептуализации мира определенных людей. Термин «концепт» является одним из основных терминов когнитивной лингвистики. Также, по мнению многих известных ученых- когнитологов, сегодня этот термин можно с полной уверенностью охарактеризовать как «самый традиционный термин», и этот процесс ведет к целостному изучению феномена понимания и указывает на существование множества исследовательские работы, посвященные анализу особенностей различных концептов, присутствующих в концептуальных системах отдельных языков.*

**Ключевые слова:** *термин, когнитивная лингвистика, мышление, концептуализация, концепт, язык.*

## LINGVISTIK ATAMA VA TUSHUNCHALARNING SHAKLLANISHIDAGI KOGNITIV JARAYONLAR

Dalieva Madina Xabibullaevna-O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, PhD

**Annotatsiya:** *Ma'lumki, tilshunoslik va xususan kognitiv tilshunoslikdagi hozirgi taraqqiyot bosqichida turli tushunchalarni o'rganish dolzarb hisoblanadi, chunki ma'lum bir odamlarning dunyosini tafakkur va kontseptuallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lum bir fikrni yaratishga imkon beradi. "Tushuncha" atamasi kognitiv tilshunoslikning asosiy atamalaridan biridir. Shuningdek, ko'pgina taniqli kognitiv tilshunoslikga oid ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda ushbu atamani to'liq ishonch bilan "eng urfdagi atama" deb ta'riflanishi mumkin va bu jarayon tushuncha hodisasini yaxlit o'rganishga va ayrim tillarning kontseptual tizimlarida mavjud bo'lgan turli tushunchalarning xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlarining mavjudligidan dalolat beradi.*

*Kalit so'zlar: atama, kognitiv tilshunoslik, tafakkur, kontseptuallashtirish, tushuncha, til.*

## **Introduction**

Problems of human cognitive activity, processes occurring in the human brain, and knowledge as the results of these processes are receiving new coverage in the modern scientific paradigm. Radical changes in the development of scientific knowledge have been called the cognitive revolution. Noam Chomsky, a famous American linguist, wrote: "The cognitive revolution refers to states of mind/brain and how they determine human behavior, especially cognitive states: states of knowledge, understanding, interpretation, etc."

The approval of the cognitive paradigm means the orientation of research in the field of philosophy, psychology, linguistics, and mathematical logic on human cognitive activity: the processes of obtaining and storing knowledge, processing information by the human brain, perception and understanding of knowledge, and their interpretation. It is no coincidence that cognitive science is called "umbrella": it integrates many sciences – traditional fundamental ones, such as philosophy, psychology, linguistics, and new, developing ones (information theory, mathematical modeling, etc.). All this testifies to the complexity, breadth and ramifications of cognitive science.

Within the framework of this paradigm, a person should be studied as an information processing system, and human behavior should be described and explained in terms of his internal states. These states are physically manifested, observed and interpreted as receiving, processing, storing, and then mobilizing information for rational problem solving.

Since problem solving is directly related to the use of language, it is only natural that language has become the focus of attention among cognitive scientists.

In addition, the term "cognitivism" today refers to:

- 1) a research program for the human "mental mechanism";
- 2) studying the processing of information coming to a person through different channels;
- 3) building mental models of the world;
- 4) the design of systems that provide various kinds of cognitive acts;
- 5) human understanding and formation of thoughts expressed in natural language;
- 6) creating a model of a computer program capable of understanding and producing text;
- 7) a wide range of mental processes serving mental acts.

In cognitive science, the main attention is paid to human cognition; it studies not just observed actions, but their mental representations (internal representations, models), human strategies, which give rise to actions based on knowledge. That is, the cognitive world of a person is studied by his behavior and activities, which take place with the active participation of language. The latter, as it were, forms the speech-thinking basis of any human activity - it forms its motives, attitudes, and predicts the result.

Thus, one of the most important principles of cognitivism is the interpretation of a person as an actor, actively perceiving and producing information, guided in his mental activity by certain schemes, programs, strategies and plans. And cognitive science itself began to be viewed as the science of the general principles that govern the mental processes of the human brain.

## **DISCUSSIONS**

Cognitive linguistics has firmly taken its place in the paradigm of concepts of modern world linguistics. It is its emergence and rapid development at the present stage that are a characteristic

feature of linguistics at the turn of the century. According to the definition of V. Z. Demyankov and E. S. Kubryakova, cognitive linguistics studies language as a cognitive mechanism that plays a role in encoding and transforming information [Brief Dictionary of Cognitive Terms, p. 53-55]. In cognitive linguistics we see a new stage in the study of the complex relationships between language and thinking, a problem that is largely characteristic of domestic theoretical linguistics. Cognitive research has gained recognition in Russia, as E. S. Kubryakova rightly emphasizes, primarily because it addresses “topics that have always worried Russian linguistics: language and thinking, the main functions of language, the role of man in language and the role of language for man.” [Kubryakova, 2004, p. eleven]. This study was started by neurophysiologists, doctors, psychologists (P. Broca, K. Wernicke, I. M. Sechenov, V. M. Bekhterev, I. P. Pavlov, etc.). Neurolinguistics arose on the basis of neurophysiology (L. S. Vygotsky, A. R. Luria). It has become clear that language activity occurs in the human brain, that different types of language activity (language acquisition, listening, speaking, reading, writing, etc.) are associated with different parts of the brain. The next stage in the development of the problem of the relationship between language and thinking was psycholinguistics, within which the processes of generation and perception of speech, the processes of learning language as a system of signs stored in the human mind, the relationship between the language system and its use and functioning were studied (American psycholinguists C. Osgood, T. Sebeok, J. Greenberg, J. Carroll and others, Russian linguists A. A. Leontyev, I. N. Gorelov, A. A. Zalevskaya, Yu. N. Karaulov and others). Cognitive linguistics took shape in the last two decades of the 20th century, but its subject - the features of assimilation and processing of information, methods of mental representation of knowledge using language - was already outlined in the first theoretical works on linguistics in the 19th century. Thus, considering W. Humboldt’s theory of the national spirit, A. A. Potebnya recognizes the question of the origin of language as a question about the phenomena of mental life preceding language, about the laws of its formation and development, about its influence on subsequent mental activity, that is, a purely psychological question. A. Potebnya understands that in mental activity there are the strongest concepts that are put forward, and concepts that remain in the distance [Potebnya, 1993, p. 83].

It is the strongest ideas that participate in the formation of new thoughts (Herbart’s law of apperception). A. A. Potebnya clearly sees the role of association and merging of associations in the formation of series of ideas. Heterogeneous ideas, perceived simultaneously, without losing their integrity, can be combined into one whole. In other words, A. A. Potebnya perfectly understood the role of language in the processes of learning new things, in the processes of formation and development of human knowledge about the world based on the psychological processes of apperception and association, on the basis of different strengths of human ideas about phenomena that have names in language. The subject of cognitive linguistics is even more obvious in the following statement by I. A. Baudouin de Courtenay: “... From linguistic thinking one can identify a whole unique linguistic knowledge of all areas of being and non-being, all manifestations of the world, both material and individual psychological and social (public)” [Baudouin de Courtenay, 1963, p. 312].

Reflections on the participation of language in understanding the world can be found in the works of thinkers of different times and peoples from antiquity to the present day. Their detailed reviews were made by L. G. Zubkova [Zubkova, 2000] and N. A. Kobrina [Kobrina, 2000]. However, the frontal development of linguistic-cognitive problems began only in the last

decades of the 20th century, and the main publications on cognitive linguistics occurred during this period. Modern cognitive linguistics belongs to a number of sciences that use their specific methods to study one common subject - cognition.

In this regard, we can now talk about the existence of cognitive science, which, according to E. S. Kubryakova's definition, is interdisciplinary and is an umbrella term for a number of sciences - cognitive psychology, cognitive linguistics, philosophical theory of cognition, logical analysis of language, theory of artificial intelligence, neurophysiology; "disciplines such as cognitive anthropology, cognitive sociology and even cognitive literary criticism have already emerged, i.e. in almost every humanities science a special area has been identified associated with the application of the cognitive approach and cognitive analysis to the corresponding objects of this science" [Kubryakova, 2004, p. . 10-11].

Cognition as a process of awareness, reflection of the surrounding reality by a person's consciousness and transformation of this information in consciousness, is currently understood in an expansive manner in modern science - "previously meaning simply "cognitive" or "relating to cognition", the term cognitive is increasingly acquiring the meaning "internal", "mental", "interiorized" [Kubryakova, 2004, p. 9]. The tasks of cognitive science "include the description/study of knowledge representation systems and processes of information processing and processing, and - at the same time - the study of the general principles of organizing human cognitive abilities into a single mental mechanism, and the establishment of their relationship and interaction" [Kubryakova, 2004, p. 8-9]. Thus, cognitive linguistics is one of the areas of interdisciplinary cognitive science.

Various interpretations and definitions of the subject of cognitive linguistics and its categories are offered by authors who specifically deal with these problems [Rozina, 1994; Demyankov, 1994; Khudyakov, 1996; Frumkina, 1996; Ruzin, 1996; Baranov, Dobrovolsky, 1997; Boldyrev, 1998, 1999, 2000, 2001; Zalevskaya, 1998, 2000; Sharandin, 1998; Shakhovskiy, 2000; Krasnykh, 2000; Arkhipov, 2001, etc.].

The concept, being an object of study in different sciences, has different interpretations depending on what discipline it is studied. Thus, cognitive linguistics is interested, first of all, in the question of how ideal entities, concepts, are connected with the linguistic forms that objectify them. By answering this question, we can draw certain conclusions about the functioning of our cognitive system. Here are some of the most common definitions of the concept "concept": "A concept exists in the consciousness (in the mental world) of a person. That "bundle" of ideas, concepts, knowledge, associations, experiences that accompany a word is a concept"; concepts are "clumps" of the cultural environment in the human mind"; a concept is "a global mental unit that represents a quantum of structured knowledge"; concept - "an object from the world "Ideal", which has a name and reflects certain culturally determined ideas about the world "Reality". As can be seen from the definitions, a concept is considered not only from the point of view of the mental information contained in it about a particular object/phenomenon of reality, but also at the same time as a unit of culture, therefore the study of concepts in the cultural aspect, i.e. as mental, culture-specific structures, seems extremely important for revealing their content. The richness of the conceptual sphere of the national language is determined by the richness of the entire culture of the nation - its literature, folklore, science, fine arts, religion; it "helps to understand why language is not just a way of communication, but a kind of concentrate of culture."

Cognitivists believe that it is easiest to reveal the content of mental structures and concepts through linguistic means, since the latter are directly observable results of the activity of the human cognitive system. The semantics of words, free phrases and phraseological units, structural and positional schemes of sentences, texts represent an important and fairly complete source of information about concepts. Moreover, texts are necessary to explain complex, abstract concepts (for example, “power”, “beauty”, “memory”), individual author’s concepts (the concept of property in J. Galsworthy’s novel “The Forsyte Saga”), as well as the cultural specificity of concepts (the concept of “moon” in the Arab cultural area, the concept of “sun” in Ancient Egypt, the Japanese concept of “tea ceremony”). The name of a concept is not the only “key” that activates the mental entity it names in consciousness. A concept can be realized in communicative activity not only by verbal, but also by non-verbal units: “In culture, not only words, but also material objects can carry spiritual meaning; there is no sharp, uncrossable boundary between spiritual and material culture... Concepts can “float” above conceptualized areas, expressed both in word and in image or material object.” This provision is especially relevant for the concept of “ideology”. Ideology enters a person’s consciousness not only verbally, but also through specific ideological symbols that objectify abstract ideological values and ideals. Such symbols can be a political-geographical map in various modifications, a cross, a banner (for example, Old Glory in the USA), a star, a coat of arms, a swastika, drawings, photographs, architectural monuments, and many others. etc. Non-verbal means of representing concepts in general and the concept “ideology” in particular include gestures, facial expressions, gaze, keeping a distance, with the help of which one can, for example, express ethnic and other prejudices. According to V.G. Zusman, in a communication situation, hybrid verbal-nonverbal and nonverbal-verbal representatives of a particular concept most often arise.

### **Conclusion**

So, summarizing the above, it is necessary to note the following: A concept as an ideal entity that is formed in the human mind is studied in linguistics through the means of language, which provide “visible” access to the unobservable structures of human knowledge. Considering the concept in the linguoculturological aspect, scientists subsume under this term only the key concepts for a given community of people, “the main cells of culture in the mental world of a person”, characterized by the richness of both linguistic and non-verbal means of their objectification and high degree of detail in the language.

### **References:**

1. Baudouin de Courtenay I.A. Quantitativeness in linguistic thinking // I.A. Baudouin de Courtenay. Selected works on general linguistics. - Part 1. - M, 1963.
2. Kubryakova E.S. On the attitudes of cognitive science and current problems of cognitive linguistics // Questions of cognitive linguistics. – 2004
3. Popova Z.D., Sternin I.A. Cognitive linguistics // AST, East-West – 2007
4. Likhachev D.S. Conceptosphere of the Russian language // Izv. RAS - SLY – 1993
5. Pimenova M.V. Preface // Introduction to cognitive linguistics. Ed. M.V. Pimenova. Vol. 4. - Kemerovo, 2004
6. Vygotsky L.S. Thinking and speech // Vygotsky L.S. Collection op. in 6 volumes. - M, 1982





## FRAZEOLOGIZMLARNING KONTEKSTOLOGIK TASNIFLANISHIGA OID TANQIDIY FIKRLAR TAHLILI

G'aybullayeva Dildora Fayzulla qizi,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti  
[dildoragaybullayeva@gmail.com](mailto:dildoragaybullayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola frazeologik birliklarning kontekstologik yondoshuv asosidagi tasnifiga bag'ishlanadi. Maqolada zamoniy frazeologiyada kontekst turlari hamda frazeologik ma'noning kontekstual ma'noga munosabati bayon etilgan bo'lib, berilgan fikrlar misollar yordamida asoslangan. Shuningdek, mashhur tilshunoslarning kontekstologik yondoshuvga va kontekstual-frazeologik klassifikatsiyaga doir bildirgan tanqidiy fikrlari hamda ularning qisqacha tahlili berilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazeologik birlik, kontekst, kontekstologik yondoshuv, doimiy kontekst birliklari, frazema, idioma, frazeoloid.

## АНАЛИЗ КРИТИЧЕСКИХ ИДЕЙ О КОНТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЙ КЛАССИФИКАЦИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Гайбуллаева Дилдора Файзулла кизи,  
Докторант Узбекского государственного университета мировых языков  
[dildoragaybullayeva@gmail.com](mailto:dildoragaybullayeva@gmail.com)

**Аннотация:** Данная статья посвящена классификации фразеологизмов на основе контекстуального подхода. В статье описаны виды контекста в современной фразеологии и соотношение фразеологического значения к контекстуальному значению, а также на примерах доказываются приведенные идеи, относящиеся к этому подходу. Также в данном материале представлены критические идеи, высказанные известными лингвистами относительно контекстуального подхода и контекстно-фразеологической классификации, и их краткий анализ.

**Ключевые слова:** фразеология, фразеологизм, контекст, контекстный подход, постоянные контекстные единицы, фразема, idioma, фразеолоид.

## ANALYSIS OF CRITICAL OPINIONS ABOUT CONTEXTOLOGICAL CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Gaybullayeva Dildora Fayzulla kizi,  
PhD Student of Uzbekistan State University of World Languages  
[dildoragaybullayeva@gmail.com](mailto:dildoragaybullayeva@gmail.com)

**Abstract:** This article is devoted to the classification of phraseological units based on the contextual approach. The article describes the types of context in modern phraseology and the relation of phraseological meaning to contextual meaning, as well as the given ideas pertaining to this approach are proven with examples. Also, the critical ideas expressed by famous linguists regarding the contextual approach and contextual-phraseological classification and their brief analysis are presented in this material.

**Key words:** phraseology, phraseological unit, context, contextual approach, constant context units, phrase, idiom, phraseoloid.

## **Kirish**

Tilshunoslikda alohida fan sifatida shakllanib ulgurgan frazeologiya xalqning milliy-madaniy ma'lumotlar ombori bo'lgan frazeologik birlik(FB)larni o'rganuvchi soha bo'lib, ko'plab tilshunoslar diqqat markazidan joy olgan. FBlar shaxs va jamiyat dunyoqarashining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. [1, 194]. Chunki aynan frazeologizmlar davr ruhiga mos ravishda o'zida tilning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari bilan bir qatorda lingvokulturologik xususiyatlarini ham mukammal ravishda namoyon eta oladi. Har bir tilning frazeologik fondi uning boy leksik qatlamidan, lug'at boyligidan dalolat beribgina qolmay, til so'zlashuvchilarining asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, qarashlari, an'analari va hayot tarzi, qolaversa, davrlararo mashhur kishilari, adabiyot namunalaridan ham xabar beradi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Ma'lumki, qator olimlar o'z tadqiqot ishlarida frazeologizmlarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir qancha me'zonlar asosida klassifikatsiya qilganlar. FBlarni klassifikatsiyalash hamda ularni sistematik ravishda o'rganishga bag'ishlangan ishlar tildagi bunday birliklarning tabiatini ochib berishda ma'lum yondoshuvlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Natijada, frazeologiyada semantik, funksional va kontekstologik (kontekstual) kabi yirik yondoshuvlar ajratilib, tadqiqotchilar o'z tasniflarida ma'lum bir yondoshuvga asoslanganlar. Xususan, V.V.Vinogradovning semantik tasnifi [5, 165], A.I.Smurnitskiyning struktur-semantik tasnifi [4, 212], I.V.Arnoldning formal-funksional tasnifi [6, 172], A.V.Kuninning struktur-semantik va grammatik aspektlarini umumlashtirgan kombinatsion tasnifi [3, 71], N.N.Amosovning kontekstologik tasnifi [7, 208] frazeologiya sohasidagi tasniflarning yaqqol namunalaridandir.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada frazeologik birliklarning tasnifi aynan kontekstual metod asosida yoritib beriladi. Shuningdek, berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va tahlil natijalarini aks ettirishda tahliliy metoddan unumli foydalanildi. Maqolada til birliklari orasidan tanlab olingan frazeologik birliklarning mohiyatini kontekstologik jihatdan ochib beruvchi misollarni tahlil qilishda komponent-tahlil metodi qo'llanildi.

## **Tahlillar va natijalar**

Ingliz tili FBlarini kontekstologik yondashuv (FBlarning ma'lum bir kontekstda o'zgarmas yoki turg'un holda ishlatilishini tavsiflaydigan yondoshuv) asosida tasnif qilgan tilshunos N.N.Amosovning fikriga ko'ra turg'un birikmalar frazemalar va idiomalarga bo'linadi.

Olima FBlarning so'z birikmalaridan farq qiluvchi eng asosiy xususiyatini kontekst orqali bayon etib, FBlarni "doimiy kontekst birliklari" (единицы постоянного контекста), so'z birikmalarini esa "o'zgaruvchan kontekst birliklari" (единицы переменного контекста) sifatida ochib bergan. Doimiy kontekst deganda, biz FBlarni tashkil etuvchi muayyan leksik komponentlarning aniq va o'zgarmas izchilligi hamda ular o'rtasidagi g'aroyib semantik aloqadorlik orqali xarakterlangan kontekstni tushunishimiz mumkin. Kontekstual yondoshuvga ko'ra, "Frazema - semantik ma'nosi frazeologik jihatdan bog'langan, doimiy kontekst birligi" dir. [7, 59]

Soddaroq qilib aytganda, frazemalar asosan ikki komponentli turg'un iboralar bo'lib, unda a'zoldan biri ikkinchi komponentga bog'liq bo'lgan maxsus ma'noga ega bo'ladi. Misol uchun, "bank holiday" (добавочный выходной день, qo'shimcha dam olish kuni) frazemasini olaylik, unda birinchi komponent (bank) ikkinchi komponent (holiday) ning alohida kontekstual ma'nosiga ishora bo'lib xizmat qiladi. N.N. Amosova "pipe dream", "black frost", "white tea",

“husband’s tea” va yana ko’plab turg’un birikmalarni frazemalarga misol sifatida keltiradi va ularning sintaktik vazifasi haqida shunday fikr bildiradi: “Распределение контекстуальных элементов во фраземе может быть различным. Семантически реализуемое слово может выполнять синтаксическую роль как ведущего, так и зависимого члена словосочетания”. [7, 60]. Olimaning qayd etishicha, frazemalar tarkibidagi bir so’z bir nechta iboralar tarkibida kela oladi, bunday holatda har bir frazema komponentlari frazeologik bog’liqlik jihatdan turlicha se’mantik ma’no kasb etadi hamda ularning asl-mohiyati kontekstda yaqqol ko’rinadi: “small hours” (ранние (предутренние) часы, tong saharda yoki erta vaqti), “small beer” (слабое пиво, o’rtacha gazlangan pivo), “small talk” (светская (не деловая) беседа, jiddiy bo’lmagan suhbat). Bu uchala frazema ham se’mantik yaxlit, sintaktik ajralmas mustaqil frazemalar hisoblanadi.

N.N.Amosova frazemalarni Vinogradov tasnifi bo’yicha “frazеологик birikmalar” (фразеологическое сочетание) sifatida qabul qilishni inkor etgan. Eslatib o’tamiz, frazeologik birikmalar komponentlarining biri mustaqil ma’noga, yana biri ko’chma ma’noga ega bo’lgan kollokatsiya yoki frazeologik qo’shilmalar bo’lib, go’yoki frazemalar bilan bir xil. Ammo olima frazeologik birikmalar doimiy kontekst birligi bo’la olmasligiga urg’u berib, shunday deydi: “Признак постоянного контекста во “фразеологических сочетаниях” В. В. Виноградова отсутствует, ибо указательный элемент в них допускает более или менее широкие вариации. Именно поэтому фраземы нельзя рассматривать как некую разновидность фразеологических сочетаний”, ибо эти последние вообще не являются единицами постоянного контекста”. [7, 68]. Bizningcha ham frazeologik birikmalarni frazemalardan farqlash muhim, sababi frazeologik birikmalarda lug’aviy ma’noga ega bo’lgan so’zni shu so’zning sinonimik uyasiga kiruvchi boshqa bir leksik birlik bilan ham almashtirish imkoni mavjud. N.N.Amosova frazeologik birikmalarni o’zgaruvchan kontekst birliklari sifatida talqin qilib, ularni kontekstual jihatdan “frazеолоидлар” deb nomlashni taklif qiladi.

Idiomalar ham doimiy kontekst birliklari hisoblanadi ammo ularning frazemalardan asosiy farqi butun tarkibning idiomatikligida ko’rinadi ya’ni idiomalarda tarkibiy qismlarining ma’nosi kamroq mustaqil bo’lib, idiomalarning tashkil etuvchi komponentlari butunligicha yaxlit ma’no bilan tavsiflanadi. Bu esa idiomalarda “integral ma’no” (A.V. Kunin integral ma’noni doimiy ravishda qayta ko’rib chiqilgan tarkibiy qismlarga ega bo’lgan FBlarning o’ziga xos komponent ma’nosi deya ta’riflaydi) ning kuchli bo’lishidan darak beradi.

N.N.Amosovanning ta’rifiga ko’ra, “Idioma–bu yaxlit tuzilish bilan tavsiflanadigan, yaxlit ma’noga ega bo’lgan nominativ, undov yoki kommunikativ yopiq oborotga ega frazeologik birlik” dir. [7, 72] Masalan: “dark horse” (человек с неясной репутацией, beobro’ kishi), “the day after the fair” (слишком поздно, juda kech). Olima ayrim idiomalar (misol uchun; in the howe of the night, in the nick of the time, to cudgel one’s brain) tarkibidagi “muzlatilgan” yoki “konservalangan” komponentlarni (howe, nick, cugel) “nekrotik elementlar” deb nomlaydi va bunday tarkibli idiomalarga quyidacha izoh beradi: “Идиома с некротизмом или с формальной аномалией не может быть омонимичной соответствующему переменному сочетанию именно вследствие изоляции данного компонента. Из этого легко заключить, что наличие такой особенности есть условие, благодаря которому идиома проявляет свою идиоматическую природу независимо от каких бы то ни было внешних речевых факторов. Самое присутствие компонентов сигнализирует о том, что здесь налицо постоянный контекст, содержащий некий идиоматический смысл”. [7, 73].

Qisqacha qilib aytganda, kontekstologik jihatdan, tarkibida o'z ma'nosida keluvchi komponent (indikator) ga va unga bog'langan ma'noli komponent (yadro) ga ega bo'lgan birliklar frazemalar, tarkibiy qismi yadro va indikatorga bo'linmaydigan birliklar esa idiomalar deb ataladi.

Shuningdek, N.N.Amosova paremiyalarni frazeologiyaning obyektini bo'la olmasligini ta'kidlab, maqol va matallar "butun predikativ tuzilishga ega barqaror birliklar" sifatida qayd etgan. Kontekstual yondoshuv haqida so'z yuritar ekanmiz, bu yondoshuv hamda olimaning ta'limotiga berilgan asosiy e'tiroz va tanqidiy fikrlarni ham inobatga olish kerak, bizningcha.

Kontekstual yondashuvga berilgan fikrlardan kelib chiqib, mazkur yondoshuv bo'yicha quyidagi muhokamali, aniqrog'i, e'tirozli bndlarni keltirish mumkin:

1. Doimiy kontekstning mavjudligi yoki kontekstning o'zgarmasligi FBlar komponentlarining maxsus ma'nosi mavjud degan fikrni bildirmaydi. Ba'zi hollarda lug'aviy komponentlarning to'liq barqarorligi so'z birikmalarida, shu jumladan lug'aviy valentlikning tor yoki o'ziga xos diapazoniga ega bo'lgan birliklarda ham uchrashi mumkin.

2. N.N. Amosova fikriga ko'ra doimiy (qat'iy) kontekst kamdan-kam uchraydi. Ammo, til birligining o'ziga xosligi isbotlab bo'lmaydigan hodisa ekanligini hisobga olsak, bunday qat'iy fikr bildirish no'rin. Olima "break the news" va "break the matter" kabi til birliklarini frazeologizmlar safiga kiritmaydi, chunki ular kontekstda qat'iy emas deb fikrlaydi. Biroq, "fiddler's news" iborasini kamdan-kam qo'llanilishi hamda kontekstual xususiyatini inobatga olib, idiomalar safiga kiritadi. Bu haqida R. S. Ginzburg shunday deydi: "In the contextual approach traditional collocations are understood as word-groups with partially variable members; the degree of idiomaticity is disregarded". [2, 83]. A.V.Kuninning fikricha, "Подходя к фразеологическим сочетаниям с меркой контекстологического анализа, Н.Н. Амосова не считает значение семантически реализуемого слова в подобных случаях фразеологически связанным, поскольку указательный минимум, для него необходимый, не является постоянным". [3, 14]

### **Xulosalar**

Xulosa sifatida shuni qayd etish o'rinliki, garchi N.N.Amosovanning kontekstual-frazeologik nazariyasi ayrim munozaralarga sabab bo'lgan bo'lsada, u ingliz frazeologiyasi klassifikatsiyasida tub burilish yasab, FBlar tasnifini butunlay yangicha yondoshuv bilan amalga oshirgan. Bugungi kunda antroposentrik paradigmaga asoslangan zamonaviy tilshunoslikda kontekstologik yondoshuvni doirasida turli tillar tizimida FB'larni qiyosiy-tipologik tahlil qilish frazeologiyada o'z yechimini kutayotgan masalalardandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. D.F.Gaybullayeva. Phraseological units as national-cultural specifics of the English and Uzbek languages. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. 194-200 pp.
2. R.S. Ginzburg, S. S. Khidekel, G. Y. Knyazeva, A. A. Sankin. A Course in Modern English Lexicology. Second Edition. Revised And Enlarged. Moscow Vysšaja Škola. 1979. 269 c.
3. A.V.Кунин Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. Для ин-тов и фак. Иностр. Яз.– 2-е изд., перераб. – М.: Высш. Шк., Дубна: Изд. Центр "Феникс", 1996 – 381 с.
4. А.И.Смирницкий. Лексикология английского языка. М., 1956 – 268 с.



5. В.В.Виноградов Основные типы лексикологических значений слова//Избр. Труды. – м.: Наука, 1977 - 162-189 сс.
6. И.В.Арнольд. 84 Лексикология современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Высш. шк., 1986. — 295 с
7. Н.Н.Амосова. Основы английской фразеологии. Издательство Ленинградского Университета., 1963. – 208 с.

### JAHON VA O'ZBEK NASRIDA JONIVORLAR OBRAZINING TASVIRLANISHI (IT OBRAZI)

Ashurov Bekzod Shavkatjon o'g'li  
NamDU O'zbek adabiyotshunosligi kafedراسи o'qituvchisi  
E-mail: bekozod.ashurov.1994@mail.ru

*Аnnotatsiya.* Ushbu maqolada jahon va o'zbek adabiyotida jonivorlar obrazining tasvirlanishi, M.Avezovning "Ko'kyol" hikoyasi, N.Norqobilovning "Qoraquyun" romanidagi qahramonlar, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, yozuvchi badiiy maqsadiga qay darajada xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, asarlardagi hayvonlar obrazlariga alohida e'tibor qaratilgan.

*Kalit so'zlar.* Roman, Qoraquyun, Erman, Itolmas, g'ul, N.Norqobilov, M.Avezov, Ko'kyol, it, bo'ri, S.Bazarov.

### ПОРТРЕТ ОБРАЗ ЖИВОТНЫХ В МИРОВОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ (ОБРАЗ СОБАКИ)

Ашуров Бекзод Шавкатжон угли  
преподаватель кафедры узбекского литературоведения НамГУ  
E-mail: bekozod.ashurov.1994@mail.ru

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются изображения животных в мировой и узбекской литературе, повести М.Авезова «Кокёл», персонажи романа Н.Норкабилова «Коракюн», их идейно-художественные особенности, в какой степени они служат художественной цели писателя. В частности, особое внимание в произведениях уделяется образам животных.

*Ключевые слова.* Роман, Каракуюн, Эрман, Итолмас, собачья будка, Н. Норкабилов, М. Авезов, Кокиол, собака, волк, С. Базаров.

### PORTRAIT OF THE IMAGE OF ANIMALS IN WORLD AND UZBEK PROSE (IMAGE OF DOG)

Ashurov Bekzod Shavkatjon ogli  
Teacher of the Department of Uzbek Literary Studies of NamSU  
E-mail: bekozod.ashurov.1994@mail.ru

*Abstract.* This article discusses the depiction of animals in world and Uzbek literature, M.Avezov's story "Kokyol", characters in N.Norqabilov's novel "Koraquyun", their ideological-artistic features, and to what extent they serve the writer's artistic goal. In particular, special attention is paid to the images of animals in the works.

**Keywords.** *Roman, Karaquyun, Erman, Itolmas, flower, N. Norqabilov, M. Avezov, Kokyol, dog, wolf, S. Bazarov.*

### **Kirish**

Badiiy asarni o'rganish vositasida muayyan millat adabiyoti, tarixi, madaniyati haqida turfa xil taassurotlar vujudga keladi. Insonni ezgulik, yaxshilik ruhida tarbiyalashda ham badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Shuning uchun adabiyot millat, elat, qabila, urug' tanlamaydi. Har qanday millat adabiyotida inson u yashgan davr muhiti o'z aksini topadi. Insoniyat yaratilibdiki, badiylik qonuniyatlari zamirida insonni anglash, his etish, tafakkur dunyosidagi o'zgarishlarni badiiy talqin etib kelmoqda. Badiylik zamirida hayot va inson, uning badiiy obrazi o'z ifodasini namoyon qilish orqali, shaxs qismati, botiniy olami, badiiy xarakterlar darajasiga chiqishini ta'minlaydi.

"Badiylik – deb yozadi adabiyotshunoslar, ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli o'laroq dunyoga kelgan asarning san'atga mansubligini belgilovchi xususiyatlar majmuyi. Obrazlilik badiylikning birlamchi sharti sanalib, u voqelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash demakdir".<sup>59</sup>

Badiylik obrazlilik bilan uzviy birlikda mavjud bo'lar ekan obrazlilikning ham o'ziga xos tamoyillari mavjuddir. Bu haqida so'z yuritgan adabiyotshunos To'xta Boboyev shunday nazariy qarashni ilgari suradi: "Obrazlilik – san'atning asosiy xususiyati, hayotning o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli, uning "tili" va shu bilan birga hayot hodisalari ustudan chiqargan hukmi" dir.<sup>60</sup>

### **Asosiy qism**

Obrazlilik – badiiy ijodning eng xarakterli mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, badiiy qahramon, badiiy til, tabiat va uning hodisalari, jamiyat, insoniyat, jismlar, buyumlar, hayvonat dunyosi kabilarning barchasini o'z ichiga qamrab oladi. Bular orqali ijodkor badiylik mezonlarini yuzaga chiqaradi.

"Adabiyotning bosh mavzusi inson bo'lgani bois uning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asar uchun material bo'la oladi. Lekin badiiy asarda gavalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro'y bergan yoki bo'lishi mumkin voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtayi nazardan qayta ishlangan shaklidir"<sup>61</sup>.

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov ta'kidlaganidek: "Insonning barcha qutirishlariga tabiat chidadi, "sharif-ku, insofga kelib qolar", – deya o'ziga taskin berdi. Bo'lmadi. Tabiat ham insonga qarshi bosh bosh ko'tardi. Tabiat va inson ixtilofi qiyomat qoyimni naqd qilib qo'ydi. Inson tabiatnigina emas, o'zini-o'zi nobud etishga shitob bilan kirishdi. Qiyomatning aniq ko'rinishlari ro'y berdi".<sup>62</sup>

### **Natija va muhokamalar**

O'zbek nasrining rivojlanishida o'ziga xos uslub egasi bo'lgan adiblarning asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi munosabat bilan bir qatorda, ularning asrlar davomidagi uzviyligini kuzatib asosli xulosalar chiqarish mumkin.

<sup>59</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Академнашр, 2010. 56-б.

<sup>60</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 41-б.

<sup>61</sup> Базаров С.Б. Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси: филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Термиз, 2020. 52-бет.

<sup>62</sup> Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Тошкент: Шарк, 2007. 83-б.

Tabiat mo'jizalari oldida insongina emas, uning har bir mavjudodi-yu, jonivori oh chekadi, ammo bu ohning zamirida qanday dard borligini ba'zan anglab, ba'zan anglamay o'tamiz<sup>63</sup>.

Ernist Seton-Tomson, Chingiz Aytmatov, Nurali Qobul, Tog'ay Murod, Normurod Norqobilov ijodida ham mana shu kabi talqinlar ifodalangan bo'lsa-da, hammasida o'zgacha bir tasvir mavjudligini, bu esa insonni o'zligini anglashga, ichki olamidagi ziddiyatlar bilan kurashishi emas, ularning sabablarni anglashga undaydi.

Normurod Norqobilov bir qator asarlari bilan kitobxonlarga yaxshi tanish. U zamonaviy o'zbek nasrida odam, tabiat, hayvonot olamining o'zaro murakkab munosabatlarini tasvirlagan ijodkordir.

S.B.Bazarov o'zining tadqiqotida quyidagicha fikr bildirgan: "Normurod Norqobilov tog' bag'ri qishloqlarini rosa kezadi: ovchi, tog'chi, o'qituvchi, qiz-u ayol kabi shaxslarning, bo'ri, it, ayiq, qoplon singari jonivorlarning fe'lini ko'p va xo'p o'rganadi. Odam bozorini kezdi, imkoni qadar baholashga harakat qildi. Unda munosabatlar, chin-u yolg'on xatti-harakat, tuslanish, turlanishlar ko'z-ko'z qilinarkan. Yozuvchi hayvon-u inson aro rango-rang duellarni ko'rdi, detektiv munosabatlarni tasvirladi. Yozuvchi asarida tiriklikni tebratuvchi qator tuyg'ularni, go'zal bir yo'sinda ochib berishga harakat qiladi. Muqaddima o'rnida esa, shunday fikrlarni qog'ozga chizadi.<sup>64</sup>

Adibning "Qoraqyun" romanida tog'lik yigit Ermanning tutqunlikka tushib qolishi, ozod bo'lgach, uni qullikka mahkum qilgan Itolmas degan kimsadan qasos olish niyatida bir jonivorni "jonli o'q" sifatida qafasda, ya'ni g'ulda tarbiyalashi tasvirlangan. G'ul – tog'ning ma'lum bir hududlarida unadigan qayishqoq daraxt – Sariqtolning og'ochi va novdalaridan yasalgan.

G'ulning eng qiziqarli tasvirlaridan birini mashhur buryat adibi Isay Kalashnikovning Chingizxon hayoti, jang-u-jadallari zo'r mahorat bilan tasvirlangan "Shafqatsiz asr" romanida uchratamiz. Urug' hukmdoriga boysunmaganligi sababli o'spirin Temuchin – Chingizxon bo'yiga kiydirilgan g'ulda saqlanadi. Ana shu tutqunlik paytlarida unda odamlarga nisbatan kuchli nafrat shakllanadi<sup>65</sup>. Chingizxonning bo'yniga kiydirilgan g'uldagi ayanchli hayoti bilan Qoraqyunning hibsdagi ahvolini taqqoslash qimmatli xulosalar chiqarish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Bizningcha bu alohida qiziqarli maqolaning mavzusi bo'ladi, deb o'ylaymiz.

G'uldagi it – Qoraqyun. Itolmas – Ermanni tutqunlikka mahkum etgan odam. Qoraqyun shunga qarshi tarbiyalangan Ermanning jonli o'qi.

Ushbu asarda ozod inson tutqunlikdagi insonning ruhiyatini anglab yetmaganidek, Erman ham tutqunlikdagi jonivor Qoraqyunning botinida yuz berayotgan evrilishlarni idrok etmoqqa o'z ekanligi mohirlik bilan tasvirlab berilgan.

Bir jonivorning tutqunlik azobidan qiynalishi, fig'oni samolarni qaqshatib, ko'ngli mahzun oh chekishi, itning irillashi – ovozida g'azabdan ko'ra sog'inchga o'xshash, qo'msash nimadir borday. Erksizlikka qarshi ich-ichidan faryod urayotganligi kishini hayratli tarzda taajjubga soladi. Qoraqyundek jonivor bo'g'zidan otilib chiqmoqchi bo'lgan dardni qalbiga yashiradi. Ermanga itning ovozi baloyi azim – qirq ming oyoqli yovuz, dahshatli bir maxluqning

<sup>63</sup> Базаров С.Б. Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси: филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Термиз, 2020. 55-бет.

<sup>64</sup> Базаров С.Б. Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси: филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Термиз, 2020. 43-бет.

<sup>65</sup> Калашников И. Шафқатсиз аср. 1-китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 544 бет.

sharpa-sadosiday tuyulardi. Nomi it bo'lsa-da, arslon yanglig' qahrli bir yovuz, yirtqich maxluq edi. Erman g'anim hidi itning dimog'iga o'tirib xotirasiga mahkam mixlanib qolsin degan umidda Itolmasning oqish, toza jundan to'qilgan noyob chakmonini g'ul tubiga, itning oyoqlari ostiga to'shagan.

Qoraquyundek jonivorning eng xush ko'rgan yemagi bo'ri eti – qashqar go'shti hisoblanadi. Inson botinidagi qo'rquv, hadik, xavotir kabi hislar faqat insonlargagina xos emas ekan.

Yirtqich hayvonlar sirasiga kiruvchi bo'rilar hayoti va tabiati yuksak mahorat bilan tasvirlangan asarlarni ham uchratishimiz mumkin. Qozoq adibi M.Avezovning "Ko'kyol" hikoyasi fikrimizning dalilidir<sup>66</sup>. Bo'ri bolasi hech qachon odam qo'lga o'rganmasligi, bo'rilar odamga do'st bo'lmasligi haqida ovuldoshlarining ogohlantirishlariga qaramay, Qurmash ismli bola yosh bo'ri bolasini asrab olgani va yoyaga yetgan bo'ri – Ko'kyol uni o'ldirib qochib ketishi tasvirlangan. Yozuvchi Ko'kyolning vahshiylashiga yoshligida ovul itlari tomonidan xo'rlangani, azoblanganini sabab qilib ko'rsatadi. Bizning ushbu maqolamizda tahlil qilinadigan voqealar tasviri ham yuqoridagi hikoya mazmuniga juda yaqin, ammo bu o'rinda qahramon it – Qoraquyunning vahshiylashib ketishiga uni tutqunlikda azoblab boqqan Ermanning xatti-harakati sabab qilib ko'rsatiladi. Muxtor Avezovning "Ko'kyol" hikoyasi bilan Normurod Norqobilovning "Qoraquyun" asarini taqqoslab maxsus maqola yozishni niyat qilganmiz, shu sababli mavzuni muxtasar qildik.

Jahon adabiyoti tajribasidan ma'lumki, itlardan qasos olish vositasi sifatida foydalanilganligi haqida namunalar ham uchraydi. Jumladan, bu o'rinda mashhur fransuz adibi Gi de Mopassanning "Intiqom" hikoyasini keltirishimiz o'rinli<sup>67</sup>. O'zbek adibi N.Norqobilovning "Qoraquyun" romani bilan fransuz adibining asarini qiyoslab alohida maqola yozish maqsadimiz borligi uchun bu o'rinda shu ma'lumotlar bilan cheklanmoqchimiz.

Ko'pgina badiiy asarlar ro'y bergan qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'ngli, ruhiyatining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamlarni o'zini anglar darajadagina anglay oladi. Shuning uchun bugungi adabiyotda odamdan tashqaridagi voqealarga emas, inson ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratilayotganini Sobirjon Bazarov o'zining tadqiqotida alohida ta'kidlagan<sup>68</sup>.

Aynan "Qoraquyun" romanidagi Erman obrazi orqali yozuvchi insondagi his-tuyg'u va odamiylik fazilatlarini jonivorlar timsoli orqali tasvirlab inson o'zining his-tuyg'ulariga mast bo'lib, o'zga qalb tuyg'ularni his qila olmaydigan, ozgina yutuqdan havolanib, atrofida kechayotgan hodisalardan bexabar, befarq, loqaydligini ko'rishimiz mumkin.

Adiblarimiz badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, asosiy e'tiborini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadriyatlar talqiniga bag'ishlashga intiladi. N.Norqobilovning ko'plab asarlarida voqelikni teran tahlil qilish, inson ruhiyatiga nazar tashlanishi, inson va jonivorlar orasidagi qalb iztiroblarni ifodalash, hayotning mohiyatini, insonning o'zligini anglashini kuzatish mumkin. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, har bir jonivor obrazida tasvirlangan, insoniylashgan holatlarni chuqurroq anglay boshlaymiz.

"G'uldagi it – Qoraquyun yarim tunga yaqin tin olmay, uzluksiz bir alfozda g'azabkor irillay boshladi. Bu g'ayritabiyy vajohatga to'la sas o'tovda keng, og'ir qora po'stinga o'ralganча,

<sup>66</sup> Аvezов М. Кўкёл. // Қараш-қараш. Повесть ва ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962. – 132 бет.

<sup>67</sup> de Mopassan Gi. Intiqom (hikoya). Rus tilidan Mohigul Azimova tarjimasini // "Yoshlik" jurnali, 2014-yil, 1-son.

<sup>68</sup> Yuqoridagi manba. 44-bet.



endigina uyqu to'riga chirmalgan Ermanga shunchaki itning ovozi emas, balki yer bag'irlab o'rmalab kelayotgan baloyi azim – qirq ming oyoqli yovuz, dahshatli bir maxluqning sharpa-sadosidek tuyuldi. Va agar qovog'iga misli botmon toshdek osilgan uyqu yukidan zudlik ila forig' bo'lmasa, hademay bu nomsiz maxluq o'tov chiylarini sitib, sochqilab, uviq va keragalarni xasdek yanchib, burdalab ichkariga suqilib kiradigan, so'ng esa minglab sertuk oyoqlari bilan jismi-jonini iskanjaga olib, tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada beo'xshov, ayri jag'ini lang ochganicha, yamlamay komiga tortadigandek...".<sup>69</sup>

Olamni insoniylashtirish orqali yozuvchilar tabiatga, jonivorlarga, narsalarga "jon" ato etadi. Buning tag zamirida katta iste'dod mujassamlashgan bo'ladi. Ko'plab asarlardagi voqealar rivoji shundan dalolat beradiki, tasvirdagi ruhiy talqinning o'ziga xosligini, badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xilligi, mavzu ko'lamining kengligini ko'rish mumkin. Har doim ijtimoiy davr zamonasining kishilari bilan bir qatorda, badiiy adabiyotda o'zining umumlashgan tamoyillari asosida in'ikosini topayotganligidan dalolatdir.

Adib "Qoraqyun" romanida Erman obrazi orqali o'z zamondoshlarining qalbida kechayotgan kechinmalarni, insonni botiniy olamidagi ziddiyatlarni mahorat bilan tasvirlashga intiladiki, buning asosida hayotga, insoniyatga yangicha qarash, o'zlikni teranroq anglashni ham his etish mumkin.

"Qoraqyun kuchga to'la borgani sari, hanuz tizginsiz qasos xissi og'ushida yashayotgan Erman quyidagi manzarani bot-bot ko'z o'ngida jonlantirishdan sira erinmaydi, hatto qay bir ma'noda huzur qiladi: ana, guldan chiqarilishi bilan naq baloning o'qiga aylangan Qoraqyun uchqur va baquvvat otlarda archazor oralab kelayotgan suvoriylar tomon sassiz va sadosiz yelib bormoqda. U shu ketishida to'da boshida kelayotgan keng yag'rinli, burgut qarashli, qora soqoli juda kalta kuzalgan kimsa – Itolmasni ko'z ostita olgandi. Tig'iztob archalar xamda bo'liq maysalar tufayli it g'anim ko'ziga chalinmaydi, faqat otlargina so'nggi daqiqalarda bezovtalanishni boshlaydi. Biroq suvoriylar xushyor tortguncha bo'lmay, archalar orasidan yashin tezligida otilib chiqqan Qoraqyun Itolmasning naq bo'g'ziga yopishadi"<sup>70</sup>.

Asarda qasos, alamli iztirob, qahr kabi salbiy fazilatlar yuqori o'rinni egallagan. Voqealar rivojida salbiy xususiyatlar ham jonli gavdalantirilgan.

Asar qahramonimiz o'z qahr-g'azabini quyidagicha ifodalaydi: "Erman azbaroyi jonidan to'yib ketganidan, Itolmasga bor qahrini sochmoqqa o'zida kuch topa bildi. O'sha kuni ont ichib dediki: "...vaqti kelar, it bo'lib bo'g'zingga yopishmasam, etingni itlarga burdalatib, xomtalash qilmasam, bor yegan-ichganim ichagimga yuqmasin, harom bo'lsin!"<sup>71</sup>

Yozuvchining "Qoraqyun" romaniga nazar tashlar ekanmiz, asarda tasvirlangan Erman dushmani Itolmasdan qasos olish uchun bir jonivor – zotdor itdan o'z maqsadi yo'lida foydalandi. Bu tasvir orqali ongsiz jonivorning xuddi odamlar kabi iztirob chekishi, fikrlashi kabi xususiyatlar turfa talqinlarda o'z ifodasini topgan. Albatta, yozuvchi bu o'rinda majoziy obraz orqali insonga xos bo'lgan va bo'lmagan xislatlarni talqin etgan.

Keng yag'rinli, burgut qarashli, qora soqoli juda kalta kuzalgan kimsa sifatida tasvirlangan Itolmas tomonidan inson qadr-qimmatini toptalganini guvohi bo'lamiz. "Erman tutqunlik davrida Itolmasning quturgan itlari qarshisida necha bor o'lib-tirilmagan – har safar, avval o'lmasam ham, ana, endi o'ldim, deya jonidan umidini uzgan so'nggi onlarda, oqotov biqiniga

<sup>69</sup> Норқобилов Н. Қорақуюн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 3-б.

<sup>70</sup> Yuqoridagi nashr. 5-б.

<sup>71</sup> Yuqoridagi nashr. 6-б.

tashlangan qalin guldor kigiz ustida bahuzur yonboshlab yotgan Itolmasning ko'z ilg'amas imosi bilan itlar nari olinardi. Ammo shu o'tgan fursat ichida tutqunlar necha-necha bor o'lib-tirilmadi deysiz. O-o, u kunlar dahshatini unutilib bo'larkanmi! Qisqasi, bandilarning joni, agar o'xshatish joiz bo'lsa, qavm boshligi Itolmasning kaftida edi – xohlarsa, itlar oyog'i tagiga tashlaydi, xohlarsa, omon qoldiradi"<sup>72</sup>.

Romanda qalamga olingan har xil jonivorlar obrazida insoniyatga xos bo'lgan ba'zi bir xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunga biz Qoraqayun timsoli tasvirida ham guvoh bo'lamiz. "Darvoqe, mazkur hududda kun sayin kuch-quvvatga to'lib borayotgan qudratli bir maxluq mavjudligidan bu atrofning bo'rilari tugul, huda-behudaga qorasini ko'rsatavermaydigan tog'ning g'o'ddaygan mevaxo'r ayiqlarigacha boxabar edi. Xullas, gapning qisqasi, bu manzilga biron-bir esi yo'q jonivor yoxud qo'shni dovondan oshgan sayoq bo'rilar to'dasi yaqinlashmasa, qolgan jonzot ancha naridan aylanib o'tadi. Biroq, shunga qaramay, garangsib, sumanglab kelib qoladigan jonivorlar hamisha topiladi"<sup>73</sup>. Bu tasvir orqali jonivorning qiyofasini yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi.

Yozuvchi Erman obraziga o'zgacha yondashgan. Asar boshida u qasos, nafrat, alamga o'ch shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning tosh qalbidagi nafrat-fojialarini majoziy obrazlarga singdiradi. Inson va nabotot olami o'rtasidagi ziddiyatlar mahorat bilan talqin qilingan. Inson va tabiat birligi, ularning o'rtasidagi bog'liqlikni taranroq anglashga undaydi.

Insonlar o'rtasidagi mehrning yo'qolishi, nabotot olamidagi o'zaro mehr, jonivorga bo'lgan munosabatni Erman obrazi orqali yanada teranroq his etamiz. Ermanning kechinmalari, tuyg'ulari uning dushmani haqidagi o'y-fikrlarni yozuvchi tomonidan shunday qalamga olinadi. "U g'azab va nafrat og'ushida o'z volidasi nomini qasamga tirkab, "toki boshingni yemagunimcha, elga aralashmayman, qurga qo'shilmayman", deya ont ichib qo'ygandi. Odam bolasi, ayniqsa, tog' ahli avvalo qasam ichmasin, qasam ichdimi, tamom – uni ado etmoqdan bo'lak iloji qolmaydi"<sup>74</sup>.

### **Xulosa**

Yozuvchi Normurod Norqobilov romandagi obrazlarda o'y-mushohadalari orqali insoniyatda tobora kamayib borayotgan ayrim xislatlarni bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat, odamiylik, samimiylilik kabi ko'plab umuminsoniy xislatlar va insonlar va jonivorlar o'rtasidagi munosabat kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Ko'pgina roman va qissalar muallifi Normurod Norqobilov asarlari mavzu ko'laminin betakrorligi, emotsional ta'sirlarga boyligi va nabotot olamida jonivorlar olaminin siz va biz bilmagan o'ziga xos qirralarini, sirlarini yorqin ifodalash xususiyati bilan alohida ajralib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аvezов М. Кўкёл. // Қараш-қараш. Повесть ва ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия. 1962. – 132 бет.
2. Базаров С.Б. Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси: филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Термиз, 2020. 125 бет.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.

<sup>72</sup> Норқобилов Н. Қорақуюн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 6-б.

<sup>73</sup> Yuqoridagi nashr. 4-б.

<sup>74</sup> Yuqoridagi nashr. 6-б.



4. Калашников И. Шафқатсиз аср. 1-китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2021. – 544 бет.
5. Morpassan Gi de. Intiqom (hikoya). Rus tilidan Mohigul Azimova tarjiması. // “Yoshlik” jurnali, 2014-yil, 1-son. 6 bet.
6. Норқобилов Н. Қорақуюн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 214 бет.
7. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 83-б.
8. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. 56-б.

## TELEVISION TITRLARNING PUBLITSISTIK USLUBDA QO'LLANISHI

Isokulov Abdullo Oblokul o'g'li  
Perfect university oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi  
E-mail: abdulloisakulov@gmail.com

***Annotatsiya:** Nutq madaniyati tilshunoslikning, ayniqsa, uslubiyat bo'limi bilan zich bog'langan. O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan uslubiyat til birliklarining aloqa vositasi sifatida muloqot jarayonida har xil vaziyat va sohalarda qo'llanishi, nutqni hosil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'naviy xususiyatlarini ajratish bilan shug'ullanadi. Uslubiy xoslanganlik ma'lumot yetkazish, muloqot jarayonining bir vositasi sifatida namoyon bo'ladigan televizion dasturlarda qo'llanadigan ekran matnlari uchun ham xos. Bu borada publitsistik uslubda yaratilgan ekran yozuvlari muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** ekran yozuvlari, uslubiyat, publitsistik uslub, televideniye, matn*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ ТИТРОВ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОМ СТИЛЕ

Исокулов Абдулло Облокул  
Преподаватель высшего учебного заведения Perfect University

***Аннотация:** Речевая культура тесно связана с языкознанием, особенно с методологией. Методика, считающаяся сравнительно новой областью узбекского языкознания, занимается изучением использования языковых единиц как средства общения в различных ситуациях и сферах процесса общения, закономерностями формирования речи, возможностями и духовными особенностями всех средств. в системе языка в речевом процессе. Стилистическая специфика характерна и для экранных текстов, используемых в телевизионных программах, которые выступают средством доставки информации и коммуникативного процесса. В этом плане важны кинозаписи, созданные в публицистическом стиле.*

***Ключевые слова:** экранные записи, стилистика, публицистический стиль, телевидение, текст.*

## USE OF TELEVISION CAPTIONS IN PUBLICISTIC STYLE

Isokulov Abdullah Oblokul  
Teacher of Perfect University higher education organization

**Abstract:** *Speech culture is closely related to linguistics, especially to methodology. The methodology, considered a relatively new area of Uzbek linguistics, studies the use of linguistic units as a means of communication in various situations and areas of the communication process, the patterns of speech formation, the capabilities and spiritual characteristics of all means. in the language system in the speech process. Stylistic specificity is also characteristic of on-screen texts used in television programs, which act as a means of delivering information and the communication process. In this regard, film recordings created in a journalistic style are important.*

**Key words:** *screen recordings, stylistics, journalistic style, television, text.*

### **Kirish**

Nutq madaniyatining, avvalo, tilshunoslik fani, shuningdek boshqa fanlar orasida tutgan o'rnini belgilash hozirgi kunda muhim masala bo'lib turibdi. Rus olimi "R.A.Budagov nutq madaniyatini "filologik fan" deb atasa, boshqa bir olim V.P. Petushkov esa uni bir qator fanlardan oziqlanib ish ko'ruvchi "yangi fan" deya ta'riflaydi" [1:9]. Aslida nutq madaniyati fanning ilmiy sohasi sifatida tilshunoslik bilan birga estetika, etika, odobshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bevosita aloqador hisoblanadi. "Uslubiyat – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi shakl, so'z va qurilmalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi" [2:73-78]. Boshqacha aytganda, uslubiyat nutq jarayonida qo'llanadigan til birliklarini me'yorlashtiradi, nutqning turli uslublarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi, tabiiyki, birliklarning muayyan uslublarga xoslanishini tekshiradi. Zero, "kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar" [3:69]. Chunki tilimizdagi vositalarning tultumanligi, sinonimik rang-baranglik nutq tuzuvchiga shunday imkon beradi. Mana shunday tanlanish nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini tanlab beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Uslubiy xoslanganlik ma'lumot yetkazish, muloqot jarayonining bir vositasi sifatida namoyon bo'ladigan televizion dasturlarda qo'llanadigan ekran matnlari uchun ham xos, albatta. Zero, "televideniye – ommaviy axborot vositalarining turlari orasida keng qamrovliligi, ommabopligi, ko'ngilocharligi kabi qator xususiyatlari bilan ajralib turadigan audiovizual vosita sifatida og'zaki nutq (ba'zan yozma nutq) va kadrlar ketma-ketligidan iborat jonli tasvirlarni birlashtirar" [4:88] ekan, bunda ekran yozuvlarining ham o'ziga xos vazifalari bor. O'zbek va xorij olimlari tomonidan sermahsul o'rganilgan. S.Svetana, A.Omonturdiyev, Sh. Abduraimova Sh, G.Abdurahmonov, S.Karimov, Sh.Maxmatmurodov, O.Karimova, M.Shirinova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muloqot jarayoni bo'lmish televizion dasturlarga qo'shilgan bebaho hissadir.

Tasvir, nutq va ovoz televideniyeda intensioning yuzaga chiqishida zaruriy omillar hisoblanadi. Bu uchlikdan birining ishtirok etmasligi telenutqning yuzaga kelmasligi yoki mukammal bo'lmasligi uchun sabab bo'ladi. Bu borada S.Svetananing quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "telenutq ommaviy kommunikativ nutqning ko'rinishi sifatida ahamiyatga molik, uning asosiy konstruktiv prinsipi televideniyeda ma'lumotlarni yetkazishdagi uch omilning o'zaro bog'langanligi bilan o'lchanadi" [5:34].

## Tadqiqot metodologiyasi

Televizion nutq jamiyatning kundalik turmush tarzidagi, shuningdek, ko'p hollarda ommabop uslubning talablariga javob berishi lozimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga televizion ko'rsatuvlar og'zaki nutq qoidalari asosida yuzaga chiqishini hisobga olsak, teleko'rsatuvlar uchun ham og'zaki nutq mezonlari asos qilib olinishi mumkin. Ammo televizion titrlar ko'rsatuv ijodkorlarining maqsadlarini, fikrlarini yozma nutq vositasida teletomashibinlarga yetkazish vositasi sanaladi. Shu sababli televideniya namoyish etiladigan ekran yozuvlarida yozma nutq qonun-qoidalari to'liq ishlaydi, deyishimiz mumkin. Umuman, teleko'rsatuvlarning maqsadi, yo'nalishidan kelib chiqib ularda qo'llanadigan ekran yozuvlari ham o'zida turli nutq uslublariga oid birliklarni jamlashi mumkin. Shu sababli televideniya foydalaniladigan ekran yozuvlarini nutq uslublari kesimida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Publitsitik uslubga xos til birliklari aksariyat teleko'rsatuvlarda qo'llanadigan asosiy vosita hisoblanadi. Nutqning bu vazifaviy uslubi o'zbek tilshunosligida turli aspektida, shu jumladan monografik talqinda ham tadqiq qilingan [6:148]. Til taraqqiyotida muhim sohalardan biri sanaladigan publitsistika til imkoniyatlaridan, turli uslubga oid birliklardan faol foydalanishi bilan ajralib turadi. Zero, "ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz" [3:75]. Bu uslubda yaratilgan teleko'rsatuvlar mohiyatan tezkorligi, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarga hozirjavobligi, axorot yetkazish va targ'ibot qilishga qulayligi, insonlarni jahon yoki respublika miqyosidagi hodisalardan zudlik bilan xabardor qilishga mo'ljallanganligi bilan boshqa boshqa yo'nalishlardagi dasturlardan farqlanib turadi. Anglashiladiki, publitsistik uslubdagi ekran yozuvlari asosan axborot beruvchi dasturlarda faol qo'llanadi. Nutqning bu vazifaviy uslubida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan yangi atamalarning muntazam qo'llanishi va adabiy tilda me'yorlashishi ko'p kuzatiladi. Boshqacha aytganda, publitsitik uslub adabiy tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga ko'maklashadi. Masalan, "O'zbekiston 24 yangiliklari" dasturining 2023-yilgi sonlaridan birida quyidagi ekran yozuvlaridan foydalanilgan:

*"Rimdagi biznes-forumda 9 mlrd yevrodan ziyod investitsiyaviy bitimlar va savdo shartnomalari imzolandi"* [7].

Keltirilgan ekran yozuvida *biznes forum, investitsiyaviy* kabi o'zbek tilidagi jonli nutq uchun nisbatan yangi bo'lgan so'zlardan foydalanilgan. Garchi *biznes* [8:255], *forum* [9:359], *investitsiya* [10:206] kabi so'zlar "O'zbek tilining izohli lug'ati" turli jildlarida alohida izohlangan bo'lsa-da, biznes forum tarzidagi qo'shma so'z (yoki birikma), investitsiyaviy affiksatsiya usulida hosil qilingan yasama so'zlar lug'at maqolalaridan o'rin olmaganligi bu so'zlarning o'zbek adabiy tiliga kirib kelish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi so'zlar (*biznes forum, investitsiyaviy* kabilar) teletomoshabinlar misolida jamiyat leksikonida mustahkam o'rnashganidan so'ng lug'atlarga ham kiritilishi mumkin bo'ladi. Bunda yasaliş asosi uchun lug'atlarda berilgan izohdan yangi so'zlarga tayyorlanadigan lug'at maqolalarida ham foydalanish mumkin bo'ladi. Masalan, "mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko'rish maqsadida biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi" [10:206] shaklidagi investitsiya so'zining izohidan investitsiyaviy so'zga tayyorlanadigan lug'at maqolasida foydalaniladi va quyidagi shaklda bo'lishi mumkin: "mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko'rish maqsadida biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapital bilan bog'liq". Adabiy tilga yangi kirib kelayotgan so'zlarni

televideniya titrlar sifatida qo'llash ulardan yozma nutqda to'g'ri foydalanish samaradorligiga ham ta'sir qiladi. Tomoshabin muayyan so'zning yozilishini ekranda ko'rishi va xotirasida saqlab qolishi bunga imkon beradi. Zero, "Imlo (arab. – to'g'ri yozish), orfografiya – so'z va gaplarning, so'z qismlarining grafika vositalari yordamida to'g'ri yozilishi; muayyan tildagi to'g'ri yozish qoidalari majmui" [11:129] ekan, u inson xotirasiga asosan vizual vositalar yordamida joylashadi.

Publitsistik uslub nafaqat axborot berish, balki teletomoshabinlarni muayyan g'oya, tadbir, jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga da'vat qilish vazifasini ham bajaradi. Shunday maqsadlarda yaratiladigan videorolik, ko'rsatuvlar ham televideniya namoyish etiladi. Bunday teleko'rsatuvlarda qo'llanuvchi ekran yozuvlari jamiyatning muayyan masalada qaror qabul qilishiga ko'maklashadi. Shu sababli axborot-ma'lumot va tashviqot mazmunidagi titrlar ijtimoiy reklama kabi teleko'rsatuvlarda qo'llanadi. Bunda gaplarning kesimi 2-shaxs ko'plikda (tinglovchilarga murojaat), tomoshabinlar bilan birdamlik mazmunini bo'rttirish maqsadida ba'zan 1-shaxs ko'plikda qo'llanadi. Masalan, "Nasaf TV" da namoyish etilgan "Xabarlar" informatsion dasturida shunday holatni kuzatishimiz mumkin:

*"Kelajagimiz uchun ovoz beraylik!!!"* [12]

Mazkur misolda 2023-yilda konstitutsiyaga o'zgartirish uchun o'tkazilgan referendumda faol ishtirok etishga da'vat etuvchi tadbirda shior vazifasini bajargan gap ekran yozuvi sifatida qo'llangan. Ta'kidlanganidek, mazkur ekran yozuvida qo'llangan gapning kesimi 1-shaxs ko'plikni anglatadi. Birinchi shaxs ko'plik shakli tuslovchi sifatida so'zlovchi tomonidan taklif etilgan harakatni birga bajarishga tinglovchilarni jalb qilish ma'nosini ham ifodalaydi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish o'rinli bo'ladi: "Birinchi shaxs tuslovchi harakatning bajaruvchisi so'zlovchining o'zi ekanligini, uning ko'pligi esa so'zlovchi ham qatnashgan shaxslarni bildiradi" [13:347] yoki "birinchi shaxsning ko'plik shakli so'zlovchining boshqa shaxslar bilan birgalikdagi harakatini bildiradi" [13:350]. Yuqorida keltirilgan shior matnida saylovchilarning o'z kelajaklariga befarq bo'lmagan holda referendum jarayonida faol ishtirok etishlari lozimligi haqidagi fikrlar 1-shaxs ko'plik shakli vositasida yuzaga chiqarilgan.

Ba'zan publitsistik uslubda yaratilgan va televideniya namoyish etiladigan ijtimoiy roliklar savol-javob tarzida shakllantiriladi. Bunda eng muhim savollar tanlab olinadi va go'yoki tomoshabin nomidan bu savollar beriladi. Ijodkorlar tomonidan (reklama bo'lsa, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan) bu savollarga javob beriladi. Bunday shakldagi teleko'rsatuvlarda ekran yozuvlari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

*"– Referendum nima?"*

*– Referendum O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir"* [15].

Keltirilgan misolda savol-javoblar tarzida shakllantirilgan dialog vositasida muhim siyosiy jarayon haqida to'liq ma'lumot berilgan. Sanalgan barcha holatlarda qo'llangan ekran yozuvlarida publitsistik uslubga xos sanaladigan til birliklaridan foydalanilgan.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib aytganda, publitsistik uslubda shakllantiriladigan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi bilan ham ajralib turadi, shu sababli bu uslubda tasviriy vositalarning faol qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, "O'zbekiston 24" telekanalida namoyish etilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hafta davomidagi faoliyatiga bag'ishlangan ko'rsatuvda, avvalo, boshlovchining o'ziga xos uslubi, qolaversa, dasturda namoyish etilayotgan

voqealarning muhimligi publitsistik uslubda emotsional-ekspressivlikning yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan. Buni boshlovchi foydalangan yo'l so'zining turli ma'nolarida ham ko'rishimiz mumkin:

*“Assalomu alaykum! Bugungi muloqotni yo'l bilan boshlab, yo'l bilan tugatmoqchiman. Siz bilan biz, qaysidir ma'noda, yo'lga chiqqan yo'lovchilarmiz. Tug'ilgan onimizdan “hayot” deb atalgan yo'ldan qadam tashlab kelmoqdamiz...”* [16].

Bunday ruhda boshlangan teleko'rsatuvda qo'llangan ekran yozuvlari ham muqaddimaga mos tanlanganligi tabiiy hol.

Anglashiladiki, publitsistik uslub ekran yozuvlarini yaratishda eng muhim nutqning vazifaviy shakllaridan biridir. Nutqning bu vazifaviy shakli axborot berish, targ'ibot qilish bilan bog'liq teleko'rsatuvlar uchun muhim hisoblanadi. Publitsistik uslub ham teletomoshabinlar (televideniye) va o'quvchilarga (matbuot) ta'sir qilishga mo'ljallanganligi uchun o'rni bilan badiiy uslubning asosiy vositasi sanaladigan emotsional-ekspressiv bo'yoqdor til birliklariga murojaat qilib turadi. Tahlil qilinayotgan nutq uslubida yaratilgan ekran yozuvlarida *davr talabi, do'stona muloqot, yuqori sifat uchun kurash, yaratuvchanlik hissi, minnatdorlik tuyg'usi, xalq dardi, xalq dardi bilan yashash, dunyo hamjamiyati, mustaqillikni mustahkamlash, muqobil energiya* kabi birikmalardan foydalaniladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh., O'zbek nutqi madaniyati va uslubi, – Toshkent: TerDU. 2016. – 96 b.
2. Абдурахмонов Ф., Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, 6-сон, – Б. 73-78.
3. Karimov S., Maxmatmurodov Sh., Karimova O., Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish, – Toshkent: O'zbekiston. 2003. – 192 b.
4. Shirinova M., Telenutq – medianutqning bir ko'rinishi sifatida // O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 2023. – B. 88.
5. Светлана С.В., Телевизионная речь: функции и структура. – Москва: Издательство Московского государственного университета, 1976. – 152 с.
6. Қурбонов Т.И., Ҳозирги ўзбек адабий тилининг публицистик услуби. Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент. 1987. – 148 б.
7. <https://www.youtube.com/watch?v=0HikQrn-U5w>
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – 680 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 4-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – 607 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 2-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – 672 б.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001. – 704 б.
12. <https://www.youtube.com/watch?v=EqkeZnLQwB4>
13. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон. 1992. – 399 б.
14. <https://www.youtube.com/watch?v=z5O12CdTFAA>
15. <https://www.youtube.com/watch?v=z5O12CdTFAA>
16. [https://www.youtube.com/watch?v=b\\_7boVgQPGY](https://www.youtube.com/watch?v=b_7boVgQPGY)



## MASOFAVIY TA'LIM TERMINOLOGIYASIDA INGLIZCHA O'ZLASHMALAR VA ULARNI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI

Xidirova Gulnoza Xalilovna  
Qarshi davlat universiteti  
Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi  
[gulnozahidirova665@gmail.com](mailto:gulnozahidirova665@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada masofaviy ta'lim terminologiyasida boshqa tillardan o'zlashmalar, ularning o'zlashtirish yo'llari, yangi so'z yasalishi, so'z semantikasidagi o'zgarishlar, adabiy til va dialektlar o'rtasidagi munosabat, ya'ni dialektizmlarning adabiy tilga ko'chishi va boshqalar bilan birga leksik tizim tashqi imkoniyat – qardosh va noqardosh xalqlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli yuzaga kelgan leksik almashinuv, so'z o'zlashtirish hisobidan terminologiyadagi o'zgarishlar to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, semantic o'zgarish, leksik almashinuv, tutor, facilitator, mentor, so'z o'zlashtirish, ZOOM, Cisco, Webex.

## ОВЛАДЕНИЕ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ В ТЕРМИНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И СПОСОБЫ ИХ УСВОЕНИЯ

Хидирова Гулноза Халиловна  
Каршинский государственный университет  
Преподаватель кафедры практического английского языка  
[gulnozahidirova665@gmail.com](mailto:gulnozahidirova665@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассматриваются заимствования из других языков, способы их усвоения, создание новых слов, изменения в семантике слов, соотношение литературного языка и диалектов, т.е. литературных диалектизмов в терминологии дистанционного образования. Слово об изменениях в терминологии происходит за счет лексического обмена, ассимиляции слов, вызванной социальными, экономическими, политическими, культурными связями с родственными и неродственными народами.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, семантическое изменение, лексический обмен, тьютор, фасилитатор, наставник, усвоение слов, ZOOM, Cisco, Webex.

## ENGLISH ACQUISITIONS IN THE TERMINOLOGY OF DISTANCE EDUCATION AND WAYS TO ACQUIRE THEM

Khidirova Gulnoza Khalilovna  
Karshi State University  
Teacher of the Department of Practical English  
[gulnozahidirova665@gmail.com](mailto:gulnozahidirova665@gmail.com)

**Annotation:** The article discusses borrowings from other languages, methods of their assimilation, the creation of new words, changes in the semantics of words, the relationship between the literary language and dialects, i.e. literary dialectisms in the terminology of distance education. The word about changes in terminology occurs due to lexical exchange, assimilation of words caused by social, economic, political, cultural ties with related and unrelated peoples.



**Keywords:** distance learning, semantic change, lexical exchange, tutor, facilitator, mentor, word acquisition, ZOOM, Cisco, Webex.

### **Kirish**

Tilning lugʻat sathi boshqa sathlarga qaraganda eng tez oʻzgarishga uchraydigan, jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda muntazam yangilanib boradigan sath hisoblanadi. Tilning ichki imkoniyatlari – yangi soʻz yasalishi, soʻz semantikasidagi oʻzgarishlar, adabiy til va dialektlar oʻrtasidagi munosabat, yaʼni dialektizmlarning adabiy tilga koʻchishi va boshqalar bilan birga leksik tizim tashqi imkoniyat – qardosh va noqardosh xalqlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli yuzaga kelgan leksik almashinuv, soʻz oʻzlashtirish hisobidan ham muntazam boyib boradi. Ushbu jarayonlar terminologiyada ham oʻz izini qoldiradi.

Ayni paytda pedagogika keskin taraqqiy etayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu taraqqiyot sohaga doir terminlarning qoʻllanish doirasining yanada kengaytirish, yangi tushunchalarni nomlash zaruratini yuzaga keltirdi. Bu zarurat – tilda yangi atamalarning paydo boʻlishi jamiyat taraqqiyotidan darak beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Taʼlimning aksariyat klassik terminlari ushbu tizimda ham ishlatiladi. N.Usmonov pedagogik terminologiyada, asosan, uchta til manbasidan oʻzlashtirilgan terminlar mustahkamlanib qolganini taʼkidlagan edi: 1) eroniy, xususan, fors-tojik tilidan oʻzlashgan terminlar: ustoz, shogird, siyoh, siyohdon, pand, donishmand kabi; 2) arab tilidan oʻzlashgan terminlar: dars, kitob, maktab, madrasa, maorif, feʼl-atvor, taʼlim, tarbiya, ilm, maʼrifat, odob-axloq va b. 3) ruscha oʻzlashmalar [3.145]

Inglizcha oʻzlashmalar soha leksikasining katta qismini tashkil qiladi. Sof inglizcha soʻzlardan tashqari lotin, fransuz, rus tillaridan ingliz tili orqali oʻzlashgan soʻzlar ham ingliz tili fonetik, grafik, morfologik meyorlariga assimilyatsiya qilingani uchun ularning genezisini aniqlash qiyin. Masalan, Mamataliyevning oʻzbek masofaviy taʼlim terminologiyasida “bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining taʼlim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi” [1.32b] maʼnosida qoʻllanuvchi *edvayzer* asli fransuz tiliga mansub boʻlib, *avisen* – oʻylamoq feʼli asosidan kelib chiqqan. Ingliz tiliga *advisor* – oʻylovchi tarzida oʻzlashtirilgan.

Jumladan, pedagogik sohaga oid inglizcha terminlarni oʻzlashtirish masalalari yuzasidan izlanish olib borgan Y.M.Fedosova rus tilida oʻzlashma pedagogik terminlar tasnifida uch guruhni ajratadi: 1) toʻliq assimilyatsiya qilingan, yaʼni retsiyent tilning meyorlariga muvofiq oʻzlashtirilgan birliklar: *аудит* – *audit*, *стейкхолдер* – *stakeholder*, *квест* – *quest*, *менпинг-тест* – *tapping-test*, *актив-тренинг* – *active-training*, *фишбоун* – *fishbone*, *бинго* – *bingo*, *лимерик* – *limerick*; 2) qisman assimilyatsiyalangan leksik birliklar: *ревитализация* – *revitalization*, *дуальное (образование)* – *dual*, *пролонгация* – *long*, *аккумуляция* – *accumulation*, *дивергентное (мышление)* – *divergent*, *валидность* – *valid*, *реферирование* – *referring*, *публикация* – *publication*, *рефлексия* – *reflection*, *инклюзивное (образование)* – *inclusive*, *дефиниция* – *definition*, *диффузность* – *diffusion*, *рецепция* – *reception*; 3) varvarizmlar: *OPI (Oral Proficiency interview)*, *TOEFL (Test of English as a Foreign Language)* [4.1-5 c]

### **Analiz va tahlil**

Til leksik tizimi, muayyan terminologik tizimni zarur nomlar bilan toʻldirishning eng keng tarqalgan yoʻli bu – soʻz oʻzlashtirishdir. Tilshunoslikda mazkur oʻzlashmalarni oʻrganish orqali xalqlar, millatlarning turli tarixiy davrlarda oʻzaro aloqalari, madaniy-tarixiy anʼanalar va

qadriyatlar tizimini idrok etish, tillararo leksik almashinuv sabablari haqida qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Jumladan, masofaviy ta'lim terminlarining tilda paydo bo'lishi, bunga sabab bo'lgan omillar, uning konseptual-kategorik asoslari, etimologiyasi, tarixi, miqdor va turlarini aniq belgilashda uning genezisiga doir ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan sohaviy leksika taraqqiyotini shu soha taraqqiyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, masofaviy ta'lim terminologiyasi ham boshqa omillardan holi, alohida taraqqiy etmaydi. Bu intralingvistik omillar bilan birga ekstralingvistik omillarga ham bog'liq. Xususan, bunda quyidagi ekstralingvistik omillar: 1) mamlakatda ta'limning ushbu sohasining rivojlanishi, ta'lim islohoti; 2) ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, pandemiya (masalan, karonavirus infeksiyasining tarqalishi); 3) kommunikatsion texnologiyalar taraqqiyoti, elektron vositalarning yangi avlodlarining yuzaga kelishi, mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi va boshqalar turtki bo'ldi.

2019-yilda dunyo bo'ylab karonavirus infeksiyasi – COVID-19ning tarqalishi deyarli barcha mamlakatlarda ta'lim muassasalari faoliyatini vaqtincha to'xtatishiga sabab bo'ldi. Uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi bosqichlarda o'quv jarayoni *Zoom, Cisco Webex, Google Classroom, Microsoft Teams, D2L, Edgenuity, Skype* kabi platformalar orqali masofadan tashkil etildi. Shu munosabat bilan ta'lim sohasi leksikasiga *onlayn maktab, onlayn dars, onlayn darslik, onlayn mashg'ulot, onlayn seminar, vebinar, veb-kurs, video-ma'ruza, internet-dars* kabi son-sanoqsiz yangi terminlar kirib keldi.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim terminologiyasida fors-tojikcha o'zlashmalar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Ularning o'zlashishi ko'proq o'zbek va tojik xalqlarining hududiy yaqinligi, azaliy erkin muloqoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalari va kundalik turmush sharoitlarining umumiyliigi bilan bog'liq. Ta'limning klassik terminlari, asosan, arabcha o'zlashmalardan iborat bo'lib, bu VIII-IX asrlarda Arab xalifaligining O'rta Osiyo mamlakatlariga yurishi bilan aloqador. Arab tilining din va ilm-fan tili sifatidagi mavqeyi, boshlang'ich maktab, madrasalarda ta'lim-tarbiya ishlarining arab tilida olib borilishi soha leksikasida ko'plab terminlarning o'zlashishiga olib keladi. Hatto hozirgi kunga qadar o'zbek tilida ta'lim tizimining faol leksikasini arabcha o'zlashmalar tashkil etib kelyapti.

XIX asr oxirlarida Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga yurishi, sobiq sho'ro hukmronligi davrida mustamlaka ostidagi davlatlarda rus tilini hukmron til darajasiga ko'tarish maqsadida davlat boshqaruvining rus tilida olib borilishi, yozuvning o'zgartirilishi natijasida ko'p sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham rus tilidan zamonaviy o'qitish tizimi, o'qitish metodlari, o'quv qurollari nomi bilan bog'liq terminlar kirib keldi, sinonimlar, dubletlar paydo bo'ldi. O'zbek tili pedagogik terminologiyasida arab va rus tillariga oid terminlarning paydo bo'lishi shu asosda yuz bergan.

Pedagogik terminologiyada bo'lgani kabi masofaviy ta'lim leksikasida ham o'zlashmalar ko'pchilikni, aniqroq qilib aytganda, soha terminologiyasining asosini tashkil etadi. Ayni paytda o'zlashma masofaviy ta'lim terminlarini genetik jihatdan, asosan, uch guruhga ajratish mumkin:

1. Lotincha o'zlashmalar.
2. Inglizcha o'zlashmalar.
3. Ruscha o'zlashmalar.

O'zbek tili masofaviy ta'lim leksikasida to'g'ridan-to'g'ri lotin tilidan o'zlashgan terminlar deyarli uchramaydi. Kelib chiqishi lotin tiliga mansub bo'lgan aksariyat terminlar ingliz tiliga

assimilyatsi qilingan, inglizcha talaffuz va yozuvga moslashtirib olingan va boshqa tillarga ingliz tili orqali o'zlashgan. Masalan:

*tyutor* lotincha *tutorem* – murabbiy, qo'riqchi. Ingliz tiliga *tutor* shaklida o'zlashgan.

*fasilitator* lotincha *facilis* – yengil, qulay. Ingliz tiliga *facilitator* shaklida o'zlashgan.

*glossariy* lotincha *glossarium* – glosslarni yig'ish. Ingliz tiliga *glossary* shaklida o'zlashgan.

*modul* lotincha *modulus* – o'lchov. Ingliz tiliga *moodle* shaklida o'zlashgan.

*mentor* lotincha *mentos* – niyat, maqsad. Ingliz tiliga *mentor* shaklida o'zlashgan.

Soha terminologiyasida sof ruscha so'zlar deyarli uchramaydi. Ayrim inglizcha terminlar rus tilining fonetik, grafik, morfologik, orfografik meyorlariga moslashtirib o'zlashtirilgan va o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan. Masalan: Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini anglatuvchi *HEMIS* – *Higher Education Management Information System* qisqartmasi rus tiliga *XEMIC* tarzida qabul qilingan va o'zbek tilidagi ilmiy-metodik qo'llanmalarda ham shu holda yozib kelinmoqda. Shuningdek, inglizcha *hyperlink* so'zi ham ruscha talaffuzda *giperssilka*, *gipertekst*, *giperhavola* shakllarida ishlatilmoqda.

Pandemiya dunyo ta'limi, jumladan, mamlakatimizda masofaviy ta'limga o'tish jarayonini shu qadar tezlashtirdiki, bu sohaga oid aksariyat terminlarning varvarizm sifatida – o'zlashtirayotgan tilning na garfik, na fonetik, na orfografik meyorlariga moslashgan holda kirib kelishiga olib keldi. Bu esa hech ikkilanmay ayni paytda o'zbek terminosistemasida masofaviy ta'limchalik termin-varvarizmlar va yarim kalka asosida qabul qilingan terminlar hisobidan faoliyat yuritayotgan soha bo'lmasa kerak degan xulosaga kelishimizga asos bo'lmoqda. Bu holat mazkur terminlarni hatto soha vakillari tomonidan tushunish va qo'llashi bilan bog'liq qator muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu jarayon bilan bog'liq boshqa omillar – fonetik-fonematik, grafik o'zgarishlar, orfografik xatolar tufayli o'zlashma terminning turlicha yozilishiga yo'l qo'yilishi odatga aylandi.

Tahlillarimiz ayni paytda o'zbek tili masofaviy ta'lim terminologiyasidagi o'zlashma terminlarini quyidagi guruhlariga ajratish imkonini beradi:

### **I. Ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri, o'zbek tilining fonetik, grammatik va orfografik meyorlariga to'liq moslashtirib o'zlashtirilgan terminlar:**

<i>avtoproktoring</i>	<i>autoproctoring</i>
<i>adminstrator</i>	<i>administrator</i>
<i>blog</i>	<i>blog</i>
<i>vebinar</i>	<i>webinar</i>
<i>veb kurs</i>	<i>web course</i>
<i>onlayn</i>	<i>on-line</i>
<i>keys stadi</i>	<i>case study</i>
<i>mentor</i>	<i>mentor</i>
<i>sillabus</i>	<i>syllabus</i>
<i>tyutor</i>	<i>tutor</i>
<i>traskript</i>	<i>transcript</i>
<i>edvayzer</i>	<i>advisor</i>
<i>monitoring</i>	<i>monitoring</i>
<i>invigilator</i>	<i>invigilator</i>
<i>flipchart</i>	<i>flipchart</i>
<i>chat</i>	<i>chat</i>



<i>internet</i>	<i>internet</i>
<i>multimediya</i>	<i>multimedia</i>
<i>kreativ</i>	<i>creative</i>
<i>vokabulyar</i>	<i>vocabulary</i>
<i>kouch</i>	<i>coach</i>
<i>kouching</i>	<i>coaching</i>
<i>instruktor</i>	<i>instructor</i>
<i>kontent</i>	<i>content</i>
<i>spelling</i>	<i>spelling</i>
<i>topik</i>	<i>topic</i>
<i>Pover point</i>	<i>Power Point</i>
<i>Forum</i>	<i>forum</i>
<i>keys</i>	<i>case</i>
<i>kredit</i>	<i>credit</i>
<i>link</i>	<i>link</i>
<i>interoyu</i>	<i>interview</i>
<i>multikasting</i>	<i>multicasting</i>
<i>glossariy</i>	<i>glossary</i>
<i>valantyor</i>	<i>volunteer</i>
<i>skayp</i>	<i>skype</i>
<i>podkast</i>	<i>podcast</i>

**II. Rus tili orqali, rus tilining fonetik, morfologik, grafik meyorlariga moslashgan holda o'zlashgan inglizcha o'zlashmalar:**

<i>фасилитация</i>	<i>facilitation</i>
<i>антиципация</i>	<i>anticipation</i>
<i>вики-технология</i>	<i>wiki technology</i>
<i>аудиоконференция</i>	<i>audioconferencing</i>
<i>modul</i>	<i>moodle</i>
<i>коллаборация</i>	<i>collaboration</i>
<i>гиперссылка</i>	<i>hyperlink</i>
<i>интерактив</i>	<i>interaction</i>
<i>презентация</i>	<i>presentation</i>
<i>лектор</i>	<i>lecturer</i>

**III. Kalkalash asosida o'zlashtirilgan birliklar.** Soha terminlarining aksariyati kalkalash asosida o'zlashtirilgan. Kalkalashning quyidagi ko'rinishlari uchraydi:

**1. To'liq kalka, o'zlashma so'z va uning komponentlarini so'zma-so'z o'zbek tiliga tarjima qilish asosida o'zlashgan terminlar:**

<i>masofaviy ta'lim</i>	<i>distance learning (d-learning)</i>
<i>aralash ta'lim</i>	<i>blended learning (b-learning)</i>
<i>dasturiy mahsulot</i>	<i>authoring tools</i>
<i>elektron manzil</i>	<i>electronic mail (e-mail)</i>
<i>elektron manzil arxivi</i>	<i>e-mail archive</i>
<i>ta'lim dasturi</i>	<i>educational program</i>
<i>o'quv dasturi</i>	<i>academic program</i>

<i>masofaviy o'quv dasturi</i>	<i>online learning program</i>
<i>masofaviy o'quv kursi</i>	<i>distance education course</i>
<i>Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar</i>	<i>Learning management system</i>
<i>Ichki kontentni boshqaruv tizimlari</i>	<i>Content management systems</i>
<i>Berilgan obektdan hamkorlikda foydalanish namunaviy modeli</i>	<i>Sharable content object reference model</i>
<i>Modulli obyektga yo'naltirilgan dinamik o'qitish muhiti</i>	<i>Modular object oriented dynamic learning environment</i>
<i>asinxron ta'lim</i>	<i>asynchronous learning</i>
<i>sinxron ta'lim</i>	<i>synchronous learning</i>
<i>majburiy fanlar</i>	<i>core subjects</i>
<i>tanlov fanlari</i>	<i>elective courses</i>
<i>yakuniy nazorat</i>	<i>final examination</i>
<i>oraliq nazorat</i>	<i>midterm examination</i>

**2. Yarim kalka, o'zlashma so'z komponentlaridan biri, yo birinchi, yoki ikkinchi komponentning tarjima qilinishi asosida o'zlashgan terminlar:**

<i>veb mashg'ulot</i>	<i>web training</i>
<i>vebkonferensiya</i>	<i>web conference</i>
<i>o'quv kursi</i>	<i>course</i>
<i>kontakt soat</i>	<i>contact hour</i>
<i>kredit-soat</i>	<i>credit-hour</i>
<i>onlayn kurs</i>	<i>online course</i>
<i>onlayn o'qish</i>	<i>online learning</i>
<i>onlayn maktab</i>	<i>online school</i>
<i>o'quv kontenti</i>	<i>educational content</i>
<i>giperhavola</i>	<i>hyperlink</i>
<i>mobil ta'lim</i>	<i>mobile learning (m-learning)</i>
<i>onlayn ta'lim</i>	<i>on-line learning</i>
<i>elektron ta'lim</i>	<i>electronic learning (e-learning)</i>
<i>elektron kutubxona</i>	<i>digital library, cybrary</i>

**3. Semantik kalka, o'zlashma so'zning o'zbek tilidagi muqobilini topish yoki ma'nosini imkon qadar o'zbek tilida ochib berish orqali o'zlashtirilgan terminlar:**

<i>e-teacher</i>	<i>onlayn o'qituvchi</i>
<i>instructor</i>	<i>onlayn o'qituvchi</i>
<i>summary</i>	<i>fanning qisqa mazmuni</i>
<i>portfolio tools</i>	<i>tizim muhitida o'quvchi uchun ishchi modullar</i>
<i>enrollment</i>	<i>o'quv kursiga yozilish</i>
<i>syllabus</i>	<i>fanning ishchi o'quv dasturi</i>
<i>transcript</i>	<i>akademik ma'lumotnoma</i>
<i>degree</i>	<i>akademik daraja</i>
<i>academic calendar</i>	<i>o'quv jadvali</i>
<i>grades</i>	<i>baholar to'g'risida axborot</i>

**IV. Termin-varvarizmlar.** Varvarizmlar ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki iboralar bo'lib, odatda o'zga tilga xos rasm-odatlarini tasvirlash, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi. Termin-varvarizmlar qabul qiluvchi tilning fonetik, grafik meyorlariga moslashtirilmagan, ham tashqi moddiy shakli, ham ichki mazmuniy, struktur qurilishini to'la saqlagan leksik birliklardir. Termin-varvarizmlar til uchun sezilarli darajada begona elementlar bo'lib, tilda ulardan foydalanishga yo'l qo'yilishi til uchun salbiy hodisa hisoblanadi. Tahlillarimiz davomida masofaviy ta'lim terminologiyasining katta qismini ingliz tili yoki u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan termin-varvarizmlar tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Masalan, *E-learning, D-learning, M-learning, B-learning, Zoom, Skype, Cisco Webex, Google Classroom, Forum, Chat, Claroline, D2L, Wiki, Microsoft Teams, Edgenuity* kabi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim platformalari – *Moodle Free*, korporativ sektorlar uchun mo'ljallangan *iSpring platformasi, LMS WebTutor platformasi, Teachbase Cloudga* asoslangan o'quv platformasi, *GetCourse* info-biznesmenlar platformasi, *WordPress* uchun mo'ljallangan *Memberlux* platformasi, modul tizimidagi o'qitish modullari nomlari *Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking* va boshqalar soha vakillari leksikasi aynan shu holatda qo'llab kelinmoqda. Ularning ko'pchiligi qisqartma terminlar hisoblanib, ayni paytda soha leksikasida faol ishlatiladi:

<i>LMS</i>	<i>Learning Management Systems</i>	<i>Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar</i>
<i>CMS</i>	<i>Content Management Systems</i>	<i>Ichki kontentni boshqaruvchi tizimlar</i>
<i>LCMS</i>	<i>Learning Content Management System</i>	<i>O'quv kontentini boshqarish tizimi</i>
<i>MLE</i>	<i>Managed Learning Environment</i>	<i>Boshqaruvchan ta'lim muhiti</i>
<i>LSS</i>	<i>Learning Support System</i>	<i>O'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimi</i>
<i>LP</i>	<i>Learning Platform</i>	<i>O'quv jarayoni platformasi</i>
<i>VLE</i>	<i>Virtual Learning Environments</i>	<i>Virtual o'quv jarayoni muhiti</i>
<i>HTML</i>	<i>Hyper Text Markup Language</i>	<i>Gipermatnni belgilash tili</i>
<i>HEMIS</i>	<i>Higher Education Management Information System</i>	<i>Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi</i>
<i>GER</i>	<i>General Education Requirement</i>	<i>Umumta'lim fanlari, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar</i>
<i>GPA</i>	<i>Grade Point Average</i>	<i>Talabaning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi</i>
<i>MOODLE</i>	<i>Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment</i>	<i>Veb muhitida o'qitish va onlayn rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi pedagogik dasturiy majmua</i>
<i>SAT</i>	<i>Scholastic Altitude Test</i>	<i>Majburiy fanlar bo'yicha test</i>
<i>ZOOM</i>	<i>Zion originated outreach ministry</i>	<i>Sionlashgan targ'ibot xizmatini</i>
<i>SCORM</i>	<i>Sharable Content Object Reference Model</i>	<i>Berilgan obektdan hamkorlikda foydalanish namunaviy modeli</i>

### Xulosa

Inglizcha o'zlashmalar bugungi kunda birgina nafaqat o'zbek tili, balki jahonning boshqa tillari ta'lim tizimi, xususan, masofaviy ta'lim terminologiyasiga katta tezlik bilan tarqaldi. Mazkur o'zlashmalarning aksariyati qadimgi lotin tilidan ingliz tiliga, ingliz tilidan rus tiliga muayyan fonetik o'zgarishlar bilan o'zlashgan so'zlar bo'lib, o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri ingliz tili yoki vositachi til – rus tili orqali kirib kelgan. Masofaviy ta'lim terminologiyasi ayni paytda

ochiq va dinamik tizim bo'lib, u doimiy ravishda ham miqdor, ham sifat o'zgarishlarga duchor bo'lyapti. U pedagogik terminologiyaning bir qismi bo'lib, o'z-o'zidan, pedagogik terminologiya, u orqali til terminotizimini boyitish, shu bilan birga ta'limni yangi tushunchalar bilan boyitish, terminlarning qo'llanish doirasini kengaytirish yoki toraytirish uchun xizmat qiladi.

Xullas, sohaning keskin taraqqiy etishi o'qitishning axborot-texnik vositalari, elektron o'qitish qurilmalari, o'qitish uslublari bilan bog'liq tushunchalar va ularning nomlarining katta tezlik bilan o'zbek ta'lim tizimiga kirib kelishi hamda begona til elementlarining tilga filtrlanmay – nazoratsiz o'rtnashishiga sabab bo'ldi. Bu esa zamonaviy o'zbek terminologiyasi oldiga termin o'zlashatirish muammolarini aniqlash va uni bartaraf etish yo'llarini ishab chiqish vazifasini qo'ymoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Маматалиев Т., Муродуллаев Ш. Масофавий таълимни ташкил этиш тартиби: методик қўлланма. – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. – 32 б. – Б.9.
- 2.Мавлонова М. Д. (2023). Инглиз тилидан ўзлашган ахборот технологиялари терминларининг ўзлашиш омиллари ҳамда уларнинг амалда қўллаш қийинчиликлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 1236–1240. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3049>
- 3.Усмонов Н.Ў. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1994. – 145. –Б. 109
- 4.Федосова, Е. М. Ассимиляция английской терминологии педагогической сферы // Актуальные вопросы филологических наук: материалы VI Междунар. науч. конф. – Краснодар: Новация, 2019.– С. 1-5. – URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/321/14708/>
- 5.Краевский, В. В. Язык педагогики в контексте современного научного знания / В. В. Краевский // Матер. всерос. методолог. конф.-семинара / гл. ред. В. В. Краевский; ред. А. А. Арламов, Р. В. Почтер. – 2008. – С. 38-4
- 6.Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. Вопросы культуры речи. –Москва: Наука, 1968. –С. 47- 49.
- 7.Черныш И.Ю. Иноязычные термины в английском подязыке мостостроения // Филологические науки. Вестник Череповецкого государственного университета. 2015, №7. –С.69-75
- 8.Merrian-Webster dictionary.-Oxford “oxford university press” 1996,- 340 pages
- 9.Francis Henry Stratmann.-A dictionary of Old English language. Completed from writings of the XIV and XV century.-London, “Krefeld”, 1867,-698 pages
- 10.Ulug'bek Isaqov, Mansur Rahimov,-Inglizcha-o'zbekcha lug'at/English-uzbek dictionary.-Toshkent, Yangi asr avlodi,-2013, 576 bet.
- 11.Winsdom dictionary.-London “Oxford university press” 2002,- 588 pages
- 12.Ulug'bek Isaqov, Mansur Rahimov,-Inglizcha-o'zbekcha lug'at/Endlish-uzbek dictionary.-Toshkent, Yangi asr avlodi,-2013, 576 bet.
- 13.Winsdom dictionary.-London “Oxford university press” 2002,- 588 pages

## CHINESE IMAGES IN THE POETRY OF N. GUMILEV

Zhou Ruihong,

PhD Candidate

National University of Uzbekistan Named after Mirzo Ulugbek, Uzbekistan ;

Teacher

Inner Mongolia University of Finance and Economics, China;

E-mail: sonia200309@163.com

**Abstract:** *Gumilev is an outstanding poet of the Russian Silver Age of the late 19th - early 20th century, the founder of the modernist school of acmeism. Gumilev's poems were based on legends and myths about China, mystical representations, but at the same time were reflections of life situations. Gumilev was a poet who was fond of traveling, he found inspiration in them and wrote many works based on the experience of visiting different countries. Gumilev's poems about China are not travel essays, notes, diary entries, they are artistic reinterpretation of the symbols of Chinese culture and reflection of personal thoughts in different periods of the poet's life. At the same time the image of China in N. Gumilev is presented holistically.*

**Keywords:** *theme, image, culture, literature, landscape, philosophy.*

## КИТАЙСКИЕ ОБРАЗЫ В ПОЭЗИИ Н. ГУМИЛЕВА

**Аннотация:** *Гумилев – выдающийся поэт русского Серебряного века конца XIX – начала XX в., основатель модернистской школы акмеизма. Стихи Гумилева опирались на легенды и мифы о Китае, мистического представления, но в то же время были отражением жизненных ситуаций. Гумилев был поэтом, увлекавшимся путешествиями, он находил в них вдохновение и написал много произведений, основанных на опыте посещения различных стран. Стихотворения Гумилева о Китае – это не путевые очерки, заметки, дневниковые записи, это художественное переосмысление символов китайской культуры и отражение личных мыслей в разные периоды жизни поэта. При этом образ Китая у Н. Гумилева представлен целостно.*

**Ключевые слова:** *тема, образ, культура, литература, пейзаж, философия.*

## N. GUMILEV SHE'RYIYTI DA GI XITOIY TАСVIRLARI

*Гумилев – XIX аср охири – XX аср бошларида рус кумуш асрининг таниқли шоири, модернистик акмеизм мактабининг асосчиси. Гумилевнинг шеърлари Хитой ҳақидаги афсона ва афсоналарга асосланган, мистик вакиллик, лекин айни пайтда улар ҳаётининг вазиятларининг акси еди. Гумилев саёҳат қилишни яхши кўрадиган шоир еди, у улардан илҳомланиб турли мамлакатларга ташириф буюриш тажрибаси асосида кўплаб асарлар ёзди. Гумилевнинг Хитой ҳақидаги шеърлари саёҳат иншолари, еслатмалар, кундалик ёзувлар емас, улар Хитой маданияти рамзларини бадиий қайта талқин қилиш ва шоир ҳаётининг турли давларида шахсий фикрларининг аксидир. Шу билан бирга, Н. Гумилевнинг Хитой тасвири яхлит тарзда тақдим этилган.*

**Калит сўзлар:** *мавзу, тасвир, маданият, адабиёт, пейзаж, фалсафа.*



Gumilyov (Н.С.Гумилев, 1886-1921) was an outstanding poet of the Russian Silver Age and the founder of the modernist school of Akmeism. Gumilyov's poems about China drew on the legends and myths of the mysterious China, but at the same time they were a reflection of his life experience. The Imperial Village, where Gumilyov lived and studied, with its Chinese-style pavilions and oriental museum collections, inspired and evoked his creativity. Although Gumilyov did not personally visit China, like Pushkin, he was always in love with China during his short life and mentioned it several times in his works. By extension, these China-related furnishings and scenes must have left an impression on the sensitive Gumilyov, stirring his imagination about the mysterious land of China, and at the same time providing a model for the creation of Gumilyov's Chinese imagery.

Gumilyov's works are full of the poet's rich emotions and thoughts about the world. Liu Wenfei, a renowned Chinese scholar, once said, "Gumilyov once called the inspiration for his poems 'the muse of distant travels', and his restless travels throughout his life provided a large amount of fresh and magical materials for his poems. The deserts of Africa, the snowy landscapes of Scandinavia, the sights and sounds of Rome, and the secret history of the courts of the East have become object-like themes of Gumilyov's poetry. It can be said that most of Gumilyov's poems were inspired by exotic locales."<sup>75</sup> Gumilyov was an avid traveler and poet. He found inspiration through traveling and composed many poems based on his travel experiences. Traveling is an important theme in the history of Russian literature and enriches it. Gumilyov traveled almost the whole of Europe, as well as to Africa, West Asia and the Caribbean islands. His travel experiences provided fresh and magical material for his poetry. Gumilyov's poetry is very exquisite, most of his poems are like a romantic and beautiful narrative pictures or sculptures, reading his poetry collection is like walking in an art museum, readers can feel the beauty of his poems in many ways. The spatial beauty unique to Akhmedism is unique and free. Although facing the World War and the depressing environment of literary creation, Gumilyov was full of the romantic feelings of a poet who roamed the world. Although he has never set foot on the land of China, the poet's thoughts seem to have taken him to the mysterious and romantic country of China. The many references to Chinese imagery in his poems show that he has a strong interest in and emotional yearning for Eastern culture.

Gumilyov's poems on the subject of China are not Chinese travel poems in the true sense of the word; they are reflections of Chinese imagery and personal thoughts at different periods of the poet's life, so they were not written in a coherent time, but the poet's interest in China was coherent. The poet's poems about Chinese imagery include "The Empress" ("Царица" 1909), "A Journey to China" ("Путешествие в Китай" 1910), "I Have Expected" ("Я верил, я думал..." 1911), "The Return" ("Возвращение" 1912), "The Chinese Girl" ("Китайская девушка" 1914), the unfinished poem "Two Dreams" ("Два сна" 1918), and the collection of poems "Porcelain Pavilion" ("Фарфоровый павильон" 1918).

In 1909 the poet wrote "A Journey to China" ("Путешествие в Китай"), a poem dedicated to the stage designer Sujeikin. The poet first published "A Journey to China" in the collection of poems "Pearl" (1910), and in "A Journey to China" the poet writes:

---

<sup>75</sup> Liu Wenfei. History of Russian Poetry in the Twentieth Century [M]. Beijing: Social Science Literature Publishing House, 1996. 48.



*Воздух над нами чист и звонок,  
В житницу вол отвез зерно,  
Отданный повару, пал ягненок,  
В медных ковшах играет вино.  
Что же тоска нам сердце гложет,  
Что мы пытаем бытие?  
Лучшая девушка дать не может  
Больше того, что есть у нее.  
Все мы знавали злое горе,  
Бросили все заветный рай,  
Все мы, товарищи, верим в море,  
Можем отплыть в далекий Китай.  
.....  
Только в Китае мы якорь бросим,  
Хоть на путии встретим смерть!<sup>76</sup>*

The fresh air rustling and blowing above our heads.  
The bull carries the grain into the granary, The  
The lambs fall down to the cook's slaughter, The  
The wine foams in the copper spoon.  
Why do troubles tear our hearts apart?  
Why do we torment our lives?  
The best of girls can't  
Give beyond all she has.  
We all know the pain of sin.  
We've all left the hallowed heavens.  
Comrades, we all believe in the sea.  
We can sail away to distant China.

.....  
We'll stop the ship only when we reach China.  
Even if we meet death on the way!

The heroes of this poem are a group of sailors whose destination is "far away", China, which they have not yet visited. They are not leaving their "sacred paradise" for trade, not for geographical exploration; the paradise life no longer brings them spiritual fulfillment; their souls feel both emptiness and a hidden longing to escape from the depressing world to which they have long been accustomed, and the only way to do so is to sail to a distant and mysterious country - China. China: "We will not anchor until we reach China, even if we meet with death on the way!" But there is no specific description of China in this poem, where, as scholars say, China is "not just a geographical concept, but a spiritual one".<sup>77</sup> The sailors symbolize the poet's contemporaries, and the voyage symbolizes the desire of these people to find ways of relaxing in

---

<sup>76</sup> "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В. Зобнин. 139 pp.

<sup>77</sup> Zhang Xiping and Gu Jun, eds. Extraterritorial Interpretation of Chinese Culture [M]. Shanghai: East China Normal University Press.2013. 19 p.

a foreign country in order to escape from the spiritual crises that had gripped Europe in those days. spiritual crisis that gripped Europe in that era.

I Had Believed, I Had Expected ..... ("Я верил, я думал...") (1911) The image of China as a refuge for the soul is more concretized in this poem. The poem begins with the lyrical protagonist finding himself in spiritual solitude and helplessness, even as God abandons him and sets him free to find his own path:

*Я верил, я думал, и свет мне блеснул наконец.  
Создав, навсегда уступил меня року Создатель.  
Я продан! Я больше не Божий! Ушел продавец, И с явными навсегда.  
И с явной насмешкой глядит на меня покупатель.*

...

*Иду... но когда-нибудь в Бездну сорвется Гора.  
Я знаю, я знаю, дорога моя бесполезна.*

...

*Властитель вселенной - тем будет страшнее паденье.  
И вот мне приснилось, что сердце мое не болит, что сердце мое не болит, что сердце мое  
болит.*

*Оно - колокольчик фарфоровый в желтом Китае  
На пагоде пестрой... висит и приветно звенит, в эмалеенный приветно звенит  
В эмалевом небе дразня журавлиные стаи.<sup>78</sup>*

*I had believed, I had hoped, the light flickered around me;  
The Creator created me and thrust me into eternal ruin;  
I was sold! I am no longer God! And the creator mocked me like a merchant.  
And then turned away, leaving the buyer to look me up and down.*

.....

*I go forward ..... high mountains but at any moment I fall into the depths.  
I know, I understand, my path has no end.*

.....

*O master of all things - a more hideous fall will come.  
I have dreamed that my heart no longer aches.  
It is like - the porcelain bells of the Infernal Earth.  
Hanging in the mottled pontoon, ding-dong ding-dong ding-dong  
It teases the flocks of cranes in the enamel-colored sky.*

The protagonist travels blindly and repeatedly loses his way, and begins to search for a way out of a terrible spiritual crisis. The protagonist flees from pain and depression to China, where he finds peace and harmony. China in this poem is both the distant and mysterious land and the seat of the poet's heart's desire, China is a dreamy, harmonious, calm and tranquil land.

In 1914, Gumilyov wrote another poem "The Chinese Girl", "Китайская девушка", in which Gumilyov used Chinese themes and imagery, once again demonstrating that Gumilyov was no stranger to the Chinese culture and that he had a great admiration and desire for China. In 1918, Gumilyov's book of poems "Porcelain Pavilion" (which was probably translated from the French version of the book) was released, and the China in his works was still the poet's ideal

<sup>78</sup> "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В. Зобнин. 193 pp.

world of escapism, serenity and harmony. The poems use special Chinese imagery and at the same time show Chinese philosophical reflections on man, nature and life's destiny. In The Porcelain Pavilion, traditional Chinese imagery inspires the poet's imagination and creativity, and China's turn to reality realizes spiritual harmony and salvation in the attraction of Chinese nature and landscapes and philosophical ideas, resisting the confusion and overwhelm brought by the war.

*А то стихи свои записывают,  
Заламывая шляпы желтые,  
Засучивая рукава.  
И ясно видно в чистом озере —  
Мост вогнутый, как месяц яшмовый,  
И несколько друзей за чашами,  
Повернутых вниз головой.<sup>79</sup>*  
Or they write their poems down,  
Picking up their yellow hats  
Rolling up their sleeves.  
And you can see clearly in the clear lake  
A bridge as concave as a jasper moon,  
And a few friends at their bowls,  
Turned upside down.

The poet was attracted by the poetic culture of this mysterious country, by the "materiality" and objectivity of Chinese poetry, by its obvious tendency to philosophical generalizations. Moreover, the exotic, beautiful, rich colors and sounds of China became for him another "paradise", to which the sea and the captain of the ship, whom he loved, at least spiritually, were able to take him.

Gumilyov's exotic feelings can be seen in the collection of poems "Фарфоровый Павильон (Porcelain Pavilion)". The title "Porcelain Pavilion" expresses abstract inner feelings with realistic and figurative things, and this metaphorical image fully embodies the aesthetic principles of the Acme School. The subjective and objective, lyric and narrative are skillfully blended in the poem, which fits the style characteristics of the ancient Chinese literati's lyrical poetry, thus avoiding the straightforwardness of Romanticism and the ambiguity of Symbolism. It is true that, as Zheng Tiwu said, "The combination of the rigidity of Romanticism with the sobriety of the gaze and the flexibility of the rhythm made Gumilyov, who advocated strength, will and hope, stand out in the Russian poetry scene at that time."<sup>80</sup> Although Gumilyov never visited China in his life, he mentioned Chinese imagery many times in his poems, which shows that he had a strong interest in the Eastern culture and an inseparable obsession.

During the mature period of Nikolai Gumilyov's poetic creation, he constantly sought to promote his romantic personality, and the "exotic" character of his poems became more and more obvious. The mysterious Orient, especially China with its thousands of years of civilization, gradually became the basis for him to realize his spiritual adventure and the passion of life existence. In general, Gumilyov made many references to China in his works, expressing his interest in Chinese culture and thought. Gumilyov once said: "The new poems I create strive for

<sup>79</sup> "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В.Зобнин. 280 pp.

<sup>80</sup> Zheng Tiwu. Russian Modernist Poetry [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1999. 310 p.

simplicity and clarity, and accuracy of expression. Interestingly, all these trends cannot but remind us of those excellent works by Chinese writers, in which there is a growing interest among British, French and Russian scholars." <sup>81</sup> The poet's creation of Chinese poetry was influenced by Chinese culture; he drew on Chinese legends and myths and, through the depiction of Chinese imagery, expressed his longing for China and his interest in the exotic mystery of oriental culture, which makes his work unique in Russian literature.

### References

1. Liu Wenfei. History of Russian Poetry in the Twentieth Century [M]. Beijing: Social Science Literature Publishing House, 1996. 48.
2. "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В. Зобнин. 139 pp.
3. Zhang Xiping and Gu Jun, eds. Extraterritorial Interpretation of Chinese Culture [M]. Shanghai: East China Normal University Press.2013. 19 p.
4. "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В. Зобнин. 193 pp.
5. "Н. С. Гумилев: PRO ET CONTRA". Составитель Ю. В.Зобнин. 280 pp.
6. Zheng Tiwu. Russian Modernist Poetry [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1999. 310 p.
7. РусинкоЭ. ГумилеввЛондоне. Неизвестноеинтервью [С] /ЭльзонМ. Д. , ГрозноваН. А. Н. Гумилев. Исследованияиматериалы. Библиография. СПб. :Наука, 1994, 305pp.

---

<sup>81</sup> РусинкоЭ. ГумилеввЛондоне. Неизвестноеинтервью [С] /ЭльзонМ. Д. , ГрозноваН. А. Н. Гумилев. Исследованияиматериалы. Библиография. СПб. :Наука, 1994, 305pp.

## LI XYOSOK HIKOYASIDA TABIAT TASVIRI

U.T. Saydazimova

Filologiya fanlari doktori, professor,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

B. Bekmirzayeva

Magistr,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**Annotasiya.** Mazkur maqolada mashhur adib, hikoyanavis Li Xyosok qalamiga mansub “Marjumak gullaganda” hikoyasida bosh qahramonning xatti-harakati, ichki olami tabiat tasviri-peyzajda berilishi yoritilgan. Muallifning detal va ramzlarda inson ruhiyatini ochib berish mahorati, tabiat manzaralarida ruhiy kechinmalarni o‘ziga xos tarzda ochib berishi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** peyzaj, marjumak dalasi, oy, oy yog‘dusi, tun, qari eshak, daryo, tog‘, tor yo‘l, suv tegirmoni.

**Abstract.** This article presents the novel “When Buckwheat Flowers Bloom” by the famous writer and storyteller Lee Hyoseok behavior of the main character in the story movement, the inner world is illuminated in the image of nature—the landscape. Information about the author and the ability to reveal the human soul in symbols, experience spiritual experiences in natural landscapes. It has been shown that it can be detected in a special way.

**Keywords:** landscape, buckwheat field, moon, moonlight, night, donkey, river, mountain, narrow road, water mill.

**Аннотация.** В данной статье представлен роман “Когда цветёт гречиха” известного писателя и рассказчика Ли Хёсока поведение главного героя в рассказе движение, внутренний мир освещается в образе природы-пейзаже. Сведения об авторе и способность раскрывать человеческую душу в символах, испытать духовные переживания в природных ландшафтах. Показано, что его можно выявить особым способом.

**Ключевые слова:** пейзаж, гречневые поля, луна, лунный свет, ночь, осел, река, гора, узкая дорога, водяная мельница.

### Kirish

Asrlar davomida jadal rivojlanib kelayotgan koreys adabiyoti o‘z an‘analariga ega bo‘lib, bu davr koreys nazmi va nasrida tabiat tasviri, ramzlar alohida xususiyat kasb etadi. Bu haqida adabiyotshunos olimi U.T. Saydazimova shunday deydi: “... koreys folklorida adabiyot paydo bo‘lgan ilk davrdayoq tabiatning mifologik kuchi ustunlik qilgan, kichik bir peyzaj lavhasi aniq tasvirda berilgan va bu lavha o‘quvchi ongiga tez ta‘sir ko‘rsatadi, uning dunyoqarashi, hatto, hayot yo‘lini tubdan o‘zgartiradi. Inson va tabiatning paydo bo‘lishi, insonning tabiatga jonli munosabati predmetlar qiyosida kuzatiladi” [1, b. 191].

Xususan, mumtoz davr koreys adabiyotida peyzaj, ya‘ni tabiat tasviri qahramonni o‘rab turgan muhit hamda uning keyingi faoliyatiga ishora qiladi. Jumladan, sijo she‘riyatida bambuk har doim shoir aytganidek “Tabiatda hech narsa mukammal emas, Ana shu ichi bo‘sh tim-tik

daraxtday”, yoki, oy “Kim yorita olar tun zimistonin, Oy bilan tortisha olarmi bir?, qarag’ay “Faqat bittagina bo’ydor qarag’ay, Qo’rqmaydi na ayoz, na chaqindan” va hakazo.

Peyzaj tasviri sijo she’riyatida katta ahamiyatga ega. Uni qo’llashdan kuzatilgan maqsadlar ham turli xil bo’lib, bu peyzajga shoir yuklagan vazifa bilan uzviy bog’liq. Sijo she’riyati ayni feodal tuzum ravnaq topgan hamda milliy koreys alifbosini amalga tadbiiq etish ta’qiqlangan davrda yaratildi. Shu sababli shoir o’z ichki kechinmalari, dardu-g’amlari, atrof-muhitga o’z munosabatini she’riyatga kiritilgan ramzlar orqali ifoda etdi. Ma’lumki, sijo she’riyatida ramzlar fauna va flora bilan uzviy bog’liq. Shu sababli she’riyatda uchta katta mavzu: o’simliklar olami, qushlar (ayrim o’rinlarda mayda qurt-qumursqalar) va bog’ muhim rol o’ynaydi.

Ilk bor ona tilida yaratilgan she’riyat afsonaviy koreys xalqining tabiat bilan oshnoligini, inson va tabiat uyg’unligini o’zida yanada chuqur aks ettirdi. Keyinchalik tabiat tasviri va peyzaj o’rta asr koreys qissalarida keng qo’llanila boshladi. Koreys qissalarida peyzaj qahramon faoliyatiga ishora qilish bilan birga uning ruhiyati, muayyan sharoitdagi holati, muammolarni hal qilishda yordamchi kuch sifatida namoyon bo’lish bilan birga, ayollar go’zalligini ham aks ettirish vositasiga aylandi. Jumladan, “Xinbu va Nolbu” qissasida bahor, qaldirg’och, qovoq asar g’oyasining yechimiga ta’sir ko’rsatuvchi elementlar bo’lsa, “Chxunxyan haqida qissa”da kisen qizining go’zalligi quyidagicha tasvirlanadi:

“Uning go’zal chehrasi bilan faqat bahor go’zalligi bellasha olar ekan. Kamon qoshlari tog’ cho’qqilarini, oq tishlari va aqiq lablari esa tunda ochilgan shaftoli gulini eslatar ekan. Qora bulutlarni eslatadigan sochlarini u taroq bilan yarim oy shaklida o’rib, pushtirang tasmalar bilan bog’lab olgan ekan. Egniga ipak ko’ylak ustidan oq ipakdan chakmon tashlab olgan ekan. Boshiga ipak ro’mol o’ragan, oyoqlariga ip gazlamadan paypoq va qizil kovush kiygan ekan” [2].

Tasvirda Chxunxyaning go’zalligi bilan birga uning hali turmushga chiqmagan yosh qiz ekanligi “pushtirang tasmalar”, “qizil kovush kiygan” kabi iboralarda ko’zga tashlanadi. Bu bilan muallif qizning yigit bilan tanishuviga zamin tayyorlaydi. Qizning ismi “bahor ifori” ma’nosini anglatadi, bu esa uning bahordek quvnoq, xushnud kayfiyatini, ba’zan esa xuddi fasl kabi jamiyatda o’rnatilgan tartiblarga, majburiyatlarga bo’ysunmasligi haqida oldindan xabar beradi. Qissa muallifi bahor fasli fonida qizning xarakterini ko’rsatadi.

“Sim Chxon haqida qissa”da esa Sim Chxon obrazining ma’naviy go’zalligiga, shuningdek, portretiga [1, b. 140] alohida e’tibor beriladi: “Naqadar go’zal! Ko’zlari tong sahar oldi osmonda porlovchi tong yulduzini eslatadi; qoshlari xuddi yangi chiqqan hilol misoli; yonoqlari nilufar guli singari yonib turadi, lablari gilos, tishlari inju kabi [3, b. 31]”.

XIX asrning so’ngi choragida yaratilgan hikoyalarda tabiat tasviri biroz susaydi. Bu davrda yaratilgan hikoya, keyin qissalarda didaktik ruh kuchaydi, hayvonlar obraziga ahamiyat berildi. XX asrning birinchi yarmida esa koreys jamiyatda yuz bergan ijtimoiy o’zgarishlar sabab mamlakatga g’arb va rus adabiyoti namunalir kirib keldi. Adabiy jarayonlarda ham davr muhitiga mos o’zgarishlar ro’y berdi. G’arb madaniyati va san’ati ta’sirida nasr va nazmda ham shaklan, ham mazmunan o’zgarishlar kuzatildi, xorij adabiyoti bilan tanishgan ijod ahli o’z asarlarida yana tabiatga-peyzaj tasviriga e’tibor qarata boshlashdi.

Olima M. Sultonovaning: “Yozuvchi o’z g’oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o’rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o’quvchiga ta’sir etishni, undagi go’zallik tuyg’ularini tarbiyalashni

ham ko'zda tutadi" [5, b. 9], degan fikrlari mazkur davr ijod ahli asarlarida qo'llanilgan peyzajning mazmun-mohiyatini to'liq aks ettiradi.

**ASOSIY QISM.** Bu davr ijod ahli asarlarida tabiat, tabiat hodisalari, elementlari qahramonlarning kayfiyati bilan birga ularning keyingi faoliyatiga ishora ham qiladi. Jumladan, Xyon Jingonning "Omadli kun" hikoyasida yomg'irli kun hikoya g'oyasining kalitiga o'xshaydi: "Yomg'ir ostida orqaga bo'sh kajavani tortib qaytgisi kelmadi" yoki "La'nati yomg'ir! Bunday yomg'ir ostida bo'sh kajava bilan qaytish...to'g'ridan-to'g'ri yuzimni savalayapti-ya, la'nati..." [5, b. 220] kabi jummalarda rikshaning kayfiyati anglashiladi. Chunki uning iztiroblarining cheki yo'q: ayoli kasal, yosh farzandi och, yuziga savalayotgan yomg'ir unga uning muammolarini yodga solmoqda. Shu bilan birga u ancha kundan beri ishsiz edi. Ammo "Odatda, kajava og'irlashganda, rikshaning tanasida yengillik paydo bo'lar, kajava bo'shaganda esa, uning tanasi og'irlashardi, ammo bu safar uning yuragidagi g'ashlik tarqamadi" [5, b. 221].

Xyon Jingon bilan zamondosh adib Li Xesok hikoyalari qahramonlari ham har doim tabiat bilan yuz-yuz keladilar. Muallifning 1936 yili "Jogvang" jurnalida chop etilgan "Marjumak gullaganda" hikoyasida tabiat tasviri shunday boshlanadi: "Quyosh hatto panada o'tirganlarni ham suyak-suyaklarigacha qizdirar edi" [6, b. 73].

Adib yoz faslida ro'y bergan voqeani mana satrlar zamiriga singdirib yuboradi. Hikoya bosh qahramoni Xo bir vaqtlar juda ham issiq havoda cho'milish uchun borgan suv bo'yida qiz bilan hatto yaqindan tanishmay turib, sevgi sharobini ichgan edi. Har safar mana shunday havoda u o'sha kunlar na'shidasi haqida o'ylar, qizning kim ekanligi, hozir qaerda ekanligi uni qiziqtirar edi. Yoz fasli Xo uchun iliq xotiralarga aylangan. Bir umr o'zining tashqi qiyofasidan uyalib yuradigan Xo qizlarga gap ham otmagan, muhabbat haqida hatto shirin xayollar surmas ham edi: "Biroq chxunjulik beka haqida o'ylagani zahoti nima uchundir uning cho'tir yuzi loladek qizarib, oyoqlaridan majol qochadi, qo'llari titray boshlaydi..." [6, b. 75].

Yigit va qiz uchrashuvida ularga oy hamrohlik qiladi. Koreys adabiyotida ham nazm, ham nasrda oy ko'p uchraydi. O'tmishda oyning chiqishi tiz cho'kib, iltijolar bilan kutib olingan. Ayollar oyga alohida sig'inib, iltijolar qilgan. Sharq xalqlarida oy obraziga doir ko'plab rivoyatlar mavjud. "Oyni birinchi ko'rgan inson baxtli bo'ladi: dehqon yaxshi hosil oladi, o'quvchi imtihonni yaxshi topshiradi, mansabdor yangi lavozimlarga erishadi, befarzand ayol farzandli bo'ladi, yigitlar chiroyli qizlarni uchratadilar, degan qarashlar ham bo'lgan. Oyning katta-kichikligi va rangiga qarab qanday voqealarni kutish mumkinligini aniqlash imkoni bo'lgan. Agar oy oq rangda bo'lsa, yog'ingarchilik ko'p bo'lishi, qizil rangda bo'lsa, qurg'oqchilik kelishi, to'lin oy chiqsa, hosil mo'l-ko'l bo'lishi kutilgan" [7].

Li Xyosok hikoyasi qahramoni ham "yigitlar chiroyli qizlarni uchratadilar" ga ko'ra, tasodifan eski tegirmonga oy yorug'ida yechinishdan uyalib kirganida qizni uchratdi: "Oydin tun edi... Bu o'ngimda bo'lganmi yoki tushimdami hali ham tushuna olmayman" [8].

Bo'lib o'tgan voqeani u faqat "oydin kechada" do'sti Choga yuz marotaba gapirib bergan. Har safar bu voqeani eslaganida, do'stiga gapirib berganida yuragi to'lqinlanib, hayajondan yuzlari qizarib ketadi: "Bu bozor kunlari, shunday oydin tunlardan birida yuz berdi. Havo shu darajada dim ediki, hatto Ponpxyondagi karvonsaroyning tuproq polida ham uxlab bo'lmasdi. Ponpxyon hozir qanday bo'lsa, shunday edi. U zarracha o'zgarani yo'q" [8].

Xuddi kechagi kundek esida, oradan qancha suvlar oqib o'tsa-da, hayotida bir marotaba sodir bo'lgan voqea xotirasidan barcha detallari bilan mustahkam o'rin egallagan. Bu vaqt ichida



u qimor o'ynab, bor-budidan ajradi, ishini o'nglash uchun ko'p mehnat qildi, ammo birorta ayol kishiga hatto qayrilib ham qaramadi.

Adib tun, oydin tun-peyzaj detaliga murojaatda tunning sirli va fasohatliligiga alohida urg'u beradi. Inson tunda yolg'izlikka mahkum hamda o'zining ichki tuyg'ulari bilan yuzmayuz qoladi. Bosh qahramon Xo uchun tun ulug'vor va go'zal, bu manzara marjumak dalasining oppoq gullari oqshomning yanada salobatligini kuchaytiradi.

Hikoya shunday yakunlanadi: "Toliqqan oy osmon gumbazi bo'ylab pastlashib borardi. Faqat qorong'uda inson umidlari yanglig' cheksiz, chappar urib gullagan marjumak dalasi oy yorug'ida oqarib ko'rinardi" [8].

Hikoyada bosh qahramon Xoning boshidan o'tgan umri, hayotida bir marotaba sodir bo'lgan o'sha kecha manzarasini marjumak dalasi fonida beradi. Hikoya nomining aynan marjumak o'simligi nomi bilan atalgani ham bejizga emas. Marjumak avval oppoq bo'lib gullaydi, keyin esa qora rang mevalar beradi. Bu adibning qora va oq ranglarga bo'lgan munosabatini anglatadi. Qora va oq rang o'rtasida inson umrining qorong'u va yorug' taraflariga nazar tashlaydi. Tun, ammo oy yorug'ida uning hayotiga nur kabi kirgan ilk ishqiy aloqalari oppoq gullagan marjumak dalasidagi tegirmonda sodir bo'ldi. Bo'lib o'tgan voqea-qiz-yigit munosabatlariga tun bag'ridagi yog'du sochayotgan oy va marjumak dalasi guvoh. Tun tavsifi yozuvchining dunyoqarashi hamda badiiy tafakkurini namoyon etadi.

Marjumak gullari oppoq bo'lsa-da, bu oq rang quyosh nurlarida biroz g'amgin, mungli ko'rinadi. Kechasi esa oy yorug'ida oppoq marjumak gullari xuddi bir tekis tuz sepilgan manzarani yodga soladi. Oy nurida tuz kabi yaltirab, mavjlanib turgan marjumak dalasi sirli, qandaydir sarguzashtlarga moyildek. Cho'milish uchun suv bo'yiga kelgan yigit oy yorug'ida kiyimlarini yechishga uyaladi, shu sababli eski tegirmon ichiga kiradi. Tegirmon tirqishlaridan ko'rinib turgan marjumak dalasining oy nurlariga tutash chegarasida yigit ko'zlarida to'la yosh qizni uchratdi. Bu o'sha qishloqning eng go'zal sanami edi.

Sirli tun, qiz kayfiyatiga moyil tungi sokinlik, qizning dard to'la hasratlari yigitning tashqi qiyofasi-yuzining cho'tirligi, ko'rimsizligini berkitdi. Qizning o'z iztiroblari bilan yarim kechasi tegirmonga kelishi, cho'milish payida libossiz turgan yigitni uchratish fonidagi tabiat tasviri qahramonlar holatiga mosdir. Lekin yigit va qiz bu vaqtda tabiat manzarasini his qilmas edilar. Shu kechadagi tabiat tasviri keyin Xo xotiralarida go'zal sanam bilan ishqiy sarguzasht kabi qayta tiklandi.

Marjumak har yili ekiladi, har yili oppoq gullarga burkanadi, bu esa bozorma-bozor yuradigan Xo uchun o'tmishga aylana boradi va bir vaqtning o'zida o'tmish voqealarini takrorlayotganga o'xshaydi. Kechasi xuddi tuz sepilgan daladek ko'rinayotgan marjumak gullariga qarab, Xoning xayolida quyidagi so'zlar qayta-qayta jonlanadi "yaramga tuz sepma...". Bir tomondan yoqimli, ikkinchi tomondan taqdiri noma'lum qiz haqidagi xotiralar unga tinchlik bermaydi. To'g'ri, mish-mishlarga ko'ra, qiz oilasi shu voqeaning ertasi qishloqdan ko'chib ketishgan. Ammo qayerga ko'chib ketgan, noma'lum. Xo qizni uzoq izladi, ammo topmadi. Shu sababli bu voqea tushida sodir bo'ldimi yoki o'ngida, gohida o'zi ham anglay olmaydi.

Hikoyaga detal sifatida kiritilgan tegirmondagi suv charxpalagi esa inson hayot yo'liga qiyoslanadi. Charxpalak aylanishda, Xo esa yashashda davom etdi. Bir kuni shu charxpalak Xo hayot yo'liga yana tutashdi, ya'ni u o'sha voqeadan keyin dunyoga kelgan, ammo o'zi bexabar o'g'li bilan uchrashdi: "Shu lahzada ular ikki tog' orasidan o'tgan yo'lda ketib borishardi. Uchalasi ham o'z eshaklariga mindilar va tor yo'l chetida o'sgan marjumakni toptamaslik uchun

oldinma–ketin yo‘lga tushdilar. Sukunat og‘ushidagi marjumak dalasi uzra faqat eshaklarning bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqlar jarangi yangrar, ammo bu sukunatni buzmayotgandek, balki uni yanada kuchaytirayotgandek bo‘lib tuyulardi” [8].

Yana o‘sha manzara ostida Xo endi o‘g‘li bilan uchrashdi. Hikoya tasviridagi peyzaj butun asar ruhiga singdirilgan, g‘oyasi bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu esa kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydi. Hikoya davomida kitobxon dam kulgili voqealarga guvoh bo‘ladi, dam tabiat manzarasidan zavqlanadi, dam bosh qahramonga xayrixoh bo‘ladi.

Shunday kulguli voqelardan biri hikoyaga kiritilgan eshak obrazi bilan uzviy bog‘liq. Bosh qahramonning bir umrlik hamrohi qari eshak ham bo‘ydoq o‘tmoqda: “Xo umrining yarmini eshagining yonida yurib o‘tkazgan. Ular karvonsaroylarda poxol ustida birga tunashgan, kechalari oy yorug‘ida bozordan–bozorga qatnashgan va yigirma yillik bunday hayot davomida ikkalasi ham qarib ulgurishgan. Eshakning bo‘ynidagi yoli egasining oq oralagan sochini eslatardi, ko‘zlarining burchagida to‘planadigan yiring ham xuddi egasinikiga o‘xshaydi” [8].

Ammo Xo hech qachon ruhan cho‘kmaydi, tunu–kun mehnat qilib, halol yashashga harakat qiladi, shu bilan birga qalbi qo‘riga berkitgan voqea xotirasidan ko‘tarilmaydi. Eshagining moda eshakni ko‘rgan vaqtida ko‘rsatgan xurmacha qiliklari unga o‘sha kecha taassurotlarini qayta yodga soladi. Adib bekorga qari eshakni unga hamroh qilmadi, eshak ham qari, ham bo‘ydoq, ham Xo singari xunuk, badbashara. Ammo u o‘z egasiga bir umr sodiqlik bilan xizmat ko‘rsatdi.

Attor Xo bir umr bozordan–bozorga, yarmarkadan–yarmarkaga qatnashi davomida u bosib o‘tgan yo‘l vatanining tog‘li hududlari va daryolaridan o‘tadi. Adib baland tog‘lar va ko‘m–ko‘k daryolar tasvirida attorning o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatadi, u chizgan manzarada vatanining tabiati bor bo‘yi bilan gavdalanadi. Hikoya so‘ngida muallif daryo kechuvi tasvirini bejizga chizmaydi, aynan kuchli seldan keyin suv oqimi kuchaygan hamda muzdek edi. Xo o‘zini boshqara olmay qolganida yosh yigit–u bexabar farzandini uni mana shu oqimdan olib o‘tdi. Xo e‘tibor bersa yigit ham chapaqay, o‘zi haqida aytib bergan hikoyasidan esa bu o‘sha go‘zal sanam va Xo o‘rtasida qisqa, ammo bir umr yodda qolgan muhabbat mevasi ekanligi anglashiladi.

### **Xulosa**

Li Xyosokning “Marjumak gullaganda” hikoyasida asar g‘oyasi, qahramonlar ichki olamini ochib beruvchi vosita bu peyzajdir. Peyzaj tasvirida bosh qahramon ruhiyatiga mos his–tuyg‘ular, xotiralar mohiyati yoritilgan. Shuningdek, hikoyada oy, tun, marjumak dalasi–qahramon ruhiyatini ochuvchi ramziy vosita bo‘lsa, suv tegirmoni, charxpalak bosh qahramonning so‘qqabosh hayoti sabablarini ochuvchi kalit detaldir, daryo, daryodan kechib o‘tish esa ota va o‘g‘ilning uchrashuvi, tanishuvi uchun tayyorlangan zamindir. Oqayotgan daryo suvlari o‘tib ketgan umr, shu bilan birga hayotning davomiyligi ramzidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий–эстетик концепциялари. Филол. фан. док. диссертацияси. – Тошкент, 2018.
2. 춘향전의 비밀 설성경. – 서울대학교출판부, 2001.
3. 구인환 엮음. 심청전. 흥부전. – 서울, 신원문화사, 2004.
4. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choi So Yong va boshq. – Toshkent: “Istiqloq” nashriyoti, 2014.

6. Saydazimova U., Choi So Yong, Xvan L, Shakirova N., Kim O., Kim Ye., Kim T. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. – Toshkent: “Istiqlol”, 2014.
7. Календарные обычаи и обряды народов Восточной Азии. – М.: Наука, 1985. – с. 3; Кореяские народные изречения. – М., 1982.
8. 이효석 단편소설: 대표작품 10 선 (100년, 뿌리 깊은 현대문학 시리즈) “대한민국”, 2017.

## RENOLD NIKOLSONNING FALSAFIY MUTOLASI MISOLIDA ABUL -ALA AL-MA'ARIY SHE'RIYATI

Xoliqov Zoxidjon Olimjonovich  
Namangan davlat universiteti doktoranti  
[kholikovzokhidjon40@gmail.com](mailto:kholikovzokhidjon40@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Arab adabiyoti, tasavvuf she'riyati hamda Abul Ala al-Ma'arriy she'riyati haqida Ingliz sharqshunos olimi va tarjimoni Renold Nikolson tomonidan tadqiqot olib borilganligi muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Arab adabiyoti, so'fiylik, tasavvuf, falsafiy she'riyat, filologik yondashuv, tarixiy tadqiqot, Semit xalqlar, faylasuflar, mutafakkirlar.

**Abstract:** This article discusses the research conducted by Renold Nicholson, an English orientalist and translator, on Arabic literature, Sufism poetry, and the poetry of Abul Ala al-Ma'arri.

**Key words:** Arabic literature, Sufism, tasavvuf, philosophical poetry, philological approach, historical research, Semitic peoples, philosophers, thinkers.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение арабской литературы, суфийской поэзии и поэзии Абул Ала аль-Маарри английским востоковедом и переводчиком Ренольдом Николсоном.

**Ключевые слова:** арабская литература, суфизм, суфизм, философская поэзия, филологический подход, исторические исследования, семитские народы, философы, мыслители.

### Kirish

Sharq mumtoz adabiyotida shubhasis Ingliz sharqshunos olimi va tarjimoni Renold Nikolson o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyatini Arab adabiyoti, ayniqsa tasavvuf she'riyatini tadqiq etish va o'rganishga bag'ishlagan. Kembrij Universitetida Nikolsonning dastlabki ma'ruzalaridan biri Jaloliddin Rumiy she'riyati haqida bo'lgan. Shundan so'ng, 1898 yilda Rumiy ijodiga mansub bo'lgan “Devoniy Shamsiy Tabrizdan saralangan she'rlar” nomli dastlabki kitobini nashr ettirdi [1]. Tasavvuf she'riyatida dastlabki qiziqish unga tasavvufni paydo bolishi haqidagi tadqiqotda ushbu sohani yanada chuqurroq o'rganishga turtki bergan. Shu an'ana orqali Nikolson ushbu fan haqida o'zi uchun mukammal aqliy tasavvur yaratdi.

### Adabiyotlar tahlili

1906 yilda u “So'fiylikning paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid tarixiy tadqiqot” sarlavhasi ostida o'zining dastlabki ilmiy maqolasini chop ettirdi. Ushbu maqolada Nikolson o'z qarashlarini ko'rsatish uchun turli xil madaniyatlardagi tasavvuf ildizining tub mohiyatiga oid bo'lgan “so'fiylik” atamasini qunt bilan tadqiq etgan. U eslatib o'tganidek, boshqa olimlar sufizm tamoyillarini o'rganish ular uchun unchalik ahamyat kasb etmagan, hususan, Masignon, ammo

Nikolson ushbu tamoyillar qayerdan paydo bo'lgani hamda qanday qilib ular bir yo'nalishda rivojlangani u uchun katta ahamyatga molik bo'lgan [2].

Arberryning so'zlariga ko'ra, "1906 yilda Nikolson tomonidan yozilgan dastlabki maqolasi uni avvalgi ingliz sharqshunoslardan ko'ra ko'proq hayotiy va chuqur mavzu bo'yicha olib borgan tadqiqotlari G'arb va Sharq olimlar orasida uni buyuk ingliz tadqiqotchi sifatida tanitdi".

Tasavvuf ta'ssurotini nihoyalash uchun Nikolson 1914 yilda Islom sivilizatsiyasi rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan "Islom Tasavvufi" nomli kitobini chop ettirdi. Ushbu kitob bizning eramizning 8 asridan toki hozirgi paytgacha yashagan harbir musulmon tabaqasi, ularning yashash sharoitlari hamda ahloqiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, Nikolson o'z kitobxoniga o'zi avval nashr etgan maqolalari hamda olib borgan tadqiqotlarini na'muna sifatida tanlab olgan. Uning tasavvuf loyihasi nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslangan. Birinchi, dastlabki ikki maqola va kitobi aks etgan "so'fiylikning paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid tarixiy tadqiqot" (1906), hamda "Islom Tasavvufi" (1914). Ikkinchi 1921 yilda nashr ettirgan "Islom she'riyatshunosligi" hamda "Islom tasavvufshunosligi" shular jumlasidandir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Nikolson tasavvufni tushunishda olimlar uchun Islomni dini va uni tushunchasini yaxshi anglab yetish asosan "Muhammad (sav) davrlarida Islom dinini tashqi va ichki rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni kuzatib borgan [3]. Shu orqali o'z maqsadlariga erishish uchun Nikolson she'riyat yo'nalishini tanladi.

"Islom tasavvufshunosligi" asarida Nikolson doimo tasavvufning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va muhokama qilish uchun she'riyat metodiga tayangan.

Nikolson fikriga ko'ra, tasavvuf va she'riyatning o'zaro bir-biriga bog'liqlik tomonlari mavjud. Shuning uchun u ma'naviyatni she'riyatdan, she'riyatni esa tasavvufdan izlagan. Misol uchun, u o'zining "Islom she'riyatshunosligi" (1921) asari tarjimasida she'riy namunalari tahlilida Nikolson tasavvuf she'riyatida yetarlicha misollar taqdim etmagan "Lubab al-Albab" asari muallifi Avfiyni keskin tanqid qilgan hamda unga tasavvuf ruboiylaridan ko'proq misollar keltirishni tavsiya etgan. Qolaversa, uning tasavvuf she'riyatiga bo'lgan ishtiyoqi va tanqidiy baxs-munozaralar Nikolsonga ishonch bag'ishlagan. Masalan, tasavvuf she'riyati mavzu va badiiy tahlillar orqali arablar va forslar orasidagi muhim farqlarni ko'rsatgan [4]. Shunday qilib, Renold Nikolson Ibn ul-Farid qalamiga mansub bo'lgan "saralangan qasidalari" orasidan arab va fors tasavvuf shoirlari Jaloliddin Rumiy, Sadiy va Hofizlar hayoti va ijodi haqida qiyosiy tadqiqotlar olib borgan.

### **Tahlillar va natijalar**

Quyidagi parchada Nikolson tasavvuf she'riyatini puxta o'rganganligini aniq taxlil bayonotda ko'rishimiz mumkin:

"Ibn ul-Farid she'riyatidagi giperfantastik zo'ravonlikni hayratlanarli darajada achchiq realizmga asoslanganligini fors shoirlari asarlarida ham kuzatishimiz mumkin. U o'zining buyuk "Taqiyasi" da o'z bilimlari va kitobxonlari orqali birga shu sohani saqlab qolishni ta'kidlab o'tgan. Jaloliddin Rumiy Ibn ul-Faridni Allohga yaqin qalbli, o'z his-tuyg'ulariga ko'milib ketgan oshiq sifatida tasvirlagan. [5]. Nikolson odamlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan madaniy muammolarni aniqlash uchun unga yordam beradigan filologik uslubga tayangan. Nikolson asar mualliflarning kelib chiqishini ma'lum bir madaniyat hodisasi bilan bog'liq

ekanligini isbotlagan hamda boshqa sharqshunos olimlar bilan esa doimo tasavvuf she'riyati haqida fikr almashgan tarjimondir.

Xuddi, forslar va hindlarni har doim bir-biridan ajralib turganidek, Nikolson o'z maqolasini "arablar birdamlik tamoyiliga ishtiyoq yo'q" deb ta'kidlaydigan Nyumandan iqtibos olish bilan yoza boshlaydi. Shunda Semit xalqlarini o'ziga kerakli da'llillar topishga tajribasi yo'qligi sababli Renold Nikolson boshqa olimlar bilan bu masala haqida suhbat olib borgan.

Massignon qisman oriy irq bo'lganligi tufayli shuningdek, "Eron tasavvufi arablardan ko'ra kuchliroq ekanligini" ham ta'kidlab o'tgan. Shubhasiz, Arab tasavvuf she'riyatining asosiy xarakter xususiyatlarini ko'rsatish uchun Nikolson Ibn ul-Faridning barcha tasavvuf she'riyatining filologik uslubiga tayangan. Aytish mumkinki, Ibn ul-Faridning tasavvufiy she'riyati butun arab she'riyatini o'z ichiga oladi degan fikri Nikolsonni bir oz aylablashga ham sabab bo'lgan. Biroq, Ibn ul-Arabiy buyuk shoir va ilohiyotchi bo'lganligi uchun, Nikolson uning she'riyatining tadqiq qilishga kirishgan. Uning she'riyatini muhim jihati orqali, u Ibn ul-Faridga XIX asrdagi eng buyuk alloma ekanligiga ishora qilgan. Bunda filologik uslub unga aniq tanqidiy mulohazalar berishga undagan, masalan,

"Arab tasavvuf she'riyati namunalari dunyoviy qasida va ehtirosli qo'shiqlarga taqliddan iborat ekanligi bilmasak uning chin muhabbati insongami yoki ilohiyatga anglash bir oz mushkuldir"[6]. Nikolson qarashlarida adabiyotshunoslikni tushunish, sharhlash va talqin etish an'anaviy usuldan uslubiy yondashuviga o'zgartirildi hamda intuitsiya, taxminlarga asoslangan fikr-mulohazalar, uslub, umumlashtirish va salbiy qarashlarni ham bekor qilindi. Buning eng yorqin misollaridan biri uning tadqiqotida Abul-Ala al-Ma'arriy she'riyatini tadqiqidir. Bu asarda Nikolson (1921) ma'lum bir mavzu hamda al-Ma'arriy she'riyatining badiiy xususiyatlari o'rganish uchun uslubiy yondashuvga tayangan. Nikolsonning uslubiy yondashuvining birinchi muhim bosqichi al-Ma'arriy she'riyatida Kremer tadqiqotining u tomonidan tanqidlarga sabab bo'lganidir. Nikolson ta'kidlashicha Kremer al-Ma'arriy she'riyatini o'rganishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'ygan. Chunki vaqt o'tishi bilan turli xil davrlardagi vaqt me'yorlariga asoslanib al-Ma'arriy nazm orqali o'z she'riyatidagi falsafani haqiqiy mutafakkir darajasi bilan ham ko'rsatgan. Nikolson al-Ma'arriy eng buyuk arab allomalaridan biri ekanligini ham inkor etmay hamda uning she'riyatida falsafiy tafakkur va axloqiy tamoyillar asosiy g'oya bo'lganligi bilan uni ham ulug' shoir deb atashga to'la asos bo'lgan.

Al-Ma'arriy she'rlari mavzularga asosan tasniflanishi ikkinchi ilmiy qadam bo'lgan. Ammo bir she'rda ko'p mavzular bo'lganligi sababli, Nikolson al-Ma'arriy she'riyatining asosiy yo'nalishlari haqida umumiy ma'lumot berish uchun uning barcha she'riyatining mavzu jihatidan qayta tartibga solib chiqdi. Keng qamrovli tadqiqotlardan so'ng, Nikolson to'rt masala al-Ma'arriy she'riyatining eng muhim mavzulari ekanligini aniqladi: bular hayot va o'lim, insonparvar jamiyat, zohidlik, falsafa va din. Nikolson Ma'arriy she'riyatidagi to'rt mavzularni she'rning har bir satriga joylashtirgan. Masalan, "Falsafa va din" mavzusida al-Ma'arriyning ayollar ta'limi haqidagi fikrlarini kuzatishimiz mumkin. She'riyatning uch qismida al-Ma'arriy ayollar uy xizmatkori sifati ishlashi kerak degan fikri ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi satrlar esa al-Ma'arriy bag'rikeng mutafakkir emasligini ko'rsatadi, lekin uning qarashlari hamma uchun an'anaviy va ijtimoiy me'yorlar ta'siri orqali sezilgan.

"Qizlaringizga dastgohda to'qishni va yoyishni o'rgating,  
O'qish va yozishning ularning akalariga qoldiring,

Allohni ulug'lash cho'ring duosi,  
Yunus va Baro o'rniga xizmat qiling,  
Xo'sh, u parda oldida o'tirish qanday ta'sirli,  
Uning ortida qo'shiqchi ayollar kuylashsin".

(Tarjima bizniki-X.Z)

Von Kremer tomonidan nashr etilgan asar parchalari unchalik ko'p emasligi sababli Nikolsonni tadqiqot usullari kitobxonga al-Ma'arriy fikrlari va g'oyalarini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu usul unga al-Ma'arriy she'riyatiga asos bo'lgan falsafiy g'oyalar haqida tanqidiy mulohazalarni aytish imkonini berdi. Renold Nikolson al-Ma'arriy u faqat ilmiy falsafaning havaskori ekanligiga sitqidildan ishongan. Uning muammolari haqida u fikr yuritdi va bu nazariyani ketma-ket o'rganib, o'limdan tashqari hayotda boshqa narsalar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi degan xulosaga keldi. Shu bilan birga, u al-Ma'arriyning falsafiy she'riyatni o'ziga xos xususiyatlarini aniq va qisqacha ifodalab, uni quyidagicha tavsifladi:

1. Uning taxminlari tushunarsizdir.
2. U deyarli sovg'lar olishni xohlaydi.
3. U tahlil qila oladi, lekin u qancha o'rgansa ham hech qanday ijobiy natijaga erisha olmaydi.
4. U birinchi navbatda mavhum haqiqatga qiziqmaydi.
5. U yaxshilik uchun haqiqatni izlaydi hamda yakuniy qismida o'z fikrini unutadi.
6. Uning falsafiy va ilohiyat g'oyalari bir-biri bilan tartibli munosabatda.
7. U bu fikrlarni haqiqatning jumboq qismi sifatida taqdim etadi.
8. U qalbi erkin fikrlovchi.
9. U Muhammad pravoslavligi bo'lgan masalalarda o'z fikridan foydalandi.
10. Uning uchun sabab "mukofotlarning eng qimmatidir"; bu to'g'ri bilim va to'g'ri harakat manbai.

Ushbu tahlildan ko'rinib turibdiki, Nikolson falsafiy she'riyatni biron bir xususiyatini keng ko'lamli kuzatuv va tadqiqotlar bilan o'rganib borgan.

Uchinchi uslubiy qadam al-Ma'arriy va boshqa shoirlar, mutafakkirlar va faylasuflar orasida chuqur qiyosiy tahlildir. Ushbu taqqoslash Nikolsonning she'riyat va falsafaga oid keng ko'lamli bilimlarini namoyon etadi. U al-Ma'arriy she'riyatining paydo bo'lishida falsafaning tamoyillari va jihatlarini teng taqsimlashga astoydil harakat qildi. Shunday qilib, tadqiqot ular orasidagi o'xshashlik va farqlarning qiyoslabgina qolmasdan, shuningdek al-Ma'arriy g'oyalarini kelib chiqishi haqidagi filologik tushunchani rivojlantirib borgan. Ushbu tadqiqot faylasuflar va shoirlarni hayoti va ijodini o'z ichiga oladi, masalan, Ibn Abu Imron, Gerodot, Likiyaliklar, Evripid, Aristotel, Kant, Milton, Abu Bakr ar-Roziy, Pifagor va Sokrat.

Nikolson al-Ma'arriyning falsafiy she'riyatini o'rganishi uning asosiy ilmiy tadqiqoti ekanligini ta'kidlash muhimdir, shu jumladan Taha Husayin 1915 yilda o'zining "Dikra Abil Ala" nomli kitobini nashr ettirdi. O'ziga xos misollardan biri qadimgi yunon shoiri Evripid va al Ma'arriylar ijodi o'rtasidagi Nikolsonning qiyosiy tadqiqot tahlilidir. Uzoq vaqt olib borilgan tadqiqotdan keyin, u ularning she'riyati orasidan uchta o'xshash narsalarni topdi. birinchi, pravoslav diniy e'tiqodlari, ikkinchi, bu e'tiqodlarning haqiqatga mantiqiy jihatdan shubhaga sabab bo'ladigan da'lillari, uchinchi falsafiy qarashlarni o'zaro bir-biriga zidligini ifodalaydi. Bundan tashqari, Nikolson al-Ma'arriyning lirik shoir va dramaturg sifatida ijod qilishi hamda yetuk axloqshunos xarakterga ega ijodkor sifatida tan olgan. Yana bir bor, Nikolson Sharqni

tushunish uchun bir qancha sharqshunos olimlar Sharq madaniyati bo'yicha olib borayotgan ilmiy tadqiqotlariga izoh bergan. Shuning uchun, "Sharqshunoslar va Sharq o'rtasidagi muhim munosabatni" Sayidning fikrlari orqali tushunish bir oz qiyin kechgan. Uzoq vaqt davomida sivilizatsiya yoki madaniy yodgorliklarni o'rganishda Sharqshunos olim uchun tarjima muammolarini hal etish, mohirlik bilan o'girish asosiy maqsad bo'lgan.

Biroq, Sayidning fikri "shu paytgacha zamonaviy madaniyat faqatgina Islomning boshlanish nuqtasidan" Nikolsonning qarashlari bilan bir-biriga zid bo'lmagan [7]. Bu haqida "Arablar adabiyoti tarixi" asarining so'nggi sahifasida so'z yuritilgan. Chunki o'sha paytda Nikolson halihanuz arab adabiyoti va madaniyati sohalarini tadqiq qilayotgan edi. U adabiyot haqida hech qachon bir tomonlama fikr yuritmagan. Lekin u o'z maqsadiga erishish uchun arablar dini, adabiyoti, siyosiy va ijtimoiy sohalarini mukammal o'rganishga intilgan. Bundan tashqari, u har doim tarix haqiqatini, geografik, ijtimoiy va diniy omillarning o'z qarashlari va tanqidlarida namoyon etgan.

Quyidagi fikrda Nikolsonning munozara usuli aks etgan:

"Biz birinchi navbatda bu davrda umuman yunon tafakkurlari G'arbiy Osiyoga neoplatonizm qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda musulmonlar orasida ellin madaniyati tarqalishi haqida bir oz so'z yuritish kerak. O'z adabiy tarixini har bir o'quvchisi yunon tilini o'rganish kerak bo'lgan, keyin uning eng yuqori cho'qqisi uch chorakda Iroqqa oqib keldi: Suriyaning nasroniy monastirlaridan, Xuzistondagi Jundeshapur Fors Akademiyasidan va Mesopotamiyaning Harrandagi suriyalik majusiylar va sobiylargacha krib borgan. Bunda Yunon faylasuflari, shifokorlari va olimlarining son-sanoqsiz asarlari arab tiliga tarjima qilingan hamda yangi tadqiqotlar olib borish uchun qiziqish bilan o'rganilgan. Qisqasi, Muhammad fani va falsafasiga deyarli yunonlar donoligi bilan asos solingan".

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi jihati shundaki, Nikolsonning sa'yyi-harakatlari bilan Britaniya sharqshunosligida ulkan ilmiy burilish paydo bo'ldi. U boshqa olimlardan ayniqsa hushmuomilalikda, Sharq bilan ilmiy bilim uslubida ijod qilish orqali ajralib turgan. Nikolson birinchi sharqshunos olim sifatida ilmiy intizomga asos solib, umuman Sharq adabiyoti va ayniqsa mumtoz Arab adabiyotini o'rganishga astoydil bel bog'lagan. Bunda, biz asosan Abul ala al-Ma'arriy she'riyatini Nikolson tomonidan beqiyos va o'ziga xos qiyosiy tahlillar orqali tadqiqot olib borganini ko'rishimiz mumkin. Shu tadqiqotlari orqali Nikolson Ingliz sharqshunosligini Sharq mumtoz adabiyoti bilan ko'p yillik ilmiy izlanishlari samarasi sifatida bog'lagan.

#### **Adabiyotlar**

1. Britaniya Sharqshunosligi va mumtoz Arab adabiyoti. PhD dissertatsiya, Majid Abdulhamid, Lids Universiteti, 2016, 153-160 b.
2. Oriental Essays, Portraits of Seven Scholars, A.J. Arberry 1960, London: Ruskin House, George Allen & Unwin LTD, 199-203 p.
3. So'fiylikning paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid tarixiy tadqiqot. ilmiy maqola, Renold Nikolson, 1906, Kembrij Universiteti, 304-316 b.
4. Islom Tasavuffi, Kembrij universiteti nashryoti, Renold Nikolson, 1914, 2-3b.
5. Islom Sheriyatshunosligi, Kembrij universiteti nashryoti, Renold Nikolson 1921, 6-43-44-58-141-142-143-147-162-163-164-180-181-204 b.
6. Arablar adabiyoti tarixi, Renold Nikolson, New York 1907, 469 b.



7. Arabic Poetry, A Primer for Students. A. J. Arberry. 1965, Cambridge University Press, 16 p.

## **O'ZARO MULOQOTDA XUSHMUOMALALIKNING VERBAL VA NOVERBAL VOSITALARI**

Sarimsakova Shoiria Ulug'bek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktorant

E-mail: sarimsakova\_s@nuu.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola turli madaniyatli odamlarning o'zaro munosabatlardagi xushmuomalalikning verbal va noverbal vositalari, muloqotda verbal va noverbal hushmuomalalikning o'ziga hos xususiyatlari va farqlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shaxslararo muloqot nafaqat og'zaki xabarlar orqali balki turli xil paralingvistik vositalar orqali ham amalga oshiriladi. Mazkur maqolada noverbal vositalarning muloqotdagi ahamiyati, verbal vositalarning turli xil usullari misollar orqali tahlil qilingan. Shuningdek, maqolaning samaradorligini oshirish uchun hushmuomalalikni nazariy jihatdan ham o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Verbal va noverbal hushmuomalalik, ijobiy, salbiy feys va bilvosita hushmuomalalik, paralingvistik vositalar.

## **ВЕРБАЛЬНЫЕ И НЕВЕРБАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ВЕЛИЧНОСТИ ПРИ ВЗАИМОДЕЙСТВИИ**

Саримсакова Шоира Улуғбек кизи

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Аспирант

E-mail: sarimsakova\_s@nuu.uz

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу вербальных и невербальных средств вежливости во взаимодействии, отклонений от принципов вежливости у разнокультурных людей в общении. Межличностное общение включает в себя неявные сообщения, которые выражаются с помощью невербального поведения, такого как кинесика, паралингвистика, проксемика и хронемика, в дополнение к явным сигналам, которые выражаются посредством вербальных сообщений. В статье дается информация о различных методах вежливого речевого общения и на примерах поясняются невербальные средства вежливости. Теоретические основы вежливости также были применены для повышения продуктивности статьи.

**Ключевые слова:** вербальная и невербальная вежливость, позитивное, негативное лицо, паралингвистические инструменты.

## **VERBAL AND NONVERBAL MEANS OF POLITENESS IN INTERACTION**

Sarimsakova Shoiria Ulug'bek qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, PhD student

E-mail: sarimsakova\_s@nuu.uz

**Annotation:** This article is devoted to analyze the verbal and non-verbal means of politeness in interaction, deviations on politeness principles of different-cultured people in communication. Interpersonal communication comprises implicit messages that are expressed by non-verbal behaviors like



*kinesics, paralinguistic, proxemics, and chronemics in addition to explicit signals that are expressed through verbal messaging. The article gives information about various methods of verbal communication in polite way and explains nonverbal means of politeness with examples. Theoretical background of politeness has been also applied so as to increase the productivity of the article.*

**Key words:** *verbal and nonverbal politeness, positive, negative face, bald on, off-record, eye contact, gestures, paralanguage, strategic competence*

### **Introduction**

Interlocutors can express their knowledge, ideas, thoughts, facts, sentiments, emotions, and attitudes through the continual process of sending and receiving signals. Sociocultural competence and strategic competence appear to have a significant influence in enhancing the efficacy of communication among the components of communicative competence. Sociocultural competence refers to the speaker's knowledge of how to express messages appropriately within the overall social and cultural context of communication, in accordance with the pragmatic factors related to variation in language use. Strategic competence is the ability to use verbal and non-verbal communication strategies in order to overcome problems in the planning and execution stages of reaching a communicative goal, negotiate of meaning and repair mechanisms, and as means of keeping the communication channel open in the face of communication difficulties, and playing for time to think and to make (alternative) speech plans [1]. Interpersonal communication involves giving and receiving information or messages that are presented both explicitly via spoken words and implicitly through nonverbal actions. The meaning of the speakers is understood by the interlocutors not only via their words but also through their gestures, body language, and facial expressions. Nonverbal communication is typically understood as the process of exchanging wordless messages or word messages that may contain paralinguistic elements such as speaking style, emotion, and voice quality as well as prosodic elements like rhythm, intonation, and stress. Verbal and nonverbal signals can indicate polite or unpleasant acts depending on the degree of politeness. Both can maintain cordial and effortless social engagement and refrain from using facial expressions that could be intimidating or even hurtful. Interlocutors are frequently given explicit and tacit instructions on how to be polite, essentially telling them what to say and do and what not to say. The speech actions that make up appropriate courteous interaction are manifest in both verbal and non-verbal displays. In addition to verbal communication, nonverbal cues provide important hints, extra context, and meaning as well as indicating politeness or impoliteness.

### **Literature review**

People often respond in everyday encounters because they are concerned about how they are seen by others. The act of keeping a face in pragmatic civility, according to Brown and Levinson (1987), encompasses both behaviors that put faces in danger and efforts to save them. According to the notion of politeness, there are two connected components to a face: a positive face and a negative face. A negative face is the longing for independence, whereas a happy face is solely defined as a "self-image." [2] In addition, Leech (1983) put out the idea of modesty itself in the form of a set of rules. In fact, this is a method to describe how civility functions throughout a discussion. The four basic categories of politeness techniques in Brown and Levinson's Politeness Theory include baldness on record, negative politeness, positive politeness, and off-record. When facial motions are wanted, these techniques are utilized to convey signals to protect

the listener's face. Communication has two parts. Verbal communication comes first, followed by non-verbal communication [3]. By looking at verbal communication from the standpoint of linguistics aspects, such as speech length, expression speed, loudness, etc. "What are you doing?" is an example. It may be communicated in a variety of ways depending on the speaker's identity, the audience they are speaking to, the context in which they are speaking, and other factors [4]. Another example of a polite saying is "Be Quiet!" which parents may use to ask their kids to remain quiet in specific circumstances. But if the kids were instructing their parents to keep quiet, using this term would be rude. Verbal communication may also be estimated using sociocultural backdrop factors as appearance, power, status, age, gender, social distance, kinship, participation role, and talk community debate. The theoretical framework of politeness used in this article is mostly based on verbal and non-verbal interaction theories developed by Brown and Levinson (1987), Ide (1989), Gu (1990), Blum-Kulka (1992), and Watts (2003). Two fundamental ideas—negative face and positive face are the foundation of Brown and Levinson's theory. Positive face is the wish that others appreciate or approve of one's goals, whereas negative face is the freedom to act without interference from others [5]. The goal of being polite in social situations is to preserve a pleasant and easygoing atmosphere while avoiding the use of potentially threatening or even hurtful facial expressions. According to Ide (1989), politeness serves as the foundation for sustaining and enhancing communication, which is dependent on position and social level, power and familial structures, and circumstance (formal or informal). Furthermore, according to Lakoff (1990), cultural variations will result in a varied emphasis being placed on each rule. In terms of politeness notion, politeness is the use of the appropriate words or phrases in the appropriate situations, which are governed by societal norms [5]. According to Lakoff speech actions are considered polite if they satisfy the following criteria: (a) they are free of the speaker's ego or compulsion; (b) they allow the speaker the option to do anything; and (c) they make the listener feel at ease and welcome. Gu (1990) asserts that the idea of a face is not only regarded as desire but also as cultural standards. The politeness principle is seen as a conviction that each person's behavior should be adjusted to the social norms of respect, modesty, and a kind and honest demeanor. Blum-Kulka (1992) agrees that manners are a product of a specific culture [6]. Politeness is the usage of the proper word or phrase in the proper situation, which is established by the social norms that are accepted. In social situations, remaining courteous means avoiding potentially threatening or hurtful facial expressions while maintaining a harmonic and seamless social engagement. Intimacy, proximity, relationships, the social distance between the speaker and the hearer, as well as the circumstances of the current situation in social interaction, all have an impact on politeness[7].

### **Research methodology**

In the article it is analyzed the verbal and nonverbal means of politeness category in communication. Both means of politeness while interacting are discussed. The significance of using nonverbal means of politeness is compared to verbal one and discussed with examples. In intercultural communication the usage of verbal and nonverbal politeness are analyzed by means of Uzbek and English culture.

### **Analyzes and results**

**Ключевые слова:** стиль опроса, коммуникативные намерения, общение, контекст, дискурс, дискурсивные методы, эмпатия, лексика, обратная связь, общение, политика, прагматика.

### Введение

В современном обществе эффективная коммуникация играет ключевую роль в достижении различных целей, будь то обмен информацией, убеждение аудитории, согласование планов или решение конфликтов. Лингвистические средства, используемые в разговоре, играют непосредственную и существенную роль в формировании смысла, передаче эмоций и воздействии на собеседников. Осознание и изучение разнообразных языковых стратегий и инструментов, вовлеченных в процесс диалога, позволяет более глубоко понять, каким образом эти средства способствуют успешной коммуникации и содействуют достижению намеченных целей общения<sup>94</sup>.

Целью данного исследования является анализ лингвистических средств, активно взаимодействующих с общим намерением разговора и способствующих его успешному завершению. Для достижения этой цели предпринимается попытка выявить и систематизировать различные лингвистические стратегии, используемые в процессе общения, и определить их влияние на формирование аргументации, установление согласия и достижение консенсуса. В ходе анализа будут рассмотрены синтаксические особенности, лексические выборы, структуры речи и дискурсивные методы, которые помогают собеседникам эффективно взаимодействовать, согласовывать позиции и успешно реализовывать цели общения<sup>95</sup>.

Исследование направлено на расширение нашего понимания важности лингвистических средств в контексте общения, а также на предоставление новых инсайтов для тех, кто занимается обучением коммуникативным навыкам, переговорами и анализом диалогов. Надеемся, что результаты данного исследования окажутся полезными для развития более эффективных стратегий общения и более глубокого понимания того, как лингвистические средства содействуют достижению целей разговора в различных контекстах<sup>96</sup>.

**Анализ литературы по теме.** Анализ литературы по данной теме позволяет осветить разнообразные подходы и исследования, связанные с влиянием лингвистических средств на достижение целей разговора. Обзор литературы открывает перед нами множество теоретических ракурсов, способных расширить наше понимание взаимосвязи между языком и успешной коммуникацией:

Теория актов речи: Работы Х. Грайса и Дж. Серля предоставляют основы для понимания, каким образом речевые акты могут быть использованы для достижения определенных коммуникативных целей. Эти концепции выявляют семантические и

<sup>94</sup>Аустин, Д. (1962). "Слово как действие."

<sup>95</sup> Браун, Р., & Левинсон, С. (1987). "Политенностьская теория: Исследования в социолингвистической теории коммуникации."

<sup>96</sup> Грайс, Х. (1975). "Логика и разговор."

прагматические аспекты, влияющие на успешное воздействие на собеседника <sup>97</sup>. Политенность и стратегии общения: Работы Р. Брауна и С. Левинсона подчеркивают важность политенности и тактичных стратегий в общении. Они исследуют, как выбор лингвистических средств может влиять на достижение целей в различных социокультурных ситуациях.

Анализ разговорной динамики: Дж. Тэннен и Дж. Эрвин обращают внимание на различия в общении между гендерами и на особенности разговорной структуры. Эти работы помогают раскрывать, какие языковые стратегии способствуют установлению соответствующей динамики разговора<sup>98</sup>.

Дискурсивные исследования: Работы Деборы Таннен и Дж. Остмана уделяют внимание структуре дискурса и его воздействию на процесс коммуникации. Эти исследования позволяют понять, как лингвистические средства влияют на организацию информации и интерпретацию сообщений<sup>99</sup>.

Корпусный анализ: Применение корпусных данных, как в работе Дж. Эрвина, позволяет более объективно выявить типичные языковые конструкции и использование лингвистических средств в реальных разговорных ситуациях. Для данного исследования важно синтезировать эти теоретические подходы, а также воспользоваться практическими примерами разговорных материалов для подтверждения выявленных закономерностей.

#### **Методология исследования.**

Методология данного исследования базируется на комплексном анализе лингвистических средств, используемых в разговоре для достижения целей коммуникации. Для достижения поставленных целей и получения более полного понимания влияния языковых стратегий на успешное взаимодействие, следующие методологические подходы будут применены:

Анализ контекста: Вначале будет проведен детальный анализ контекста различных разговорных ситуаций, включая коммуникативные цели участников, их отношения, цели разговора и предполагаемые результаты. Это позволит лучше понять, как лингвистические средства взаимодействуют с общим намерением разговора<sup>100</sup>.

Семантический и синтаксический анализ: Будут выявлены ключевые лингвистические средства, такие как лексические единицы, грамматические конструкции и структуры предложений, используемые для выражения аргументации, убеждения и достижения конкретных целей. Семантические и синтаксические особенности будут анализироваться в контексте их роли в эффективной коммуникации. Анализ дискурсивных стратегий: Изучение дискурсивных методов, таких как интонация, акценты, мета-коммуникация и прямая/косвенная речь, позволит определить, как эти стратегии воздействуют на интерпретацию информации и эмоциональное восприятие собеседников<sup>101</sup>.

<sup>97</sup> Остман, Дж. (2005). "Дискурс."

<sup>98</sup> Серль, Дж. (1969). "Основы теории речевых актов."

<sup>99</sup> Таннен, Д. (1994). "Вы сказали, что?"

<sup>100</sup> Эрвин, Дж. (1999). "Синтаксическая структура диалога."

<sup>101</sup> М. Хеллен, "Кросс-культурные исследования в социолингвистике" (2010)

**Корпусный анализ:** Для подтверждения и уточнения обнаруженных тенденций и закономерностей будут использованы различные типы текстовых корпусов, предоставляющих широкий спектр реальных разговорных материалов. Это поможет установить степень распространенности и вариабельность использования лингвистических средств в разных контекстах. **Сравнительный анализ:** Будут проведены сравнительные анализы различных видов разговоров, социокультурных контекстов и стилей общения с целью выявления различий и схожестей в использовании лингвистических средств для достижения целей разговора.

**Качественный анализ:** в ходе исследования будет акцентирован внимание на детальный анализ качественных аспектов лингвистических стратегий, таких как их эффективность, влияние на собеседников и воздействие на итоговый результат разговора<sup>102</sup>.

Комбинация этих методологических подходов позволит осветить многогранность влияния лингвистических средств на достижение целей разговора, а также уяснить взаимодействие между общим намерением разговора и используемыми языковыми стратегиями.

### **Анализ и результаты**

В результате анализа литературы и применения выбранной методологии исследования, были выявлены важные аспекты влияния лингвистических средств на достижение целей разговора. Анализ позволил раскрыть следующие ключевые результаты:

**Важность контекста:** Обнаружено, что успешное достижение целей разговора сильно зависит от понимания контекста коммуникации. Лингвистические стратегии, применяемые в формальных и неформальных разговорах, могут значительно варьировать в зависимости от общей обстановки, целей разговора и социокультурного контекста.

**Роль политенности и вежливости:** Исследование подтвердило, что использование политенности и вежливости способствует успешному взаимодействию между собеседниками. Вежливые обороты, включая благодарности и извинения, помогают создать позитивную атмосферу, способствующую установлению доверия и обмену информацией.

**Адаптация к собеседнику:** Исследование выявило, что способность адаптировать лингвистические стратегии к стилю и предпочтениям собеседника играет ключевую роль в эффективной коммуникации. Подстройка лексических выборов и структуры речи под интересы и уровень понимания собеседника улучшает понимание и содействует достижению общих целей.

**Влияние на убеждение и аргументацию:** Анализ показал, что определенные лингвистические средства могут быть эффективно использованы для убеждения собеседников. Использование риторических вопросов, акцентирование ключевых слов и повторение может усилить аргументацию и убедительность высказываний.

---

<sup>102</sup> Tarjima yarashini o'rganishda tarjima modellarining yaratilishi tarjimasunoslikning uslubiy sifatda Nilufar Yokubovna Turdiyeva 2018/3/16 Jurnal: Inostrannaya filologiya: yazyk, literatura, obrazovanie Tom 3 Nomer 1 (66) Stranitsy 33-38.

Контекстуальные различия: Результаты исследования подчеркнули, что эффективные лингвистические стратегии могут варьироваться в зависимости от специфики контекста. Более формальные ситуации могут требовать более структурированной речи, в то время как неформальные разговоры допускают большую свободу в использовании разнообразных выражений.

### **Заключение.**

Исследование влияния лингвистических средств на достижение целей разговора выявило комплексные механизмы, оказывающие существенное влияние на коммуникацию между участниками диалога. Отмечается, что эти механизмы включают в себя не только семантические и грамматические аспекты, но и социокультурные, прагматические и контекстуальные факторы, которые взаимодействуют, определяя успешность общения.

Результаты исследования подчеркивают важность адаптации лингвистических стратегий к контексту и потребностям собеседников. Ключевыми факторами оказались гибкость и умение выбирать наилучшие языковые средства для эффективного взаимодействия. Однако эта адаптация также требует глубокого понимания социокультурных норм и ожиданий.

Примечательно, что результаты анализа выявили динамическую природу влияния лингвистических средств на достижение целей разговора. В различных ситуациях разные стратегии могут быть успешными, и искусство эффективной коммуникации заключается в способности выбирать наиболее подходящие средства для конкретного контекста.

Дополнительно, данное исследование может служить основой для практических приложений. На основе выявленных результатов можно разрабатывать обучающие программы и тренинги, направленные на развитие навыков успешной коммуникации. Это особенно актуально в современном мире, где виртуальное общение и межкультурная коммуникация играют все более важную роль.

### **Рекомендации**

На основе проведенного исследования и выявленных результатов можно предложить следующие рекомендации для тех, кто стремится улучшить свои навыки коммуникации и достижения целей разговора:

**Понимание контекста:** Важно всегда учитывать контекст общения. Перед началом разговора определите цель, обстановку, тип взаимодействия и ожидания участников, чтобы эффективно выбрать лингвистические стратегии.

**Адаптация к собеседнику:** Изучите вашего собеседника. Учитывайте его стиль общения, уровень знаний и предпочтения, чтобы использовать языковые средства, которые наиболее эффективно дойдут до него. **Использование полнотности:** Используйте вежливые обороты, благодарности и уважительные формы обращения для создания дружественной атмосферы. Это способствует более позитивному восприятию и установлению доверия. **Аргументация и убеждение:** При необходимости усилить аргументацию, используйте риторические вопросы, акцентирование ключевых слов и повторения. Однако будьте осторожны, чтобы не создать излишнюю агрессивность.

**Обучение и практика:** Освоение навыков успешной коммуникации требует времени и практики. Принимайте участие в тренингах, учитесь коммуникативные стратегии и учитесь анализировать контексты. **Учитесь из опыта:** Анализируйте свои разговоры и

коммуникативные ситуации. Идентифицируйте, что сработало, а что не было эффективным. Этот анализ поможет вам улучшить свои навыки в будущем.

**Самосознание:** Будьте осведомлены о своих языковых привычках, интонациях и жестах. Важно понимать, как ваши высказывания могут восприниматься другими людьми. Развивайте межкультурные навыки: Если вы имеете дело с людьми из разных культур, изучите особенности их коммуникативных предпочтений. Это поможет избежать недоразумений и конфликтов. Слушайте внимательно: Одним из ключевых аспектов успешной коммуникации является способность активно слушать собеседника. Придавайте важность его высказываниям, позволяйте ему завершить свои мысли и задавайте уточняющие вопросы.

**Используйте эмпатию:** Старайтесь поставить себя на место собеседника и понять его точку зрения. Это поможет поддержать более глубокий и взаимопонимающий диалог. Избегайте лишних деталей: В зависимости от цели разговора, старайтесь поддерживать ясную и лаконичную речь. Избегайте излишней детализации, которая может отвлечь собеседника от основной идеи. Развивайте навыки эффективного вопросительного стиля: Умение задавать хорошие вопросы может помочь углубить разговор и выявить скрытые мотивации собеседника.

**Поддерживайте невербальную коммуникацию:** Невербальные сигналы, такие как жесты, мимика и интонация, могут значительно дополнить вашу речь и передать эмоциональное состояние.

**Практикуйте активное общение:** Взаимодействие — это двусторонний процесс. Активное участие в обсуждении и демонстрация интереса к собеседнику способствует более глубокому и плодотворному общению.

**Используйте обратную связь:** После завершения разговора уточните, были ли цели достигнуты и какие уроки вы можете извлечь из этого опыта.

В заключение, успешное взаимодействие и достижение целей разговора требуют гибкости, умения адаптироваться к разным ситуациям и способности эффективно использовать лингвистические стратегии. Применение вышеперечисленных рекомендаций может помочь улучшить ваши коммуникативные навыки и сделать ваши разговоры более продуктивными и успешными.

### **Использованная литература**

1. Аустин, Д. (1962). "Слово как действие.
2. Браун, Р., & Левинсон, С. (1987). "Полигенностьская теория: Исследования в социолингвистической теории коммуникации."
3. Грайс, Х. (1975). "Логика и разговор.
4. Остман, Дж. (2005). "Дискурс.
5. Серль, Дж. (1969). "Основы теории речевых актов.
6. Таннен, Д. (1994). "Вы сказали, что?"
7. Эрвин, Дж. (1999). "Синтаксическая структура диалога.
8. М. Хеллен, "Кросс-культурные исследования в социолингвистике" (2010)
9. Tarjima yarashini o'rganishda tarjima modellarining yaratilishi tarjimasunoslikning uslubiy sifatda Nilufar Yokubovna Turdiyeva 2018/3/16 Jurnal: Inostrannaya filologiya: yazyk, literatura, obrazovanie Tom 3 Nomer 1 (66) Stranitsy 33-38.

10. Til va madaniyatning o'zaro munosabati Mualliflar Nilufar Yokubovna Turdiyeva Nashr qilingan sana 2022/7 Jurnal Xorijiy filologiya 83 Raqam 2 Sahifalar 64-68.
11. Mualliflar Nilufar Yokubovna Turdiyeva, Navruz Shuxratovich Davirov
12. Nashr qilingan sana 30.01.2023 Jurnal Texaz Filologiya, madaniyat va tarix jurnali 14 Raqam Sahifalar 38-42. lingvomadaniyshunoslikda stereotiplar tushunchasi
13. Mualliflar Nilufar Yokubovna Turdiyeva Nashr qilingan sana 21.04.2022 Konferensiya materiallari Xorijiy Til Ta'limi Lingvodidaktikasi Va Innovatsion Asoslari Xalqaro Ilmiy-Amaliy Konferensiya Materiallari Raqam 1 Sahifalar 219-220.

## TERMIN VA TERMINOLOGIYA TADQIQI YUZASIDAN YONDASHUVLAR

Abduvalieva Xulkaroy Lutfulla qizi  
Andijon davlat chet tillar instituti o'qituvchisi  
[abduvalievahulkaroy@gmail.com](mailto:abduvalievahulkaroy@gmail.com)

*Annotatsiya:* Terminologik polisemiya hodisasi ob'yekt sifatida avvalo termin ma'nosining ixtisoslashuvi bilan bog'liq jihatlarini o'rganishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, terminologik omonimiyadan farqli o'laroq, polisemantik so'zning struktural-semantik variantlari, ularning prototipik jihatdan o'zaro o'xshashligini namoyon etadi. Ushbu maqola terminologiya tarixi bilan bog'liqdir.

*Tayanch so'zlar:* termin, funksiyasi, semantik maydon, ro'yxat, terminologik maydon.

*Аннотация:* Терминологическая полисемия как объект требует прежде всего изучения аспектов, связанных со специализацией значения термина. Напротив, в отличие от терминологической омонимии, структурно-семантические варианты многозначного со обнаруживают свое протодорическое сходство. В данной статье рассматривается история терминологии.

*Ключевые слова:* термин, функция, семантическое поле, список, терминологическое поле.

*Annotation:* Terminological polysemy as an object requires, first of all, the study of aspects related to the specialization of the meaning of the term. On the contrary, in contrast to terminological homonymy, structural-semantic variants of the polysemantic reveal their prototypical similarity. This article is devoted to the history of the terminology.

*Key words:* term, function, semantic field, list, terminological.

### Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli har bir sohaga yuksak e'tibor qaratilmoqda, shu jumladan, xunarmandchilik tizimidagi o'zgarishlar, islohotlar ham bundan mustasno emas. Bunday yangilanishlar natijasida tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar va neologizmlar oqimi yanada jadallashmoqda. Bu jarayon esa o'z navbatida soha mutaxassislarining o'z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini, ularning mazmun-mohiyati haqida to'laqonli bilimga ega bo'lishlarini taqozo etmoqda.

### Adabiyotlar taxlili

Jahon ilm-fanida tegishli terminlarni tushunish va tavsiflash bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. Bu o'rinda V. P. Danilenko, V. V. Vinogradov, D. C. Lotte, A. A. Reformatckiy, B. N.

Golovinlarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin. Zamonaviy ilm-fanda erishilgan yutuqlarga qo'shimcha ravishda terminning ko'plab ta'riflari ham mavjud. Terminologiyaning nazariy muammolari bilant shug'ullangan E. K. Drezen, G. O. Vinokur, A. A. Reformatskiy, L. A. Pekarskaya, B. N. Golovin, V. P. Danilenko, V. N. Shevchuk, V. N. Solnsev, L. V. Il'qerba, M. N. Volodina, J. Bo'ronov, R. Doniyorov, A. D. Xayutin, Bryson, H. Sonneveld.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Muammoning amaliy jihatini o'rgangan D. S. Lotte, Ye. I. Gureeva, A. A. Bragina, T. L. Kandelaki tadqiqotlarida *terminologiya* so'zi asosan ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Terminologiya – muayyan sohalarda maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarining majmui. 2. Terminologiya – terminlarning grammatik sathdagi o'rni va tilda amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan muayyan qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi lingvistikaning alohida aspekti.

### **Tahlillar va natijalar**

Terminologiyaga oid adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Davrlar silsilasida *termin* so'zining turli tizimli tillarda paydo bo'lishi, kelib chiqish tarixini taxminiy tarzda qayd eta olsakda, o'rta asrlarda paydo bo'lgan lotincha *terminus* so'zi va qadimgi yunoncha *logos* ("tushuncha", "ta'limot" ma'nosini bildirgan) so'zlarining o'zaro birikishidan hosil bo'lgan *terminologiya* so'zining paydo bo'lishini *termin* so'ziga nisbatan aniqroq qayd etishimiz mumkin[1,1-6]. *Termin* tushunchasi dastavval *chegaralar ilohiyligi*, keyinroq esa *chegara toshi*, *so'nggi* yoki *tugallangan joy*, *manzil* kabi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan.

"Terminning semantik mazmuni kasbiy bilimlarning majmui bo'lib, shu asosda terminilmiy muloqotning muhim sharti, ya'ni ijtimoiy funksiyaga ega bo'ladi. Umumiy foydalanishdagi so'zlar kabi, termin ham tegishli ravishda tarkibiy va semantik maydonning birligi hisoblanadi, unga polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi xususiyatlar xosdir".

Tadqiqotda terminologik polisemiya hodisasi ob'yekt sifatida avvalo termin ma'nosining ixtisoslashuvi bilan bog'liq jihatlarini o'rganishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, terminologik omonimiyadan farqli o'laroq, polisemantik so'zning struktural-semantik variantlari, ularning prototipik jihatdan o'zaro o'xshashligini namoyon etadi. Terminologik polisemiyaga yoki ko'p ma'nolilikga misol qilib *fragment* terminini keltirish mumkinva quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin: a) tog' jinsi yoki mineralining zarrasi, tog' jinsi bo'lagi. Terminologik noaniqlik kategorial xususiyatga ega bo'lib, metonimik konversiya natijasi hisoblanadi, masalan, harakatning moddiy natijasi va harakatning o'zining bildiradigan terminlar, masalan, *drift: qum uyumi* va *olib ketmoq*. Bu o'rinda terminning leksik va semantik xususiyati so'z ma'nosining polisemantik rivojlanishidan omonimiyaga ixtisoslashuvi kuzatiladi. Bularning barchasi esa uning qo'llanilish doirasi va tadqiqot ob'yektiga bog'liqdir. Bunday holatlarni farqlash uchun tegishli kontekst zarur bo'ladi.

XIX asr boshlarida dunyo tilshunosligidagi yana bir yangilik – bu terminlarning yaralish va yaratilish xususiyati bilan bog'liq jarayonlardir. Tilshunos olimlar tomonidan *terminning* yaratilishi, lingvistik xususiyatlarini yoritish uchun turlicha yondashuvlar amalga oshirila boshlandi. Buning asosiy sababi shundaki, ifodalar, ishoralar, ilmiy va boshqa texnologik terminlar umum iste'molda qo'llaniladigan leksik birliklarning katta qismini tashkil etmoqda.

Terminlar aniq jarayon, hodisa va harakat nomlarini ifodalagani bois asosan ot turkumidan tarkib topgan maxsus tarmoq uchun xoslanadi. Zero, har qanday ilmiy-texnikaviy terminologik tizimda, aniqlikka va ixchamlikka intilish tamoyiliga rioya qilinadi[2,30].

Olimlar tomonidan sohada “terminologik tizim” (terminosistema), “terminologik maydon” kabi asosiy tushunchalarning yaratilishi, tilshunoslar tomonidan ilgari bildirilgan fikrlarni tahlil qilishga asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, terminni yoritishda ularga nisbatan ko‘p sonli nazariy va amaliy ta‘riflar yuzaga kela boshladi.

A.A.Reformatskiy bu holatni quyidagicha ta‘riflaydi: “Termin – bu so‘z bo‘lib, o‘zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi; u fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida bir ma‘noli, aniq va konkret so‘zdir”[3,66]. B.N.Golovin esa termin haqida shunday deydi: “Termin kasb-hunar nuqtaiy nazaridan qaralganda o‘zida muayyan kasbiy tushunchalarni ifoda etadi”. Biz ushbu tadqiqotimizni B.N.Golovin fikrlariga qo‘shilgan holda olib boramiz. Bizningcha, terminlar lingvistik tabiatiga ko‘ra muayyan kasbga (yoki sohaga) doir bir ma‘noli leksik birliklar hisoblanib, ularning ma‘no ifoda etish quvvati ma‘lum sohaning terminologik maydonidagi joylashuviga bog‘liqdir.

S.Usmonov terminning asosiy lingvistik tabiati va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha tavsiflaydi:

- 1) termin – tilshunoslik leksik sathining ajralmas, uzviy bir qismidir;
- 2) termin – o‘zining ichki semantik tarkibida katta axborot hajmini saqlash bilan boshqa so‘zlardan farqlanadi, ma‘nosi uchun esa izohga ehtiyoj sezadi;
- 3) umumiste‘moldagi ko‘p ma‘noli so‘zlar muayyan soha terminologiyasiga ko‘chganida faqat bir ma‘noni anglatib, terminlik vazifasini bajaradi[4,148].

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, XIX asrning boshlarida leksikograf olimlar tomonidan terminologiya so‘zining ma‘nosini ifodalashda sayoz yondashuvlar kuzatilgan. Bundan tashqari, XVIII asrdan boshlab bir qator Yevropa tillarida ta‘limning ma‘lum bir sohasi ob‘yektini ifodalash uchun *nomenklatura* so‘zi ham ishlatila boshlangan. *Nomenklatura* so‘zi (lotincha *nomenclatura*) so‘zma-so‘z nomlar ro‘yxati yoki ro‘yxat ma‘nolarini anglatib, ilm-fanning muayyan sohasida tadqiqot ob‘ektlarini ifodalash uchun qo‘llaniladigan nomlar o‘plamidir.

*Terminologiya* bilan *nomenklatura* terminlarining tilshunoslikda bajaradigan vazifalari bir-biriga juda yaqin bo‘lgani bois, ba‘zan ikkalasini farqlash qiyin kechadi. Bu borada A. D. Xayutin *nomenklatura* so‘zi ilk bor “nomlarni atash, yozish” ma‘nosida botanik olim Linney tomonidan qo‘llanilgani va u botanika sohasida o‘simliklar nomini tasnif qilishda ishlatilganini ta‘kidlaydi[5,60].

*Nomenklatura* so‘zining keng doirada qo‘llanilishi va *terminologiya* so‘zining paydo bo‘lishi XVIII asrda kuzatiladi. *Nomenklatura* va *terminologiyani* tafsiflash uchun keltirilgan turli izohlar o‘rganilgan manbalarda bir-biriga yaqin va o‘xshash ko‘rinsada, *nomenklaturaning* *terminga* nisbatan funksional-semantik farqiga so‘nggi nashr etilgan ensiklopedik va izohli lug‘atlarda aniqlik kiritilganini ko‘rishimiz mumkin[6,55].

Til lug‘at tarkibining kengayib va takomillashib borish jarayoni hozirgi texnologiya davrida dinamik jarayon hisoblanadi. Terminlar ilm ahli, yetuk soha mutaxassislari tomonidan yaratiladi. Tarixga nazar tashlasak, tilshunos va terminshunos olimlarning terminlarni o‘rganish jarayonida turli munozarali yondashuvlariga guvoh bo‘lamiz.



Yuqorida keltirilgan qiyosiy qarashlar va yondashuvlarga yakun yasar ekanmiz, shu narsani qayd etish joizki, dunyo tilshunosligida terminologiyani nazariy jihatdan tadqiq etishda tilshunoslar terminlarni, asosan, umumxalq tilidagi oddiy so'zlarga zid qo'yganlar.

Terminologiya keng ma'noda umum adabiy leksikaning bir qatlami bo'lib, ijtimoiy hayotning fan, texnika va boshqa sohalarida qo'llaniladigan terminologik birliklar majmuidir. Terminologiya tor ma'noda fan yoki texnika, ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasiga oid terminlar tizimini yig'indisini tashkil etadi. Har bir fanning o'z sohasi doirasida qo'llaniladigan terminlari birlashib, maxsus soha terminologiyasini hosil qiladi [7,16].

Biz ushbu fikrlarni umumlashtirgan holda terminga nisbatan quyidagi ta'rifni keltiramiz:

"Termin" zamonaviy tushuncha tamoyiliga asosan muayyan sohalarda aniq tushunchani ifoda etadigan, maxsus funksional vazifa bajaradigan so'z va so'z birikmasidir. Termin semantik nuqtaiy nazardan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan leksik birlikdir. Ammo, shunisi ham borki, ayrim hollarda ma'lum bir soha terminlarida boshqa soha terminologiyasiga integratsiyalashuv jarayoni kuzatiladi, natijada ular o'sha soha uchun qo'shimcha terminlik vazifasini ham bajaradi.

Lisoniy birlik sifatida termin tildagi barcha so'z va iboralarga xos zarur struktur-semantik va formal xususiyatlarga ega. Terminologik birliklarning paydo bo'lishida umum qo'llanishdagi so'zlarni o'zlashtirish nisbatan ko'p uchrashi terminlar xususiyatiga funksional yondashish asosini beradi. Bu holatning isboti sifatida "*erning ichki tuzilishi*": *core: yadro; mantle: mantiya; crust: "erning uctki qismi"* [8,592] kabi shakldagi terminologik majmuani keltirishimiz mumkin. Bu uch terminning barchasining asosida ilmiy bilish sohasiga oid nutqda ko'p qo'llaniladigan so'zlar yotadi. Bu so'zlardan foydalanib, yuqorida qayd etilgan terminologiya majmuasi shakllantiriladi.

### **Xulosalar**

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu o'zgarishlarni termin maqomini olgan til birligining funksional va maqsadli o'zgarishlariga ikkinchi darajali, deb qarash mumkin. Aniq obrazli ifodaning nominativ funksiyasi, umumiy foydalanishdagi so'zlarga xos bo'lgan maishiy tushuncha terminologik tizimda maxsus tushunchaning nominativ funksiyasi bilan almashtiriladi. Inson tafakkuri va ijtimoiy tartib taraqqiyotining dialektik qonuniyatlari so'zning terminga aylanishiga sabab bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga til birligining vazifasi, unga mos derivatsion, sintagmatik va paradigmatic xususiyatlari ham o'zgaradi. Biz terminning tabiatiga funksional nuqtai nazardan yondashamiz va terminologik birlikni ilmiy tushunchani nomlash va til birligining mazmun xususiyatlarini saqlab qolishning ixtisoslashgan funksiyasiga ega bo'lgan til belgisi deb hisoblaymiz.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, turli lingvistik va ekstralingvistik omillar sababli muayyan sohalarga oid terminologik tamoyillar va mezonlarni ishlab chiqish, terminologik tizimlarni tartibga solish ehtiyoji tug'iladi. Ayni paytda turli dunyo tillarida bu jarayon turli holatlarda sodir bo'lmoqda, deyishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sonneveld H., Loenning K. *Introducing terminology*, in *Terminology*. – 1994. –P. 1-6.
2. Arutyunova N.D. *объект общей отсенки // Вопросы языкознания*. – Москва, 1985. – №3 – С.30.
3. Reformatskiy A.A. *Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии*. – М., 1976. – С. 66.
4. Usmonov S. *O'zbek terminologiyasining ba'zimasalalari*. – Toshkent, 1968. – 148 b.

5. Хаютин А.Д. Термин, терминология и номенклатура. – Samarkand, 1971. – 60 s.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-5- jildlar. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. – B. 55.
7. Paluanova X.D. Ingliz, o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion semantik prinsiplari.: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2016. – 16 b.
8. Толковый Словар Английских Геологических Терминов ТСАГТМИР, Москва, 1977 г., 592 с

### ALLYUZIYA STILISTIK VOSITA TURLARI VA VAZIFALARI

Achilova Risolat Azamovna

Buxoro davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasida dotsenti, PhD

[risolat\\_lola@mail.ru](mailto:risolat_lola@mail.ru)

*Annatsiya.* Ushbu maqolada allyuziyaning turlari va vazifalari haqidagi turli xil yondashuvlar haqida soʻz boradi. Allyuziyaning eng muhim vazifalaridan biri bu baholovchi xarakterlovchi funktsiya boʻlib, u maʼlum bir bahoning yashirin koʻrinishida ifodalanadi. Allyuziya koʻpincha maʼlum bir tarixiy davrga xos boʻlgan yoki oʻtmishning muayyan voqealari bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum bir atmosferani yaratuvchi uslubiy vosita ekanligi haqida maʼlumot berilgan.

*Kalit soʻzlar.* Allyuziya, uslubiy vosita, antroponimlar, toponimlar, ktematonimlar, teonimlar, allyuziv-baytlar.

### ТИПЫ И ФУНКЦИИ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПРИЕМА АЛЛЮЗИИ

Ачилова Рисолат Азамовна

Бухарский государственный университет, доцент Межфакультетской кафедры иностранных языков, PhD

[risolat\\_lola@mail.ru](mailto:risolat_lola@mail.ru)

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются о разных подходах к видам и функциям аллюзий. Одной из важнейших функций аллюзии является оценочно-характеристическая функция, выражающаяся в скрытой форме определенной оценки. Известно, что аллюзия зачастую представляет собой стилистический прием, создающий определенную атмосферу, характерную для определенного исторического периода или связанную с определенными событиями прошлого.

*Ключевые слова.* Аллюзия, методический инструмент, антропонимы, топонимы, ктематонимы, теонимы, аллюзивные-стихи.

### TYPES AND FUNCTIONS OF THE STYLISTIC DEVICE OF ALLUSION

Achilova Risolat Azamovna

Bukhara State University, Associate Professor of the Interfaculty Department of Foreign Languages, PhD

[risolat\\_lola@mail.ru](mailto:risolat_lola@mail.ru)

*Annotation.* This article deals with the different approaches to the types and functions of allusions. One of the most important functions of allusion is the evaluative-characteristic function, expressed in the hidden form of a certain assessment. It is known that allusion is often a stylistic device that creates a certain atmosphere, characteristic of a certain historical period or associated with certain events of the past.

**Keywords.** *Allusion, methodological tool, anthroponyms, toponyms, ktematonyms, theonyms, allusive- poems.*

### ***Kirish***

Badiiy matndagi intertekstuallikning ko'rinishi sifatida allyuziyani o'rganish turli yondashuv va mezonlarga asoslangan turli tasniflarni yaratishga olib keldi. Demak, allyuziyani tilshunoslik, matnlararolik nazariyasi, adabiy tanqid va kognitiv fan nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Ishimizning bir qismi sifatida bizni eng ko'p tadqiqot maqsadlariga mos keladigan lingvo-stilistik va adabiy yondashuvlar qiziqtiradi. Lingvo-stilistik yondashuv bizga allyuziyani matnning muhim uslub yaratuvchi elementi sifatida tasvirlashga imkon beradi, adabiy o'ziga xoslik esa alohida asarlarda allyuziyaning ma'nosini aniqlashga, ushbu vositaning ishdagi xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradi.

### ***Adabiyotlar tahlili***

Dronova allyuziyaga xos bo'lgan funktsiyalar orasida tarixiy korrelyatsiya yaratish funktsiyasini va bezak funktsiyasini ajratib ko'rsatishni taklif qiladi [Dronova 2006: 17-19]. Allyuziya ko'pincha ma'lum bir tarixiy davrga xos bo'lgan yoki o'tmishning muayyan voqealari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir atmosfera va assotsiativ maydonni yaratish uchun ishlatiladi. Iqtibosni allyuziya deb atash mumkin, bu muallif tomonidan subtekst yaratish uchun emas, balki ko'ngil ochar yoki estetik vazifani bajarish uchun ishlatiladi.

### ***Tadqiqot metodologiyasi***

Tadqiqotchilar allyuziyaning xususiyatlarini stilistik vosita sifatida hisobga olib, eng tipik xususiyatlardan biri sifatida orientatsiyani qayd etadilar. Shu bilan birga, yo'nalish muallifning niyati va o'quvchining fikr-mulohazasi orqali namoyon bo'ladi. Allyuziya, yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'lum bir stilistik effekt yaratish uchun ongli uslub sifatida ishlaydi. Qabulning pragmatik tabiati ham ta'kidlangan - havolani asl matnning belgisi sifatida tan olish orqali fikr-mulohazalarni qabul qilishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi matn maydoniga kiritilgan allyuziya ham asl, ham qabul qiluvchi matnning, shuningdek boshqa tegishli matn manbalarining elementi hisoblanadi. Bir butun sifatida allyuziya nurlanish xususiyatiga ega (Potylitsyna 2005:104), ya'ni uning semantikasini matnning boshqa qismlari va elementlariga, allyuzia kiritilgan bevosita hududdan tashqariga ekstrapolyatsiya qilish xususiyatiga ega. Shunday qilib, ko'p funktsiyalilik va xilma-xillik haqida allyuziyaning muhim belgilari sifatida gapirish mumkin. Keyinchalik, biz allyuziya funktsiyalarini ko'rib chiqishga murojaat qilamiz.

### ***Tahlillar va natijalar***

Allyuziyaning eng muhim vazifalaridan biri bu baholovchi xarakterlovchi funktsiya bo'lib, u ma'lum bir bahoning yashirin ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu funktsiya pastki matn yaratish va ish kontekstini kengaytirish uchun javobgardir. Shuningdek, ushbu funktsiya tufayli personajlar yoki hodisalarning tavsifini yaratish, o'quvchida ma'lum hissiy assotsiatsiyalarni uyg'otish mumkin. Allyuziyaning bashorat qilish funktsiyasi muallifga syujetning rivojlanishini yo'naltirishga yordam beradi, o'quvchiga voqealarning keyingi rivoji haqida maslahat beradi. Shuningdek, allyuziya matnda strukturaviy vazifani bajarishi mumkin, ya'ni matn ichidagi aloqalar va chegaralarni shakllantirishga, izchil taqdimotni ta'minlashga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, allyuziya matnda nafaqat turli funktsiyalarni bajarishi, balki matnda turli shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan turli xil allyuziya tasniflari taklif etiladi. Masalan, matndagi ifodalash mezoniga asoslanib, strukturaviy allyuziyani asl nusxa shaklini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir, shuningdek, manbaning semantikasini

bildiruvchi semantik allyuziyani takrorlaydi. M. D. Tuxareli allyuziyaning mazmun komponentiga asoslangan tasnifni taklif qiladi [Tuxareli 1984: 18]:

1. *To'g'ri otlar: antroponimlar, toponimlar, ktematonimlar, teonimlar va hokazo.*
2. *Injil, adabiy, mifologik, tarixiy va boshqa voqeliklar.*
3. *Ko'chirma gaplar, mashhur gaplar aks-sadosi.*

Tarkibiy kompozitsiya nuqtai nazaridan alohida allyuziya so'z va iboralar bilan bir qatorda allyuziv -ustun frazema birliklar, allyuziya -paragraflar, allyuziv -baytlar, allyuziv -boblar va allyuziv -badiiy asarlarda farqlanadi. Allyuziyali elementlarni matndagi roli va o'rniga ko'ra tasniflashni ham taklif qiladi. Predikativ va nisbiy allyuziyalar shunday ajratiladi. Predikativlar jumlasiga asarning asosiy mazmunini yo'naltiruvchi va to'ldiruvchi muhim rol o'ynaydigan, semantik va strukturaviy dominant vazifasini bajaruvchi allyuziya -boshlovchi va allyuziya -tugashlar kiradi. Nisbiy allyuziyalar yordamchi rol o'ynaydi va hikoyaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. [Tuxareli 1984:18.]

Allyuziya (lot. alliso - ishora, hazil) - barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, A.da ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin.

Allyuziya mexanikasi adabiy qahramonlarni matnlararo amaliyotlari nuqtai nazaridan o'qish va tushunishga harakat qiladi, bu esa matnni, boshqa narsalar qatorida, ma'no jarayonining yozuviga aylantiradi.

Bizning fikrimizcha, matnda allyuziyani amalga oshirishning turli shakllarini ko'rib chiqadigan tasnif qiziq. Demak, allyuziya epitet va qiyoslarga ajratiladi. Epitet - bu ob'ektning qandaydir yorqin xususiyatini ta'kidlaydigan ekspressiv vosita. Ko'pincha epitet tasvirlangan hodisa yoki ob'ektga ma'lum bir hissiy bahoni ifodalaydi. Allyuziyali epitet - boshqa tarixiy yoki madaniy faktlarga bilvosita murojaatni o'z ichiga olgan so'z yoki ibora, bir vaqtning o'zida aniqlanayotgan so'zga nisbatan epitet vazifasini bajaradi. Allyuziya taqqoslashlarga barcha taqqoslash ob'ektlariga xos bo'lgan umumiy xususiyat asosida tuzilgan taqqoslashlar kiradi. [Ipatova 2016: 33.] Allyuziyali epitetlar va taqqoslashlar orasida bir nechta turli tematik guruhlar mavjud bo'lib, ular miqlarga, tarixiy faktlarga, adabiy epitetlarga murojaat qilish bilan ifodalaniladi.

#### *Xulosalar*

Shunday qilib, biz allyuziya asarda turli funktsiyalarni bajarishi, syujetning rivojlanish yo'nalishini belgilovchi, to'ldirish va yo'naltirish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Allyuziya turlarining ko'rib chiqilgan tasniflari allyuziyani matnda stilistik vosita sifatida amalga oshirishning ko'plab variantlari mavjudligini ko'rsatadi. Allyuziyalarning ko'p qirrali va bitmas-tuganmas badiiy salohiyati muallifga kerakli effektga erishish va fikrlarni eng aniq etkazish imkonini beradi. Muallifning keng va serqirra bilimdonligi uning ijodida ko'plab tashbehlarining manbai hisoblanadi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Дронова, Е. М. (2006). *Стилистический прием аллюзии в свете теории интертекстуальности: (на материале языка англо-ирландской драмы первой половины XX в.)*. Диссертация. Воронежский государственный университет
2. Тухарелли, М. Д. (1984). Аллюзия в системе художественного произведения: автореферат диссертации канд. филол. наук. 25-5 (49), сс. 10-16.



3. Ruzikulovna, A. D. (2020). Linguacultural and linguapoetic study of the precedent names in Uzbek language. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(9), 45-54.
4. Mirzatillayevich, R. S., & Zokirjonogli, A. N. (2021). Precedent names in the artistic text as allusive names. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 46-52.
5. Tayirovna, A. S. (2023). LINGUOCULTURAL RESEARCH OF THE CONCEPT "EDUCATION" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. European International Journal of Pedagogics, 3(03), 11-15.
6. Achilova R.A. "THE SEMANTIC VALUE OF ANTONOMASIA IN THE WORKS OF SHAKESPEARE". International Journal of Word Art. Volume 4, Issue 2. – Toshkent, 2021.- 6 p. ISSN 2181-9297
7. Achilova R.A. THE ROLE OF ANTONOMASIA IN THE PROSE OF ALISHER NAVOI. Scientific reports of Bukhara State University. Volume 6,- Bukhara, 2020.-188p.
8. Achilova Risolat Azamovna. (2021). SEMANTICAL FEATURES OF ANTONOMASES IN LITERATURE. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(3), 55-57. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/363>
9. Андреева Г.В. Языковое выражение контраста и его стилистические функции в художественной прозе (на материале английского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Л., 1984.
10. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования) . - М.: «Просвещение», 1990. - 300 с.
11. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов / И.В. Арнольд. - 11-е изд. - М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. - 384 с.
12. Аругюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. - М., 1988.-341 с.
13. Ахманова О.С., Гюббенет И.В. «Вертикальный контекст» как филологическая проблема. // Вопросы языкознания, 1977. - №3.

## O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI AYRIM MEVA HAMDA SABZAVOT NOMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Sh.Abdurahmanov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh.Qurbonova, NamDU  
magistranti

**Annotatsiya:** maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan bo'lgan meva va sabzavotlarning o'zbek va turk tillarida qanday nomlanishi, qaysi tildan o'zlashganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ilmiy qarashlar meva va sabzavot nomlarining qiyosiy tahlili orqali xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** onomastika, o'zbek tili, turk tili, meva, sabzavot, o'simlik nomlari, o'zlashma so'z, atama, qiyosiy tahlil

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ НЕКОТОРЫХ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ В УЗБЕКСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Ш.Абдурахманов, кандидат филологических наук, доцент  
Ш. Курбанова, магистрант НамГУ

**Аннотация:** в статье представлена информация о том, как называются фрукты и овощи из сельскохозяйственной продукции в узбекском и турецком языках, и из какого языка они заимствованы. Научные взгляды обобщены посредством сравнительного анализа названий фруктов и овощей.

**Ключевые слова:** ономастика, узбекский язык, турецкий язык, фрукт, овощ, названия растений, слово собственное, термин, сопоставительный анализ.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME FRUIT AND VEGETABLE NAMES IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES

Sh. Abdurahmanov, candidate of philological sciences, associate professor  
Sh. Qurbanova, master degree student of NamSU

**Abstract:** the article provides information about how fruits and vegetables from agricultural products are named in Uzbek and Turkish languages, and from which language they were adopted. Scientific views are summarized through a comparative analysis of fruit and vegetable names.

**Key words:** onomastics, Uzbek language, Turkish language, fruit, vegetable, plant names, proper word, term, comparative analysis

### Kirish

Jahon tilshunosligida, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham narsa-buyum, o'simlik, meva va sabzavotlarga xos onomastik birliklarni til va nutqdagi muhim nominativ, kommunikativ va uslubiy vazifalari nuqtayi nazardan tadqiqi hamisha e'tiborda bo'lgan. Bugungi kundagi globallashuv va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy o'zgarishlar, ilm-fan taraqqiyoti, fanlar integratsiyasi onomastika sohasining yangi zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlarini belgilashni, maxsus to'plab, alohida tadqiq etilmagan onomastik birliklarni o'rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda.

Chunonchi, meva va sabzavot nomlarini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, ular ijtimoiy hayotda eng ko'p qo'llanadigan nomlar hisoblanadi. Shuning uchun har bir meva yoki sabzavotning alohida o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari qanday va u boshqa tillarda qanday nom bilan atalishi kabi masalalar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Shu

sababli ushbu maqolada turk va o'zbek tillaridagi ayrim meva va sabzavot nomlarining qanday nomlanishi hamda qaysi tildan o'zlashganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

### **Adabiyotlar tahlili**

Jahon va o'zbek onomastika sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Zero, o'zbek onomastikasining antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika, kosmonimika, zoonimika yo'nalishlarida bir muncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, turkologiyada, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham o'simliklar leksikasining nomlanish xususiyatlari, tarixiy-etimologik variantlari, qo'llanishi H.Jamolxonov, U.Kisikova, L.Sh.Arslanova, M.Bimagambetova, A.K.Borovkova, B.Kulieva, A.Aygabilova, Y.Y.Savvina, A.M.Grebneva, A.Jarimbetova, R.Z.Safarov, M.I.Skvorsova, L.V.Dmitriev, D.G.Tumashev, T.Maxmutov, D.B.Ramazanov, F.S.Bayazitov, T.X.Xayrutdinov, Z.R.Sadiqov, R.N.Olmesovalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida K.Meliev mevali daraxt nomlari, A.Qurbonov boshqali o'simliklar, T.Nu'monov polizchilik terminlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan. Biroq meva va sabzavot nomlarining o'zbek va turk tillaridagi qiyosiy tahlili bo'yicha tadqiqotlar qilinmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada o'zbek va turk tillaridagi ayrim meva hamda sabzavot nomlarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida nominatsion-motivatsion tahlil, lingvistik tavsiflash, lug'aviy-ma'noviy tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, etimologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

### **Tahlillar va natijalar**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining, ya'ni meva va sabzavotlarning o'zbek va turk tillarida nomlanishi turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan: Turk tilida mevalar – meyveler, sabzavotlar esa sebzeler deb nomlanadi. Anor deb nomlanishi o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan, Anordoshlarga mansub kichikroq daraxt, shu daraxtning ichi qizil donachalar bilan to'lgan yumaloq mevasi. Achchiq anor, chuchuk anor. "...har joy - har joyda ko'milgan anor tuplari do'mbayib yotibdi". (S.Zunnunova "Olov") Turk tiliga ham fors tilidan o'zlashgan bo'lib turk tilida "Nar" deb nomlangan. Farsça: Nergillerden, yaprakları karşılıklı, çiçekleri büyük, koyu kırmızı renkte, küçük bir ağaç. (Zafarondan kichik daraxt, barglari qarama-qarshi, gullari katta, to'q qizil rangda, kichik bir daraxt.) Shaftoli o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan, bu nom tojik tilida shaftolu tovush tarkibiga ega bo'lib, o'zbek tilida u tovushi i tovushiga almashtirilgan, o'zbek so'zlashuv tilida shoptoli shaklida: a tovushini o tovushiga, f tovushini p tovushiga almashtirib ham aytiladi. Bu ot tarkibidagi olu qismi daraxt mevasi ma'nosini anglatishi aniq. Shaftoli nomi janubda o'sadigan, pushti gulli, uzunchoq bargli daraxtning yirik, yumshoq etli mevasi ma'nosini anglatadi.<sup>103</sup> Turk tilida esa "Sheftali" nomi bilan ataladi. Turk tiliga ham fors tilidan o'zlashgan. Farsça: Bu ağaçın tatlı ve sulu meyvesi. Gülgillerden, ılıman bölgelerde yetişen, 8-10 m yükseklikte, pembe renkli bir ağaç. (Bu daraxtning shirin va suvli mevasi. Mo'tadil mintaqalarda o'sadigan, 8-10 m balandlikda, gullari pushti rangli daraxt.) Olma Qadimgi turkiy tildagi ol – "olmoq" fe'lidan –ma qo'shimchasi bilan tuzilgan so'z. Qadimgi manbalarda olmila shakli ham uchraydi. Ma'nosi Atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik mevali daraxt. "Bu olmalar hosilga kiringach, besh-olti yil o'tishi kerak". (S.Zunnunova., "Olov"). Bu meva Turk tilida "Elma" nomi bilan ataladi. Eski türkçe Gülgillerden çiçekleri pembe veya beyaz bir

<sup>103</sup> Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati" 3-jild (Forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). Toshkent. "Universitet", 2009, 262-b.

ağaç. Bu ağaçın kabuğu parlak sert kırmızı sarı ve yeşil renkte kokusu hoş tadı ekşi veya tatlı dokusu gevrek ufak çekirdekli meyvesi. (Atirguldoshlardan, gullari pushti yoki oq rangdagi bir daraxt. Bu daraxtning po'stlog'i yaltiroq, qattiq, qizil va yashil rangda, xushbo'y hidli, ta'mi nordon yoki shirin, tuzilishi tiniq, mevasi.) Gilos ruscha "черешня" deb ataladigan mevaning nomi bo'lib, gilas, gelos, o'zbek tilida esa gilos tarzida yozilgan. Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi shakl forscha shaklga to'g'ri keladi, faqat ikkinchi bo'g'indagi a tovushi o(a) tovushiga almashtirilgan<sup>104</sup>. Turk tilida esa bu meva "Kiraz" deb ataladi. Turk tiliga yunon tilidan o'zlashgan. Yunanca: Gülgillerden bir meyve ağacı. "Tabaktan ikişer kiraz daha alıyoruz"- Y.Z.Ortaç. (Biz tovoqdan yana ikkita gilos olamiz) Olcha mevasi nomi olu+ =cha o'zbek tilida olxo'ring kichigi va olcha deb nomlanadi. Turk tilida esa olcha "vişne" deb nomlanadi va turk tiliga Slavca,ya'ni slavyan tilidan o'zlashgan. Slavca 1.Gulgillerden, dalları kırmızımtırak, çiçekleri beyaz renkte, kiraza benzer bir ağaç. 2. Bu ağaçın daha çok reçel ve şerbet yapılan, kırmızı renkte ekşimtırak meyvesi. (1.Qizil shoxlari va gilosga o'xshash,oq gullari bo'lgan atirgul daraxti. 2.Odatda murabbo va sharbat tayyorlanadigan bu daraxtning qizil, nordon mevasi gilosdir (olcha).) Qulupnay bu nom o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan klubnika<klubok – kesak, bo'lak; yumaloq narsa;yertut. Ra'noguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi; rezavor ekin. "Qulupnay mashhur va keng tarqalgan o'simlikdir". (K. Maxmudov. "O'zbek tansiq taomlari") Turk tilida esa bu meva "çilek" deb ataladi. Turk tilida bu nom o'zlashma hisoblanmaydi. Gulgillerden, sapları sürüngen, çiçekleri beyaz bir bitki. Bu bitkinin güzel kokulu, pembe, kırmızı renkli meyvesi. ( Atirguldoshlardan, o'rmalovchi poyali, oq gulli o'simlik. Bu o'simlikning xushbo'y, pushti, qizil rangli mevasi.) Malina o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan, tutsimon meva, malina = xo'jag'at deb ham ataladi. <sup>105</sup> Turk tilida esa "ahududu" nomi bilan ataladi. Gulgillerden böğürtleni andıran, çalı görünümünde, dikenli bir bitki. Bu bitkinin duta benzeyen, kırmızı renkli, sulu ve kokulu yemişi, ağaç çileği,frambuaz. (Qoraqarag'ayga o'xshagan, tikanli butaga o'xshash o'simlik. Bu o'simlikning tutga o'xshagan, qizil rangli, suvli va xushbo'y mevasi qulupnayga o'xshash malina) Banan yun.ispan tilidan olingan bu nom, banano – banana < a. – barmoq. Banansimonlar oilasiga mansub ko'p yillik tropik o'simlik va uning mevasi. Turk tilida ushbu meva "muz" deb ataladi. Bu mevaning nomi turk tiliga arab tilidan o'zlashgan. Arabcha: 1. Muzgillerden, sıcak bölgelerde yetişen bir çenekli, çok yıllık bir bitki. 2. Bu bitkinin özgülü hoş kokulu, tatlı, kalın kabuklu, uzun meyvesi.(Banansimonlardan, issiq hududlarda o'sadigan bir pallali, ko'p yillik o'simlik. Bu o'simlikning o'ziga xos xushbo'y,shirin, qalin po'stloqli, uzun mevasi.) Apelsin, po'rtaxol (sitrus sinensis – gollandcha apelsien – aynan xitoy olmasi). Turk tilida "Portakal" deb nomlanadi. Italyanca, Turunçgillerden, Akdeniz ülkelerinde yetişen, yapraklari sert bir ağaç. Bu ağaçın turuncu renkli, yuvarlak ve kabuğu güzel kokulu meyvesi. (O'rta yer dengizi mamlakatlarida o'sadigan, qattiq barglari bo'lgan sitrus daraxt. Bu daraxtning mevasi to'q sariq rangli, yumaloq va xushbo'y qobiqqa ega.) Mandarin Ispan tildan o'zbek tiliga o'zlashgan. Rutadoshlar oilasining sitruslar turkumiga mansub doim yashil daraxtlar va butalar turi, mevali ekin. Turk tilida "Mandalina" nomi bilan ataladi. Turk tiliga Fransuz tilidan o'zlashgan. Fransuzcha: Turunçgillerden, ılıman iklimlerde yetişen ve portakala çok benzeyen bir ağaç. Bu ağaçın turuncu

<sup>104</sup> Ш. Раҳматуллаев "Ўзбек тилининг этимологик луғати" 3-жилд(Форсча ва тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). Тошкент. "Университет",2009,63-б.

<sup>105</sup> "Ўзбек тилининг изоҳли луғати" А.Мадалиев таҳрири остида. Тошкент. "Ўз.мил.энциклопедияси" Дав.ил.наш,2006-2008, 533-б.



renkli, tatlı, kokulu, lezzetli meyvəsi (Sitrus mevalardan boʻlib, moʻtadil iqlim sharoitida oʻsadigan va apelsinga juda oʻxshaydigan daraxt. Bu daraxtning toʻq sariq rangli, shirin, xushboʻy mazali mevasi.) Nok mevasining nomlanishi tilimizga fors tilidan oʻzlashgan. Uzoq yashovchan, mevasi turli rang, shakl va vaznda boʻlgan yogʻochi qattiq daraxt. Turk tilida bu meva “Armut” deb nomlanadi. Ushbu tilga ham fors tilidan oʻzlashgan. Farsça: Gülgillerden, çiçekleri beyaz, Türkiyenin her yerinde yetişen bir ağaç. Bu ağaçın tatlı ve sulu, yumuşak, ufak çekirdekli meyvəsi. (Gullari oq rangda, Turkiyaning hamma joyida oʻsadigan bir daraxt. Bu daraxtning shirin va suvli, yumshoq, oʻrtasida kichik aylanasi bor meva.) Tarvuz nomi oʻzbek tiliga rus tilidan oʻzlashgan арбуз – арбузный. “Poyezd bilan baravar gʻarbga ketayotgan quyoshning safari tezlashdi va u kesilgan qizil tarvuz pallasidek, oʻrmon daraxtlariga ilinib qoldi”<sup>106</sup>. Turk tilida tarvuz “Karpuz” deb ataladi va bu nom oʻzlashmagan shunday nom berishgan. Kabakgillerden sürüngen gövdeli parçalı sert yapraklı sarı çiçekler açan bir bitki. Bu bitkinin dışı yeşil kabuklu içi kırmızı ve sulu iri meyvəsi. (Qovoqdoshlardan, oʻrmalovchi poyali, boʻlaklangan qattiq barglari va sariq gullari boʻlgan oʻsimlik. Bu oʻsimlik tashqi tomondan yashil teriga ega, ichi qizil va suvli, katta meva.) “İstedigim zaman da bu karpuzlardan birini önüme çekip keser kütür kütür serin serin yerim”. A.H.Çelebi. Qovun – qovoqgullilar oilasiga mansub, hosili yirik, shirin va etli, ichi gʻovak bir yillik poliz oʻsimligi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu ot asli qagʻun tarzida talaffuz qilingan.<sup>107</sup> Turk tilida esa bu meva “Kavun” deb ataladi. Eski turkçe: Kabakgillerden, sürüngen gövdeli, iri meyveli bir bitki. Bu bitkinin genellikle güzel kokulu, sulu ve etli meyvəsi. (Qovoqdoshlardan, sudraluvchi tanasi mavjud katta meva. Bu oʻsimlikning mevasi odatda xushboʻy va goʻshtli.) Oʻrik – raʼnoguldoshlardan, mevali oʻsimlik. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon boʻlib, oq, sariq, qizgʻish va danagidan ajraydigan va ajramaydigan turlari mavjud.<sup>108</sup> Turk tilida “Kayısı” deb nomlanadi. Gülgillerden, sıcak veya ılık iklimlerde yetişen, çiçekleri pembemsi beyaz bir ağaç. Bu ağaçın açık turuncu renkte, eti sulu güzel kokulu, tek ve sert çekirdekli tatlı meyvəsi. (Issiq yoki moʻtadil iqlim sharoitida oʻsadigan pushti – oq gullari boʻlgan daraxt. Bu daraxtning och toʻq sariq rangda, goʻshti suvli, xushboʻy, bitta qattiq danakli, shirin mevasi.) Sabzavotlarga misollar keltiradigan boʻlsak, sabzavotlar orasida ham nomlari oʻzlashgan va boshqacha nom bilan ataluvchilarini koʻrishimiz mumkin. Masalan: Baqlajon lotincha – baqlajon. Koʻp yillik, oʻt oʻsimlik. Turk tilida “Patlijan” nomi bilan ataladi, arab tilidan oʻzlashgan. Patlicangillerden, kalın saplı, uzunca yapraklı otsu bitki. Bu bitkinin sebze olarak kullanılan, mor renkli, uzunca veya toparlak ürünü. (Baqlajondoshlar, barglari uzun, poyasi qalin boʻlgan oʻsimlik. Bu oʻsimlik sabzavot sifatida qoʻllaniladi, binafsha rangli, choʻzilgan yoki yumaloq maxsulot.) Pomidor italyancha pomodoro – oltin olma. Ituzumdoshlar oilasiga mansub, sabzavot oʻsimligi va shu oʻsimlikning olmasimon, yumaloq, qizil, baʼzan sariq rangli mevasi. Turk tilida “domates” deb nomlanadi ushbu tilga yunon tilidan oʻzlashgan hisoblanadi. Yunanca: Patlicangillerden, yaprakları tüylü, çiçekleri salkım durumunda, vitamince zengin bir bitki. Bu bitkinin yenilen kırmızı veya yeşil ürünü<sup>109</sup>. (Bargi tukli, gullari toʻda boʻlib, vitaminlarga boy oʻsimlik hisoblanadi. Bu oʻsimlikning qutulish mumkin boʻlgan qizil yoki yashil maxsuloti.) Karam oʻzbek tilida [a.<1 zf.^karam ] Poliz ekini,

<sup>106</sup> Раҳим И. Чин муҳаббат. 1960, 19-б.

<sup>107</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати” А.Мадалиев таҳрири остида. Тошкент. “Ўз.мил.энциклопедияси”

Дав.ил.наш 5-жилд.

<sup>108</sup> “Култура абрикоса в узбекистане”, Т.,2002

<sup>109</sup> “Turkish dictionary (Türkçe sözlük)” 2012

rezavorning bir turi va shu ekinning barglari o'ramidan hosil bo'lgan boshi, hosili. Turk tilida ushbu sabzavot "Lahana" nomi bilan nomlanadi. Bu tilga yunon tilidan o'zlashgan, Yeni Yunanca: Turpgillerden, geniş ve kalınca kat kat yaprakları olan, güz ve kış sebzesi olarak yetiştirilen ve birçok türü olan bitki, kelem. (Turpgullardan, keng va qalin qatlamli barglari ko'p turli o'simlik, kuzgi va qishki sabzavot sifatida o'stiriladi va ko'plab turlarga ega. Kartoshka ruscha.<kartofla<nem. Kartoffel <ital.tartufolo-ildizmevali qo'ziqorin. Ildizmevali, bir yillik sabzavot o'simliklaridan biri va uning ildizida yetishadigan, ovqat uchun ishlatiladigan hosili. Turk tiliga bu sabzavot italyan tilidan o'zlashgan bo'lib, "patates" deb ataladi. Patlicangillerden, yaprakları ve sürgünleri acı bir bitki. Bu bitkinin toprak altinda oluşan, nişastası çok, yenebilen yumruları. (Barglari va kurtaklari bo'lgan achchiq bir o'simlik. Bu o'simlikning yer ostida hosil bo'lgan ko'p kraxmalli, ildizmevalari.) Piyoz fors tilidan o'zlashgan. Barglari naychasimon, uzun bo'lib o'sadigan, ildiz bo'g'zida yupqa qat-qat po'stlardan yumaloq tugunak xosil qiladigan, tugunagi va yosh bargi ovqatga ishlatiladigan ikki yillik va ko'p yillik sabzavot o'simligi. Bu sabzavot turk tilida "Soğan" deb nomlanadi. Sanskritçe: Zambakgillerden, yemeklere tat vermek için, yumrusu ve yeşil yaprakları kullanılan, güzel, kokulu bitki. Çiğdem, lale, zambak, sarımsak vb. bitkilerin toprak altındaki yumru kökü. (1.Ovqatlarga ta'm berish uchun, bo'lak va yashil barglari ishlatiladigan xushbo'y hidli bir o'simlik. 2. Krokus, lola, nilufar, sarimsoq vb. o'simliklarning tuproq ostidagi ildizi.)<sup>110</sup> Sabzi bu ot tojikcha sabz sifatiga (k.)-u` qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan<sup>111</sup>. Soyabonguldoshlar oilasiga mansub, ikki qisman bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, sabzavot ekini. Turk tilida sabzi "havuç" deb nomlanadi va bu nom fors tilidan o'zlashgan. Maydanozgillerden, koni biçimindeki etli kökü için sebze olarak yetiştirilen, iki yıllık otsu bir kültür bitkisi yeregeçen. (Soyabonguldoshlardan, Konussimon go'shtli ildizi uchun sabzavot sifatida yetishtiriladigan ikki yillik o't o'simligi.) Makkajo'xori, ya'ni dumbul bu sifat tojik tiliga shu shaklidan dunbul shakliga havola bilan kiritilgan. Ma'nosi: "pishgan", "yetilgan" deb izohlangan. "Yaramas, bizni haqorat qildi! "Dumbulsan!" dedi". (Mirmuhsin. "Me'mor"). Turk tilida bu sabzavot "Mısır" deb nomlanadi. Arab tilidan o'zlashgan. Arabça: Buğdaygillerden, gövdesi kalın, yaprakları büyük, boyu yaklaşık 2 m olabilen erkek çiçekleri tepede salkım durumunda, dişi çiçekleri yaprakla gövde arasında koçan biçiminde olan bir kültür bitkisi. Bu bitkinin kocan üzerindeki taneli ürünü. (Poyasi qalin,bargi katta,uzunligi 2m ga yaqin, erkak gullari tepada to'da bo'lib, barg bilan poya oralig'ida novdasimon urg'ochi gullari bo'lgan madaniy o'simlik.)

### Xulosa

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, meva va sabzavot nomlari ijtimoiy ehtiyojlarga ko'ra eng faol qo'llanuvchi nomlar sifatida ularni keng miqyosda o'rganish amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ularni qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillardagi variantlari bilan qiyoslab o'rganishning nazariy va amaliy jihatdan ahamiyati katta.

### Adabiyotlar

1. Abdurahmanov S.A, Askarova M.B. HISTORICAL ANTHROPONYMIS OF THE UZBEK LANGUAGE (Based on Salohiddin Tashkendi's "Temurnoma")ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91), 440-443.

<sup>110</sup> "Türkçe sözlük" ilova.2015 versiya.

<sup>111</sup>" Ўзбек тилининг изоҳли лугати" 1-2-3-4-жилдлар. Д.И.Наш.2006

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LfdLl4gAAAAJ&citation\\_for\\_view=LfdLl4gAAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LfdLl4gAAAAJ&citation_for_view=LfdLl4gAAAAJ:u-x6o8ySG0sC)

2. Abdurahmonov S.A. THE ROLE OF GENDER FACTORS IN FORMATION OF PERSONALITY SPEECH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and ...182-186, 2019.
3. “Култура абрикоса в узбекистане”, Т.,2002
4. Rahmatullayev Sh.“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” 3-jild(Forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). Toshkent, “Universitet”,2009.
5. И.Раҳим “Чин муҳаббат”. Тошкент,1960
6. “Turkish dictionary (Türkçe sözlük)” 2012.
7. “Türkçe sözlük” ilova.2015 versiya.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент. “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.

UDC: 801.82

## FORMATION OF ZOOMORPHIC REPRESENTATIONS AND SPECIFICS OF THEIR DEVELOPMENT IN ANCIENT CULTURE

Norkuzieva Dildora Sheralievna

PhD student of Samarkand State University

Email: [norkuziyevadildor@gmail.com](mailto:norkuziyevadildor@gmail.com)

**Abstract.** *Zoomorphic images played a huge role in the culture of ancient, archaic societies. As human consciousness changed, so did the perception of animals, their meaning and place in culture. To date, there are many different theories about the origins of the formation and subsequent development of animal images, as well as their perception in the minds of people in different periods of history. In this article, the author aims to show to what extent the primitive perceptions of animals were reflected in their subsequent development and continued to be preserved in the late history of ancient times.*

**Keywords:** *zoomorphic images, primitive culture, ancient history, ancient times.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ЗООМОРФНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ И СПЕЦИФИКА ИХ РАЗВИТИЯ В ДРЕВНЕЙ КУЛЬТУРЕ

*Зооморфные образы играли огромную роль в культуре древних, архаичных обществ. По мере изменения сознания человека менялись и представления о животных, их значение и место в культуре. На сегодняшний день существует множество разнообразных теорий об истоках формирования и последующем развитии образов животных, а также их восприятия в сознании людей в разные периоды истории. В данной статье автор ставит целью показать, до какой степени первобытные представления о животном мире отразились на их последующем развитии и продолжали сохраняться в поздней истории древние времена.*

**Ключевые слова:** *зооморфные образы, первобытная культура, античной истории, древние времена.*

## ANTIK MADANIYATDA ZOOMORFIZMLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

*Annotatsiya.* Ma'lumki zoomorfik tasvirlar antik davr madaniyatida muhim rol o'ynagan. Insonlar ongining o'zgarishi bilan hayvonlar haqidagi tasavvurlari, qarashlari ularning madaniyatida ham turlicha o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bugungi kunga kelib, hayvon tasvirlarining paydo bo'lishi va keyingi rivojlanishini kelib chiqishi, shuningdek, tarixning turli davrlarida odamlar ongida uning idrok etilishi haqida turli xil nazariyalar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu maqolada hayvonlar haqidagi ibtidoiy tasavvurlar, ularning keyingi rivojlanishida qay darajada o'z aksini topganligi va antik davrning so'nggi tarixida ham saqlanib qolinganligi bilan bog'liq ma'lumotlar o'z aksini topgan.

*Kalit so'zlar.* zoomorf obrazlar, ibtidoiy madaniyat, qadimgi tarix, antik davr.

### Introduction

Historically, zoomorphism was closely associated with religious cults, where it acted as a link between man and the forces of nature. This phenomenon arose in the process of constant social and cultural practices, where real animals gradually began to transform into zoomorphic images of the "natural" world, which was endowed by man with special meanings projected by his own feelings and ideas. One of the most important processes of such formation is the process of representation, where direct perception is replaced by the received visual and psycho-emotional experience. Shkuratov describes this as "the transition of natural sensuality into cultural sensuality and the transition of impressions and experiences into images, symbols, allegories, signs" [12: 16]. It is worth noting that the representation of animals takes place on the basis of embedded socio-cultural knowledge and beliefs, that is, zoomorphic representations are not only images of the animal world, but also and rituals, actions, the significance of which is extremely important for understanding zoomorphic images and their meanings, which have been laid down by society for many centuries.

### Analysis of literature on the topic

In recent years, a number of special studies on the study of zoonym and zoomorphism from a scientific point of view have been carried out in the world. Considerable work has been done on the topic in world and Russian linguistics. In particular, foreign scientists A. Pamies, E.Dalmau, Juan Anuel, F.Guketlova, S.G.Vatletsov, V.Kamenskaya, T.T.Ogdonova, K.Asabin, V.Solntseva, A.A.Kipriyanova and F.Blar combine zoonym and zoomorphism studied as synonyms and metaphorical as meaning-generating language units. Local scientists O.Latipov, B. Zaripov, G.Hakimova is english structural-semantic phraseological units of the zoonym component of the language determined the aspect, etc.

**The main part.** The endowment of animal qualities served man as the principles of cognition of the world and self-knowledge of man at the stages of development of society. Images of zoomorphic creatures, a person having features similar to those of animals or wearing a beast mask were extremely common and emphasized the close connection of man with the natural world. This phenomenon played a significant role in the cult of the mother goddess, an animal-like patroness [10: 77]. Thus, the image of a cow-woman was attributed to her, and the image of the central deity was the image of a lion or bull. The central theme of the research is

Zoomorphism, the problem of corporeality and morality in the context of modernity - the understanding of the animal nature of man, the personification of the image of the beast as a model of morality based on the principles of bioethics and posthumanism, which reflect the tortuosity of the ideas of anthropocentrism, speaking about the unity of being, where man takes his place in a complex, interconnected and self-organizing system.

Zoomorphic images were used by people in different cultures for various purposes: as objects of cult, worship, magical rituals, metaphorical expression of divine and demonic forces, as characters of fairy tales, fables, etc. The strong rooting of animal categories in collective representations is caused, firstly, by the constant physical presence of animals in human life from the deepest antiquity, and secondly, by their certain behavioral similarity to humans, due to which animals very early began to be used by humans in metaphorical and descriptive, and later in allegorical language. Based on the analysis of ancient images and mythological constructions, scientists reconstruct the process of endowing animals with symbolic meaning.

**Material and methods.** The data obtained demonstrate that from the earliest stages of history animals were part of various cult practices: ritual hunting actions, funeral rites, protection and patronage of the tribe as its totemic progenitors. The depiction of humans with animal features or wearing animal masks was also widespread and emphasized the close connection between humans and the natural world. The cult of animals also played a significant role in representations of the mother goddess in different cultures.

For example, there were representations of it in the image of a cow, and the main deity in the image of a bull or a lion. The process of transition from the image of zoomorphic deities to anthropomorphic deities is explained by some researchers as the process of domestication and, thus, the victory of man over nature. And as a result of this victory man became the Shepherd for both animals, which were part of the livestock, and for his household, i.e. his own kind. The same phenomenon explains the reverse process of depicting the king as animal-like, as the “chief” animal in the herd [11: 8]. Thus, the king-shepherd associated himself with a totem animal - the patron of the family. Widespread since the primitive era, scenes of hunting and killing animals can also be interpreted as a manifestation of man’s victory in his confrontation with the physically strongest animal [3: 74]. This may explain the reason why the ruler of Egypt had his own ritual herd intended exclusively for sacrifices.

As, for example, at one of the pre-Dynastic kings in Hierakonpolis, in whose burial complex, in the grave pits around the open courtyard for sacrifices, were found about 37 thousand remains of different kinds of animals, most of which belonged to river dwellers or wild mammals of the desert [12: 72]. According to the archeologist Rene Friedman this discovery suggests that the Egyptians by such burials wanted to demonstrate the power and authority over the unreasonable chaotic world and, consequently, the victory of man over nature and the elements. The formation and development of zoomorphic representations, as a rule, is similar for primitive cultures of different peoples. However, at a certain stage there are significant differences in the perception of the animal world.

In the course of historical development, the depiction of scenes of hunting and killing animals acquires a new semantic connotation. In the Egyptians it becomes a symbol of power and victory of the king or a major official over enemies, and in the neighboring Greek peoples means victory over bloodthirsty nature and subduing the wild beast in themselves [1: 16]. At the same time, ancient Greek philosophers could recognize the identity of human and animal essence, but

the latter were denied reasonableness. Animals were already symbols of immoderate and unreasonable nature, which should be subdued through education and training. The ancient Greeks inhabited the world and hybrid creatures: satyrs, centaurs, adding animal features to human figures symbolized their inferior nature, unbridled temper and lack of self-control. The inner opposition of low, wild and high, moderate beginnings was a reflection of the cosmic struggle of chaos, darkness and reasonable cosmos [4: 81]. That is why the famous image of Orpheus with the animals around him, whom he charmed with the sounds of music, quickly became an allegory of peace and tranquility, when wild nature was pacified and came into balance under the influence of musical harmony [2: 81].

The stability of religious beliefs, the constancy of cult practices reflected the worldview of the Egyptians, formed by various factors, primarily favorable climatic conditions and the relatively safe territorial location of Egypt. In centralized Egypt, due to the highly developed veneration of the supreme deity, while preserving the importance of local cults, conditions were created for the development of syncretic ideas that the gods could take various forms, one of which was representatives of the animal world. The gods could to inhabit animals, their soul – Ba – had a zoomorphic appearance, and, finally, specific animals with certain physical characteristics could be a living incarnation of God on earth [3].

Ancient people very early began to perceive animals in the context of their inherent qualities, which explains such a spread of animalistic metaphors in the subsequent tradition. Images of animals were often used to describe the emotional state of a person, his character traits, physical characteristics. And if the Greeks traced a stable connection between the animal and the unreasonable, the Egyptians, on the contrary, the images of animalistic traits testify to the presence of positive and, moreover, divine qualities. Initially, the divinity of certain animals in Egypt was linked to a tradition of localized, still “pre-dynastic” nom deities, often of totemic origin [7: 13]. Throughout Egyptian history, the differentiation of the names was preserved, which ensured the preservation of their cult. According to the fair remark of D. Meeks, the presence of only “local” animals in the pantheon of gods, i.e. those that lived in Egypt since the pre-dynastic time, is also connected with this [5: 8]. In the New Kingdom era, despite the appearance and spread in pictorial motifs and plastics of such animals as the horse and rooster, these animals do not become part of the zoomorphic pantheon. Throughout Egyptian history, the gods could only take the forms of those animals that were associated with the original totemic tradition. Unlike other civilizations, which were much less fortunate in this respect, the Egyptians began to perceive safe and stable conditions of their existence as a given of Nature itself, of the world order, which was provided by the deified king, who performed the necessary rituals to maintain it [6: 8]. Thus, zoomorphic representations of gods were also part of the archaic concept of the universe, where the belief in totemic ancestors embodied the connection of the clan community with the territory.

**Results.** The origins of such an attitude to animals and the veneration of zoomorphic deities, which did not lose its power throughout the long history of the state, went back to the ideas about the specific connection of animals with the god and the world of the divine. From the myth of the extermination of humans at the beginning of time, when humans and gods lived together, we learn that humans committed a terrible sin by rebelling against the supreme ruler, the god Ra [12: 73].

As a result, the gods left the earthly world. The reason why they more willingly chose the form of an animal to reveal themselves to the world lies in the fact that, unlike humans, animals are innocent of committing a sin against the god and, therefore, more worthy of being a living symbol of him. And the aspect of divine nature in mixed anthropo- and zoomorphic images was conveyed precisely through animal features. Moreover, in later times the features of different animals in one god began to combine bizarrely: for example, Sebek, having the body of a crocodile, could be depicted, for example, with the head of a falcon, acting in this hypostasis as a lord of time. Thus, the chosen type of animal in conveying the image of the gods made visible one of the aspects of his great divine power, and sacralization of the animals themselves was aimed at bringing the gods closer to people.

### Conclusions

The high role of zoomorphic images can be traced throughout the history of ancient Egyptian civilization. The special attitude to animals continued to persist into the Christian era. In the stories of saints and martyrs, God's will often revealed itself through animals, usually wild ones, which could spare the martyr in the arena, begin to caress the saint's feet, etc. At the same time, it is worth noting the ineradicable positive attitude to zoomorphic images and the notion that animals are suitable for conveying divine images, which contributed to the appearance of iconography of saints and angels with animal heads, as well as to the unfolded symbolism, where animalistic characters turned into signs associated not with the real world, but with the spiritual world.

### References

1. Antanaitis I.R. Interpreting the Meaning of East Baltic Neolithic Symbols // Cambridge Archeological Journal. 1997. Vol. 7 (1).
2. Before the pyramids. The origins of Egyptian civilization / Ed. by E. Teeter. Chicago: The Oriental Institute, 2011. P. 79.
3. Соколова, З.П. Культы животных в религиях / З.П. Соколова. – М.: Наука, 1972. – 272 с.
4. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа // Большая онлайн библиотека e-Reading. 2016).
5. Муратова К.М. Средневековый бестиарий. М.: Искусство, 1982. С. 8.
6. Meeks D. Corps des Dieux // Le temps de la Reflection. 1986. Vol. 7. P. 173.
7. Norkuziyeva D.Sh. Study of Ethnolinguistic-Cultural Features of Zoomorphisms in Scientific Researches. Texas Journal of Philology, Culture and History. 2022. №12. Pp.12–14.
8. Norkuzieva D.Sh. (2021). Comparative Analysis of “Adverb+Verb” Word Combinations in Uzbek and German Languages. *American Journal of Social and Humanitarian Research*. Vol. 2 No.9. pp.30-35.
9. Norkuziyeva D.Sh. O'zbek va nemis tillarida ravishning tuzilishidagi tafovut va o'xshashliklar. Science and Education. 2021. №4. 604-609-b.
10. Rak I.V. Myths of Ancient Egypt. SPb.: “Petro-RIF”, 1993. P. 76.
11. Tokarev S.A. Myths of the peoples of the world. М.: Soviet Encyclopedia, 1991.
12. Сафонова Н.В. Формирование зооморфных представлений и специфика их развития в древнеегипетской культуре. Вестник РГГУ. Серия: Литературоведение. Языкознание. Культурология, 2017. 169-174.
13. Tokarev S.A. Myths of the peoples of the world. 2017. P.34.

13.00.00

**PEDAGOGIKA FANLARI**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PEDAGOGICAL SCIENCES**

**BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARNI O'QUV AMALIYOTI JARAYONIDA  
PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH YO'LLARI**

Isabayeva Mashxura Muxiddinovna

QDPI biologiya kafedrası dotsenti,

Махкамов Хамидулло Qaxramonovich

Namangan Davlat Universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: [qdpimahkamov1989@gmail.com](mailto:qdpimahkamov1989@gmail.com)

***Annotasiya.** Pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini asoslash orqali ularni metodik tayyorlashning tarkibiy va funksional modelini takkomillashtirishning mazmuni va darajalarini aniqlash ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini beradi. Bizning tadqiqotimizda bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy - pedagogik faoliyatining innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish, hissiy-qadriyatli munosabati orqali ijobiy natijaga erishishi faoliyat turi sifatida ta'riflanadi.*

***Kalit so'zlar.** Bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorlash, ta'lim konsepsiyasi, integrativ bilimlar, innovatsion metodlar, ta'limiy vositalar, talabalarning kasbiy bilish faoliyati.*

**ПУТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИТ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УЧЕБНОЙ ПРАКТИКИ**

Исабаева Машкура Мухиддиновна

доцент кафедры биологии КГПИ,

Махкамов Хамидулло Кахараманович

Базовый докторант 1 ступени Наманганского государственного университета

E-mail: [qdpimahkamov1989@gmail.com](mailto:qdpimahkamov1989@gmail.com)

***Аннотация:** Определение содержания и уровней совершенствования структурно-функциональной модели методической подготовки путем обоснования основных направлений подготовки студентов педагогических вузов к профессиональной деятельности обеспечивает педагогические возможности подготовки их к профессионально-педагогической деятельности. В нашем исследовании совершенствование инновационных технологий профессионально-педагогической деятельности будущих учителей информатики, достижение положительного результата за счет их эмоционально-ценностного отношения описывается как вид деятельности.*

***Ключевые слова:** Методическая подготовка будущих учителей, образовательная концепция, интегративное знание, инновационные методы, средства обучения, профессионально-познавательная деятельность студентов.*





## WAYS OF PREPARING FUTURE IT TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL PRACTICE

Isabayeva Mashkura Mukhiddinovna

Associate Professor of Biology Department of KSPI,

Makhamov Khamidullo Kaharamanovich

PhD Student of Namangan State University

E-mail: [qdpimahkamov1989@gmail.com](mailto:qdpimahkamov1989@gmail.com)

**Abstract:** *Determining the content and levels of improving the structural and functional model of methodical training by justifying the main directions of preparing students of pedagogical higher educational institutions for professional activity provides pedagogical opportunities for preparing them for professional and pedagogical activity. In our study, the improvement of innovative technologies of the professional and pedagogical activities of future informatics teachers, achieving a positive result through their emotional and valuable attitude is described as a type of activity.*

**Key words:** *Methodical training of future teachers, educational concept, integrative knowledge, innovative methods, educational tools, professional knowledge activities of students.*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimini optimallashtirish, jahon andozalari asosida kasbga tayyorlashning takomillashgan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumadan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida tarbiya va o'qitish usullari, axborot - kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash<sup>[112]</sup>, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish maqsadida davlat pedagogika universitetining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini tashkil etish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida nazariy bilimlarni amaliyot bilan birgalikda o'zlashtirish maqsadida amaliyot ob'ekti sifatida akademik litsey, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari belgilab olingan.

### Adabiyotlar tahlili

1. Bugungi kunda oliy ta'lim muassalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularda kasbga oid pedagogik bilim, ko'nikmalarni shakillantirishga asoslangan muommolar yechimini topish va shu bilan birga raqobatbardosh

kadr tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak informatika o'qituvchilarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish, nazariy va amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirishda o'quv amaliyot mazmunini takomillashtirish kabi muammolarni echish R.X.Djuraev[2], N.A.Muslimov[3], Q.T.Olimov[4], SH.E Qurbonov, E Seytxalilov[5], J.E. Usarov, G.I. Muxamedov[6], B.S. Abdullaeva, M.H.Lutfillaev, N.I.Taylaqov[7] va boshqalarning, ta'limda pedagogik bilimlar va texnologiyalar, ularning ilmiy asoslari, olimlardan A.Azixodjaeva[8], A.R Xodjabaev[9] va boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llari muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O'zbekistonda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv amaliyotlarni tashkil etish va kutilayotgan natijalari tahlili qilindi. Tahlil natijalari pedagogik kvalimetriyaga asoslanib baholanishi va metodik tavsiyalar berish bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

### **Tahlillar va natijalar**

O'qituvchi shaxsi, uning kasbiy malakasi, ijtimoiy yetukligi va ma'naviy boyligi bugungi kunda har qachongidan ham o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash, o'quvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishning eng muhim shartidir. Bo'lajak o'qituvchining ta'lim sifati, uning kasbiy kompetensiyasining shakllanish darajasi bizning davrimizda o'qituvchilarning yangi avlodini tayyorlash jarayonining holati, uning zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligining eng muhim mezonidir. Ta'lim mazmuni va texnologiyalarini nafaqat doimiy va tizimli ravishda yangilab borish, balki bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va pedagogik amaliyoti uchun yangi muhitni maqsadli ravishda shakllantirish kerak, bu ularning umumiy madaniy, umumiy madaniyatini rivojlantirishga imkon beradi. Oliy ta'limda o'quv amaliyotning asosiy maqsadi bo'lg'usi mutaxassislarni tashkilotlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, oromgohlarda o'quv, tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlari rivojlantirib boriladi. Talabalar bilimlarini amaliyotda qo'llanishi, hayotga tatbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar ularning olgan bilimlari qat'iy ishonchga aylanadi. Pedagogik amaliyot shunday tuzilishi kerakki, talaba faoliyatdagi tegishli kompetensiyalarni o'zlashtiribgina qolmay, balki ularni tashxislash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Integratsiyalashgan vazifalar tizimini va ularning bajarilishini baholash tizimini ishlab chiqish amaliyot dasturini ishlab chiqishda asosiy vazifalardan biridir. Amaliyot dasturini ishlab chiqish uchun asos bo'lgan kompetensiya yondashuvi kasbiy amaliy mashg'ulotlarning yangi sifatiga erishishga, real hayot sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini baholashga qaratilgan. O'qituvchilik amaliyoti jarayonida talaba tegishli kasbiy faoliyat (ta'lim, ijtimoiy soha) bo'yicha kasbiy pedagogik vazifalarni hal qiladi. Amaliyot mazmuni bo'lajak o'qituvchining asosiy maktabda o'quv jarayonida kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil loyihalash va amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan vazifalarning o'zgarmas tizimini va o'quvchining qiziqishlari va umidlariga qaratilgan o'zgaruvchan qismni o'z ichiga oladi. O'zgaruvchan qism boshqaruv faoliyatida ishtirok etishga, diagnostika tadqiqotlarini tashkil etishga, ta'lim tizimini qurishga, bo'sh vaqtni tashkil etish kabi vazifalarni belgilaydi. Amaliyot mazmunining o'zgaruvchan qismiga kiritilgan vazifalarni bajarish natijalari

bo'lajak mutaxassisning rezyumelari uchun mazmunli asos sifatida talabning "Amaliyot portfeli" ga kiritilishi mumkin.

O'quv amaliyoti talabalar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi: o'quv va tarbiyaviy faoliyatida kasbiy bilimlarni egallash;

kasbiy faoliyatda o'qituvchi rollarni egallash, uning sifatli ta'lim olishidan manfaatdor barcha tomonlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

amaliyot davomida o'z faoliyatidan turli yo'llar bilan ifodalangan qoniqish darajasini konstruktiv idrok etish.

o'qituvchi kasbini egallashga asos bo'luvchi amaliy faoliyatiga tayyorligini oshirish va maktab me'yoriy xujjatlarini o'rganish.

Tadqiqot rivojida har bir talaba uchun individual amaliyot marshrutlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan amaliyot ta'lim dasturlarini integrasion va innovasion ish dasturlari ishlab chiqilishi, talabning amaliyotdagi faoliyatini umumiy baholash va uning rivojlanishidagi aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga oid mufassal rejasini ishlab chiqilishi va belgilangan tajriba- sinov ob'ektlarida qo'llanishi muhim vosita sifatida xizmat qildi.

### **Xulosalar**

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak informatika o'qituvchilarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash mazkur vaziyatlarda talabalarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishga oid o'quv amaliyot dasturlarini innovasion va integrasion yondashuvga asoslanib ishlab chiqilishi zarur. Bu o'rinda bo'lajak informatika o'qituvchilariga "Amaliyot portfeli"ni yuritishni tavsiya etilishi va mazkur portfeliga amaliyot davomida talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashga, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llashda integrativ yondashuvga amal qilish muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqot rivojida bo'lajak informatika o'qituvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlashning (tizimli, refleksiv, kreativ, shaxsiy faoliyat) aniqlashtirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni (fanga oid elektron shakldagi o'quv-uslubiy materiallarini joriy etish orqali interaktiv resurslarni animasion loyihalashtirish ishlarini takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanildi. Ushbu metodik vositalardan informatika yo'nalishi talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika o'qituvchilari ham faoliyati davomida unumli foydalanishi mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. [https://nrm.uz/contentf?doc=612868\\_o%E2%80%98zbekiston\\_respublikasi\\_prezidenti\\_sh\\_avkat\\_mirzieevning\\_oliy\\_majlisga\\_murojaatnomasi\\_\(2020\\_yil\\_24\\_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_sh_avkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar))
2. N.A.Muslimov. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan. dok. ... dis. Avtoref. Tashkent: TDPU, 2007.-47 b.
3. Sobirova M. Pedagogik amaliyot. Metodik tavsiyalar. -N.: NamDU, 2009, 52 b
4. Q.T Olimov. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy - uslubiy asoslari: Ped. fan. dokt. ... dis. - T.: 2005. - 232 b.
5. SH.E.Qurbonov., E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. / T.: "Turon-Iqbol", 2006.-592 b.
6. R.X.Jo'raev.. Ta'limda interfaol texnologiyalar. - Toshkent, 2010. 87 b.
7. J.E. Usarov, G.I. Muxamedov<sup>1</sup>, Uzluksiz pedagogik ta'lim klasteri sharoitida kompetentlik talablari va ta'lim samaradorligi imkoniyatlari // Uzluksiz ta'lim, Maxsus son, 2020
8. N.I.Taylaqov N. I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari (informatika kursi misolida): Avtoref.dis. ... ped. fan. dokt. - T.: 2006. - 48 b.

9. N.N. Azizxodjaeva. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoe masterstvo/Ucheb.posobie dlya magistrov vsex special'nostey. – Toshkent: TGPU, 2003.-193 s.;
10. A.R Xodjabaev Nauchno-pedagogicheskie osnovy uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda: Dis. ... dokt. ped. nauk. - T.: 1992. - 406 s.

UDK 372.881.1

## OLIV O'QUV YURLARIDA INGLIZ ADABIYOTINI O'QITISHDAGI OBYEKTIV MUAMMOLAR

Mirsadullayev Miravaz Mirmuslim o'g'li,  
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti  
E-mail:dodamaestro@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim tizimida Ingliz adabiyotini o'qitishdagi muammolarning obyektiv sabablarini tahlil qilib chiqilgan. Hamda ushbu muammolarga ayrim yechimlar ham berilgan. Asosiy e'tiborni o'quv jarayonini amalga oshirishda yuzaga keluvchi va pedagoglar uchun muammoli vaziyatlarga qaratilgan. Hozirgi kundagi dolzarb xisoblanuvchi ushbu muammolar zudlik bilan hal etilishi tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** malaka talablari, fan dasturi, o'quv-me'yoriy xujjatlar, tanqidiy fikrlash, tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti

## ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ВУЗЕ

Мирсадуллаев Мираваз Мирмуслимович  
Наманганский государственнқй университет, докторант  
Э-почта:dodamaestro@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье анализируются объективные причины возникновения проблем в преподавании английской литературы в системе высшего образования. И даны некоторые решения этих проблем. Основное внимание сосредоточено на проблемных ситуациях для педагогов, возникающих в ходе реализации образовательного процесса. Рекомендуется немедленно решить данные проблемы.

**Ключевые слова:** квалификационные требования, научная программа, учебно-нормативные документы, критическое мышление, литература стран, изучающих язык.

## OBJECTIVE PROBLEMS OF TEACHING ENGLISH LITERATURE AT THE UNIVERSITY

Mirsadullaev Miravaz Mirmuslim ugli  
Namangan State University, PhD student  
E-mail:dodamaestro@gmail.com

**Abstract:** This article analyzes the objective causes of problems in the teaching of English literature in the higher education system. And some solutions to these problems are given. The main attention is focused on problematic situations for pedagogues that arise during the implementation of the educational process. It is recommended that these problems be solved immediately.

**Key words:** qualification requirements, science program, educational and normative documents, critical thinking, literature of the countries where the language is studied.

## **Kirish**

Barcha sohalarda bo'lgani kabi bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, malakali kadrlarni tayyorlash, jahon andozalari asosida darslarni tashkil etish va shu kabi bir qancha rejalarni maqsad qilib olindi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" [1] prezident farmoni bilan tasdiqlab qo'yildi. Ushbu konsepsiyadagi o'zgarishlarni, yangiliklarni amalga oshirish uchun, ta'lim-tarbiya jarayonining asosi hisoblanmish "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" [2] va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'plab o'quv-me'yoriy xujjatlarni ham qayta ko'rib chiqish, tuzatishlar kiritish zarurligi bugun barcha ta'lim soxasi vakillariga tushunarli bo'lib bormoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun, avvalambor, har bir fanni chuqur o'rganib chiqish, tanqidiy tahlil etish, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlash talab etiladi. Ushbu ilmiy tadqiqotda oliy ta'lim tizimida Ingliz adabiyotini o'qitishdagi muammolarni tizimli o'rganish, tahlil etish, va albatta foydali takliflar keltirib o'tish, ilmiy asosga ega yechimlar berish maqsad qilib olingan.

So'ngi ikkita o'n yillikda xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirishga bo'lgan bir qancha sa'y-xarakatlarni ko'rishimiz mumkin. Bulardan dastlabki muhim qadamni 2012-yilda qabul qilingan prezident qarori "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [3] ni eslashimiz mumkin. Juda ko'plab muhim ishlar keltirib o'tilgan ushbu qarorda, afsuski faqatgina chet tillarini o'zinigina o'rganishga e'tibor qaratilgan. Chet tillarining adabiyotini o'rganish, ommalashtirish masalalari esa chetda qolib ketgandek. Balki shuning uchundir hozirgi kundagi aksariyat talabalarda chet tili deganda faqatgina o'sha tilda muloqot qila olish ko'nikmasini tushunadilar. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimida o'rganilayotgan xorijiy til adabiyotiga e'tiborni pasaytirib yuborgan. Chet tillari ichida eng ko'p e'tiborga sazovor bo'lib kelayotgan Ingliz tilining adabiyoti, uni o'qitish va o'rganish ahvoli qanday? Tilni ommalashtirishga bo'lgan e'tibor uning adabiyotiga ham qaratilganmi? Shu va shu kabi savollarni o'rganib chiqishga keyingi satrda javob topishga harakat qilib ko'ramiz.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Bugungi kunga kelib oliy ta'lim muassasalarida Ingliz adabiyotini o'qitish qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Sababi, ko'plab yoshlarda Ingliz tilini o'rganish faqatgina til ko'nikmalarini egallashdangina iborat degan noto'g'ri tushunchaga egaliklaridandir. Aslida bunday xulosaga kelishga bir nechta obyektiv va subyektiv sabablar mavjud. Dastlab obyektiv sabablarga to'xtalib o'tsak. Aslida obyektiv sabablar asosan ta'lim jarayonini tashkil etishni belgilab beruvchi mas'ul tashkilot-muassasalar, me'yoriy xujjatlar bilan bog'liq. Ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari, metodik qo'llanmalar va boshqa ko'plab xujjatlar Ingliz adabiyoti fanini til o'qitish fanlariga qaraganda ikkinchi darajali fanga aylantirib qo'yganligini ko'rishimiz mumkin.

## **Tahlillar va natijalar**

Dastlab malaka talablarini ko'rib chiqsak. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 24.12.2021 yildagi PQ-60-sonli "Davlat ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" [4] qarori bilan dastlabki bosqichda 35 ta davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik berildi. Bu degani, barcha normativ xujjatlarni ta'lim muassasalari yetakchi tashkilotdan asos sifatida xujjat qabul qilib olmay, balki o'z o'quv bo'limi hamda ilmiy kengash bilan hamkorlikda

yaratishlari ko'zda tutilgan. Albatta bundan keyin mustaqil tayyorlanuvchi o'quv-me'yoriy xujjatlar avvaldan mavjudlarini o'zgartirib, qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Tayanch oliy ta'lim sifatida O'zDJTU tomonidan ishlab chiqilgan va OzROO'MT vazirligi tasdiqlab 18.08.2021 da 356-sonli buyrug'i bilan 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari) bakalvriyat ta'lim yo'nalishlari uchun amalga kiritilgan malaka talablari [5] ni ko'rib chiqsak. Malaka talablarining 1-bo'limida umumiy tavsif keltirilgan bo'lib, 1.2.2 bandida kasbiy faoliyatning obyektlari sanab o'tilgan. Biz ulardan ayrimlarini sanab o'tamiz.

- *asosiy va ikkinchi chet tilining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatish, mazkur tillarda ilmiy va badiiy adabiyotlarni o'qish va og'zaki nutq malakasini oshirish;*

- *asosiy hamda ikkinchi chet tili sifatida o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, ularning tarixi va hozirgi holati, adabiy aloqalar tarjima nazariyasi va amaliyotining asoslarini.....*

- *roman-german tilshunosligi va adabiyotshunosligi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi muammolar va ularning yechimlari, .... Va hkz.*

Ko'rib turganimizdek, kasbiy faoliyatning obyektlari ichida adabiyot fani yetarlicha o'rinda keltirib o'tilgan. Ya'ni bakalvriyat bosqich talabalarining kasbiy faoliyatida adabiyot fani muhim o'rin tutadi va 4 yil mobaynida yetarlicha bilimga ega bo'lishlari talab etiladi.

Endi 1.2.3 bandida keltirilgan kasbiy faoliyat turlariga e'tibor qaratsak. Ja'mi 7 ta kasbiy faoliyat turlari berilgan bo'lib bular: 1. *ta'lim muassasalarida pedagogik va ilmiy-pedagogik;* 2. *Tarjimonlik;* 3. *Tashkiliy-boshqaruv;* 4. *OAVda muxbirlilik;* 5. *Noshirlik va muharrirlilik;* 6. *Ilmiy tadqiqot va 7. Konsalting xizmati.*

1.2.4 bandida bu faoliyat turlarida belgilab o'tilgan vazifalar borki, bu vazifalar albatta adabiy jarayonni o'z ichiga oladi:

*Til va adabiyotga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkillashtirish.* – tashkiliy-boshqaruv faoliyatida;

*Nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, ... muharrirlilik faoliyatini amalga oshirish.* – noshirlik va muharrirlilik faoliyatida;

*Internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, .... Izlash va topish.* – Ilmiy-tadqiqot faoliyatida;

*Kasbiy faoliyatda hozirgi va tarixiy adabiy jarayonlarni va turli janrga mansub badiiy asarlarni tahlil qila bilish.* – konsalting xizmati faoliyatida.

Ko'rib turganimizdek, kasbiy faoliyatning ko'pchiligida adabiy jarayonga yetarlicha urg'u berilgan. Faqatgina **tarjimonlik faoliyatiga** ham adabiyot bilan bog'liq jarayonni qo'shish maqsadga muvofiq bo'lishini aytib o'tish zarur. Zero, filologiya yo'nalishida bakalavr darajasiga ega mutaxassis tarjimonlik faoliyati mobaynida badiiy asarlarni boshqa tillarga tarjima qilish vazifasini ham bajarishiga to'g'ri kelishi tabiiy hol.

Mazkur malaka talablarining 2-bo'limida talabalarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar keltirib o'tilgan. 2.1 band umumiy kompetensiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu yerda adabiyotga oid talablarni uchratmaymiz. 2.2 bandida esa, ..... *adabiy yangiliklar topish ko'nikmasiga ega bo'lish, adabiyotga oid turli tadbir tashkil etish, badiiy asarlar bo'yicha muharrirlik faoliyatini amalga oshirish, adabiy xodim faoliyatini yurita olish...* kabi ba'zi bir kasbiy kompetensiyalarni uchratishimiz mumkin. Umuman olib qaraganda, akademik mustaqillikka ega bo'lguncha barcha oliy ta'lim muassasalaridagi filologiya yo'nalishlariga berilgan malaka talablarida adabiyotga bo'lgan talab yetarlicha berilgan. Xo'sh, keyingi davrda tayyorlangan

malaka talablarida ahvol qanday? Adabiyotga, ayniqsa tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyotiga kengroq o'rin berilganmi? Bu savollarga Namangan davlat universiteti Ilmiy kengashining 2022 yil 25.08 dagi 1- sonli yig'ilishida ma'qullangan malaka talabidan [6] javob topishga harakat qilib ko'ramiz.

1-bo'limning 1.2.2 bandida berilgan kasbiy faoliyat obyektlarida hamda 1.2.3 banddagi kasbiy faoliyat turlarida, avvalgi biz yuqorida ko'rib chiqqan malaka talablari bilan bir hil holatni ko'rishimiz mumkin. Demak, tuzuvchilarda kasbiy faoliyat obyektlarini va turlari bo'yicha o'zgartirishga zarurat sezilmagan. Xuddiy shunday vaziyat bakalavriat talabalarining kasbiy vazifalariga qo'yilgan malaka talablarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu yerda ham kichik o'zgarishlarni aytmaganda, jiddiy yangilikka qo'l urilgan deyolmaymiz. Yangi tahrirdagi malaka talabalarining mualliflari "velosipedni qaytadan yaratish" muammosini o'ylab o'tirmay, avvalgi tayyor me'yoriy xujjatni qaytadan tasdiqlashgan. Bu yerda bu holatni jiddiy kamchilik deyish noto'g'ri bo'ladi, sababi yuqorida aytganimizdek, til va adabiyotga e'tibor teng darajada keltirib o'tilgan.

Jiddiy o'zgarishni biz 2.2 banddagi kasbiy kompetensiyalarda ko'rishimiz mumkin. Bu yerda avvalgi malaka talablariga qo'shimcha ravishda bir qancha adabiyot sohasiga oid kompetensiyalar qo'shilgan, jumladan:

- *globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonda milliy til va adabiyotning o'rni....*
- *Yo'nalishiga mos mavzularda loyihalar, manbalar, adabiyotlar,.... ekspertiza qilish.*
- *Kasbiy faoliyatda hozirgi va tarixiy jarayonlarni va turli janrga mansub badiiy asarlarni tahlil qilish.*

Ko'rinib turibdiki, yangi malaka talablarida adabiyotga yanada ko'proq o'rin berilganki, bu holat filologiya ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturida ham o'z aksini topishi zarurligi anglashiladi.

Shu o'rinda malaka talablari bo'yicha qisqagina xulosa berib o'tsak. Umumiy ko'rinishda til va adabiyot sohalariga teng o'rin berilganini ko'rdik, ammo deyarli barcha holatda adabiyotshunolik, adabiy jarayon atamalari qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti so'zi faqatgina bir o'rinda qo'llangan. Menimcha umumiy tavsif berib o'tgandan ko'ra aniq qilib, tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti atamasini qo'llab va shuni atrofida ishlarni tashkil qilishni belgilab berilsa, o'rganilayotgan chet tilining adabiyotiga ham ko'proq urg'u berilgan bo'ladi.

Endigi ko'rib chiqadigan o'quv me'yoriy xujjat bu namunaviy fan dasturi. Bunda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi uchun tavsiya etilayotgan mavzular va darsda foydalanish uchun keltirilgan adabiyotlar ro'yhatini ko'rib chiqamiz. Oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish (Ingliz tili) yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti" fani bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi (O'zDJTU) tomonidan so'ngi marotaba 2020 yilda namunaviy fan [7] dasturi ishlab chiqilgan. Shu yerda aytib o'tish kerakki, ushbu namunaviy fan dasturi faqatgina filologiya yo'nalishi talabalariga uchungina bo'lib qolmay, Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) hamda Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Ingliz tili) yo'nalishi uchun hamdir. Shuning uchun *ishchi dasturlarni tuzishda yo'nalishlar xususiyatiga qarab shu yerda keltirilgan mavzulardan muhim va dolzarb bo'lganlarini tanlanishi maqsadga muvofiq.* [7; 3-b.]

2019-yilgacha kelgan fan dasturlarida bu fan 3 semestr mobaynida 5-6-7-semestrlarda o'qitilishi keltirib o'tilgan. Ammo 2020-yildan boshlab aksariyat oliy ta'lim muassasalari kredit modul tizimiga o'tgandan so'ng fanlarni optimallashtirish, nomutaxassis fanlarini 4 ta fangacha

qisqartirish va shu kabi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti fani majburiy fanlar blokida bo'lsada, 2020-yilda kelgan ushbu fan dasturida ushbu fan 5-6 semestrlar mobaynida haftasiga 4 soatdan – 2 soat ma'ruza va 2 soat seminar – tarzida o'tilishi keltirib o'tilgan. Ko'rib turganimizdek, bu fanni 4 bosqichda talabalar o'qishi shart emas degan xulosa bilan shunday qarorga kelingan deyish mumkin. To'g'ri, kredit modul tizimida ko'proq mustaqil ta'lim soati berilishi belgilab qo'yilgan. Ya'ni talaba darsdan tashqari ko'proq o'z ustida ishlashi maqsad qilingan. Ammo, oz bo'lsada o'qituvchi nazorati, ko'rsatmasi ham talaba uchun doimiy ravishda zaruratdir.

Endi mavzular ketma-ketligini ko'rib chiqsak. Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti fani Buyuk Britaniya va Amerika adabiyotini o'qitishni maqsad qilgan: *Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni Buyuk Britaniya va Aqsh adabiyoti namoyondalari va ularning asarlari bilan tanishtirish .... badiiy-estetik ruhni rivojlantirishdir.* Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun 30 tadan mavzu keltirilgan. Ya'ni fanning ishchi dasturini – sillabusini tayyorlamoqchi bo'lgan o'qituvchi qiyinchiliksiz barcha mavzularni ketma-ketlikda olishi mumkin. Mavzular xronologik tarzda, davrlashtirib va har bir davrning yirik namoyondalarini ularning shoh asarlari bilan birga keltirilgan. Birinchi mavzu fanga kirish darsi bo'lib bunda ikkala davlatning adabiyoti haqida umumiy ma'lumot berish bilan boshlanib, so'ngra Buyuk Britaniya adabiyotining asosiy yo'nalishlari, rivojlanish davrlariga o'tiladi. Dastlab Buyuk Britaniya adabiyotini yakunlab keyin esa Amerika adabiyoti mavzulari o'zlashtiriladi.

Tavsiya etilayotgan mavzular va ularda qamrab olinishi kerak bo'lgan yozuvchi va adabiy ishlar juda ham ko'p berilgan bo'lib, bu ishni na o'qituvchi va na talabalar o'zlashtirishi darguman. Misol uchun Ingliz adabiyotida Ma'rifatchilik davri mavzusi ikkita ma'ruzaga mo'ljallangan. Va shu ikki dars mobaynida yettita ijodkor va ularning eng kamida bittadan asarlari o'rganilishi keltirib o'tilgan. Bu holatda o'qituvchi bu ijodkorlarning qachon va qayerda tug'ilganligi, qanday asarlar yozganligi va uni mashhur qilgan asari to'g'risida qisqa ma'lumot berish bilan kifoyalanadi. Aks holda, agar batafsil ma'lumot berib chuqurroq o'rganish niyat qilinsa, qaysidir yozuvchini qoldirib ketishga to'g'ri keladi. Seminar mashg'uloti uchun esa birgina mavzu bilan cheklanilgan: XVII – XVIII asr ma'rifatchilik davri adabiyoti. Shu yerda ham ko'rish mumkinki, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun berilayotgan mavzular mutanosibliyi yo'q.

Mavzular bo'yicha yana bir jihat ma'ruza mashg'ulotida aynan qaysi ijodkorga ko'proq urg'u berilishi keltirib o'tilgan bo'lsa, seminar mashg'uloti mavzulari juda ham umumiy tarzda berilgan. Mavzular yakunida *“Seminar mashg'uloti multimedia vositalari bilan johozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalari qo'llanishi maqsadga muvofiq.”* kabi umumiy yo'riqnoma bilan kifoyalanilgan. Albatta seminar mashg'ulotida talabalar qaysidir yozuvchining ijodiga yoki uning asariga tayyorlanib kelishi belgilab qo'yiladi, ammo qay tartibda tayyorlanish va nimalarga ko'proq e'tibor berilishi fan dasturi tuzuvchilari tomonidan tavsiyaviy shaklda bo'lsada berilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu holatda ko'proq fan o'qituvchisining mas'uliyati ortadi. Fanning uslubiy ko'rsatmasini tayyorlash jarayonida ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda tuzishi, namunaviy fan dasturida keltirib o'tilmagan tomonlarni iloji boricha kengroq yoritishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu fan talabalardan kurs ishini tayyorlashni talab etadi. *Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.* Kurs



ishining maqsadi – “talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarinig amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish. ... badiiy asarlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga o’rgatish.” [7; 6-b.]

Demak, kurs ishini bajarish davomida talaba darsdan olgan bilimi, ko’nikmasi va malakasi shakllantirib boradi. Dastlab bilimga to’xtalib o’tsak. Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi bo’lib, u inson ongida aks etadi hamda bilimning ilmiy, empirik va nazariy turlari farqlanadi. [8; 70-b.] Va o’quvchilarning bilim darajasini quyidagilar tashkil etadi:

- a. O’quv fanlari bo’yicha nazariy tushunchaga ega bo’lishi;
- b. O’quv fanlari bo’yicha yangi axborot va ma’lumotlarni egallash;
- c. Voqelik va hodisaning mazmunini tushunish;
- d. Ijtimoiy ong va mustaqil fikrga ega bo’lish. [9; 626-b.]

Bizningcha berilgan mavzularni o’zlashtirish mobaynida talabalar yuqoridagilardan faqat a va b bandlarinigina o’zlashtirmoqdalar, sababi voqelikni tushunish va mustaqil fikrlashga undaydigan mavzular kam. Aksariyat mavzular talabalardan faqatgina ma’lumot olish va qayta ishlashnigina talab etadi. Misol uchun, kurs ishi mavzulari ro’yhatida quyidagilarni uchratishimiz mumkin:

- *Ingliz adabiyotida ayol yozuvchilar;*
- *Kristofer Marloning “Karp Daym she’riyati”;*
- *Ouldus Haksliy va uning g’ayrihayoli asari “Yangi dunyo qahramoni”;*
- *Dos Passos va uning “Aqsh trilogiyasi”.*

Ko’rib turganimizdek bu mavzularga talabalar faqatgina ma’lumotlarni yig’ish, saralash va umumlashtirish bilan mashg’ul bo’ladilar. Berilayotgan mavzular talabalarni ko’proq tahliliy va tanqidiy jarayonga jalb etishi, ma’lumotni shundoq qabul etib qolmasdan, yozuvchi yashagan muhitni, asar yozilgan davrni kengroq tushunishga undashi zarur.

Endi fan dasturida o’qituvchilar ishchi dastur tuzishda va eng asosiysi Ingliz adabiyoti darslarini tashkil etishda foydalanishlari ko’zda tutilgan adabiyotlar ruyhati bilan tanishib chiqsak. Ya’ni bu adabiyotlar Tili o’rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti fanining darsliklari bo’lib, o’qituvchi talabalar shu kitoblardan foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalambor, darsliklar haqida qisqacha to’xtalib o’tsak. Chet tilini o’qitish bo’yicha darslikla, o’quv-qo’llanmalar juda ham ko’p bo’lib, o’rganuvchilar xech ikkilanmay o’zlariga yoqqan, bilim va qiziqishlariga mos bittasini tanlashlari mumkin. Ammo adabiyot bo’yicha bunday deya olmaymiz. Adabiyotshunoslik, adabiyot o’qitish metodikasi yo’nalishlarida qator ishlar qilinganiga qaramay, jahon adabiyoti va Ingliz adabiyoti bo’yicha darsliklarni topish juda ham mushkul vazifa. Bu holatni fan dasturida berilgan adabiyotlar ro’yhatida ham ko’rishimiz mumkin. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar ro’yhatida o’n beshta darslik, qo’llanma berilgan bo’lsa, shundan faqatgina bittasi O’zbekistonlik Ingliz adabiyoti mutaxassisleri Bakoyeva M. Muratova E., Ochilova M. lar hammuallifligida tayyorlanganligini ko’rishimiz mumkin. [10] Demak Ingliz adabiyotini o’qitish metodikasi bo’yicha hali ko’p ishlar qilinishi zarurligini guvohi bo’lyapmiz. Endi shu darsliklardan ayrimlarini ko’rib chiqsak.

Asosiy adabiyotlar ro’yhatining birinchi o’rnida turuvchi “Amerika adabiyoti va madaniyatiga hamroh” nomli kitob 2010 yilda Trinity kolleji professori, adabiyotshunos oli Pol Loyter tomonidan ishlab chiqilgan. [11] Ulkan hajmga ega (710 betdan iborat) ushbu kitobni darslik yoki qo’llanma deya olmaymiz. Sababi turli adabiyot sohasi vakillari tomonidan chop etilgan maqolalar, esseylardan iborat ushbu kitobda na bir topshiriq bor, va na mavzuni

mustahkamlovchi savollar. Ko'rinishidan ensiklopediyani eslatuvchi uchbu kitobni, o'qituvchilar va talabalar faqatgina qo'shimcha ma'lumot olish uchun foydalanishlari mumkin. Aslida murakkab tilda yozilgan maqolalar ko'proq Amerika adabiyoti bo'yicha ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Ro'yhatdagi yagona, O'zbekistonlik mutaxassislar tomonidan Ingliz adabiyoti bo'yicha tayyorlangan darslik haqida ham so'z yuritsak. Shu o'rinda qayd etish kerak, ushbu darslik nashrdan chiqqaniga ham qariyb 20 yil bo'lgan (Toshkent, 2006 yil) va Ingliz adabiyoti bo'yicha hamon asosiy darslik bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu darslik avval aytganimizdek hammualliflikda tayyorlangan bo'lib, filologiya yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan. Darslikning shakli haqida aytadigan bo'lsak, u kirish qism, to'qqizta bob, adabiy atamalar va adabiyotlar ro'yhati, va umumiy savollar bankidan tashkil topgan. Darslikning yutuqlari haqida aytish mumkinki:

- berilgan ma'lumotlar sodda Ingliz tilida tuzilgan bo'lib, o'qituvchi ham talaba ham osongina tushuna oladi.
- har bir dars yakunida mustahkamlovchi savollar berilgan.
- talaba uchun yangilik sanalgan adabiy atamalarni alohida ro'yhati shakllantirilgan.
- aksariyat mavzular qo'shimcha manbalar bilan boyitilgan.
- mavzular ketma-ketligi, bir davr yozuvchilari va ularning muhim asarlari haqida yetarlicha ma'lumot berilgan.

#### **Xulosa va takliflar**

Bir qarashda darslik yaxshi tuzilgan va katta kamchiliklardan holidek ko'rinadi. Ammo bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda, zamonaviy talabalarni to'liq qanoatlantiradigan darslik sifatida ayta olamizmi? Menimcha yo'q. Sababi hayoti internet bilan chambarchas bog'langan bugungi talabalar, ushbu darslikdagi ma'lumotlarni osongina topa olishi, hatto tayyor tahlillarni o'qib o'zlashtirishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021 yildagi PQ-60-son
5. O'zR OO'MTV., 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (Roman-german tillari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. Toshkent: 2021
6. NamDU., 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (Ingliz tili), Namangan: 2022
7. O'zR OO'MTV., Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti Fan dasturi, Toshkent. 2020
8. Xasanboev J va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: "Fan va texnologiya". 2009.
9. Umarova Z., Ro'ziboyeva D. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning zaruriyati. - Academic research in educational sciences. 2023.
10. Bakoeva M. Muratova E., Ochilova M. English Literature. Tashkent 2010
11. A companion to American Literature and Culture. Edited by Paul Lauter. UK: Blackwell Publishing. 2010



## BO'LAJAK LOGOPEDLARNI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon qizi  
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: xanbabayev1221@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak logopedlarni kompetentligini shakllantirish omillari, bu borada olib borilishi zarur bo'lgan ilmiy izlanishlarning mazmun mohiyati, xususiyati, olimlar tomonidan olib borilgan va borilayotgan ishlarga oid yangi nazariy bilim asoslari yoritilgan. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlarni olib borishda yangi zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanishning samaradorligi bo'yicha qisqacha natijalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, individuallik, logoped, integratsiya, hissiy-irodaviy soha, omil, mahorat, kasb, shaxs munosabatlar.

## ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ

Хонбабаева Мадинабону Асқаржон қизи  
преподаватель Кокандского государственного педагогического института  
Электронная почта: xanbabayev1221@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены факторы формирования компетентности будущих логопедов, характер и характер научных исследований, которые необходимо провести в этой связи, новые теоретические основы знаний о проводимых и проводимых работах. выделяются ученые. Также приведены краткие результаты по эффективности использования новых современных технологий и методов в логопедическом обучении.

**Ключевые слова:** компетентность, индивидуальность, логопед, интеграция, эмоционально-волевое поле, фактор, умение, профессия, личные отношения.

## FACTORS IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF FUTURE DEFECTOLOGIST

Khonbabayeva Madinabonu Asqarjon qizi  
Teacher of Kokand State Pedagogical Institute  
Phone: +998974180190  
Email: xanbabayev1221@gmail.com

**Abstract:** This article discusses the factors of developing the competence of future speech therapists, the nature and nature of the scientific research that needs to be carried out in this regard, the new theoretical foundations of knowledge about the work being carried out and being carried out. scientists stand out. Brief results on the effectiveness of using new modern technologies and methods in speech therapy training are also given.

**Key words:** competence, individuality, defectologist, integration, emotional-volitional field, factor, skill, profession, personal relationships.

### Kirish

Bugungi kun o'qituvchisi ta'lim tizimining muhim figurasi hisoblanib, uning kasbiy maxorati va axloqiy madaniyatining rivojlanish darajasi jamiyatning umumiy rivojlanishidagi

muvaqqiyatini belgilaydi. Rivojlanishida turli kamchiliklari bor bolalarning jamiyatga samarali integratsiyasini ta'minlay olish muhim sanaladi. Buning uchun bo'lajak logopedlarni kompetentligini shakllantira olish lozim.

### **Adabiyotlar tahlili**

Ma'lumki, kompetentlik tushunchasi pedagogning o'quv jarayonida eng yaxshi natijalarga erishishi, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lishi, shuningdek, kommunikativ va ijobiy fazilatlarga ega ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun, keling, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahliliga murojaat qilaylik "kasbiy kompetensiya" tushunchasi mazmunining mohiyatini oydinlashtirsak. F.A.Broksauz, M.A.Efronning so'zlariga ko'ra lotincha "kompetentlik" so'zi "bo'lim" so'zining sinonimi bo'lib, "bilmoq", ya'ni bilish, qodir, boshqarish fe'ldan kelib chiqqan[3]. Inglizcha "competence" so'zi tom ma'noda "qobiliyat" degan ma'noni anglatadi. Tarkib "nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash, yuqori darajadagi kasbiy mahorat, ko'nikma va malakalarni namoyon eta olish"ni ta'kidlash uchun mo'ljallangan. "Qobiliyat" atamasi pedagogikada psixologik tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan.

Y.V.Koltakova logopedning malaka talabida uning o'ziga xos kasbiy, psixologik va shaxsiy hususiyatlari, shuningdek, maxsus kompetensiyalarini ham ajratib ko'rsatadi, hamda "kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan orttirilgan kompetensiyalarga tashxis qo'yish, prognostik, korreksion pedagogik va maslahat berish kompetensiyalari kiradi"[1] deya ta'kidlaydi. Muallif logopedning kompetentligi tarkibida "nutq kamchiliklariga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash usuli va metodlarini egallash va bilish" sifatida belgilanadigan metodik kompetentlikni ajratadi[2]. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada bo'lajak logopedlarni kompetentligin shakllantirish omillari haqida fikr yuritiladi, shuningdek kompetentlik tushunchalari tahlil qilindi, bo'lajak logopedlarni kompetentligini shakllantirishga qaratilgan turli xil omillar yoritilib o'tiladi.

### **Tahlillar va natijalar**

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy moslashgan jamiyat bilan hamkorlik qiladigan va yolg'iz ishlashga qodir shaxsni tayyorlashdir. Demak, yetuk shaxsni tarbiyalashda ko'p millatli o'qituvchilarning saviyasi muhim. Pedagogikada psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning o'quv jarayonida eng yaxshi natijalarga erishishi, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lishi, shuningdek, kommunikativ va ijobiy fazilatlarga ega ekanligiga asoslanadi.

Yoshlar tarbiya va ta'lim jarayonida ota-bobolari olgan bilim, urf-odat, an'ana, madaniyat va kasbiy ko'nikmalarni egallab, jamiyatning hayotiy tajribasi, pedagogik shaxsi, imkoniyatlari va dunyoqarashini shakllantirishda munosib o'rin egallaydi. Kasbiylik muhim faoliyat sifatida tan olinadi. Shuning uchun, keling, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahliliga murojaat qilaylik.

Ta'limga kompetentlik yondashuvning yangi tadqiqot sohasi sifatida vujudga kelishi va "kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida G'arbda xorijiy pedagogik va uslubiy manbalarda kiritildi, mahalliy adabiyotlarda

rivojlandi. 1980-yillarning oxirida ta'lim ko'nikmalariga asoslangan yondashuvlar shakllandi. Ta'lim fanining hozirgi rivojlanish darajasida "kompetentlik" va "kompetensiya" atamalarining aniq ta'rifi mavjud emas.

"Kompetensiya" atamasi boshqacha ma'noga ega, lekin etimologik jihatdan "kompetentlik" atamasi bilan bog'liq. Adabiyotda bu atama bilan bir qatorda tegishli "kasbiylik", "malaka", "pedagogik madaniyat", "pedagogik ta'lim" atamalari ham qo'llaniladi. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik- bu shaxsning o'ziga xos xususiyati, ya'ni kasbiy talablarga muvofiqlik darajasi bo'yicha shaxsning individual xususiyati.

Kompetentlikka asoslangan yondashuv, O.E.Lebedev ta'kidlashicha, ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari yig'indisidir. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi: Ta'limning ma'nosi - o'quvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyat turlaridagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, uning elementi o'quvchilarning shaxsiy tajribasi. Ta'lim mazmuni - bu kognitiv, g'oyaviy, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishda didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajriba. Ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'nosi o'quvchilarda ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir. Ta'lim natijalarini baholash o'quvchilarning ta'limning ma'lum bosqichida erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilishga asoslanadi[4]. Kompetentlik faqat faoliyat jarayonida, konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi. Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz. Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur — sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsada, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etmaydi.

Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Pedagogning kasbiy mahorati darajasini aniqlash, avvalo, pedagogning o'zi uchun zarur. Pedagog o'zini-o'zi boshqarishi, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, bilimi, ko'nikma va malakalarini o'zi tomonidan ob'yektiv baholashi uning uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladi va bu xislatlar kasbiy kompetentlik komponentlari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy bo'lajak logopedlarni pedagog-psixologlarni kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni omil sifatida keltirish mumkin:

**1. Ta'limda texnologiyalardan foydalanadi.** Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar o'qituvchining asosiy qurollaridan biriga aylangan. Zamonaviy o'qituvchining yordamchilaridan biri – ta'lim platformalari, mobil ilovalar, onlayn-kurslar, viktorina va aqliy

o'yinlar, olimpiadalar, konkurs va marafonlar hisoblanadi. Bu esa nafaqat berilgan materialni eslab qolishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning dars berish jarayoni samaradorligini kuchaytiradi.

**2. O'zini huquqlarini yaxshi biladi.** Turli xil vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchining o'z huquqlarini bilishi o'qituvchining qonun doirasida faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

**3. Vaqtni to'g'ri taqsimlaydi.** O'qituvchining kundalik ishi – bu darsga tayyorlanishi, ta'lim sohasidagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi, ta'minlaydi.

**4. Zamonaviy o'quvchiga qanday yondashishni biladi.** Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – zamonaviy ta'limning asosi hisoblanadi. Bu yondashuv o'qituvchidan o'quvchining shaxs sifatidagi qiziqishlari va uning kamchiliklarini to'laligicha qabul qilish, asosiysi u bilan til topishishdir.

**5. Boshqaruvchanlik ko'nikmalariga ega.** Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga asosan boshqaruvchanlik ko'nikmalari shakllangan pedagoglar kerak. O'qituvchi o'zini-o'zi boshqarishi, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, bilimi, ko'nikma va malakalarini o'zi tomonidan ob'yektiv baholashi uning uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchining o'zi o'quvchilarga o'rgatmoqchi bo'layotgan barcha narsa haqida kompetenga ega bo'lishi lozim. Bunda, pedagog uchun zaruriy bo'lgan tayanch kompetentlik – bu pedagogning ijodiy qobiliyatidir. Demak, shaxsga yo'naltirilgan va kompetentli yondashuvlarni taqqoslash bizga pedagoglarning ijodkorlik mahoratlarini shakllantirish uchun qator asosiy qoidalarni ishlab chiqish imkonini beradi deb aytishimiz mumkin.

O'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, o'qituvchilarning kompetentligini bir necha komponentlardan iborat tizim sifatida, ya'ni o'qituvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin.

Kompetentli o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, o'quvchilar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta oladigan, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagog shaxsini ifodalaydi.

Ta'limning innovatsion rivojlanishida muhim o'rin ta'lim texnologiyalariga ajratiladi.

### **Xulosalar**

Shubhasiz, zamonaviy o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarishlarning asosiy belgisidir. Bizning fikrimizcha, zamonaviy bo'lajak pedagog-psixologlarni pedagogik kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni keltirish mumkin: ta'limda texnologiyalardan foydalanadi, o'zini huquqlarini yaxshi biladi, vaqtni to'g'ri taqsimlaydi, zamonaviy o'quvchiga qanday yondashishni biladi, boshqaruvchanlik ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Колтакова, Е. В. Проектирование содержания повышения квалификации учителей-логопедов на основе профессиографического подхода [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2009. - 23б.

2. Яковлева, И. М. Формирование профессиональной компетентности учителя-олигофренопедагога [Текст] : монография / И.М.Яковлева. - М.:Спутник, 2009. - 220 б.
3. Энциклопедический словарь. Т. 7 / Ф.А.Брокгауз, М.А, Ефрон. – СПб., 2000. – С.962
4. Lebedev O.E. Ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuv // Maktab texnologiyalari. - 2004. - 5-son. - В. 3-12.

## **PEDAGOG KADRLAR KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

To'xtasinov Muhammadjon G'ulomjon o'g'li – Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedراسи mudiri

e-mail: [muhammadjon\\_toht@mail.ru](mailto:muhammadjon_toht@mail.ru);

*Аннотация.* Mazkur maqolada pedagog kadrlarning kasbiy-metodik kompetentligini shakllantirish va uzluksiz ta'limning pedagog faoliyati hamda rivojlanishidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

*Калит so'zlar:* kasbiy rivojlanish, kasbiy malaka, o'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi, uzluksiz ta'lim, kasbiy kompetensiya

## **ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ**

Тухтасинов Мухаммаджон Гуломжон углы

Заведующий кафедрой методики преподавания языков и социально-экономических наук национального центра обучения учителей новым методикам Наманганской области

*Аннотация.* В данной статье речь пойдет о формировании профессионально-методической компетентности педагогических кадров и значении непрерывного образования в деятельности и развитии педагога.

*Ключевые слова:* профессиональное развитие, профессиональная компетентность, профессиональное развитие личности педагога, непрерывное образование, профессиональная компетентность

## **ISSUES OF FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF TEACHING STAFF**

Tukhtasinov Muhammadjon Gulomjon ogli,

Head of the Department of socio-economic sciences and methods of teaching languages of the National Center for teaching new methodologies of Educators of Namangan region

*Annotation.* This article will focus on the formation of professional and methodological competence of teaching staff and the importance of continuing education in the activities and development of a teacher.

*Keywords:* professional development, professional competence, professional development of the teacher's personality, continuing education, professional competence

## Kirish

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri – bu ta’lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga bo’lgan munosabat o’zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo’lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi.

## Adabiyotlar tahlili

“Kasbiy rivojlanish” tushunchasini nazariy va uslubiy tahlil qilish “rivojlanish” atamasini ko’rib chiqishni talab qiladi. Ensiklopedik lug’atlarda “Rivojlanish muntazam, yo’naltirilgan o’zgarish, buning natijasida ob’ektning yangi sifat holati – uning tarkibi yoki tuzilishi paydo bo’ladi, – deb qayd etilgan[2].

Umuman olganda, rivojlanish pedagogikada o’zgarish sifatida tushuniladi, bu oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o’tish, shuningdek, “miqdoriy o’zgarishlarning bosqichma-bosqich to’planishi sifat o’zgarishlarining boshlanishiga olib keladigan jarayondir.

Ilmiy adabiyotlarda “kasb” atamasi kasbiy faoliyatning tashqi va ichki yo’nalishiga qarab talqin qilinadi. Shunday qilib, ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, kasb – bu tizim professional turlari, jamiyatning muayyan mahsulot yoki natijaga bo’lgan ehtiyojini qondirishni ta’minlay oladigan kasbiy faoliyatning shakllari, vazifalari, kasbiy xususiyatlari. Boshqa tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, kasb – bu odamning maxsus tayyorgarligini, uning jismoniy va ma’naviy kuchlarini qo’llashni talab qiladigan va unga tirikchilik manbalarini olish imkoniyatini beradigan, shuningdek, odamlarga umumiy kasbiy ong va tur bilan birlashishga imkon beradigan kasb, faollik va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. **Maqolada umumiy o’rta ta’lim** pedagog kadrlari kasbiy-metodik kompetentligini shakllantirish va uzluksiz ta’limning pedagog faoliyati hamda rivojlanishidagi ahamiyati **tahliliy yoritib beriladi. Shuningdek, pedagog kadrlarning kasbiy-metodik kompetensiyalari va ular faoliyatida uzluksiz ta’lim olish zarurati va imkoniyatlari o’rganildi.**

Tahlillar va natijalar. Shunday qilib, kasb – bu o’z maqsadiga ega bo’lgan, o’ziga xos vositalarga, me’yorlarga, o’z mahsulotiga ega bo’lgan, ijtimoiy funktsiya bilan belgilanadigan va motivlar, shaxsiyat xususiyatlari va shaxsiyat xususiyatlari bilan shartlangan faoliyat shakli.

To’g’ridan-to’g’ri “kasbiy rivojlanish” konsepsiyasini tahliliga qaytsak, shuni ta’kidlash kerakki, uning qo’llanilishi menejment va xodimlarni boshqarish bo’yicha adabiyotlarda tez-tez ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu konsepsiyaning talqini kasbiy rivojlanishni shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida tahlil qilishga, xodimlarning yangi bilim va ko’nikmalarni egallashiga, xodimlarning sifat xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Xodimni kompaniyaning rivojlanishi sharoitida yuzaga keladigan yangi ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga tayyorlash uchun aloqalarga bo’lgan ijtimoiy ehtiyojlar, nizolarni boshqarish va boshqalar, badiiy, tahliliy va boshqa qobiliyatlar, motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar (xarakter, iroda, qobiliyat), uning taktik va strategik rejalari va maqsadlarini amalga oshirish.

Ta’kidlash joizki, menejmentda malakani oshirish maqsadli tizimli jarayon bo’lib, butun kasbiy hayoti davomida xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.



Umuman olganda, “kasbiy rivojlanish” konsepsiyasini ta’riflashga berilgan yondashuvlarni umumlashtirib, buni insonning ichki dunyosining faol o’zgarishi, kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni deb tushunish kerak.

Tizimli va tadqiqotga asoslangan yondashuv doirasida o’qituvchining kasbiy ishi nafaqat pedagogik, balki boshqaruv, loyiha, tadqiqot, uslubiy faoliyatdir. Bu mualliflarning tadqiqotlarida o’qituvchining kasbiy rivojlanishining xarakteristikasi “kasbiy malaka” kabi tushunchalarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi, bu esa tashkiliy va faollik kompetensiyasi, ya’ni o’z faoliyatini bajarish va malakasini oshirish qobiliyatidir.

Faoliyat yondashuvi vakillari kasbiy faoliyatni o’qituvchining kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi sharti, vositasi, asosi, u pedagogik faoliyat va o’zini o’zi amalga oshirishning eng yuqori cho’qqisiga chiqishi uchun qaraydi. Shu bilan birga, professional pedagogik faoliyatning samaradorligi va samaradorligining muhim sharti uni amalga oshirishning ijodiy darajasi ekanligi ta’kidlanadi.

Kasbiy rivojlanishga asoslangan kompleks doirasida bunday komponentlar o’z-o’zini namoyon qilish, protsessual-texnologik, individual-shaxsiy deb hisoblanadi. Bu yo’nalishdagi ishlar o’qituvchining kasbiy rivojlanishining asosi sifatida o’z-o’zini anglashni o’rganishga qaratilgan.

Kasbiy rivojlanish konsepsiyasini ko’rib chiqishning aksiologik jihati ushbu konsepsiya mazmunining semantik, qiymatli asosiga, o’qituvchining kasbiy rivojlanishidagi shaxsiy, universal, professional va qadriyatli yo’nalishlarning o’rniga qaratilgan. Xususan, S.I. Maslov va T.A. Maslov pedagogik faoliyatning gumanistik qadriyatlari (talaba, bolalik, individuallik va individuallikning o’ziga xosligi, o’quvchining rivojlanishi va o’zini anglashi); kasbiy va axloqiy qadriyatlari (mehribonlik, rahm-shafqat, tinchlik, samimiylik, sadoqat, kasbiy burch, erkinlik, iymon, ishonch, adolat, vatanparvarlik, sadoqat, professional sharaf va qadr-qimmat); ijodiy o’zini o’zi anglashning ahamiyati (professionalni takomillashtirish, ijodkorlik, o’qitiladigan mavzu, o’qituvchining doimiy o’zini takomillashtirish); intellektual qadriyatlari (haqiqat, professional bilim, ijodkorlik, bilim, ma’lumotga erkin kirish); ijtimoiy qadriyatlari (professional va pedagogik muloqot, professional, kollegiallik, urf-odatlar, oila, bolalarga bo’lgan muhabbat); estetik qadriyatlar (go’zallik, uyg’unlik)ni ta’kidlaydi [3].

O’qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi – pedagogik faoliyatning yaxlit tuzilishi va xususiyatlarini ifodalovchi kasbiy ahamiyatli fazilatlar majmuasini shakllantirish jarayoni.

Shunday qilib, yuqoridagi usullarning barchasida kasbiy rivojlanish, u yoki bu tarzda, kasb tanlashga, o’qituvchining kasbiy moslashuvi va kasbiy o’sishiga ta’sir etuvchi shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan bo’lib, uning ijodiy faoliyatini rag’batlantiradi. Pedagogik faoliyat – boshqacha qilib aytganda, kasbiy rivojlanishni o’qituvchining shaxsiyati, uning professional muhim bilimlari, ko’nikmalari, qobiliyatlari va sifatlarini tahlil qilishni nazarda tutadigan shaxsiy fazilatlar, kasbiy xususiyatlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq holda ko’rib chiqish kerak.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta’lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta’lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ba’zi bir manbalarga ko’ra, ta’limning uzluksizligi to’g’risidagi ilk g’oyalarni ba’zi bir G’arb tadqiqotchilari xatto Suqrot, Aflotun, Aristotel va Senekaning insonning doimiy ravishda

ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas Islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan. Umuman, bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi XIX asrdagi sanoat inqilobi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar oqibati bilan bog'liq.

“Uzluksiz ta'lim” konsepsiyasi birinchi marta YuNESKOning 1965-yildagi forumida taniqli nazariyotchi P.Langrand tomonidan o'rtaga tashlanib sezilarli darajada nazariy va amaliy rezonansga sabab bo'ldi va natijada o'tgan asrning 60-yillari oxiriga kelib mazkur ibora ilmiy tahlilning maxsus predmetiga aylandi. Uzluksiz ta'limni xalqaro darajada o'rganishning ustuvorliklari o'z ichiga ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlovchi uzluksiz kasbiy ta'lim, qo'shimcha ta'lim, kattalar ta'limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta'limini va iqtisodiy modellarni qamraydi.

Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo'shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovskiy, N.V.Vasilenko, SM. Vishnyakova, V.I.Ilina, O.M. Nikandrov, V.I. Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin[4].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: “uzluksiz ta'lim – butun hayot davomida egallaydigan ta'lim”, “uzluksiz ta'lim – kattalar uchun ta'lim”, “uzluksiz ta'lim – bu uzluksiz kasbiy ta'lim” kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida “davom etuvchi ta'lim”, “hayot davomida o'qish”, “doimiy o'qish” iboralari keng qo'llaniladi.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi.

Umuman olganda, uzluksiz ta'lim shaxs va jamiyatning mos ehtiyojlari davlat va jamiyat institutlari va tashkiliy ta'minlovchi tizim orqali shaxsning butun hayoti davomidagi ta'lim salohiyatining o'sish jarayoni bilan kechadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi. Ta'limning turlariga o'z navbatida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'limni kiritish mumkin.

O'tgan yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko'maklashdi. Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, oxirgi yillarda o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog'lanmagan.

*Pedagogning kasbiy kompetensiyasi bu:*

- ✓ kasbga doir bilimlarga ega bo'lishi;
- ✓ o'z ustida muntazam ishlashi;
- ✓ o'quvchilarda motivatsiyani shakllantira olishi;
- ✓ xorijiy tillardan birini bilishi;
- ✓ ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- ✓ axborot-kommunikasiya texnologiyalarni bilishi;
- ✓ ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o'rnata olishi va b.

*Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:*

- o'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- o'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- o'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish va b.

Aholi turli toifalarini "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda[1].

### **Xulosalar**

Hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'ymoqda.

Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5313-sonli Farmoni. 2018-yil 25-yanvar.
2. Falsafiy ensiklopedik lug'at. – M., 1997-2003. – B. 143.
3. Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari tarix fani o'qituvchilari malaka toifalari uchun amaliy mashg'ulot ishlanmasi. – Namangan VPYMO'MM, 2023. – B. 33.
4. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi. Barcha malaka toifalari uchun o'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: S.Berdiyev. – T.: A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI, 2018. – B.41.



## **BOLALARGA HARAKATLI O'YINLARNI O'RGATISH SHARTLARI VA USULLARI**

Lutfullayev Bunyod Ismatovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Gmail: [fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni harakatli o'yinlar va sport bilan shug'illanirish orqali o'zini namoyon qilish, mustaqillik, ijodkorlik, o'zini o'zi tasdiqlash qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish hamda turli motorli ko'nikmalarni egallash va takomillashtirishga yordam berishi, jismoniy tayyorgarligini oshirishi va vosita faoliyatining sifat va miqdoriy jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlash.

**Kalit so'zlar:** ochiq o'yin, syujet, o'zgaruvchan mazmun, qoidalar, jismoniy faollik, motorli o'yin vazifalari, ijodkorlik, o'yin holati, bolalar munosabatlari, sport mashqlari, sport o'yinlari, fazoda orientatsiya, chang'i, suzish, suvga chidamlilik, soddalashtirilgan qoidalar, texnik elementlar o'yinlar, o'yin maydonchasi.

## **ТРЕБОВАНИЯ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АКТИВНЫМ ИГРАМ ДЛЯ ДЕТЕЙ**

Лутфуллаев Бунёд Исмаатович

Джизакский государственный педагогический университет Преподаватель кафедры массового образования социально-гуманитарных дисциплин.

Gmail: [fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье обсуждается развитие детей школьного возраста через участие в активных играх и спорте, акцентируя важность развития их самовыражения, независимости, творческих способностей и способности к самоутверждению. Также рассматривается способствование приобретению и совершенствованию разнообразных моторных навыков, улучшение физической подготовки и демонстрация положительного воздействия на качественные и количественные аспекты физической активности.

**Ключевые слова:** открытая игра, сюжет, переменный контент, правила, физическая активность, задачи моторных игр, творчество, игровая ситуация, детские отношения, спортивные упражнения, спортивные игры, фазовая ориентация, бег, прыжки, плавание, водная выносливость, упрощенные правила, технические элементы игр, игровая площадка.

## **TEACHING CONDITIONS AND METHODS FOR ACTIVE GAMES FOR CHILDREN**

Lutfullayev Bunyod Ismatovich

is a lecturer at the Department of Mass Education in Social-Humanitarian Subjects, Jizzakh State Pedagogical University

Gmail: [fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

**Abstract:** This article discusses the development of school-age children through engagement in active games and sports, emphasizing the enhancement of their self-expression, independence, creativity, and self-affirmation capabilities. It also promotes the acquisition and refinement of various motor skills, the improvement of physical fitness, and demonstrates the positive impact on the quality and quantity aspects of physical activity.

**Key words:** *open play, plot, dynamic content, rules, physical activity, motor game tasks, creativity, game situation, child relationships, sports exercises, sports games, phase orientation, running, jumping, swimming, water endurance, simplified rules, technical elements of games, playground.*

### **Kirish**

Maktabgacha ta'lim muassasasida harakatli o'yin jismoniy tarbiyaning ajralmas vositasidir. Bolalar o'yindan zavqlanishadi va "mushak quvonchini" his qilishadi. O'yinning hissiy foni katta jismoniy faoliyatga erishishga imkon beradi. Bu turli motorli ko'nikmalarni egallash va takomillashtirishga yordam beradi, ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi va vosita faoliyatining sifat va miqdoriy jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ochiq havodagi o'yinlar organizmning a'zolari va tizimlarining funktsional rivojlanishini faollashtiradi, turli analizatorlar, asab jarayonlari funktsiyalarini yaxshilashni rag'batlantiradi, qo'zg'alish va tormozlash jarayonlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Harakatli o'yinlarda bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Maqsadli 469olani469ic ta'sirga ega ochiq o'yinlar, vosita qobiliyatlarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'zini namoyon qilish mustaqillik, ijodkorlik, o'zini o'zi tasdiqlash qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Birgalikda o'yin faoliyati 469olani hayotda ko'pincha barqaror bo'lib chiqadigan va ko'pincha shaxsning umumiy yo'nalishini oldindan belgilab beradigan qiymat yo'nalishlariga dastlabki yo'nalish beradi. Mobil o'yinlarning, umuman o'yinlarning paydo bo'lishi uzoq o'tmishda ildiz otgan. Tarixan har bir xalq o'ziga xos milliy o'yinlarini jamlagan. Ular o'yinchilarning butun guruhlarini faol vosita faoliyatiga jalb qildilar. Qoida tariqasida ko'chada olib borildilar, buning natijasida ular davolanishning muhim vositasiga aylandi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Texnologiya – yunoncha ikki so'zdan – “texnos” (techne) – mahorat, san'at va “logos” (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiya ish usullarini, uning rejimini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Mehnat jarayonida texnika va texnologiyalarning roli mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Bugungi kun mehnat an'analari va zamonaviy texnologiyalar birligi ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu jarayonda uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan texnologiya fanining mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Texnologiya fani nazariyasining markazida ta'lim jarayonining asosiy ikki ishtirokchilari: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar turadilar. Har ikki ishtirokchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari natijasida eng zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishiga olib keladi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi didaktik tamoyillariga amal qilinishi zarur:

- onglilik va faollik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi onglilik tamoyili ta'lim oluvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.

- ilmiylik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi ilmiylik va tizimlilik tamoyili ta'lim oluvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

- tizimlilik va izchillik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi tizimlilik va izchillik tamoyili asosida o'qitish bu mashg'ulotlarni qat'iy mantiqiy tartibda olib borib, o'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab borishlari va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganishni nazardan tutadi. Zero, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning ta'biri bilan aytganda, - hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak.

- yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlari uchun tanlab olingan fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, kashfiyotlari ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlarni egallashi, ularda ilmiy dunyoqarash, tafakkurni rivojlanishi, har bir mashg'ulotlarda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmunini anglab olishi, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirilishi hisobga olinadi. Zero, har bir ta'lim oluvchi o'zining individual jismoniy, psixik va axloqiy xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Ta'lim beruvchining bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir ta'lim oluvchining ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quv materialini ta'lim oluvchining yoshiga va individual xususiyatiga mos holda o'tish uchun ta'lim beruvchi quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

- ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarining anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi;

- ta'lim beruvchining o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va zarur qo'shimcha adabiyotlarni qunt bilan o'rganib chiqishi;

- guruhdagi ta'lim oluvchilar tarkibi, fan va mavzuning maqsadi hamda xarakteriga, darsning maqsadiga qarab o'qitishning yangi – yangi usullarini qo'llashi;

- mashg'ulot jarayonida o'z nutqini izchil, tizimli va emotsional, ta'sirli bo'lishiga erishish;

- mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilar diqqatini markazlashtira olishi va hokazo.

- nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili asosida tashkil etish – ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar bilan ishlab chiqarish faoliyat ehtiyojlari asosida paydo bo'lishi va aynan faoliyatga xizmat qilishi, shuningdek, hayot bilan bog'lanishi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozimligini ta'minlaydi. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida nazariya va amaliyot birligi tamoyilining tadbiri quyidagi xulosalarga olib keladi:

- har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;

- amaliyot - haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish ko'lami;

- to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;

- ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi;

- bilim berishning samaradorligi. uning kasb ta'limi bilan bog'liqligi bilan belgilanadi;

- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

- ko'rsatmalilik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishdagi ko'rsatmalilik tamoyili – ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba orqali bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilishlariga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida ko'rsatmalilik tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning ko'rish, eshitish, xid bilish, badan bilan sezish, hatto ta'm bilish sezgilaridan ham foydalanishni talab etadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qilishda mehnat usuli va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi. Zero, ko'rsatmalilik ta'lim oluvchilar qiziqishini orttiradi va mavzuni puxta o'zlashtirishga qiziqtiradi, o'tilayotgan mashg'ulot mavzusini yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi. buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'biri bilan aytganda, ko'rsatmalilik didaktikaning oltin qoidasidir.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida bilimlarni mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyili, politexnik tamoyil, texnologiya darslarini unumli mehnat asosida o'qitish tamoyili [1], reduksiya tamoyili, tushunarli bo'lishlilik tamoyili, faollik kabi tamoyillarga ham amal qilishlik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda dasturil amal bo'ladi. Zero, olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir- biridan farq qilsa ham, ammo ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi asosan bir xildir.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda didaktik tamoyillar bilan bir qatorda shunday didaktik qoidalar ham mavjuddirki, ularga amal qilish ta'lim beruvchidan alohida maxoratni talab etadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi tavsiyalarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir:

- texnologiya fani mashg'ulotlarini pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lab olib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida mahalliy ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini muhokama etib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida xorijiy ta'lim metodikalarini muntazam o'rgatib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida fanning asosiy iimiy izlanish natijalariga tayanish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarining mazmuni xorijiy o'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning aqliy, iroda va axloqiy sifatlarining rivojiantirilishiga e'tibor berish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, ko'rgazmali va tarqatma materiallardan unumli foydalanish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida uzatish qurilmalari yordamida slaydlar va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish;





- texnologiya fani mashg'ulotlarida pedagogik va zamonaviy axborot texnologiya yutuqlarini doimiy qollash;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida interfaol usullar, ta'limiy vositalar, didaktik o'yinlarni tadbiq etish.

### **Xulosalar**

Xalqimiz azaldan mehnatni ulug'lagan. Mehnatsevarlik kishilarning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb hisoblangan. Kishilar halol mehnat qilib, shuning evaziga topgan daromadlari hisobiga yashamoqlari va bolalarini ta'minlamoqlari lozim. «Peshona teri bilan topgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etgan xazinalaridan yaxshiroqdur» - deb yozgan edi Alisher Navoiy. Bugungi kunda yosh avlodning mehnat tarbiyasida texnologiya fani mashg'ulotlarini to'g'ri va samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, yoshlarga kasb tanlashida, barkamol shaxs bo'lib yetishishida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida texnologiya fanining mashg'ulotlari asosiy ko'makchi va muhim manba vazifasini o'taydi. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlarida duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik, pazandachilik sohalariga oid kasb-hunarlar bilan tanishtiriladi. Bu tanishtirish yoshlarni kelajak hayotida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Zilola Durdimurotovna Rasulova Texnologiya darslarini tashkil etishning didaktik tamoyillari "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10 [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 432-b
2. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
3. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARGA ETNOMADANIY TA'LIM VA TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Erkinjonova Guljahon Farhodjon qizi  
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
erkinjonovaguljahon@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bolalarga etnomadaniy ta'lim va tarbiya berishning ahamiyati, pedagogik shart sharoitlari yoritilgan. Bugungi o'sib kelayotgan yosh avlodni shiddat bilan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat, yot g'oyalar ta'siridan saqlash uchun unga etnomadaniy, milliy va tarixiy tarbiya berishning zarurati asoslangan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga etnomadaniy ta'lim-tarbiya berishning nazariy asoslari metod va usullari ishlab chiqilgan. Etnomadaniy tarbiya berishda bevosita bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlarini hisobga olish lozimligi va buning zamirida milliy ong, milliy g'urur, iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllantirishni inobatga olinishi zarurligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** etnomadaniyat, mentalitet, madaniyat, qadriyatlar, pedagogik strategiya, milliy me'ros, hunarmandchilik, milliy qo'g'irchoqlar.

## PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ETHNO-CULTURAL EDUCATION AND EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Erkinjonova Guljahon Farhodjon's daughter  
Teacher of the Department of Education of Kokan University  
erkinjonovaguljahon@gmail.com

**Annotation:** This article describes the importance of ethnocultural education and upbringing of children in preschool education, pedagogical conditions. In order to protect today's growing young generation from the influence of mass culture and foreign ideas, there is a need to provide them with ethnocultural, national and historical education. Also, the theoretical foundations, methods and methods of ethnocultural education of preschool children have been developed. The need to take into account the child's age and individual characteristics, interests, and the need to take into account the formation of national consciousness, national pride, pride, and patriotism in providing ethno-cultural education.

**Key words:** ethnoculture, mentality, culture, values, pedagogical strategy, national heritage, crafts, national dolls.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

Эркинжонова Гуляхон Фарходжон дочь  
Преподаватель кафедры образования Университета Коканд  
erkinjonovaguljahon@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье описывается значение этнокультурного образования и воспитания детей в дошкольном образовании, педагогических условиях. Чтобы защитить сегодняшнее подрастающее молодое поколение от влияния массовой культуры и иностранных идей, необходимо обеспечить им этнокультурное, национальное и историческое образование. Также разработаны теоретические основы, методы и методы этнокультурного воспитания

детей дошкольного возраста. Необходимость учета возраста ребенка и его индивидуальных особенностей, интересов, а также необходимость учета формирования национального самосознания, национальной гордости, гордости и патриотизма при обеспечении этнокультурного воспитания.

**Ключевые слова:** этнокультура, менталитет, культура, ценности, педагогическая стратегия, национальное наследие, ремесла, национальные куклы.

### **Kirish**

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.<sup>113</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalariga katta e'tibor qaratilganligini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama: aqliy, estetik ma'naviy hamda madaniy, xususan, etnomadaniy ta'lim va tarbiya berish bugungi kun maktabgacha ta'lim tarbiyaning talabidir.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Mamlakatimiz ta'limining barcha bosqichlari sifatini oshirishni maqsad qilib qo'ygan va ta'limda milliylikni saqlash va mustahkamlashga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi milliy madaniyatning o'ziga xosligini, o'zbek, uning qadriyatlari tizimini hisobga olgan holda bola shaxsning ijtimoiy - madaniy shakllanishi uchun sharoit yaratishdir. Tarixdan ma'lumki, ta'lim va madaniyatning birligi, rivojlanishning, ilm-fan taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalashda bolalikdan xususan, maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatga mehr - muhabbat ruhida tarbiyalash bolalarda milliy ong, milliy g'urur, vatanparvarlik kabi yuksak qadriyatlarning kamol topishiga zamin yaratadi. Maktabgacha ta'limda milliy va etnomadaniy tarbiyaning konseptual va nazariy yondashuvlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu o'rinda maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshidagi bolalar uchun o'zbek xalqining etnik-madaniy me'rosini o'rgatishning yaxlit dasturi hamda staregiyasini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj muommoning dolzarbligini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda ta'limning dolzarb yo'nalishi bolalarda etnik o'zini o'zi anglash, milliy madaniyat va an'analarga qiziqishni shakllantirishdir. Maktabgacha yoshi, ma'lumki, ijtimoiylashish, bolalarda o'zi va jamiyat haqida dastlabki g'oyalarni shakllantirish, qiziquvchanlik bilan tavsiflanadi. Har bir xalqning tarixi davomida ona tili, xalq og'zaki ijodi, etnik timsollari, urf-odatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy tarbiyasini shakllantirishda

<sup>113</sup> O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

an'ana va urf-odatlardan foydalanish ularning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'sir qilish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

G. B. Yelena etnomadaniyat millatning rivojlanish tarixi, uning mentaliteti, milliy xarakter stereotipi, milliy o'ziga xoslik - maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini etnik-madaniy tarbiyalash jarayonini amalga oshirishdagi bilimlar bilan uzviy bog'liqdir deb ta'kidlab o'tgan. Ushbu sohadagi zamonaviy tadqiqotlar: M. Bogomolova, G. N. Volkov, S. A. Kozlova, M. B. Kojanova, L. V. Kolomiychenko, T. S. Komarova, N. A. Platoxina, T. V. Postareva, T. Yu. Kupach, S. N. Fedorova, A. N. Frolova, R. M. Chumicheva va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni etnomadaniy tarbiyalash sohasida bolaning etnomadaniy shaxsini shakllantirish va rivojlantirishning turli usullarini o'rganmoqda. Etnomadaniy ta'limning pedagogik strategiyasini ishlab chiqish umuminsoniy va milliy - mintaqaviy qadriyatlar asosida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni etnomadaniy - milliy tarbiyalashning maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlari, tamoyillari, tashkiliy va pedagogik sharoitlarini aniqlash zarurligini belgilaydi.

Etnik-madaniy ta'limning uslubiy va nazariy asoslari falsafiy, tarixiy va pedagogik darajalarda ishlab chiqilgan. Etnik madaniy va pedagogik merosini o'rganish muhimligini hisobga olgan holda zamonaviy tadqiqotchilarning turli xil tushunchalari M.M.Baxtin, V.S.Bibler asarlarida keltirilgan, A.S.Arsenyeva, R.L. Livshitsa, D.S.Lixacheva va boshqalar an'analarni madaniy va ijtimoiy hayot sohalarida, Real amaliyot va fanda semantik va funktsional maqsadlar nuqtai nazaridan o'rganish Yu.V.Bromley, G.N.Volkov, M.Zaburlin, N.Kostomarov va boshqalar tomonidan amalga oshirildi. Etnografik tadqiqotlardagi muammolar S. A. Arutyunova, G.D.Gacheva, L. M. Drobijeva netnik madaniyatni ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida o'rganishning uslubiy ahamiyati, tarixiy rivojlangan shakllar, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning birligi va xilma - xilligidagi hayotning o'ziga xos usuli I. G. Gerder, E. Taylor, D.J.Fraser asarlarida ochib berilgan.

M.B. Sharipova, M.M.Islomova Maktabgacha ta'limda etnomadaniy tarbiyani o'rganishda uning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydi va uni tarixiy nuqtai nazardan kelib chiqib fikr bildiradi: O'rta Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda "Avesto" ning o'rni beqiyosdir. Unda diniy e'tiqod va xalqlarning o'zaro aloqalari bilan bir qatorda ularning hayoti, etnik madaniy hayoti va ta'limi, turmushi, urf-odatlari, marosimlari aks ettirilgan. Shuningdek bu buyuk asarda tarix, falsafa, dinshunoslik, manbashunoslik, geografiya, etnografiya va umuman, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga oid eng qadimgi ma'lumotlar to'plangan<sup>114</sup>.

Tarbiyachi-pedagog etnomadaniy bilimlar, tajribalar va dunyoqarashga ega bo'lishi kerak tarbiyachining etnomadaniy bilimi, dunyoqarashi boy emasligi, tajribasizligi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining qashshoqlashishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o'zbek tadqiqotchilaridan A.B. Isomiddinov ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchi, yosh avlodga bilim beruvchi pedagoglarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish, ularni tarixiy, ijtimoiy va madaniy bilimlar bilan qurollantirish g'oyasini ilgari surgan. Tadqiqotchi "Etnomadaniy kompetensiya har bir shaxsning sifatlaridan biri bo'lib,

<sup>114</sup> Sharipova M., Islomova M. Maktabgacha ta'lim tizimida etnik-madaniy ta'lim tizimi. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2023-yil 20-aprel <https://buxdu.uz>

ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi pedagoglarda muhim hisoblanadi. Chunki tez o'zgarayotgan ko'p millatli mamlakatimiz va butun dunyoda etnik renessanstendensiyasi hamda migrantlarning kengayishi barcha turdagi jumladan oliy ta'lim oldidagi dolzarb vazifa sanaladi. Bo'lajak pedagoglarni ko'p elatli muhitdagi hayotiy vaziyatlarga tayyorlash zarur" - deb ta'kidlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarni etnomadaniy tarbiyalashning pedagogik strategiyasi va tashkiliy-pedagogik sharoitlarini modellashtirish asosida amalga oshiriladi, bu bolaning faoliyati va qiziqishlarida namoyon bo'ladigan etnomadaniy ta'lim darajasini ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni etnik-madaniy tarbiyalash muammosi shunchalik ko'pki, uni har tomonlama o'rganish uchun bitta metodik va nazariy yondashuvni qo'llash yetarli emas, bu tadqiqotning asosiy tushunchalarini shakllantirish uchun bir-birini to'ldiruvchi va konkretlashtiradigan turli xil ilmiy harakatlarni talab qiladi.

Tadqiqotning metodik asosi madaniy - mantiqiy, gumanistik, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, faoliyatga asoslangan yondashuvlar to'plamidir. Barcha yondashuvlar umumiy metodologiya doirasida va belgilangan ilmiy vazifalarga mos keladigan ma'lum bir mantiqiy tizimda qo'llaniladi. Belgilangan maqsadga erishish va muammolarni hal qilish uchun bir qator usullardan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijasi**

Xalq madaniyati ko'p asrlik an'analar, tajribalar, millatning o'zligini anglash vositasi, shuningdek, falsafiy, axloqiy-estetik qarashlar, ideallar ifodasidir. Bolalarni xalq madaniyatining kelib chiqishi bilan tanishtirish uchun quyidagi ish yo'nalishlarini ajratish mumkin:

- bolalarni boy o'tmishga ega yurtimiz tarixi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash;
- bolalarga O'zbekiston Respublikasi haqida umumiy tushuncha berish;
- o'zbek xalqi milliy urf-odatlarini, turmush tarzi va madaniyati bilan tanishish (ko'rgazmali materiallar, videofilm va multimedial materiallar asosida samaraliroq bo'ladi)
- maktabgacha yoshdagi bolalarda etnik-madaniy kompetensiyani shakllantirishda to'plangan uy-ro'zg'or buyumlari, xalq amaliy san'ati va ijodiyoti na'munalari alohida o'rin tutadi.

Bolalarga milliy liboslar, antiqa idishlar, naqqoshlik san'ati na'munasida tayyorlangan buyumlar, kulolchilik na'munlari ko'rsatiladi. Bu san'at na'munalari va buyumlari ularda katta qiziqish uyg'otadi, madaniy o'tmishimiz an'alarini eslatadi va tanishtiradi. Ajdodlarning o'tmishdagi hayoti haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.



*1-rasm O'zbek milliy hunarmandchilik na'munalari*

*Milliy qo'g'irchoq orqali maktabgacha yoshdagi qizaloqlarga etnik-madaniy tarbiya berish.*

Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari, g'oyalari, an'analari va ta'lim tajribasi mavjud. Shunday ekan, tarbiyachining asosiy vazifasi milliy madaniyatimiz orqali ma'naviy-axloqiy imkoniyatlarini ochib berish va uning mazmun mohiyatini har bir bolaga qulay shaklda yetkazishdan iboratdir.

Turli yosh guruhida hikoyaga asoslangan o'yinlar qo'llaniladi: "Qo'g'irchoq tushlik qilyapti", "Keling, qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqlar mehmonga kelishdi" va h.k.

*2 rasm.  
milliy*



*O'zbek*

*qo'g'irchoqlari*

Tarbiyachi turli vaziyat va muammoli masalalarni hal qilish usullarini taklif qiladi. Bu yoshda qo'g'irchoq bilan o'ynash xalqning an'analari, turmush tarzi va oilaviy qadriyatlari bilan tanishishni aks ettiradi. Qo'g'irchoq o'z-o'zidan tug'ilmaydi, uni inson yaratadi. U bolalarning ko'z o'ngida, tasavvur, g'oyalar, fikrlar yordamida jonlanadi. Bolalar qo'g'irchoqlarning yaratuvchisi, qo'g'irchoqlar esa bolalik dunyosi va kattalar dunyosi o'rtasidagi vositachilardir.

Bolalar bog'chasida qo'g'irchoqlar bilan bog'liq turli didaktik O'yinlarni taklif qilish mumkin: "Qo'g'irchoqlar raqsga tushishadi", "Qo'g'irchoqlarnikiga tashrif buyurish", "Lolahonning mehmonlarini davolaylik", "Men va qo'g'irchoq". Bolalar bilan qo'g'irchoqni yuvintirish o'yinidan foydalanishingiz mumkin. Ular uning oldiga o'yinchoqlarni qo'yishadi va: "Qo'g'irchoq kir bo'lishdi", deyishadi. Bola qo'g'irchoq bilan bir qator ketma-ket harakatlarni bajaradi: qo'g'irchoqni vannaga qo'yadi, sovun o'rniga kubdan foydalanadi, shingichni ishqalaydi, qo'li bilan tananing qismlarini yuvadi. Barcha elementlarni o'z maqsadlari uchun ishlatadi. Barcha bolalar qo'g'irchoqlar bilan o'ynashni va ularni kiyintirishni yaxshi ko'radilar. Uni kiyish orqali bola milliy kiyimlarni taniydi.



3- *rasm O'zbek milliy qo'g'irchoqlari "Qo'g'irchoqlar mehmonda"*

Qadriyatlar va milliy ma'naviy boyliklar avloddan-avlodga nafaqat og'zaki vositalar, balki qo'g'irchoqlar, buyumlar, hunarmadchilik na'munalari, me'moriey obidalar orqali ham O'tadi. Ular kognitiv va kommunikativ funksiyalarni bajaradilar. Xalq o'yinchoqlarining kundalik hayotdan yo'qolishi o'z xalqining an'analari va madaniyatidan bexabarlikni anglatadi. Qadim zamonlardan beri O'yinchoqlar ramziy ma'noga ega. Ular haqiqiy uy-ro'zg'or buyumlarining nusxalari. O'yinchoqlar bolalarni o'z maqsadlari bilan tanishtiradi va bolaga an'anaviy g'oyalar va real hayot dunyosiga kirishga yordam beradi. Qo'g'irchoqlar bilan o'yinlar oilaviy qadriyatlarni va ularning xalqlarining madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Qo'g'irchoq - bu bola uchun butun dunyo. Unda turli asrlardagi xalq hayotining O'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoqlar bilan o'ynash jamiyatga moslashishga yordam beradi. Davlat ta'lim standartiga muvofiq, mustaqil o'yin faoliyati bola hayotida juda katta o'rin egallaydi va ularning rivojlanishi rivojlantiruvchi muhitga bog'liq.

Men tadqiqot olib borayotgan Qo'qon shahar 11- D.M.T.T. tashkiloti maktabga tayyorlov guruhida syujetli-rolli O'yinlar va sahnalashtirish markazida "Qo'g'irchoqlarni uxlatamiz" mavzusida syujetli rolli o'yinlar o'ynaldi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar milliy qo'g'irchoqlarimizga ko'proq qiziqish bildirib, ularning milliy, rang-o rang liboslariga mahliyo bo'lib qolishdi, qo'g'irchoqlarga o'zlarini mehr, e'tiborlarini ko'rsatib milliy : qo'shig'ini ijro etishdi o'yin faoliyatidan keyin musiqiy faoliyatida o'zbek milliy liboslarini kiyib "Alla" kuyini kuylashdilar. (4-rasm)



4-rasm

Joriy yilda Qo'qon shaxrida xalqaro hunarmandchilik katta festivali bo'lib o'tdi, unda turli davlatlardan hamda Respublikamizning barcha viloyatlaridan tashrif buyurgan hunarmandlar o'zlarining milliy hunarmandchilik na'munalarini namoyish etishdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari bilan ushbu festivalga ekskursiya uyushtirildi. Bolalar turli millatlarning hamda yurtimizning hamma hududlaridan kelgan hunarmandlarning ijod mahsullari bilan tanishdilar, ularni katta qiziqish va hayrat bilan tomosha qildilar. Bu festival bolajonlarda katta taassurot qoldirdi, dunyoqarashini o'stirishga hissa qo'shdi, shu bilan birgalikda hunarmandchilikning turli yo'nalishlarini qiziqish bildirib ularni o'rganishni oldilariga maqsad qilib qo'ydilar deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Muhokama**

O'z ajdodlari tarixi va madaniyatini bilmagan xalq ma'naviy tanazzulga mahkum. Bizga yaxshi ma'lum bo'lgan bu haqiqat bugun yangi kuch bilan aks-sado bermoqda. Shu bois an'anaviy xalq madaniyati asoslarini, madaniy makonni rivojlantirishning ming yillik tajribasi va uni kelajak avlodlarga yetkazish mexanizmlarini chuqur anglash zarurligini qayd etamiz. Atrofdan yashovchi xalq madaniyati bilan tanishish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, milliy madaniyat haqidagi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi, insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan boyitadi. Bola madaniyatning ijodkori va sub'ektidir, shuning uchun tarbiyachi uchun bolalik davrida o'z ona yurti haqida g'oyalarni shakllantirish, ijodiy shaxs, o'z mamlakatining fuqarosi va vatanparvarini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Etnomadaniy ta'limning maqsadi bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, milliy madaniyat qadriyatlarini bilish orqali kamolotga intilishni uyg'otish, bu tajribada ta'limning etnik-madaniy yo'nalishi orqali o'tadi. Bizning ishimizda an'anaviy madaniyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bolalarning pedagogik jarayoni va badiiy va ijodiy faoliyati asosida yotadi, bu esa bolaning shaxsiyatining ijodiy salohiyatini ochish va rivojlantirishga yordam beradi.

Madaniy merosni asrab-avaylash va tiklash ona zamindan boshlanib, yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Milliy madaniyat bola uchun jahon madaniyati boyliklarini o'zlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z shaxsiy madaniyatini shakllantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ladi.

#### **Xulosa**

Bolalarni O'z ona yurtining tarixiy merosi bilan tanishtirishda jamoat joylariga: o'lkashunoslik muzeylariga, kutubxonalarga, hunarmandchilik festivallariga ekskursiyalarni



tashkil etish orqali yosh fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirish ishlari katta ahamiyatga ega. Ekskursiyalar, ko'rgazmalar, muzeylar va boshqa madaniy ob'ektlarga tashrif buyurish nafaqat mahalliy atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga, balki boshqa etnik xalqlar madaniyati, turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradigan ajdodlar va ularning me'rosiga xurmat tuyg'ulari shakllanadi.

O'zbek xalqi madaniyatini o'rganish nafaqat bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi, balki shaxslararo muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayoniga xalqimiz madaniyatining qadriyatlari va an'alarini kiritish ko'plab ta'lim maqsadlari va vazifalarini hal qilishga imkon beradi:

- bola shaxsining kognitiv, kommunikativ, axloqiy, jismoniy, estetik salohiyatini rivojlantirish;

- bolaning shaxsiyatini, bilimni tarbiyalash;

- kasb-hunarga qiziqishlarini paydo bo'lishi;

-ajdodlar me'rosiga bo'lgan xurmat -e'tibor

-milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari , vatanparvarlik tuyg'usining shakllantirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2. Sharipova M., Islomova M. Maktabgacha ta'lim tizimida etnik-madaniy ta'lim tizimi. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2023-yil 20-aprel <https://buxdu.uz>

3. Isomiddinov Asliddin Baxridin o'gli Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 12-son 19.10.2022

4. Попова М. И. Основы истории культуры малочисленных народов Таймыра. - СПб. Дрофа, 2007.



## FIZIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

[akmalmadaliyev86@gmail.com](mailto:akmalmadaliyev86@gmail.com) +99893 040 86 60

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham sifat darajasi hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ta'limning jahon tajribasidan shu narsa ayonki o'quvchining sinfda va sinfdan tashqari ishlarda ham fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada maktablarda fizika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** mustaqil ish, fizika, interferensiya, difraksiya, panjara, dispersiya, plastinka, kuzatish, tajriba.

## МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕ КЛАССНОЙ РАБОТЫ ПО ФИЗИКЕ

Мадалиев Акмалжон Махаммаджонович

Коканский государственный педагогический институт

[akmalmadaliyev86@gmail.com](mailto:akmalmadaliyev86@gmail.com) +99893 040 86 60

**Аннотация:** В нашей стране, как и во всех сферах, уровень качества системы образования сегодня является актуальным вопросом. Из мирового опыта образования видно, что важной задачей является повышение интереса учащихся к науке как на уроках, так и вне занятий. В данной статье говорится об организации и проведении внеклассной работы по физике в школах.

**Ключевые слова:** самостоятельная работа, физика, интерференция, дифракция, решетка, дисперсия, пластинка, наблюдение, эксперимент.

## METHODOLOGY OF ORGANIZATION OUTSIDE CLASS WORK IN PHYSICS

Madaliyev Akmaljon Makhammadjonovich

Kokan State Pedagogical Institut

[akmalmadaliyev86@gmail.com](mailto:akmalmadaliyev86@gmail.com) +99893 040 86 60

**Annotation:** In our country, as in all fields, the level of quality in the education system is an urgent issue today. It is clear from the world experience of education that it is an important task to increase the student's interest in science both in the classroom and outside the classroom. This article talks about the organization and conduct of extracurricular activities in physics in schools.

**Key words:** independent work, physics, interference, diffraction, lattice, dispersion, plate, observation, experiment.

### Kirish

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinf dan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinf dan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni

tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Yurtimizning taniqli metodistlaridan M.Djo'raev sinfdan tashqari ishlarni ko'rinishlaridan biri sifatida fizika yoki astronomiyadan olimpiadalarni tashkil qilish, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda fanni yanada chuqurroq o'zlashtirishga turtki bo'lishligini takidlab o'tgan [1]. N.Sadriddinov va boshqalar "Fizika o'qitish uslubi asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida quyidagi fikrlarni berishgan: o'quvchilarning mahorat va malakalarni shakllantirishning samaradorligini oshirish yo'llaridan biri turli fizik asboblarni qo'llanishiga bog'liq bo'lgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishdir. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ayniqsa, to'garak ishlari katta imkoniyatlarga egadir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda fizika bilan biologiyani, fizika bilan kimyoni bog'lanishini amalga oshirish ham mumkin [2]. Rossiya davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi S.G.Kovaleva o'zining nomzodlik ishida [3] fizikadan sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bog'lash zarurati muammosini aniqlaydi va o'quvchilarning bilimlarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish uchun ushbu aloqalarni amalga oshirish metodologiyasini taklif qilgan va asoslab bergan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan (uy) kuzatish ishlari va tajribalar nazariya bilan amaliyotning bog'lanish sohasini kengaytiradi, o'quvchilarni mustaqil izlanish ishiga o'rgatadi, fizika va texnikaga qiziqishlarini orttiradi. Uy tajribalarining sinfdan tashqari bajarilishi va sodda bo'lishi, o'quvchilarning yoshiga mos tushishi lozim.

Masalan: 6-7-sinf o'quvchilarining uylarida quyidagi asboblarni bo'lishi yetarli deb hisoblaymiz. Masshtab chizg'ichi, menzurka, voronka, shaynli tarozi (toshlari bilan), dinamometr, termometr, magnit, temir qipiq, ulagich simlar, rezina va shisha naychalar. Bu yoshdagi o'quvchilarga masalan, quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

Fanerning qalinligini, simning diametrini, yurakning har bir urishi orasidagi vaqtni, menzurka yordamida idishning hajmini aniqlash va suvning qaynashini kuzatish va h.k.

Biz quyida sinfdan tashqari ishlarda fizika fanining Optika bo'limiga doir interferensiya, difraksiya va dispersiya hodisalarini kuzatishga usullari va vositalarini keltirib o'tamiz.

*Chang bosgan ko'zgudagi interferensiyani kuzatish:* Agar chang bosgan ko'zgu oldida sham yoki fonarcha yoqilsa, alanga (lampochka) atrofida tovlanma hoshiyani ko'rish mumkin. Bu hoshiya sirtini tartibsiz chang zarralari qoplagan ko'zgudan qaytgan yorug'lik interferensiyasi tufayli paydo bo'ladi. Chang zarralari "difraktsion panjara"ni hosil qiladi. Bunday hodisa ba'zan Quyosh yoki oyni o'ragan "toj" – rangli konsentrik aylanalarni hosil bo'lishiga o'xshaydi. Bu yerda chang rolini atmosferadagi suv tomchilari o'ynaydi.

Doimiy chang bosgan ko'zguni hosil qilish uchun toza shisha bo'lagini, masalan, tozalangan fotoplastinkani olib, sirtiga yupqa qilib vazelin surkash va bir tekis qilib likopodiy kukuni (o'simlik sporalari) sepish kerak. Uning ustiga xuddi shunday plastinkani qo'yib, ular orqali sham alangasiga qarasa, sham atrofida bir nechta halqadan iborat rangli hoshiya o'rab olganini ko'rasiz. Har qaysi halqa ichida ko'k rang, tashqarisida qizil rang ko'rinadi.

*Tirqishdagi difraksiya:* Alyuminiy folga (zarqog'oz) bo'lagini olib, unda britva bilan tirqish ochiladi. Tirqishning uzunligi 3–5 sm bo'lishi kerak. Agar folgani yuzimizga yaqinroq tutib, bir ko'zimiz bilan tirqish orqali sutrang lampochkaga qarasa, qoramtir tik yo'llarni ko'ramiz. O'rtadagi yo'l aniqroq, chetdagilari xiraroq ko'rinadi. Bunga o'xshash tajribani hech qanday

moslamasiz ham qilish mumkin. Buning uchun bosh va ko'rsatkich barmoqlarimizni bir-biriga tegay-tegay deb qolganda tirqishda qoramtir yo'l hosil bo'lganini ko'ramis.

*Prizma o'rniga uzoq chaladigan plastinka:* Endi bir tirqishli tajribalardan ko'ptirqishlar orqali interferension manzara kuzatiladigan eksperimentlarga o'tamiz. Ko'p tirqishli bunday qurilma difraksion panjara deb ataladi. Difraksion panjarani mustaqil ravishda qanday yasash mumkinligini keyinroq ko'ramiz. Oldin hamisha topish mumkin bo'lgan vositalardan foydalanamiz. Igna yuradigan yo'llarning orasi taxminan  $d=0,1\text{mm}$  bo'lgan uzoq chaladigan plastinkani difraksion panjaraga o'xshatsa bo'ladi. Panjara davrining effektiv qiymati  $d'$  ni yorug'lik  $\lambda$  qiymatiga yaqinlashtirish uchun shunday qilish kerakki, yorug'lik nuri plastinkaga kichik burchak ostida tushsin. Shunda nur tasvirini ko'z bilan kuzatib, kamalakning barcha ranglariga bo'yalgan yo'llarni ko'rish mumkin.

### **Tahlillar va natijalar**

Tajriba va kuzatishni ishlarini bajarishdan avval uning maqsadi va bajarish usullari aniq berilishi kerak. O'quvchilarga kuzatiladigan fizik hodisaga doir savollar oldindan berib qo'yilsa ular bu kuzatish va tajribalardan berilgan savollarga javob topadilar, qolaversa bajargan ishlari haqida qanday hisobot yozishlari tushuntiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari tajriba va kuzatish ishlarini muntazam ravishda tekshirib borilsa, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari, tabiatga bo'lgan mehri ortadi va ijodkorlik qobiliyati shakllanadi.

### **Xulosalar**

Fizika darslari qanchalik takomillashgan, darsda o'quvchilarning aktivligi qanchalik yuqori bo'lmasin, sinfdan tashqari kuzatish va tajriba ishlari fanni o'qitishda juda ham muhim ahamiyatga egadir.

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan kuzatish va tajriba ishlari:

- nazariya bilan amaliyotning bog'lanish sohasini kengaytiradi;
- o'quvchilarning mustaqil izlanishga o'rgatishni osonlashtiradi;
- fizika va texnikaga qiziqishlarini orttiradi va dunyoqarashini kengaytiradi;
- tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. M.Djoraev, B.sattorova. Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi/ Toshkent. – 2015. 224-225 b.
2. N.Sadriiddinov, A.Rahimov, A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. Fizika o'qitish uslubi asoslari/ Toshkent. "O'zbekiston". – 2006. 112-113 b.
3. С.Г.Ковалева. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук// Санкт-Петербург. – 2004. С.16



## MOBIL ALOQA TIZIMINING HISOBLASH USULLARI

Melibaev Muxtardjan

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.

E-mail: m.meliboyev [1950@mail.ru](mailto:1950@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada mobil aloqa tizimida elektromagnit nurlanish maydonini hisoblash metodlari ko'rilgan. Bu ishni bajarishda birjinslik bo'lmagan Quyosh fotosferasi muhitida elektromagnit to'lqinlarining tarqalish mexanizmini Yer atmosferasi sharoitiga qo'llangan. Agar Yer sharoitida joylarning topologik sonlik xaritasi mavjud bo'lsa bu metod bilan hisoblashlarning yaxshi natijasiga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** mobil aloqa tizimi, topologik sonlik xarita, elektromagnit to'lqinlar, bazaviy antenna, ishchi chastota.

## МЕТОДЫ РАСЧЕТА СИСТЕМЫ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ

Мелибаев Мухтарджан

Доцент Кокандского государственного педагогического института, кандидат физико-математических наук.

E-mail: m.meliboyev [1950@mail.ru](mailto:1950@mail.ru)

**Аннотация:** В статье рассмотрены методы расчета поля электромагнитного излучения в системе мобильной связи. При выполнении этой работы механизм распространения электромагнитных волн в неоднородной среде солнечной фотосферы был применен к условиям земной атмосферы. При наличии топологической карты мест в условиях Земли можно добиться хорошего результата расчетов этим методом.

**Ключевые слова:** система мобильной связи, топологическая цифровая карта, электромагнитные волны, базовая антенна, рабочая частота.

## CALCULATION METHODS OF MOBILE COMMUNICATION SYSTEM

Melibaev Muxtardjan

Uzbekistan, Associate Professor of the Kokand State Pedagogical Institute, candidate of physical and mathematical sciences.

E-mail: m.meliboyev [1950@mail.ru](mailto:1950@mail.ru)

**Annotation:** The methods of calculating the electromagnetic radiation field in the mobile communication system are considered in the article. In performing this work, the mechanism of propagation of electromagnetic waves in the inhomogeneous environment of the Solar photosphere was applied to the conditions of the Earth's atmosphere. If there is a topological number map of places in the conditions of the Earth, it is possible to achieve a good result of calculations with this method.

**Key words:** mobile communication system, topological digital map, electromagnetic waves, base antenna, working frequency.

### Kirish

Masofaviy ta'limda, uyali aloqani xalq xo'jaligi va texnika aloqa vositasida keng qo'llanilayotgani bu yo'nalishda loyixalashtirish ishlarini optimallashtirish talab etiladi. Uyali aloqa baza antennasi muntazam olti burchak markazi va tomonlarida asalari uyasi kabi

joylashgan. Bu uyali aloqani o'rnatish optimalligini birlamchi talabidir. Ayrim holatlarda bu talabdan chetlangan variantlar mavjud.

Uyali aloqa tizimi katta imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan birga ayrim holatlarda kamchiliklar ham mavjud. Ayrim zonalarda aloqani uzilib yoki antenna chiqmasligi bu yo'nalishda maydon hisobini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar tahlili**

Mobil aloqa tizimida elektromagnit nurlanish maydonini hisoblash metodlari va nazariy ma'lumotlar Eroxin G.A., Chernsitev O.V., Kozirev N.D. Antenna-fidernoe -ustroystva i rasprostroyeniye rodiovln kitobida batafsil yoritilgan. Yer atmosferasi muhitida elektromagnit to'lqinlarining tarqalish mexanizmini ayrim sodda usullari keltirilgan. Maydon sathini hisoblashda emperik koyeffitsiyentlardan foydalanuvchi formulalardan foydalanish asoslari barilgan. Sobolev V.V. Kurs teoreticheskoy astrofiziki monografiyasida bir jinsli bo'lmagan muhitda elektromagnit to'lqinlarining tarqalish qonuniyatlari o'rganilgan. Yapon olimi M. Hata. Empirical formula for propagation loss in land mobile radio services risolasida shahar va qihloq muhitida elektromagnit to'lqinlarining tarqalish formulasi yarim imperik ko'p parametrik holatda ifodalangan. Theodore S. Rappaport va William C. Jakes, Donald C. Cox ilmiy ishlarida lektromagnit to'lqinlarining tarqalish formulasi statik va turli ishchi chastotalarda berilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Uyali aloqa tizimi katta imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan birga ayrim holatlarda kamchiliklar ham mavjud. Ayrim zonalarda aloqani uzilib yoki antenna chiqmasligi bu yo'nalishda maydon hisobini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Maydon sathini hisoblashda emperik koyeffitsiyentlardan foydalanuvchi formulalardan foydalanish mumkin. Ko'pgina hisoblashlarda juda ko'p imperik parameter va tuzatmalardan foydalanilgan. Avtorning fikricha bu formulalar o'zining qulayligi va ishonarlik darajasini kamaytiradi. Fikrimizcha perametrlar soni uchtdan oshmaganligi ma'qul.

### **Tahlillar va natijalar**

Maydon sathini hisoblashda emperik koyeffitsiyentlardan foydalanuvchi formulalardan foydalanish mumkin. Atmosferani yutuvchi qatlam deb hisoblab Djons formulasi o'rinli

$$E = \frac{K\sqrt{P_s}}{r} \exp\left(-\frac{\alpha S}{\lambda^x}\right) mkB / m_{(v)}$$

bu yerda

$P_e$  – nurlanish quvvatining samaradorligi (Vt)

$$P_e = R_i D_i \quad (2)$$

$P_i$  – antenna chiqishidagi uzatish quvvati, Bm;

$D_i$  – uzatish antennasining yo'nalishlik ish koyeffitsiyenti;

$\lambda$  - to'lqin uzunligi,  $\alpha$ ,  $k$ ,  $x$  empirik koyeffitsiyent;

$R$  – antenna va qabul qilgich orasidagi masofa, M;

$S$  – yutuqchi qatlam ekvivalentligi

$$S = r \cdot \frac{d - h_2}{h_1 - h_2} \left(1 + \frac{h_1 + h_2}{r^2}\right)^{0.5} \quad (3)$$

$h_1, h_2$  – uzatuvchi va qabul qiluvchi antennaning balandligi.

$d$  – yutuvchi qatlam balandligi.

Shahar uchun  $d$  – binolar balandligi.,  $\alpha$  - kuchsizlanish doimiysi.

Radio va televideniye davlat loyihalash instituti tavsiya etgan Rubin formulasi

$$E = 89\sqrt{P_s \cdot h_2 h_1^{1.2} / r^{2.7}}, \text{ мкВ / м} \quad (4)$$

yoki dB dan 1 mkV/m ga nisbatan

$$E=39+10\lg P_e+24\lg h_1+10\lg h_2-54\lg r \quad (5)$$

Okomura – Xata modeliga asosan (1500-2000) MGts diapazonda ishlovchi uyali aloqa baza antennasi balandligi  $h_1(30\div 200 \text{ m})$ , mobil stantsiyasining balandligi  $h_2(1\div 10\text{m})$  masofa  $r=(1\div 20\text{km})$  bo`lgan holatlar uchun.

Shahar uchun Okamura Xata modeli susayish koeffitsiyenti L

$$L=48,5-13,82\lg h_1+35\lg f-(1,11\lg f-0,7)h_2+(44,9-6,55\lg h_1)\lg r, \text{ gB}$$

$$E=(-9,304\cdot 10^{-4}f+13,207)\lg h_1-2,7310^{-1}f+53,67+ \\ +\{1,783\cdot 10^{-1}f+5,137\}\lg(h_1)-5,468\cdot 10^{-1}f-41,626\}\lg r \quad (6)$$

Har bir xudud uchun o`zini koeffitsiyentlari o`rinlik.

Bizning fikrimizcha alternativ usul bazali antennadan tarqaluvchi radioto`lqin intensivligidan ham foydalansa bo`ladi. Bu metodda susayish koeffitsiyenti intensivlik analitik qiymati ichida bo`lib uni alohida o`zini hisoblashga o`rin qolmaydi.

Berilgan fazoviy burchak  $d\Omega$  ichida tarqalayotgan radionur intensivligi muhit shaffof bo`lgan paytda intensivlik o`zgarmaydi.

Agar nur bo`yicha fazo nurni yutish yoki nurlanish muhiti bilan to`ldirsak nurlanish intensivligi o`zgaradi va bu o`zgarish differentsial tenglamasini ko`rib chiqamiz. Nur yo`nalishiga ko`ndalang yuza  $d\sigma$  intensivlik  $I_v$ , fazoviy burchak  $d\Omega$ ,  $v$ ,  $v+dv$  - chastota intervalidagi energiya  $I_v d\sigma d\Omega dv dt$  bo`ladi. Muxit  $ds$  yo`nidagi yutilgan energiya

$$\alpha_v ds I_v d\sigma d\Omega dv dt \quad (7)$$

ifoda bilan berilib bu yerda  $\alpha_v(s)$  yutilish koeffitsiyenti.

Agar muxit energiyani nurlatish qobiliyatiga ega bo`lsa, uni  $dV$  hajmdagi  $d\Omega$  fazoviy burchak yo`nalishida  $dt$  vaqtda nurlanish energiyasi

$$\varepsilon_v dV dv dt \quad (8)$$

Uyali aloqa tizimida bu qo`shni radiostantsiya yoki tashqi shovqin yoki kosmik nurlanishi, magnit bo`ronlari oqibatida sodir bo`luvchi signallar bo`lishi mumkin.  $\varepsilon_v$  bizning xolatda tashqi shovqun yoki "nurlanish" koeffitsiyenti ham desak bo`ladi.

Agar tsilindr elementini olib unga kiruvchi va chiquvchi energiyalar o`zgarishini farqini hisoblasak

$$dM=d\sigma ds \quad \text{deb}$$

$$(I_v+dI)d\sigma d\Omega dv dt=I_v d\sigma d\Omega dv dt - \alpha_v ds I_v d\sigma d\Omega dt$$

$$dv+E_v d\sigma ds d\Omega dv dt \quad (9)$$

tegishli qisqartirishdan so`ng

$$\frac{dI_v}{ds} = -\alpha_v I_v + E_v \quad (10)$$

Bu differensial tenglamani umumiy tan olingan ko`rinishi bo`lib fikrimizcha  $\varepsilon_v$  ishorasi sharoitga qarab o`zgarishi ham mumkin.

Tenglamani xususiy holatlarini ko`rib chiqamiz. Agar stantsiyani Uyali aloqa tizimida tayanch-bazaviy stantsiya muntazam olti burchak markazida joylashgan bo`lib ular asalari uyasi kabi konfiguratsiyani tashkil etsa. mobil stantsiya odamlar qo`lida ko`chib yuradi. Orada ko`pincha retranslatsion stantsiya ham bo`lishi mumkin. Bu tizim esa FM va televideniya aloqa sistemasida ham bo`lishi mumkin. Bu aloqa II tur radioaloqa tizimi deyiladi Agar muhitda

faqat yutilish bo`ladi, orada qo`shimcha nurlatuvchi yo`q desak ya`ni ( $\alpha_v \neq 0$ ,  $\varepsilon_v = 0$ ) holat uchun (10) tenglamani quyidagicha yozamiz.

$$\frac{dI_v}{ds} = -\alpha_v I_v \quad (11)$$

Bu tenglamani integrallash bilan

$$I_v(s) = I_v(0)e^{-\int_0^s \alpha_v(s') ds'} \quad (12)$$

$I_v(0)$  nurlantiruvchi bazaviy antenna  $s=0$  dagi intensivlik. Bu yerda o`lchovsiz

$$\int_0^s \alpha_v(s') ds' \quad (13)$$

ikki nuqta orasidagi optik masofa bo`lib xizmat qiladi. Birlik masofada intensivlik ye marotaba kamayadi.

Umumiy holatda ( $\alpha_v \neq 0$ ,  $\varepsilon_v \neq 0$ ) (10) tenglamani  $I_v$  uchun yechimi

$$I_v(s) = I_v(0)e^{-\int_0^s d_v(s') ds'} + \int_0^s \varepsilon_v(s') e^{-\int_s^s \alpha_v(s') ds'} \quad (14)$$

Bu (14) tenglama nurlanish energiyasini ko`chib o`tish tenglamasi deyiladi.

Umumiy holatda nurlanish intensivligi ikki qismdan iborat bo`ladi.

Birinchi qism bu antennadagi birlamchi nurlanish bo`lib  $s=0$  dan boshlab intensivligini kamayishini ifodalaydi. Ikkinchi qism (0-s) yo`l davomida nurlangan tashqi faktorlarni ko`rsatadi. Sifatlik uyali aloqa bo`lishi uchun birinchi integral qiymati ikkinchi integralga nisbatan hech bo`lmaganda bir tartib katta bo`lishi shart. Aksincha aloqa sifatsiz yoki uzilib qolishi mumkin. Keltirilgan matematik model uyali aloqalar elektromagnit maydoni nurlanishini hisoblashda joylarning topologik sonli kartalari va atmosfera sharoiti, imoratlar zichligini e`tiborga olib hisoblanib yaxshi imkoniyatlarini ochadi.

### Xulosalar

Masofaviy ta`limda, uyali aloqani xalq xo`jaligi va texnik aloqa vositasida keng qo`llanilayotgani bu yo`nalishda loyixalashtirish ishlarini optimallashtirish maqsadga muvofiq. Uyali aloqalar elektromagnit maydoni nurlanishini hisoblashda joylarning topologik sonli kartalari majudligi yuqorida keltirilgan hisoblash metodi yaxshi natijalarni beradi.

### Adabiyotlar

1. Eroxin G.A., Chernsitev O.V., Kozirev N.D. Antenno-fidernoe -ustroystva i rasprostroyeniye radiovoln. M. Radio i svyaz. 1996.
2. Radoto`lqinlarning tarqalishi va antenna-fider qurilmalari. I q. Toshkent axborot texnologiya universiteti. T, 2009.
3. Sobolev V.V. Kurs teoreticheskoy astrofiziki M. Nauka. 1985.
4. M.Hata. Empirical formula for propagation loss in land mobile radio services 01 Aug 1980-IEEE Transactions on Vehicular Technology
5. Theodore S. Rappaport. Wireless Communications: Principles and Practice 15 Jan 1996
6. William C. Jakes, Donald C. Cox. Microwave Mobile Communications 01 Feb 1975
- 7]. D. Parsons. The mobile radio propagation channel. 01 Jan 1991
8. R.H.Clarke. A statistical theory of mobile-radio reception. 08 Jul 1968-Bell System Technical Journal





**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA  
MASHG'ULOTLARINI TABIIY SHAROITDA TASHKIL QILISH**

Ilmiy rahbar: Qo'qon universiteti ta'lim kafedrası dotsenti (phd): Maxkamov A.Yu.

Qo'qon universiteti ta'lim kafedrası o'qituvchisi: Ramazonova M.S

Gmail: mohichehramazonova@gmail.com

*Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini jismoniy vositalar asosida tabiiy sharoitda, ya'ni ochiq (yomg'irli, qorli, bulutli, quyoshli) havoda tashkil etishning bolalar rivojlanishiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, suv, bolalar, qor, jismoniy vositalar, bilim, quyosh, jismoniy rivojlanish, ta'lim, jismoniy tarbiya, ko'nikma, malaka, bulut, kompetensiya, jismoniy sifat, metod, tabiat, mashq, yomg'ir.*

**ОРГАНИЗАЦИЯ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ В  
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ В ЕСТЕСТВЕННЫХ  
УСЛОВИЯХ**

Научный руководитель: Доцент кафедры образования Университета Коканд (PhD):

Махкамов А.Ю.

Преподаватель кафедры образования Университета Коканд: Рамазонова М.С.

Gmail: mohichehramazonova@gmail.com

*Аннотация: В статье приведены сведения о влиянии организации занятий физической культурой в дошкольных образовательных учреждениях на основе физических средств в естественных условиях, то есть в открытую (дождливую, снежную, пасмурную, солнечную) погоду, на развитие детей.*

*Ключевые слова: Дошкольное образование, вода, дети, снег, физические средства, знания, солнце, физическое развитие, воспитание, физическое воспитание, навык, умение, облако, компетентность, физические качества, метод, природа, упражнение, дождь.*

**ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN PRESCHOOL  
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN NATURAL CONDITIONS**

Scientific leader: Docent of the Department of Education of Kokand University (PhD):

Makhkamov A.Yu.

Teacher of the Department of Education of Kokand University: Ramazonova M.S

Gmail: mohichehramazonova@gmail.com

*Abstract: The article provides information on the impact of organizing physical education classes in preschool educational institutions based on physical means in natural conditions, that is, in open (rainy, snowy, cloudy, sunny) weather, on children's development.*

*Keywords: Preschool education, water, children, snow, physical means, knowledge, sun, physical development, education, physical education, skill, skill, cloud, competence, physical quality, method, nature, exercise, rain.*

## **Kirish**

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan masalalar yuzasidan juda ko'p qarorlar hamda farmonlar chiqardilar hamda amaliyotga joriy qildilar. Prezidentimiz ushbu soha haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'alarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz"! Jumladan ushbu soha bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-sonli qonuni bolalarga sportga muhabbatni singdirish, o'sib kelayotgan avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, bolalarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar,

Jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga intilish uyg'otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligida, fazoda va o'yin sharoitlarida aniq mo'ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos. Ular ichida "Tib qonunlari" aloxida ahamiyat kasb etadi. Bu asar deyarlik barcha jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga ilk bor 1953 yilda keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etildi. Ibn Sinoning ijodiy faoliyati, "Tib qonunlari" va boshqa asarlarini ilmiy jihatdan o'rgangan, tahlil qilgan va ularning mohiyatini ochib bergan taniqli olimlar juda ko'p. «Tib qonunlari» kitobning birinchi qismi inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Kitobda inson tanasi va uning a'zolari insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan.

Pedagogika fanlari akademiyasi a'zosi, pedagogika fanlari doktori professor, gigiyena shifokori Y. A. Arkin, P.F. Lesgaft va V.V. Garinivskining maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi, anatomiyasi fiziologiyasi va gigiyenasi faniga bag'ishlangan ilmiy ishlari orasida "maktab yoshigacha bo'lgan davr" nomli muhim kitobi katta etibor qozondi. Bu kitob hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.


Inson aqliy faoliyatida ham, jismoniy faoliyatida ham ijodiy faollikka qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vositalar ongli ravishda tanlangan taqdirdagina erishish mumkin. Shuning uchun Lesgaft mashq qilish natijasidabir-biri bilan taqqoslay olish hamda ularga baho bera bilish, ya'ni tahlil qila olishni jismoniy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri deb hisobladi.

Lesgaft ana shu nuqtai nazardan mashqlarni ko'rsatib berishni emas, balki ularni tushuntirib berishning o'zi bilan cheklanishni tavsiya qildi. Bu shug'ullanuvchini bajargan harakatini ko'r-ko'rona takror qilib berishga emas, balki uning haqida ongli tasavvur hosil

qilishga, undan keyin esa o'sha harakatni takror bajarishga majbur etadi. Odam ongi uning har bir faoliyatini oldindan bajarishi kerak.

Har bir odam jismoniy kamolotining yosh, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olib, kuch sarflashdagi asta-sekinlik va izchillik tamoyiliga rioya qilgan taqdirdagina har tomonlama jismoniy kamolotga erishish mumkin.

Jismoniy ta'limning ilmiy jihatdan asoslab berilgan tizimi yordamida ish tutgan taqdirdagina to'g'ri jismoniy o'sishiga erishish mumkinligi va jismoniy ta'limning tajriba tizimi ko'pchilik avlod tajribasida sinab ko'rilganidan keyingina to'g'ri tajriba deb tan olinishi mumkinligi haqida aytib o'tgan,



Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish maqsadida turli vositalar: gigiyenik talablar, tabiatning tabiiy kuchlari jismoniy mashqlar qo'llaniladi. Bunday vositalarning kompleks tarzda qo'llanilishi organizmga har tomonlama ta'sir ko'rsatib bolalar jismoniy tarbiyasiga yordam beradi. Gigiyenik talabalarga: kun tartibi, mashg'ulotlar, uyqu, bedorlik, ovqatlanish, kiyim va oyoq kiyimlar gigienasi, mashg'ulot o'tkaziladigan xonalar, sport maydonlarining tozaligi kiradi.

Tabiat unsurlari (quyosh, havo, suv) organizmning ishchanligi va funksional imkoniyatlarini oshirib, moslashuvchanligi va himoyasini ta'minlaydi. Tabiatning tabiiy kuchlariga quyosh, havo, suv kiradi, ular jismoniy mashqlarning organizmga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qobiliyatini oshiradi. Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashuvi kuchayadi). Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past temperaturaga moslashuv qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Suv terini kirdan tozalaydi, o'rmon bog'lardagi shifobaxsh moddalar (fitontsidlar) ga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi. Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va bolalarni kasalliklardan (raxit) saqlaydi.

## **Metodlar**

Men mavzu bo'yicha tajribamni Qo'qon shahrida joylashgan 236-maktabgacha ta'lim tashkilotida olib bordim. Ushbu mavzu bo'yicha har xil yosh guruh bolalari va ota-onalar orasida turli xil metodlardan foydalangan holda eksperiment o'tkazdim.

### **Svetafor metodi**

Qo'qon shahrida joylashgan 236-maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu mavzu bo'yicha katta yosh guruh bolalar ota-onalari orasida svetafor metodini qo'lladim. Ushbu metodda ota-onalarga qizil, sariq, yashil rangdagi kartochkalar beriladi va ularga monitorda turli fasllarda tabiiy sharoitda tashkil etilgan o'yinlar tasvirlangan su'ratlari navbatma – navbat qo'yib beriladi.

Bunda ota-onalar har bir su'rat uchun o'z munosabatlarini ularga taqdim etilgan kartochkalar orqali bildiradilar. Ya'ni har bir kartochkada shu faslda tabiiy sharoitda o'yin o'tkazilishiga roziman, qisman roziman va qarshiman fikrlarini anglatuvchi ranglar berilgan.

Yashil rang - roziman!

Sariq rang - qisman roziman!

Qizil rang – qarshiman!

Ushbu metod orqali mtt va ota-onalarning o'zaro hamkorligi, farzandlarining sog'ligiga va tarbiyasiga yanada e'tiborli bo'lish, ta'lim jarayonlarini kuzatib borish kabi ishlarni yo'lga qo'yilishiga erishdk. Bu eksperimentda 30 nafar onalar qatnashdi.



Shundan 15 nafar onalar yashil rangli kartochkani, 5 nafar onalar sariq rangli kartochkani, 10 nafar onalar qizil rangli kartochkalarni ko'tarishdi.

### **Amaliy metod**

Ushbu metod orqali tabiatning turli fasllarida ochiq havoda mashg'ulot o'tkazishning bola organizimiga ta'sirini turli xil o'yinlar o'tkazish orqali amalda sinab ko'rdik. Bahor, yoz va qish faslda bolalar bilan ochiq havoda mashg'ulot o'tkazdik. Mashg'ulot davomida turli o'yinlar o'ynadik, turli xil sog'lomlashtirish uchun musobaqalari o'tkazdik. Har bir faslga oid sport kiyimida ochiq havoda o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan qishda qorli o'yin maydonchasidagi o'yin - "Men tepalikdan voz kechmayman" o'yini o'ynadik, bunda bir bola kichik tepalikka chiqadi. Boshqa bolalar navbat bilan uni u yerdan olib chiqishga harakat qilishadi. Tepalikdagi bolani tushishga majbur qilgan bola uning o'rnini egallaydi. - kim boshqalarga qaraganda tepada uzoqroq tursa o'yin g'olibi hisoblanadi.

### **Tadqiqot natijalari**



#### **svetafor metodi**

Qo'qon shahrida joylashgan 236-maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu mavzu bo'yicha katta yosh guruh bolalar ota-onalari orasida svetafor metodini qo'llanildi.

Yashil rang - roziman! 60%

Sariq rang - qisman roziman! 25%

Qizil rang – qarshiman! 15%



#### Taqqoslash metodi

Jismoniy mashg'ulotlarni tabiiy sharoitda tashkil etishning afzalliklari va kamchiliklarini "T" sxemasi orqali yoritib beramiz.

Mashg'ulotning afzalliklari – 70%

Mashg'ulotning kamchiliklari – 30%

#### Muhokama

➤ Tabiat shu qadar xilma-xil sharoitlarni yaratadiki, bir xil harakatlar juda ko'p yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bolalarning har qanday faoliyatida bo'lgani kabi, mashqlarni tanlashda ham asta-sekinlik va izchillik, individual yondashuv kerak. Mashqlar asosiy harakat turlarini o'z ichiga oladi. Maysa ustida yurish va yugurish, oyoqlarini baland ko'tarish, qum ustida, sayoz suvda, tekis va aylanma yo'l bo'ylab, tepaga va pastga, butalar va daraxtlar orasida to'g'ridan-to'g'ri va yonma-yon yurish, tor ko'prik, sopol devor bo'ylab, tayoqlardan o'tish.

Biridan ikkinchisiga qadam qo'yib, ildizlar bo'ylab yurish orqali bolaning sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

➤ Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy salomatligini saqlashning mavjud vositalaridan biri qum qutisida o'ynashdir. Yozda bu turdagi terapiya ayniqsa mavjud. Mutaxassislarning fikricha, qumda o'ynash jarayoni bloklangan energiyani chiqaradi va inson ruhiyatiga xos bo'lgan o'z-o'zini davolash qobiliyatini faollashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan dam olish ishlari uchun piyoda sayr qilish tavsiya etiladi.

#### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri - bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash. Bunda asosiy o'rinni mashg'ulotlarni tabiat bilan bog'lab olib borish katta natijalar beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'ini yaxshilash uchun jismoniy mashg'ulot bolalarning faolligini oshiradigan turli xil jismoniy mashqlar shakllarini (ertalabki mashqlar, quyoshda toblanish, jismoniy tarbiya, o'yinlar, toza havoda yurish uchun mashqlar, va boshqalar) tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy mashg'ulot va sog'lomlashtirish ishlari izchillik, tizimlilik, tabiatning tabiiy kuchlari va gigiyenik omillardan foydalanishning murakkabligi, shuningdek sog'lomlashtirish usullarini hisobga olgan holda rejalashtirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi "O Qizil rang – qarshiman! zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy -metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 658-son qarori.
2. A.YU.Maxkamov. Maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyati. O'quv qo'llanma. Qo'qon. sh.2022 y.100-136 b.
3. A.YU.Maxkamov. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi.Darslik .Qo'qon.sh.2022 y.90-136 b.
4. A.Yu. Mahkamov. SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852.
5. А.Ю.Махкамов. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАР УЧУН ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШГУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ-МЕТОДИК ИМКОНИЯТЛАРИ. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамДУ 2021 йил 2-сон,503-508 б.
6. S.R. Qazoqov, M.S Ramazonova Jismoniy tarbiya va sport. O'quv qo'llanma. "Durdona" nashriyoti. Buxoro-2022.



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТАБИАТНИ МУХОFAZA QILISHGA QARATILGAN BILIM VA KO'NIKMALARNING NAZARIY ASOSLARI

Voxidov Dilshod Odilovich

Namangan davlat universitetining tayanch doktoranti,  
telefon raqam: +998972120387, [geograf-namdu@mail.ru](mailto:geograf-namdu@mail.ru).

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni tarbiyalanuvchilarda shakllantirishning metodologik asoslariga qaratilgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilishga oid tushunchalarning pedagogik jihatlari va uning hususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yunesko, Yunep, Dunyo mamlakatlari, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, tabiat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bilim va ko'nikmalar, tabiat qo'yniga sayohat, innovatsiya, zamonaviy usullar, tavsiyalar, metodologik asoslar, multimediya vositalari.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ОХРАНУ ПРИРОДЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Вохидов Дильшод Одилевич

Базовый докторант Наманганского государственного университета,  
номер телефона: +998972120387, [geograf-namdu@mail.ru](mailto:geograf-namdu@mail.ru).

**Аннотация:** В статье рассмотрены методические основы формирования знаний и умений, направленных на охрану природы в дошкольных образовательных организациях, а также освещены педагогические аспекты концепции охраны природы и ее особенности.

**Ключевые слова:** ЮНЕСКО, ЮНЕП, страны мира, этапы развития образования, природа, дошкольные образовательные организации, знания и умения, путешествия на природу, инновации, современные методы, рекомендации, методические основы, мультимедийные средства.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF KNOWLEDGE AND SKILLS AIMED AT NATURE PROTECTION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Vokhidov Dilshod Odilovich

PhD student of Namangan State University,  
phone number: +998972120387, [geograf-namdu@mail.ru](mailto:geograf-namdu@mail.ru)

**Annotation:** The article focuses on the methodological foundations of the formation of knowledge and skills aimed at the protection of nature in preschool educational organizations, and the pedagogical aspects of the concepts of nature protection and its features are highlighted.

**Key words:** UNESCO, UNEP, countries of the world, stages of educational development, nature, preschool educational organizations, knowledge and skills, nature travel, innovation, modern methods, recommendations, methodological bases, multimedia tools.

## **Kirish**

Jahondagi tabiat bilan bog'liq muammolar va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan hozirgi sharoitda ta'lim tizimining quyi bosqichidan boshlab zamonaviy axborot vositalaridan foydalangan holda tabiatni asrash va hozirgi holatini saqlab qolish muhimligicha qolmoqda. Atrof-muhit va uni muhofaza qilish bo'yicha Stokgolm, Rio-de-Janeyro deklaratsiyalari BMT Bosh Assambleyasining "Tabiatning jahon xaritasi" haqidagi rezolyusiyasi, shuningdek, YUNESKO va YUNEP kabi xalqaro tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tushunchalariga oid bilim, ko'nikma va tasavvurlarni yanada rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qayd etilgan.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari kabi O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini rivojlantirish olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ta'limning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish davr talabi hisoblanadi. Ta'limning taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan o'rganish va taxlil qilishda o'ziga xos maqsadlar, vazifalar va tamoyillarni belgilash, uning mazmuni, o'qitish shakllari, usullari va axborot vositalari bilan yangi zamonaviy usullarini qo'llash zarurati yuzaga kelgan [1].

### **Adabiyotlar tahlili:**

Mamlakatimizning barcha ta'lim bosqichlarida ta'lim-tarbiya yoshidagi bolalar ongida tabiat va uning resurslaridan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish kabi tushunchalarni zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalari asosida yanada rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiatdan foydalanishning nazariy asoslarini respublikamiz olimlaridan P.G'ulomov, A.Ismoilov, N.Mamashokirov, Sh.Otaboev, A.To'xtaev, G.Komilova, N.Tursunov, M.Nuriddinova tomonidan tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlari A.Grigoryans, Yu.Solomenseva, Yu.Skochilov, L.Lavrenenko, H.Mamedov, N.Dneprovskaya, S.I.Vasenina, B.S.Gershunskiy, Yu.M.Gorvis, Ye.V.Zvorygina, I.O.Ivakina, Ye.V.Ivanova, Ye.E.Lisenko, B.F.Lomov, V.Ya.Lyaudis, Ye.I.Mashbis, V.M.Monaxov, S.L.Novoselova, I.Yu.Pashilite, G.P.Petku, T.K.Smykovskaya, O.K.Tixomirov kabi bir qator tadqiqotchilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tarbiyasini shakllantirish, zamonaviy axborot vositalari yordamida multimediya o'yinlaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan [2].

Xorijiy davlatlar pedagog va psixologlari L.Hell, D.Ziegler, V.Williams, A.Lenhart, D.Fallows, K.Merga, A.Perrin, F.Roberts, G.Foehr, V.Rideout kabilarning tadqiqotlarida tarbiyalanuvchilar ongida tabiatning ahamiyati, tabiatga bo'lgan madaniyatni oshirish jarayonining metod va vositalarini qo'llash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini multimediya vositasilari yordamida tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirish mexanizmi tadqiq etilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

### **Tahlillar va natijalar**

Zamonaviy ta'lim tizimi har bir bolaning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga yuqori texnologiyali jamiyatda yashashga tayyor, komil inson



bo'lib shakllanishida shaxsni tarbiyalash va tabiatdan oqilona foydalanish kabi yuksak maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib oladi. Bu borada multimediya vositalaridan foydalangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilarida tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu ilmiy tadqiqot 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayёрlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 418-son, 2019 yil 11 iyundagi "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 487-son qarorlari, 2019 yil 16 dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ-595-Qonuni, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi [3].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, ona tabiatni asrashga doir tarbiyaviy multimedialarning texnologiyasini ishlab chiqish, rivojlanish indikatorlari asosida uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan. Elektron metodik yondashuv asosida mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida rivojlantiruvchi o'yinlar uyg'unligini ta'minlovchidasturiy maxsulotlarni ishlab chiqish orqalitamillashtirilgan.

#### **Xulosalar**

Ilmiy tadqiqot yakunida pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik usullaridan foydalanilib, quyidagi xulosalar tavsiya qilinadi:

1. Tabiat haqidagi tushunchalarni rivojlantirishning zarurati va pedagogik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslangan.
2. Yosh avlodni tabiat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan qisqa muddatli tarbiyaviy multimedia texnologiyasini tayyorlash va amaliyotga joriy qilindi.
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini tabiat bilan bog'liq tasavvurlarini baholashning elektron metodik qo'llanmalarini tayyorlash.
4. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda tabiat va uni muhofaza qilish kabi tushunchalarni ta'minlashga doir ilmiy, amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.A.Abduqodirov, N.X.Begmatova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish uslubi // O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi: "Nasaf" nashriyoti, 2011.-229 b.
2. N.X.Begmatova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari // p.f.n. diss., T., 2012.-36 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Farmoni.



## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIXI, DIDAKTIK XUSUSIYATLARI VA VAZIFALARI

Madmusayev Jaxongir Muxtorali o'g'li  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [madmusayevjahongir@gmail.com](mailto:madmusayevjahongir@gmail.com)

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning tarixi haqida adabiyotlar tahlili hamda raqamli texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari tadqiq etilgan.

*Kalit so'zlar:* raqamli texnologiyalar, AKT, bixevioristik, kommunikativ, integratsiyaviy

## ИСТОРИЯ, ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ФУНКЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мадмусаев Джахонгира Мухтарали угли  
Докторант Наманганского государственного университета  
E-mail: [madmusayevjahongir@gmail.com](mailto:madmusayevjahongir@gmail.com)

*Аннотация.* В данной статье анализируется литература по истории цифровых технологий, а также дидактические особенности и функции цифровых технологий.

*Ключевые слова:* цифровые технологии, ИКТ, поведенческие, коммуникативные, интегративные.

## HISTORY, DIDACTIC FEATURES AND FUNCTIONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Madmusayev Jakhongir Mukhtarali ugli  
Doctoral student of Namangan State University  
E-mail: [madmusayevjahongir@gmail.com](mailto:madmusayevjahongir@gmail.com)

*Annotatsiya.* This article analyzes the literature on the history of digital technologies and the didactic features and functions of digital technologies.

*Key words:* digital technologies, ICT, behavioral, communicative, integrative

### Kirish

Ta'lim sohasidagi raqamli davrda axborot almashishning yangi usullarini joriy etish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Raqamli muhit va ijtimoiy media ijtimoiy hayotning o'zaro bog'liqligidir, chunki bizning kundalik hayotimiz tobora texnologik jihatdan takomillashib bormoqda.

Ta'limda Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish juda ko'p oqibatlariga olib keladi: munosabatlarni demokratlashtirish, o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish, uni har tomonlama amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) axborotni yaratish, qabul qilish va tarqatishda raqamli texnologiyalarning turli vositalarini (multimedia, kompyuter va mobil texnologiyalar, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, kabel aloqasi, Internet) ifodalovchi vositalardan foydalanilmoqda.

## **Adabiyotlar tahlili**

So'nggi yillar ilmiy adabiyotlarida raqamli texnologiyalar "axborotni qayta ishlash va uzatishda qo'llaniladigan usullar, birinchi navbatda Internet va telekommunikatsiyalar" deb, "raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi, xususan, telekommunikatsiyalarning konvergentsiyasi va audiovizual texnologiyalar bilan bog'liq" degan tushuntirish bilan talqin qilinadi" [4]; va chet tillarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari "haqiqiy xorijiy tillarni taqlid qilish shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgan kompyuter va tarmoq o'quv qo'llanmalaridan masofaviy, aralash, guruhli, individual ta'lim jarayonida faol foydalanishga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmui" sifatida. Har xil turdagi aloqalar jarayonida talabalarning kognitiv, ta'lim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun til o'zaro ta'siri" [3].

Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishda kompetensiya va faoliyatga asoslangan yondashuvlar A.N.Kolesnichenko va T.E.Isaevaga raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tasnifini ishlab chiqish imkonini beradi va quyidagilarni ta'kidlaydi: 1) eng oddiy texnologiyalar (o'qitishning an'anaviy usullari va elektron o'quv qo'llanmalari); 2) elektron ta'lim vositalaridan foydalanadigan texnologiyalar (ko'p bosqichli ta'lim jarayonida usulni tanlashda moslashuvchanlikni hisobga olish); 3) masofaviy ta'lim texnologiyalari (Zoom, Skype, Moodle va boshqalar bo'yicha darslar, vebinarlar, onlayn kurslar); 4) tarmoq va bulutli o'zaro ta'sir texnologiyalari (guruhning faol usullari to'plami va texnik vositalar va resurslarning mavjudligi) [5, 3]. Raqamlashtirish va axborotlashtirish sharoitida quyidagi ta'lim texnologiyalari ham ishlaydi: onlayn ta'lim, mobil ta'lim, o'yin texnologiyalari, virtual reallik va "veb-kvest".

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

## **Tahlillar va natijalar**

### **Raqamli texnologiyalarning tarixiy rivojlanishi**

Hozirgi vaqtda "raqamli texnologiyalar" atamasi turli fanlarda juda ko'p ta'riflarga ega. Keling, avvalo "axborot texnologiyasi" atamasining ta'rifini lingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqaylik. Axborot texnologiyalari - bu kompyuterlar yordamida axborotni olish, saqlash, uzatish, tarqatish va o'zgartirish qonunlari, usullari va vositalari to'plami [12, c 8].

S.V.Titova ta'rifiga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'limni intensivlashtirish va optimallashtirish, axborot jamiyatida hayotga moslashgan shaxslarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish vositasidir. [3]. M.Vorsher "Chet tillarini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish" maqolasida chet tillarini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning uchta asosiy davrini belgilaydi:

- bixevioristik (1950-1970 yillar)
- kommunikativ (1980-yillar)
- integratsiyaviy (1990-yillar) [50].

Har bir bosqich texnologiyaning rivojlanish darajasi va o'qitishning tegishli pedagogik usuli bilan belgilanadi.

Birinchi bosqich o'qitishning mashhur bixevioristik nazariyasiga asoslanadi. Nazariya o'z nomini inglizcha "behaviour" so'zidan oldi, bu xatti-harakatni anglatadi. Amerika psixologiyasida 20-asrda rivojlana boshlagan bixevioristik yo'nalish psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida ong va boshqa psixik hodisalarni, shuningdek, xulq-atvorning har xil turlarini

belgilovchi psixikaga ongning ta'sirini inkor etdi. Bu davrda kompyuter mashqlari takrorlash (mashq va mashg'ulot) asosida qurilgan. Kompyuter, albatta, o'qituvchi rolini almashtirmadi, balki uning funktsiyalarini qisman bajardi. Ushbu o'quv modeli algoritmgaga muvofiq qurilgan: taqdimot - o'zlashtirish - nazorat.

70-yillarning oxirlarida, bixevioristik yondashuv, asosan, nazariy va amaliy darajada samaradorligini rad etish tufayli mashhurligini yo'qotdi.

O'qitishning yangi yondashuvi kommunikativ nazariyasiga asoslangan edi. Ushbu yondashuv quyidagi printsiplar bilan tavsiflanadi:

- nutqda lingvistik shakllarga alohida e'tibor berish;
- o'quvchilarning ishlab chiqarish qobiliyatlariga e'tibor berish;
- grammatikani o'rgatishda yashirin yondashuv;
- o'quv jarayonida ona tilidan minimal foydalanish;
- yangi baholash tizimi;
- talaba va o'qituvchining kommunikativ o'zaro ta'siri.

90-yillarda Internetning paydo bo'lishi bilan kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi kuzatildi. RTning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi chet tillarini o'qitishda yangi usullarning paydo bo'lishiga olib keldi: o'qitishda kommunikativ faoliyatning to'rt turi faol ishtirok eta boshladi, til real sharoitlarda qo'llanila boshlandi.

Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tizimli integratsiyalashuvi Web 2.0 xizmatlarini faol rivojlantirish, onlayn hamkorlik tizimidan foydalanish bilan bir qatorda amalga oshirila boshlandi va o'quv materiallaridan cheksiz va tezkor foydalanish, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy interaktiv bosqichi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va yaratish imkonini berdi. Ushbu ijtimoiy-texnologik kontsepsiya hodisasi MDH (E. D. Patarakin, E. N. Yastrebtseva), ham xorijiy olimlar (J. West, S. Boss, J. Braun, T. Berrrows, S. Downs) tomonidan o'rganiladi [7].

21-asr boshlarida chet tillarini o'qitish jarayonida yangi yo'nalish, ya'ni mobil ta'lim (MALL) deb ataladigan yo'nalishni rivojlantirish tendentsiyasi kuzatildi. Mobil qurilmalar (videoqo'ng'iroqlar, ijtimoiy media aloqasi, ovozli xabarlar) tomonidan taqdim etiladigan turli xil aloqalar umrbod ta'lim olish uchun zarur shart-sharoitlarni kengaytiradi.

S.V.Titova va A.P.Avramenko chet tillarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning uchta asosiy bosqichini aniqlaydilar.

Mobil ta'limning dastlabki bosqichida (2002-2004) 20-asrda qo'yilgan o'quv jarayonida mobil qurilmalardan foydalanishning usullari va ko'rsatmalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

Mobil texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ikkinchi bosqichida (2005-2008) jahon ilmiy hamjamiyati mobil ta'lim modelini yaratishni ma'qullaydi va shu bilan chet tillarini o'rganishda mobil qurilmalarni tadqiq qilishni rag'batlantiradi va uning alohida fanga aylanishiga imkon beradi.

Sinfda mobil texnologiyalardan foydalanishning uchinchi bosqichida (2009 yildan hozirgi kungacha) mobil ta'lim shu qadar samarali ta'lim turi bo'lib chiqdiki, u masofaviy ta'limga qarshi [3].

Raqamli texnologiyalar klassik ta'lim jarayonini, bilimning yagona manbai o'qituvchi bo'lgan ta'lim konsepsiyasini va, albatta, ta'limga yondashuvlarni tubdan o'zgartirdi. Bu esa o'qitishda yangicha yondashuvlar, shakl va usullarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ta'limning asosi endi tayyor bilim va ko'nikmalarni uzatish emas, balki o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini

singdirishdir. Raqamli texnologiyalar talabalarga chet tilidagi asl materiallardan foydalanish imkonini beradi, bu esa chet tilini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli integratsiyalashuvidir.

### **Raqamli texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari**

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosligi ularning funksiyalari va didaktik xarakterdagi xususiyatlari bilan belgilanadi. E.S.Po'lat didaktik xossalarni didaktikada hal qiluvchi nazariy va amaliy rol o'ynaydigan berilgan vositaning asosiy sifatleri, belgilari sifatida belgilaydi. [2].

S.V.Titova DTning quyidagi asosiy didaktik xossalarini belgilaydi, ular ikkita eng muhim funksiyasi - axborot va kommunikativ - multimedia, interaktivlik, chiziqilik, gamifikatsiya va axborotga asoslangan.

"Multimedia" tushunchasi birinchi marta lug'atlarda XX asr o'rtalarida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan. Keyin "multimedia darsi" tushunchasi o'qituvchining hikoyasiga yordamchi bo'lgan o'quv jarayonida ekran-tovush ma'lumotlaridan foydalanishni anglatadi [4].

Hozirgi vaqtda multimediyali ta'lim dasturi - bu bir ob'ektda ko'rsatilgan va interfaol xususiyatga ega bo'lgan matn, grafik va animatsion ma'lumotlar to'plamidir. Multimedia talabalarga tilni o'zlashtirgan mamlakatlarning madaniyati va an'alariga singib ketishga yordam beradi, bir vaqtning o'zida grammatika, lug'at va fonetikani mashq qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [7].

Multimedia o'zining ayrim xususiyatlariga ega bo'lgan kompyuter va mobil texnologiyalarga foydalanuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi, (videolar, rangli rasmlarni ko'rsatish, animatsiya va fikr-mulohazalarni o'ynash funksiyalari) bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirishga, e'tiborni kuchaytirishga, hissiy jalb qilishga, vizualizatsiya va o'zaro ta'sir orqali ma'lumotlarni samarali eslab qolishga yordam beradi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, agar idrok etish jarayoni aqliy faoliyat, faol ishtirok etish va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'siri bilan birga bo'lsa, ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aks holda passiv xarakterdagi kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda (talabalar faqat kuzatuvchi sifatida ishlaydi) darslar ijobiy natijaga olib kelmaydi.

Raqamli ta'limning navbatdagi didaktik xususiyati o'quvchilarning aqliy faolligini belgilaydigan interaktivlikdir. I.V.Robert ta'rifiga ko'ra, interfaol dialog o'quvchilarning axborot tizimi bilan faol o'zaro ta'siri, savol-javoblar almashishi, dialogni interaktiv shaklda amalga oshirish uchun yanada samaraliroq vositalardan foydalanishdir. Har bir foydalanuvchi so'rovi axborot tizimidan fikr-mulohaza javobini nazarda tutadi va aksincha, dasturning barcha harakatlari foydalanuvchi tomonidan fikr-mulohazalarni keltirib chiqaradi. Bunda foydalanuvchilar ish rejimini, axborot mazmuni shaklini va hokazolarni tanlash imkoniyatiga ega. [5].

Interaktivlik tushunchasi, birinchi navbatda, kommunikativ faoliyat jarayonida ob'ektlar yoki sub'ektlarning o'zaro ta'sirining o'ziga xosligini nazarda tutadi. Bunday holda, RT foydalanuvchining raqamli resurslar, kompyuter dasturi, elektron ma'lumotlar va boshqalar bilan o'zaro aloqasini anglatadi.

Ta'lim jarayonida raqamli ta'limning asosiy xususiyati bo'lgan interaktivlik o'z navbatida quyidagilarga yordam beradi:

- o'quv motivi va intensivligini oshirish;
- ta'lim jarayonida tezkor fikr-mulohazalarni ta'minlash;
- talabalar faoliyatini sinxron va asinxron kuzatish;
- muammoli o'qitish usullarini amalga oshirish;
- guruhli tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;
- o'z-o'zini baholash va guruhda baholashni tashkil etish [3].

Chet tilida interaktiv muloqot qilishning yana bir vositasi - bu eng so'nggi yozuvdan boshlab kamayish tartibida xronologik tartibda doimiy ravishda yangilanadigan bloglar yoki veb-saytlar [7]. Talabalar tomonidan yaratilgan bloglarning aniq foydasi - bu yuqori motivatsiya va sifatli ishlarni ishlab chiqarish istagi. Bundan tashqari, veb-nashrlarni yaratish muloqotda ko'p madaniyatli auditoriyani o'z ichiga oladi, ularning o'zaro ta'siri nashr mazmuni bo'yicha fikr-mulohazalar, sharhlar va takliflar orqali amalga oshiriladi. Bunday zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga tilni o'rganish va undan foydalanish bilan bog'liq reflektiv fikrlashni rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, natijada o'quvchilar o'rganish strategiyalarini yanada puxtarroq qo'llay oladilar hamda o'z ta'lim ko'nikmalarini kengaytiradilar va yaxshilaydilar. [7].

Veb-dasturlarning yana bir samarali funksiyasi veb-sahifadagi (meta-axborot) ma'lumotlar haqida ma'lumot berishdan iborat bo'lib, bu o'quvchilarda materialni mustaqil tanlash va taqqoslash orqali analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Keyingi afzallik - talabalarning umumiy ilmiy, tizimli va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantiradigan izlanish va tadqiqot faoliyatini ta'minlash. Veb-loyihalar muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantiradi, shuningdek, talabalarga mustaqil tadqiqot qilish imkoniyatini beradi. Bu interaktiv vazifalarning yangi turlarini joriy qilish imkonini beruvchi metama'lumotdir. Bu ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning ishtiyoqi va qiziqishini oshiradi va materialni o'rganishga sarflagan vaqtini oshiradi [5].

Nochiziqilik kabi didaktik xususiyat raqamli ta'lim vositalarini loyihalash va ulardan foydalanish talablariga asoslanadi. "Chiziqsiz ta'lim texnologiyalari" tushunchasi o'quv jarayonini loyihalash, modellashtirish, parallel o'qitish, ko'p bosqichli qurish usullari to'plamini o'z ichiga oladi. [6].

Chiziqsizlik quyidagilarga yordam beradi:

- ta'limning axborot mazmunini oshirish;
- o'quv kurslarining modulliligi;
- tadqiqot loyihalari kabi muammoli o'qitish usullarini amalga oshirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etish.

Keyingi xususiyat shundaki, o'yin o'tkazish samarali rag'batlantirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ta'limda o'yinlashtirish, raqamli texnologiyalarning mulki sifatida, o'quv jarayonida o'quv kompyuter o'yinlaridan foydalanishdir. Gamifikatsiya o'qitishning muammoli usullarini tatbiq etishga, o'quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi va tadqiqot loyihalarini tashkil etishda, o'z-o'zini baholash va guruhlarni baholashda samarali bo'ladi.

Axborot mazmuni kabi didaktik xususiyat turli xil ma'lumotlarning bir zumda va tezkor mavjudligiga, o'quv materialining bir turidan boshqasiga (vizual materialdan og'zaki va

aksincha) tez o'tishga yordam beradi. S.V.Titova axborotning quyidagi didaktik funktsiyalarini belgilaydi:

- ta'lim ma'lumotlari bilan ishlashni optimallashtirish: tezkor qidirish, tezkor kirish, tezkor uzatish, saqlash, birgalikda tahrirlash, nashr etish, tasniflash va tizimlashtirish;
- o'qitishning axborot mazmunini oshirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etish;
- axborotni mustaqil izlash, tadqiq etish, tahlil qilish va izohlash asosida o'quv faoliyatini tashkil etish;
- individual ta'lim strategiyalarini shakllantirish;
- o'z-o'zini va guruhlarda baholashni tashkil etish;
- talabalar motivatsiyasini rivojlantirish [7].

#### **Xulosa**

Yuqoridagi barcha didaktik xususiyatlar RT dan o'quv jarayonini qurish, pedagogik maqsadlarga erishish va ta'lim jarayonining dolzarb muammolarini hal qilish uchun foydalanish imkoniyatini ta'minlashini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Галустян О.В., Колбая И.Г., Галустян С.Д. Использование цифровых технологий в преподавании иностранных языков в высшей школе // Вестник ВГУ. Серия: проблемы высшего образования. 2021. № 3. С. 30–32.
2. Гейзерская Р.А. Цифровые образовательные технологии в обучении иностранному языку // Научные междисциплинарные исследования. 2020. С. 93-102.
3. Исаева Т.Е. Использование информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения иностранным языкам в вузе: методологический аспект // Общество: социология, психология, педагогика. 2020. № 3. С. 111–117.
4. Капустина Л.В. Анализ современных тенденций в применении цифровых технологий при обучении иностранным языкам (на материале обучающих Web-сайтов) // Концепт. 2020. № 3. С. 48–56.
5. Колесниченко А.Н. Применение цифровых технологий при обучении лексике иностранного языка в высшей школе // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2021. Т. 6. Вып. 2. С. 298–303.
6. Современные цифровые и информационно-коммуникационные технологии формирования универсальных компетенций обучающихся университета в процессе преподавания иностранных языков: колл. монография / под ред. Т.Е. Исаевой. Ростов-на-Дону: ФГБОУ ВО «РГУПС», 2020. 232 с.
7. Титова С. Цифровые технологии в языковом обучении: теория и практика. – Litres, 2022.



## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF STUDENTS' ABSTRACT THINKING

Najmiddinova Xilola Yokubjanovna – Namangan State University, Namangan, Uzbekistan. e-mail: [hilolanajmiddinova1304@gmail.com](mailto:hilolanajmiddinova1304@gmail.com)

**Annotation.** *The article reviews several influential studies on the development of abstract thinking in students. These studies encompass a range of theoretical frameworks and instructional strategies. The research methods employed include qualitative analysis, case studies, and experimental designs. The findings from these studies are synthesized to provide a comprehensive overview of effective methods for fostering abstract thinking.*

**Key words:** *Pedagogical aspects, Psychological aspects, Abstract thinking, Cognitive development, Critical thinking, Metacognition, Conceptual understanding, Problem-solving skills, Higher-order thinking skills, Reflective thinking, Creative thinking, Logical reasoning, Zone of proximal development, Piaget's stages of cognitive development, Vygotsky's sociocultural theory, Information processing theory, Cognitive flexibility, Transfer of learning, Self-regulated learning, Inquiry-based learning, Constructivist approach.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ АБСТРАКТНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Нажмиддинова Хилола Ёкубжановна – Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан.  
электронная почта: [hilolanajmiddinova1304@gmail.com](mailto:hilolanajmiddinova1304@gmail.com)

**Аннотация.** *В статье рассматривается несколько влиятельных исследований по развитию абстрактного мышления учащихся. Эти исследования охватывают ряд теоретических основ и стратегий обучения. Используемые методы исследования включают качественный анализ, тематические исследования и экспериментальные планы. Результаты этих исследований обобщены, чтобы дать всесторонний обзор эффективных методов развития абстрактного мышления.*

**Ключевые слова:** *педагогические аспекты, психологические аспекты, абстрактное мышление, когнитивное развитие, критическое мышление, мета познание, концептуальное понимание, навыки решения проблем, навыки мышления высшего порядка, рефлексивное мышление, креативное мышление, логическое рассуждение, зона ближайшего развития, этапы когнитивного развития по мнению Пиаже, социокультурная теория Выготского, теория обработки информации, когнитивная гибкость, передача обучения, саморегулируемое обучение, обучение на основе запроса, конструктивистский подход.*

## O'QUVCHILARDA ABSTRAKT TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Najmiddinova Xilola Yokubjanovna – Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston. e.mail.: [hilolanajmiddinova1304@gmail.com](mailto:hilolanajmiddinova1304@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Maqolada o'quvchilarda abstrakt fikrlashni rivojlantirish bo'yicha bir nechta samarali tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotlar bir qator nazariy asoslarni va o'qitish*



strategiyalarini qamrab oladi. Amaldagi tadqiqot usullarining sifat tahlili, amaliy va eksperimental tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari o'quvchilarda abstrakt fikrlashni rivojlantirishning samarali usullarini har tomonlama ko'rib chiqish uchun umumlashtirildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik jihatlar, psixologik jihatlar, abstrakt fikrlash, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash, metatanish, kontseptual tushunish, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari, reflektiv fikrlash, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, proksimal (eng yaqin) rivojlanish zonasi, Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari, Vigotskiyning sotsial-madaniy nazariyasi, axborotni qayta ishlash nazariyasi, kognitiv moslashuvchanlik, ta'limni uzatish, o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim, so'rovga asoslangan ta'lim, konstruktiv yondashuv.

**Introduction.** The development of students' abstract thinking in is an important aspect of their cognitive growth. This article explores the pedagogical and psychological factors that contribute to the formation of abstract thinking in students. Understanding the stages of development, using effective teaching strategies, and developing metacognitive skills enable educators to create an environment that promotes the development of abstract thinking. Additionally, encouraging critical thinking, creativity, social interaction, and reflection further enhances students' ability to think abstractly. By integrating these pedagogical and psychological aspects, educators can support students in developing the necessary higher-order thinking skills and problem-solving abilities. The research of Piaget, Vygotsky, Bruner, Dewey, Meyer, Khmelo-Silver, Diamond, and Lee, and Kainanen and Kallio is reviewed to provide insights into effective pedagogical and psychological approaches.

**Methods.** Abstract thinking is an important skill that students should develop as it allows them to think critically, solve problems, and make connections between different ideas. The formation of abstract thinking includes both pedagogical and psychological aspects that educators should consider when designing instructions.

From a pedagogical perspective, teachers can use various strategies to promote the development of abstract thinking in students. One such strategy is scaffolding, where teachers provide support and guidance to students by breaking down complex concepts into smaller, manageable parts. This approach helps students gradually develop their abstract thinking skills, building on their prior knowledge and understanding.

Inquiry-based learning is another pedagogical approach that fosters abstract thinking. By encouraging students to ask questions, explore ideas, and make connections between different concepts, educators can promote the development of higher-order thinking skills. This approach allows students to construct their own understanding and engage in critical thinking.

Concept mapping is a visual tool that can aid in the development of abstract thinking. By organizing and connecting knowledge using conceptual maps, students can see the relationships between different ideas and think beyond surface-level information. This promotes abstract thinking by encouraging students to analyze and synthesize information.

Problem-solving tasks are also effective in developing abstract thinking. These tasks require students to analyze, evaluate, and synthesize information to find solutions. By engaging in such tasks, students develop their critical thinking skills and apply abstract concepts to real-life situations.

From a psychological perspective, it is important to understand the cognitive processes and developmental factors that contribute to the formation of abstract thinking. According to

Piaget's stages of cognitive development, abstract thinking emerges during the formal operational stage, typically between the ages of 11 and 15. Educators can use this knowledge to adapt instructions to students' cognitive abilities and promote the development of abstract thinking.

Metacognition is another psychological aspect that plays a role in the formation of abstract thinking. Developing metacognitive skills allows students to reflect on their own thinking processes, monitor their understanding, and evaluate abstract concepts. By encouraging metacognition, educators can support students in developing their abstract thinking skills.

**Results.** Piaget's (1972) study describes the development of abstract thinking in children and proposes stages of cognitive development, including the stage of formal operations, in which children become capable of abstract thinking. Vygotsky's (1978) theory emphasizes the role of social interaction in the development of abstract thinking. He introduces the concept of the zone of proximal development, where a more experienced partner assists the child in mastering more complex abstract concepts. Lev Vygotsky's concept of the zone of proximal development highlights the importance of providing an appropriate level of challenge and support to students. By identifying students' zone of proximal development, educators can organize learning situations that promote the development of abstract thinking.

Bruner (1966) developed a theory of instruction based on active knowledge construction by students. He suggests using support tools such as modeling and teacher guidance to help students develop abstract thinking. Dewey (1910) views thinking as an active process based on experience and reflection. He advocates for the use of problem situations and practical experience to foster abstract thinking.

Meyer (2004) and Khmelo-Silver (2007) investigate the effectiveness of various teaching methods, including teacher-guided approaches. They argue that these methods may be more effective in developing abstract thinking than purely discovery-based methods. Other studies, such as Diamond and Lee (2011) and Kainanen and Kallio (2015), examine the role of metacognitive skills in the development of abstract thinking. They suggest that being aware of one's own thinking processes can aid students in developing abstract thinking.

The formation of abstract thinking in students involves both pedagogical and psychological aspects. Pedagogical aspects refer to the teaching methods and strategies employed by educators to foster abstract thinking, while psychological aspects involve the cognitive processes and developmental factors that contribute to the development of abstract thinking in students.

### **Pedagogical aspects**

1. Scaffolding: Teachers can provide support and guidance to students by breaking down complex concepts into smaller, more manageable parts. This gradual release of responsibility helps students develop their abstract thinking skills.

2. Inquiry-based learning: Encouraging students to ask questions, explore ideas, and make connections between different concepts promotes abstract thinking. This approach allows students to construct their own understanding and develop higher-order thinking skills.

3. Concept mapping: Using visual tools such as concept maps helps students organize and connect knowledge, enabling them to see relationships between different ideas. This promotes abstract thinking by encouraging students to think beyond surface-level information.

4. Problem-solving activities: Engaging students in problem-solving tasks that require them to analyze, evaluate, and synthesize information fosters abstract thinking. These activities challenge students to think critically and apply abstract concepts to real-world situations.

Psychological aspects:

1. Piaget's stages of cognitive development: According to Jean Piaget, children progress through distinct stages of cognitive development, with abstract thinking emerging during the formal operational stage (around ages 11-15). Understanding these developmental stages helps educators tailor instruction to meet students' cognitive abilities.

2. Metacognition: Developing metacognitive skills allows students to think about their own thinking processes, reflect on their learning, and monitor their understanding. Metacognition is essential for abstract thinking as it involves reflecting on and evaluating abstract concepts.

3. Zone of proximal development (ZPD): Lev Vygotsky's concept of ZPD emphasizes the importance of providing appropriate levels of challenge and support to students. By identifying a student's ZPD, educators can scaffold learning experiences that promote the development of abstract thinking.

4. Cognitive flexibility: Abstract thinking requires the ability to think flexibly, consider multiple perspectives, and adapt to new situations. Encouraging students to explore different viewpoints and engage in divergent thinking exercises enhances their cognitive flexibility.

Overall, the formation of abstract thinking in students involves a combination of pedagogical strategies and an understanding of psychological factors that influence cognitive development. By employing effective teaching methods and considering the psychological aspects, educators can support students in developing abstract thinking skills.

Stages of Development: Abstract thinking typically emerges during adolescence as part of cognitive development. Understanding the specific stages of development and abilities of students is crucial for educators to design appropriate learning tasks. By recognizing the stage at which students are in their cognitive development, educators can adapt their teaching strategies to effectively meet their needs.

Progression from Concrete to Abstract Thinking: Students often begin their educational journey with concrete thinking, where they understand objects or concepts in a literal and tangible sense. As they develop, they gradually transition to abstract thinking, which involves understanding concepts, ideas, and relationships beyond their immediate context. Teachers can support this progression by gradually introducing more complex and abstract concepts based on students' existing knowledge.

Metacognitive Skills: Metacognitive skills play a significant role in the development of abstract thinking as students learn to reflect on their thoughts, analyze problems, and evaluate their own understanding. Teachers can develop metacognitive skills by encouraging students to ask questions, reflect on their learning, and engage in self-assessment. By helping students become aware of their thinking processes, educators provide them with the ability to think abstractly.

Support and Guidance: Providing appropriate support and guidance is necessary for the development of abstract thinking skills in students. Teachers can employ various teaching methods, such as modeling, guided practice, and gradual release of responsibility, to help students understand abstract concepts. Breaking down complex ideas into smaller, more

manageable parts and providing clear explanations and examples are effective ways to support abstract thinking.

**Critical Thinking Skills:** Abstract thinking is closely linked to critical thinking skills, which involve analyzing, evaluating, and synthesizing information. Teachers can encourage critical thinking by engaging students in activities that require analysis and evaluation of information from different perspectives, problem-solving, and making connections between different concepts. By developing critical thinking skills, educators enable students to think abstractly and approach problems creatively.

**Creativity and Imagination:** Abstract thinking often involves the ability to think creatively and use imagination to generate new ideas and possibilities. Teachers can foster creativity by providing opportunities for open-ended tasks, problem-solving tasks, and encouraging divergent thinking. By developing creativity and imagination, educators help students develop abstract thinking skills.

**Social Interaction and Collaboration:** Engaging in meaningful discussions and collaborative activities with peers enhances students' abstract thinking skills. Interacting with others allows students to consider different perspectives, challenge their own ideas, and develop more complex thinking. A collaborative learning environment provides opportunities for students to engage in abstract thinking through dialogue and collaboration.

**Reflection and Metacognitive Strategies:**

Encouraging students to reflect on their learning experiences and use metacognitive strategies contributes to the development of abstract thinking. By prompting students to explain their thought processes, identify patterns or connections, and consider alternative viewpoints, educators help them develop a deeper understanding of abstract concepts.

**Conclusion.** The review of scientific research on the formation of students' abstract thinking highlights that different methods, such as social interaction, active knowledge construction, teacher guidance and support, as well as the development of metacognitive skills, can be effective in fostering this cognitive skill. Educators can draw upon these findings to design instructional strategies that promote the development of abstract thinking in students. Further research is needed to explore the long-term effects of these methods and their applicability across different educational contexts.

### References.

1. Piaget, J. (1970). *Genetic epistemology*. Columbia University Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
3. Bruner, J. S. (1966). *Toward a theory of instruction*. Harvard University Press.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906-911.
5. Hmelo-Silver, C. E., Duncan, R. G., & Chinn, C. A. (2007). Scaffolding and achievement in problem-based and inquiry learning: A response to Kirschner, Sweller, and Clark (2006). *Educational Psychologist*, 42(2), 99-107.
6. Facione, P. A. (2011). *Critical thinking: What it is and why it counts*. Insight Assessment.
7. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. *Creativity Research Journal*, 24(1), 92-96.

8. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (1991). Cooperative learning: Increasing college faculty instructional productivity (ASHE-ERIC Higher Education Report No. 4). ERIC Clearinghouse on Higher Education.
9. Schön, D. A. (1987). Educating the reflective practitioner: Toward a new design for teaching and learning in the professions. Jossey-Bass.
10. Zimmerman, B. J., & Schunk, D. H. (2011). Handbook of self-regulation of learning and performance. Routledge.
11. Yokubjanovna, N. K. (2023). TEACHING PROGRAMMING PRODUCTS FOR STUDENTS. *Computer network technology*, 1(1), 10-14.
12. Najmiddinova, K. Y. (2021, January). INFLUENCE OF FAMILY ON THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL LITERACY OF CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 13, No. 1, pp. 120-128).
13. Najmiddinova, K. Y. (2020). DETERMINATION OF THE LEVEL OF MATHEMATICAL LITERACY USING COMPUTER GAMES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(1), 413-419.
14. Najmiddinova, H. Y. (2019). IMPLEMENTATION OF INDIVIDUAL MATHEMATICAL EDUCATION USING INTELLECTUAL COMPUTER GAMES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(12), 373-377.

UDK 37.013.8

### KREDIT-MODUL O'QITISH TIZIMI ASOSIDA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH

Ulkanov Sardor Sodiqjon o'g'li, tayanch doktorant

Andijon mashinasozlik instituti,

Email: [sardor.ulkanov.93@mail.ru](mailto:sardor.ulkanov.93@mail.ru)

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada kredit-modul tizimining mohiyati, ta'lim tizimiga kirib kelish tarixi va respublikamiz oliy ta'lim tizimiga joriy etishning zarurati haqida so'z boradi. Shuningdek, kredit – modul tizimining mazmun va mohiyati, ustuvor tomonlari va respublikamiz OTM larini bu tizimga o'tkazishda bajariladigan ishlar hamda bu xususida muallifning ta'vsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko'rsatilgan. Jumladan, kredit-modul tizimida o'quv rejalar, fan dasturlari va mustaqil ta'limning xususiyatlari haqida ham bir qator ma'lumotlar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* kredit-modul, kredit-modul tizimi funksiyalar, metodika, qarorlar, sinov kredit, oliy ta'lim, yuklama, mustaqil ish, amaliy mashg'ulot.

### ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ

Улканов Сардор Садикжон угли, базовый докторант

Андижанский машиностроительный институт,

Электронная почта: [sardor.ulkanov.93@mail.ru](mailto:sardor.ulkanov.93@mail.ru)

*Аннотация.* В данной статье говорится о сущности кредитно-модульной системы, истории ее внедрения в систему образования и необходимости внедрения ее в систему высшего образования нашей республики. Также показаны содержание и сущность кредитно-модульной системы, ее приоритеты и предстоящая работа по переводу высших учебных заведений нашей

республики на эту систему, а также рекомендации и мнения автора по этому поводу. на научной основе. В частности, система кредитных модулей содержит ряд информации об учебных программах, научных программах и особенностях самостоятельного образования.

**Ключевые слова:** кредит-модуль, функции системы кредит-модуля, методика, решения, тестовый кредит, высшее образование, нагрузка, самостоятельная работа, производственная практика.

## TRAINING OF SPECIALISTS BASED ON THE CREDIT-MODULE TRAINING SYSTEM

Ulkanov Sardorjon Sodikjon ugli, doktorant

Andijan machine building institute,

Email: [sardor.ulkanov.93@mail.ru](mailto:sardor.ulkanov.93@mail.ru)

**Abstract.** This article talks about the nature of the credit-module system, the history of its introduction into the education system, and the need to introduce it into the higher education system of our republic. Also, the content and essence of the credit-module system, its priorities and the work to be done in transferring the higher education institutions of our republic to this system, as well as the recommendations and opinions of the author in this regard, are shown on a scientific basis. In particular, the credit-module system contains a number of information about curriculum, science programs and features of independent education.

**Key words:** credit-module, credit-module system functions, methodology, decisions, test credit, higher education, loading, independent work, practical training.

### Kirish

Kredit-modul tizimi dunyoning ko'plab ilg'or va rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimida joriy etilgan bo'lib, turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kredit-modul tizimining maqsadga muvofiq ekanligi uning dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimiga joriy etilganligidan ham ko'rinib turibdi. Ushbu tizimda ta'lim dasturlarning talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ularda ijodiy faollikni va bilim olishga intilishni, adabiyotlar va turli axborot manbalaridan mustaqil foydalanish ko'nikmasini, ma'lumotlarni tahlil qilish va keraklilarini saralab olish malakasini shakllantiradi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligining oshirishdagi muhim faktorlardan biridir.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabani haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870-1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi[1]. Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

## **Adabiyotlar tahlili**

O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" ga asosan kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tishmoqda. Kredit-modul tizimining asosida esa talabalarning mustaqil ta'lim olishi yotadi. Bu esa talabalarning axborot-muhitida o'z ustida ishlashlari va mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyat ekanligini tahlil qilingan va mustaqil ta'lim olish tuzilmasiga e'tiborini qaratgan [2].

Biz uchun yangilik bo'lgan kredit-modul tizimi, uning mazmun-mohiyati, tizimda qo'llaniladigan atamalar va tushunchalar hamda ularning mazmuni, tizimda o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar bilimni baholash masalalarini o'rganish va ularning mohiyatini yoritib berish borasida olimlarimiz va yetakchi mutaxassislar tomonidan qo'llanmalar, maqolalar chop etilmoqda[3]. Jumladan, 2020-yilda B.Sh.Usmonov, R.A.Xabibullayevlar tomonidan "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan bo'lib, unda kredit-modul tizimi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanmada kredit-modul tizimida talabalar bilimni baholash tartibi va uning o'ziga xosligi bayon etilgan.


Bundan tashqari o'zbek olimlaridan I.B. Asqarov o'z ilmiy ishlarida an'anaviy o'qitish tizimi yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqeyliklarda, I.B. Asqarov tadqiqot faoliyatida, I.B. Asqarov mehnat bozorida kasbiy faoliyat jarayonida mutaxassislar tayyorlashning ososiy bosqichlarida, I.B. Asqarov faoliyat davomida yuzaga keladigan muammolardan va amaliyotdan ajralgan bo'lib chiqdi. Bu kelajakdagi mutaxassislarining malaka darajasining zarur talablarga, ijtimoiy me'yorlarga va davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini belgilaydigan ijtimoiy xususiyatlarni yaxshilashga to'sqinlik qiladi deb fikr yuritgan[5- 4-bet, 6-3-bet].

### **Tatqiqot metodologiyasi**

Kredit-modul tizimi - bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modulli texnologiyalariga asoslangan, mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonini qat'iy belgilangan holda va mehnat bozori talablariga mos tarzda tashkil etishga qaratilgan, kredit o'lchovi asosida baholashga asoslangan ta'lim tizimi hisoblanadi (1-rasm).


Kredit-modul tizimini amalga oshirish sarmashaqqatli va murakkab tizimdir. Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimni reyting asosida baholash;
- o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minotini yanada takomillashtirish.



1-rasm. Kredit-modul tizimi funksiyalari

Kredit-modul tizimining ahamiyatli tomoni shundaki, bu tizimda fanning o'quv dasturi mehnat bozori talablarini o'rgangan holda, shunga mos tarzda tuziladi. O'quv rejadagi fanlar ikki guruhga, ya'ni majburiy fanlar va tanlov fanlariga ajratiladi[4, 2-bet]. Tanlov fanlari o'quv rejadagi fanlarning 50 %ini tashkil etadi, demak talabalarning o'zi qiziqadigan va kelajakda kerak deb hisoblaydigan fanlarni tanlab o'qish imkoniyati ortadi. Kredit-modul tizimida talabalarni o'qitish jarayonida o'qituvchilardan har bir talabaga individual yondashish talab etiladi va talabani mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish lozim bo'ladi. Yana kredit-modul tizimida shuni ta'kidlab o'tish joizki, talabalarda fanlarni va o'qituvchilarni tanlash huquqi ham paydo bo'ladi, shuningdek o'z ustida mustaqil ishlash imkoniyati ortadi (2-rasm).





## 2-rasm. Mustaqil ta'lim va shaffof baholash tizimi

Kredit tizimi u yoki bu kursni yoki yaxlitlikda ma'lum bir o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur.

Mustaqil ish (umumiy soatning 50-60% hajmida)

Auditoriya uchun yuklama (umumiy soatning 40-50% hajmida)

### Tahlillar va natijalar

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, universitetda bakalavriyat bosqichida bir semestrda o'qish 15 hafta va attestatsiya uchun 6 (bir semestrda 3 hafta imtihonlar uchun ajratilgan) hafta ajratilmoqda. Shunda 4 yilda o'qish haftalari soni 144 tani, attestatsiyalar 24 haftani hamda umumiy ta'tillar bilan hisoblaganda jami 204 haftani tashkil etmoqda. Barcha ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar o'quv rejalarida har bir bosqichda fanlar ikki qismga, ya'ni asosiy va tanlov fanlariga ajratilgan holda aks ettirilmoqda [5, 4-bet].

ECTS (European credit transfer System) talabidan kelib chiqib, talabaga har yili 60 kreditdan 4 yil ichida jami 240 kreditni to'plash majburiyatini yuklash rejalashtirilmoqda. Shunda talaba 4 yil davomida ma'ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari va imtihon jarayonlarida ishtirok etishiga 2880 soat, mustaqil ta'limga 4320 soat, jami 7200 soat vaqt sarflashi lozim bo'ladi. 1 kredit = 12 akademik soat + 18 soat mustaqil ta'limni tashkil etadi. Shu bois 1 kredit 30 soatga teng deb qaralib, talabaning haftalik auditoriya yuklamasi 20 soatga teng. Malakaviy amaliyot uchun ajratilgan kredit miqdori tegishli fan yoki fanlar hisobiga amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

### Natijalar va muhokama

*Talabani baholash va kursdan kursga o'tkazish tartibi.*

**GPA (Grade Point Average)** – ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 + \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}, \quad \text{bunda:}$$

K – har bir fan modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

Bunga misol tariqasida, 60712500-**Transport vositalari muhandisligi** 1-kurs talabalarini kredit modul tizimi bo'yicha GPA darajasini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval.

Modul-kredit tizimida GPA darajasini aniqlash

№	Fanning malakaviy nomi	Fan nomi	Kredit miqdori	Olingan baholar
1	OMa1101	Oliy matematika	15	3
2	Fiz1102	Fizika	8	4
3	TTAT1103	Axborot texnologiyalari	5	5
4	Kim1104	Kimyo	4	2
5	O'EYAT2105	O'zbekistonning eng so'ngi tarixi	4	5
6	XT1108	Xorijiy til	8	4
7	O'(R)T1107	Rus tili	4	3
8	MKG1109	Muhandislik va kompyuter va grafikasi	10	4

$$\text{GPA} = \frac{K_1 \cdot U_1 + K_2 \cdot U_2 + K_3 \cdot U_3 + \dots + K_n \cdot U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}$$
$$\frac{15 \cdot 3 + 8 \cdot 4 + 5 \cdot 5 + 4 \cdot 0 + 4 \cdot 5 + 8 \cdot 4 + 4 \cdot 3 + 10 \cdot 4}{15 + 8 + 5 + 4 + 4 + 8 + 4 + 10} = \frac{204}{58} = 3.52$$

**GPA=3.52 ga teng**

**GPA ko'rsatkichi 2.4 ga teng va undan yuqori bo'lsa** (qarzdor talaba ham): o'rnatilgan tartibda buyruq bilan kursdan-kursga o'tkaziladi.

Bunda qarzdor talaba o'zining hohish istagiga ko'ra 2021 yilning avgust oyida (yoki keyingi semestrlarda) fanni qayta o'zlashtirmoqchi bo'lsa, GPA ko'rsatkichi 2.4 dan past bo'lgan talabalar bilan birgalikda pullik qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashib, fanni o'zlashtirishi mumkin.

**GPA ko'rsatkichi 2.4 dan past bo'lsa:** talaba kursdan-kursga o'tkazilmaydi, unga yozgi ta'til vaqtida pullik qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Kredit-modul tizimi talaba uchun dars jarayonini yaxshi o'zlashtirishga, intellektual yondashishga, shu bilan birga talaba mustaqil ta'lim olish uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Shu bilan birga talabalar o'zi hohlagan fanni tanlashi, akademik almashinuvchanlikni amalga oshiradi. Online holatda ham malumotlardan qiynalmasdan foydalanishga, berilgan kreditni qiynalmasdan masofaviy holatda to'plashi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom". Toshkent, 2020-yil.
3. Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli xujjatlar namunalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 15-yanvardagi №30-sonli buyrug'i.
4. Sodiqjon o'g'li U. S. Kredit-modul tizimi asosida ta'lim vositalarining klassifikatsiyasi yaratish //4-SHO 'BA MATERIALLARI МАТЕРИАЛЫ 4-СЕКЦИИ SECTION 4 MATERIALS. – 2022.
5. Аскарлов, И. Б. (2017). Основные подходы и принципы подготовки будущих педагогов профессионального обучения к исследовательской деятельности. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-6), 25-32.
6. Аскарлов, И. Б. (2017). Управление и планирование процессом формирования исследовательских умений и навыков будущих преподавателей профессионального образования. Школа будущего, (2), 10-15.



## ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIMI MUHITINI MIDIERGONOMIK LOYIHALASHTIRISHNING HUSUSIYATLARI.

Eraliyev Xalimjon Alimbekovich

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'quv  
va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Gmail: [eraliyev2020@gmail.com](mailto:eraliyev2020@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mikroergonomika "inson - ishchi tizimning yana bir komponenti", Ergonomikaning asosiy maqsadlari, Midiergonomika ish o'rinlari va ishlab chiqarish vazifalari darajasidagi o'zaro ta'sirlarini, Midiergonomika ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda inson va mashina o'rtasidagi funktsiyalarni optimal taqsimlash va muvofiqlashtirish muammolarini o'rganish, Direktor o'rinbosarlarining imkoniyatlari tizim ichidagi funktsiyalarning tegishli taqsimlanishi uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi bo'yicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'z va tushunchalar:** ergonomik yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomik ta'lim muhiti, texnologik tizim.

## ОСОБЕННОСТИ МИДЕРГОНОМНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ.

Эралиев Халимжон Алимбекович

Заместитель директора по учебно-методической работе Наманганского областного  
национального центра подготовки педагогов новым методам

Gmail: [eraliyev2020@gmail.com](mailto:eraliyev2020@gmail.com)

**Аннотация:** Микроэргономика – «еще одна составляющая рабочей системы», основные цели эргономики, взаимодействие мидергономики на уровне рабочих мест и производственных задач, оптимизация функций между человеком и машиной в повышении качества и эффективности труда. образование по мидергономике, изучение проблем распределения и координации возможностей заместителей директора, считается, что правильное распределение функций внутри системы существенно повысит ее эффективность.

**Ключевые слова:** эргономический подход, среднеэргономическая культура, эргономичная образовательная среда, технологическая система.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MIDERGONOMIC DESIGN OF MODERN SCHOOL EDUCATIONAL ENVIRONMENT.

Eraliyev Khalimjon Alimbekovich

Deputy director for educational and methodological affairs of the Namangan region national  
center for training pedagogues in new methods

**Abstract:** It was believed that the concept of microergonomics as "A person is another component of the working system", the main goals of ergonomics, the interaction of midergonomics at the level of workplaces and production tasks, the optimal distribution of functions between a person and a machine in improving the quality and effectiveness of midergonomics training, as well as the study of coordination

problems, the capabilities of deputy directors and the correct distribution of functions within the system it will significantly increase its efficiency.

**Key words and concepts:** ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system

### Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sohasini jiddiy isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqish, direktor o'rinbosarlarini, jumladan, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari o'rganadigan fanlar o'quv materiallarini mazmunan ergonomikaga oid bilimlar bilan chuqur boyitish va ularning midiergonomik kompetentligini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta'lim muassasasining ta'lim muhitini loyihalashtirishda o'quvchining normal jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilishi kerak, buning uchun midiergonomikada yoshga bog'liq rang psixologiyasi va estetikasi talablarini hisobga olinadi va bir qator vazifalarni bajarish rejalashtiriladi: foydali mehnat qilish, ya'ni kam energiya sarflagan holda ko'p samara olish va mehnat natijasidan qoniqish hosil qilishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishni ta'minlash, mehnat faoliyatini kuzatish natijasida bilim olishga imkon berish, hayot faoliyati qulayligini ta'minlash, ishni ko'zini bilish va boshqalar.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalar va ishlab chiqilgan texnologik tizimga asoslanib, biz tadqiqotlarimiz doirasida midiergonomik ta'lim muhitini malakali tashkil etishga harakat qildik.

Tadqiqotimiz doirasida o'rganib chiqilgan bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida biz maktabning ta'lim muhitini loyihalash uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinmoqda.

Albatta, maktab ta'limida o'quv muhitini loyihalashni bilish o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari sirasiga kiradi. Biroq bu vazifani hal qilish uchun boshqa o'quv fanlarining o'qituvchilarini ham katta imkoniyatlari bor. Ta'lim muhitini loyihalash, albatta, darslarda o'quv predmetlarini o'rganishda vujudga keladi. O'qituvchi o'quv predmeti orqali o'quvchilarga ana shu predmetga aloqador midiergonomik dastlabki ma'lumotlarni beradi. O'quvchilarni ana shu midiergonomik talablarga qat'iy rioya qilish zarurligiga qiziqtiradi. Darslarda ta'lim muhitini tahlil qilish usullari har xil bo'lishi mumkin. O'qituvchi tomonidan midiergonomik talablar haqidagi masalani suhbat, tegishli adabiyotlarni tavsiya etish, o'quvchilarga alohida-alohida topshiriqlar berish, ma'ruzalar, devoriy matbuot orqali munozara o'tkazish, insho, ishlab chiqarish mazmunidagi vazifalar berish, mutaxassislar bilan uchrashuv va boshqa shakllarda yoritiladi.

O'quvchilar matematika darslarida, ustaxonadagi amaliy ishlarda turli hisoblashlarga, har xil geometrik yechimlarga duch keladilar. Bu hol matematika o'qituvchilariga o'z predmetiga o'quvchilarning unumli mehnati bilan bog'lashni amalga oshirish imkonini yaratadi va ular: a) o'quvchilarning matematika nazariyasini puxta bilib olishga hamda hisoblash apparatini o'zlashtirishga erishadilar; b) ularga matematikani amalda qo'llashni o'rgatadilar; v) o'quvchilarda muayyan (hisoblash grafika va hakoza) ko'nikma va malakalar hosil qiladilar;

g) o'quvchilarning ishlab chiqarish jarayonlaridagi matematik asosning ko'ra olish iqtidorini rivojlantiradilar.

### **Adabiyotlar tahlili**

O'quvchilarni ayniqsa hayotdan olingan misollar juda qiziqtiradi. Geometriya darslarida aylana jismlar, jumladan, tsilindr va shar o'rganiladi. SHar har qanday geometrik jismlarga, jumladan, aylana jismlarga qaraganda ajoyib xossaga ega: uning hajmi boshqa qismlar bilan bir xil bo'lsa-da, sirti eng kichik bo'ladi. Ana shu faktni oddiy masala yechish bilan aniqlash foydalidir. Aytaylik, qo'limizda hajmi bir xil (chunonchi,  $1\text{m}^3$  li uchta geometrik jism kub, diametri  $d$ q tsilindr va shar bor. Mana shu jismlar to'la sirti yuzalarining nisbati aniqlansin. Hisoblash yuzalarining bu nisbati bo'lib, taxminan 10:9:8 ekanini, ya'ni sharning sirti 80%ni, tsilindr sirti 90%ni tashkil qilishini va kubning sirti bilan barobarligini ko'rsatadi. Ana shu muhim geometrik xossa texnikada va turmushda keng qo'llanadi.

Bunday faktlar jonli tabiatda ham allaqachonlar o'z ifodasini topgan, deydi o'qituvchi. Hayvonlar va o'simliklar, shuningdek, ularning ayrim organlari evolyutsiya jarayonida (fiziologik vazifalarni bajarish chegaralarida) eng tejimli shakllarga kirganki, bu shakllar energiya va jonli qurilish materialini to'g'ri sarflash, bo'shliqqa issiqlik chiqib ketishini kamaytirish, sklet suyaklarining mustahkamligini oshirish kommunikatsiyani maksimal darajada qisqartirish, ularning o'tkazish qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

O'qituvchi bu ishni quyidagicha tashkil etishi mumkin.

1. Midiergonomik kompetentlikni ahamiyati haqida, kasblar haqida, ko'p kasblar uchun matematikaning roli haqida suhbatlar.

2. Matematika kerak bo'ladigan kasblar to'g'risida ma'ruzalar sobiq o'quvchilarning o'z kasblari va ana shu kasblarida matematikaning roli to'g'risidagi chiqishlari.

3. Ishlab chiqarish mazmunidagi midiergonomik masalalarni yechish.

Ifodalangan shakllarda midiergonomik ta'lim muhitini loyihalaydigan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari o'qituvchilar va o'quvchilarga xilma-xil midiergonomik talablarning inson salomatligiga ta'sirini yoritib berishdan tashqari, ularni qiziqishlarini, moyilliklarini o'rganadilar, ana shu sifatlarni tarkib toptirish va rivojlantirish ustida ham ishlaydilar.

Fizika darslarida ta'limni o'qituvchilarni unumli mehnati bilan bog'lash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Fizika texnikaning asosi bo'lib fizika qonunlarining ahamiyatini insonning o'zgartiruvchilik faoliyatida fizikaning rolini texnika misollari bilan kurashmog'i ifodalashi mumkin.

O'qituvchi fan va texnika yangiliklarini muntazam yoritish uchun:

1) fizika hodisalarini yaxshiroq aks ettiradigan;

2) o'quvchilar tushuna oladigan;

3) dasturdan tashqariga chiqmaydigan;

4) o'quvchilarni kelajakdagi amaliy faoliyatga tayyorlashga ko'prok yordam beradigan materialarni tanlash kerak.

Shuning uchun insoniyatning o'tmishini o'rganish jamiyatimizdagi eng muhim masalalarga qanchalik muvofiqligini, tarixni o'rganishni hayot bilan bog'lash nima ekanligini aniqlab olish zarur.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

O'quv predmetlarini o'qitishda o'quvchilarni midiergonomik kompetentligini shakllanishi ko'p jihatdan shu predmet o'qituvchisining mahoratiga o'quvchilarning midiergonomik bilimlarga qiziqtirishni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, tashviqot- targ'ibot ishlarini amalga oshirish imkoniyatlariga, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish yuzasidan midiergonomik kompetentligini mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari faoliyatining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni ta'lim subyektlari faoliyatni loyihalash, o'quv ishlarini rejalashtirish, o'quv xonalarida ta'lim muhiti va mehnat gigienasi bo'yicha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo'linadi. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularning o'qituvchilar va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi mashg'ulotlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

### **Tahlillar va natijalar**

Hozirgi kunda maktab mebellari uchun 1993 yilda tasdiqlangan standartlar mavjud. Ushbu standartlarga binoan o'quvchilarning oltita standart o'lchamlari (GOST 11015-93) va stullar (GOST 11016-93) mavjud.

Boshlang'ich maktabda mebellarning dastlabki to'rt guruhidan foydalaniladi. O'rta maktabda turli fan xonalari turlicha jihozlangan. Masalan, umumta'lim maktabining tabiiy fanlar (biologiya, kimyo, fizika) sinflari 4-,5-,6-guruhlar uchun stol va stullar bilan jihozlangan. 10-13 yoshdagi maktab o'quvchilari o'qiydigan tabiiy fan xonasida 3- va 4- o'sish guruhlarining mebellari ishlatiladi. 2-,6- guruh mebellari chet tili kabinetida ishlatiladi.

Mebel va jihozlar haqidagi ma'lumotlar Xalq ta'limi vaziri tomonidan 2004-yil 15-mayda tasdiqlangan "umumta'lim maktablarini jihozlash me'yorlari" da ko'rsatilgan o'qitish vositalari, jihoz va uskunalar, xonalarning nomlanishini va ulardan foydalanish usullari, "0375-20 sanQvaM" raqamli O'zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, normalari va gigienik normativlarini, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risidagi "Yo'riqnoma" hamda mazkur tadqiqot ishi ilovalarida keltirilgan.

Midiergonomik bilimlar o'quvchilarga keyingi kasbiy tayyorgarlikning yo'llarini tushuntirish, kasblar bo'yicha ma'lumotlar olish va tanlangan kasblar yuzasidan uning midiergonomik talablari va antropometrik xususiyatlar haqida referatlar yoqlash bilan tugallanadi. Har bir o'quvchi tuzgan faqat yaqin hamda uzok maqsadlar emas, balki ularni amalga oshirish ishlari xam ifodalangan midiergonomik reja o'quvchilar olgan bilimlarning o'ziga xos ko'rsatkichi bo'ladi. Yakunlovchi mashg'ulotlarda o'quvchilarga iloji boricha ko'proq mustaqillik berish zarur.

Oldindan tinglovchilarga midiergonomikadan ma'lumotnoma adabiyotlar bilan tanishishga doir individual topshiriqlar berish, zarur bo'lsa, vrach bilan maslahatlashishni, tegishli o'quv yurtlaridagi ochiq eshiklar kunlarida qatnashish va hokazolarni tavsiya etish kerak. Lozim bo'lsa, o'qituvchi ish o'rinlari bo'yicha guruhga va individual maslahatlarda o'quvchilarning rejalariga tuzatishlar kiritishi ularni ob'ektiv baholashi kerak.

Mikromidiergonomik ishlarining butun tizimi bilan chambarchas bog'liq va uzviy tarzda, ta'lim va tarbiyaning oldingi bosqichlarida ta'lim faoliyatiga tayyorlikning shakllantirish bo'yicha o'quvchilar orttirgan tajribani hisobga olgan xolda o'rganish o'quvchilarni ish o'rinlariga moslashishga tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchi

mashg'ulotlarda o'quvchilarni olgan bilimlaridan maksimal darajada foydalanishi zarur. Bu bilimlarni aktivlashtirishning omillari har xil, masalan, o'quvchilarning korxonadagi o'z mehnatlari, faoliyatlari haqidagi hisobotlari, korxonaning ilg'or vakillari mehnat biografiyasini tuzish, maktabda ishlab chiqarish muhitidagi kasblarni eng yaxshi bilish bo'yicha konkurslar o'tkazish, reportajlar uyushtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan ishlab chiqilib tayyorlanadigan qo'llanmalar, o'quv vositalari hozirgi hayotidagi so'nggi ma'lumotlarini va xalqaro natijalarni, fan va texnikaning yangi yutuqlarini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Texnika va texnologiya fanlari yutuqlarini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun masalan, mexanika va elektronika xarakteridagi o'quv qo'llanma, o'quv vositalari, ko'rgazmali qurollar va boshqalar bo'lishi zarur. Bunday ta'lim resurslarini tayyorlashda nafaqat ishlab chiqarishning asosiy imkoniyatlarini, balki ularni yaratish maqsadga muvofiqligini ham hisobga olinishi kerak.

Bolalarni o'quvchilar jamoasining an'analari ro'xida tarbiyalash ham sinfdan tashqari ishlarda katta ahamiyatga egadir. Maktablarda anchagina yaxshi an'analarni mavjud. Bular birinchi qo'ng'iroq, oxirgi ko'ng'iroq, maktabning sobiq bitiruvchilari bilan uchrashuv va boshqa tadbirlari o'tkazishdir. So'ngi yillarda maktablarda mehnat an'analari ham keng tus olmoqda va ularni mustahkamlash juda ham muhimdir. O'quvchilarning turli qo'llanmalar tayyorlashi maktab xonalarini boyitishda yordam beradi. Ularning bog'lar va gulxonalarini barpo etishda ko'chalar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirishda qatnashishlari sharaflari mehnat an'anasiga bo'lib qoldi. Shuningdek, jamoa xo'jaliklariga turli yumushlarni bajarishda ko'maklashish ham yaxshi mehnat an'anasiga aylandi. O'quvchilarning dexqonchilikdagi ijtimoiy foydali unumli mehnati juda katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining "Yosh ergonomist" to'garagini tashkil etib, o'quvchilarni tarbiyalash sohasidagi eng muhim vazifasi o'g'il va qizlarda o'zlari tanlagan kasbga qiziqish va muhabbatni oshirish, ularni korxonaga jamoasiga yaqinlashtirish orqali ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, o'quvchilarni korxonaning mehnat an'analari bilan tanishtirish; ularda mehnatga mas'uliyatli munosabatni yanada takomillashtirish va midiergonomik talablar bilan tanishtirish kabi vazifalardan iborat.

### **Xulosalar**

Oliy ta'limning pedagogika ta'lim sohasi talabalari uchun "Pedagogik ergonomika" dan mashg'ulotlar tashkil etilishi nazarda tutilmagan.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligi ta'lim subyektlari faoliyatni loyihalash, o'quv ishlarini rejalashtirish, o'quv xonalarida ta'lim muhiti, mehnat gigienasi, tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydigan dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysini loyihalash kompetentsiyaga bevosita bog'liq.

Midiergonomik savodxonlik – maktabning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati, "o'quvchi va ta'lim vositalari" tizimini tadqiq etish va loyihalash, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining maktabdagi o'zaro va maktabdan tashqari munosabatlar tizimini tadqiq etish va loyihalash, mehnatni qulay va xavfsiz tashkil etish to'g'risida bilim, bu bilim va vositalarni bevosita o'z faoliyatida samarali qo'llash qobiliyati.

Midiergonomik kompetentsiya ma'lum o'quv qo'llanmalari vositasida xavfsiz, qulay va samarali o'zaro aloqalarni ta'minlaydigan midiergonomik bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga ega bo'lish.



Midiergonomikaga oid kompetentsiya printsiplarini, mezonlari, bosqichlari, yondashuvligi, aspektlari, metodik sharoitlari, kutilayotgan natija komponentlarini shakllantiradi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining midiergonomik kompetentligi darajasiga mos ravishda maktabda ta'lim muhiti o'zgaradi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik tayyorgarligi yetarli emas, ta'lim muhiti, ish joyini o'quvchiga qulay, samarali va xavfsiz moslashtirishni ta'minlash o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining diqqat nazaridan chetda qolgan.

### **Adabiyotlar**

1. Abdullayev S.X. O'qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali. Toshkent, 2021. 9-son. B.28-36.
2. Abdullayev S.X. Texnologik ta'lim o'qituvchilarining ergonomik kompetentligi // Monografiya. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoye masterstvo/uchebnoe posobie dlya magistraturq vsex spetsialnostey. - T.: TGPU im. Nizami, 2003. – 192 s.
4. Okulova L.P. Pedagogicheskaya ergonomika: monografiya. – M. Ijevsk: Institut komp'yuternqx issledovaniy, 2011. – 200 s.
5. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi madaniyat va sport ishlari vazirligi. Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, komp'yuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risida yo'riqnoma (qo'llanma). – Toshkent: 2010.





## **BOLALARNI SPORT TURLARIGA SARALAB OLISH JARAYONINI TASHKIL ETISH**

O'razbayev Jaxongir Temur o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi

[jaxon12345@gmail.com](mailto:jaxon12345@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni psixik temperamenti asosida sport turlariga saralab olish va ularni yo'naltirish asoslari yoritiladi. Buning uchun dastlab bolalarda psixologik test yordamida ularning psixik temperamenti aniqlab olinadi, so'ng shu temperamenti asosida sportning turlariga yo'naltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** bolalik, sport turlari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, bolalar psixikasi, temperament, xolerik, sangvinik, melonxolik, flegmatik.*

## **ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ПО ВОВЛЕЧЕНИЮ ДЕТЕЙ В ВИДЫ СПОРТА**

Ўразбаев Жахонгир Темур ўғли

Университет города Джизака Преподаватель кафедры массового образования  
в социально-гуманитарных науках.

[jaxon12345@gmail.com](mailto:jaxon12345@gmail.com)

***Аннотация:** В данной статье описаны основы отбора и наставничества детей младшего школьного возраста в спорте с учетом их психического темперамента. Для этого сначала используйте психологический тест на определение психического темперамента детей, а затем, исходя из этого темперамента, ориентируйтесь на спорт.*

***Ключевые слова:** детство, спорт, физическая культура, физическое развитие, детская психика, темперамент, холерик, сангвиник, меланхолик, флегматик.*

## **ORGANIZING THE PROCESS OF ENROLLING CHILDREN IN SPORTS**

Jaxongir Temur o'g'li O'razbayev

Jizzax State Pedagogical University, Department of Mass Education in Social and Humanities,  
Lecturer

[jaxon12345@gmail.com](mailto:jaxon12345@gmail.com)

***Abstract:** This article describes the basics of selecting and mentoring young school-age children in sports based on their mental temperament. To do this, first use a psychological test to determine the mental temperament of children, and then, based on this temperament, focus on sports.*

***Keywords:** childhood, sports, physical training, physical development, children's psyche, temperament, choleric, sanguine, melancholy, phlegmatic.*

### **Kirish**

Ma'lumki inson umri yosh jihatidan turli davrlarga bo'linadi. Bolalik – ontogenezning dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug'ilgandan o'smirlikkacha bo'lgan davrni belgilash

uchun) qo'llanadigan tushuncha. Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik – go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha), ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha yosh (3 yoshdan 6-7 yoshgacha) va kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi. Bolalik jadal psixik taraqqiyot davridir. Shu davrlar ichida kichik maktab yoshidagi bolalar davrining psixik temperamentlari haqida so'z yuritamiz. Bu yoshgacha esa inson temperamenti shakllangan bo'ladi. Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan individual xususiyatdir. Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi, kuchi va barqarorligi har hil bo'ladi. Bir hil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo'zg'aladi va barqaror bo'ladi. Ba'zi kishilarda esa bunday qo'zg'alish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. [1,5]

Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, har xil beixtiyor ish-harakat va imo-ishoralarda ko'rinib turadi. Kishi hissiyotining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, bir hil odamlarni «tez», «betoqat», «serg'ayrat», «jo'shqin» deymiz. Ba'zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijozi) tarkib topadi. Aynan shuning uchun ham sportga saralab olishda temperament muhim o'rin kasb etadi. Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo'ladi. Temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog'larida yaqqol namoyon bo'ladi. Bir xil bolalarning hissiyoti tez, kuchli qo'zg'aladi va barqaror bo'ladi. [2,10]

Ba'zi bolalarda esa bunday qo'zg'alish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari boladagi hissiyotning qo'zg'alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhit ta'siriga javoban ko'rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Har bir kishining o'z temperamenti bo'ladi. Lekin har qaysi bolaning temperamentlarida mana shunday individual tafovutlar bo'lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o'xshash belgi va alomatlari ham bo'ladi. Hamma hilma-hil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga qarab ajratish, ya'ni klassifikasiya qilish mumkin.

Barcha temperamentlarni qadimdan to'rt tipga:

- 1) xolerik,
- 2) sangvinik,
- 3) melanxolik,
- 4) flegmatik turlariga ajratiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Sport turiga bolalarni qo'shilish jarayonini tashkil etish, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon, bolalar o'zlarini sport turarini sevuvchilardan tanlash va ularga o'zaro yordam bera olishlari, sportga qiziqishini oshirishlari, fizik va ruhiy rivojlanishlarini ta'minlashlari uchun muhimdir. Maqolada, sport turiga bolalarni qo'shilish jarayonini tashkil etishning asosiy nuqtalari haqida ko'proq ma'lumot beramiz.

Tur tanlash: Bolalar tur tanlashda qatnashishni xohlaydilar yoki hohlagan turda qatnashishi mumkin bo'lganligini aniqlashlari kerak. Ota-onalar, bolalarni tur tanlashida uning qiziqishlarini va qobiliyatlarini ko'rib chiqishlari kerak. Ular tur tanlashda bolalarining

qiziqishlarini barcha sport turlari bilan tanishtirib chiqishlari, bu ularga o'zgaruvchan sport tanlanganida uni tanlash imkoniyatini beradi.

**Saralash va yordam berish:** Bolalar tur tanlagandan so'ng, ota-onalar ularga bu turga tayyorgarlik qilishlarida yordam bera olishlari kerak. Bu, sport ichidagi qoidalarni o'rgatish, vositalarni ta'minlash va bolalariga tur tanlash paytida yaxshi yo'riqnoma va ta'lim bermoqni o'z ichiga oladi. [3,10]

**Sponsorlik va ushbu turga oid qobiliyatni oshirish uchun vositalarni ta'minlash:** Bolalar va ota-onalar uchun sport turiga oid kerak bo'lgan vositalar va kiyim-kechaklar tayinlanishi kerak. Bu, bolalar sportni tushunish va uningda rivojlanishlari uchun muhimdir.

**Psixologik tayyorgarlik:** Sport turlariga kiruvchi bolalar uchun psixologik tayyorgarlik ham muhimdir. Bolalar yutuq olish, yo'qotish yoki qayd etish paytida hissiyotlari va o'zaro munosabatlari bilan yaxshi omadli bo'lishlari uchun psixologik yordam kerak bo'ladi.

**Jamoa va do'stlar yordami:** Bolalarning sport turiga qo'shilish jarayonida jamoa va do'stlarining yordam berishi o'rinli bo'ladi. Ularga qo'shilganlarining qo'shni, ong'ib ketishni va sportning katta qiyinchiliklarini to'g'ri o'rganishlari uchun yordam berishlari mumkin.

**Motivatsiya va tashviq etish:** Bolalarni sport turiga qo'shilish uchun motivatsiyalash va tashviq etish ham muhimdir. Ularga sportda yaxshi natijalar olish, o'zlarini rivojlanishlari va yaxshi qilishlari uchun tashviq etishning bir qatori usullaridan foydalanish mumkin.

**O'sishni kuzatish:** Ota-onalar sport turiga qo'shilgan bolalarni o'sishlarini va rivojlanishlarini kuzatishlari, ularga yordam bera olishlari kerak. Bu, bolalarining sport turida muvaffaqiyatga yetishishlarini ta'minlash uchun muhimdir.

Bularni amalga oshirish va sport turiga bolalarni qo'shilish jarayonini tashkil etish ota-onalar va o'qituvchilar uchun muhim vazifalardir. Bolalarni sportga qo'shilish, ularning rivojlanishini oshirish va salomati uchun katta o'rin egallaydi.

### **Muhokama va natijalar**

Xolerik temperament – hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli bolalarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xoleriklar qizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli bolalar chaqqon, umuman harakatchan, serg'ayrat va har doim urinuvchan bo'ladilar. Bu hil temperamentli bolalar serg'ayrat bo'ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan bo'ladilar. Ular ko'pchilik bilan jamoa o'yinlar o'tkazishni sevadilar va bunday o'yinlarni ko'pincha o'zlari boshlab, oxirigacha aktiv qatnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo'ladilar. Bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik ularda uzoq saqlanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo'ladi. Xolerik tipidagi bolalarning bu xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kuch-tezkorlikni rivojlantiruvchi yuklamalardan kengroq foydalanish mumkin. Bu tipdagi bolalarning qizg'inlik va tajanglikka moyilligi uchun sport turlaridan jangovor sport turlariga, masalan: boks, kik-boksing, u-shu, karate, taekwando, muay-tay, o'zbek jang san'ati, sambo, jangovor sambo, dzyu-do, yunon-rum kurashi, milliy kurash, ayki-do va shu kabi sport turlariga saralab olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday bolalar janngovor sport turlarida o'zlarining qobiliyatlarini yanada yaqqolroq namoyish etadilar. Jangovor sport turlari sportchidan harakatchanlikni, serg'ayratlilikni, botirlikni va raqibidan kuchliroq bo'lishlikni talab etadi. Xolerik bolalardagi chaqqonlik,

harakatchanlik, qo'rqmaslik, serg'ayratlilik va har doim urinuvchanlik bunday sport turlarida juda qo'l keladi. Xolerik bolalarni yana sport o'yinlari turlarida hujumchi sifatida ham saralab olinsa yaxshi natijalar ko'rsatadilar. [3,5]

Sangvinik temperament– hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog'i mumkin. Sangviniklardagi psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o'tadi. Bu hil temperamentli bolalar ildam, chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'ladilar. Sangvinik temperamentli bolalar tevarakatrofdagi voqealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qilmaydi. Ular ko'p ishga tez va g'ayrat bilan kirishadigan bo'ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur'atda bajarishga moyil bo'lmaydilar. Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo'ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha, bir qancha vazifalarni birdaniga bo'yinlariga oladilar. Lekin, har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishdan tez qaytishlari ham mumkin. Sangviniklar chin ko'ngildan va'dalar berishlari, lekin, ko'pincha, va'dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu hil temperamentli bolalar o'yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, lekin o'yin davomida, o'z rollarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladilar. Ularning darrov xafa bo'lishlari va yig'lashlari mumkin, lekin ular hafalikni tez unutadigan bo'ladilar. Ularning yig'isi kulgi bilan tez almashadi. Shunday xususiyatlarini hisobga olgan holda, bunday bolalarni sport turlariga saralab olishda asosan sport o'yinlari turlariga, ya'ni futbol, mini futbol, basketbol, stritbol, voleybol, qo'l to'pi(gandbol), regbi, chim ustida hakkey kabi jamoaviy sport turlariga qabul qilinsa yaxshi natijalarga erishiladi. Sababi sangvinik bolalarda ijtimoiylashuv judayam kuchli bo'ladi. Shuning uchun bu bolalarda jamoa bilan ishlash, jamoadagi sportchi tengdoshlarini tushunish, ular bilan kelishish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu esa jamoaviy sport turlarida juda katta ahamiyatga ega.

Melanxolik temperament – hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishni oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bunday temperamentli bolalar mo'minqobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, biron savol bilan murojaat qilsa, uyalib, tortinib javob beradilar. Ularni darrov xafa yoki xursand qilish yengil emas, lekin bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik uzoq davom etadi, barqaror bo'ladi. Ular bir ishga yoki o'yinga tez yopishib kirishmaydilar, lekin qandaydir ish yoki bir o'yin boshlasalar, bunda chidam va matonat ko'rsatadilar. Melonxolik bolalarda chidamlilik qobiliyati tabiatan yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ham bu temperamentga ega bolalarni chidamlilik sifati ko'proq talab etiladigan sport turlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, akrobatika, yengil atletika bo'limlaridan o'rta masofaga yugurish, uzoq masofaga yugurish, marafon yugurish, og'ir atletika kabi sport turlariga saralab olishimiz mumkin. Melonxolik bolalar yuqoridagi sport turlarida ancha yaxshi natijalar ko'rsatadilar. Ulardagi sabrmatonat, kirishilgan ishga nisbatan ma'suliyat yuqorida sanab o'tilgan sport turlarida yaxshi natijalarga ega bo'lishlikni kafolatlaydi. [2,6]

Flegmatik temperament – hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi

kuchsiz bo'ladi. Bu hil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin. Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo'ladi. Bu hil temperamentli odamlar nihoyat og'ir, yuvosh, bosiq, harakatlari salmoqli bo'ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat'iyat bilan davom ettiradilar. Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo'min qobil bo'ladi. Ular ko'pchilikka ham aralashadigan, tortinchoq va hech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo'ladilar. Agar birov ular bilan urish chiqarmoqchi bo'lsa, o'zlarini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o'yinlarga moyil bo'lmaydilar. Bu hil temperamentli bolalar jizzaki bo'lmaydilar va odatda ular o'yin-kulgilarga moyil emaslar. Flegmatik temperamentli bolalar tashabbus ko'rsatishga moyil bo'lmaydilar, lekin ular faoliyatini yo'lga qo'yilsa, ancha qunt bilan ish ko'radilar, yaxshi o'qib ketishlari mumkin. Bu temperament xususiyatlariga ega bolalarni asosan raqib bilan konfliktga kirishmaydigan sport turlariga jalb qilish mumkin. Bunday sport turiga quyidagilar kiradi: suzish, yengil atletika bo'limlaridan sakrashlar, uloqtirishlar, intellektual sport turlaridan: shaxmat, shashka va boshqalar. Bu sport turlarida raqib bilan yuzma-yuz konfliktga kirishilmaydi, bu esa flegmatik bolalarning janjallar va tortishuvlardan o'zlarini olib qochish xususiyatiga juda mos keladi.

### **Xulosa**

Har qaysi bola temperamentini batamom bir tip doirasigagina «sig'dirib» bo'lmaydi albatta. Tip tushunchasining o'zi faqat bir-birlariga o'xshash bir guruh bolalarnigina o'z ichiga olishligini nazarda tutadi. Har qaysi bola temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu shaxsning o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik bolalarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishini ko'ramiz; xolerik temperamentli bolada melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli bolada xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkin va hokazo. Sport turlariga saralab olishda albatta bu xususiyatlariga ham alohida e'tibor berish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, O'z. Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006-160 b.
2. Masharipov Y. Sport psixologiyasi, O'z. faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2010 - 144 b.
3. Solodkov, A. S. Физиология человека: общая, спортивная, возрастная / A. S. Solodkov, Ye. B. Sologub. – 7-е изд. – Москва : Спорт, 2017. – 621 с.
4. Salomov R. S. – p.f.d., professor O'zDJTI nashriyot-matbaa uyi, 2005 y.



## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI**

Isoqov Jamshid Zikirullayevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrası dotsenti

[jamshid0504@gmail.com](mailto:jamshid0504@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sinergetik yondashuv, pedagogik sinergetika o'zini o'zi aniqlash va shaxsni rivojlantirish, o'quvchilar kasbiy faoliyatini rivojlantirish, o'z -o'zini anglash, shaxs "Men" ini shakllantirish, muammoli vaziyatlar, pedagogik nazariyani rivojlantirish bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** sinergetik yondashuv, shaxs, o'quvchilar kasbiy faoliyati.*

## **УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ УЧЕНИКОВ КАК ЛИЧНОСТЕЙ**

Исоқов Жамшид Зиқируллаевич

доцент кафедры массового образования в социально-гуманитарных предметах, Джизакский государственный педагогический университет [jamshid0504@gmail.com](mailto:jamshid0504@gmail.com)

***Аннотация.** В данной статье описаны синергетический подход, педагогическая синергетика, самоопределение и развитие личности, развитие творческой активности студентов, самосознание, формирование индивидуального «Я», проблемные ситуации, развитие педагогической теории.*

***Ключевые слова:** синергетический подход, личность, профессиональная активность студентов.*

## **CONDITIONS FOR SHAPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS INDIVIDUALS**

Isoqov Jamshid Zikirullayevich

Associate Professor of the Department of Mass Education in Social and Humanities at Jizzax State Pedagogical University

[jamshid0504@gmail.com](mailto:jamshid0504@gmail.com)

***Abstract.** This article describes the synergetic approach, pedagogical synergetics, selfdetermination and personality development, development of students' creative activity, selfawareness, formation of the individual "I", problem situations, development of pedagogical theory.*

***Keywords:** synergetic approach, personality, students' professional activity.*

### **Kirish**

Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish va takomillashtirish, o'zo'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlantirish yoki rag'batlantirishdan iborat. Shunday qilib, "pedagogik sinergetika" pedagogik bilimlarning yangi yo'nalishi paydo bo'ldiki, bu ta'lim tizimlarini o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish qonuniyatlari asoslanadi. Pedagogik sinergetika o'zini o'zi aniqlash va shaxsni rivojlantirish muammolarini rivojlanishiga ochiqlik,

birgalikdagi ijod va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yangicha yondashishga imkon beradi. G.M. Kojaspirova "sinergetika" tushunchasi "ta'lim" tushunchasiga juda yaqin (yunon tilidan tarjima qilinganda "birgalikdagi harakat", "hamkorlik" degan ma'noni anglatadi). Dunyoni sinergetik anglash insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: sinergetik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi [2,6]. Sinergetika ota-onalarni virtual-pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida inson hayotining eng murakkab ichki qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltiradi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

E.K.Nikitinaning ta'kidlashicha, sinergetika 543 old aba 543 nazariyani rivojlantirishda yo'qolgan aloqalarni amaliy haqiqat bilan tiklashga, dialog tizimining rivojlanishi, ochiqlik, ta'lim tizimining turli tarkibiy qismlari va uning sub'ektlari o'rtasida "kommunikativ ko'priq" yaratishga imkon beradi [3,2]. Ota-onalarni virtual-pedagogik madaniyatini yuksaltirishda sinergetik yondashuv ularning ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Kovalevichning ta'kidlashicha, sinergetika quyidagi 543 old aba 543 tamoyillarga to'la nazar tashlab, shaxsning o'zini o'zi belgilash va faoliyat sub'ekti sifatida rivojlanish jarayonining ahamiyatini metodologik jihatdan oshirishga imkon beradi [4,5].

Kovalevichning ta'kidlashicha, sinergetika yangi pedagogikaning "sherigi" (neopedagogika) va lotin tilidan birgalikda energiya va birgalikda hamkor deb tarjima qilingan. Binobarin, sinergetika ham, yangi pedagogika ham ochiq muloqotlar, to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa, qat'iy ta'lim sarguzashtlari, o'yinlar doirasida ishlaydi. Sinergetik ta'lim, yangi pedagogika singari, o'z-o'zini tarbiyalash, insonni o'z imkoniyatlarini rag'batlantiradigan o'z taqdirini belgilashdir. Bizning fikrimizcha, sinergetik yondashuv jarayonning har bir sub'ektini (otaona, talaba, o'qituvchi) rivojlanishdan o'z-o'zini rivojlantirishga o'tishni amalga oshiradigan o'zini o'zi rivojlanayotgan kichik tizimlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Shuning uchun ota-onalarning madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri, davlat ijtimoiy siyosatining bir qismi bo'lishi kerak. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga kasbiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini sharqona ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu davr obrazli tafakkur qilish asosida 543 old aba 543 ual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi. Bu o'quv-biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi degan xulosaga kelish uchun asos bo'la olmaydi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun etakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Bu davrda rivojlanish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining identifikatsiyasi, ya'ni aynan o'xshatilishi, tenglashtirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslikning o'zigina o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri – boshlang'ich sinf o'quvchilarida muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining rivojlanishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishlaridir.

Pedagogik hamkorlik, ya'ni sinergetika yangi tushuncha sifatida pedagogikaga kirib kelar ekan, u bevosita falsafa va sotsiologiya bilan bog'lanadi. Chunki, insonning hamkorlikdagi faoliyati muayyan jamiyat hayoti bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Bu shuni anglatadiki, jamiyat hayotida inson uchun hamkorlikda faoliyat ko'rsatish quvvati bilan bir qatorda, hamjihatlikda rivojlanish imkoniyati ham mavjud. Pedagogik hamkorlik doirasida o'z qiyofasini o'zgartirish tushunchasi ham amal qiladi. Agar yangicha ijtimoiy davr shaxsning o'z-o'zini saqlashi, yangi sharoitga moslashishi g'oyasiga asoslansa, zamonaviy inson o'zining yangicha mohiyati va mavqeiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni ongli ravishda sodir bo'lishi juda muhimdir. Bundan tashqari, bolaning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun sabablar bo'lishi muhimdir. Motivning paydo bo'lishi sifatga munosabatni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy hissiyotlarni shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida qaraladi. Bolaning asosiy talablari shunda o'z ifodasini topadi. Eng avvalo mustaqillikka intilish, kattalar hayotida faol ishtirok etish mazkur yoshdagi bolalarga xosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishiga ko'ra u tomonidan anglanayogan dunyo kengayib boradi, kattalar faoliyatida ishtirok etishning ichki talablari paydo bo'la boshlaydi. O'yinda bola kattalarga taqlid qilishga intilgan 544old aba'zi rollarni o'ziga ola boshlaydi. Bola o'ynab turib mustaqil harakatlanadi, o'z xohishlarini, tasavvurlarini, tuyg'ularini erkin ifodalaydi. O'yin natijasida boshqa faoliyat turlari ham paydo bo'ladi va tabaqalashuv amalga oshadi. O'yin davomida bola boshqa faoliyatlarga tegishli bo'lgan komponentlarni ham o'zlashtira boradi. Masalan, maqsad qo'yishni, rejalashtirishni, natijaga erishishni o'rganadi. Mehnat faoliyati davomida bolalar mehnat ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Lekin, bular kasbiy ko'nikmalar emas, balki bolaga kattalardan mustaqil bo'lishga ko'mak beradigan ko'nikmalardir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining mehnati majburiy tavsifli bo'lmasdan, holatli ko'rinishga ega bo'ladi, ammo mehnatda shaxsning juda ko'p hayotiy muhim sifatleri rivojlanishi ma'lum. Mehnatda maqsad qo'yish qobiliyatini rivojlantirish uchun maqsadni anglash, natijani ko'ra bilish, harakatlanish usullari va ko'nikmalariga ega bo'lish juda ham muhimdir. O'quvchi mehnatining o'ziga xosligi shundaki, unda faoliyatning barcha tarkibiy komponentlarini bo'lishiga qaramasdan, ular hali rivojlanish bosqichida bo'lib, albatta kattalarning ishtiroki va yordamini nazarda tutadi.

### **Natijalar**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirishda maktab va ota-ona hamkorligining eng yaxshi pozitsiyasi – uch asosiy shartga javob berishi kerak: adekvatlik, qayishqoqlik va bashorat qilishlik. Katta yoshli kishi pozitsiyasining adekvatligi o'z farzandi yoki tarbiyaluvchisining fazilatlarini real aniqlikda baholash, uning individualligini ko'ra olish, tushunish va hurmat qila bilishga asoslanadi. O'qituvchi yoki ota-ona holatining ko'nishga moyilligi (qayishqoqlik) muloqot tarzi, kichik maktab yoshidagi o'quvchining ulg'ayishiga qarab hamda oila turmushi sharoitlari turli o'zgarishlariga bog'liq ravishda unga ta'sir etish usullarini o'zgartirishga tayyorlik va qodirlik sifatida ko'rib chiqiladi. Pozitsiyaning bashorat qilishligi o'quvchi shaxsining "yaqin rivojlanish zonasi"ga va ertangi kun vazifalariga mo'ljal olishida ifodalanadi. Bu katta yoshli kishining ortda qoldiruvchi tashabbusi bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchining kamoloti, istiqbollarni hisobga olgan holda unga umumiy yondashuvni o'zgartirishga qaratilgan.



## Muhokama

Tarbiyaning mazmun modellarini hisobga olgan holda sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirishda o'qituvchi va ota-onalar oldida jiddiy vazifa turadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirish bo'yicha yangi tarbiyaviy strategiyani qo'llash asosida ko'p qirrali ish olib borish talab qilinadi. Psixolog olim V.A. Krutetskiy bu haqda haqqoniy fikr bildirgan : "Qobiliyat faqat mehnatda namoyon bo'libgina qolmaydi, balki mehnatda shakllanadi, kamol topadi, barq urib yashnaydi ham. Aksincha harakatsizlik halokatga mahkum etadi,"[5]. A.V. Petrovskiy fikri bilan aytiganda "Qobiliyat faqat o'sishdagina mavjud bo'ladi. Ta'lim-tarbiyada bolalarning har tomonlama kamolga etkazish asosiy maqsad qilib qo'yilgani ham tarbiyaning ana shu qonuniyatlariga asoslanadi. Har tomonlama ta'lim-tarbiya berish bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat berilishi maqsadga muvofiq. Har bir bolaning qobiliyatini namoyon etuvchi faoliyatga yo'llashning eng maqbul yo'li ularda ijodkorlikni rivojlantirishdir. O'quvchi ijtimoiy ahamiyatga mahsulot yarata olmaydi va bu maktabning vazifasiga kirmaydi ham. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilimlari, mahoratini o'z saviyasi darajasida qo'llaydilar. Aqliy faollik, o'tkir zehn, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati u yaratayotgan o'quv jarayonida masalalar echish, muammolarni hal etishda, insholar yozishda rivojlana boradi. O'quvchi bu borada maktabgacha ta'limda va undan keyin shu vaqtgacha olgan bilimlarini tadbiiq etadi. Bunda o'quvchi yangi usullarni qo'llaydi. Topshiriqni bajarish uchun faollik ko'rsatish, zehniligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, zarur bilimga ega bo'lish uchun harakat qilishi, muammolarni echishda harakatchanligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqea- hodisalar ichida eng muhimini tanlay bilishi, umumiyisini ko'ra bilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat ijodiy faoliyat samarali faoliyatdir.

Sharq mutafakkirlari: Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish va boshqalar asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, iste'dodini takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan[4]. Masalan, Az-Zamaxshariy insonning faolligini oshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligini uqtirgan: birinchisi- fahm -farosat tezligini tarbiyalash; inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya'ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati. ikkinchisi - bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallashda butun diqqatini o'rganilayotgan muammoga qaratish va uni o'zlashtirib olishga erishish. uchinchisi- qo'yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish. to'rtinchisi- o'rgangan bilimlarini esda saqlash qobiliyati va boshqalar [4]. Abu Rayhon Beruniyning "aql asosida erishiladigan natijalar" haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha buyumlarni chinakam bilish, tashqi ko'rinishini tahlil qilish sababalarini aniqlash asosida idrok etishga erishiladi[4],- deydi. Abu Ali ibn Sino "aql" deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni – "insoning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlaydigan kuch"[4],- deb ta'riflaydi.

Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni aniqlaydi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi,- deb o'qtiradi. Demak, ulug' mutafakkirlarimiz ham shaxs rivojlanishida faoliyat va ayniqsa ijodiy faoliyatning ahamiyatiga alohida e'tibor berishganlar. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ularga o'ziga xos yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir bola o'ziga xos, betakroridir. Shaxsning o'ziga xosligi uning turli xil intdividual va ijtimoiy rivojlanish omillari ta'sirida shakllanadigan psixikasining xususiyatlari bilan belgilanadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'z -o'zini anglash, yoki shaxs "Men" ini shakllantirish ham o'ta muhimdir. Bu o'quvchida o'z xulqini tarkib toptiradigan, o'z-o'zini anglagan va anglamagan tasavvurlari tizimi sanaladi.

O'quvchini o'z "Men"ini anglashi ta'lim natijasi, o'z-o'zini anglashning yakuniy darajasi. Olima Sh.Abdullaeva ta'kidlaganidek, o'quvchi "Men"i bilan bog'liq barcha xolatlar shuni ko'rsatadiki, o'rganish bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar ijodiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar sabablarini tushunishi uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchi "Men"i yoki boshqacha aytganda o'z-o'zini anglashning mazmuni, psixologlar ta'kidlaganidek, ta'lim va tarbiyaning eng muhim natijalaridan biridir. Bu esa bolaning ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etadi [6]. Shuningdek, pedagogik o'yinlar ayniqsa, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Aynan shunday o'yinlar vositasida kattalar va kichiklar o'rtasida muloqot o'rnatiladi. Bu muloqotlar shaxsiy yonloshuv asosida qurilishi kerak. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O'yinlarda bolaning shaxsiy sifatleri boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning hulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi.

### **Xulosa**

Demak, ta'lim-tarbiyaga sinergetik yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda sinergetik yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo'naltiradi. Masalan, integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yishda sof ilmiy bilimlar, adabiyot, musiqa, san'at yordamida har tomonlama mukammal ko'rsatib berish imkoni tug'iladi. Bu esa bola shaxsining emotsional va axloqiy rivojiga, unda ijodiy tafakkurning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш. // Халқ таълими, 2004, № 3.-34-34 бетлар.
2. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ривожлантириш. //Педагогика назарияси ва тарихининг айрим долзарб муаммолари. / Илмий ишлар тўплами.-Тошкент: Фан, 2006.-Б.142-144.
3. Нишонова С. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиетида баркамол инсон тарбияси.- Пед. фан. докт... ёзилган дисс.- Т. : 1998.- 288 б.
4. Назарова Х.П. Дидактические основы обеспечения коммуникативной грамотности учащихся начальных классов : - Автореф. дисс... канд. пед.наук. – Т.: 200. – 21 с.
5. Яминова С. Ўқувчиларда мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда сценарийли ўқитиш усулидан фойдаланиш: Пед.фан.ном. дисс.автореф.-Т.: 1997-168 б.

6. Oyturaxonovna, I. S. (2022). SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIDA MAS'ULIYATLI MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC METHODICAL JOURNAL, 3(10), 74-79.
7. Oyturaxonovna, I. S. (2023). SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 113-115.
8. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.
9. Ибрагимова, Ш. (2023). Синергетик yondashuv negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish asoslari. Общество и инновации, 4(2), 142-147.
10. Ibragimova, S. (2023). TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA SINERGETIK YONDASHUVNING BOLA SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(6), 9-11.
11. Ibragimova, S. (2023). SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(6), 5-8.

UDK 796.03.796.06

## **BOLALARDA EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Mavlyanov Baxrom Sangirovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi  
[baxrom195@gmail.com](mailto:baxrom195@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyati ustida ish olib borilgan olimlarning adabiyotlari o'rganilib, yangi metodika ishlab chiqildi va maktabgacha yoshdagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatleri rivojlantirishga erishildi.*

***Kalit so'zlar:** Jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, egiluvchanlik, chaqqonlik, qisqa masofa, harakatchanlik.*

## **РАЗВИТИЕ У ДЕТЕЙ ГИБКОСТИ И ВЫНОСЛИВОСТИ**

Мавлянов Бахром Сангирович

Университет города Джизака Преподаватель кафедры массового образования в социально-гуманитарных науках.  
[baxrom195@gmail.com](mailto:baxrom195@gmail.com)

***Аннотация:** В результате исследований, проводимых учеными в области методики по развитию творческих и аналитических качеств учеников начальных классов, была разработана новая методика, которая успешно способствует развитию способности к креативному мышлению и аналитическим навыкам у детей начальной школы.*



**Ключевые слова:** Физическое развитие, физическая подготовка, гибкость, выносливость, короткое расстояние, подвижность.

## DEVELOPING FLEXIBILITY AND RESILIENCE IN CHILDREN

Mavlyanov Bakhrom Sangirovich

Jizzax State Pedagogical University, Department of Mass Education in Social and Humanities,

Lecturer

[baxrom195@gmail.com](mailto:baxrom195@gmail.com)

**Abstract:** *The literature of scientists who worked on the method of developing the qualities of flexibility and dexterity in preschoolers was studied, a new method was developed, the qualities of flexibility and dexterity were developed in preschoolers.*

**Keywords:** *physical development, physical fitness, flexibility, agility, short distances, mobility.*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayev rahbarligida 2017- yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uch yirik hujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3261 sonli Qarori. 30-sentabrdagi " Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5198 sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi- faoliyatini tashkil etish to'g'risida "gi PQ- 3305 Qarori qabul qilindi. [1,5]

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni joriy qilinishdan maqsad, kelajak avlodni yetuk shaxs bo'lib yetishishi uchun unung sog'lom bo'lishiga zamin yaratishdir. Sog'lom avlod - sog'lom yurt demakdir, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasi esa birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasidadir. Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxassislarning tobora ko'proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmuali, insoniy ta'sir o'tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o'yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O'yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o'yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va o'tirib o'ynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o'z salbiy aksini topadi. [2,8]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq. Ilk

go'daklikning jiddiy xususiyati bolaning salomatligi, jismoniy rivojlanish holatining o'zaro aloqasi va bir-biriga bog'liqligidir. Shunga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog'lomlashtirish, bolaning harakat sohasini rivojlantirish, chaqqon, kuchli, jasur bo'lishdek hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish va asoslab berish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi, bizningcha, yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har tomonlama mutanosib, jumladan, jismoniy va shaxsiy rivojini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar birligini yaratishdadir desak mubalag'a bo'lmaydi. Bunda bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishning o'yin shakllari eng qimmatli sanaladi. Biroq harakatli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarini maqsadli rivojlantirish masalasi xususida ayrim ishlarda to'xtalib o'tilgan bo'lsa ham, batafsil so'z yuritilmagan. Shuning uchun bu mavzu yuzasidan ish olib borishdan maqsad jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o'yinlardan foydalanish asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Maqsadga erishish jarayonida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari tashkillashtirib tadqiqot olib borish yuqorida keltirilgan muommoni yechishiga zamin yaratadi. [2,5]

Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari mazmuni, shakli, vositalari hamda usuliyatini yangilash ishning predmeti hisobida amalga oshiriladi. Shu predmetni qo'lash jarayonida quyidagi farazni ilgari surish maqsadga muvofiqdir, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash haqidagi taxminlarga asoslanadi. Shuningdek, bolalar jismoniy tarbiyasidagi bu yo'nalishni amalga oshirish an'anaviy vositalar, xususan, harakatli o'yinlardan ham bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish maqsadida foydalanish ta'sirini jiddiy yaxshilashga yordam berishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning yosh xususiyatlari belgilab berildi, ularni maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida rivojlantirish nazariy hamda tajriba yo'li bilan asoslab beriladi, buning uchun quyidagilar aniqlandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlarni qo'llash asosida jismoniy sifatlarni jarayonlarni rivojlantirishning yosh xususiyatlari;
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatlari orasidagi o'zaro bog'liqligiga doir qonuniyatlar;
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va rivojiga ta'sir o'tkazish tamoyili bo'yicha vosita hamda uslublari.

Ishni amaliy va nazariy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotlar jarayonida qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida o'quv jarayonini takomillashtirish muammolariga ta'lluqli jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyatining qonuniyatlarini oydinlashtiradi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqiladi va nazariy jihatdan asoslandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash xususiyatlari asosan bolaga tug'ilganidayoq, uning qoniga alohida rivojlanishning irsiy dasturlari tomonidan joylashtirilgan jismoniy imkoniyatlarning tegishli yig'indisi ato etilgan bo'ladi. Organlar, organizm tuzilmalarining biologik yetilishi davomida shaxsiy imkoniyatlar rivojlanib, insonning har-xil

jismoniy xususiyatlarini belgilaydi. E.A Pimonova, L.V Karmanova va boshqalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 20 yil mobaynida bolalarning jismoniy rivojlanishida qayd etilgan umumiy ijobiy yo'nalishlari (gavdaning barcha o'lchamlari kattalashuvi) ularning harakat tayyorgarligida sezilsiz o'sish kuzatiladi, bir qator ko'rsatkichlar esa (tezkorlik, tezlik-kuch imkoniyatlari) ancha pasayadi. Shunga qaramay, mutaxassislar jismoniy sifatlarni tarbiyalash aynan maktabgacha davrda boshlanishi kerak, deb hisoblaydilar. [3,10]

Bolalar va o'smirlar harakat faolligi sifat jihatlarini rivojlantirishning fiziologik omillari mushaklar hamda vegetativ organlar faoliyatining boshqarilishini takomillashtirishda namoyon bo'ladi. Qisqa muddatli, tezkorlik va kuch harakatlarida asab-mushak tizimi faoliyati boshqaruvini yaxshilashga ko'proq ahamiyat beriladi. Birmuncha uzoq muddatli faoliyatda harakat funktsiyalarini takomillashtirish bilan birga vegetativ funktsiyalarni muvofiqlashtirish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Biroq bolalar va o'smirlar organizmining kuch, tezlik va chidamlilik ko'rsatkichlari yaxshilanishini belgilaydigan funktsiyalarining fiziologik boshqarilishini yaxshilashda eng muhim o'rinni asab tizimi, ayniqsa, mushak zo'riqishlarida organizmning funktsiyalari yaxshilanishini ta'minlovchi aloqalarning shakllanishi egallaydi. Shunday qilib, bolalik davrida kuch, tezlik va chidamlilikning o'zaro bog'liqligiga oid turli-tuman shakllarni belgilovchi fiziologik mexanizmlar ham xilma-xildir. Shartli-reflektor omillar muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida biror yo'nalishdagi kuch, tezlik yoki chidamlilikni rivojlantiruvchi harakatlar uchun markaziy asab tizimida mushaklar hamda vegetativ organlar ishini dasturlashtirishning ma'lum shakllari yuzaga keladi. Harakatli o'yinlar harakat qobiliyatlari kompleks rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maksimal darajada ta'minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirish va almashtirishga yo'naltirilgan. Ma'lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o'z ifodasini topadi. Harakat malakalari qanchalik xilma-xil bo'lsa, yangi harakatlarni o'zlashtirish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'lishi tabiiy. Harakatli o'yinlar murakkab tizimlar bo'lgan tana va uning qismlari holatlari, harakatlar va harakat faoliyatlarining tez-tez almashinib turishi bilan tavsiflanadi.

### **Muhokama va natijalar**

Pedagogika amaliyotida predmetlar bilan sujetli, harakatli va didaktik o'yinlar farqlanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega, harakatli o'yinlar kichik, o'rta va katta harakatchanlik darajasiga ega bo'lishi mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tabiiy harakatlarni o'yinlar yordamida o'zlashtiradilar (qadamlab yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish). Harakatli o'yinlar bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri. Ularni ikki yoshdan boshlab qo'llash mumkin. Bu davrda bolalar yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi hayot uchun zarur harakat ko'nikmalarini o'zlashtira boshlaydilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo'llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlarda bobida musobaqalashar ekanlar, o'z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo'ladilar. Jismoniy rivojlanishdan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, jur'at kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar o'zlarining harakatiga bo'lgan ulkan ehtiyojlarini, odatda, o'yinlar vositasida qondirishga urinadilar. Ular uchun o'yin – birinchi navbatda, faoliyat, harakat. Harakatli o'yinlar chog'ida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va

mustaqillik, ishonch va qat'iyat kabi sifatlari rivojlanadi. Ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, hatto ayrim qoidalarga rioya qilishni (dastlab, albatta, sodda shaklda) o'rganadilar. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar, odatda, juda ta'sirchan, emotsional, holatlari noturg'un, ular serharakat bo'ladilar, lekin bir turli harakatlardan tez charchaydilar, tanaffussiz uzoq vaqt yura (yugura) olmaydilar. Shuning uchun o'ta faol bolalarni nazorat qilib turish: qo'llarida osilishga, katta balandlikdan sakrashga ruxsat bermaslik, ularning e'tiborlarini birmuncha sust sur'atli o'yinlarga tortish kerak. Asta-sekin o'yinlarning mazmuni ham o'zgarib boradi. Bolalar dastlab kattalarning ko'rsatmalari bilan harakatlarni bajaradilar: masalan, tovuq yoki qushchani tasvirlaydilar – “don cho'qiydilar”, “uchadilar”. Uch yoshda bolalar kattalarning harakatlariga taqlid qilishdan turli “tasviriy” yoki rollar bo'yicha bo'ladigan o'yinlarga o'tadilar. Ular rolli yoki obrazli o'yinlarni o'ynaydilar, shifokor, sotuvchi, haydovchi, oshpaz va boshqalarni tasvirlaydilar. Bolalar o'zlariga tanish harakatlarnigina emas, ko'rganlarini faol ravishda takrorlaydilar. O'yin uzoqroq davom etadi, uning sujeti xilma-xil va tushunarliroq bo'lib boradi. Keyinroq o'yin yanada murakkablashadi. Unda uchta rol paydo bo'ladi, masalan, bir bola qo'yni, ikkinchisi – bo'rini, uchinchisi – cho'ponni tasvirlaydi .

Har xil o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mustaqil harakatli o'yinlar juda foydali. Bolalarni ikkita, uchtdan guruhlash mumkin. Bolaning harakatlari odatda o'yinchoq turlari bilan belgilanadi, masalan, bayroqchalar, halqalar bilan yugurish, mashinalarni yurgizish, koptoklarni dumalatish, otish, ilib olish kerak. Bolalar bunday o'yinchoqlar bilan qiziqib shug'ullanadilar. Biror mustaqil o'yinlarda bolalar darhol faollik va tashabbuskorlikni namoyon eta olmaydilar, ularning harakatlari bir xil va cheklangan. Lekin kattalarning topshirig'ini bajarish bilan bog'liq o'yinlarda bolalarning harakatlari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, ular harakatlarni bir necha bor takrorlab, harakat ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, chaqqonlik, epchillikni rivojlantiradilar. Bolalar hatto o'zlari o'yin bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlarida ham ularga rahbarlik qilib turish juda muhim. Ulardan ayrimlarining o'yinini murakkablashtirish, boshqalariga boshlagan ishini oxiriga etkazishini o'rgatish, uchinchisi agar jimgina o'ynayotgan bo'lsa, gaplashib turish maqsadga muvofiq. Ko'pincha mustaqil o'yinlarda bolalar noto'g'ri va hatto xavfli harakatlarni ham bajaradilar. Stul yoki xoda ustidan butun oyoq kaftiga tayangan holda deyarli to'g'ri oyoq bilan sakrab tushadilar; yerdan butun oyoq kafti bilan itarilib yuguradilar. Bunday hollarda har xil yo'llardan foydalaniladi. Katta odam o'zi o'yinga kirishadi, bolalarga ular taqlid qila oladigan biror tanish va yaqin obrazni eslatadi (mushuk qanday yumshoq sakrashini, qushchalar qanday shovqinsiz uchishlarini). Bolalarga o'rgatilishi kerak bo'lgan dastlabki o'yinlar muayyan sujet va qoidalarga ega bo'lmaydi. Bola oddiy, qiziqarli topshiriqlarni bajaradi, kelib o'yinchoqni qo'lga oladi, kattalar oldiga yugurib borib, ular qo'lida nima yashirilganligini ko'radi. “Bayroqchani ol”, “Mening yonimga yugur”, “Bayroqchani top” o'yinlari bunga misol bo'la oladi. O'yinlarni o'rgatishda muayyan izchillikka rioya qilish kerak. Masalan, “Meni tutib ol” o'yini “Seni tutib olaman” o'yiniga qaraganda soddarok. Birinchi holatda bola o'zidan katta kishini tutib olishi lozim, ikkinchi o'yinda tutilish xavfi yuzaga keladi, shuning uchun bola ko'proq jismoniy kuch sarflashiga to'g'ri keladi. O'yinlar tobora mazmunan xilma-xil bo'lib borishi, yanada murakkabroq topshiriqlarni o'z ichiga olishi zarur. Agar bola dastlab o'yinchoqni olish uchun o'zi istagan sur'atda yugurgan bo'lsa, o'yin yaxshi o'zlashtirilib olinganidan so'ng yugurish sur'atini kattalar belgilashi kerak.

### Xulosa

Shunday qilib, yakuniy soʻzimizda biz pedagogik tajriba vaqtida olgan natijalarimizning bir maʼnoli emasligini qatʼiy ayta olamiz. 4- yoshli bolalarda u yoki bu mushak guruhi ontogenezing u yoki bu bosqichida kuchliroq takomillashayotgan vaqtda – kuch rivojlanishining geteroxron jihati tabiiy sanaladi va shuning uchun biz qoʻlga kiritgan u qadar adekvat boʻlmagan koʻrsatkichlarimizni umuman notoʻgʻri rejalashtirilgan tajriba natijasi deya olmaymiz. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bogʻliq xususiyatlari oʻtkazilgan tajribalar orqali aniqlandi va nazariy jihatdan asoslab berildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida harakatli oʻyinlarni qoʻllash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga oʻtish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Jismoniy tahbiya va sport toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) “Xalq soʻzi” gazetasi 2015 yil 5 sentyabr №174 (6357) – soni.
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati” T. OʻzDJTI nashriyot. 2005 y. 177 b.
3. Дьяченко В.К. “Диалоги об образовательных технологиях”. М. Школьные технологии, 2000. - № 3. - С. 34.
4. Железняк Ю.Д., Петров П.К. “Основы научно методической деятельности в физической культуре и спорте”. Учеб. пособие для студ. ВУЗов. М. Академия, 2002 г. -288 с.
5. Masharipova M.I. “Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning harakat potentsiyalini rivojlantirish texnologiyasi” Monografiya. Tashkent 2018 y. 120 b.
6. Salomov R.S., Sharipov A.K. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Darslik II-jild. T. “JTA PRESS”. 2015 y. 300 b.
8. <http://www.satat.uz>
9. [http:// www.ta'lim.uz](http://www.ta'lim.uz)
10. [http:// www.search.re.uz](http://www.search.re.uz) - Oʻzbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
11. <http://www.pedagog.uz>
12. <http://www.ref.uz>. - Referatlar toʻplami
13. <http://www.ziyonet.uz>.
14. <http://www.Google.uz> 8.<http://www.olympic.uz> 9.<http://www.study.uz>





## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI.

Eryigitov Dilshod Xolboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrasida dotsenti

[dilshod1987@gmail.com](mailto:dilshod1987@gmail.com)

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport soxasi bo'yicha kadrlarni tayyorlash, professional kasbiy jixatlari samaradorligi, kasbiy tayyorgarligi tizimini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holati taxlillaridan olingan natijalari bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* sport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalar, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, fan, kasbiy tayyorgarlik.

## НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Ерйигитов Дилшод Холбойевич

доцент кафедры массового образования в социально-гуманитарных предметах, Джизакский государственный педагогический университет

[dilshod1987@gmail.com](mailto:dilshod1987@gmail.com)

*Аннотатсия.* В данной статье описаны результаты анализа ситуации использования информационно-коммуникатсионных технологий при подготовке кадров в области физического воспитания и спорта в высших учебных заведениях, эффективности профессиональных аспектов, а также совершенствования системы профессиональная подготовка.

*Ключевые слова:* спорт, информационно-коммуникатсионные технологии, студенты, физическая культура, учителя физкультуры, наука, профессиональная подготовка.

## THE NECESSITY OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PREPARING FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Eryigitov Dilshod Kholboyevich

Associate Professor of the Department of Mass Education in Social and Humanities at Jizzax State Pedagogical University

[dilshod1987@gmail.com](mailto:dilshod1987@gmail.com)

*Abstract:* This article describes the results of the analysis of the situation of the use of information and communication technologies in the training of personnel in the field of physical education and sports in higher educational institutions, the effectiveness of professional aspects, and the improvement of the system of professional training.

*Key words:* sports, information and communication technologies, students, physical culture, physical education teachers, science, professional training.

## **Kirish**

Mamlakatimizda har tomonlama rivojlantirish harakatlar strategiya-sida barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya hamda sport bo'yicha etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi ham ko'zda tutilgan. Bu esa yosh avlodni xar tamonlama xayot, turmush, kasb-xunarga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligidan bildiradi. Bu masala va muammolar bo'yicha, birinchi o'rinda, kadrlarning kasbiy tayyorgarligi ularning jamiyatda sodir bo'layotgan ahamiyatga doir o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga bog'liqdir.

Yurtimizda talim tizimini tubdan islox qilish hamda zamonaviy etuk kadrlar tayyorlashga qaratilgan islohatlar tashkiliy-boshqaruv texnologiya-lariga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. [1,5]

Yurtimizda va jaxonda turli fanlarni o'qitishga mo'ljallangan pedagogik dasturiy vositalar, xususan, elektron darsliklar, elektron qo'llanmalar, avtomatlashtirilgan o'qitish dasturlari, trenajerlar, elektron axborot ta'lim resurslar yaratilgan va ular bugungi kunda ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. E'tirof etmoq lozimki, jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash, ulardan samarali foydalanishda mutaxassis olimlarining ilmiy tadqiqotlari, elektron kitoblari, o'quv qo'llanmalaridan yurtimizda namuna va manba sifatida maqsadli xamda samarali foydalanishmoqda. [2,10]

Bugungi kunda deyarli barcha sohalarda kishilik jamiyatida o'zaro axborot almashishning qulay vositasi sifatida axborot-kommunikatsion texnologiya-lari keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizning ta'lim sohalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari uchun elektron dasturlarning yaratish jarayoni sust ketmoqda. Shuningdek:

- fandan elektron dasturlar va elektron darslik (ma'ruza, amaliy, tajriba va boshqa mashg'ulotlarning elektron versiyalarini yaratish; grafik, chizmalar, animatsiyalar va videomateriallar tayyorlash; videoroliklar) yaratish jarayonlari juda ko'p vaqt talab qilishi;

- pedagoglarda AKTlarda yuqori darajada dasturlash malakasining etarli emasligi sababli maxsus elektron dasturlar va elektron darsliklarni yaratishda ular tizimli dasturchilar bilan hamkorlikda ishlashga majburligi;

- elektron dasturlarni tayyorlash uchun dasturiy va texnik ta'minot etarli darajada emasligi ko'rinib turibdi. [4,5]

## **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Shunday, bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga va ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablarini amalga oshirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, jumladan, maxsus elektron dasturlar yaratish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalari, yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash, ixtisoslik fanlaridan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy bilim ko'nikmalarini oshirish uchun o'quv-uslubiy ta'minotlarni yaratish kabi ishlarining etarli darajada olib borilmayotganligi ishimizning dolzarbligini belgilaydi. [4.10]

## **Muhokama**

Mamlakatimizda oliy o'quv yurtlarining sirtqi ta'lim jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining bugungi kunda ta'lim olish jarayonlarida eng ko'p va qulay bo'lgan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari va dasturiy vositalar jumladan elektron dasturlardan foydalanishlarini o'rganib tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Shu asosda:



1. Sirtqi ta'lim jismoniy madaniyat yo'nalishida kadrlar tayyorlashda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish darajalarini o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga munosabatlarini o'rganish ilmiy pedagogik jihatdan tahlil qilish;

2. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy fanlardan ma'lumotlarni olish va mutaxassisligi bo'yicha fanlarni o'qishda bugungi kun talablaridan kelib chiqib qaysi vosita yoki metod qulayligi to'g'risida ularning fikrlarini anketa so'rovnomasi orqali o'rganish, kabi vazifalar qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 25.08.2018 yil 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5112000-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" ning ikkinchi bob ikkinchi bo'limida ushbu yo'nalish bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yidagi bo'limlar bo'yicha malaka talablari qo'yilgan.


- pedagogik faoliyat
- ilmiy-tadqiqot faoliyat
- ma'naviy – ma'rifiy faoliyat
- tashkiliy – boshqaruv faoliyat

Ushbu bo'limlarning deyarli barchasida raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, globallashuv sharoitda kechayotgan jarayonlarda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini oqilona tanlay olish, ijodiy yondoshuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobilyatlariga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan. Shularga asoslangan xolda biz Jizzax davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti hamda Qarshi davlat universiteti jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishining yuqori kurslarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislardan bugungi kunda kasbiy bilimlarni egallashda qanday vositalar va usullar qulayligini anketa savolnomasi orqali o'rgandik.

O'rganishlarimiz jaryonida shular aniq bo'ldiki, Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabalarining 24,7%, Chirchiq Davlat pedagogika universitetining talabalarining 27,2%, Qarshi davlat universiteti talabalarining 29,5% o'z sohalari bo'yicha ma'lumotlar olishda va fanlardan bilimlarini oshirishda axborot-resurs markazidan foydalanar ekanlar.

(1-rasmga qarang).

%



**1-rasm. Jismoniy madaniyat va sportga doir ma'lumotlar olish va mutaxassislik buyicha fanlarni o'zlashtirish uchun bo'lajak mutaxassislar tomonidan foydalaniladigan vositalar (%)**


**Izoh:** JDPU – Jizzax davlat pedagogika universiteti, QDU – Qarshi davlat universiteti, ChDPU – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ARM-axborot-resurs markazi, AKT va Mob.tel.- mobil telefon.

Respondentlar orasida JDPU ning 20,8%, QDU ning 27,2%, ChDPU ning 17,9% talabalari shaxsiy kompyuterdan foydalanishlarini ma'lum qilishgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ushbu sohada ham katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Mobil telefonlardan avval faqat aloqa vositasi sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirda turli operatsion tizimli smartfonlar kompyuter bajaradigan ishlarning deyarli hammasini amalga oshirmoqda. Shu sababli respondentlar orasida JDPU ning 54,5%, QDU ning 45,7%, ChDPU ning 52,6% talabalari mobil telefonlar orqali ishlashni afzal ko'rishar ekan.

So'rovnomma ishtirokchilari internetdan foydalanishda shaxsiy kompyuter yoki mobil telefondan qaysi biridan ko'proq foydalanishlarini o'rgandik (2-rasmga qarang).

So'ralganlardan JDPU ning 9,1%, QDU ning 11,1%, ChDPU ning 21,8% talabalari shaxsiy kompyuter orqali internet tizimidan foydalanishlarini ma'lum qilgan. Respondentlardan olingan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, JDPU ning 90,9%, QDU ning 88,9%, ChDPU ning 78,2% talabalari mobil telefonlar orqali ishlashni afzal ko'rishar ekan.


%



2-rasm. Bo'lajak mutaxassislar tomonidan internet tizimida ishlash uchun foydalaniladigan vositalar (%)

Izoh: JDPU – Jizzax Davlat pedagogika universiteti, QDU - Qarshi Davlat universiteti, ChDPU – Chirchiq davlat universiteti, AKT va Mob.tel.- mobil telefon.

Tadqiqotimiz jarayonlarida o'tkazilgan so'rovnoma va olib borilgan suhbatlar natijalariga asosan biz sirtqi ta'lim shakli talabalarining axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanish asosida olib boriladigan o'quv jarayonlariga tayyorgarligi tahlil qilindi (3-rasmga qarang).



3-rasm. JDPU sirtqi ta'lim shakli talabalarining AKT ga asoslangan ta'lim shakliga tayyorligi ko'rsatgichlari (%).

Xulosa

So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanish asosida olib boriladigan o'quv jarayonlariga tayyor bo'lmagan yuqori kurs talabarlari soni ko'proq bo'lib, bu, ehtimol, maktabda o'qish jarayonida va universitetda informatika darslarida olingan boshlang'ich savodxonligi past ekanligini ko'rsatadi.



Ta'kidlash joizki, pastki kurs talabalari o'rtasidagi yuqori foiz ko'rsatgich farqi ham ilmiy-texnik jarayonlarni mamlakatimizning barcha ijtimoiy universitetlariga keng kirib borishi bilan bog'liqdir. Raqamlarga e'tibor qiladigan bo'lsaylik 19.5% talabalar a'lo, 42.3% yaxshi, 28.9% qoniqarli, 9.3% qoniqarsiz deb topilgan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida yaratiladigan dasturiy vositalarning zamonaviy talablar asosida qiziqarli, natijadorlikka asoslangan, to'g'ri va aniq ishlab chiqilishi o'qitishning samaradorligiga va bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ravishda o'z bilimlari, kasbiy malaka va mahoratlarini oshirishiga ta'sir qilishi mumkin. Talabalarga bilim berishda Axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida yaratiladigan dasturiy vositalardan foydalanish g'oyasini amalga oshirishning ko'pgina jihatlari mavjud. Maqsadimizni to'g'ri qo'yib, barcha qulayliklar va kamchiliklarni tahlil qilib, zamonaviy ta'lim jarayoni sifatini oshirish uchun mustahkam baza yaratish va shu asosda ta'lim natijadorligini oshirishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Назиржон Рахматович Ахмадов. Подростковый суицид. причины и профилактика. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2021 год, Выпуск 23. 30-34 ст.
2. Ахмадов Назир Рахматович. Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2021 год, Выпуск 22. 13-15 ст. 300 с
3. Ахмадов Назир Рахматович. Причины суицидального поведения. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2020 год, Выпуск 21. 60-62 ст. 102 с
4. Назиржон Рахматович Ахмадов. Причины суицидов в детском и подростковом возрасте. Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии сборник научных статей XXI века. Киев –Бухара 2020. 14-17 ст.
5. Ахмадов Назир Рахматович. Причины суицида среди подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 60-63 ст. 112 с
6. Akhmadov Nazir. Socio-psychological characteristics of the rehabilitation of disadapted adolescents. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. International Scientific Conference, December 18-19, 2021
7. Назиржон Рахматович Ахмадов Психологические основы реабилитации дизадаптированных подростков. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi ISSN: 2181- 1776. Nashr: 03 март 2022. 79-84 ст.



## 6-7 YOSHLI BOLALAR JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH ASOSIDA TARBIYALASH VA SARALAB OLIHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Karimov Davron Akulovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

[davron196901@gmail.com](mailto:davron196901@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada noan'anaviy vositalar yordamida 6-7 yoshdagi bolalarni jismoniy kompetensiyalarini oshirishda korreksion pedagogika, oila pedagogikasi va pedagogik texnologiyalar asosida jismoniy madaniyat tizimini takomillashtirishga oid vosita va dasturlar yoritilgan. Maqolada tasvirlangan pedagogik mexanizmlar, bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida yaxshilashga qaratilgan ilg'or pedagogik tadqiqotlarga asoslanadi. Ushbu mexanizmlar o'quvchilarning o'zlarini o'rganish, jismoniy va kognitiv rivojlanishiga yordam beradi va ularning o'z o'zini boshqarish, ijodiylik va g'oyaviy qobiliyatlarini rivojlantiradi.*

***Kalit so'zlar:** 6-7 yoshli bolalar, korreksiyalash, noananaviy jismoniy mashqlar, jismoniy faollik, jismoniy madaniyat, konsepsiya.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВОСПИТАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ У ДЕТЕЙ В ВОЗРАСТЕ 6-7 ЛЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ И КООРДИНАЦИИ ДВИЖЕНИЙ

Каримов Даврон Акулович

Доцент Джизакского государственного педагогического университета

[davron196901@gmail.com](mailto:davron196901@gmail.com)

***Аннотация:** В данной статье освещены инструменты и программы, связанные с совершенствованием системы физической культуры на основе коррекционной педагогики, семейной педагогики и педагогических технологий в повышении физической компетентности детей 6-7 лет с использованием нетрадиционных средств. Педагогические механизмы, описанные в статье, основаны на передовых педагогических исследованиях, направленных на совершенствование двигательной активности детей на основе нетрадиционных средств. Эти механизмы поддерживают самообучение учащихся, физическое и когнитивное развитие и развивают их навыки саморегуляции, творчества и мышления.*

***Ключевые слова:** дети 6-7 лет, коррекция, нетрадиционные занятия спортом, двигательная активность, физическая культура, концепция.*

## PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR CULTIVATING AND DEVELOPING PHYSICAL ACTIVITY IN 6-7-YEAR-OLD CHILDREN

Davron Akulovich Karimov

Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University

[davron196901@gmail.com](mailto:davron196901@gmail.com)

***Abstract.** This article describes an experimental program aimed at modernizing preschool education organizations based on non-traditional methods, improving the physical culture system of preschool children. The pedagogical mechanisms described in the article are based on advanced pedagogical*

research aimed at improving children's physical activity based on non-traditional means. These mechanisms support students' self-learning, physical and cognitive development and develop their self-regulation, creativity and ideation skills.

**Key words:** Children 6-7 years old, correction, unconventional exercise, physical activity, physical culture, concept

### **Kirish**

Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida bolalar jismoniy tarbiyasida ilk yoshidan boshlab sog'ligini mustahkamlash va har tomonlama uyg'un rivojlantirish eng asosiy talablardan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bola shaxsi rivojlanishining asosiy poydevorini yaratishni ta'minlashga qaratilmoqda. 6-7 yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi umumiy ta'lim-tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi, uning asosiy vazifasi bolalarni barkamol rivojlanishini ta'minlash, sog'lom, jismonan rivojlangan va mukammal avlodni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda 4-7 yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mazmunini optimallashtirish uchun turli shakllarini ishlab chiqish, mavjud vositalarni turli o'yinlar asosida tashkil etish, harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo xorijiy mutaxassislarning tadqiqotlarida gimnastika mashqlari yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini modellashtirish asosida dasturlar ishlab chiqish, noan'anaviy vositalar va usullarni maqsadli yo'naltirib oqilona tanlab olish etarlicha tadqiq qilinmagan. 6-7 yoshdagi bolalarning o'sib ulg'ayishida jismoniy faollik, asosiy harakatlar tartibiga hos bo'lgan jarayonlarni gimnastika mashqlari orqali tizimli ravishda tashkil etishni talab etmoqda. [1,5]

### **Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.**

G.Xolboeva, N.Nuriddinovalarning tadqiqotlarida (2022) jismoniy tarbiya mashg'ulotlari asosan ma'lum miqdordagi harakat ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilganligi biroq 6-7 yosh bolalarda asosiy harakat faolligini va jismoniy tayyorgarligini samarali tarbiyalashga hissa qo'shmasligi aniqlandi [2,8].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Respublikamizda 6-7 yosh bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib jismoniy faolligini oshirishning yangi vositalarini ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xorijiy tajribalardan foydalangan holda ta'lim yuqori darajaga olib chiqish, tizimda innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash, sohada xususiy ta'lim tashkilotlarini rivojlanishiga imkoniyatlarni yaratish zarur [2,10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 4-7 yosh bolalarni jismoniy tarbiyalashning yangi, noan'anaviy shakllari, vositalari va usullarini izlash dolzarb hisoblanadi.

### **Tadqiqotning maqsadi:**

Noan'anaviy vositalar yordamida 6-7 yosh bolalarni jismoniy kompetensiyalarini oshirishda korreksiyalash, oila pedagogikasi va pedagogik texnologiyalar asosida jismoniy madaniyat tizimini takomillashtirish

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Tadqiqot maqsadi quyidagi vazifalarda belgilangan:

6-7 yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;



6-7 yoshdagi bolalarni jismoniy faollik darajasini inobatga olib individual yondoshuv orqali mushaklar harakatchaligini uyg'un tarbiyalashga va bolalar aerobikasi pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

6-7 yosh bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;

zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarni "Maktabga tayyorlik" darajasini oshirish shart sharoitlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obe'kti** sifatida 6-7 yosh bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy faolligini noan'anaviy jismoniy mashqlar tizimini moderinizatsiyalash jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti:** 6-7 yosh bolalar jismoniy madaniyatini moderinizatsiyalashning tashkiliy-uslubiy asoslarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning uslublari:** Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqotning pedagogik va tibbiy-biologik usullari majmuasi qo'llanildi:

Maktabgacha yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida noan'anaviy mashqlar majmuasidan tashkil topgan dastur ishlab chiqildi.

Noan'anaviy mashqlar-bu jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishning tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, maktabgacha yosh va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy mashqlarni bajarish jarayonini moderinizatsiyalashga yordam beradi.

An'anaviy shaklda o'tkaziladigan mashg'ulotlardan farqli o'laroq, noan'anaviy mashqlar mashg'ulotlarda qo'llaniladigan jismoniy tarbiya vositalarining barchasi yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan.

6-7 yosh bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;

6-7 yosh bolalarni mushak elastikligi darajasini oshirish uchun diqqatni jamlash, harakatlarni asimmetrik asinxron bajarish qobiliyatini pedagogik jarayonga uyg'unlashtirishdan iborat. [4,6]

6-7 yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirishda tayanch-harakat tizimidagi mushaklarni (bo'g'inlar va boylamlar) rivojlanganlik darajalaridan kelib chiqib muvozanat saqlash hamda reabilitatsiyaga yo'naltirilgan noan'anaviy avtomat gimnastika mashqlarini tana qismlariga tanlab yo'naltirish hisobiga yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengaytirilgan;

6-7 yoshdagi bolalarni jismoniy faollik darajasini inobatga olib individual yondoshuv asosida mushaklar harakatchaligini uyg'un tarbiyalashga qaratilgan logoritmik gimnastikada nutq va harakatni bir xil ritm hamda tempda bajartirish hisobiga bolalar aerobika pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan;

6-7 yoshdagi bolalar organizmining funksional va adaptiv imkoniyatlaridan kelib chiqib statik rejimda umurtqa pog'onasi mushak qayishqoqligini rivojlantirishga qaratilgan spring elastika mikromashg'ulotlarini ishlab chiqish hisobiga mashg'ulotlarni o'z vaqtida tezkor korreksion korreksion pedagogika yo'nalishi takomillashtirilgan;

6-7 yoshdagi bolalarni mushak elastikligini oshirish maqsadida diqqatni jamlash, mashqlar muvozanat saqlash intervalini uzaytirish darajasidan kelib chiqib "Xatxa" yoga asanlari mashqlarida harakatni assimetrik va asinxron yo'nalishini kiritish orqali pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtirilgan. [4,5]

## Tahlil va natijalar

Tajriba boshlanishidan oldin tajriba va nazorat guruhlari bolalari oldinga egilish natijalari bundan mustasno, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va harakat faolliklari natijalarida sezilarli farqlar mavjud emas edi. Tajriba o'tkazilgandan so'ng, har ikki guruhda ham jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarida bir tomonlama ishonchli o'zgarish kuzatildi. Shunday qilib, yuklama miqdorini asta-sekin oshirib borish tajriba guruhidagi bolalar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Noan'anaviy mashqlar mashg'ulotlarning tajriba guruhlarida qo'llanilgan vositalari va usullari ushbu yoshdagi bolalar organizmining imkoniyatlariga mos edi (bu pedagogik kuzatuvlar va pulsometriya ma'lumotlari bilan ham tasdiqlangan).

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari amaliyotida innovasion quyidagi pedagogik texnologiyalar paydo bo'ldi: o'yin stretching, ritmoplastika fitbol, logoritmik gimnastika va boshq.

**O'yin stretching.** Barcha mashqlar mushaklarning kuchlanishi va bukilishiga asoslangan. Mashqlar musiqa ostida bajariladi. Har bir mashg'ulotda ajoyib sayohatlar shaklida yangi rolli o'yin o'tkaziladi. O'yin emotsional tarzda o'ynaladi, mashqlarni almashish va ertak tinglash almashtiriladi. O'yin syujeti mashqlar o'zgaruvchan bo'lishi uchun tashkil etilgan, bolaning butun tanasiga bir xil yuklama tushadi.

**Ritmoplastika,** "Ritmoplastika" pedagogik texnologiyasi harakatlar va ritmning uyg'un mozaikasi.

Ritmoplastika texnologiyasining o'ziga xos xususiyati bu ishda maxsus ishlab chiqilgan repertuardan - musiqiy va plastik kompozitsiyalardan foydalanish bo'lib, ularning har biri bolalar uchun tushunarli bo'lgan aniq o'ynoqi tasvirga ega. Har xil turdagi harakatlarni (har xil boshlang'ich pozitsiyalarda bajariladigan raqs, umumiy rivojlanish, taqlid va boshqalar) kombinatsiyasi pedagogik mahorat, kommunikativ raqs yoki o'yin texnologiyasi shaklida musiqiy va plastik tasvirni yaratishga yordam beradi.

**Futbol. Texnologiya** katta to'plardan foydalanishga asoslangan. Gimnastika to'plarida mashq qilishning shifobaxsh ta'sirining o'ziga xosligi umurtqa pog'onasidagi ta'sirning fiziologik mexanizmi va natijada butun tayanch-harakat tizimi va tananing avtonom tizimlarining ishi bilan belgilanadi. To'plar umumiy va maxsus korreksion vazifalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

To'plarda mashqlarni yuqori tezkorlikda bajarish mushaklarning ohangini oshiradi, bola aqliy qobiliyatlarini stimullab, charchoqning yoqimsiz hislarini kamaytiradi. To'pning elastik xususiyatlari mushak-skelet tizimiga zarba yuklamasini kamaytiradi. Shuning uchun, turli xil tartiblarni tanlashda vazifani bajarish qulayligi bilan tananing ish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

**Kreativ gimnastika.** "Kreativ gimnastika" atamasi tomonidan 6-7 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining yangi tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda kiritilgan.

Bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari asosan o'yin shaklida, aqliy va tarbiyaviy faoliyatga yo'nalgan musiqadan foydalangan holda olib boriladi. Bundan tashqari, bolalarda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Gender xususiyat insonning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shaxsni shakllantirishga individual yondashishning zamonaviy talablari bolaning jinsining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim amaliyotida insonning u yoki bu jinsga mansubligi belgilarini farqlash tendensiyasi kuchaymoqda.

Bolalarning harakat faolligini, vosita va amalga oshirish usullarini o'rganishda adabiyotlarni tahlil qilishni yakunlab, biz ikkita muhim jihatni qayd etdik:

bolaning harakatga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishga, harakat faolligini rivojlanishiga yordam beradigan eng munosib faoliyatni yo'lga qo'yish; tashkiliy va mustaqil faoliyatda bolalarning harakat faolligini optimal tashkil etish usullari va vositalarini izlash.

Qiz va o'g'il bolalarda jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishiga oid ma'lumotlar qiyosiy tahliliga ko'ra, o'g'il bolalar yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida barcha yoshdagi qizlarda egiluvchanlik qobiliyatining rivojlanishi yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligi kuzatildi. Bu esa jismoniy qobiliyatlarning yaxshiroq shakllanganligi hamda o'g'il bolalardan ko'ra qizlarda egiluvchanlik qobiliyatini rivojlanishining yuqoriroq darajasi bilan belgilanadi

### **Xulosa**

Xulosa qilganda, 6-7 yosh bolalarning yosh, individual, va boshqa differensial xususiyatlarini hisobga olgan holda noan'anaviy mashqlar tizimiga asoslangan vositalarni MTT lari amaliyotida qo'llash, jismoniy tarbiya jarayonini moderinizatsiyalashga imkon beradi hamda mashqlar korreksiyaviy, reabilitativ effekt berib, jismoniy faolligini oshirish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, bolalarning muntazam jismoniy mashqlarga bo'lgan qiziqishi, irodaviy va tarbiyaviy jarayonlarini shakllantirishga asos bo'ladi. Tadqiqotdan so'ng matematik statistik tahlil qilinganda bolalar aerobika pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan hamda statik rejimda umurtqa pog'onasi mushak qayishqoqligini rivojlantirishga qaratilgan spring elastika mikromashg'ulotlarini ishlab chiqish hisobiga mashg'ulotlarni o'z vaqtida tezkor tuzatuvchi korreksion pedagogika yo'nalishi takomillashtirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G.X.Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Mechanisms for improving primary gymnastics in increasing the physical activity of children in preschool education. 2021-yil, 2-son. 2091-5446. B.130-136.
2. G.Xolboyeva. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, SamDU ilmiy Axborotnomasi.2020. 2-son. 2091-5446. B.102-108.
3. B.T.Xaydarov. G.X. Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari. 2020. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144.
4. J.Eshnazarov. Bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslublari. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007., 386 b.
5. Малинина Н.Н. Гимнастика и методика преподавания. Ташкент. „Fan“ nashriyoti 2001 й. 123.- стр.



## VOLEYBOL SPORT TURINI O'RGATISH VA UNING MOHIYATI

Bavatov Fayzulla Shamuratovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

[fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada voleybol sport turini o'rgatishning muhimligi va uning mohiyati o'rganiladi. Voleybol o'yinining turlari, qoidalari, va jarayonlarining tafsiliy ta'riflari ko'rsatiladi. Sportning jamiyati ijtimoiy, madaniy va o'quvchi o'yinlarda qanday o'rin olishi, o'yin o'rgatish va uni o'rganishning yirik roli ta'kidlanadi. Maqola o'quvchilarning sportni sevimli turari, uning mohiyati va tarixiy o'zgarishlarini o'rganishga yordam berishi uchun muhimdir. Voleybolning o'rganilish jarayonlari, voleybol o'rganishning pedagogik texnologiyalari va ta'lim usullari o'rganiladi. Maqola sportni o'rganish va uning jamiyatdagi ahamiyati haqida ko'proq tushunchalar beradi.*

***Kalit so'zlar:** mashg'ulot, texnik tayyorgarlik, dastlabki o'rgatish, tayyorlov, o'yin malakalari, o'rgatish vositalari, maxsus mashqlar, o'rgatish uslublari, moslama va uskunalalar.*

## ОБУЧЕНИЕ ВИДУ СПОРТА - ВОЛЕЙБОЛ И ЕГО СУЩНОСТЬ

Баватов Файзулла Шамуратович

Старший преподаватель кафедры дистанционного образования по социально-гуманитарным наукам Джизакского государственного педагогического университета

[fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

***Аннотация:** Ин этой статье рассматривается важность обучения волейболу и его сущность. Приводятся типы волейбольных игр, их правила и подробные описания процессов игры. Освещается роль волейбола в обществе, культуре и учебных играх, а также выделяется важность обучения и изучения этой игры. Статья подчеркивает, что важно, чтобы студенты узнали спорт как свой любимый вид, его сущность и исторические изменения. В ней также описываются процессы обучения волейболу, педагогические технологии и методы обучения этому виду спорта. Статья передает больше представлений о важности обучения спорту и его значении в обществе.*

***Ключевые слова:** тренировка, техническая подготовка, начальное обучение, подготовка, игровые навыки, образовательные средства, специальные упражнения, методы обучения, адаптация и снаряжение.*

## TEACHING THE SPORT OF VOLLEYBALL AND ITS SIGNIFICANCE

Bavatov Fayzulla Shamuratovich

Senior teacher of the Department of distance education in social and humanitarian sciences of Jizzakh State Pedagogical University

[fayzulla01@gmail.com](mailto:fayzulla01@gmail.com)

***Abstract:** This article explores the importance and essence of teaching volleyball as a sports discipline. It provides detailed descriptions of the types, rules, and processes of volleyball games. The article emphasizes the significant role of sports in society, culture, and educational games, and the importance of both teaching and learning this sport. It underscores that helping students to understand their favorite*

sport, its essence, and its historical changes is crucial. The article also delves into the processes of teaching volleyball, its pedagogical technologies, and teaching methods. Overall, the article provides a more comprehensive understanding of the significance of learning sports and its role in society.

**Keywords:** Training, technical preparation, initial teaching, preparation, special exercises, the methods of teaching.

### **Kirish**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, katta sportni ham rivojlantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Xar yili respublikamizda halqaro va jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalar o'tkazilib yoshlarni sportga qiziqishi ortib bormoqda. Sportchilarimiz Osiyo, Jahon va Olimpiya musobaqalarida qatnashib yuksak natijalarga erishib, yurtimiz shuhratini tarannum etib kelmoqdalar. Ushbu muammoni haletish yo'llaridan biri har xil turdagi maqsadli jismoniy tarbiya dasturlarini har bir talabaning ehtiyojlarini maksimal qondirishga, ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasini imkon qadar to'liq hisobga olishga qayta yo'naltirish hisoblanadi. [1,3]

Afsuski sport o'yinlari, xususan voleybol sport turi keng rivojlangan bo'lsada xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishilayotgani yo'q. Voleybol o'quv fani sifatida barcha ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan, darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko'rsatadigan sport to'garaklari, bolalar va sport maktablarida o'quv-trenirovka jarayonlari o'tkazilib kelinmoqda. Sport malakalariga dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo'lib hisoblanadi. Dastlabki o'rgatish o'z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo'lsa, sifatli bo'lsa, shunchalik sport o'rinbosarlarini tayyorlash yo'li qisqaroq va osonroq bo'ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko'nikma va malakalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan o'quv dasturining eng e'tiborli va asosiy bo'limlaridan biri boshlang'ich o'rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo'lib hisoblanadi. [1,5]

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy omillaridan biri bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo'lishidir. Demak, o'rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o'yin texnikasini mukammal o'zlash-tirishdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

Hozirga qadar oliy o'quv yurti jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lib, ularda oliy o'quv yurtlari sport takomillashuvi guruhlarida sport o'yinlaridan foydalanishning tabaqalashtirilgan uslubiyati masalalari yoritib berilgan. L.R.Ayrapetyans, M.A.Godik, 1991; Yu.D.Jeleznyak, 1994; M.C.Axmatov, 2004. Bundan tashqari V.A.Kobzev, 1996; N.A.Anashkina, 1998; A.Zelenskiy, 1998; V.P.Guba, 2000 va boshqalarning ilmiy ishlarida talaba yoshlar jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilishda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishning ilmiynazariy va amaliy asoslari hamda uslublari bayon qiligan. Harakat va o'yin malakalari – to'pni uzatish, qabul qilish (himoya), to'pni o'yinga kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish belgilangan bosqichlarda, ma'lum uslublar va vositalar yordamida o'zlashtiriladi va takomillash-tiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. [2,4]

## Natijalar

O`rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo`lib, murabbiy-o`qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo`lsada, harakatni (o`yin malakasini) ijro etish texnikasiga o`rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog`liqdir. Jumladan bolaning faolligi, mashg`ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg`ulot o`tkaziladigan joyning shartsharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat boyligi, tajribasi va hokazo. Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o`zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog`liqdir. Yuqorida keltirilgan ma`lumot va o`rgatish jarayonida e`tiborga olinadigan omillar ma`lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlaridan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki sirli imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o`rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo`llashda tayanch omil bo`lib xizmat qilishi kerak. [3,6]

Dastlabki o`rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni har biri o`ziga xos uslub va vositalarni o`z ichiga oladi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o`yinchida jismoniy barkamollik va o`yinchi uchun zarur bo`lgan harakat ko`nikmalari va malakalarini sayqallash uchun qo`llaniladi. Barcha mashqlar o`z yo`nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashg`ulotning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etib bularga, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va o`yin tayyorgarligi kiradi. Har bir tayyorgarlik turida o`zining etakchi omillari borki, ular yordamida ko`zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog`liq. Misol uchun, agar o`quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo`lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o`quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko`p marta takrorlashdan ko`ra foydaliroqdir. Dastlabki o`rgatishda bosqichma-bosqich olib borilishi va o`rgatish tamoyiliga asoslanish lozim.

Birinchi bosqich – o`rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko`rsatish va tushuntirish uslublari qo`llaniladi. Murabbiy ko`rsatish bilan birga ko`rgazmali qurollardan kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazolardan foydalanadi. Namoyishni tushuntirishlar bilan qo`shib olib borish kerak. Murabbiy-o`qituvchining dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi. Ikkinchi bosqich – texnikani soddalashtirilgan holatda o`rganish. Mazkur o`rganish bosqichida muvaffaqiyat ko`p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to`g`ri tanlanganligiga bog`liqdir. Ular o`zining tuzilishi shakliga ko`ra o`rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o`quvchilar bajara oladigan bo`lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo`lgan harakatlar ya`ni hujum zarbasi uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga qismlarga ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi buyurish, ko`rsatma berish, ko`rish va eshitish, ko`rib ilg`ash, texnik vositalar va hokazolar hamda ko`rgazmali harakatlar murabbiyo`qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo`llash, axborot to`pga bo`lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug`lik yoki ovozni belgilash kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo`ladi.

Uchinchi bosqich – texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o`rgatish. Bunda quyidagilar qo`llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o`yin va baholash uslubi, qo`shma uslub, aylanma mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Ko`p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni harakat sharoitini o`zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni

taqazo etadi. Hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo`shma va o`yin uslublari bir vaqtni o`zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o`stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o`yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo`ladi. To`rtinchi bosqich – harakatni o`yin jarayonida mustahkamlashni ko`zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo`llanadi (rasmlar, jadvallar, o`quv filmlari, tasviriy filmlar), o`yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o`yin va bellashish usullaridan foydalaniladi.

### **Muhokama**

Tayyorgarlik va o`quv o`yinlarida har bir usulni (malakani) o`rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko`zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi bu musobaqalashishdir. Voleybolda ham boshqa sport turlari kabi o`rgatishning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Ular juda turli-tumandir. Shuning uchun ular ma`lum bir o`rgatish bosqichidagi qo`yilgan vazifalarni hal etishdagi o`rni bo`yicha turkumlanadi. Bunday turkumlanishga voleybolchilarning musobaqa faoliyati asos qilib olingan. Shunga bog`liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi, bular asosiy yoki musobaqa va yordamchi yoki trenirovka

Voleybol harakatlariga o`rgatishda vositalarning samarasi ko`p hollarda ularni qo`llash uslublarga bevosita bog`liq bo`ladi. Uslublar qo`yilgan vazifa, shug`ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog`liq holda tanlanadi va qo`llanadi. Qo`yilgan vazifaga bog`liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo`llab, undan turlicha foydalanish mumkin. Bundan tashqari, har bir tayyorgarlik turida vazifalar va turlarning ketma-ketligi ham ma`lum mantiqiy bog`liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o`zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o`rganilayotgan texnik usulning umumiy tuzilishini ifoda etadi. Yaqinlashtiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o`tishda ko`prik vazifasini o`taydi. Ma`lum darajadagi murakkablik asosida qurilgan texnik mashqlar taktik ko`nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosda keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o`rganiladi. [4,5]

### **Xulosa**

Voleyboldagi asosiy harakatlanish – bu yurish, yugurish, yonga qadam tashlab yugurish, orqa bilan, qadam tashlab to`xtash, sakrashdan iboratdir. Ko`p hollarda harakatlanishlar qiyin emas deb izohlanib, ularga etarli e`tibor berilmaydi. Bu esa noto`g`ri fikrdir. Chunki o`yinchining turli harakatlarni bajarishi uchun holat va joy tanlashi bajariladigan harakatning samarasiga to`g`ridan to`g`ri ta`sir qiladi. Shuning uchun harakatlanishlarni o`rgatishga katta e`tibor qaratish zarur. Murabbiyning dastlabki o`rgatish jarayonini to`g`ri tashkil qilishi, mamlakat terma jamoalari uzviylikini ta`minlash va malakali sport zahiralarni etishtirish kabi muhim vazifalarni samarali shakllanishiga asos bo`lib hizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. O`zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida”gi 394-sonli Qonuni (yangi tahriri). 2015 yil 5 sentabr. “Xalq so`zi” gazetasi 174-son.
2. Ayrapetyants L.R. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: O`zDJTI. 2011, - 280 b.
3. Masharipov F.T., Ro`zmetov N.Q., Ro`zmetov R.T. Voleybol mashg`ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O`quv-uslubiy qo`llanma. Urganch.: 2012, - 72 b.



4. Masharipov F.T., Ro`zmetov A.T., Ro`zmetov R.T. Voleybol va uni o`rgatishning pedagogik asoslari. O`quv-uslubiy qo`llanma. Urganch.: 2018, - 80 b.
5. Isroilov Sh.X. Voleybol. Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o`quv qo`llanma. T.: Tasvir, 2008. – 144 b.

## **BIOFIZIKA FANINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O`QITISH METODIKASI**

Hakimov A. -Andijon davlat universiteti Fizika fakulteti dotsenti

*Annotatsiya.*Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o'qitish metodikasini takomilashtirish omillari, pedagogik shart sharoitlari, samaradorlikni oshirish usullari xaqida bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* oliy ta'lim muassasasi, talabalar, biofizika, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, kreativlik, kreativ yondashuv.

## **МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ БИОФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА**

Хахимов А.- Доцент физического факультета Андижанского государственного университета

*Аннотация.* В статье говорится, что образование эффективно, педагогика условия, примирения методика совершенствования методика обучения, педагогика условия труда примирения методика изложена

*Ключевые слова:* Высшее учебное заведение, студенты, биофизика, современные инновационные технологии, креативность, креативный подход

## **METHODOLOGY FOR TEACHING BIOPHYSICS ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH**

Hakimov A. - Associate professor of the Faculty of Physics,  
Andijan State University

*Annotation.* The article describes the pedagogical conditions, the meaning and methods of achieving the goal of developing professional and personal capabilities of the head by a preschool institution.

*Keywords:* Higher education institution, students, biophysics, modern innovation technologies, creativity, creative approach.

Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq barcha sa'y-harakatlar bilim beruvchi, tarbiyalovchi, ziyo tarqatuvchi, boshqa mutasaddi shaxslar, qisqasi, ustoz va murabbiylar bilan bilim oluvchi, tarbiyalanuvchi, umuman olganda, o'quvchi va talabalar misolidagi shogirdlarning birgalikdagi aqliy va jismoniy mehnati, hamkorlikdagi yoki mustaqil mehnati, faolligi va ijodiy fikrlashidan iborat bo'lgan ko'pqirrali va murakkab jarayonlardir.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim



maqsadlari o'quvchi-talabalarning faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishlariga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni ijodiy faollikka, egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, kreativ yondashishga, ijodiy fikrlashga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatishi bilan bog'liqdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o'qish metodikasi quyidagi kreativ kompetensiyalarni bosqichma-bosqich ta'lim jarayoniga qo'llash orqali takomillashtirilgan:

1. Biofizik tushunchalarni nazariy umumlashtirish orqali empirik xulosalarni shakllantirish va fanga oid kompetensiyalar (pedagogik kuzatishlarni olib borish, biofizika o'qitish jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyatini tahlil qilishda tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish, biofizika o'qitish vositalari, metod va shakllarining ilmiy tasavvurini shakllantirish, asbob-uskunalar bilan tanishish, eksperiment o'tkazish mahoratini shakllantirish, amaliy mashg'ulotlar davrida tanish va notanish vaziyatlarda bilimlarini nomoyish etishi va amaliyotda qo'llash);

2. Amaliy ishlar bilan nazariy bilimlarni umumlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish kompetensiyasi (biofizika o'qitish metodikasidan bilimlarni umumlashtirish (umumiy savollar, fizik qonuniyat va tushunchalarni shakllantirish metodikasi, xususiy savollar);

3. Kengaytirilgan empirik xulosa va qonuniyatlarni tushunish (biofizika fanini o'rganish davomida startap va innovatsion loyixalar yaratish va kundalik turmushda foydalanish, biofizika o'qitishning zamonaviy texnik qurilmalarni o'rganish va ularning ishlash tamoyillarini fizika qonuni asosida tushunish.)

4. O'rganilayotgan tibbiy diagnostika apparatini ishlash prinsipini mustaqil o'rganib, amaliyotda ishlata olish ko'nikmasi (MRT, MSKT, UTT, rentgen apparatlarini ishlata olish ko'nikmasi)

O'tkazilgan tadqiqotlar xulosasi shuni ko'rsatdiki, talabalarda kreativlik kompetensiyasi birdaniga emas, balki muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Talabalarda ta'lim amaliyotini kuzatish natijasida kreativlik kompetensiyasi 4 bosqichda bosqichma-bosqich shakllanadi va rivojlanadi:

1-bosqich. Talaba dars jarayonida biofizika faniga oid fizika, biologiya, kimyo, matematika kabi fanlarning nazariy-metodologik asoslarini o'zlashtirishi uchun metodik ko'rsatmalar beriladi.

2-bosqich. Talaba dars jarayonida Akustika, tovush to'lqinlari, tovushning organizmdagi turli to'qimalardan (qattiq jism, suyuqlik va gaz) turlicha qaytishi kabi o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni UTT apparatida amaliyotga tadbiiq qilib, ishlata olish ko'nikmasini xosil qilish. Bu jarayonda talabalarga mavzuni o'zlashtirishning mazmuni, metodlari, shakllari to'liq ishlab chiqiladi va dars jarayonida qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulotlar paytida apparatni ishlatib ko'radi va shu prinsip asosida yana qaysi diagnostik apparatlar ishlashini talaba mustaqil ta'lim jarayonida o'rganadi. Natijada talabada o'zlashtirgan bilimni amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalari hosil qilinadi.

3-bosqich. Talaba mustaqil ta'lim jarayonida diagnostik apparatlarni ishlash prinsipining fizik xususiyatlarini mustaqil ravishda o'qib-o'rganishi va ijodiy izlanishi asosida hosil qilingan amaliy ko'nikmalarning amaliyotda, amaliy mashg'ulotlarda muntazam, doimiy ishlata olish ko'nikmasi endi malakaga aylanishiga erishiladi.

4-bosqich. Talaba Akustika, Audiometriya, UTT apparatlari haqida olgan nazariy bilimi, amaliy mashg'ulotlarda ishlata olish ko'nikmasi va amaliyotda qo'llay olish malakasiga tayangan holda bo'lajak shifokorlik kasbini samarali tashkil etishga tayyorlanishiga erishiladi.

Demak, kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o'qitish jarayonida, eng asosiy vazifa talabalarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari va vositalarini qo'llash hisoblanadi. Biz tadqiqotimizda talabalarda kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llagan metodlarimizni keltirib o'tamiz:

1-usul. Guruhlashtirish. Bu metodni qo'llaganimizda talabalar o'quv materialini mazmunan yoki unda faol qo'llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlariga ajratib oladilar. Bu usulni biofizika faniga qo'llashdan maqsad talaba maktabda olgan fizikadan dastlabki tushuncha mohiyatini chuqur anglamay turib, biofizikadan yangi mavzu bilan ishlay olmaydi. Ta'lim jarayonida talabalarda guruhlashtirish metodini qo'llash ko'nikma va malakalarini hosil qilishga e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha guruhlar shakllantirildi. Misol uchun: "Termografiya. Tibbiyotda termografiyadan foydalanish" mavzusini o'rganishda yaxlit o'quv materialini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Issiqlik xodisalari.
2. Izojarayonlar(izoxorik, izobarik va izotermik)
3. Issiqlik almashinish xodisasi.
4. Termodinamika qonunlari.
5. Organizmning energetik tenglamasi.
6. Termometriya.

2-usul. Reja tuzish. Talabalarni biofizika fanidan o'zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha reja tuzishga undash va dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish ular tomonidan o'quv materiali mohiyatini chuqur anglanishiga, ijodiy fikrlashga zamin yaratadi. Bu metodni qo'llaganimizda o'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan (darslik, qo'llanma, yordamchi adabiyotlar, Internet materiallar va boshqalar) o'quv materialini mantiqiy ravishda guruhlariga ajratish va har bir guruhga kiritilgan materialning tub mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi iboralarni ajratish talabadan barqaror diqqat, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida talabalarda reja tuzish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha rejalar tuzildi. Misol uchun: "Organizmda qonning xarakati" mavzusini o'rganishda talabalar tomonidan rejaning quyidagi tarzda tuzilishi maqsadga muvofiqdir:

### **Reja**

1. Suyukliklarning turbalardagi xarakati.
2. Laminar va turbulent oqimlar.
3. Suyuqliklarning qovushqoqligi.
4. Qovushqoq suyuqlik ichida jismlar xarakati.
6. Biologik suyuqliklarning qovushqoqligini Stoks usuli yordamida o'rganish.

3-usul. Tayanch tushunchalarni aniqlash. Ushbu metodni qo'llashda talabalar ularning e'tiborlariga havola etilayotgan yangi mavzuda ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatini anglatuvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsata olishlari lozim. Buning uchun talabada ijodkorlik qobiliyati kerak bo'ladi. Talabalarning tayanch tushunchalarni aniqlay olishlari ularni yangi mavzu mohiyatini yetarli darajada o'zlashtira olganliklaridan dalolat beradi. Ta'lim jarayonida

talabalarda tayanch tushunchalarni aniqlash ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha tayanch tushunchalar ajratildi.

Misol uchun: "Yurak faoliyati va uning ishlash prinsipi" mavzusini o'rganish chog'ida talabalarning yangi mavzu bo'yicha quyidagi tayanch tushunchalarning aniqlay olishlari ularning bu borada muayyan kreativlik ko'nikmalarga ega ekanliklaridan dalolat beradi: yurak, qon, qon tomirlari, suyuqliklar, bosim, puls, ritm, sistolik bosim, diastolik bosim, elektrokardiografiya.

4-usul. Mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish. Bu metodni qo'llaganimizda asosiy e'tibor talabalar o'rganilayotgan yangi mavzuni mazmuniga ko'ra mustaqil kichik mavzularga ajratishga qaratiladi. Bu usulni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarda berilayotgan o'quv axborotlar orasidan eng muhim fikrlar yoki qarashlarni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Misol uchun:

Misol uchun: "Eshitish sistemasi fizikasi" mavzusini o'rganish davrida talabalarni taxminan mavzu ichida quyidagi kichik mavzularni hosil qilishga undash maqsadga muvofiqdir:


1. Tovush to'lqinlari va uning xarakteristikalarini.
2. Tovush tezligi, qattiqligi va balandligi.
3. Tovushning turli muxitlarda tarqalishi.
4. A'za va organizm sistemalari patologiyasini tashxisida qo'llaniladigan tibbiyot texnikasi.
5. Quloqning tuzilishi.
6. Audiomertiya. Tovushning tabiati, fizik xarakteristikalarini.
7. Klinikada tovush yordamida tekshirishning fizik asoslari.
8. Reverberatsiya.

5-usul. Turkumlashtirish. Talabalarga yangi o'zlashtirilayotgan mavzuni muayyan yo'nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq turkumlashtirish ularning talabalar tomonidan ma'lum tizim asosida o'zlashtirilishiga imkon beradi. Biofizika fanini o'qitishda talabalarda mavzuga oid turkum fanlarni turkumlashtirish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha pedagogik bilimlar turkumlashtirildi. Misol uchun: "Biologik to'qimalarning elektr xossalari" mavzu o'qitilayotganda turkumlashtirish usuli quyidagi andozaga muvofiq qo'llanilishi mumkin:

- a) Biologik to'qimalarning fizikaviy xossalari
- b) Biologik to'qimalarning biologik tuzilishi
- g) Biologik to'qimalarning kimyoviy tarkibi

6. Sxemalashtirish. Talabalar o'rganilayotgan yangi mavzu bo'yicha o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlarini mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvirlar asosida namoyish etadilar. Ta'lim jarayonida talabalarda sxemalashtirish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha sxemalar yaratildi. Shuningdek, rasm, shakl va tasvirlarning yaratirilishiga ham erishildi. Misol uchun: "Elektrokardiografiya" mavzusi yoritilayotganda apparatni Etxoven uchburchagi sxemasi asosida ulash kerak bo'ladi. Bunda talabalardan elektrodlarning musbat va manfiy qutblariga mos sxemani ulashda kreativlik, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini namoyon qilish talab etiladi.

7-usul. Qayta bayon etish. Kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o'qitishda qo'llanilgan ushbu metod o'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch so'zlar yordamida yangi mavzu mazmunini o'z fikrlari bilan qayta bayon etadilar. Bu jarayonda ularning mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, kreativlik qobiliyatlari rivojlanadi. Misol uchun: "Magnit maydoni. Moddalarning magnit hossalari" mavzusini o'rganish jarayonida quyidagi tayanch tushunchalar talabalar tomonidan o'rganilgan



mavzu mazmunini qayta bayon etilishiga imkon beradi: elektronlar, elektr zaryadlar, zaryadlangan jismlar, elektr maydoni, elektroskop, eletrostatika.

8-usul. Mentoring dasturlari. Kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o'qitishda mentoring dasturlarini qo'llashdan ko'zlangan maqsad – talabalarda ushbu dasturlar asosida o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini kengaytirish va kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida o'z bilim, malakalarini boshqarishga yordam berish va yangi kreativ g'oyalar bunyodkori sifatida o'zini o'zi rag'batlantirishdir. Mentoring dasturlari talabalarga bir-biridan bilmaganlarini o'rganish imkonini beradi. Talabalar o'z bilimlarini tengdoshlariga uzatish yo'llarini o'rganadilar. Masalan, talabalar orasida kreativ fikrlay oladigan, ijodiy tafakkuri keng, o'z hayotida kreativ g'oyalarni ilgari sura oladiganlari ham bor. Shu singari talabalar o'z bilim va tushunchalarini baham ko'rishi, shuningdek, bilimi pastroq, ijodiy tafakkuri tor bo'lgan boshqa talabaga yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin. Mentoring dasturining maqsadi talabalar orasida o'z kreativ qobiliyati orqali martabaga erishishi, ta'lim va o'rganish orqali asosiy kreativ kompetensiyalarini shakllantirishga yordam berish va kreativlikni rivojlantirishdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/Монография. – Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2013.
2. Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муал.: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий тахрири остида. – Т.: «Iqtisod-moiya», 2010..

3. 3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили” да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”

### МАКТАВГА ТАЙЙОРЛОВ GURUHI BOLALARINI МАКТАВ ТА’LIMIGA TAYYORGARLIGINI KOMPLEKS VAHOLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası  
o’qituvchisi.97-242-05-07. [xolboyevagulnora.74@mail.ru](mailto:xolboyevagulnora.74@mail.ru)

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning normativ-huquqiy bazasi yangilash, moddiy-texnik infrastrukturasi yaratish hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdagi pedagogic muammolar keltirib o’tilgan.

*Kalit so’zlar:* Professionalizm, innovatsiya, intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish, moddiy-texnik bazasi, kompetensiyalar.

### КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Холбоева Гулнора Улашовна

Преподаватель кафедры методики дошкольного образования Термизского  
государственного педагогического института.

[xolboyevagulnora.74@mail.ru](mailto:xolboyevagulnora.74@mail.ru)

*Аннотация:* В данной статье затронуты педагогические проблемы совершенствования механизмов подготовки конкурентоспособных кадров в системе образования нашей страны, обновления нормативно-правовой базы, создания материально-технической базы, подготовки детей к школьному обучению.

*Ключевые слова:* Профессионализм, инновационность, интеллектуальное, нравственное, эстетическое, физическое развитие, материально-техническая база, компетенции.

### COMPLEX ASSESSMENT OF PREPARATORY GROUP CHILDREN'S READINESS FOR SCHOOL EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Kholboeva Gulnora Ulashovna

Prepodavatel kafedry metodiki doshkolnogo obrazovaniya Termizskogo  
gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta.

[xolboyevagulnora.74@mail.ru](mailto:xolboyevagulnora.74@mail.ru)

*Annotation:* In this article, the pedagogical problems of improving the mechanisms of training competitive personnel in the educational system of our country, updating the regulatory legal framework, creating a material and technical infrastructure, and preparing children for school education are mentioned.



**Key words:** *Professionalism, innovation, intellectual, moral, aesthetic, physical development, material and technical base, competencies.*

### **Kirish**

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlili qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorgarligini baholash masalalari ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan bo'lib, MDH olimlaridan L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, D. B. Elkonin, R. Ya. Guzman, V. V. Rubsov, G. A. Sukerman, L. A. Venger, V. V. Xolmovskaya, mamlakatimiz olimlaridan D. Abduraximova, X. Najmiddinova, T. Latipova, N. Djamilova, N. Abdullaeva, G. Berdialieva, O. Maxmudova, Z. Teshaboevalarning ilmiy izlanishlari mazkur muammoning turli yo'nalishlarida tadqiq etilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlillar va natijalar**

Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bu 5-7 yosh oraliqidagi bolalar bo'lib, ularning jismoniy-fiziologik, psixologik, intellektual-ijtimoiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, maktabga tayyorgarlik - bu bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy-psixologik rivojlanishining shunday darajasi, bu uning sog'lig'iga zarar yetkazmasdan maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayyorgarlik darajasidir.

### **Xulosa**

Ushbu maqolani tayyorlanishi va olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagilarga erishildi:

Maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosati maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini rivojlantirish, mazkur tizimga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirish, tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish,

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni to'liq qamrab olish, bolalarni maktabga tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

Maktabgacha ta'lim - bolalarni maktabga tayyorlash vositasi sifatida emas, aksincha yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy munosabatlarning faol sub'ekti sifatida shakllantirishning muhim bosqichi sifatida belgilanadi.

### Adabiyotlar

1. Қодирова Ф.Р, Тошпўлатова.Ш.Қ, Аъзамова М.Н. “Мактабгача педагогика” Т. Маънавият, 2013.
- 2.Қодирова Ф.Р, Тошпўлатова.Ш.Қ, Аъзамова М.Н. “Мактабгача педагогика” “Тафаккур”. Тошкент – 2019.
- 3.Қиёмов А. Бўлажак педагогларнинг технологик компетентлигини шакллантириш. Касб-хунарга таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал.2020.
- 4.X.G Ulashovna.Improvement of methodological preparation of future educators for the formation of ecological literacy of children. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 3 (ISSN:2308)
5. Ҳошимов Қ, С.Нишонова.Педагогика тарихи. 2-қисм.Дарслик.А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.Т.:2005.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning normativ-huquqiy bazasi yangilandi, moddiy-texnik infrastrukturasi yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarini strategik rivojlantirishning «yo'l xarita»lari ishlab chiqildi, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma fakultetlar, universitet filiallari tashkil etildi va etilmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bo'lajak kadrlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlashda uch yillik ta'lim tizimiga o'tishda Xorijiy mamlakatlar, Janubiy Koreyaning Chungang, Dokson, Ixva, Koreya Milliy universiteti va Koreya pedagogika universitetlari “Maktabgacha ta'lim”yo'nalishlari o'quv rejalari va u yerdagi pedagogik jarayonni tashkil etilishini o'rganib, tahlil qilindi va tahlillar asosida, Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda 5111800-Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi kadrlar tayyorlash o'qish muddati 3-yil bo'lgan o'quv rejasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi 744-son buyrug'i bilan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.

Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son Farmoni hamda “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga muvofiq, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi

shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish lozimligi belgilab berildi. Ularda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek rehabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida aqlli bog'cha, erkin kasb yo'nalishini tanlash xonalari, kasb yo'nalishi xonalarning tarhi, dizayn yechimi, xonalarga o'rnatiladigan elektron axborot tizimlarini keng joriy etish zarurligi alohida ko'rsatib o'tildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ- huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart- sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat xususiy- sherikchiligini rivojlantirish, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish shaffofligini va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimiga boshqaruv kompetensiyalariga ega rahbarlarni jalb etish kabi ustivor vazifalarni belgilab berdi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosati maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini rivojlantirish, mazkur tizimga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirish, tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni to'liq qamrab olish, bolalarni maktabga tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim siyosatining asosiy maqsadi har bir bolaning sifatli va qulay ta'lim olish huquqini amalda ta'minlashdan iborat. Chunki bolalarning jismoniy-intellektual, ma'naviy rivojlanishlarini ta'minlovchi dastlabki shart-sharoitlarni yaratish orqali ularning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishlariga zamin hozirlash mumkin. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni yechish talab etiladi: a) bolalarning maktabgacha ta'lim jarayonida dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun qulay shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlarning davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash; b) maktabgacha ta'limning yangi sifatiga erishish; v) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning salomatligini saqlash va muhofaza qilish, ular uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari ko'lamini kengaytirish kabilar.

Bolalarni jismoniy ruhiy va aqliy kamoloti bilan bog'liq masalalar Sharq pedagogikasining asosiy g'oyasi hamda tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Jumladan, sharq mutafakkirlaridan Abu ali Ibn Sino, Abu nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Amr Temur va boshqqa mutafakkirlarining ilmiy-adabiy merosida bugungi kunda zamonaviy pedgogik tadqiqotlarda o'rganilayotgan bola shaxsini shakllantirish, uning intellektual, ruhiy-jismoniy rivojlanishini baholash bilan bog'liq masalalarning metodologiyasi yoritilgan.

Xususan, Abu Nasr Farobiy bolaning psixik rivojlanishida ota- onaning ruhan va jismonan sog'lomligi ta'siriga bevosita biologik omil nuqtai-nazaridan qarab, ularning oiladagi bolaga



bo'lgan munosabati xarakteri hamda atrofdegilar bilan o'zaro munosabatini bolaning ijtimoiylashuviga, hamkorlik aloqalari tendensiyasining rivojlanishiga, maqsadli faoliyatga kirishishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omil sifatida baholagan. Uning mazkur qarashlarida ota-onaning funksiyalariga e'tibor qaratish lozimligi masalasi ochib berilgan. Farobiyning peedagogik va psixologik ilmiy qarashlari oilada bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Sharqda "Shayx ar rays" nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk olim Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va "Amaliy hikmat" asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid qarashlari o'ziga xoslik shundaki, u o'z asarlarida ota-ona bolaning jismoniy salomatligiga alohida e'tibor berishi lozimligini ilmiy asoslab bergan. Ibn Sino bolani havosi o'rta darajada, issiq va sovuq bo'lmagan uyda uxlatishni, bola uxlatiladigan uy soya va qorong'u bo'lmog'i kerakki, bu uyga quyoshning nuri tushmasligi, bola o'rinda yotganda uning boshi tanasining boshqa bo'laklaridan yuqorida turishi, bolaning yotar o'rni bo'yni qo'l oyoqlarini va umurtqa ustunini qiyshaytirib qo'yishdan saqlash lozimligini ta'kidlaydi[18] U har bir bolaning jismoniy salomatligiga alohida e'tiborli bo'lishi lozimligini ta'kidlarkan, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatidagi ma'suliyatlilik, javobgarlik hissiga alohida urg'u beradi. Ota-onaning bola shaxsini hurmat qilishi, nihol misol bolani qo'pol so'zlarsiz parvarishlash lozimligini, haddan ziyod hayajonlantirish ruhiy nosog'lomlikka olib kelishi, ota-onaning vazifasi va xarakter xususiyatlari, ayniqsa, onaning munosabatlari qanday ko'rinishga ega bo'lishi zarurligi oiladagi psixologik muhit ta'siriga e'tiborni qaratadi.

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yozishicha: "Tarbiyachining diqqati bola xarakterini yaxshilashga, bolaga qattiq g'azab, qo'rquv, munosabatdagi og'ir tabiatlilik begona bo'lishiga, bola nimani xohlashi va nimaga intilishi ko'rinib turishiga hamda uning oldida unga yoqmaydigan narsani qilmaslikka qaratilishi zarur. Buning yordamida ikki yoqlama foydaga erishiladi: birinchidan – bolada uning ilk bolalik davridan boshlab, kuchli ijobiy xarakter shakllanadi; ikkinchidan, bunday rivojlanish bolaning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Axir g'azab kuchli qo'zg'atuvchi bo'lib, og'ir tabiatlilik holdan toydiradi, dangasalik esa hayotiy kuchlarni qisqartiradi". [18]

Ilmiy-pedagogik tahlillardan ko'rinib turibdiki, Sharq mutaffakirlari bola tarbiyasi xaqidagi qarashlarida pedagogik va psixologik jihatdan juda ham muhim fikrlarini aytib o'tishgan, ayniqsa ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatga alohida e'tibor qaratishgan. Mazkur qarashlarda ota-ona ma'suliyati, ularning muomala usuli, bola shaxsi shakllanishida ota-onaning ta'siri va unga munosabati muhim o'rin egallashini aytib o'tishgan.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni murakkab va tizimli jarayon sanalib, uning samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi.

Tadqiqotchi M.A'zamova o'zining ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar orasida hamkorlik muhitini vujudga keltirish – ularning maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirishdagi muhim shart-sharoitlardan biridir deya ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha – deydi tadqiqotchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarni hamkorlikka asoslangan faoliyatga tayyorlash ular uchun qiziqarli va rivojlantiruvchi ish shakli bo'lishi bilan bir qatorda boshlang'ich ta'lim jarayonida ularning murakkabroq o'quv materiallarini birgalikda o'zlashtirishlariga zamin hozirlaydi. Ilmiy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash



quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich sinflarda hamjihatlikda mustaqil ishlashga tayyorlash; bolalarda hamkorlikda mustaqil mehnat qilish madaniyati elementlarini tarkib toptirish; bolalarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirish; bolalarda muayyan sohalariga nisbatan qiziqish va jamiyat a'zolari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishning muhimligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; bolalarda tahliliy tafakkurni tarkib toptirish kabilar

## **TALABALARNI SHAXS SIFATIDA RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI**

Nazarov Javoxirbek Shokirjon o'g'li, Andijon davlat pedagogika instituti,  
tayanch doktoranti

Tel:90 756-07-76 g-mail: nazarovjavoxirbek@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi davorda oliy ta'lim talabalarini shaxs sifatida shakllantirish jarayonida jismoniy madaniyat va sportning ahamiyati va shu orqali sog'lomlashtirish tendensiyalari haqida fikr yuritiladi. Jumladan talabaning shaxs sifatidagi rivojlanishida jismoniy sog'lomligi hamda jismoniy tashqi ko'rinishi eng avvalo inson tanasi gavda a'zolarining ilk holati va uning o'sish rivojlanishi darajasi bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda biologik, fiziologik, biokimyoviy, psixologik, jismoniy tarbiya kabi keng qamroqli tabiiy va maxsus jarayonlarning hosilasi inson organizmidagi miqdor va sifat o'zgarishlari natijasi bilan tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** sog'lomlashtirish, jismoniy madaniyat, sport, zamonaviy ta'lim, talaba, pedagogik me'yorlar, metodika, fan, ta'lim muammolari, intellektual madaniyat, qobiliyat, madaniyat tuzilmasi, funksiyalar.

## **КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ КАК ЛИЧНОСТИ**

Назаров Жавохирбек Шокиржон угли, Андижанский государственный педагогический институт, базовый докторант

Tel:90 756-07-76 g-mail: nazarovjavoxirbek@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение физической культуры и спорта в современном процессе становления студентов высших учебных заведений как личности и тенденции к оздоровлению через них. В частности, дана информация о физическом здоровье и физическом внешнем виде студента в его развитии как личности, прежде всего в связи с ранним состоянием органов тела человека и степенью развития его роста. В качестве альтернативы, производные широкого спектра естественных и специальных процессов, таких как биологическое, физиологическое, биохимическое, психологическое, физическое воспитание, характеризовались результатом количественных и качественных изменений в организме человека.

**Ключевые слова:** оздоровление, физическая культура, спорт, современное образование, ученик, педагогические нормы, методика, наука, проблемы воспитания, интеллектуальная культура, способности, структура культуры, функции.

## CONCEPTUAL FEATURES OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS AS INDIVIDUALS

Nazarov Javoxirbek Shokirjon o'g'li, Andijan State Pedagogical Institute,  
basic doctoral student

Tel:90 756-07-76 g-mail: nazarovjavoxirbek@gmail.com

**Annotation.** *This article examines the importance of physical culture and sports in the modern process of formation of students of higher educational institutions as individuals and the tendency to improve health through them. In particular, information is given about the physical health and physical appearance of the student in his development as a person, primarily in connection with the early state of the organs of the human body and the degree of development of his growth. Alternatively, derivatives of a wide range of natural and special processes, such as biological, physiological, biochemical, psychological, physical education, were characterized by the result of quantitative and qualitative changes in the human body.*

**Key words:** *health improvement, physical culture, sports, modern education, student, pedagogical norms, methodology, science, problems of education, intellectual culture, abilities, cultural structure, functions.*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni [1] da jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan aniq bir dasturlar ishlab chiqish bo'yicha maqsad belgilangan edi. Hozirgi kunda, talabalarni sog'lom turmush tarziga amal qilish borasida aynan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun katta imkoniyatlar yaratilgandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" PF-2909-son Farmoni [2] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031-sonli Qarori [3] da talabalarni sog'lom turmush tarziga rioya qilish jismoniy madaniyat va sport turlari bilan shug'ullanish bo'yicha mazmunan bir tamoyilni aks etgan topshiriqlar belgilab berilgan.

Umuman olganda pedagogik oliy ta'lim muassalarida "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fani va predmeti nisbatan yoshroq maxsus bilimlar sifatida keng tarqalmoqda. Uning paydo bo'lishi va tez rivojlanishida Germaniya, Shveysariya, AQSH, Yaponiya, Shvetsiya, Rossiya olimlarining qiziqishi va hisyasi katta bo'ldi. 1975 yilda sport pedagogikasi bo'yicha Xalqaro qo'mita tuzildi va shu vaqtdan boshlab mana shu ilmiy muammoga qaratilgan masalalar bo'yicha olimlarning doimiy xalqaro kongressi o'tkazib kelinadi. Ko'pchilik G'arbiy Evropa mamlakatlarida, masalan Germaniya va Shveysariyada, sport pedagogikasi bo'yicha institut va kafedralarning yaratilishi uning juda muhimligiga yaqqol misol bo'la oladi. Mana 20 yildan buyon sport pedagogikasi bo'yicha xalqaro jurnal chop etiladi. 1973 yildan esa "Gyumnazion" nemis nashriyotida "Sport pedagogikasi" [4] xalqaro jurnali chop etiladi.

**-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Jismonan va ma'nan yetuk inson bo'lib yetishish g'oyalarining shakllanishida nafaqat G'arbda, balki Sharqda ham o'ylashgan, masalan Zardushtilik ta'limoti va uning muqaddas kitobi "Avesto" da shaxsning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi bo'yicha qimmatli fikrlar talqin etilgan. Jismoniy yetuk va

ma'nan barqaror, komil inson bo'lib shakllanish borasidagi fikrlarni rivojlanishida Imom Buxoriy, At Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir [6].

Jismoniy tarbiya asosida esa insonni jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan komil insonni kamol toptirish, uning qobiliyatlarini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish kabilar yotadi. Demak, jismoniy tarbiyalash yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonni jismoniy imkoniyatlarini rejalashtirishga, uning jismoniy tarbiya sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayondir. Jismon rivojlanish inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi – tashqi ko'rinishini va uning xizmatining o'zgarishi jarayonidir.

Inson hayotning birinchi yetti yilligida bolalar sog'lig'ining asosiga zamin tayyorlanadi, hayotiy zaruriy harakat malakalari shakllanadi, takomillashadi, keyinchalik jismoniy rivojlanish uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Asosan Musataqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari Shelovanova, Aksariynoy, Sorochek, Uvarov, Bikovlar [5] ni tadqiqotlarini natijalari shuni ko'rsatadiki bolaning jismonan chiniqqan, chaqqon, kuchli bo'lib o'sishi uchun o'z vaqtida to'g'ri rejalashtirilgan jismoniy tarbiya jarayoni muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini noto'g'ri baholash bola organizmini rivojlantirishni susaytiribgina qolmay, uni aqliy rivojlanishiga ham salbiy ta'siri ko'rsatishini jismoniy tarbiya amaliyoti isbotlab berdi.

Shaxsni shakllantirish jarayonida sport pedagogikasining ahamiyati. Rivojlanish iborasi eng avvalo inson tanasi gavda a'zolarining ilk holati va uning o'sish rivojlanishi darajasi bilan bog'liqdir. Bu asosan biologik, fiziologik, biokimyoviy, psixologik, jismoniy tarbiya kabi keng qamrovli tabiiy va maxsus jarayonlarning hosilasidir. Rivojlanish - inson organizmidagi miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonidir. Rivojlanish natijasi - insonni biologik tur va ijtimoiy mavjudot sifatida voyaga yetishi. Insondagi biologik tur jismoniy rivojlanish bilan tavsiflanadi, morfologik, bioximik, fiziologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy rivojlanish esa, psixologik, ma'naviy, aqliy rivojlanishda ko'rinadi. Agar inson, uni ongli, mustaqil faoliyatga layoqatli deb atashga imkon beruvchi darajada rivojlasa, uni shaxs deb ataydilar.

**-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonida shaxs bo'lib yetishadi. Shaxs tushunchasi - bu insonning ijtimoiy tavsifnomasi, u ijtimoiy munosabatlar, boshqa odamlar bilan muloqot qilish ta'sirida shakllangan xususiyatlarini ko'rsatadi. Shaxs sifatida inson ijtimoiy tizimda maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan tarbiya yordamida shakllanadi. Shaxs, bir tomondan - ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi orqali, ikkinchi tomondan, - jamiyatga moddiy va ma'naviy boyliklarni berishi orqali aniqlanadi. Shaxs bo'lish uchun, inson faoliyatda va amalda tabiat in'om etgan va hayot hamda tarbiya orqali shakllangan o'z ichki xususiyatlarini ko'rsata olishi lozim. Insonning rivojlanishi - o'ta murakkab, uzoq davom etuvchi va ziddiyatli jarayon.

Bizning organizmimizda butun hayotimiz davomida o'zgarishlar bo'lib turadi, lekin asosan insonning jismoniy va ichki dunyosi bolalik va o'smirlilik chog'larida faol o'zgaradi. Rivojlanish miqdoriy o'zgarishlarning oddiy yig'indisi va pastdan yuqoriga bo'lgan to'g'ri chiziqli harakat emas. Bu jarayonning e'tiborli tomoni - shaxsning jismoniy, psixik va ma'naviy tomonlarini miqdoriy o'zgarishlarga o'tishi. Insonning rivojlanishi tabiiy boshqarib bo'lmaydigan jarayondir,

rivojlanish hayot shart-sharoitlariga bog'liq emas. Hayotga juda sekin ko'nikadigan hayvonlardan farqli ravishda inson yashash uchun kerakli vositalarni o'z mehnati bilan yaratadi. "Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, "bo'linmas", "alohida shaxs", "yagona" ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir [7]. Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv talabalarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Shaxs harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim quyidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi. Kadrlar tayyorlash quyidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Talaba yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va hayot-turmushga layoqatli bo'lib yetishishida barcha fanlar kabi jismoniy tarbiya fani, sport turlari, sayohatlar, xalq milliy o'yinlari muhim o'rin tutadi.

Jismoniy rivojlanish deganda tananing barcha a'zolari sog'lom, harakatlarni ixcham va tez bajarishini tushuniladi. Bu o'z navbatida chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi qator jismoniy sifatlardan tarkib topadi. Ular ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari trenirovka, sport musobaqalariga tayyorgarlik va unda qatnashish yo'llari bilan rivoj topadi. Jismoniy jihatdan rivojlanish, barkamol avlod bo'lib yetishishida inson tanasidagi barcha faoliyatlar funktsiya va ularni tarbiyalash pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Jismoniy rivojlanishning shiddatli keskin davri, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi davrga to'g'ri keladi va butun maktab yoshi davri davomida davom etadi.

Amaliyotda jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari degan iboraga duch kelamiz. Bu inson badanining a'zolarini bichimi o'lchami bo'lib, shug'ullanuvchilarni yoki individning jismoniy rivojlanishi haqidagi antropometrik ma'lumotlar tarzida ro'yxatga olinadi. Jismonan rivojlanishning yo'nalishi, xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o'zida kamol toptiradigan fazilatlari va qobiliyatlari turmush sharoiti va tarbiyaga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jismonan rivojlanish qonunlarini egallash, ulardan o'z jismi tarbiyasi maqsadlarida foydalanish bu jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining muhim vazifasidir. Jamiyatdagi ijtimoiy sharoit jismoniy rivojlanishini hal qiluvchi omilidir. Omillar orasida mehnat bilan tarbiya jarayonining roli, ayniqsa jismoniy tarbiyaning roli muhimdir. Jisman rivojlanishga erishish uchun "jismoniy tarbiya" deb atalmish maxsus yo'naltirilgan va tashkil qilingan faoliyatdan foydalana boshlandi.

Jismoniy tarbiya bu pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.

Pestalotsi bolalarning "vujudini tarbiyalash"ni astoydil yoqlab chiqqan. P.F. Lesgaft jismoniy bilim berishni, jismoniy tarbiyaning kengaytirilgan ma'nosi deb tushuntirgan. Lekin

Lesgaftning jismoniy tarbiya haqidagi ta'limotning asosiy g'oyasi tom ma'nodagi jismoniy ta'lim g'oyasi edi.

P.F. Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolalar ayrim harakatlarni ajratib olishlari va ularni o'zaro taqqoslashni, ularni ongli ravishda boshqarishni va to'siqlarga moslashtirishni, bu to'siqlarni iloji boricha chaqqonlik va qat'iyat bilan o'tishni yengishni, boshqacha qilib aytganda, iloji boricha kamroq vaqt mobaynida oz mehnat sarflangan holda, ongli ravishda eng ko'p jismoniy ish qilishni, yohud ko'rkam va g'ayrat bilan harakat qilishni o'rganishlari kerak, deb hisoblardi. Bu yerda gap, bir tomondan, to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qilish haqida, ikkinchi tomondan, harakatlarni bajarishga ongli munosabatda bo'lish negizida ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatning turli tasavvur hamda mahoratni qaror toptirish haqidagi bormoqda.

Jismoniy tarbiya jarayonida hamisha ham tarbiyaviy, ham ta'limiy elementlarning mavjudligi uni bir butun pedagogik jarayon deb qarashga olib keladi. Qayd qilingan elementlar qo'yilgan vazifaga qarab, har biri alohida ko'rinishda namoyon bo'ladi. A.D. Novikovning ta'kidlashicha jismoniy tarbiya bu abadiy kategoriyadir, shu ma'nodaki tarbiyaning bu yo'nalishi jamiyat paydo bo'lgandan beri mavjud bo'lib, bunday tuzum ham ijtimoiy ishlab chiqarishning va inson hayotining zaruriy shartlaridan biri sifatida davom etaveradi.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu asosan jamiyatda inson jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila olishligi va ayni paytda uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata olishligidadir. Mazkur xususiyat jismoniy tarbiyaning barchaga barobar umumiy qo'llaydigan xususiy belgisidir. Lekin jamiyatning real hayotida konkret tarixiy sharoitlardan tashqarida bo'lgan jismoniy tarbiya umuman yo'q.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada jismoniy tarbiyani amalga oshirishning konkret tarixiy ko'rinishi rivoj topgan. Jismoniy tarbiyada sport tayyorgarligi, organizmning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan, yuqori sport natijasi kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash kriteriyasiga aylanadi va jismoniy tarbiyaga mo'ljal sifatida juda keng ko'lamda qo'llaniladi. Tadqiqotchilar insonning rivojlanishini o'rganib chiqib, bir tomondan rivojlanish jarayoni va uning natijalari o'rtasidagi qonuniy aloqalar, ikkinchi tomondan ularga ta'sir etuvchi sabablarni ifodalovchi qator muhim bog'liqliklarni aniqladilar.

Dastlab Antik davr olimlari tomonidan rivojlanish omillari ilmiy tahlil qilingan. Pedagogika va psixologiyada oliy ta'lim talabalarining rivojlanishini o'rganishda P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, G.S.Kostyuk sezilarli natijalarga erishganlar [8]. Uzoq davom etgan tadqiqotlar umumiy qonuniyatni insonni rivojlanishi ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liqligini ochib beradi. Ichki sharoitlarga organizmning fiziologik va psixik xossalari kiradi. Tashqi sharoitlar bu inson yashayotgan va rivojlanayotgan muhit. Tashqi muhitning o'zaro ta'siri jarayonida insonning ichki dunyosi o'zgaradi, yangi o'zaro munosabatlar shakllanadi, bu esa o'z navbatida o'zgarishlarga olib keladi va bu benihoya davom etaveradi. Tashqi va ichki, ob'ektiv va sub'ektiv munosabat turlicha bo'ladi, u shaxsning hayotiy faoliyatining turli shakllardagi ko'rinishi va rivojlanishining turli bosqichlariga bog'liq.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda talabalarning shaxs sifatida shakllanishida jismoniy madaniyat va sportning ahamiyati aktualigi hech qachon kamaymagan. Shu ma'noda aytish mumkinki talabalarning doimiy ravishda jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanishlari uchun talabalar kampusida zamonaviy mashg'ulot o'tash uskunalari hamda noanaviy sport maydonchalarini tashkil etish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6(766)-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" PF-2909-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 18(778)-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 23(783)-son.
4. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T. Zarqalam. 2004 yil
5. Maksimenko A.M. Pedagogicheskaya praktika studentov po fizicheskomu vospitaniyu v shkole. M. Fizicheskaya kul'tura 2006 god
6. Tursunov U. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma Qo'qon 1992 yil
7. Munavvarov A "Pedagogika" Toshkent, 1996 yil
8. Usmanova A.A. "Sport pedagogikasi" o'q.us.qo'llanma T. 2016 yil.

### HAR XIL DARAJADAGI SHO'RLANISHNING KARTOSHKA VA BATATNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Xo'janiyozova B.X. Buxoro davlat universiteti doktoranti

Ro'ziyev Yu. Samarqand davlat universiteti

Qo'shiyev H.H. Guliston davlat universiteti

*Annotasiya:* NaClning yuqori kontsentrasiyaligi oziqali muhitga ega bo'lgan *in vitro* sharoitda kartoshka va batatning har xil klonlarini o'sish-rivojlanishi o'rganildi. Kartoshka va batatning har xil kontsentrasiyaligi sho'rlanish sharoitida genotipik reaksiya qobiliyatini namayon qilishi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida kartoshkaning sho'rga chidamlilik ko'rsatkichi NaClning 100 mml kontsentrasiyasida, batatning chidamlilik ko'rsatkichi 150 mm ko'rsatkichga ega bo'lgan sho'rlanish sharoitida namayon bo'ldi. Ushbu o'simliklarning sho'rga chidamlilik xususiyatlari poyasining bo'yi, hosil bo'lgan tuganaklar soni kabi belgilariga ko'ra aniqlandi. O'simliklarning bo'yi, yer ustki yashil massasi va tuganaklari soni sho'rlanish kontsentrasiyasining ortishi o'rtasida o'zaro korrelyasion bog'liq mavjudligi qayd etildi.

*Kalit so'zlar:* batat, kartoshka, *in vitro*, oziqali muhit, sho'rlanish, NaCl, chidamlilik, poya, ildiz, tuganak.

### THE EFFECT OF VARIOUS DEGREES OF SALINITY ON THE DEVELOPMENT OF POTATOES AND BATAT

Khujaniyozova B.Kh. Bukhara state university

Ruziyev.Yu. Samarqand state university

Kushiyev.H.H. Guliston state university

*Abstract:* The growth and development of different clones of potato and sweet potato were studied *in vitro* conditions with a nutrient medium with a high concentration of NaCl. It was found that potato

and sweet potato showed genotypic response ability under different concentrations of salinity. During the researches, the salinity tolerance of potato was shown at a concentration of 100 mM of NaCl, and the tolerance of sweet potato at a salinity of 150 mM. The salinity tolerance characteristics of these plants were determined according to the characteristics such as the height of the stem, the number of buds formed. It was noted that there is a correlation between the height of the plants, the above-ground green mass and the number of nodules with the increase in salinity concentration.

**Key words:** sweet potato, potato, *in vitro*, nutrient medium, salinity, NaCl, resistance, stem, root, tuber.

## ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ЗАСОЛЕНИЯ НА РАЗВИТИЕ КАРТОФЕЛЯ И БАТАТА

Хўжаниёзова Б.Х. Бухарский государственный университет

Рўзиев Ю. Самаркандский  
государственный университет  
Қўшиев Ҳ.Ҳ. Гулистанский  
государственный университет

**Аннотация:** Рост и развитие различных клонов картофеля и батата изучали в условиях *in vitro* на питательной среде с высокой концентрацией NaCl. Установлено, что картофель и батат проявляют способность к генотипической реакции при различных концентрациях засоления. В ходе исследований была показана солеустойчивость картофеля при концентрации NaCl 100 мМ, а батата – при солёности 150 мМ. Характеристики солеустойчивости этих растений определяли по таким характеристикам, как высота стебля, количество образующихся клубеньков. Отмечено, что существует корреляция между высотой растений, надземной зеленой массой и количеством клубеньков с увеличением концентрации засоления

**Ключевые слова:** батат, картофель, *in vitro*, питательная среда, засоленность, NaCl, устойчивость, стебель, корень, клубень.

### Kirish

Ma'lumki, tuproqning sho'rланish darajasini ortib borishi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Tuproq sho'rланish darajasining ortishi o'simliklarni o'sish-rivojlanishi bilan bog'liq deyarli barcha biokimyoviy va fiziologik jarayonlarga salbiy ta'sir etadi [1]. Bunda o'simlikni o'sish-rivojlanishini faollashtiruvchi gormonlarning hosil bo'lishi izdan chiqib, gormonlarning ildizdan bargga tomon uzatilishi kamayadi [2] hamda fermentlarning faollik darajasi susayadi [3].

Sho'rланish darajasining ortib borishi bilan giperosmotik bosim yuzaga kelib, membrananing shikastlanishiga ham sabab bo'ladi [4]. Tuproqda tuz kontsentratsiyasi ortishi o'simliklarda oksidlanish jarayonini tezlashishiga olib kelishi mumkin. Bunda molekulyar kislorodning reaksiya darajasi ortadi: asosan, xloroplast va mitoxondriyada kislorod superoksid radikali (O<sub>2</sub><sup>-</sup>), vodorod peroksid (H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>), va gidroksil radikali (OH<sup>-</sup>) ko'rinishida yuqori faollik darajasiga erishadi [5]. Faol kislorod membrana lipidlari hamda oqsil, pigment va nuklein kislotalarni oksidlab metabolitik jarayonlarni izdan chiqaradi [6].



Sho'rlanish darajasining ortishi bilan bog'liq holda oksidlanish jarayonining tezlashishiga qarshi himoya vositasi yuzaga keladi [3]. Oksidlanish natijasida esa to'qima nobud bo'lishi yoki oksidlanish jarayonining ayrim qoldiqlari qolishi mumkin [7]. Ushbu oksidlanish qoldiqlari modda almashinuvi jarayonida ishtirok etuvchi fermentlar faolligini ingibirlashi yoki denaturasiya jarayonini tezlashtirishi natijasida o'simlikni nobud bo'lishiga olib keladi.

Ushbu ishda kartoshka va batat hujayralari va to'qimalaridan in vitro sharoitida kallus to'qimasini olish va vegetativ ko'paytirish orqali ekstremal sharoitlarga chidamli ko'chatlarini olish texnologiyalarini yaratish vazifasi qo'yilgan.

Buning uchun o'simliklarni turli muhitda, jumladan, In vitro sharoitida o'rganish asosida o'sish va rivojlanishini idora etishning samarali imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Bu o'simliklarni ko'pgina tashqi stress omillardan himoya qilish mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Bu bilan bog'liq holda amalga oshirilgan ishlar ko'pgina tadqiqotlar natijalarida o'z aksini topgan [8-11]. Ayrim tadqiqotlarda fiziologik faol moddalarni o'simliklarning barcha rivojlanish bosqichlaridagi ta'sir etish xususiyatlari va ularning o'simlik vegetativ tanalarini hosil bo'lishiga ta'sirini o'rganishda dastlabki ma'lumotlar olingan. Lekin ushbu jarayonlarning biologik xususiyatlari va ayniqsa, o'simliklarning tashqi omillarga chidamliligida ular tanasida hosil bo'ladigan fiziologik faol moddalar va ularning morfologik belgilarini shakllanishiga ta'sir etishi to'liq ochib berilmagan.

In vitro sharoitda kartoshka va batatning sho'rga chidamli kallus to'qimasini olish va vegetativ tanalariga har sho'rlanish darajasiga ega bo'lgan stress omillar ta'sirini o'rganish asosida o'simliklarning chidamli formalarini yaratishdan iboratdir.

Kartoshkachilikda yuqori hosil yetishtirish uchun o'simliklarni hayot omillaridan yorug'lik, issiqlik, havo, suv va ozuqa moddalar bilan maqbul darajada ta'minlash va ekinlarning yaxshi o'sishi uchun ilg'or texnologiyani joriy qilishni taqazo qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tadqiqotlar davomida kartoshkaning biotexnologik kolleksiyalari: S-46 (*Solanum tuberosum* L. x *Solanum tuberosum* L.), S-73 (*Solanum tuberosum* L. x *Solanum andigena*), S-55 (*Solanum andigena* x *Solanum tuberosum* L.) va S-17 (LR 93.221 x C 93.154) liniyalari, Batatning GulDU-2, Mirzacho'l, Sirdaryo navlarining biotexnologik vegetativ tanalaridan foydalanildi.

Kallusogenez va morfogenez jarayonlarining induktsiyasi uchun eksplantlar sifatida o'sish regulyatorlarisiz bo'lgan muhitda etishtirilgan Sarnav, Sante va qayroqi navlaridagi kartoshkaning sterillangan o'simliklari poyasining o'rtacha qismi segmentlaridan va barg plastinkasi segmentlaridan foydalandik.

Ishda o'simliklarning ajratib olingan alohida hujayralari, to'qimalari organlarini o'stirish usullari qo'llanildi.

Kallusogenez va morfogenez jarayonlarini inisiasiya qilish uchun kartoshkaning biotexnologik kolleksiyasidan olingan sterillangan o'simliklarning barg plastinkasi segmentlaridan, poya segmentlaridan va adventiv kurtaklaridan foydalanildi.

O'stirish uchun tarkibi tegishli tuzlar, 3%li saxaroza, 100 mg/ml mioinozitol, 100 mg/l kazein gidrolizatidan iborat bo'lgan Murasige va Skugning oziqali muhitdan foydalanildi.

Kallusogenez va morfogenez jarayonlarining induktsiyasi uchun o'sish regulyatorlari sifatida oziqa tarkibini kinetin, 6-benzilaminopurin (BAP), zeatin, zeatin-ribozid,  $\alpha$ -nafitiluksus

kislotalari (NUK)larning 0,1 dan to 1,0 mg/l gacha, gibberellinning 0,1 dan to 100 mg/l konsentrasiyalardan iborat o'sish regulyatorlari bilan boyitildi.

Kallus hosil qilish jarayoni, morfogenez jarayonlari, o'simliklarni eksplantlaridan to'g'ridan-to'g'ri regenerasiya qilish jarayonlarining induksiyasi uchun yuqorida ko'rsatilgan gormonlarning turlicha nisbatlaridan foydalanildi.

O'stirish bosqichlarida harorat 18-200S ni, yoritilganlik darajasi - 1500-2000 lk ni, fotodavr - 16/8 (kun/tun)ni tashkil etdi.

Tajribalar davomida sterilizatsiya uchun tanlangan preparatlar eritmaları hamda o'simlik eksplantlari sterillangandan so'ng tanlangan usullar asosida oziqalar tayyorlandi yoki tayyor oziqalardan foydalanildi. Sterillash uchun tanlangan preparatlardan tajriba usullarida qayd etilgan tartibda foydalanildi. Shuningdek, preparatalarning har xil konsentrasiyalari distillangan suvda tayyorlandi.

### **Sho'rlanish darajalarining o'simliklarga ta'sirini o'rganish**

Genotiplarni NaClning har xil yuqori konsentrasiyasiga ta'sirchanlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida vegetativ tanalarni makro - va mikrotuzli Murasige va Skug metodi yordamida tayyorlangan oziqali muhitga ekdik [12]. Oziqali muhitda saxaroza - 4%, innozitol - 100 mg/l, gidrolizat kazein - 100 mg/l ni tashkil etdi. Oziqali muhitga regulyator sifatida kinetin - 0,01 mg/l va adenin - 10 mg/l qo'shdik. Namunalarni sho'rga chidamlilik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida oziqali muhitga 20, 50, 100, 150, 200, 250 va 300 mm NaCl qo'shdik.

O'stirish sharoiti: fotoperiod 16:8, yorug'lik 2000 lk, harorat 20-230sni tashkil etdi. O'simtalarni NaCl li tuzli konsentrasiyalarga ta'sirchanligi o'simliklarning bo'yi, tuganaklarning hosil bo'lishi va ildiz uzunligi kabi parametrlari asosida aniqlandi. Tegishli parametrlar o'simtalarning rivojlanishining 28-chi kunida olindi. Tajribalarning har bir variantida 50 ta kartoshka, 50 ta batat eksplantalarini 3 qaytariq asosida oldik.

### **Tadqiqod metodologiyasi**

Qishloq xo'jaligida etishtirilayotgan o'simliklarning hosildorligi va ularning sifat ko'rsatkichlari tuproq tarkibidan qanchalik miqdorda oziq moddalarni o'zlashtirishi bilan bog'liqdir. Ammo ko'pchilik hollarda o'simliklar tuproq tarkibidan tuzlarning ta'sirida kerakli oziq moddalar va elementlarni o'zlashtira olmasligi oqibatida oziqaviy qiymatini belgilovchi tabiiy moddalar hosil bo'lmay qoladi. Bu holat kartoshka va batatning ham tanasida kerakli organik moddalarning shakllana olmasligi tufayli turli xil ekstremal sharoitlarga chidamsizligini va mahsulotning ekologik jihatdan talabga javob bermaslik holatlarini kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar va olingan natijalar barcha o'rganilgan genotiplar o'rtacha sho'rlanishli oziqali muhitda fitogormonlarning ta'siriga turlicha javob berishi kuzatildi (1-jadval). Bunda fitogormonlar nihollarning o'sishi va rivojlanishi, vegetativ tanalarining hosil bo'lishi hamda hosil belgilarining shakllanishida alohida ahamiyatga egadir.

#### **1-jadval.**

Turli o'sish regulyatorlarining genotip va eksplantga bog'langan holda kallusogenez jarayonini induksiya qilinishiga ta'siri

(o'stirishning 28-kuni)



Ўстириш учун муҳитнинг гормонал таркиби	Генотип					
	Сарнав		Санте		Қайчибарг	
	Эксплант		Эксплант		Эксплант	
	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти
Кин – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез
Кин – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	-	-	-	-
БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез
БАП – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез
БАП – 1,0 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	-	-	-	-	-
БАП – 1,0 мг/л НУК – 0,2 мг/л	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-
Зеатин – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	-	-	-	-	-
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,5 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез

1-jadvalning davomi (o‘stirishning 34-kunigacha)

Ўстириш учун муҳитнинг гормонал таркиби	Генотип					
	ГулДУ-2		Мирзаҷўл		Сирдарё	
	Эксплант		Эксплант		Эксплант	
	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти
Кин – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	-	-	-	-	-
Кин – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л	Каллусо-генез		Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-
БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л						
БАП – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л	Каллусо-генез		Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	
БАП – 1,0 мг/л НУК – 0,1 мг/л	Каллусо-генез		Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-
БАП – 1,0 мг/л НУК – 0,2 мг/л	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-	Каллусо-генез	-
Зеатин – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	-	-	-	-	-
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л	-	-	-	-	-	-

**Tahlil va natijalar.** 1-chi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, tarkibida kinetin bo'lgan muhitda kallusogenezning rivojlanishi faqat kartoshkaning Sarnav navi uchun xarakterli. Kallusogenez jarayonini induksiya qilish uchun o'z tarkibiga NUK bilan birikmadagi bapni kiritgan, hamda zeatin va NUK bilan birikmadagi bapni kiritgan muhitlar eng maqbul ekanligi aniqlandi. Bu muhitlarda barcha genotiplarda va eksplantlarning barcha turlarida kallusogenez jarayonini induksiya qilishga erishildi. Biroq, kallus to'qimasining tuzilmasi bo'yicha, hamda bu jarayon induktsiyasining intensivligi bo'yicha zeatin – 0,1 mg/l, BAP – 0,1 mg/l va NUK – 0,5 mg/l tarkibdagi birikma eng optimal ekanligi aniqlandi. Bunda, Nukning yuqori kontsentratsiyasi bu jarayonning intensivligini shartlab berishi ma'lum bo'ldi.

Batatning barcha navlari uchun esa kallusogenez poyasi uchun xos bo'lib, bunda NUK-1,0 mg/l va kin-0,1 mg/l bo'lgan holda, BAP-0,2 mg/l va NUK-1,0 mg/l bo'lganda, BAP-1,0 mg/l va NUK-0,1 mg/l o'z ko'rsatkichida, BAP-1,0 mg/l va NUK-0,2 mg/l bo'lganda batat posi to'qimasidan olingan hujayralarning kallusogenezi kuzatildi (1-jadval).

Tajribaning ushbu bosqichida barcha hollarda batatning poya qismidan kallusogenez olish imkoni bo'ldi. Zeatin qo'shilgan variantda esa kallusogenez olinmadi. Batatning barg qismidan kallusogenez olinmadi.

Tajribaning keyingi qismida kartoshka kallus to'qimasida morfogenez va somatik embriogenez jarayonlarini induksiya qilish uchun shart-sharoitlar (gormonal tarkib) optimallashtirildi. Buning uchun o'sha tarkibdagi muhitlardan gibberellin bilan birikmada foydalanildi (2-jadval).

2-jadval

O'rtacha sho'rlanishli oziqali muhitda turli o'sish regulyatorlarining kartoshkaning somatik embriogenez jarayonini induksiya qilinishiga ta'siri (o'stirishning 28- kuni)

Ўстириш учун мухитнинг гормонал таркиби	Генотип					
	Сарнав		Санте		Қайроқи	
	Эксплант		Эксплант		Эксплант	
	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти	Поя сегменти	Барг сегменти
БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л ГиБ. – 0,1 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез
БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л ГиБ. – 0,5 мг/л	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з
БАП – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л ГиБ. – 0,1 мг/л	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда
БАП – 0,2 мг/л НУК – 1,0 мг/л ГиБ. – 0,5 мг/л	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л ГиБ. – 0,5 мг/л	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда
Зеатин – 0,1 мг/л	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з	Сомат. емб-з

БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л Гиб. – 0,1 мг/л						
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,1 мг/л Гиб. – 0,5 мг/л	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда	Новда
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,5 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез
Зеатин – 0,1 мг/л БАП – 0,1 мг/л НУК – 0,5 мг/л Гиб. – 0,5 мг/л	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез	Каллусо-генез

2-jadvalda taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, kartoshkaning kallus to'qimasida somatik embriogenez jarayonini induksiya qilish o'z tarkibiga BAP – 0,1 mg/l, NUK – 0,1 mg/l va gib. – 0,5 mg/l qo'shildi. Biroq gormonlar birikmasining bunday varianti faqat poya segmentlaridan induksiya qilingan kallus to'qimasi uchun yaroqli bo'lib, barg plastinkasi segmentlaridan induksiya qilingan kallus to'qimasida fitogormonlarning bunday birikmasida somatik embriogenez jarayonini induksiya qila olmadik.

Eksplantlarning ikkala turida ham somatik embriogenez jarayonining induktsiyasini shartlab beradigan gormonlar birikmasi zeatin – 0,1 mg/l, BAP – 0,1 mg/l, NUK – 0,1 mg/l va gib. – 0,1 mg/l ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu holda somatik embriogenez jarayoni barcha genotiplar uchun eksplantlarning ikkala turidan inisiasiya qilingan kallus to'qimasida induksiya qilingan edi. Bu hollarda keyingi o'stirish paytida regenerantlarni hosil qilishga erishildi.

Shuningdek, ta'kidlash kerakki, o'stirish uchun muhitda gibberellin miqdorini ko'paytirilishi kallus to'qimasidagi morfogenetik jarayonlarni novda shakllanishi tomoniga qarab siljishga olib keladi. Novda shakllanishi jarayonining induktsiyasi uchun BAP, NUK va gibberellin hamda zeatin – 0,1 mg/l, BAP – 0,1 mg/l, NUK – 0,1 mg/l, Gibb. – 0,5 mg/l birikmalarini qo'shilishi samarali bo'ldi.

Yana shu narsa muhim ahamiyatga molikki, kallusogenez jarayonining dastlabki induktsiyasiga, keyin esa kallus to'qimasidagi morfogenez jarayonlarining induktsiyasiga yo'naltirilgan usullarga qiyoslaganda, ancha qisqaroq vaqtni egallaydi. Shu bilan bog'liq holda, tajribaning keyingi qismida in vitro kartoshka o'simliklarining poya segmentlaridan va barg plastinkasidan to'g'ridan-to'g'ri regenerasiyasining sharoitlari optimallashtirildi.

Ma'lumki, kartoshkaning *Solanum tuberosum* L. turiga mansub navlarining NaCl ning har xil kontsentrasiyasiga nisbatan ta'sirchanlik ko'satkichlarini aniqlashda NaCl ning kontsentrasiyasi 15 dan to 30 mm ko'rsatkichni tashkil etishi maqsadga muvofiq [12]. Adabiyotlar ma'lumotlari asosida shuni qayd etish mumkinki, batat uchun sho'rlanish kontsentrasiyalari uchun ta'sirchanlik chegaralari aniqlanilmagan. Shuning uchun batatning sho'rlanish ta'sirchanligini aniqlash maqsadida NaCl ning 20 dan to 200 mm kontsentrasiyaga ega bo'lgan diapazoni olindi. O'simliklarning NaCl ning har xil kontsentrasiyasiga ta'sir reaksiyalari

fenotipik belgilarida namayon bo'ladi. Bunday fenotipik belgilar poya uzunligida va ildiz sistemasini hosil bo'lish ko'rsatkichlarida aniqlangan. O'simliklarning fenotipik belgilariga NaCl ta'sirchanlik ko'rsatkichlari olib borilgan tadqiqotlar davomida kartoshka va batatning nav va liniyalari namunalarida aniqlanildi (3 jadval).

### 3 jadval

#### In vitro sharoitida kartoshka va batatning poyasi uzunligiga (sm) NaCl ning ta'siri

№№	Тур/гибрид/клон	Назорат	20mM NaCl	50mM NaCl	100mM NaCl	150mM NaCl	200mM NaCl
Картошка клонлари							
	С-17	3,58	3,57	3,34	2,00	1,5	Некроз
	С-46	2,55	2,53	1,79	1,40	некроз	Некроз
	С-55	2,30	2,22	1,80	0,70	некроз	Некроз
	С-73	3,35	3,32	3,20	1,70	1,1	Некроз
Батат liniyalari							
	ГулДУ-2	4,6	4,5	4,1	3,8	2,5	1,6
	Мирзачўл	4,8	4,8	4,6	4,1	2,8	1,9
	Сирдарё	5,5	5,3	4,8	2,8	1,0	Некроз

Jadvaldagi ma'lumotlardan ma'lumki, NaCl ning 20 mm kontsentrasiyadagi ko'rsatkichi ta'sirida kartoshka va batatning ta'sirchanlik holati sezilmadi, fenotipik belgilarida o'zgaruvchanlik holati kuzatilmadi. Ya'ni nazoratdagi ko'rsatkichlar bilan deyarli bir xil natijalarni namayon qildi. NaCl ning oziqa muhitdagi kontsentrasiyasi ortib borishi bilan nihollarning sezuvchanlik reaksiyasi ham ortib bordi. Kartoshka nihollari poyasining ingibirlanish ko'rsatkichi NaCl ning 50mmli kontsentrasiyasida, batatning poyasining rivojlanishini keskin ingibirlanishi 150 mmli kontsentrasiyada kuzatildi. Lekin qayd etilgan kontsentrasiyada nihollarning ingibirlanish ko'rsatkichlarining yuqori darajada bo'lishi nihollarning hamma tiplarida emas, balki ayrim namunalarida kuzatildi. NaCl ning 50 mmli kontsentrasiyasida kartoshkaning S-17 va S-73 klonlari, batatning barcha namunalarida esa o'zgaruvchanlik kuzatilmadi. Lekin NaClning 100mmli kontsentrasiyasida kartoshkaning barcha klonlari va batat liniyalarining ta'sirchanligi kuzatildi. NaClning ushbu kontsentrasiyasida S-17 va S-73 klonlaridagi ta'sirchanlik farq qildi, batatning GulDU-2 va Mirzacho'l navlarida o'zgaruvchanlik deyarli yuqori ko'rsatkichda bo'lmadi. NaCl ning 150 mmli kontsentrasiyasida kartoshkaning S-46 va S-55 klonlarida nekroz kuzatilib, S-17 va S-73 raqamli klonlarining rivojlanishida keskin ingibirlanish kuzatildi. Bu kontsentrasiyada batatning V-3 liniyasi kuchli ingibirlanish kuzatildi.

NaCl ning kontsentrasiya ko'rsatkichi 100 mm bo'lganda kartoshkaning barcha klonlari rivojlanishida keskin susayish kuzatilib, rivojlanishida ingibirlanish holati kuzatildi va bu holat kartoshka klonlari o'simtalarining nobud bo'lish darajasiga ham olib keldi. Lekin NaCl ning 100 mm li kontsentrasiyasida batat namunalarining rivojlanishida biroz ingibirlanish kuzatilib, ayrim namunalarining rivojlanishida esa sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. NaCl ning 150 mm li kontsentrasiyasida kartoshka klonlari to'liq ingibirlanib nobud bo'lish holati kuzatildi, batat namunalarining o'simtalarida esa keskin susayish holati kuzatilib, tuzning ta'siri Sirdaryo va GulDU-2 navlarida aniq kuzatildi.

Demak, olib borilgan tadqiqot natijalari asosida shuni qayd etish mumkinki, NaCl ning kontsentrasiyasining ortishi tajribalarga jalb qilingan barcha regenerantlarning yashil biomassasi va ildiz tizimining rivojlanishiga ta'sir qilar ekan. O'rganilgan namunalarning chidamlilik ko'rsatkichlari esa nav va turlarning genotipiga bog'liq ekanki, bunda sho'rga chidamlilik ko'rsatkichlariga ko'ra chidamli formalarni tanlash yoki seleksiya jarayoniga jalb etish mumkin.

#### **Xulosa**

1. Tajribalar davomida qo'llanilgan metodlar asosida olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, har xil genotiplar sho'rlanish darajasiga har xil ta'sirchanlik ko'rsatkichlarini namayon qiladi. Sho'rlanishning yuqori kontsentrasiyali sharoitida kartoshkaning S-17 va S-73 klonlari, batatning GulDU-2 va Mirzacho'l navlari yuqori chidamlilik ko'rsatkichlariga ega ekanligi aniqlandi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, xlor ionlari miqdorining ortib borishi kartoshka va batatga nisbatan yuqori ta'sirchanlikka ega ekan.

2. NaCl ning 100 mm kontsentrasiyaga ega bo'lgan muhitda kartoshkaning S-17 liniyai va Sante navi, 150 mmli kontsentrasiyada batatning GulDU-2 va Mirzacho'l navlari chidamlilik xususiyatlarini namayon etdi.

NaCl ning 150 mmli kontsentrasiyasiga ega bo'lgan muhitda kartoshkaning S-17 va L-4 klonlarigina mikrotuganaklar hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Demak, tajribalar shuni ko'rsatdiki, NaCl ning kontsentrasiyasi ortib borishi tugunak hosil bo'lish jarayoniga salbiy ta'sir etar ekan.

4. Kartoshka va batatni in vitro sharoitda sho'rga chidamli formalarni olish uchun oziqali muhit tarkibi aniqlandi.

#### **Adabiyotlar**

1. Iqbal, M., Ashraf, M., Jamil, A., Rehman, S., 2006. Does seed priming induce changes in the levels of some endogenous plant hormones in hexaploid wheat plants under salt stress? *Journal of Integrative Plant Biology* 48, 181–189. 44.
2. Azooz, M.M., Shaddad, M.A., Abdel-Latef, A.A., 2004. The accumulation and compartmentation of proline in relation to salt tolerance of three sorghum cultivars. *Indian Journal of Plant Physiology* 9, 1–8. 45.
3. Jaleel, C.A., Gopi, R., Manivannan, P., Panneerselvam, R., 2007a. Responses of antioxidant defense system of *Catharanthus roseus* (L.). To paclobutrazol treatment under salinity. *Acta Physiologiae Plantarum* 29, 205–209. 46.
4. Hasegawa, P.M., Bressan, R.A., Zhu, J.K., Bohnert, H.J., 2000. Plant cellular and molecular responses to high salinity. *Annual Review of Plant Physiology and Plant Molecular Biology* 51, 463–499. 47.
5. Mittler, R., 2002. Oxidative stress, antioxidants and stress tolerance. *Trends in Plant Science* 7, 405–410. 48.
6. Misra, N., Gupta, A.K., 2006. Effect of salinity and different nitrogen sources on the activity of antioxidant enzymes and indole alkaloid content in *Catharanthus roseus* seedlings. *Journal of Plant Physiology* 163, 11–18. 49.
7. Jaleel, C.A., Gopi, R., Manivannan, P., Panneerselvam, R., 2007b. Antioxidative potentials as a protective mechanism in *Catharanthus roseus* (L.) *Turkish Journal of Botany* 31, 245–251. 50.
8. Буриев Х.Ч., Зуев В.И., Остонокулов Т.Е. и др. Картофелеводство Узбекистана. Т.: 2004, 60 с.

9. Горботенко Л.Е. Виды картофеля Южной Америки (экология, география, интродукция, систематика, селекционная значимость). Санкт Петербург, ВИП, 2006, 456 с.
10. Остоноқулов Т.Е. Селекция ва уруғчилик асослари. Т.: Истиқлол, 2002. 254 б.
11. Симаков Е.А. Актуальные направления совершенствования семеноводства картофеля в Российской Федерации // Совершенствование технологии возделывания картофеля; Сбор. Матер. – Пенза, 2000. – С.27.
12. Қўшиев Ҳ.Ҳ., Исмоилова К., Алмаматов Б. Глицирризин кислота тузларининг картошка, батат ва топинамбур навларининг унвчанлигига таъсирини ўрганиш //ФарДУ ахборотномаси 2015. №1. Б.6-11.
13. Sh, Sabirova Mamura, Khujanazarova Barno Kh, and Kushiev Khabibjon Kh. THE INFLUENCE OF PHYSIOLOGICALLY ACTIVE COMPOUNDS ON GROWTH AND DEVELOPMENT POTATOES (SOLANUM TUBEROSUM L.) IN THE CONDITIONS IN VITRO." *Universum: химия и биология* 8-2 (110) (2023): 4-8.

## TA'LIM JARAYONIDA ONLINE SMART TEXNOLOGIYALARDA FOYDALANISH

Qurbanov H.X.

TAQU, "Raqamli texnologiyalari" kafedrası katta o'qituvchisi

[qhamid\\_83@mail.ru](mailto:qhamid_83@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Kompyuter imkoniyatlarining juda tez rivojlanishi barcha sohalarda AKTdan keng foydalanilishiga olib kelmoqda. Jumladan, ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda O'zbekiston respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5544 sonli Farmonida O'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va SMART-texnologiyalami joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifalari belgilab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *smart – ta'lim, elektron ta'lim, smart elektron ta'lim, smart texnologiya.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНЛАЙН SMART ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Курбанов Х.Х.

ТАСУ, старший преподаватель кафедры цифровые технологии,

[qhamid\\_83@mail.ru](mailto:qhamid_83@mail.ru)

**Аннотация:** *Очень быстрое развитие компьютерных возможностей приводит к широкому использованию ИКТ во всех областях. В частности, в целях совершенствования системы образования и развития человеческого капитала Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПФ-5544 об утверждении программ Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы. Определены задачи дальнейшего повышения качества обучения в образовательных учреждениях путем внедрения современных педагогических технологий и SMART-технологий (организация электронных модулей и внедрение дистанционного обучения).*

**Ключевые слова:** *smart образование, электронное обучение, smart электронное обучение, smart технологии.*





## USE OF ONLINE SMART TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Kurbanov Kh.X.

TUACE, senior lecturer of the department of digital technologies

[qhamid\\_83@mail.ru](mailto:qhamid_83@mail.ru)

***Annotatsiya:** The very rapid development of computer capabilities is leading to the widespread use of ICT in all fields. In particular, in order to improve the education system and human capital development, by Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5544 on the approval of programs for the Innovative Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2019-2021. The tasks of further improving the quality of education in educational institutions through the introduction of modern pedagogical technologies and SMART technologies (organization of electronic modules and implementation of distance learning) have been identified.*

**Keywords:** smart education, e-learning, smart e-learning, smart technologies.

### Kirish

Zamonaviy insonning kundalik hamrohiga aylanib borayotgan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida smart ta'lim asta-sekin an'anaviy elektron ta'lim bilan o'rin almashmoqda. Smart ta'lim kontseptsiyasi hozirda bir qator tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, ularning ko'pchiligida bir xil talqin qilinmaydi. Smart ta'lim mavzusidagi nashrlar bir necha yil oldin paydo bo'lgan va ular ta'lim rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini qayd etib, tizimdagi keyingi o'zgarishlar uchun futurologik prognozlarini yaratadi [1]. Smart ta'limning tashkiliy, texnologik va pedagogik kabi uchta muhim jihati mavjud bo'lib, ular "aqilli" ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi.

### Tadqiqot ishining metod va materiallari

Smart-ta'lim ko'p miqdordagi manbalar, multimedaning (audio, video, grafik) maksimal xilma - xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi [2]. Bu mutlaqo yangi ta'lim muhiti bo'lib, unda ta'lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta'lim muassasalari tarmog'i o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi hamda umumiy tarkibdan foydalaniladi. Bu turdagi ta'limning o'ziga xos xususiyati - yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya'ni "hamma joyda" ta'lim olish imkoniyatidir [3].

Z.K.Bekturova va N. N. Vagapovalarning fikriga ko'ra smart ta'lim muhitini yaratish uchun bir qator muhim omillar zarur hisoblanadi. Ular jumlasiga: yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion usullar orqali o'rganish; texnologiyalarning yaqinlashuvi, ta'lim sharoitlarini optimallashtirish; individual o'quv maqsadlariga, mavjud bilim va ko'nikmalarga, ijtimoiy muhitga avtomatik moslashish kabilar kiradi [3]. O'quvchilar uchun smart-muhit har bir o'quvchi uchun individual ta'lim muhiti, amaliy yo'nalish, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda mustaqillik - ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi barcha omillar; uzluksiz ta'limning smart, fanlararo, talabalarga yo'naltirilgan ta'lim tizimlari (maktab, oliy o'quv yurti, korporativ o'qitish); moslashtirilgan o'quv dasturlari, portfolio; hamkorlikda o'qitish texnologiyalari; ko'p miqdordagi odatiy funksiyalarni avtomatlashtirish; amaliyotchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish kabilar orqali ifodalanishi mumkin.

SMART - (aqlli, aql-idrokli, texnologik) qisqartma soʻzini dastlab 1954-yili Avstriyadan chiqqan amerikalik olim, iqtisodchi, publitsist, pedagog, XX asr menejment nazariyachilaridan biri Piter Ferdinand Druker (19.11.1909- 11.11.2005 y.y.) kiritgan. Soʻngra 1965-yili Paul J. Meyer, 1981-yilda esa George T. Doran oʻz ilmiy ishlarida qoʻllaganlar.

Maqsadlarni qoʻyishning smart - texnologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

**S - specific** — aniq: har bir maqsad uchun, uning aniq ifodasi shunday tavsiflanishi kerakki, u hammaga aniq va tushunarli tarzda tarqalsin, yaʼni ovoza boʻlsin, aks holda qoʻyilgan maqsad



yetarlicha xohish darajasiga chiqmaydi.

**M - measurable** — oʻlchovli: Maqsad shunday ifodalanishi lozimki, unga erishish darajasini oʻlchash mumkin boʻlsin. Aks holda maqsadni nazardan chiqarishimiz mumkin.

**A - attainable** - erishiladigan: doim belgilangan maqsadga erishish imkoniyati boʻlishi lozim. Asosiy tamoyil: -eʼtiroz bilan, lekin erishiluvchan kabi boʻlsin.

**R - relevant, resours - muvofiq, resurs (natijaga yoʻnaltirilgan):** maqsad ifodasi ijobiy oʻzgarishlarga erishish uchun boshlangʻich nuqtaga ega boʻlishi lozim. Maqsad ifodasiga, uni bajarishga yetarlicha xohish (istak) boʻlmagan xodimlarni kiritish maqsadga muvofiq emas.

**T - time based - vaqt boʻyicha chegaralar:** har bir maqsad shunday aniq vaqtinchalik chegaralarga ega boʻlishi kerakki, belgilangan muddatlarni oʻlchash mumkin boʻlsin.

#### **Tahlil va natijalar:**

Matematika fani oʻqituvchisi tayyorlash xususida SMART texnologiyasini koʻradigan boʻlsak, kimdir kelajakda matematika fani oʻqituvchisi boʻlib ishlashi uchun shu haqidagi bilimlarni oʻrganishga xohish bildiradi. Uning uchun maqsadni quyidagicha qoʻyish mumkin:

**S - Odam oʻzining maqsadini - matematika fani oʻqituvchisi uchun kerak boʻladigan barcha bilimlarni oʻrganishni aniq ifodalaydi. U bir oʻzi ishlashi, bu jarayon qanday qiyinchiliklar bilan bogʻliqligini va nimadan ishni boshlash kerakligini, bu malaka yaxshi ishga joylashishga imkoniyat berishini ham biladi.**

**M - Matematika fani haqidagi bilimlarni qanday oʻlchash kerak? Bunday holda OTMda har bir fan uchun kreditlar ajratilganligi, oxirida yigʻilib maʼlum kriteriyalar asosida oʻlchov diplomi olishi mumkin.**

**A - Bunday maqsadga erishish mumkinmi? Ha. Odamda koʻplab boʻsh vaqtda internetga kirish, kurslarda oʻqish va mos mablagʻ topish imkoniyatlari mavjud.**

**R - Ushbu masalani hal etishdan foyda bormi? Ha. Oliy maʼlumot mavjudligidan foyda chiqarish mumkin.**

T - Mashg'ulotlarni qo'yib yubormasligi uchun odam aniq vaqt chegaralarini qo'yishi mumkin, masalan 3 yil. Matematika fani haqidagi zarur bilim va malakalarga ega bo'lish uchun shu vaqt yetarli.

Smart ta'limning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni olish mumkin.

1. Ta'lim muammolarini hal qilish uchun ta'lim dasturida tegishli ma'lumotlardan foydalanish. Ta'limda axborot oqimining tezligi va hajmlari hamda har qanday kasbiy faoliyatda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Talabalarni amaliy mashg'ulotlarni o'tishga, haqiqiy vaqt sharoitida ishlashga tayyorlash uchun namunalari va modellardan foydalanmasdan mavjud o'quv materiallarini haqiqiy vaqtda uzatilayotgan materiallar bilan to'ldirish lozim.

2. Talabalarining o'zini - o'zi anglash, ilmiy tadqiqot, loyihalash ishlarini tashkil etishda foydalanish. Ushbu tamoyil kasbiy masalalarni yechish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyor bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash asosidir.

3. Taqsimlangan o'quv muhitida o'quv jarayonini amalga oshirish. O'quv muhitini universitet hududi yoki masofali o'qitish tizimi chegaralari bilan cheklanmaydi. O'quv jarayoni uzluksiz bo'lishi kerak, jumladan, kasbiy faoliyat vositalaridan foydalanib, kasbiy muhitda o'qitishni o'ziga olishi kerak.

4. Talabalarining kasbiy jamoa bilan o'zaro aloqasi. Kasbiy muhit nafaqat mutaxassislarini tayyorlash uchun mijozlar, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. AKT talabalarga kasbiy jamoalar ishida ishtirok etish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratib beradi va mutaxassislar tomonidan muammolarni hal etishni kuzatishga imkoniyatlar beradi.

5. Ta'lim egiluvchan traektoriyalari, ta'limni yakka lashtirish. Ta'lim tizimiga ishlayotgan fuqarolarni jalb etish, kasbiy faoliyat turlarini tez-tez almashish, texnologiyalarni jadal rivojlanishi hisobiga ta'lim sohasi sezilarli darajada kengaymoqda. Universitetlarga kelayotgan talabalar, odatda o'zlarining ta'limdagi ehtiyojlarini yaxshi anglaydilar va ifodalaydilar.

6. Oliy ta'lim muassasasining vazifasi - talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos holda ta'lim xizmatlarini ta'minlashdan iboratdir.

"SMART" – bu atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladigan tizim yoki jarayonning xossasidir va tizim va yoki jarayonga:

- tashqi muhitdagi o'zgarishga tez javob berish;
- o'zgarish qilinayotgan shartlarga moslashish;
- mustaqil rivojlanish va o'zini-o'zi nazorat qilish;
- natijaga samarali erishishga imkoniyat beradi.

"SMART"ning tayanch xossasi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir etish va unga moslashish qobiliyatidir. Uning ushbu xususiyati mustaqil qiymatga ega va shahar, universitet, ta'lim, texnologiya, jamiyat va ko'pgina boshqa kategoriyalarga qo'llanilishi mumkin.

Smart-ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasi o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi samaradorlikka erishish uchun sharoit yaratishdir. Ta'lim texnologiyalarining bu turini qo'llash kompleks yondashuvni talab qiladi. Smart-ta'lim kontseptsiyasining rivojlanishi dunyodagi yangi texnologik paradigma rivojlanishiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda, xususan, davom etayotgan pandemiya sharoitida dunyo miqyosida elektron va smart-ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga talab keskin ortdi. Deyarli barcha mamlakatlar ta'lim jarayonini asosan axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishi natijasida, oxirgi 3 yillik muddat ichida O'zbekistonda ham bu texnologiya avvalgi yillarga qaraganda misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Ta'lim oluvchilarning aksar qismini tashkil qiluvchi maktab

o'quvchilari ham elektron o'qitish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar. Ta'lim texnologiyasining mazkur turi dunyoning istalgan nuqtasidan turib masofaviy ishlay olish imkoniyati bilan boshqalaridan yaqqol ustunlik qilmoqda. Bunda o'quvchi qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, kompyuter va internet ta'minoti bilan ta'lim jarayonida ishtirok eta oladi. O'rganish nafaqat sinfda, balki boshqa har qanday joyda: jamoat transportlari, saylgoh yoki kafe kabi jamoat joylarida ham mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonini bog'laydigan asosiy element - bu faol ta'lim mazmuni, uning asosida vaqt va makon ramkalarini olib tashlash imkonini beradigan yagona omborlar yaratishdir. O'qitishning yangi - smart texnologiyalari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi. U insoniyatga beqiyos imkoniyatlarni hadya etib, zamon va makon chegaralarini olib tashladi. Smart texnologiyalardan unumli foydalanish nafaqat maktab o'quvchilari, talabalar, katta yoshli o'rganuvchilar, balki kasbiy malaka oshiruvchilarni ham yangi bilimlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi kerak, shunda ular jahon hamjamiyatida muvaffaqiyatli muloqot qila oladilar, barcha talabalarni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga faol jalb qiladilar.[4]

SMART-texnologiyalar bilan ishlashda o'qituvchi (tyutor)ning ta'lim jarayonining tashkilotchisi va koordinatori sifatidagi roli ayniqsa ortadi, u o'quv jarayonini har bir talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ko'proq moslashuvchan yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lumki, kommunikativ metod ta'lim jarayonini muloqot jarayonining modeli sifatida tashkil qilishni nazarda tutadi. O'qituvchi bilan talabalarining birgalikdagi faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bu faoliyatning qanday darajada tashkil qilinishi bilan bog'lik. Bunda, bizningcha, mustaqil ish birinchi o'rinda turadi. O'qituvchilar oldida talabada ta'lim olishga eng katta motivatsiyani ta'minlaydigan o'quv faoliyatini tashkil qilish muammosi turadi.[5] Guruhli yoki jamoaviy topshiriqlarni bajarishda talabalar diqqatlarini fikr-mulohazaning shakliga emas, mazmuniga qaratadilar. Bunda birgalikdagi faoliyatning yangi axborotni bilish va mustahkamlash, uni baholash, muammoli topshiriqlarni birgalikda muhokama qilish, turli nuqtai nazarlarni qiyoslash, bahs-munozarada ishtirok etishdan iborat maqsadi ahamiyatga ega bo'ladi. Interfaol topshiriqlarni bajarishda talabalar nutqiy harakatlarning massiv ijrochisi bo'lmasdan, ijodiy yondoshish va mustaqillikni namoyon qiladilar. Ta'limning interfaol shakllari aynan shunday vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu masofadan muloqotni real jonli muloqotga eng ko'p yaqinlashtirgan holda bir-birini ko'rish va eshitish, ma'lumotlarni almashish va ularga interfaol rejimda birgalikda ishlov berish imkonini beruvchi texnologiyadir.

Xulosa sifatida Smart ta'lim - bu yangi ta'lim tizimining asosini tashkil etadigan shunday ta'lim paradigmasi bo'lib, u aqlli axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini mos ravishda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Smart ta'lim paradigmasini amalga oshirilishi o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muhit bilan egiluvchan va moslanuvchan ta'sir o'tkazish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetentlikni olish uchun o'qitish va ta'lim jarayonini shakllantirishga qaratilganligini belgilash maqsadga muvofiqdir. Ushbu komponentalarga Smart ta'lim o'lchovlari deb nom berilgan. Smart ta'lim o'lchovlari qatoriga: texnologik, tashkiliy, pedagogik kabi uchta o'lchovni kiritish mumkin.

Shakllanayotgan Smart - ta'lim tizimi o'zining universalligi bilan:

- kunduzgi tizimda - talabalarining mustaqil ishlarini sifatli va samarali tashkil etishda;
- masofali o'qitishda - ishlayotgan talabalarga bilim berishda;
- mutaxassislarning malakalarini oshirishda;

-aholining umumiy norasmiy ta'lim tizimida muvaffaqiyatli foydalanilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyot:**

1. Днепровская Н.В., Янковская Е.А., Шевцова И.В. Понятийные основы концепции смарт-образования. Открытое образование, 6 (2015)
2. Дмитриевская Н.А. Смарт образование. Режим доступа: <http://www.myshared.ru/slide/72152>
3. Бектурова З.К., Вагапова Н.Н., Филиал АО «НЦПК «Өрлеу» ИПК ПР по г. Астане, г. Астана 3 (2015)
4. Тихомиров В.П., Днепровская Н.В. Смарт-образование как основная парадигма развития информационного общества.
5. Makhmudova D.M. Electronic educational resources as a new component of a traditional educational process // Academia Open Vol 1 No 1 (2019): June Education <https://press.umsida.ac.id/index.php/acopen/article/view/12/15>.

### **BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

Botirova Zebo Hakimjon Kizi

PhD ,

“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası,

Namangan davlat universiteti,

Uychi ko'ch., Namangan, O'zbekiston

E-mail: [ziziko\\_90@mail.ru](mailto:ziziko_90@mail.ru)

*Annotatsiya.* Davlatlar insoniyatning global muammolarini hal qilish uchun madaniyatlar, mintaqalar va qit'alar o'rtasida konstruktiv muloqotga kirishadi. Shu munosabat bilan chet tili o'qituvchilarini tayyorlashning umumiy madaniy, madaniyatlarning va filologik darajasiga jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar ko'p marotaba ortib bormoqda, ularni kasbiy tayyorlash uslublarini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kompetensiya o'rtasidagi o'zro farqlar va bog'liqlik yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kompetentlik, ta'lim tizimi, o'qitish, o'quvchi

### **DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS BASED ON DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES**

Botirova Zebo Hakimjon Kizi

PhD ,

“English language and literature” department,

Namangan State University, Uychi str., Namangan, Uzbekistan

Email: [ziziko\\_90@mail.ru](mailto:ziziko_90@mail.ru)

*Abstract.* States engage in constructive dialogue between cultures, regions and continents to solve global human problems. In this regard, the demands placed by the society on the general cultural, intercultural and philological level of training foreign language teachers are increasing many times, there is a need to improve the methods of their professional training. In this article, the teacher's professional competence and competence The differences and connections between the two are highlighted.



*Key words: competence, competence, educational system, teaching, student*

## РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ботирова Зебо Хакимжон кизи

PhD,

кафедра «Английского языка и литературы»,

Наманганский государственный университет,

ул. Уйчи, Наманган, Узбекистан

Электронная почта: [ziziko\\_90@mail.ru](mailto:ziziko_90@mail.ru)

*Абстракт.* Государства участвуют в конструктивном диалоге между культурами, регионами и континентами для решения глобальных человеческих проблем. В связи с этим многократно возрастают требования, предъявляемые обществом к общекультурному, межкультурному и филологическому уровню подготовки учителей иностранного языка, возникает необходимость в совершенствовании методов их профессиональной подготовки. В данной статье профессиональная компетентность и компетентность педагога выделены различия и связи между ними.

*Ключевые слова:* компетентность, компетентность, система образования, обучение, студент.

*Introduction:* Ta'lim tizimini rivojlantirishning o'rni va mohiyatini aniqlashning yangi tendentsiyalari, jumladan, til ta'limi global xarakterga ega bo'lib, nafaqat Evropa mamlakatlarida, balki butun dunyo hamjamiyatida mos keladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy rol o'qituvchiga tegishli bo'lganligi sababli, bugungi kunda malaka oshirish va o'z-o'zini takomillashtirish har bir o'qituvchi uchun asosiy ustuvor vazifaga aylanadi. Ta'limning kelajakdagi rivojlanishi ta'lim mazmuni va ta'lim texnologiyalariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan emas, balki o'qituvchilarning kasbiy malakasi darajasini oshirish bilan bog'liq. Xorijiy olimlarning psixologik-pedagogik tadqiqotlarida so'nggi paytlarda zamonaviy ishlab chiqarishning istalgan sohasida professional malakali xodimni shakllantirish muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Amerika ijtimoiy fanlari tomonidan ishlab chiqilgan va mehnat dunyosida tobora ko'proq e'tiborni tortayotgan "vakolatli ishchi" modeli alohida ta'kidlaydiki, individual psixologik fazilatlar spektrining bir qismi mustaqillik, intizom, muloqot qobiliyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish zarurati hisoblanadi. G'arbiy Evropa kompetentsiya modellari quyidagi fazilatlarga jamlangan: murakkab muammolarni hal qilish yo'llarini mustaqil ravishda topish qobiliyati; yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash; shaxsning ijobiy qiyofasi; uyg'un muloqot qobiliyati, jamoada o'zini tutish qobiliyati. Qo'shma Shtatlardagi akademik kollejlarda o'zlarining yo'nalishini yuqori ixtisoslashtirilgan (funktional) mutaxassislar tayyorlashdan boshqa barchaga bo'ysunadigan asosiy maqsad sifatida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga o'zgartirdilar. Amerikalik o'qituvchining ishbilarmonlik hayoti madaniyatini baholashning ko'plab mezonlari orasida kompetentsiya (eng samarali ishlash usulini bilish, minimal vaqt sarflash) muhim o'rinni egallaydi.

Psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasi nisbatan keng tarqalgan. Shunday qilib, 1960-yillarning oxiri - 1970-yillarning boshlarida. g'arbda va 1980-yillarning oxirida. adabiyotda alohida yo'nalish - ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv yo'nalishi paydo bo'ldi. Uslubiy fan rivojlanishining o'sha davrida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining aniq ta'rifi mavjud emas edi. Bu borada turli olimlar o'z farazlarini ilgari surdilar.

Shotlandiya olimi Jon Raven o'zining ilmiy ishlarining katta qismini kompetentsiyani o'rganishga bag'ishlagan. U kompetentsiyani ma'lum bir mavzu bo'yicha muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat sifatida belgilaydi va yuqori ixtisoslashgan bilimlarni, o'ziga xos mavzu ko'nikmalarini, fikrlash usullarini, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi nafaqat kompetentsiyaning batafsil ta'rifini beradi, balki ushbu tushunchaning mohiyati haqida o'z fikrlarini bayon qiladi, kompetensiya turlarini ajratadi va ularni tasniflaydi. U 39 turdagi kompetensiyalarni aniqlaydi, ularni "motivatsiyalangan qobiliyatlar" bilan belgilaydi. J. Raven tomonidan aniqlangan turlarga quyidagilar kiradi: qobiliyat, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilish, tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlik, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik, birgalikda ishlash qobiliyati, shaxsiy javobgarlik va boshqalar [Raven, 2002]. Ushbu ish butun dunyo tadqiqotchilariga kompetensiya tushunchasi va turlarini aniqlash muammosi ustida faol ishlashga turtki bo'ldi. 1990 yilda N.V.ning asarlari paydo bo'ldi. Kuzmina va L.A. Petrovskaya kompetentsiyani "shaxsiy mulk" sifatida belgilaydi. Bu vaqtda L.P. kompetensiya muammosini ishlab chiqdi. Alekseeva, A.K. Markova, L.M. Mitina. Olimlar faoliyatidagi kompetensiya tushunchasi kasbiy mahorat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Bu davrda kompetensiya tushunchasi va uning turlarini aniqlash muammosi bilan bir qatorda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtasidagi munosabat haqida savol tug'ildi. Olimlarning tadqiqotlarida "kompetentlik" tushunchasi bilan bir qatorda turli manbalarda o'zgaruvchan tavsifga ega bo'lgan "kompetensiya" tushunchasi ham qo'llaniladi. Ta'lim muhitida "kompetentlik" va "kompetentlik" atamaları tobora keng tarqalmoqda. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish (A.G.Bermus, V.A.Bolotov, V.N.Vvedenskiy, I.A.Zimnyaya, O.E.Lebedev, N.V.Kuzmina, G.K.Selevko, A.V.Xutorskoy va boshqalar) pedagogik amaliyotda bu tushunchalardan anchagina foydalaniladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. tez-tez, lekin hozirda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining aniq talqini yo'q. Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan toifalar o'rtasidagi munosabatlar, ularning tasnifi va tuzilmalari haqida olimlar turli xil fikrlarga ega. Pedagogika fanida ikki yo'nalish paydo bo'ldi - ko'rib chiqilayotgan tushunchalarni sinonimlashtirish va farqlash. Birinchi yo'nalishga mansub tadqiqotchilar (V.A.Bolotov, V.S.Lednev, M.V.Ryjakov, V.V.Serikov va boshqalar) kompetensiyalarni amaliy yo'naltirishga alohida e'tibor berib, bu tushunchalarni aniqlaydilar. Ikkinchi yo'nalish vakillari (I.A.Zimnyaya, O.M.Mutovskaya, A.V.Xutorskoy, S.E. Shishov va boshqalar) tubdan kompetentsiyani asosiy toifa sifatida belgilab, ushbu tushunchalarni farqlash. I.A. Zimnyaya kompetentsiyani ba'zi bir ichki, potentsial, yashirin bilimlar, g'oyalar, qadriyatlar tizimi sifatida tushunadi, keyinchalik ular shaxsning kompetensiyasida namoyon bo'ladi. A.V. Xutorskoy kompetentsiyani "talabning ma'lum bir sohada yuqori sifatli samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan o'quv tayyorgarligi uchun ijtimoiy talab (me'yor)" deb hisoblaydi. Uning nuqtai nazari bo'yicha kompetentlik "tegishli kompetensiyaga ega bo'lish, ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sohadagi faoliyati tajribasi bilan belgilanadigan talabning

shaxsiy fazilatlar yig'indisi" (Xutorskoy, 2007: 110). Muallif kompetentlikni o'zaro bog'liq bo'lgan shaxsiy fazilatlar (bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, qiymat va semantik yo'nalishlar) yig'indisi va ulardan ma'lum bir faoliyatda foydalanishga tayyorlik, kompetentlikning faoliyat asoslariga e'tibor qaratadi. A.V bilan birga. Xutorskiy, kompetentlikni vaziyat-faollik kategoriyasi sifatida A.G. Bermus, G.K. Selevko, O.M. Mutovkina, S.E. Shishov va boshqalar. Bu olimlarning fikricha, kompetensiya faqat bilimlar, qobiliyatlar, malakalar va shaxsiy fazilatlar yig'indisi emas, balki ularni muayyan vaziyatda qo'llash qobiliyatidir. Bu "insonning faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatining o'lchovidir" [Selevko, 2006: 21].

Zamonaviy olimlar juda ko'p turli xil tadqiqotlar o'tkazdilar, ammo kompetentsiya va kompetentlik tushunchalarini aniqlash muammosi hali ham hal qilinmagan. V.S. Bezrukova, S.M. Vishnyakova, V. Shepel kognitiv va operatsion komponentlarga alohida e'tibor berib, kasbiy faoliyat kontekstida kompetentlik tushunchasini ko'rib chiqadi.

"Kompetensiya" va "kompetentlilik" toifalarini talqin qilishda noaniqlik bilan bir qatorda, kasbiy kompetentsiya tushunchasini aniqlash masalasi ochiqlicha qolmoqda.

Tadqiqotchilar S.B. Elkanov, V.G. Juravlev, V.M. Myndikanu, L.I. Novikov kompetentsiyani o'qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo'lgan kasbiy mahorat bosqichlaridan biri sifatida izohlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, kasbiy mahoratning namoyon bo'lish darajasini belgilovchi shart va omillar ijtimoiy va kasbiy yo'naltirilganlik, pedagogik qobiliyat, fikrlash madaniyati va temperamentdir.

E.M.Vereshchagin, V.G. Kostomarov, A.K. Markovanning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentsiyani o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, qobiliyat, ko'nikma va psixologik fazilatlar tizimini egallash darajasi deb hisoblash kerak. V.A. Slastenin yozadi: "O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi. U o'qituvchining kasbiy malakasini darajali yondashuv nuqtai nazaridan - shaxsning turli darajadagi pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida ko'rib chiqadi [Slastenin, 2000]. Ta'rifga ko'ra N.V. Kuzminaning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbi - bu "shaxsning mavjudligining manbai o'z mutaxassisligi vositalaridan (xorijiy til, fizika, matematika, geometriya, adabiyot va boshqalar) boshqa shaxsning shaxsiyatini shakllantirish san'atini egallashdan iborat bo'lgan faoliyat turi. )" Uning ta'kidlashicha, pedagogik faoliyatning professionalligi o'qituvchining o'quvchilarning hozirgi tarkibida o'quv jarayoniga ajratilgan vaqt ichida o'z fanining vositalaridan foydalangan holda keyingi tizimdagi muammolarni samarali hal qilishga tayyorligini shakllantirish san'atini egallashidir. [Kuzmina, 1976].

Pedagogik kommunikativ kompetentsiya o'qituvchining shaxsiy insonparvarlik qadriyatiga asoslangan holda o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida talabalarga qaratilgan kasbiy, pedagogik va shaxslararo muloqot holatlari, S.G. Trofimova fikriga asosan bo'lajak chet tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi natijasidir. "O'qituvchining kognitiv, xulq-atvor va hissiy darajalarda pedagogik kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishi, umuman olganda, ta'lim jarayonida ular bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir qilish orqali o'quvchilarni yuqori darajada tayyorlash, axloqiy tarbiyalash va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi". Trofimova, 2012: 78].

V.A. Mizherikov va M.N. Ermolenko "o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi" atamasini qo'llaydi va uni "o'qituvchining, o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlari, unga o'zi yoki ta'lim



muassasasi ma'muriyati tomonidan shakllantirilgan pedagogik muammolarni mustaqil va etarli darajada samarali hal qilish imkonini beradi" [Mijerikov, Ermolenko. , 1999: 134].

S.V Meleshina tadqiqotlarida. kasbiy kompetentsiyani "shaxsning ma'lum bir faoliyat sohasida harakat qilish va o'quv vazifalarining turli sinflarini modellashtirish va hal qilish, shuningdek, ularni hal qilish samaradorligini bashorat qilish qobiliyati va tayyorligi" sifatida taqdim etadi (Meleshina, 1996:8 ).

A.N. Zaxarova, V.V. Sokolova, V.M. Sokolovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetensiya deganda "rivojlanayotgan shaxsni sotsializatsiya qilish uchun amaliy muammolarni samarali hal qilish qobiliyati, qadriyat yo'nalishlarini, tabiatga yo'naltirilganlikni rivojlantirish orqali shaxsning jamiyatga faol integratsiyalashuvi uchun ichki sharoitlarni ta'minlash" ni tushunish maqsadga muvofiqdir. , jamiyat, odamlarning ma'naviy tajribasi, o'z-o'zidan, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish faoliyati ijtimoiy ma'qul yoki hech bo'lmaganda maqbul o'zini o'zi amalga oshirish" [Zaxarova, Sokolova, Sokolov, 1996: 54].

"Chet tili o'qituvchisi professionagrammasi" birinchi bo'lib chet tili o'qituvchisining shaxsiga, uning bilimi, kasbiy mahorati va qobiliyatiga qo'yiladigan talablar tizimini shakllantirdi.

Mualliflar chet tili o'qituvchisi tomonidan asosiy pedagogik funktsiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydigan professional pedagogik mahoratni aniqladilar.

I. Maqsadni belgilovchi pedagogik funktsiyalar:

1) Axborotga yo'naltirilgan funktsiya lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlarni uzatish maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq.

2) Motivatsion-rag'batlantiruvchi funktsiya o'qituvchi tomonidan talabning bilim va nutq faolligini rag'batlantirish vositalarini topishni o'z ichiga oladi.

3) Rivojlantiruvchi funktsiya o'quv predmetining imkoniyatlari va xususiyatlarini, har bir o'quvchining tayyorgarlik darajalari va o'rganish qobiliyatini hisobga olgan holda o'quvchi shaxsini, uning kognitiv kuchli va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

4) tarbiyaviy funktsiya o'quvchilarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashni o'z ichiga oladi; ularning axloqiy va estetik tarbiyasi; talabning ijtimoiy va hayotiy pozitsiyasini belgilaydigan qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish.

II. Operatsion va tarkibiy funktsiyalari:

1) Konstruktiv-rejalashtirish funktsiyasi loyihalash faoliyatining uchta asosiy turini o'z ichiga oladi: a) konstruktiv-substantiv; b) konstruktiv va operativ; v) konstruktiv va moddiy.

2) Tashkiliy funktsiya o'qituvchining konstruktiv rejalashtirish faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, tashkilotchilik qobiliyatini o'z ichiga oladi.

3) Kommunikativ-tarbiyaviy funktsiya shundan iboratki, o'qituvchi o'quvchilarning chet tilini amaliy o'zlashtirish maqsadida ta'lim jarayonini kommunikativ-nutq asosida qurishni ta'minlashi kerak.

4) Tadqiqot funktsiyasi alohida talabalar, talabalar guruhlar va sinf guruhlarini o'rganishda, materialni o'rganishda va uslubiy qo'llanmalar, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tahlil qilish va tushunishda, boshqa o'qituvchilar tajribasini o'rganishda.

Bo'lajak o'qituvchini yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlash, "Professiogramma" mualliflarining fikriga ko'ra, o'quv fanlarining barcha sikllari orqali amalga oshirilishi kerak: ijtimoiy, psixologik-pedagogik, lingvistik, psixologik-uslubiy. Ular talabalarni o'zlari tanlagan kasbni egallashlari uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlarning ma'lum bir tuzilmasi

va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantirishlari kerak [Shatilov, Salomatov, Rabunskiy, 1977: 8].

O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish ko'rsatkichi N.D. Galskova, o'qituvchining mahorati, "bu bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilim va ko'nikmalar, o'qituvchining pedagogik tajribasi, uning ijodiy va shaxsiy fazilatlaridan iborat" [Galskova, 2000: 92].

N.D. Galskova chet tili o'qituvchisi ega bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi kasbiy bilimlarni aniqlaydi:

- til tizimlari va asosiy lingvistik va lingvodidaktik kategoriyalari, shuningdek, o'rganilayotgan til mamlakati madaniyati, uning tarixi, zamonaviy rivojlanish muammolari;
- jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida umumiy ta'lim konsepsiyasining asosiy qoidalari, davlat umumta'lim siyosati, shu jumladan chet tilida;
- har bir o'ziga xos rivojlanish "davrida" o'quvchi shaxsining psixologiyasi, ta'lim sharoitida chet tilini o'zlashtirish qonuniyatlari;
- jamiyat va fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablar, uning kasbiy mahorat darajasi va shaxsiy fazilatlarini;
Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda talabalarning ko'pchiligi uchun asosiy va dolzarb ma'lumot manbai Internet-resurslardir. Bu aniq, chunki ta'limni raqamlashtirish axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Internet - bu istalgan vaqtda turli xil kerakli ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi mobil qurilma. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda ishtirok etgan talabalarning aksariyati o'qitish uchun Internet saytlari va ta'lim platformalarini kuzatib borishadi, bu ham raqamli asr va hozirgi zamon uchun tabiiydir. Hozirgi vaqtda ta'lim tashkilotlarini keyinchalik Internetga kirish bilan yagona raqamli tarmoqqa ulash odatiy holdir. Bu nafaqat qulay, balki dolzarb va zamonaviy. Bu, shuningdek, kerakli ma'lumotlar oqimini olish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.X.Maxmudov. Zamonaviy ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Scientific Library of Uzbekistan National University of Uzbekistan. [www.ares.uz/](http://www.ares.uz/) 235-237 b ].

2. Zakirova F.M., Hamraeva G.R. Kasb ta'lim yo'nalishi talabalarini raqamli kompetentligini multimediali loyiha asosida rivojlantirish. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVRYeMYeNNOYe OBRAZOVANIYe 2021, 3 (100). 32-38 b ]

3. Bond M., Marin V.I., Dolch C., Bedenlier S., Zavacki-Rixter O. Are students getting used to learning technology? Changing media usage patterns of traditional and non-traditional students in higher education. C Dolch, O Zawacki-Richter - Research in Learning Technology, 2018].

4. Budantsev DV. Digitalization in the field of education: A review of Russian scientific publications. Young Scientist. 2020;27(317):120-127.].

## OILADA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ortiqova Nodira Mamajonovna

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tadqiqotchisi

E-mail: @gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilalarning gender munosabatlarini ijobiy barqarorlashtirish usullari, ish turlari va tarbiya vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlash va amaliyotga ijtimoiy-pedagogik majmualarning joriy etish masalalari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** “Gender tenglik strategiyasi”, gender tenglik, gender tarbiya, ijtimoiylashuv, balogʻat yoshi, gender madaniyat, xotin-qizlar, teng ulush.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассмотрены методы позитивной стабилизации гендерных отношений в семьях, определены педагогические условия использования видов работы и средств воспитания, рассмотрены вопросы внедрения в практику социально-педагогических комплексов.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, “Стратегия гендерного равенства”, гендерное воспитание, социализация, половое созревание, гендерная культура, женщины, равная доля.

**Annotation:** This article covers in detail the methods of positive stabilization of gender relations of families, the definition of types of work and pedagogical conditions for the use of educational tools, the issues of introduction of socio-pedagogical complexes into practice.

**Key words:** gender equality, “Gender equality strategy”, gender education, socialization, puberty, gender culture, women, equal share.

### Kirish

Gender - (inglizcha gender - jins) – erkak va ayollarning sub’ektiv hamda xulq-atvor belgilari to’g’risidagi g’oyalar yig’indisi. Ayrim olingan mazkur xususiyatlar ayollik va erkaklikni belgilaydi. Avvalgisi, kundalik hayotda nafis tuyg’u, hissiy ta’sirchanlik, bo’ysunuvchanlik bilan, keyingisi – do’q-po’pisaga moyillik, logik tafakkur qilish iqtidori va o’zini ustun, baland tutishlik sezimlariga daxldor. Odatda, erkaklik va ayollik, ya’ni gender farqlari kishilarning o’z jinsiga oid vazifalarini amalga oshirishda yuz ko’rsatadi. Gender madaniyati bu – madaniyat hayotimizning ko’p qirralarini qamrab oladi. U jins bilan bog’liq xatti-harakatlarga ta’sir qiladi shaxsiyat va ijtimoiy munosabatlar, shuning uchun jins madaniyatning ajralmas qismi.

“Madaniyat” tushunchasi (lot. Kultura dan - yetishtirish, tarbiyalash, ta’lim, rivojlanish, hurmat) deyarli barcha tillarda mavjud va turli vaziyatlarda, ko’pincha har xil holatlarda qo’llaniladi. Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng hamda insoniyat tarixining murakkab, ko’p qirrali hodisasini aks ettiradi. Mutaxassislarning fikricha hozirgi kunda madaniyatning 500 dan ortiq ta’riflari mavjud. Ba’zilarining fikricha, bu raqam mingga yaqinlashmoqda.

Gender madaniyati ijtimoiy xo’jalik sifatida madaniyatning asosiy elementlaridan biridir. O’z navbatida, ushbu konsepsiya o’zi murakkab, kundalik, iqtisodiy, tarixiy va boshqa ko’plab jihatlardir. Ko’rinib turibdiki, gender madaniyati rivojlanishining asosiy predmeti gender

sotsializatsiyasi jarayoni maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin bo'lgan institut sifatida ta'lim tizimidir.

Hozirgi rivojlangan ilm-fan yutuqlariga suyanan holda jarrohlik orqali jinsni o'zgartirish mumkin, ammo jinsiy psixologiyani bir holatdan boshqasiga almashtirish ancha murakkab, kerak bo'lsa imkonsiz. Boz ustiga, o'g'il va qiz orqasidagi tafovutlar nafaqat tug'ma, balki ijtimoiy mohiyat kasb etishi ham isbotini topdi. Ayni sababdan jinsiy aloqani ijtimoiy-ruhiy voqelik o'laroq taqdim etish uchun "gender" terminidan qo'llash qabul qilindi.

### **Adabiyotlar tahlili**

N.I.Andreyeva gender madaniyatiga quyidagi ta'rifni beradi: gender madaniyati - bu ma'lum bir jamiyatda faoliyat yuritadigan qarashlar, tamoyillar, xulq-atvor matritsalarini va boshqalar tizimidir, bu jinsning ijtimoiy-madaniy jihatlarini (gender rollari, gender munosabatlari, gender stereotiplari, oila va nikohga munosabat va boshqalar) tashkil etadi). Nazariy jihatdan, gender madaniyatining "ideal modeli" - ma'lum bir jamiyatda faoliyat yuritadigan jinsning ijtimoiy-madaniy jihatlarini belgilaydigan g'oyalar, nazariyalar, me'yorlar va qoidalarning uyg'unligi. Gender munosabatlar madaniyati degan favqulodda noyob g'oyaning tug'ilishi jamiyatdagi uchta bosh yo'nalishning bosqichma-bosqich rivojidan darak beradi: erkaklar, ayollar va androgin.

Erkak - jamiyatda va hamjinslar bilan o'zaro munosabatda erkakning dominantlik roli;

Ayollik - ayol prinsipining ustunligi (matriarxat).

Androgin - mushtaraklik, bir-birini to'ldiruvchi gender aloqalar, moslashuvchanlik, hamkorlik, o'zaro hurmat.

Oqibatda, yangi tarmoq vujudga keldi - ilmiy bilimlarning fanlararo yo'nalishiga aylangan gender izlanishlari. Har xil fanlarning tutashgan yerida gender tadqiqotlariga ko'ra yangi yo'nalishlar yuzaga keldi:

- gender antropologiyasi,
- gender psixologiyasi,
- gender iqtisodiyoti,
- gender tarixi,
- gender tilshunosligi va boshqalar.

Oilada genderning mohiyati, ichki va tashqi ta'sirlari, milliy belgilari borasida bilim berish va gender madaniyatni o'stirish yuzasidan qo'limizdagi maxsus kursning ta'lim rejasiga kiritilgani O'zbekiston Respublikasida gender tengligini qo'lga kiritish va yoshlar orasida gender muhitni ijobiylashtirish bo'yicha davlat siyosatini yurgizishning maqbul yo'llaridan biri deyish mumkin.

Ustozlar orasida yoxud ta'lim tizimi vakillari ichida olib borilgan so'rovnoma so'rovlari natijasida ma'lum bo'ldiki, gender masalasi pedagoglarga yangi va anchayin mavhum mavzudir. Bugungi kunda gender bilan belgilanadigan o'ziga xos ijtimoiy funksiyalarni yetarli darajada tushungan holda kelgusida ayol va erkaklar shaxsiyatini barkamollashtirishga ulush qo'shadimi yo'q, singari so'rovga qoniqarli javob berish qiyin.

Oilada yoshlar tarbiyasida tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy qilishga doir ishlarda ancha chigalliklar, qiyinchiliklarni boshdan o'tkazayotgani pedagoglar o'rtasida olib borilgan so'rovnoma ma'lumotlarini tahlil qilishda ochiq-oydin ayon bo'ldi. Ular farzandlarning gender o'ziga xoslik, ularning gender tengligi borasidagi kerakli bilimlarni o'zlashtirish darajasini deyarli ko'zda tutmaydilar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Jinslararo gender tenglikni ta'minlashning asosiy jihatlari mavjud bo'lib, ularni qo'yidagicha tasnif etish mumkin:

1-jadval

T/p	Asosiy jihatlar
1.	Ota-onalarning dunyoga kelishni kutayotgan farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo'lish.
2.	Dunyoga kelgan o'g'il yoki qiz tarbiyasiga jinslarga xos strategik munosabat.
3.	Har ikkala jins farzandlar rivojlanishi uchun bir xil sharoit va imkoniyat yaratish
4.	Ta'lim olish, mehnat taqsimoti, kasb egallash, dam olish, oilaviy munosabatlarda qaror qabul qilishda teng imkoniyatlar berish
5.	Reproduktiv va jinsiy sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda bir xil yondashish
6.	Ayol va erkakning yutuqlari, orzu-istaklarini yagona maqsad sari birlashtirish
7.	Turli tazyiq va zo'ravonliklar ya'ni, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy, tibbiy zo'ravonliklar gender tenglik bo'lgan taqdirda paydo bo'lmaydi
8.	Gender tengligini ta'minlashning muhim jihati – ikkala jinsning aqliy va axloqiy kuchlarining mutanosibligini ta'minlash hamda ayollarga o'z hayotlarini boshqarish uchun ko'proq avtonomiyalar berishdan iboratdir;
9.	Teng huquqli munosabatlar hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, oilada, ish joyida va umuman jamiyatning barcha jabhalarida bo'lishi kerak
10.	Sharqona gender tenglikning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, unda erkaklar ko'pincha oilaning moddiy ta'minotchisi, boshqaruvchisi, ayollar esa erkaklarga tobe, ularning xoxish-irodasiga ko'ra ish qiluvchi, reproduktiv vazifani bajaruvchi, faqat oila manfaatlari, farzand tarbiyasi uchun mas'ul sifatidagi rolni bajarib kelgan

#### Tahlillar va natijalar

O'qituvchining dunyoqarashi, maktabdagi qiz va o'g'il bolalarni shaxs sifatida kamolga yetkazishda uning inson sifatida shaxsiy o'rnagi, ustozning hayotda egallagan o'rni, gender roliga xos stereotipi va gender notengligini oydinlashtirish va tasdiqlash istagi hal qiluvchi vazifani bajaradi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga bilim berish bilan birgalikda shaxsiy ta'sir ham o'tkazib boradi, dunyoni endi anglay boshlayotgan bola uchun pedagogdagi xislatlar, ongi va dunyoqarashi ayrim holatda mutlaq haqiqat bo'lib tuyuladi. Tabiiyki, bola o'zi ideal deb bilgan odamga ergasha boshlaydi. O'qituvchi shuning uchun shaxs sifatida ta'sir ko'rsatuvchi ham hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotni olib borish davomida biz oila va o'qitish jarayonidagi gender yondashuvni yuzaga chiqarish maqsadida pedagogning ilmiy, uslubiy va nazariy jihatdan tayyorgarligini hamda bu jarayonni amalga oshirishda bir qancha talablarga amal etishini maqsadga muvofiq deb hisobladik. Zotan, pedagogning eng birinchi vazifasi bu – bolada munosabatlarni to'g'ri shakllantirishdir. Zero bu davrda o'spirin yoshdagi qizlarda yetakchi

axloqiy qadriyatlar, odob, hayotga munosabat, tushunchalar, dunyoqarash, shartli odatga aylanuvchi qoidalar shakllanadi.

Maktabning yuqori sinf bosqichlarida ta'lim oluvchilarning gender dunyoqarashini o'stirishda o'quv va tevarakdagi jonli-jonsiz narsalar ham ta'sirchan kuchga ega. O'quv xonalari, kutubxonalarida gender tuzilmalari, xilma-xil millatlar kesimidagi genderlik xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar va erkaklarning teng ulushi haqida keng ma'lumot ulashadigan manbalar, rasmlar, xaritalar va boshqa shu kabi qo'llanmalarga ehtiyoj seziladi.

Umumiy o'qitishning barcha manzillaridagi mas'ullar bilim oluvchilarining gender dunyoqarashini paydo qilishda bir qancha odob me'yorlari va ruhiy-estetik tomonlarini ham yodda tutishlari lozim. Geteroseksual mavzular, ya'ni qarama-qarshi jins vakiliga munosabat qilish bo'yicha tushunchalar berish bilan kim shug'ullanadi? Ushbu ishga qaysi shaxslarning ma'naviy va kasbiy huquqi bor? Mazkur muammolar o'spirin yoshida katta ahamiyatga ega va kechiktirib bo'lmas masala sanalib, maktab o'quvchilarining gender dunyoqarashiga uyg'un tushuvchi shu malakaga ega pedagoglarni ta'lim tizimiga olib kirish darajasi haqida so'z yuritishga zarurat tug'diradi. Bu borada ustoz, ilk navbatda, ruhan va ma'nan sog'lom bo'lishi, ushbu holatni tushuntirishda ob'ektiv yondashishi kerak. Zero, ustoz o'quvchilarni gender tarbiyaga nisbatan rag'bat uyg'ota olishi uchun uning o'zi ustozlik vazifasining eng oliy nuqtasida bo'lmog'i lozim. Demak, mazkur malakaga ega pedagog jamiki yaxshi natijalarga olib boradigan, ayol va erkakka xos xislatlarni muvofiqlashtirgan tarzda gender bag'rikenglik hamda odamiylikka ega bo'lishi kerak.

Ayni vaqtda ta'lim dargohlarida o'quvchilarning gender dunyoqarashini shakllantirish maqsadida pedagogning nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirgani, balki uning uzoq tarixga ega o'qitish texnikasini bilishi, tahlil etish hamda qayta ishlash asosida tajriba hosil qilishi kerak. Pedagogning zukkoligini ko'rsatadigan omil shuki, u yolg'iz ta'lim berish paytidagina emas, balki o'quv jarayonidan holi qolganda ham bolalarni gender tushunchalarni shakllantirishda interaktiv ko'rinishlarni ham tashkil qila biladi. Tadqiqotimizning oldiga qo'ygan maqsad, vazifalariga ko'ra o'zga millatlarning pedagogik tajribalaridan foydalanib, psixologiya va pedagogikaga bog'liq holda milliy va madaniy o'ziga xosliklarni, urf-odat, milliy dunyoqarash, gender afzalliklarini e'tiborda tutib, 8 soatlik dastur, ya'ni "Gender munosabatlarni barqarorlashtirish" nomli darsdan bo'sh paytda o'tiluvchi mashg'ulotlar mundariyasi tayyorladik. Majmua pedagogga gender yaqinlashuvlarni hayotga tatbiq qilishga ko'maklashish uchun qilingan bo'lib, uning vazifasi gender notenglikning eng mayda ko'rinishlariga diqqat qilish, balog'at yoshidagi o'quvchilar ichida yigit va qizlar o'zaro muomalasida talabalarning erishgan yutuqlari, olgan tajriba va kuzatuvlarini unumli qo'llash, shuningdek, talabalarni gender qadriyatlarini muhokama etish jarayoniga tortishdir

### **Xulosalar**

1. Ta'lim muassasasi o'quvchisi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qoliplarni bartaraf etish va shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining sotsial maqbul modellarini shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug'iladi.

2. Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ushbu masala bo'yicha ustuvorlik berish; ta'lim muassasalarida "Gender tenglik strategiyasi" maxsus kurslarini, nazariy-metodik laboratoriyalarni tashkil etish va ular uchun dasturiy mahsulotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.



3. Oilada gender tengligi tushunchasi gender barobarligi konsepsiyasiga to'g'ri keldi – ayollar va erkaklar jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun ijtimoiy qimmatbaho buyumlarga, imkoniyatlarga, resurslarga va hayot imkoniyatlariga teng egalik qilish tushunchasiga to'g'ri keldi.

4. Gender tengsizligi bugungi kunda hayotimizning aksariyat sohalarida davom etmoqda; milliy va diniy urf-odatlar zamonaviy sharoitlarda o'ziga xos ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ko'rinishga ega bo'lgan ayollarga jamiyatda bo'ysunuvchi rol ni yuklaydi.

5. Erkaklar orasida ayollarning ishlamasligi tarafdorlari nisbatan ko'proq ekanligi va bu ko'p hollarda milliy an'analar hamda ayollarning oiladagi vazifalari bilan bog'liqligi aniqlandi.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni
4. 2019-yil 7-martda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4235-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2020-yildagi 192-sonli Qarori, "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash haqida"
6. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-sonli Qonun
7. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi 02.09.2019-yildagi O'RQ-561-sonli Qonun
8. 2022-yil 15-dekabr kungi O'RQ 809-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" gi qonuni
9. 2021-yil 05-mart kungi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5020-sonli qarori
10. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" gi O'RQ-760-1 sonli qonuni
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti
12. Deklaratsiya tısyacheletiya OON ot 08.09.2000 g. (www. undp.org.)
13. Sultonova A.R. Gendernoye ravenstvo kak faktor ustoychivogo razvitiya mirovogo soobshchestva Yeuropean sciynce № 4 (46)-S.31
14. Krochuk M.I. Gendernoye ravenstvo kak sennost prava // Privoljskiy nauchnyy vestnik 116 № 6 (22) – 2013-S. 112-113
15. library. ziyonet.com



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Ismayilova Risolat Ikrambay qizi

Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası stajor o’qituvchisi

E-mail: ismayilovarisolat@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyaning eng muhim qismi bo‘lgan axloqiy tarbiyani turli yo‘llar bilan shakllantirish hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo‘llari hadislardan oilada, balki tarbiya tizimida yosh avlod tarbiyasi samarasini oshirishda foydalanish, bolalarning milliy o‘zligini anglash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga muhim ahamiyatli vosita ekanligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** barkamol shaxs, axloqiy tarbiya, insonparvarlik, axloq-odob, mehnatsevarlik, insonparvarlik, do‘stlik, mas’uliyatlilik, axloqiy fazilatlar.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о том, как различные пути формирования нравственного воспитания детей дошкольного возраста, являющиеся важнейшей частью воспитания, а также способы формирования нравственных качеств дошкольников, являются важным инструментом для родителей и воспитателей в повышении эффективности воспитания подрастающего поколения не только в семье, но и в системе воспитания, через осознание национальной идентичности детей.

**Ключевые слова:** гармоничная личность, нравственное воспитание, гуманность, мораль-порядочность, трудолюбие, гуманность, дружелюбие, ответственность, нравственные качества.

**Annotation:** This article describes the ways of formation of moral education, which is the most important part of the upbringing of preschool children, in various ways, and the formation of moral qualities of preschool children, the use of hadiths to increase the effectiveness of education of the younger generation in the family, but also in the system of upbringing, is an important tool for parents and educators

**Key words:** harmonious personality, moral education, humanity, morality, hard work, humanity, friendship, responsibility, moral qualities.

### Kirish

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Davlatimiz tomonidan bu tizimga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda davlatimizning asosiy e’tibori maktabgacha ta’lim sohasi masalasiga qaratilgani juda ahamiyatlidir. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoitlarni tubdan yaxshilash haqida so‘z boradi. Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3261-sonli qarori, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3305-sonli qarori amalda ijrosini topmoqda.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash, tarbiyaning eng muhim qismi bo‘lgan axloqiy tarbiyani turli yo‘llar bilan shakllantirish hozirgi

kunning muhim talabidir.<sup>115</sup> Ilk tarbiyaning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, bolaning insonparvarligi, to'g'ri so'zligi, adolatparvarligi va dunyoqarashi rivojlanib, barkamol bo'lib voyaga yetadi. Muhtaram prezidentimizning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli kitobida quyidagicha fikrlarini bildirib o'tganlar: Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

### **Adabiyotlar tahlili**

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim. Mana ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".<sup>116</sup> Qarang, qanday oltinga teng so'zlar. Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda". Bolalarda inson sha'ni, insonparvarlik, vataniga bo'lgan mehr, odamiylik, mardlik kabi oliyanob tuyg'ularni shakllantirish hamda ularni yuksak ma'naviyatli, madaniyatli va milliy g'ururi shakllangan avlod qilib tarbiyalamoq lozim. Tarbiyalanuvchilarda bu kabi sifatlarni shakllantirishda hadis ilmi beqiyos ahamiyatga ega. Chunki, o'zbek xalqining ma'naviyatini tarkib toptirishda payg'ambarimizning so'zlari, odatlari, amallari, qarashlari majmui bo'lgan hadislar ko'p asrlardan beri asosiy manba bo'lib kelgan.

Ma'naviy merosimiz mazmunida mustahkam o'rin egallagan hadislardan nafaqat oilada, balki tarbiya tizimida yosh avlod tarbiyasi samarasini oshirishda foydalanish, bolalarning milliy o'zligini anglash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga muhim ahamiyatli vosita bo'la oladi. Bu ishni amalga oshirish farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onaning shuningdek, tarbiyachining ham zimmasiga tushadi. Barkamol shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ota-bobolarimizning ulkan madaniy-ma'rifiy meroslaridan biri hadisi sharif sanaladi. Barkamol shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ota-bobolarimizning ulkan madaniy-ma'rifiy meroslaridan biri hadisi sharif sanaladi.

Hadis – o'qib, o'rganib, o'z-o'zini tarbiyalash vositasidir. Dunyoda tashqi ta'sirlar, o'git-u nasihatlariga qaraganda, inson qalbining o'zligini anglashi, o'z-o'zini poklashi va tarbiyalashi muhimroq va samaraliroqdir. Asrlar davomida millatimizning e'tiqodi bo'lgan islom dini axloqiy mezonlarining targ'ibotchilari al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Moturidiylarning iymon-e'tiqod, axloq-odob, ta'lim-tarbiya sohasidagi beqiyos meroslarini targ'ib qilish bugungi kunning amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.<sup>117</sup>

<sup>115</sup> Sh.Mirziyoyev. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5198-sonli qarori. T. 2017-yil 30-sentabr.

<sup>116</sup> Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2004. 45-bet.

<sup>117</sup> Shohista Kamol. Ota-onalarga maslahatlar. -T.: Movarounnahr, 2005. 64 bet.



### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- turli yosh guruhlari uchun sodda axloqiy tushunchalar haqida ma'lumot berish;
- bola doimiy ravishda "nima yaxshi-yu, nima yomon?" so'zining ma'nosini anglab, o'z fikrini sodda bayon etishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Pedagogikada "ustuvor maqsad" degan tushuncha mavjud. Ushbu tushunchaga asoslanib, tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga ma'naviy-axloqiy tarbiyani asosiy maqsad sifatida belgiladik. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-shafqat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, do'stlik, mas'uliyatlilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish tarbiyachining bevosita mashg'ulotdagi faoliyatidan boshlanadi. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda biz o'zbek milliy pedagogikasiga murojaat qilamiz. Professor Q.Yo'ldoshevning fikriga ko'ra, o'zbek milliy pedagogikasi uchun islom falsafasi metodologik asos vazifasini o'taydi.

Maktabga tayyorlov (6-7) yoshdagi bolalar o'zining psixofiziologik jihatdan eng murakkab davr hisoblanadi. Bolakaylar birinchi marta o'zini onasidan ajrata boshlaydi. Ya'ni "men o'zim" haqiqiy motivatsiyaga aylanadi. Bu davrda bola o'zini butunlay mustaqil shaxs sifatida anglaydi. Bu tengdoshlari bilan kechadigan erkin muloqot davomida namoyon bo'ladi. Endilikda bolalar hamkorlikdagi faoliyatda shaxsiy qarashlarini himoya qilib, hayotiy vaziyatlarda axloqiy tanlovni amalga oshira oladilar. Jinsidan kelib chiqib, unga mos bo'lgan yurish-turish qoidalarini ongli tarzda bajaradilar. Maktabgacha axloqiy-irodaviy tayyorgarlikning qaror topishida, shuningdek, tayyorlov guruhidagi bola shaxsiy xulq atvoridagi mustaqillik, uyushganlik, intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Axloqiy fazilatlarni bolaning eng kichik yoshidan oilada, MTT larida shakllantirib borish kerak. Bolalar shuurida eng yaxshi axloqiy fazilatlarni shakllantirish ularning juda yoshligidan boshlanadi. Dastlabki tarbiyaning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, bolaning dunyoqarashi, didi shunchalik rivojlanadi, kamol topadi. Bolalarda milliy g'urur, inson sha'ni, insonga mehr-muhabbat, odamiylik, to'g'rilik, mardlik kabi insonparvarlik g'oyalarini shakllantirishda hadislarining o'rni beqiyosdir. Insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yuksak ma'naviyat, madaniyat va mustaqil fikrlash hamda milliy ongni shakllantiradi. Odob-axloq ilmini o'qish, yozish, kuzatish va nasihatlar eshitish orqali amalga oshirish mumkin. Biz bugungi kunda farzandlarimiz ongiga axloqiy tarbiyani singdirishning mohiyati dolzarb ekanligini bilamiz. Bu borada tarbiyachilarimiz, ota-onalarimizning tarbiyaning ma'naviy-axloqiy ko'zgusi bolalarga ta'sir ko'rsatuvchi katta kuch deb hisoblaymiz. Shunday ekan, nafaqat ta'lim tashkiloti, balki oila ham, ezgu maqsadlar sari jamiyat taraqqiyotida, ta'lim-tarbiya maskanlari hamkorligida yosh avlod ongi, ruhida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi uchun kurashmog'i zarur.<sup>118</sup>

<sup>118</sup> Bolibekov A. Rasulova Z. Yusupova H. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari. Guliston 2020 yil. 92-b

## Tahlillar va natijalar

Mustaqillik yillaridan boshlab milliy qadriyatni tiklash, uni rivojlantirish millatning o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururni shakllantirish, vatanparvarlikni tarbiyalash bilan uzviy tarzda amalga oshirilmog'da. Shuning uchun bugungi kunda har bir oila o'z muqaddas qadriyatlarini e'zozlashi, undan o'rinli foydalanishi lozim. Shundagina bu qutlug' dargoh ajoyib tarbiya maskani bo'la oladi. Zero, bunday oilalar farzandlari davr talablariga binoan yurtimiz kelajagi porloq va obod bo'lishiga xizmat qiluvchi insonlar bo'lib yetishishiga hech qanday shubha yo'q. Mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra, bola maktabga borgunicha, unga podshohdek muomala qilinadi, ya'ni risoladagi barcha iltimoslari so'zsiz bajariladi, sho'xlik va erkaliklaridan qaytarilmaydi. Shundan so'ng unga asta-sekin tushuntirish, kattalarning o'zi ibrat bo'lishi orqali tarbiya beriladi. Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. **Badan tarbiyasi; ruhiy tarbiya; aql va fikr tarbiyasi; iroda tarbiyasi; so'zlashuv tarbiyasi; mehnat tarbiyasi** va boshqalar; Tabiiyki, maktabgacha va boshlang'ich sinflarda bolaning xulq-atvori ixtiyoriylikning yuqori darajasi bilan ajralib turmaydi, ammo bu davrda maktabdagi yangi xulq-atvori turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvor mexanizmining tarkib topishi muhimdir. Bunday jarayonni amalga oshirish uchun ushbu tarbiya turlarini to'g'ri yo'lga qo'ymoq lozim.<sup>119</sup>

**1. Badan tarbiyasi** – bolani jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, tozalikka va poklikka o'rgatish, sport va badantarbiya mashqlariga ko'niktirish kabilar kiradi. Bolasining sog'lom bo'lishini orzu qilgan ota-onalar ular bilan ko'proq ochiq havoda sayr qilishlari, suzish, chavandozlik, kurash o'yinlari, merganlik kabi mashg'ulotlarga safarbar qilishlari lozim.

**2. Ruhiy tarbiya** vazifasi bolaning maqsadi, e'tiqodi, diyonati, imonini shakllantirish, uning chin insoniy fazilatlarini kamol toptirish, hissiyotga beriluvchan va ta'sirchan bolalarda haqiqatni ko'ra bilish, jasurlik, matonat kabi xislatlarni shakllantirish, aksincha diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar yordamida ularni mayin hissiyotli qilib tarbiyalashdan iborat. Bolani ruhiy tushkunlikka tushishdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan himoyalashda bunday tarbiyaning ahamiyati katta.

**3. Aql va fikr tarbiyasini** yaxshilash uchun bolaning fikrlashi, zakovati, xotirasi va mushohada qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlar o'tkaziladi, unga turli ibratli hikoyalar so'zlab beriladi, zarur bilim va ma'lumotlar yoritiladi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko'rgan narsasi haqida so'raydigan ulak yoshda har bir ko'rgan narsasi haqida so'raydigan ularni tekshirib sinab ko'radigan, tinimsiz savollar beradigan bo'ladi.

**4. Axloqiy tarbiyani** berish uchun eng avvalo, ota-ona farzandiga axloq va odob bobida o'rnak ko'rsatishi, odobdan muntazam saboq berib borishi kerak bo'ladi. Chunki, odob oxirat ne'matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

**5. Iroda tarbiyasi.** Bunda bolaga o'z nafs bilan kurashish, shaxsiy orzu va ehtiyojlarini jilovlash yoki zarur bo'lsa, ulardan voz kecha olish, o'z manfaatlarini boshqalar va jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ymaslik kabilar o'rgatiladi. Taomilda bolaning qaysarlik davrida (to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha) olib boriladigan iroda tarbiyasida biroz qattiqqo'llik, chidam kerak bo'ladi.

**6. Mehnat tarbiyasini** berish uchun bolaga halol kasb bilan kun ko'rish haqida nasihatlar qilinadi, mehnatga muhabbat uyg'otish uchun bolaligidan unga turli mayda yumushlar buyurib turiladi.

<sup>119</sup> Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar. –T.: O'zkompartiya MK nashriyoti, 1985. 141-bet

Amir Temur o'z tuzuklarida o'n ikki narsani o'ziga shior qilib saltanat martabasiga erishganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shu shiorning oltinchisida shunday deyiladi: "Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim".<sup>120</sup>

### **Xulosalar**

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, faoliyatlarda hadislarni o'rganish yuqoridagi tavsiyalar asosida tashkil qilinsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoitlarni tubdan yaxshilashga erishiladi. Tarbiyaning eng muhim qismi bo'lgan axloqiy tarbiyani turli yo'llar bilan shakllantirish hozirgi kunning muhim talabidir. Yosh avlod tarbiyasi samarasini oshirishda foydalanish, bolalarning milliy o'zligini anglash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga muhim ahamiyatli vosita bo'la oladi. Oldinga surilayotgan qarashlar va metodik tavsiyalar MTT hayotida sinab ko'rildi va bu qarashlar hamda metodik yo'nalishlarning yuqori samara berishiga to'la ishonch hosil qilindi.

### **Adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyev. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5198-sonli qarori. T. 2017-yil 30-sentabr.
2. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. –T.: Yozuvchi, 1997. 110– bet.
3. Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar. –T.: O'zkompartiya MK nashriyoti, 1985. 141-bet
4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y
5. Abu Iso at-Termiziy. Ash Shamoil an-nabaviya, -T.:G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. 208-bet.
6. Shohista Kamol. Ota-onalarga maslahatlar. –T.: Movarounnahr, 2005. 64 bet.
7. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. .-T.: 2004. 45-bet.
8. Bolibekov A. Rasulova Z. Yusupova H. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari. Guliston 2020 yil
9. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedogogik tafakkur va umunta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – T.: 1997. 27-bet.
10. library.ziyonet.com
11. pedagog.uz

---

<sup>120</sup> Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedogogik tafakkur va umunta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – T.: 1997. 27-bet.

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Allaberganova Nargiza Polvannazirovna

Urganch davlat universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası stajor o'qituvchisi

E-mail:nargizaallaberganova89@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk sharq mutafakkirlarimizdan Yusuf Xos Hojib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning iqtisod va ta'lim-tarbiyaga doir bo'lgan ko'plab g'oyalari, iqtisodiy tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, iqtisodiy tarbiya asosini mehnat tarbiyasi orqali shakllantirish masalalari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy tushuncha, iqtisodiy madaniyat, tejamkorlik, moddiy resurs, sarf-xarajat, inson ehtiyojlari, xayr-ehson, daromad, ishbilarmonlik.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещены многие идеи об экономике и образовании наших великих восточных мыслителей Юсуфа Хос-Хаджиба, Аль-Хорезми, Абу Насра Фараби, Абу Али Ибн Сины, Абу Райхана Беруни, Алишера Навои, значение экономического воспитания в жизни человека, вопросы формирования основы экономического воспитания через трудовое воспитание.

**Ключевые слова:** экономическое понятие, экономическая культура, бережливость, материальный ресурс, расход, потребности человека, благотворительность, доход, предпринимательство.

**Annotation:** This article details the many ideas of the Great Eastern thinkers Yusuf Khos Hajib, Al-Khwarazmi, Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhun Beruniy, Alisher Nawab on economics and education, the importance of Economic Education in human life, the formation of the basis of economic education through Labor Education.

**Key words:** economic understanding, economic culture, economy, material resource, expenditure, human needs, donations, income, business.

### Kirish

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim, xususan, maktabgacha ta'limni takomillashtirishdan kutilayotgan muhim natija bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ularda yangicha fikrlash, kognitiv rivojlanish motivatsiyasini kuchaytirish, yuksak ma'naviy fazilatlar hamda shaxsiy sifatlarni tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunining 3-moddasida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi ekanligi, 29-modda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturiga bag'ishlangan bo'lib, bunda bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-

odatlari va anʼanalari bilan tanishtirish, bolaning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish” belgilangan.<sup>121</sup>

Milliy tarbiya tizimida sinovdan oʻtgan oʻgʻitlar, chin insoniy fazilatlar yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashning asosi halollik, rostgoʻylik, oʻzaro hurmat, mehnat qilish, hunar egallash, mehnatni qadrlash, masʼuliyatli, tashabbuskor boʻlish kabilarda aks etadi hamda hunar oʻrganish, halol ishlab pul topish ustuvor hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tarixiy manbalardan maʼlumki, buyuk ajdodlarimiz iqtisod va taʼlim-tarbiyaga doir boʻlgan koʻplab gʻoyalarni ilgari surganlar. Negaki iqtisod har bir inson, har bir oila va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat insonning bugungi hayotini, balki kelajagini ham belgilab beradi. Demak, jamiyatda iqtisodiy madaniyatni, iqtisodiy ongni shakllantirish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega.

Oʻrta asrlarda yashab ijod etgan olim va mutafakkirlar oʻz ilmiy asarlari orqali mamlakat rivojida iqtisodiyotning ahamiyati, rolini falsafiy jihatdan yoritib berganlar. Qadimiy iqtisodiy qarashlar va tarbiya masalalari haqidagi yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan “Avesto” kitobidir. Iqtisodiy taʼlim-tarbiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan qariyb 3000 yil muqaddam vatanimiz hududida zardushtiylikning muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto”da bayon etilgan. Yunonistonda dastlab yuzaga kelgan deb hisoblangan koʻpgina iqtisodiy qarashlar bundan ham avval mavjud ekanligi “Avesto”da keltirilgan. Maʼlumki, islom iqtisodiy gʻoyalari musulmonlarning muqaddas kitobi Qurʼoni Karimda, paygʻambarimiz hadislarida, mashhur “Muxtasar” kitobida oʻz ifodasini topgan. Arab mamlakatlari va Markaziy Osiyoda oʻrta asrlarda islom dini katta taʼsir kuchiga ega boʻldi. Markaziy Osiyo xalq ommasining iqtisodiy bilimlar, tadbirkorlik madaniyati koʻproq diniy xarakterga ega boʻldi. Tadqiqotchilarning taʼkidlashlari boʻyicha, islom qolgan diniy taʼlimotlar ichida yaqqol ifodalangan iqtisodiy gʻoyalari bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, Qurʼoni Karimda savdoga, uni halol va adolatli yuritishga, savdo va tijoratdan foyda olishda insofni unutmazlikka katta oʻrin berilgan, ayni chogʻda, sudxoʻrlikka, boshqalar rizqiga koʻz olaytirmaslikka qarshi fikrlar bildirilgan. Ollohning kalomi boʻlgan bu muqaddas kitobda mulkning daxlsizligi eʼtirof etilgan, boshqalar mulki va davlatiga xiyonat qilishga katta, kechirilmas gunoh deb qaralgan, qarz berish va qarz olish qoidalari, meros taqsimlash, yetim-yesirlarga alohida muruvvat koʻrsatish, xayr-ehson qilib turish gʻoyalari ilgari surilgan. Ushbu muqaddas kitobda: kasb egallashga, dehqonchilik qilishga, qoʻy boqishga, mehnat orqali hayot kechirishga daʼvat qilingan; mehnat har bir musulmon uchun ham bu dunyo, ham u dunyoda rohat manbai deb tushuntirilgan.

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida **Yusuf Xos Hojibning** “Qutadgʻu bilig” asari muhim oʻrin tutadi. Yusuf Xos Hojib maʼnaviy merosida insonlarning mehnatiga loyiq haq toʻlash, mehnatni toʻgʻri baholab taqdirlash, har bir aqliy-jismoniy mehnatni qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb-hunar egallash hamda kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta oʻrin berilgan. Bu asarda hunarmandlarga, savdogarlarga, dehqonlarga, chorvadorlarga alohida-alohida boblar bagʻishlangan.

---

<sup>121</sup> Oʻzbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida. T.: 2019 yil 16 dekabr, OʻRQ-595-son. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son).

**Al-Xorazmiy** ilmiy bilim, ta'lim metodlari insonni aqliy kamolotga yetaklash kabi falsafiy qarashlari bilan bir qatorda mamlakat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim belgilari va omillarini o'z ilmiy asarlarida yoritib berdi.

**Abu Nasr Forobiy** va **Abu Ali ibn Sinolarning** tadbirkorlik faoliyatiga doir merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy ne'mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Albatta, inson ehtiyojlari turli-tuman va doimiy o'sib boruvchidir. Odamlar ehtiyojlarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kabi guruhlarga ajratish mumkin. Ammo inson ehtiyojlari ichida ustuvor o'rinda iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish yotadi.

**Abu Nasr al-Farobiy** insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligi va ularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilishni e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi."<sup>122</sup>

**Abu Rayhon Beruniy** "bolalarni yoshlikdan hayotiy zarur bilimlarni egallashga o'rgatish, chetdan olingan ma'lumot yoki xabarni mantiqan qiyoslash, tahlil qilishga o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Noto'g'ri ma'lumot, yolg'on xabar, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulkini hiyla bilan tortib olish, o'g'rilik, dunyo va xalqlarning buzilishiga, kishilarga zulm, adolatsizlik keltirishini bayon etgan."<sup>123</sup>

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida ulug' shoirimiz, buyuk **Alisher Navoiyning** o'rni beqiyosdir. Biroq uning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda tadbirkorlik masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirning tadbirkorlik doir qarashlari "Mahbub ul-qulub" asarida bayon qilingan. Hech kimga sir emaski, insoniyat doimo ijtimoiy adolat tamoyillari o'rnatilgan demokratik jamiyat qurishni orzu qilib keladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maktabgacha yoshdan bolalarda ma'naviy qadriyatlar, milliy merosimizni e'zozlash hamda tabiat boyliklarini asrash kabi ko'nikmalarni shakllantirib borish, Vatanga sadoqatli avlodni tarbiyalashga imkon beradi. Bugungi kunda ta'limni insonparvarlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar pedagoglar oldiga ulkan vazifalar yuklamoqda. Pedagog uzluksiz ta'lim tizimining qaysi bosqichida faoliyat ko'rsatmasin, undan axloqiy-ma'naviy yetuklik, ijtimoiy faollik, ijodkorlik, yangicha dunyoqarash hamda o'zgaruvchan zamon talablariga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishi taqozo etadi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachi turli faoliyat yo'nalishlarida o'zini namoyon qiladi. Tarbiyachi qaysi yo'nalishda faoliyat olib bormasin, uning markazida bola shaxsi, uning qiziqishlari va manfaatlari turishi lozim. Bolalarning psixologik beqarorligini bartaraf qilish uchun tarbiyachi tomonidan samarali innovatsion yondashuvlarni moslashtirgan holda qo'llash zarur. Xususan, interfaol usullar pedagogik jarayonda ishchi, ijodiy muhit yaratish imkonini beradi. Bolalarning jismoniy, ma'naviy, psixik-emotsional (ruhiy-hissiy) sog'ligi ta'minlanadi, shaxslararo munosabatlari, o'zaro hamkorligi amalga oshadi. Bolalarda iqtisodiy bilimlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratiladi ya'ni atrofdagi borliq, voqea-hodisalar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar maktabgacha ta'lim jarayonidan tashqari

<sup>122</sup> Pedagogika nazariyasi va tarixi fanidan O'quv-uslubiy majmua., Jizzax 2019 yil 138-bet

<sup>123</sup> Abu Rayhon Beruniy. (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

vaqtda ya'ni ijtimoiy jarayon va oilada ota-onalar tomonidan kutilmagan holatlarda ham beriladi. Pedagogik jarayonda iqtisodiy bilimlar va ijtimoiy hayotdagi turli xil voqealar bolalar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.

Bolalarning iqtisodiy bilimlar haqidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari o'yin, sayr, mustaqil faoliyat davomida mustahkamlanadi. O'quv faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan zarur shartlardan biri bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ko'nikmasi va kommunikativ, iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Tezkor rivojlanish davrida bolalar bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani yetarli darajada namoyon qilmayapti. Zarur darajada motivatsiya uyg'otish uchun zamonaviy texnologiyalar, metod va vositalarni to'g'ri tanlash lozim. Faol ta'lim metodlari bolalarda tadqiqotchilik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishning samaradorligi milliy pedagogikada o'z isbotini topgan. Pedagog-tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni iqtisodiy bilimlar bilan tanishtirishning metodik jihatlariga amal qilishi lozim. Bunda bolalarga savol bilan murojaat qilish imkoniyatini berish, ularning faolligi va tashabbuskorligini to'xtatmaslik; bolalarni muvaffaqiyatga erishishlari uchun sharoit yaratish zarur. Rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan turli faoliyat jarayonida bolalarga iqtisodiy bilimlar haqida ma'lumot olish imkoni yaratiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limni tashkil etishda har bir yosh guruhlari uchun oyning mavzularini, haftaning mavzularini aks ettiradi va beshta rivojlantirish markazlarida ta'limiy faoliyat tashkil etiladi:

- "Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika" markazi;
- "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazi;
- "Til va nutq" markazi;
- "Ilm fan va tabiat" markazi;
- "San'at" markazi.

Polifunksional yondashuv asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ayrim qiyinchiliklarga ham duch kelinadi. Bunda iqtisodiy bilimlarni shakllantiruvchi ta'limiy faoliyatlarga o'xshash mavzularni aniqlash uchun birlashtirilishi kerak bo'lgan dasturlarni ko'rib chiqish kerak. Ular bir xil bo'lishi shart emas, asosiysi bu mavzularning umumiy yo'nalishlarini aniqlash va kelajakdagi integratsiyalashgan mashg'ulotning maqsadini ko'rsatishdir.

**Polifunksional yondashuv asosida MTT ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlari orqali tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish texnologiyasi (sentabr oyi 1-haftasi misolida)**

<b>Oy mavzusi:</b> <b>“O‘zbekiston mening Vatanim”</b>					
<b>Rivojlanish markazlari</b>	<i>Qurish yasash va matematika</i>	<i>Syujetli rolli o‘yinlar va sahnalashtirish</i>	<i>Til va nutq</i>	<i>Fan va tabiat</i>	<i>San‘at</i>
<b>Hafta mavzusi:</b> <b>“Mening jonajon O‘zbekistonim”</b>					
<b>Hafta mavzusi</b>	“Mening shahrim”	“Yosh sayohatchilar”.	“ <i>Vatanimizning qadimiy shaharlari</i> ” (Samarqand, Buxoro, Xiva)	<i>Sabzavot va mevalardan bo‘yoq olish</i>	“ <i>Tabiiy bo‘yoqlardan kuzgi manzara yaratganmiz</i> ”
<b>Maqsad:</b>					
Ta'limiy faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarda vatanni sevish, uning tuqrog‘i, milliy boyliklari, tabiiy resurslarni asrab-avaylash orqali iqtisodiy bilimlarni tarkib toptirish					
<b>Mazmun:</b>					
“Yosh sayohatchilar” hikoyasi orqali bolalarning ona yurt haqidagi tushunchalari kengayadi, jjamoadada o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalari rivojlanadi, son-sanoqni bilish, ranglar va shakllarni farqlash malakalari mustahkamlanadi, ish jarayonida tartibli bo‘lish va ozodalikka rioya qilish davlat ramzlarini, ko‘cha va mahallalarining nomini, Vatanimiz qadimiy shaharlari haqidagi, ularning joylashuvi va iqlimi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida Vatanni sevish, uning milliy boyliklari, tabiiy resurslarini asrab-avaylash kabi iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish					
<b>Ta'lim shakli:</b>					
Individual, umumiy va kichik guruhlarda ish olib borish, hamkorlikda ishlash					
<b>Ta'lim vositalari:</b>					
Qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar, niqoblar, belgilar, atributlar, syujetli rasmlar, AKT, predmetam rasmlar, qog‘oz, rangli qog‘oz, tabiiy materiallar, ko‘rgazmali va tarqatmali vositalar, ryukzaklar, kepkalar, fotoapparat, o‘yin uchun pullar, xarita, durbin, kompas, ona yurtimizning diqqatga sazovor maskanlari tasvirlangan suratlar.					
<b>Metod va texnologiyalar:</b>					
“Klaster”, “Intervyu”, “KVEST”, “TRIZ” “SWOT-TAHLIL”					
<b>Nazorat va baholash:</b>					
Rivojlanish markazlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat nazorat qilinib boriladi hamda tarbiyalanuvchilarda shakllangan mavzuga doir bilimlar va iqtisodiy tushunchalar aniqlanadi.					
<b>Kafolatgan natija:</b>					
MTT ning tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida tejamkorlik, ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, uddaburonlik kabi kompetensiyalar shakllanadi.					



### **Tahlillar va natijalar**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga MTT ning rivojlantiruvchi markazlar faoliyatlari orqali shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqildi. Ushbu texnologiya "O'zbekiston - mening Vatanim" sentabr oy mavzusi asosida ishlab chiqilgan, unda rivojlantiruvchi ta'limiy markazlarida haftalik mavzularining integrativ aloqadorligi orqali bolalarda iqtisodiy bilimlarni tarkib toptirish imkoniyatlari keltirilgan. Mazkur texnologiyaga asosan tarbiyalanuvchilarga "Yosh sayohatchilar" hikoyasi asosida isrof, tejamkorlik, uddaburonlik, har qanday vaziyatdan chiqa bilishlilik shuningdek, milliy so'm va boshqa davlatlarning pul birliklari, qadimiy va navqiron shaharlarimiz, o'lkamiz relyefi kabi tushunchalarning mazmun mohiyati singdiriladi. Mazmun quyidagi: "Klaster", "Intervyu", "KVEST", "TRIZ" "SWOT-TAHLIL", "Kim mehmonga keldi", "To'rtinchisi ortiqcha", "Nomini eslab qol" metodlari orqali bolalarda iqtisodiy bilimlarni rivojlanishida qo'llanildi. Texnologiya individual, tayyorlov guruhlarida, jamoaviy ish shaklida olib boriladi. Shuningdek, ushbu texnologiyada raqamli kartochkalar, qurilish bloklari, kubiklar, bozor rastalari tasvirlangan suratlar, tayyor slayd, tabiiy materiallar, ko'rgazmali va tarqatmali vositalar, ryukzaklar, kepkalar, fotoapparat, o'yin uchun pullar, xarita, durbin, kompas, ona yurtimizning diqqatga sazovor maskanlari rasmlaridan foydalanildi (1-jadval).

Ushbu texnologiya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartiga muvofiq tayyorlov guruhlar uchun ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlarga asoslangan maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish xaritasi ishlab chiqildi (2-jadval). Tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlashga qaratilgan kompleks ta'limiy jarayonlar O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida batafsil belgilab berilgan. Xususan, bolalarni intellektual, axloqiy va jismoniy jihatdan shakllantirishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim ekanligini mazkur me'yoriy hujjatdagi talablardan bilib olsak bo'ladi.

2-jadval

**Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti hamda "Ilk qadam" o'quv dasturiga muvofiq ta'limiy faoliyatlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish xaritasi  
(Tayyorlov guruhlar uchun (sentabr oyi))**



**Oy mavzusi:** “O‘zbekiston - mening Vatanim”

**Maqsad:**

-bolalar kublar va turli konstruktorlardan shahar qurishni, turli hajmdagi shakllarni nomlash va ulardan qurilishda foydalanishni hamda insonlar mehnati va tabiiy resurslarni isrof qilmaslik to‘g‘risida tushuncha berish.

- bolalarning ona yurt haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Jamoada o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalari rivojlantirish.

-bolalar relief (shahar, vodiy, daryolar reliefi) tushunchasi bilan tanishtirish.

- bolalarning O‘zbekiston milliy bayramlarini bilish, bayramlarning o‘xshashlik va farqlarini anglash, milliy urf-odatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

-bolalar davlat ramzlarini, ko‘cha va mahallalarining nomini, Vatanimiz qadimiy shaharlari haqidagi, ularning joylashuvi va iqlimi haqida ma‘lumotlar berish.

- bolalarning o‘lkamizning tabiiy resurslari xususiyatlari haqidagi bilimlari oshirish.

- loy, suv va qumni bo‘yash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishni, ulardan tabiiy bo‘yoqlarni olish malakasi hosil qilish.

-tabiiy boyliklar va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha tarbiyaviy va o‘quv metodik materiallarni sodda tarzda tushuntirish;

- o‘zga davlat fuqarolariga hurmat-ehtirom, o‘z davlatiga nisbatan faxr-iftixor, Vatanini sevish uni asrash kabi his-tuyg‘ularini shakllantirish.

**Kutilayotgan natijalar:**

-tarbiyalanuvchilarda mavsumiy o‘zgarishlarda insonlar mehnati borasida tasavvurlar paydo bo‘ladi;

- boylik orttirish uchun mehnat qilish kerakligini bilib oladi;

- kasblar haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi va samarali mehnat tufayli yutuqlarga erishish mumkinligini tushunadi;

- jamoaviy faoliyatda tashabbus ko‘rsatish va mehnat qilish ko‘nikmalari shakllanadi;

-tarbiyachi bolalarga o‘z kompozitsiyalarini mayda o‘yinchoqlar (avtomobillar, bayroqchalar, daraxt va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini tushuntirib beradi, rasmga aloqador so‘zlar bilan tanishtiradi;

- har bir bolaning faoliyatiga e‘tibor qaratish va hayot xavfsizligi qoidalariga ahamiyat beriladi;

- tarbiyalanuvchilarda Vatanimiz tabiiy boyliklari oltin, ko‘mir, mis va hokazolar haqida tasavvurlar paydo bo‘ladi.

Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyat	O‘yin faoliyati	Mehnat faoliyati
<b>1-hafta</b>		
“Mening jonajon O‘zbekistonim”	“Minora quramiz” didaktik o‘yini	Qadimiy va navqiron minora qurishda o‘lchovlar va hisob-kitobni o‘rganish
<b>2-hafta</b>		
“Mening shahrim-mening mahallam”	“Do‘konda” o‘yini sahnalashtirish	Ryukzaklar, kepklar, fotoapparat, o‘yin uchun pullar, xarita, durbin, kompas. Erkin faoliyat
<b>3-hafta</b>		
“Men va bizning oilamiz”	“Nimaga yo‘l kira uchun pul to‘laymiz?” ijodiy o‘yini orqali kasblarning moddiy tomonlarini uqtirish	“Tanga oltin tasvirini yasash” mavzusida birgalikdagi mehnat
<b>4-hafta</b>		
“Men va mening do‘stlarim”	“Tog‘ konlaridan foydalar” rassomlik o‘yini orqali moddiy manfaatlar rasm orqali chiziladi	Tog‘ konlariga sayohat. (taqdimot orqali) Yakka tartibdagi mehnat faoliyati



### **Xulosalar**

Iqtisod va iqtisodiy bilimlarga doir qadimgi manbalar, sharq va g'arb pedagog-psixologlarini ta'limotlarini o'rganish iqtisodiy madaniyatni shakllantirishda muhim omildir. "Avesto" da ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aks ettirilgan quyidagi fikrlar mavjud: "Yomon ovqatlanagan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom baquvvat bolalarga ega bo'ladi. Yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham yaxshi qabul qilinadi..." Bu yerda biz sog'lom avlod to'g'risida, iqtisodiy va madaniy, ma'naviy yuksalish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risida fikr yuritilganligini ko'ramiz;

Al-Farobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida mulkchilik haqida fikr yuritib, mulkka egalik qilish, undan maqsadga muvofiq foydalanish, o'ziga to'q yashash to'g'risidagi ilg'or fikrlarni ilgari suradi.

### **Adabiyotlar**

2. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darjasini yaratish– barqaror taraqqiyot kafolatidir. / Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma'ruzasi. // "XXI ASR", 2016 yil 21 oktabr, 44-son
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ-595-son 2019 yil 16-dekabr
4. Artiqova M.B. Oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2008. –B. 155
5. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1993. – B. 222
7. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X
8. library.ziyonet.com



## **BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING ESTETIK TARBIYASI TAKOMILLASHISHIDA TABIATSHUNOSLIK FANINING O'RNI**

Temirova Matluba Karim qizi  
Termiz davlat Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi  
Gmail: matluba@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, insonning tabiatga yo'naltirilgan faoliyati borgan sayin keskinlashib ketmoqda. Shu sababdan ham insoniyatning tabiatga ma'naviy, estetik yondashuvlari o'rganilmoqda. Tabiatning alohida olingan shaxs uchun emas, balki kelajak avlodlar manfaatlari uchun qimmatli ta'kidlangani, ya'ni tabiat-jamiyat va inson munosabatlari haqida.*

***Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, tabiat, jamiyat, tabiatshunoslik, tarbiyalash, shaxs, ma'naviy-axloqiy, o'zallik, his etish.*

## **РОЛЬ ЕСТЕСТВЕННАУКИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Темирова Матлуба Каримовна  
Термезский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры методики начального образования  
Gmail: matluba@gmail.com

***Аннотация:** Данная статья представляет собой проблему, которая считается актуальной в настоящее время, природоориентированная деятельность человека становится все более интенсивной. По этой причине изучаются духовные и эстетические подходы человечества к природе. Подчеркивается ценность природы для блага будущих поколений, а не для отдельного человека, то есть о природе-обществе и человеческих отношениях.*

***Ключевые слова:** Начальный класс, природа, общество, естествознание, образование, личность, духовно-нравственный, красота, чувство.*

## **THE ROLE OF SCIENCE IN THE IMPROVEMENT OF AESTHETIC EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS**

Temirova is the daughter of Matluba Karim  
Termiz State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of Primary Education Methodology  
Gmail: matluba@gmail.com

***Annotation:** This article is an issue that is considered urgent nowadays, the nature-oriented activity of man is getting more and more intense. For this reason, the spiritual and aesthetic approaches of mankind to nature are being studied. The value of nature is emphasized for the benefit of future generations, not for an individual, that is, about nature-society and human relations.*

***Key words:** Primary class, nature, society, natural science, education, personality, spiritual and moral, beauty, feelingю*

## **Kirish**

Tabiat vositasida estetik, ma'naviy, ekologik tarbiyalash shaxsni har tomonlama rivojlanishining muhim belgisidir, biroq tarbiyalanuvchida tabiatga qiziqish bo'lmasa, bu jarayonni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun yoshlarda estetik tarbbiyani shakllantirish bevosita ekologik, ma'naviy tarbiyalanishning ilk asosidir.[]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga qiziqishni uning estetikasi orqali tushuntirish ijtimoiy ahamiyatga molik, chunki bu yosh ahamiyatli xususiyatlar qorishmasidan iborat. Tabiatda go'zallikni izlash va uni o'ylamasdan vayron etish, tabiatdan dam olish va tabiat bag'rida salbiy xatti harakatlar sodir etishga moyillik, o'simlik dunyosiga vahshiyona, hayvonot olamiga beshavqat munosabatni o'zida mujassam etadi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Darhaqiqat, o'quvchilar bilan bu muammolarning tabiatga bo'lgan munosabatlarini o'zgaruvchanligi tufayligina (bundan tabiat zarar ko'rmoqda va halok bo'lmoqda) dolzarblik kasb etmaydi, inson hayoti uchun xavf tug'dirayotgan tabiatning tabiiy go'zalligi yo'qolib ketayotganligi munosabati ham juda dolzarbdir. Bu holat qator dolzarb masalalarni ilgari surmoqda, ular esa o'z navbatida olimlar R. Xasanov, S.X.Fayzulina YU.T.Shodimetov, T.Axmatova, E.O.Turdiqulov, jahon olimlari E.V. Kvyatovski, I.D. Zverev, A.N.Zaxlebniy, V.P.Tugarinov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Yoshlarni tabiatdagi go'zalikka nisbatan oshnolik ruhida tarbiyalash bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda. Bu o'quvchilarda tabiatga nisbatan ekologik ba ma'naviy axloqiy munosabatda bo'lishni talab qiluvchi estetik mazmundir.

Inson tabiatning gullab yashnashiga hissa qo'shmog'i lozim.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

O'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishni ayniqsa, boshlang'ich sinf tabiatshunoslik davrida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda estetik, ekologik va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi haqida fikr yuritiladi.

O'quvchilar ongiga tabiatdagi go'zalikka, tabiatdan foydalanish tamoyillariga qiziqishni, tabiat go'zalligiga ko'mak qo'shish va asrashga bo'lgan ehtiyojni sindirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyani rivojlantirish, shuningdek, tadqiqotda tabiat estetikasiga qiziqishi ustuvorlik qilsada, uning miqyosi tabiiy omillar, vositalari ekologik va ma'naviy - axloqiy tamoyillar bilan o'zaro bog'liq tarzda estetik tarbiya darajasigacha borib yetadi. Bu esa o'quvchilarda tabiat go'zalligi haqida muayyan bilimlar tizimini mujassam bo'lishligini taqoza etadi.

## **Tahlillar va natijalar**

Tabiatga munosabat axloqiy mazmunsiz bo'lishi mumkin emas. Muhimi, tabiatga bo'lgan qiziquv, estetik munosabat ma'naviyatdan ayri manaviy hissoyatlar tabiatning estetik va axloqiy anglash bilan mustahkamlanishi zarur [].

Tabiat go'zalligini aks ettirish faoliyatiga, hissiy bilish, intellektual faoliyatiga, tabiatda estetik tarbiyani rivojlantirish bo'yicha mehnat qilishga, uni asrash va boyishga extiyoj tugdirish quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikma va malakalardan xayotda foydalanish (o'zlikni ijtimoiy namoyon etish);

- estetik tarbiyani rivojlantirishda ekologik madaniyatni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar;

- tabiatga yuksak estetik qiymatga ega bo'lgan, ekologik qonuniyatlarga bo'ysunuvchi va oqilona rejalashtirilgan go'zallik, deb qarash lozim. Tabiatga nisbatan o'ylamay sodir etilgan har qanday aralashuv umumiy mutanosiblikning daxshatli uzilishiga olib kelishi mumkin.

Tabiatdagi go'zallik ekologik mutanosiblik tamoyillari asosida mavjudligini esda tutish. Tabiat go'zalligining yaxlit ekanligini anglash zarur tabiatning yuksak go'zalligi estetikasi inson, ularning yagona birligi, tabiatdagi go'zallikning gullab yashnashi inson faoliyatiga bog'liqligini anglash zarur, agar tabiat sog'lom va go'zal bo'lsa, inson undan ma'naviy-estetik boyiydi [1].

Ma'naviy - axloqiy sifatlarga qo'yilgan talablar:

- tabiatni uning axloqiy qiymatlari bilan idrok etish;
- insonning axloqiy harakatlari, tabiat garmoniyasi uchun muhimligi;
  - tabiatdan foydalanish me'yorlarini bilish, o'zining tabiatga, uning go'zalligiga munosabatlarini belgilab olish;
  - tabiatdan foydalanishning me'yorini bilgan holda unga xamisha oqilona va axloqiy munosabatda bo'lish;
  - tabiatning kelajagi bizning ma'naviy - axloqiy takomillashuvimiz, uning gullab-yashnashi esa insoniyat kelajagi ekanligini anglash.
  - mazkur talablar o'quvchilarning qiziqishlarini tabiatga, uning zimmasiga yo'naltiradi, bu qiziqishlarning ijtimoiy mustahkamligini taminlaydi.
  - tabiatda estetik qiziqish, axloqiy - ijtimoiy rivojlantirilganlik darajasi bilan uyg'unlashib ketadi.

Biroq nima uchun ustuvor bo'lgan narsa tabiat estetikasi, ularning aynan tabiat estetikasiga qiziqishlarini takomillashtirishdan iborat. Shu sababdan ham tabiat go'zalligi muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Tabiat go'zalligi uning mutanosib qonuniyatlari, hayotdagi mantiqiy me'yorlar o'zaro singib ketadi, tabiat estetikasi alohida tabiatdagi garmonik hamohanglik tamoyili yotadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiat estetikasiga qiziqishi ularda quyidagi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi;

- kuzatuvchanlik, tabiatni asrash, uning go'zalligini boyitishda jamoaviylik hissi;
- rang - barang olamni estetik his qilish;
- mehr va shafqatlilik;
- atrof - muhit, tabiatni asrash, uning go'zalligini boyitishda jamoaviylik hissi;
- tabiat go'zalligi uchun mas'ullik;

Bu ijobiy hislatlarning gultojisi estetik ong va tabiat go'zalligi uchun yo'naltirilgan mas'ullikdir. Estetik ongga ega bo'lgan o'quvchi tashqi dunyo bilan, tabiat o'zgarishlari bilan birgalikda yashaydi. O'smir yangicha fikrlay boshlaydi. Tabiatga bunday yondashuv asosida milliy qadiryatlarni asrash lozim ekanligini tushunib yetadi.

Tabiatning anglab yetilgan ijtimoiy qiymati tabiatga munosabat me'yorlarini belgilash axloqiy munosabat, bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning tabiatga munosabati natijasida axloqiy qarashlarida ijobiy siljishlar yuz beradi.

O'quvchi asta sekinlik bilan tabiatda yuz beradigan estetik inqiroz haqida tushunchaga ega bo'ladi. Tabiatga bo'lgan vahshiyona munosabat ilmiy asosda asoslamagan xo'jalik faoliyati tufayli, yer yuzidan takrorlanmas tabiat go'zalligi yo'qolib ketayotganligini targ'ib etadilar [1].

Agar madaniyat stixiyali tarzda rivojlanmasa, ongli ravishda rivojlanmasa, o'zidan so'ng sahroni qoldiradi, tabiat materiallaridan nooqilona, g'ayriinsoniy foydalanish oqibati, tabiat bilan bog'liq oqibatlarni ko'rsatib qo'yadi. Markaziy Osiyoda, jumladan mamlakatimizda tabiatni asrash, uning boyliklaridan tejab - tergab foydalanish borasida muhim qadamlar qo'yigan.

Tabiatdan foydalanish, tabiatning moddiy va ma'naviy zahiralari ustidan nazorat ishlari o'rnatilgan, tabiat yodgorliklarini asrash jamiyatlari tuzilgan, ekologik harakat dasturi qabul qilingan ilmiy- texnikaviy taraqqiyotning salbiy oqibatlari (havo, suv, yerning turli xildagi sanoat chiqindilari bilan zaharlanishi) oldi olinmoqda. Tabiat zahiralariidan foydalanishga nisbatan iste'molchilik va xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishga nisbatan qat'iy chora ko'rilmogda [2.6; 24-b.].

Ekologik muammolari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan birinchi darajali muammo sifatida ko'tarildi.

Biroq hozirga qadar tabiat boyliklariga, ularning o'zaro bog'liqliligiga, go'zalligiga, rang - barang olamning bebaho ne'matiga axloqiy munosabatda bo'lishga e'tabor yetarlicha emas.

O'quv muassasalarida, umum ta'lim maktablarida, ayniqsa boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga tabiat estetikasiga oid bilimlar tizimi hanuzgacha yetarlicha singdirilmayabti. Bu muammoning yechimi ta'limiy - tarbiyaviy vazifalarni hal etishni talab etadi. Jumladan, o'quvchilar bilan tabiatni o'rganish bo'yicha maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ham hal qilish zarur. Tabiatning hozirgi holati o'sib kelayotgan yosh avlodda tabiat estetikasi hissini shakllantirishni muhim masalasini zudlik bilan hal qilishni taqozo etadi [2. 5;9-b.].

Buning uchun o'quvchilarga muayyan bilimlar zarur. Ana shu bilimlar tizimini aniqlab, uni o'qitish metodikasini yaratish kerak.

Sayyora tabiatning kelajagi yoshlarning tabiatga nisbatan estetik tarbiyalanishiga bog'liq. Bunda hal qiluvchi rolni tabiat estetikasi o'ynashi muqarrar. O'quvchilarni tabiat go'zalligi, ekologiya, ekotizim go'zalligidan zavq olishga, tabiat bilan do'stona munosabatda bo'lib yashashga o'rgatish o'ta muhim pedagogik muammo.

Agar tarbiya uchun tabiat butunlay estetik obyekt bo'lolmas ekan, zamin go'zalligining butunlay yo'qolib ketishi xavfi mavjud. Shuning uchun o'quvchilarda tabiatga, uning estetikasiga qiziqishni shakllantirish favqulotda dolzarb muammo hisoblanadi [2.9;28-b.].

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarni tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirish muammosining ijtimoiy muhimligidan kelib chiqib, mazkur tadqiqot uchun uslubiy qoidalarning asosiy doirasini aniqlab olish zarur.

Bular quyidagicha e'tirof etiladi:

- tabiatga nisbatan axloqiy munosabatda bo'lish vazifasi ijtimoiy buyurtma sifatida ko'rib chiqiladi;

- o'quvchilarga tabiatni bevosita estetik his etish, uning go'zalligini hissiy, ijodiy anglash, tabiatdagi mutanosiblik va hamohanglik to'g'risidagi tasavvurlarni majmuaviy tushunib yetish malakasi zarur;

- tabiatdagi estetik va ekologik omillarning mutanosibligi;

- tabiat go'zalligini e'zozlash ayni paytda uning muvozanatida ham insonning rolini nazarda tutish;

- tabiat qonuniyatlari va hayotiy mutanosibliklarining buzilishi natijasida yuzaga keluvchi inqiroziy ekologik sharoit va vaziyatlar natijasida nobud bo'layotgan buyuk estetik qadriyat sifatida qarash;

- tabiat tomonidan yaratilgan oily go'zallikka hazrat insonni ham kiritish;

- o'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishlarni shakllantirish o'sib kelayotgan avlodning go'zallikka uni asrash va boyitishga yo'naltirilgan ma'naviy hayotning muhim omilidir.

### **Xulosalar**

Tabiat go'zalligini his qilish, unga qiziqish ezgulikka, muhabbatga chorlovchi teran insoniy fazilatdir, shu bois tabiat go'zalligiga qiziqishni shakllantirish o'quvchilar shaxsiyatining ma'naviy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir [2.24;37-b.]. Bunda o'quvchilarning tabiatdagi ma'naviy- axloqiy xulqini belgilovchi, shuningdek, tabiatni asrashga, uning go'zalligini boyitishga amaliy yordam beruvchi insoniylik, vatanparvarlik kabi tuyg'ular muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. Abdulla She'r. „Estetika“ Nafosat falsafasi. Taqrizchilar: A. A. Qurbonmamadov, M. B. Umarov. T. „O'zbekiston“ . 2014.
2. „Pedagogika“ Ensiklopediya. III jild. Muharrir: R. G' Safarova, R. H. Jo'rayeva. „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“. T-2017.
3. K. T. Suyarov va boshqalar. 1 – sinf „tabiiy fanlar“. Toshkent - 2021.
4. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARNI ESTETIK QARASHLARINI O 'STIRISHDA TABIATNING O 'RNI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 2, pp. 27-34).
5. Rustam Sayfiddinovich Xurramov, Javohir Gaybullo Ogli Zokirov, & Matluba Karim Qizi Temirova (2021). ETHNOPEDEGOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING INTEREST IN NATURAL **Analysis of world scientific views International Scientific Journal 2023 Vol1 Issue 4 IF(Impact Factor)8.2 / 2023** AESTHETICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Scientific progress*, 2 (7), 832-839.
6. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O 'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.
7. XX, P. M. (2022). The Importance of Developing the Spiritual Thinking and Capacity of Primary School Students. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(2), 6-12.
8. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINI ESTETIK QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 26-31).
9. Boymatovna, M. M. T. (2023). O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 30-33.
10. Qizi, T. M. K. (2023). ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 56-60.



11. Temirova Matluba Karim Qizi. (2022). 1-4-SINFDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 1(2), 179–185.

### **O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH**

Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich  
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali,  
Maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasi mudiri, (PhD)

*Annotatsiya:* Maqolada o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutafakkirlaridan merosidan foydalanishga doir ilmiy izlanishlar, natijalar va xulosalar bayon etilgan. Shuningdek qadriyatlarning turlari, shakllari sanab o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* qadriyat, milliy g'urur, milliy ong, sharq mutafakkirlari, milliy urf-odat va an'analar, kamolot.

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ДЛЯ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

Эшкuvatov Тулкин Эшкuvatovich  
Каттакорганский филиал Самаркандского государственного университета,  
Заведующий кафедрой дошкольного образования и педагогики, (к.ф.н.)

*Аннотация:* В статье описаны научные исследования, результаты и выводы по использованию наследия восточных мыслителей в воспитании учащихся в соответствии с национальными ценностями. Также перечислены виды и формы значений.

*Ключевые слова:* ценности, национальная гордость, национальное сознание, восточные мыслители, национальные обычаи и традиции, зрелость.

### **USING THE LEGACY OF EASTERN THINKERS TO EDUCATE STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES**

Eshkuvatov Tulkin Eshkuvatovich  
Kattakorgan branch of Samarkand State University,  
Head of the Department of Preschool Education and Pedagogy, (PhD)

*Abstract:* The article describes scientific research, results and conclusions on the use of the heritage of Eastern thinkers in educating students in accordance with national values. The types and forms of values are also listed.

*Key words:* value, national pride, national consciousness, Eastern thinkers, national customs and traditions, maturity.

Qadriyatlar har bir millatning tarixi, buguni va kelajagini ko'rsatib turuvchi eng muhim omillaprdan biridir. Tadqiqotchilar qadriyatlarni moddiy, manaviy, milliy, diniy, mahalliy va umuminsoniy kabi bir qator turlarga ajratadilar. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va

asrlar osha takomillashib boraveradi. Qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikga, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorladigan katta manaviy kuchga aylanib borgan. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni millat manaviyatining ko'zgusi va millatning manaviy qiyofasi deyish mumkin.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyatsamaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehrmuruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy ma'naviy qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalash, ular ongida kichik maktab yoshidan boshlab Hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Milliy maktablarimizda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarni yuqorida ko'rsatilganlardek qilib tarbiyalash uchun avlod-ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiymadaniy merosimizni keng va har tomonlama o'rganishimiz, tarbiyaviy soatlar o'tish jarayonida maktab o'quvchilarini ulardan bahramand etishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jadal suratlarda olib borilmoqda.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun dolzarb va o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda" deya aytgan so'zlari orqali har bir inson tarbiya "ma'naviyatning o'chog'i" ekanligini, u jamiyatda yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash milliy qadriyatning yuksalishida muhim omil bo'la olishini anglashi zarur. [1].

O'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda, ajdodlar merosidan foydalanish, buyuk allomalar timsolini yoritish, ularda shu allomalarning, shu xalqning avlodi ekanligidan faxrlanish, shu Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va mustahkamlashda, shu buyuk zot, ulug' xalqqa nisbatan munosib farzand bo'lish, ularning davomchisi ekanligini ongida shakllantirmoq kerak. Bu maqsadlarni amalga oshirish, ularni hayotga kengroq joriy etishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, ommaviy mashg'ulotlarda, suhbatlarda, tarixiy kechalarda, tadbirlarida, bayramlarda, milliy an'analarga bag'ishlangan tadbirlarda o'quvchilar ongida shu fazilatlarni tarkib topishida alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, hayotga qadam qo'yish arafasida turgan o'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarini to'g'ri tashkil etish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishning negizi ekanligi, ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki har bir o'quvchi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimi, o'quvchi yoshlar yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, ularni boy tarixiy va madaniy merosimiz bilan tanishtirish, milliy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash o'z ifodasini topgan.

Mazkur tadqiqot yoʻnalishi boʻyicha oʻtkazilgan eksperimentlar natijalari, oʻquvchilar hayotini ijodiy oʻrganish, soʻrovnoma va anketalar oʻtkazish mobaynida shuni aytish mumkinki, oʻquvchi-yoshlar shaxsini shakllantirishda maqsadga muvofiq tarzda olib boriladigan maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning taʼsiri-yaʼni oʻquvchi yoshlar hayoti va faoliyatidagi oʻrni juda kattadir.

Yuqoridagi fikrlar va tanlangan mavzuimiz boʻyicha oldinga surgan maqsadimizni amalga oshirish, hamda ilmiy farazini isbotlash maqsadida anketa savollarini tuzib chiqdik.

Bizning Anketa soʻrovnomasini oʻtkazishdan asosiy maqsad oʻquvchilar va oʻquvchilarda milliy sifatlarini qay darajada ekanligini imkon darajasida aniqlab chiqish va mavjud boʻlgan kamchilik va muammolarni ilmiy va pedagogik jihatdan asoslashdir.

Ularga beriladigan Anketa soʻrovnomasida quyidagi savollar oʻrin olgan:

1. Milliy qadriyat haqida tushunchangiz.
2. Milliy gʻurur, milliy ong tushunchasini qanday tushunasiz?
3. Qadriyatlar qaysi sohalarga oid boʻlishi mumkin?
4. Oʻzbek xalqining qanday milliy urf-odat va anʼanalarini bilasiz?
5. Hozirgi kunda milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi oʻrnini qanday baholaysiz?
6. Milliy qadriyatlarning inson kamolotidagi oʻrni qanday?

Olingan natijalarni umumiy tahlil qiladigan boʻlsak, oʻquvchilarning milliy qadriyat haqidagi fikrlarini quyidagi jadval koʻrinishida koʻrishimiz mumkin.

Savollar, Baho	1	2	3	4	5	6	Jami:
Ijobiy	21%	13%	18%	11%	15%	9%	14,4%
Oʻrta	68%	73%	76%	56%	73%	44%	65,1%
Past	11%	14%	6%	33%	12%	47%	20,5:

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilarning milliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, umuman aytish mumkinki milliy tarbiyalanganlik darajasi “oʻrtacha” holda ekanligini aytish mumkin. Oʻquvchilar qadriyat haqidagi tushunchasiga toʻxtaladigan boʻlsak, ular qadriyat deganda bayramlarni, marosimlarni tushunishadi. Bundan shuni aytish mumkinki oʻquvchilarning milliy tarbiyalanganlik darajasini yaxshi deb boʻlmasligini, ularda milliy qadriyatlar haqidagi bilim, koʻnikma, malakalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi.

Shu muammolarni bartaraf etish uchun, oʻquvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yordam beruvchi bir qator tarbiyaviy tadbirlar oʻtkazdik. Biz oʻquvchilarda milliy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy tariximiz bilan yanada yaqinroq tanishtirish maqsadida, har bir guruh tarbiyaviy soatlarida, maʼnaviyat darslarida quyidagi mavzular asosida suhbatlar va maʼruzalar oʻqildi. Jumladan: “Milliy qadriyat tushunchalari”, “Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz”, “Oʻzbek xalq pedagogikasi – tarbiya asosi”, oʻquvchilarga shu mavzulardan tashqari “Sharq allomalari merosi – manaviyat asosi”, kabi mavzularda oʻquvchilariga maʼruzalar qilindi, savol-javoblar oʻtkazildi. Bundan tashqari oʻquvchilari bilan “Mehmondoʻstlik anʼanasi”, “Adolat, halollik – milliy tarbiya asosi”, “oʻquvchining maʼnaviy-milliy qiyofasi”, kabi mavzularda davra suhbatlari oʻtkazildi.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan tadbirlar oʻtkazilganidan soʻng, ularning olgan tushunchalarini aniqlash maqsadida yana qaytadan Anketa soʻrovnomasi oʻtkazildi. Buning natijasi pedagogik jihatdan tahlil qilindi va uni quyidagi jadvalda ilova qilamiz:

Savollar,daraja	1	2	3	4	5	6	Jami
Ijobiy	47%	46%	70%	78%	64%	44%	57%
O'рта	51%	51%	30%	22%	31%	42%	39%
Past	2%	3%	-	-	5%	14%	4%

Yuqoridagi ko'rsatichlarni umumlashtirgan holda, tajriba guruhlaridagi tadqiqotning boshida va tadqiqotning yakunida ko'rsatgan natija quyidagicha bo'ladi:

Daraja	Tadqiqot boshida	Tadqiqot yakunida
Ijobiy	14,4%	57%
O'рта	65,1%	39%
Past	47%	4%

Mazkur jadvalning qiyosiy yakuni shuni ko'rsatadiki, tajriba ishlarining boshlanishida eksperiment guruhlaridagi bolalarning milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini eksperiment yakuniga qiyosiy tahlil qilganda keskin o'sganligini ko'rsatadi.

Jumladan, eksperiment yakunida milliy qadriyatlar tushunchasi, darajasi past bo'lgan o'quvchilar soni keskin kamaydi.

Umuman olganda, tadqiqot jarayonida o'quvchilar jamiyatda qadriyatlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, falsafiy, diniy, oilaviy singari yo'nalishdaliligini anglab yetdilar. Shu bilan birgalikda, qadriyatlarning inson hayotidagi o'rni nechog'li ahamiyatli ekanligini, har bir xalq o'z milliy qadriyatlari bilan tirikligini tushungan holda idrok etadi.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. G'ofurov G'. Milliy an'analar//Xalq so'zi, 1993 yil. 11 fevra.
3. Farmonova Muzayyamxon Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi/ Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019, 36 b.
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T; "O'qituvchi", 1999. B.198.
5. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016. B.324,486, 487.
6. Eshquvvatov T.E.The Pedagogical Activity Of The Students In The Preparation Of The Prevention Of Disputable Situations. Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 10, 2426-2431.

## ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТА В КОНТЕКСТЕ РЕАЛИЗАЦИИ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ МОТИВАЦИОННО-РАЗВИВАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ЦЕННОСТНО-СМЫСЛОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ВРЕМЕНЕМ В ВУЗЕ

Джафарзода Сабзали Файзали

к.т.н., доцент кафедры гуманитарных наук и права

Института технологии и инновационного менеджмента города Куляб

*Аннотация.* В статье приводится теоретико-методологическое обоснование и актуальность разработки и реализации мотивационно-развивающих технологий педагогической соизмеримости ценностно-смыслового управления временем в инновационной образовательной среде вуза на её основе рассматриваются достижения целей создания стимулирующего условия в мотивационной среде обучения и образа мотивированного студента.

*Ключевые слова:* студент, модель, мотивация, среда, направленные векторы, формирование, личность, конкурентоспособность, вариативный, обучения, время, управление, развитие.

## УНИВЕРСИТЕТДА ВАҚТНИ ҚИЙМАТ-СЕМАНТИК БОШҚАРИШ МОТИВАЦИОН ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ДИДАКТИК ВАЗИФАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АХБОРОТ-ТАҲЛИЛИЙ МОДЕЛИ

Жафарзода Сабзали Файзали

техника фанлари номзоди, Кўлоб шаҳри технология ва инновацион менежмент институти гуманитар фанлар ва ҳуқуқ кафедраси доценти

*Аннотация.* Мақолада университетнинг инновацион таълим муҳитида педагогик мутаносиблик қиймати-семантик вақтни бошқаришнинг мотивацион-ривожланаётган технологияларини ишлаб чиқиш ва жорий этишнинг назарий ва услубий асосланиши ва долзарблиги, мотивацион ўқув муҳитида рағбатлантирувчи муҳитни яратиш мақсадларига еришиш ва унинг имиджга еришиш. мотивацияланган талабалар кўриб чиқилади.

*Калит сўзлар:* талаба, модел, мотивация, атроф-муҳит, йўналтирилган векторлар, шаклланиш, шахс, рақобатбардошлик, ўзгарувчан, ўрганиш, вақт, бошқарув, ривожланиш.

## INFORMATION AND ANALYTICAL MODEL OF STUDENT ACTIVITY IN THE CONTEXT OF THE IMPLEMENTATION OF DIDACTIC TASKS OF MOTIVATIONAL AND DEVELOPMENTAL TECHNOLOGIES VALUE-SEMANTIC TIME MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTION

Jafarzoda Sabzali Fayzali

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor of the Department of Humanities and Law of the Institute of Technology and Innovation Management of the city of Kulyab

*Annotation.* The article provides a theoretical and methodological justification and relevance of the development and implementation of motivational-developing technologies of pedagogical commensurability


*value-semantic time management in the innovative educational environment of the university on its basis, the achievement of the goals of creating a stimulating environment in the motivational learning environment and the image of a motivated student are considered.*

**Keywords:** *student, model, motivation, environment, directed vectors, formation, personality, competitiveness, variable, learning, time, management, development.*

В словаре русского языка С. И. Ожегова понятию времени, даются следующие определения, «1 – одна из объективных основных форм (наряду с пространством) существования бесконечно развивающейся материи; 2 – продолжительность, длительность чего-нибудь, измеряемая секундами, минутами, часами; 3 – промежуток той или иной длительности, в который совершается что-нибудь, последовательная смена часов, дней, лет» [1, с. 103].

Так как нами понятие «время» рассматривается также в контексте управления инновациями и инновационным процессом, из множества вариантов, предложенных авторами по данной тематике, к числу которых можно отнести работы ученых Р. А. Абдурахмонова, В. Вашенко, Л. Г. Викторовой, Н. Е. Кондратенко, Л. Н. Преждо, А. К. Костина, Н. А. Чапоргиной, В. С. Кукушина, П. Е. Решедникова, Е. К. Селевко, В. Слабодчикова, Е. А. Тихоновой и других за основу в соответствии с задачами исследования, поставленными при написании данной статьи принято определение А. И. Пригожина, заключающегося в «инновация – это изменения, которые носят существенный характер, сопровождаются изменениями в образе деятельности, стиле мышления, и в этом смысле категория новизны относятся не только (и несколько!) ко времени, но и к качественным чертам изменения» [2, с. 56]. В этом смысле инновационная среда, которая создаёт условия по формированию мотивированного студента представляет собой «1 – побуждение к деятельности, связанное с удовлетворением потребностей субъекта; 2 – предметно-направленная активность определённой силы; 3 – осознаваемая причина, лежащая в основе выбора действий и поступков личности» [3, с. 231], с учётом нашей постановки задачи к «продуктивной познавательной деятельности, активному усвоению содержания образования» в контексте реализации дидактических целей ценностно-смысловое управление временем в инновационной образовательной среде вуза, а при выборе базовых критериев создания модели мотивированного студента, нами принято за основу определение, изложенное в работе, то есть “это студент, у которого есть стимул, цель и стремление к любым видам учебной деятельности” [4, с. 245]. Исходя из выбора целевых задач построения информационно-аналитической модели деятельности студента в контексте реализации дидактических задач мотивационно-развивающих технологий ценностно-смысловое управление временем в вузе в этом аспекте предполагается, что развитие инновационного ресурса личности происходит в инновационной среде вуза, имеющего соответствующий уровень инновационного потенциала, означающего "способность создавать, воспринимать, реализовывать новшества, а также своевременно избавляться от содержания форм и методов работы с целью повышения их эффективности" [5, с. 109]. С целью уточнения вопроса насколько студенты пользуются условиями вариативного выбора специальностей и будущей профессии (например, согласно условиям Национального центра тестирования при Президенте Республики Таджикистан, студенты имеют возможность выбора до 12-ти комбинаций специальностей, по этой же аналогии

этими же возможностями пользуются многие студенты стран СНГ, в том числе и студенты Республики Узбекистан) [6]. При поиске ответов на вопрос - какие цели ставит и какими ценностями руководствуется современная молодёжь Таджикистана при выборе профессий и получения образования, нами в период с 2017 до 2022 с участием более 480 студентов при каждой выборке проводились социологические исследования и при ответе на вопрос «какова ваша цель при поступлении в вуз?» мы получили результат с определенным уровнем погрешности  $\pm 5\%$  из общего числа респондентов:



**Рисунок 1.** Диаграмма распределения мнения студентов о целях и задачах их обучения в вузе.

Как видно из представленной диаграммы, более 3/4 опрошенных респондентов отметили, что главной целью их поступления в ВУЗ является получение знаний. В тоже время, 13% студентов чистосердечно признались, что они поступили в вуз для получения диплома. На поставленный вопрос 10% респондентов ответили, что главной их целью является получение диплома и соответствующих знаний. Такая палитра распределения мнений студентов диктует необходимость более углублённого изучения факторов, влияющих на выявление мотивов и мотивации получения образования и на этой основе определить программные цели профессионального саморазвития студентов по избранной специальности. С этой позиции представляет интерес вопрос: с каким уровнем готовности к самореализации, достижения жизненных идеалов и принципов выпускник вуза, по мере получения диплома – будущий специалист отрасли будет приступать к своей профессиональной деятельности? Кроме приобретенных знаний, умений и навыков, у выпускника в годы учебы в высшей школе выработалось желание служить идеалам профессии, найти свое место в преобразованиях и проводимых реформах и стремиться к благополучию и благосостоянию своей страны, имея при этом желание работать ради повышения международного престижа и формирование соответствующих системных профессиональных качеств страны в развивающемся и конкурирующем мире. В этой связи, системно в педагогической науке уделяется внимание временному аспекту

жизнедеятельности человека, как к одному из базовых условий реализации эффективности учебно-воспитательного процесса, который можно рассмотреть в работах В. П. Беспалько, П. П. Блонского, П. Я. Гальперина, Т. Ш. Миннибаева и других. Системный анализ специального педагогического использования социально-педагогических и индивидуально-личностных аспектов времени в контексте исследования процессов формирования и становления личности в педагогически организованной среде воспитания и образования выполнен в исследованиях С. Ю. Лачинова, Н. Ф. Масловой, А. К. Нешкова, З. В. Сапроновой и других ученых.

Так, Н. Ф. Маслова отмечает в своей работе, что в условиях современной действительности социальную значимость поведения человека определяет, в том числе, и его способность рационально применять временной ресурс в своей практической деятельности [7, с. 5]. По этой же логике, в работе Е. И. Рабина структура самоорганизованной во времени личности студента вуза, представленная как совокупность трех взаимосвязанных блоков: мотивационно-ценностного, когнитивного и действенно-рефлексивного, а также в этом смысле, по мнению автора, процесс формирования самоорганизованной во времени личности студента вуза – это специально организованный процесс взаимосвязанной деятельности преподавателя и студентов, направленный на создание педагогических условий по оказанию обучающимся педагогической помощи, поддержки и содействия в развитии у них опыта самоорганизованного во времени поведения посредством формирования ценностных отношений, устойчивых мотивов, знаний и компетенций в рассматриваемой области [8, с. 159]. При нашей постановки задачи мотивационно-ценностный блок объединяет три компонента: осознание времени как ценности, осознание самоорганизации во времени как ценности, мотивы к самоорганизации во времени. Когнитивный блок включает три компонента: знание своих личностных особенностей, знания в области самоорганизации во времени, знание способов самоорганизации во времени. Действенно-рефлексивный блок вбирает в себя четыре компонента: компетенции в области целеполагания, компетенции в области планирования, компетенции в области рациональной организации времени, рефлексивные умения в области самоорганизации во времени.

Проблема мотивации является одной из фундаментальных как в отечественной, так и в зарубежной психологии. Ее исследованием в разное время занимались такие ученые, как В. Г. Асеев, Н. Ц. Бадмаева, Л. И. Божович, А. Н. Букина, Е. П. Ильин, А. Н. Леонтьев, С. Л. Рубинштейн, З. Фрейд и другие ученые. Сложность и многоаспектность данной проблемы обуславливает множественность подходов к пониманию ее сущности, природы, структуры, а также к методам ее изучения. Следует отметить, что в процессе проведения констатирующих экспериментов, очень непросто выявить, какие мотивы являются ведущими в мотивационном процессе конкретного человека в той или иной ситуации. Можно догадываться о преобладании определенного мотива или мотивов, но в конкретном виде вычленив их достаточно сложно, поскольку знание логики возникновения и протекания процесса мотивации не наделяет решающими преимуществами в управлении данным процессом.

Основной образующей деятельностью, ее центральным понятием является вектор «мотив-цель» [9], поскольку деятельность инициируется теми или иными мотивами и направлена на достижение определенной цели. Данный вектор выступает своеобразным



«стержнем» деятельности, организующим всю систему психических процессов и состояний, которые в эту деятельность включаются [10].

Ведущая роль понятиям «мотив» и «цель» отводится в работах А. Н. Леонтьева, С. Л. Рубинштейна и других. По А. Н. Леонтьеву цель может пониматься и как представление о результате, и как сам результат, между которыми простирается некая временная реальность, рассматриваемая как время достижения данной цели [11].

Понимание процесса возникновения и усиления мотивации основано на знании и принятии всего набора потребностей и организации условий по удовлетворению этих потребностей с учетом возрастных особенностей.


Как известно, особенностью студенческого возраста является ориентация на профессионально-учебную деятельность. В этом плане, как отмечают С. Д. Резник и И. А. Игошина мотивы и мотивации связаны с построением плана целей жизни и карьеры, которые сформулированы в общем виде, состоящих из трёх пунктов, то есть «быть удачливым в учебе, иметь хорошие отношения со своей группой, получать удовольствие от занятий» [12, с. 167]. В продолжении этой мысли формулу жизни целенаправленного человека В. Моженков предлагает выразить следующим образом:

$$\text{Ситуация} = \text{Действия/Бездействие} = \text{Судьба (1)},$$

если действовать по мнению автора, то это означает, что данная позиция включает в себе - опираться на основании: «своих сильных сторон, ценностей и записанных собственных правил, целей и планов на день, неделю, месяц и на всю жизнь» [13, с. 221]. Следовательно, воздействию временного фактора повержены как процесс целеполагания, предполагающий разведение во времени целей реальных и идеальных, так и мотивы, которыми личность руководствуется в ходе выполнения той или иной деятельности, поскольку способны меняться в зависимости от возраста человека и специфики самой деятельности. Вышеизложенное позволяет прийти к заключению о необходимости целенаправленного формирования в личности человека ценностного отношения ко времени, развития в ней мотивации к самоорганизации во времени и опыта самоорганизованной личности. В этом аспекте, управление временем (Time Management) с учетом выбора компонентов целей, ценностей, смысла нами рассматривается в постановке американского специалиста Патрика Форсайта, в логическом продолжении и использованием замысла, предложенная С. И. Калининным «управлять временем – значить управлять самим собой (Патрик Форсайт), посвященный «изучению проблем и методов оптимизации временных затрат в различных сферах и отраслях человеческой жизнедеятельности ... Важно понимать, что «просто времени» не бывает, а всегда существует «время существование чего-то». ТМ – это не вообще «управление временем», а управление временем какого-либо объекта или процесса жизнедеятельности» [14, с. 13].

Технология «тайм-менеджмент» в контексте ценностно-смыслового управления временем в инновационной образовательной среде вуза может рассматриваться с позиции педагогической науки, так как, во-первых, включает в себя взаимодействие преподавателя и студента; во-вторых, технология «тайм-менеджмент» адекватна компонентам педагогического процесса (цель, задачи, содержание, методы, средства, формы и результаты взаимодействия); в-третьих, данная технология формирует ценностное отношение ко времени, феномену самоорганизации, процессу обучения; в-четвертых, технология «тайм-менеджмент» способствует личностному росту студента, осуществляя

- Baseline cognitive assessments, including working memory, attention, and inhibitory control, will be conducted.

##### 2. Intervention Phase:

- Participants will engage in a structured word game intervention, which will involve the use of a specially designed word game application. The intervention will run for a predetermined period, with regular sessions to ensure consistent engagement.

##### 3. Post-Test Assessment:

- After the intervention, participants will undergo post-test language proficiency assessments.
- Cognitive assessments will be repeated to evaluate changes in cognitive functions.

##### 4. Neuroimaging Phase:

- A subgroup of participants will be selected for neuroimaging studies using functional magnetic resonance imaging (fMRI) and electroencephalography (EEG).
- Participants will complete language-related tasks inside the scanner (e.g., word recognition, sentence comprehension) before and after the word game intervention.
- Neuroimaging data will be collected to investigate brain activation patterns and connectivity changes associated with word game engagement.

#### Data Analysis:

Quantitative data from language proficiency tests and cognitive assessments will be analyzed using appropriate statistical methods, such as t-tests and ANOVA, to determine changes in language proficiency and cognitive functions.



Neuroimaging data will be analyzed using standard procedures for fMRI and EEG data analysis. Brain activation patterns, connectivity changes, and correlations with language learning improvements will be examined.

**Ethical Considerations:**

This research will adhere to ethical guidelines, including obtaining informed consent, ensuring participant privacy and confidentiality, and obtaining ethical approval from relevant institutional review boards.

**Limitations:**

This study may have limitations related to the size and diversity of the participant pool, as well as potential confounding variables that could affect the neuroimaging results. Additionally, the study's duration may impact the depth of language proficiency changes observed.

## **Results**

The study aimed to investigate the cognitive benefits of word games in English language education, with a particular focus on neuroscientific aspects. The research encompassed pre-test assessments, a word game intervention, post-test assessments, and neuroimaging analyses. The following section presents the key findings:

### **1. Language Proficiency Improvement:**

After the word game intervention, participants demonstrated statistically significant improvements in language proficiency. The mean scores on language proficiency tests (e.g., TOEFL or CEFR) increased by an average of 12.5%, indicating that engagement in word games positively impacted language learning.

### **2. Cognitive Function Enhancements:**

Cognitive assessments revealed notable enhancements in various cognitive functions among participants:

- **Working Memory:** Participants exhibited improved working memory, with a mean increase of 17.3% in working memory scores.
- **Attention:** Attentional control improved, as evidenced by a mean increase of 14.8% in attentional task performance.
- **Inhibitory Control:** Participants displayed enhanced inhibitory control, with a mean increase of 10.6% in inhibitory control scores.

### **3. Neuroimaging Results:**

Neuroimaging studies conducted with a subgroup of participants provided insights into the neural mechanisms associated with word game engagement:

- **Brain Activation Patterns:** Analysis of fMRI data revealed increased activation in brain regions associated with language processing, including the left inferior frontal gyrus and posterior superior temporal gyrus. These regions showed greater activation during language-related tasks after the word game intervention.
- **Connectivity Changes:** Functional connectivity analyses indicated increased connectivity between the language-related regions, suggesting improved neural network efficiency in language processing tasks.
- **Correlation with Language Improvement:** Participants who exhibited the most significant improvements in language proficiency also showed the most substantial changes in brain activation and connectivity patterns.

### **4. Participant Feedback:**

Qualitative feedback from participants overwhelmingly expressed enjoyment and engagement with the word game intervention. Many participants reported increased motivation to learn English and a sense of accomplishment from completing game-based language tasks.

#### 5. Limitations:

It's essential to acknowledge several limitations of this study, including the relatively small sample size, potential selection bias in the neuroimaging subgroup, and the relatively short duration of the word game intervention. Future research could address these limitations to provide a more comprehensive understanding of the cognitive benefits of word games in language education.

### **Discussion**

The results of this neuroscientific exploration into the cognitive benefits of word games in English language education offer intriguing insights into the potential of interactive and gamified approaches for enhancing language learning and cognitive development. This discussion section addresses the implications of these findings, their alignment with existing literature, and avenues for future research.

#### 1. Implications of Language Proficiency Improvement:

The observed statistically significant improvement in language proficiency scores among participants underscores the effectiveness of word games as a pedagogical tool. These findings align with previous research that has highlighted the benefits of engaging learners in language tasks that are enjoyable and interactive (Gan et al., 2020). The practical implication is that educators should consider incorporating word games into language curricula to facilitate more engaging and effective language learning experiences.

#### 2. Cognitive Enhancement and Educational Benefits:

The improvements in cognitive functions, particularly working memory, attention, and inhibitory control, suggest that word games contribute not only to language learning but also to broader cognitive development. These cognitive enhancements are consistent with the cognitive benefits associated with problem-solving and memory tasks (Blachnio et al., 2018). Educators and policymakers should recognize the potential of word games to support holistic cognitive growth among learners.

#### 3. Neuroscientific Insights:

The neuroimaging results provide neuroscientific evidence of the neural mechanisms involved in word game-induced language learning. Increased activation in language-related brain regions, along with improved connectivity, suggests that word games stimulate neural networks associated with language processing and comprehension. This aligns with theoretical frameworks such as the Socio-Cultural Theory (Vygotsky, 1978) and the Situated Learning Theory (Lave & Wenger, 1991), which emphasize the role of social interaction and authentic contexts in cognitive development.

#### 4. Participant Engagement and Motivation:

Qualitative feedback from participants regarding increased motivation and enjoyment during the word game intervention highlights the importance of creating engaging learning environments. Motivated and engaged learners are more likely to persist in their language learning endeavors (Deci & Ryan, 1985). Educators should consider gamified approaches as a means to enhance motivation and promote active participation.

#### 5. Limitations and Future Directions:

It is essential to acknowledge the limitations of this study, including the relatively small sample size and the short intervention duration. Future research should aim to replicate these findings with larger and more diverse participant groups. Additionally, longitudinal studies could explore the long-term effects of word game-based language learning on language proficiency and cognitive development.

### **Conclusion**

In conclusion, this neuroscientific exploration underscores the potential of word games as a dynamic and effective approach to English language education. Beyond fostering language proficiency, word games offer a pathway to cognitive growth, engagement, and enhanced neural adaptability among language learners. As educators continue to seek innovative and engaging teaching methods, word games stand as a promising tool to empower learners in their journey toward language mastery and cognitive development.

### **References**

1. Blachnio, A. P., Kubińska, V. K., & Jurek, P. (2018). Cognitive benefits of puzzle solving: A literature review. *Cognitive Psychology Review*, 12(3), 289-305.
2. Byun, K. U., Lee, J. H., & Park, S. M. (2018). Learning styles and preferences in game-based learning. *Journal of Educational Technology & Society*, 21(1), 222-233.
3. Crescentini, C., Aglioti, S. M., Fabbro, F., & Urgesi, C. (2014). Virtual lesions of the inferior parietal cortex induce fast changes of implicit religiousness/spirituality: A combined transcranial magnetic stimulation-behavioral study. *PLOS ONE*, 9(9), e104326.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Springer Science & Business Media.
5. Diamond, A. (2013). Executive functions. *Annual Review of Psychology*, 64, 135-168.
6. Gan, L., Liu, C., & Wu, H. (2020). Gamification and motivation in English as a foreign language (EFL) classrooms. *Computer Assisted Language Learning*, 33(1-2), 159-185.
7. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work?--a literature review of empirical studies on gamification. 2014 47th Hawaii international conference on system sciences, 3025-3034.
8. He, C., Hinds, J., & Lee, J. D. (2019). Attention allocation in a self-driving car: Cognitive and visual-motor dual-task costs. *Human Factors*, 61(7), 1053-1067.
9. Kaushanskaya, M., & Marian, V. (2009). Bilingualism reduces native-language interference during novel-word learning. *Journal of Experimental Psychology: General*, 138(3), 497-502.
10. Lave, J., & Wenger, E. (1991). *Situated learning: Legitimate peripheral participation*. Cambridge University Press.
11. TOEFL iBT® Test: Test Content and Structure. (n.d.). Educational Testing Service. Retrieved from [https://www.ets.org/s/toefl/pdf/toefl\\_ibt\\_test\\_content\\_and\\_structure.pdf](https://www.ets.org/s/toefl/pdf/toefl_ibt_test_content_and_structure.pdf)
12. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.



**TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARIDA O'QUVCHILAR  
XOTIRASINING**

**GENERATIV EFFEKTINI RIVOJLANTITISH**

Urmonova Dilfuza Mamasalievna

Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi

o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

ORCID NO: 0000-0001-7356-1560

[ormonova.dilfuza@mail.ru](mailto:ormonova.dilfuza@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Shaxsning bilish jarayoni murakkab faoliyat bo'lib, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, xayol, diqqat kabilarni o'z ichiga oladi. Psixologiyada xotiraning generatsiya effekti shaxsning o'zi o'ylab topib, bevosita bajargan ishlarining juda tez va oson esga tushirilish jarayonidir. Maqolada Ebbinghausning "Unutish yoyi", Toni Buzanning "Unutish yoyini yengish yo'llari", ona tili takrorlash va mustahkamlash darslari samaradorligini oshirishda o'quvchilar xotirasining generativ effektini rivojlantiruvchi turli interfaol usullardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *"Unutish yoyi", xotira turlari, generatsiya effekti, assimilyatsiya kuchi, mantiqiy fikrlash, "Unutish yoyi"ni yengish yo'llari.*

**STUDENT MEMORY IN REVISION AND REINFORCEMENT**

**LESSONS DEVELOPMENT**

**OF GENERATIVE EFFECT**

Urmonova Dilfuza Mamasalievna

Muhammad Yusuf School of creation

teacher, freelance researcher

ORCID NO: 0000-0001-7356-1560

[ormonova.dilfuza@mail.ru](mailto:ormonova.dilfuza@mail.ru)

**Abstract:** *The human cognitive process is complex and includes intuition, perception, memory, thinking, speech, imagination and attention. In psychology, the memory generation effect is the process of very quickly and easily remembering actions that a person came up with and directly performed. The article discusses "The Forgetting Curve" by Ebbinghaus, "Ways to overcome the forgetting curve" by Tony Buzan, as well as the use of various interactive methods that develop the generative effect of students' memory in increasing the efficiency of repetition and consolidation in native language lessons.*

**Key words:** *"Forgetting Curve", types of memory, generation effect, power of assimilation, logical thinking, ways to overcome the "Ebbinghaus Curve".*

**РАЗВИТИЕ ГЕНЕРАТИВНОГО ЭФФЕКТА ПАМЯТИ  
УЧАЩИХСЯ**

**НА УРОКАХ ПОВТОРЕНИЯ И ЗАКРЕПЛЕНИЯ**

Урмоновaя Дилфуза Мамасалиевна

Школа творчества Мухаммад Юсуфа

учитель, независимый исследователь

ORCID NO: 0000-0001-7356-1560

[ormonova.dilfuza@mail.ru](mailto:ormonova.dilfuza@mail.ru)

**Аннотация:** *Познавательный процесс человека сложен и включает в себя интуицию, восприятие, память, мышление, речь, воображение и внимание. В психологии эффектом генерации памяти называется процесс очень быстрого и легкого припоминания действий, которые человек придумал и непосредственно совершил. В статье рассматриваются «Кривая забывания» Эббинхауса, «Способы преодоления кривую забывания» Тони Бьюзена, а также использование различных интерактивных методов, развивающих генеративный эффект памяти учащихся в повышении эффективности повторения и закрепления на уроках родного языка.*

**Ключевые слова:** *«Кривая забывания», типы памяти, эффект генерации, сила усвоения, логическое мышление, пути преодоления «Кривую Эббинхауса».*

### **Kirish**

Bilim insonga uning hayotiy faoliyatida yordam berishi, yangi bilimlarni olish, ularni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. O'quvchilarning yetarlicha keng, chuqur bilimlarni saqlagan holda, xotirani ortiqcha yuklamalik va fan asoslarini mustahkam hamda ongli ravishda o'zlashtirishini ta'minlashda to'g'ri tashkil etilgan, tizimli ravishda o'tkaziladigan takrorlash hamda mustahkamlash darslari alohida o'rin tutadi.

Takrorlash o'rganilayotgan ma'lumot (material) haqida eng yaxshi xabardorlikni ta'minlaydi, unutilishning oldini olish orqali assimilyatsiya kuchini oshiradi va olingan bilimlarni tizimlashtiradi, o'quvchilarning e'tiborini, xotirasini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni tobora keng amaliy materiallarni taqqoslash, umumlashtirish, asoslash malakasini oshiradi. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar uchun ish natijalarini ko'rishga imkon beradi, mustaqil ishning so'nggi ko'nikmalarini singdiradi va o'ziga ishonchni tarbiyalaydi.

Ona tili ta'limi jarayoni muayyan ketma-ketlikda bajariladigan jarayonlarni, ya'ni yangi mavzuni o'rganish, dastlabki mustahkamlash, ma'lum vaqt o'tgandan keyin esa takrorlash kabi bosqichlarni qamrab oladi. Ta'lim oluvchi ushbu jarayonlardan o'tib ona tilidan berilayotgan bilimlarni o'zlashtiradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Psixolog olim O.K.Tixomirovning tushuntirishiga ko'ra, voqea- hodisalarining vaqt jihatdan qabul qilinish (idrok etilish) izchilligi eslab qolish, xotirada saqlash, eslash (xotiraga tushirish), unutilishning birinchi belgisi sanaladi; esda olib qolinmagan narsani xotiraga tushurish qiyin; esda olib qolish qayta ifoda etishdan oldin kelishi lozim; o'zlashtirilgan narsanigina xotirada saqlash mumkin, qachonlardir xotirada saqlangan narsani unitish mumkin. Olima I.A.Zimnyaya esa eslab qolish harakati yangi mavzuni o'rganish va dastlabki mustahkamlash jarayonida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Esda olib qolingan bilimlarga xotirada saqlanib turadi. O'zlashtirish deganda insonning qabul qilish, ma'noviy ishlov berish, xotirada saqlash va qayta ifoda etishni ta'minlovchi barcha o'quv-biluv jarayonlarini o'z ichiga oladigan murakkab intellektual faoliyati sanalib, o'qish-o'rganish ishlarining natijasi hisoblanadi". Aksincha, o'zlashmagan bilim keyingi intellektual faoliyatda ishlatilmaydi, binobarin, xotirada saqlanib qolmaydi.

O.K.Tixomirovning fikricha, esda olib qolish aktiga jalb etilgan jarayonlarning birinchisi izlar konsolidatsiyasi (vaqt o'tishi bilan o'zgarishga uchrashi), ikkinchisi- rekonstruksiya (qayta qurilishi), uchinchisi ma'noviy guruhlanishidir. Olingan bilimlarning vaqt o'tishi bilan xiralashuvi, bilimlarning qorishtirilishini shundan deb hisoblash mumkin.

Metodik adabiyotlarni o'rganishimiz natijasida shu ma'lum bo'ladiki, olingan bilimlar unitila boshlagan, o'quvchilarning xotirasida saqlanib qolgan yoki umuman saqlanib qolmagan bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ham takrorlashni uch xil anglash joiz bo'ladi:

- 1) xotirada saqlanib qolgan bilimlarni yana bir bir eslash;
- 2) unutila boshlagan bilimlarni xotirada tiklash;
- 3) xotirada saqlanib qolmagan bilimlarni yangidan o'rganish.

### **Muhokama**

Ko'nikma va malakalar ustida olib boriladigan ishlarni ham yuqoridagi kabi uch xil darajalash mumkin. Tiklangan bilim, ko'nikma va malakalarni esa, o'z navbatida, mustahkamlash va takrorlash bosqichlaridan olib o'tish lozim.

"Xotiralarash – oldin o'rganilgan til hodisalarini qayta xotiralarashga asoslangan amaliy ishlardir. Xotiralarashning: 1) tayyorlovchi xotiralarash va 2) umumlantiruvchi xotiralarash kabi turlari bor.

1. Tayyorlovchi xotiralarash: egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchi xotirasida tiklash ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Tayyorlovchi xotiralarash yangi bilimlarni egallash uchun asos vazifasini o'taydi.


2. Umumlashtiruvchi xotiralarash (takrorlash). Mashg'ulotlarning oxirida umumlashtiruvchi xotiralarash ishlari bajarilishi lozim.

Ma'lumki, inson ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. **X o t i r a** – bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutilish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir. Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Inson xotirasining yaxshi bo'lishi quyidagi omillarga bogliq:

- esda saqlab qolish bilan bogliq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
- shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- irodaviy kuchi va intilishlariga.

Nima uchun odam u yoki bu ma'lumotni xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada hosil bo'ladigan nerv boglanishlari – assotsiatsiyalar bilan bog'lashsa, bioximiklar-ribonuklein kislotasi (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

1850-yilda nemis psixologi Herman Ebbinghaus birinchilardan bo'lib inson xotirasi ustida tajribalar olib bordi. Tadqiqotlari natijasida ta'lim tizimidagi eng munozarali faktlarni kashf qildi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, inson o'rganganlarining 90 foizini 30 kun mobaynida sekin-asta unutib boradi. Juda katta hajmdagi unutilish esa dars tugashi bilanoq sodir bo'ladi. Bu favqulodda xotira egalaridan tashqari, barcha odamlarga xos xususiyat. Ebbinghaus o'z tadqiqotlarini ilmiy jurnalda e'lon qilib, shaxs xotirasining "unutish yoyi"ni matematik hisoblab chiqdi va quyidagi natijaga erishdi. (1- rasm)




**1-rasm Ebbinghausning “Unutish yoyi”**

Ebbinghaus qanchalik ko'p tajriba o'tkazsa ham, natijalar deyarli bir xil edi. Ya'ni odamlar bir soatdan so'ng o'rgangan ma'lumotlarining 50 foizini, bir kundan keyin esa yana 10 foiz, bir oy o'tib esa yana 14 foizi ma'lumotni esdan chiqarib yuboradi. Shundan so'ng xotirada ma'lumotlar barqarorlashadi, doimiy xotiraga o'tib, unutish tezligi ham me'yorga tushadi. Ko'rinib turibdiki, har qanday

ma'lumot o'rganganilgandan keyin qanchalik ko'p vaqt o'tsa, u ma'lumotni xotirada saqlab qolish ham shunchalik susayib boraveradi. Agar yangi ma'lumotni bir marta ham takrorlanmasa yoki unga murojaat qilinmasa, 31-kunga kelib uning 90 foizini unutiladi. Ebbinghausning fikricha, oralatib takrorlash orqali ma'lumotlarni xotirada yaxshiroq saqlab qolish mumkin.

Oralatib takrorlash qoidasiga ko'ra, ma'lumotlarni ora-orada takrorlab uzoqroq vaqt “xotira diski”da saqlab turish mumkin. Miyadagi ma'lumotlar neyronlarga joylashadi. Biroz vaqt o'tib takrorlaganimizda esa u neyronlar yanada mustahkamlanadi. Dono xalqimiz “Yuz martada yod bo'ladi, ming martada –

muhur” degan gapni bejiz aytmagan. Ebbinghaus kerakli ma'lumotlar xotirada mustahkam o'rnashishi uchun ma'lum reja asosida takrorlashni tavsiya etadi. (2- rasm)



2- rasm. Unutish yoyini yengish

Toni Buzan “Dunyodagi eng muhim grafa” nomli kitobida Ebbinhaus ishlab chiqqan “Unutish yoyi”ni 7 ta asosiy qoida asosida yengib, zaruriy ma’lumotlarni uzoqroq muddatda eslab qolishga erishish mumkinligi isbotlab berdi:

1. Birinchilar. O’rganish jarayonidagi eng birinchi ma’lumotlar birinchi yodda qoladi va esga keladi. (Birinchilar birinchida)

2. Oxirgilar ham birinchida. O’rganish jarayonidagi eng oxirgi qoida va faktlar oson esda qoladi, chunki ular yaqinda o’rganilgan.

3. Oldin biladigan ma’lumotlar va assotsiatsiya qilingan narsalar. Ma’lumki, assotsiatsiya muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo’ladigan aloqa. Inson ongida avvalgi hayotiy tajribalar bilan belgilanadigan tasavvurlar bog’lanishidir. Inson oldingi bilgan narsalarni yangisi bilan bog’lashi bilan esda qolish jarayoni yaxshilanaveradi.

4. Fon Restof effekti. Nimagaki urg’u berilgan va boshqalaridan ajralib turgan bo’lsa - ular esda qoladi. Shuning uchun materialni o’qish jarayonida uni boshqalaridan ajralib turadigan tomonlarini topish muhimdir.

5. Qiziqish ta’siri. Ta’lim oluvchilarning qiziqishi uyg’onganda fikrlash jarayoni tezlashadi. Ijodiy fikrlash orqali o’zlashtirilgan bilimlar xotirada yaxshiroq muhrlanadi.

6. Hissiyotlar ta’siri. Shaxsning qandaydir hissiyotini uyg’otgan axborotlar miyada mustahkam o’rnashadi. Demak, o’rganish jarayonida o’quvchilarda quvonch, g’oliblik, hayrat, ajablanish kabi hislarni uyg’otish kerakli ma’lumotlarni xotirada uzoqroq saqlash imkonini beradi.

7. Mantiqiylik. Mantiqiy fikrlashda majbur etgan lavhalar, ma’noli qismlar unutish yoyini yengishga yordam beradi.

### Natijalar

Ona tili takrorlash va mustahkamlash darslarini rejalashtirishda o’qituvchi Toni Buzan tavsiya etgan qoidalarni yodda tutmog’i va dars jaroniga ta’lim oluvchilarning “Unutish yoyi”ni yengishga qaratilgan interfaol usullarni joriy etishga intilmog’i kerak.

Demak, xotira faol jarayon bo’lib, u shaxsning u yoki bu turli ma’lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bogliq



bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Shaxsning o'zi o'ylab topib, uzi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada **generatsiya effekti** deb ataladi. Agar ta'lim oluvchi o'zi biror qoidani mustaqil ravishda isbot qilgan bo'lsa, yoki biror xulosaga mustaqil ravishda kelolgan bo'lsa, o'qituvchi tushuntirgan hodisaga yaqin narsa to'g'risida o'rtoqlariga so'zlab bergan bo'lsa, albatta, uni xohlagan paytda osongina esga tushiradi.

Ona tili takrorlash va mustahkamlash darslari samaradorligini oshirishda o'quvchilar xotirasini mustahkamlovchi generatsiya effektini rivojlantiruvchi turli interfaol usullardan foydalanish mumkin. Ulardan biri "Taqdimot" texnologiyasidir.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga multimedia, mediapedagogika atamaları kirib kelmoqda. Multimedia (inglizcha multimedia, lotin tilidagi multum-kup va media, medium- vosita)— bir necha xil ko'rinishlarga ega elektron xabarlar, axborot (matn tasviri, animatsiya, audio hamda video tasvirlar) majmuasi. Zamonaviy ta'lim oluvchilar turli xil gadjetlardan bemalol foydalana oladi. Demak, taqdimot tayyorlash topshirig'i o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi. O'quvchilar ixtiyoriy bir necha guruhlariga bo'linadilar. Taqdimot tayyorlash topshirig'i takrorlash yoki mustahkamlash mashg'ulotini o'tishdan avvalroq berish maqsadga muvofiq. Taqdimot "POWER POINT" dasturi asosida yaratiladi. Taqdimotni yaratish uch bosqichdan: rejalashtirish, taqdimotni ishlab chiqish va uni namoyish qilishdan iborat bo'ladi.

Taqdimotni rejalashtirish o'quvchilar bilan taqdimot maqsadlarini aniqlash, taqdimot tuzilishini shakllantirish va materialning mantiqiy jihatlari ustida ishlash jarayonidir.

Taqdimotni ishlab chiqish - mavzuni ochib beruvchi ma'lumotlar, axborotning mazmunini turli jadvallar, chizmalar, rasmlar orqali aks ettirish. Taqdimot matnini uslubiy va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilishiga e'tibor qaratilishi lozim.

Taqdimot namoyishi - o'quvchilar tayyorlagan taqdimotlarini namoyish qiladilar. O'quvchilar taqdimotini baholash quyidagicha bo'lishi mumkin: (50 ball- 5 baho)

No	Mavzuning ochib berilganligi	To'g'ri talaffuz me'yoriga amal qilinishi	Taqdimot paytida o'zini tutishi	Vaqtga rioya qilish	Taqdimotdagi imloviy xatolar	Taqdimotdagi uslubiy xatolar
	10b	10b	10b	10b	5b	5b

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, takrorlash va mustahkamlash darslarida ta'lim oluvchi faol ishtirok etishi, o'qituvchi tushuntirgan hodisaga yaqin ma'lumotlarni o'rtoqlariga so'zlab berishishiga erishish, darslarni "o'rgatib - o'rganaman" qoidasi asosida tashkil etish xotiraning generatsiya effektini rivojlantiradi. O'quvchi mashg'ulotlarda quvonch, qiziqish, hayrat kabi hislarni tuyar ekan, "Unutish yoyi"ni yengadi. Ona tiliga oid grammatik qoidalarni oson esda saqlaydi. Til sathlari bo'yicha olingan nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etishga, kommunikativ, pragmatik, sotsiolingvistik va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi. Tahliliy fikrlashning o'sishiga, aqliy jarayonlar( operatsiyalar )tezliligiga, xotira va bilimdonlikning kengligiga erishiladi.

Ta'lim oluvchini har tomonlama rivojlantiradigan, uni ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatlarini o'sishiga imkon yaratadigan, tafakkurining yangi-yangi qirralarini



ochadigan ta'lim-tarbiya muayyuan pedagogik metodlar uyg'unligida aniq natijalarga erishish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Azizxo'jaeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – T.: “Fan,61–69-b.
2. Fayzixo'jaeva M.D. Mantiq. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2004.
3. Мавлонова Р.А. [va boshq.](2016) Педагогика. Дарслик. – Т.:«Наврўз», 105-б.
4. Mavlonova K. M. Ona tili. 7-sinf uchun darslik /– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b
5. Musaev J.P. O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari. – T.: 2022. – 248 b
6. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped.fan.dokt. diss. – T.: 1998, - 288 b.
7. Pedagogika / A. Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. T.: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
8. Pedagogika: ensiklopediyasi. II jild/ tuzuvchilar: jamoa. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 480 b.
9. Safarova R.G.. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning tarixiy pedagogik manbalari va omillari <https://doi.org/10.5281/zenodo.7077041>
10. Сафина Д.В., Мусина Р.Г. (2007) Таълим бериш ва ўқишнинг интерактив усуллари. Ўқув қўлланма. 5-модуль, - Т.-43-б
11. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? Toshkent, 2000. "Pedagogika va psixologiya" ilmiy ommabop nashri
12. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. "Fan" nashriyoti. T.: 2004
13. Зиёмухаммедов Б. (2002) Янги педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: "Chinor ENK".
14. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2004

## SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASH VA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY TARBIYA VOSITALARINING AHAMIYATI

Ismoilov Turabjon p.f.n., professor v.b. NamDU

Yakubboev Habibullo, o'qituvchi NamDU.

G'ofurov Mirzohid, o'qituvchi NamDU

Karimova Munisa, talaba NamDU

*Annotatsiya:* ushbu maqolada kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda va dars samaradorligini oshirishda jismoniy tarbiya vositalarini ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

*Kalit so'zlar:* jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy tarbiya darsi, dars samaradorligi, jismoniy mashqlar, sport, salomatlik, sog'lom va barkamol avlod, yosh avlod, aqlan sog'lom, ruhan tetik, jismonan etuk.

## ВОСПИТЫВАТЬ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ И ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА

Исmoilов Турабжон к.п.н., и.о. профессора НамГУ

Якуббоев Хабибулло, преподаватель НамГУ

Гофуров Мирзохид, преподаватель НамГУ

Каримова Муниса, студентка НамГУ

*Аннотация:* в данной статье особое внимание уделяется значению средств физического воспитания в воспитании молодого поколения, являющегося хозяевами нашего будущего, и повышении эффективности урока.

*Ключевые слова:* физическое воспитание, инструменты физического воспитания, урок физкультуры, эффективность урока, физические упражнения, спорт, здоровье, здоровое и всесторонне развитое поколение, молодое поколение, психически здоровое, психически свежее, физически зрелое.

## TO TRAIN OF A HEALTHY GENERATION AND IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN INCREASING LESSON EFFICIENCY

Ismoilov Turabjon c.p.s, acting professor of NamSU

Yakubboev Habibullo, teacher of NamSU

G'ofurov Mirzohid, teacher of NamSU

Karimova Munisa, student of NamSU

*Annotation:* In this article, special attention is paid to the importance of physical education tools in raising the young generation, who are the owners of our future, and increasing the effectiveness of the lesson.

*Keywords:* physical education, physical education tools, physical education lesson, lesson efficiency, physical exercise, sports, health, healthy and well-rounded generation, young generation, mentally healthy, mentally fresh, physically mature

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni, ayniqsa, kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi dolzarb masalalardan biri bo'lib xisoblanadi. Bu borada respublikamizda goyat muhim va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilib kelmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi yangi taxrirdagi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1].

Mamlakatimiz aholisini salomatligini yanada mustahkamlash maqsadida Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev tomonidan "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi. Mazkur qarorda Respublikamiz aholisini barcha qatlamlari uchun jismoniy tarbiya va sport orqali salomatliklarini mustahkamlashda sport bilan muntazam shug'ullanishlariga imkoniyatlar talab darajada yaratilganligi batafsil yoritib berilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yo'nalishida:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish kabilar belgilab berilgan[3].

Kelajamiz egalari bolgan yosh avlodni aqlan sog'lom, ruhan tetik, jismonan etuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositalarini ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri ta'lim muassasalarida, oilalarda, mahallalarda ommaviy sportning sifatiga va samaradorligiga e'tiborni oshirish bilan shug'ullanuvchilar sog'ligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni hayotga tadbir etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni salomatligini mustahkamlash xalq ta'limi tizimi oldida turgan asosiy vazifalardandir. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim – tarbiya olayotgan yosh avlod har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishlari kerak. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilar bilan olib borilayotgan harakatli o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'liqni mustahkamlash va jismoniy tayyorgarlikni oshirish shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi, o'quv – mehnat faoliyatidagi ishchanligini saqlab qolish va kuchaytirishni ta'minlashning muhim shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi. Bunda esa milliy harakatli o'yinlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Milliy harakatli o'yinlar bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda eng muhim va amaliy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Milliy harakatli o'yinlar turli xarakterdagi to'siqlarni yengish hamda har xil xislat va qobiliyatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarning turli kompleksini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, odatda bolalarga quvonch baxsh etadigan musobaqalar ham milliy harakatli o'yinlar jumlasiga kiradi.

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni sog'lom, yetuk va har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari va o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari jarayonida o'tkaziladigan harakatli o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir [4].

O'sib kelayotgan yosh avlodni umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishda koordinatsiya mashqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi[5].

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarini jismoniy tarbiya darsi sifatini va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan birdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun harakatli o'yinlardan samarali foydalanish ularning jismoniy rivojlanishini yaxshilaydi, jismoniy tayyorgarligini va salomatligini mustahkamlashda hamda dars sifatini, samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslari sifati va samaradorligini oshirishda o'quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya- sog'lomlashtirish tadbirlari, sinfdan va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya, ommaviy sport tadbirlari, sport musobaqalari, sayrlar, mahallada va oilada o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarini o'rni va ahamiyati kattadir.

Komil insonni tarbiyalashda jismoniy tarbiya darslarida, o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan sport tadbirlarida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi [6].

Hozirgi yoshlarga ta'lim berish va ularni tarbiyalash jarayonida foydalanilayotgan jismoniy tarbiya va sport vositalari, o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirishda keng miqyosli ta'sir etuvchi jihatlarga ega. Sog'liqni mustahkamlash va jismoniy tayyorgarlikni oshirish shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi, o'quv – mehnat faoliyatidagi ishchanligini saqlab qolish va kuchaytirishni ta'minlashning muhim shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi. Bunda esa harakatli o'yinlarning ahamiyati nihoyatda kattadir [7].

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, o'quvchilarda aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlarga ham e'tibor berish zarur[8].

P.F. Lestgaft o'zining jismoniy mashqlar tizimida o'yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. U o'yin yordamida hayotga tayyorlanishini aytadi. P.F.Lestgaftning harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun qo'ygan talablari hozirgi paytgacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q; chunki, u har bir o'yin oldiga aniq maqsadlar qo'yishi, o'tkazilayotgan o'yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o'yin shug'ullanuvchilarga ijobiy emotsional ta'sir ko'rsatishi lozimligini, o'yinlarni tizimli tarzda va muntazam ravishda o'tkazish, qatnashuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga harakat qilishi zarurligini uqtirgan edi.

O'quvchi turmushdagi, mehnat sohasidagi, tabiat hodisalari va jonivorlar hayotidagi har xil narsalarni taqlid qilib o'ynash bilan bu hodisa va harakatlarning ma'nosiga tushuna boradi, asta-sekin hayotiy tajribaga ega bo'ladi, qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi, unda harakat ko'nikmalari hosil bo'ladi va uning tasavvurlari boyib boradi.

Bolalarning o'zlari ijod qilib o'ynaydigan o'yinlariga keng o'rin berilishi zarur. Ammo bunday o'yinlarni ota-onalar hamda tarbiyachilarning e'tibori va rahbarligidan chetda qoldirib

bo'lmaydi. O'yinni asta-sekin to'g'ri yo'lga solish bilan bolalarda kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, mehnatsevarlikni o'stirish va ularni atrofdagi vaziyatga, o'zining va o'rtoqlarining harakatlariga to'g'ri baho bera bilish hamda shaxsiy muvaffaqiyatsizlikka nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash lozim.

Shunday qilish bilan bola asta-sekin zaruriy malakalarga ega bo'la boradi va shu malakalar tufayli u o'z kuchini to'g'ri sarflay oladigan, o'yin paytidagi turli vaziyatlarda yaxshi o'ylab harakat qila oladigan va kelgusida, tajribasining ortishiga qarab, turmushda uchraydigan qiyinchiliklarni osongina yenga oladigan bo'ladi.

Bolani oilada tarbiyalashda ham, bog'chada tarbiyalashda ham uning tevarak-atrofdagi olamni bilishga faol intilishi dastlab o'yinda namoyon bo'ladi. O'yin jarayonida ularning borliq haqidagi tushunchalari chuqurlashadi va mustahkamlanadi.

Bolalar oilada va bolalar muassasalarida tarbiyalanganda butunlay o'yin va ermaklar bilan band bo'lsalar, maktabga kirish bilan ularning asosiy qiziqish va e'tibori o'qishga qaratiladi.

O'quvchilari uchun harakatli o'yinlarni o'ynash shunday bosqichki, bunda ular yangi bilim va tushunchalarni egallashga qaratilgan mustaqil faoliyatni boshlaydilar. Bolalar maktab tajriba uchastkasida ishlash va uyda foydali mehnat qilishdan tashqari, bo'sh vaqtlarining bir qismini turli o'yin va ermaklarga sarflaydilar. Bunday qilish ularga o'z ehtiyojlarini qondirish va yaxshi dam olish imkonini beradi.

Harakatli o'yinlar bola harakatlarini o'stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg'itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi. Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish tizimining faoliyati yaxshilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy tayyorgarligini oshirish uchungina emas, balki aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda bolalarda maqsadga erishish uchun farosatlilik va qat'iyatlilik ko'rsatish, jamoa oldida, o'z xatti-harakatlari uchungina emas, balki o'rtoqlarining xatti-harakatlari uchun ham mas'uliyatni sezish xislatlari tarbiyalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: “Адолат”, 2017. – 112 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июнь). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент, 2017. 12 июнь.
4. Арслонова М.А. Таълим жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш. Пед.фан.ном... . дисс. Автореф. – Тошкент: 2009. – 22 б.
5. Gofurov A.U. (2020). Methods of improving the physical training and coordination skills of wrestlers aged 10-12. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and technology, 2(6), 421-426.
6. Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед.фан.ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.



7. Салимов Ф. М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Дисс... пед. фан. ном. – Тошкент: 2007. – 146 б.

8. Usmanxodjayev T.S., Pulatov A.A., Tajibayev S.S., Pulatov F.A. Sport va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o'yinlar). – Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. – 328 b.

## PEDAGOGIK TA'LIMDA KLASTER METODLARINING DUNYO MAMLAKATLARIDAGI AHAMYATI

Badalov Dilmurod Abdixalilovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

Tel: 93 761 17 11 e-mail: [dilmurodbadalov907@gmail.com](mailto:dilmurodbadalov907@gmail.com)

*Аннотация.* Мақоллада та'лим кластерларини yaratishning asosiy yondashuvlari ko'rib chiqiladi, MDH va chet elda klasterlar faoliyatining tahliliy sharhi keltirilgan. Ushbu pozitsiyalardan uzluksiz pedagogik ta'lim respublika o'quv-ilmiy-innovatsion klasterining mohiyati va xususiyatlari ochib berilgan.

*Калит so'zlar:* klaster, uzluksiz pedagogik ta'limning klaster rivojlanishi, o'quv-ilmiy-innovatsion klaster, o'zaro aloqa, innovatsion rivojlanish.

## ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРНЫХ МЕТОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ В СТРАНАХ МИРА

Бадалов Дилмурод Абдихалилович

Термезский университет экономики и сервиса

Преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки»

Телефон: 93 761 17 11 Электронная почта: [dilmurodbadalov907@gmail.com](mailto:dilmurodbadalov907@gmail.com)

*Аннотация.* В статье рассмотрены основные подходы к созданию образовательных кластеров, дан аналитический обзор деятельности кластеров в странах СНГ и за рубежом. С этих позиций раскрываются сущность и особенности республиканского образовательно-научно-инновационного кластера непрерывного педагогического образования.

*Ключевые слова:* кластер, кластерное развитие непрерывного педагогического образования, образовательно-научно-инновационный кластер, взаимодействие, инновационное развитие.

## THE VALIDITY OF CLUSTER METHODS IN PEDAGOGICAL EDUCATION IN THE DUNA COUNTRIES

Badalov Dilmurod Abdikhailovich

Termez University of Economics and Service

Lecturer at the Department of Social Sciences and Humanities

Phone: 93 761 17 11 E-mail: [dilmurodbadalov907@gmail.com](mailto:dilmurodbadalov907@gmail.com)

*Annotation.* The article discusses the main approaches to the creation of educational clusters, provides an analytical review of the activities of clusters in the CIS countries and abroad. From these

positions, the essence and features of the republican educational-scientific-innovative cluster of continuous pedagogical education are revealed.

**Key words:** cluster, cluster development of continuous pedagogical education, educational-scientific-innovative cluster, interaction, innovative development.

### **Kirish**

Integratsiya shakllarini kengaytirish uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalaridan biridir. Belarus Respublikasida uzluksiz pedagogik ta'limning zamonaviy tizimi rivojlanish rejimida ishlash bilan tavsiflanadi; ochiqlik, gradatsiya, ko'p darajali va ko'p funktsionallik bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ta'lim amaliyotini tahlil qilish uzluksiz pedagogik ta'lim sohasidagi qator muammolarni aniqlash imkonini berdi: ta'lim muassasalarining ta'lim mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish strategiyasi va taktikasini belgilashda tarqoqlik; uzluksiz pedagogik ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv va ilmiy-uslubiy muassasalarning yetarli darajada integratsiyalashuvi yo'qligi; maktabgacha ta'lim, maxsus, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, bolalar va yoshlar qo'shimcha ta'lim muassasalaridagi kafedralar filiallari, eksperimental va innovatsion maydonlarning pedagoglarning ilg'or shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkoniyatlarini yetarlicha baholamaslik.

### **Adabiyotlar taxlili**

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida Rossiya Federatsiyasida ta'limni rivojlantirishga klasterli yondashuv ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan klaster sub'ektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi sifatida asoslanadi, bu alohida ishtirokchilarning ham, umuman klasterlarning ham o'ziga xos afzalliklarini oshiradi (T. I. Shamova, E. I. Pavlova, E. I. Pavlova). Tadqiqotchilar N. A. Sharay, L. N. Nikolaeva, T. V. Vdovina ta'lim klasterini ta'lim resurslarini tashkil etishning integrativ tizimi deb hisoblashadi. Ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish manfaatlarida litsey, universitet va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimini yaratish tajribasi V. L. Chudov, L. M. Perminova tomonidan umumlashtirildi. Ta'lim klasterlari modellarining bir xil tipologik tavsiflari M. Yu. Baryshnikov, I. I. Chinnova, A. V. Simonovlar tomonidan taklif qilingan. Ilmiy-ta'lim klasteri L. V. Ovsienko, I. V. Zimina, N. N. Klintsovalarning tadqiqotlarida ijtimoiy sheriklik doirasida, jumladan, universitetlar, korxonalar, o'rta kasb-hunar ta'limi ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari doirasida tarmoq o'zaro hamkorligini amalga oshirish uchun eng istiqbolli tuzilma sifatida ko'rib chiqiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

O'qituvchilar ta'limining uzluksizligini va bu jarayonda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlarning samarali o'zaro hamkorligini ta'minlashning samarali mexanizmi hamkorlikni klaster tashkil etishga o'tishga aylandi. 2015-2020-yillarda pedagogik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida "klasterlardan professor-o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning magistral elementlari sifatida foydalanish" nazarda tutilgan [1, 10-b.].

Pedagogik ta'lim sohasidagi klaster – bu shartnomalar asosida o'zaro hamkorlik qiluvchi hamda ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashning ilmiy, ta'lim va innovatsion



maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi hududiy jihatdan mahalliyashtirilgan muassasa va tashkilotlar yig'indisidir.

O'qituvchilar ta'limining klasterli rivojlanishi ta'lim sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish uchun asosiy elementlar sifatida klasterlardan foydalanishni nazarda tutuvchi kontseptual yondashuvdir.

Muammo bo'yicha xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, klaster yondashuviga asoslangan ta'limning rivojlanishi Yevropada 1990-yillarda M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan klasterlar va klasterlar rivojlanishi nazariyasini ekstrapolyatsiya qilish natijasida boshlangan. Oxirgi 20-30 yil ichida Yevropada ham, AQShda ham universitetlar tashkiliy birlashish orqali kengaytirildi. Birlashish natijasida yangi fanlar shakllantirilmoqda, bu esa ma'muriy xarajatlarni tejash va milliy ta'lim tizimining xalqaro reytinglarda ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minlaydi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, instrumental metod, pedagogik tajriba va matematikstatistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Sport to'garaklari oldiga bolalar bilan tanlangan sport turi (para dzyudo kurash) bo'yicha o'quv-mashg'ulot va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish vazifasi qo'yilgan. Sport to'garaklari o'quvchilari uchun rejimni to'g'ri rejalashtirish sport bilan har kuni shug'ullanish, iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda esa, haftasiga 3 marta shug'ullanish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiyaviy va mashg'ulot ishlari uslubiyatini ishlab chiqish va tashkil qilish bo'yicha biz tomondan o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar, para dzyudo kurash turlari bo'yicha shug'ullanuvchi o'quvchilarining son jihatdan biroz kam ekanligi va mashg'ulotlarni erta tark etish xolatlari ko'payligi, salomatligi holatini o'rtacha ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu sharoitlarda, trenerlarni bolalarning ota-onalari va maktab o'qituvchilari bilan mahsuldor aloqani o'rnatishlari oson bo'lmasligini hisobga olish kerak.

Hozirda respublikamizda mingdan ortiq ixtisoslashtirilgan sport to'garaklari tuzilgan, lekin sport to'garaklarida issiq iqlim sharoitida bolalar bilan ishlashning aprotatsiya qilingan uslubiyati va tashkil qilinishi hozirgi vaqtga qadar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi muammolar va ularning yechimini ishlab chiqish uchun biz Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Kosonsoy tumani 45-sonli "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi o'quvchilarida bir qator tajriba va so'rovnomalar olib bordik. Jumladan olib borilgan dastlabki so'rovnomalarimizda tajriba guruhiga 5-sinfdan, 6-sinfgach bulgan o'quvchilaridan 12 nafari jalb etildi. Dastlab, umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. So'ngra sportning har xil turlaridagi vositalardan foydalangan holda terma jamoga sportchilarni tayyorlash bo'yicha istiqbolli o'quv-mashg'ulotlar rejasi, shuningdek bolalar sportchilarni intellektual salohiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar rejasi ishlab chiqildi.

Kun tartibi ertalabki mashg'ulotlar, maktabdagi darslar, uzaytirilgan kun tizimida uy vazifalarini bajarish, kechki mashg'ulotlar hamda uch mahal ovqatlanish vaqtini nazarda tutish orqali, iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda tuzildi (1-jadval). Jismoniy tarbiya bo'yicha birlashtirilgan dars, o'quv kunining oxirida – soat 17-<sup>30</sup> dan to 19-<sup>00</sup> gacha o'tkazildi.

**Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Kosonsoy tumani 45-sonli "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi bolalar uchun para dzyudo turlari bilan shug'ullanuvchilar uchun kun tartibi**

**1-jadval**

Vazifa	Hafta kunlari						
	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
Ertalabki badan tarbiya mashg'uloti	Uydan kelish	7 <sup>00</sup> - 8 <sup>00</sup>	7 <sup>00</sup> - 8 <sup>00</sup>	7 <sup>00</sup> - 8 <sup>00</sup>	7 <sup>00</sup> - 8 <sup>00</sup>	7 <sup>00</sup> - 8 <sup>00</sup>	Dam olish kuni
Ertalabki nonushta	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	8 <sup>00</sup> -8 <sup>30</sup>	
Maktabdagi dars	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	8 <sup>30</sup> - 14 <sup>05</sup>	
Kundzgi ovqat	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	11 <sup>50</sup> - 12 <sup>20</sup>	
Dam olish	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	14 <sup>10</sup> 16 <sup>10</sup>	
Uy vazifalarini bajarish	16 <sup>10</sup> -17 <sup>20</sup>	16 <sup>10</sup> -17 <sup>20</sup>	16 <sup>10</sup> -17 <sup>20</sup>	16 <sup>10</sup> -17 <sup>20</sup>	16 <sup>10</sup> -17 <sup>20</sup>	Uyga ketish	
Para dzyudo kurash mashg'uloti	17 <sup>30</sup> -19 <sup>00</sup>	Dam olish	17 <sup>30</sup> -19 <sup>00</sup>	Dam olish	17 <sup>30</sup> -19 <sup>00</sup>		

**“Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan kosonsoy tumani 45-sonli maktab internati tahsil oluvchi bolalar va bolalar lar uchun para dzyudo tugarak mashg'uloti uchun boshlangich tayyorlov 1-yil**

**2- jadval**

№	O'quv mashulotlar maxmuni	Soatlar soni	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust
I	Nazariy malumotlar:	12												
	Jami soat:	12	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
II	Amaliy mashgulotlar:													
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	96	8	8	8	8	8	7	8	8	8	8	8	9
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	92	7	8	8	8	8	7	8	8	8	8	7	7
3	Texnik tayyorgarlik	50	5	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	4
4	Taktik tayyorgarlik	50	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	6
5	Psixologik tayyorgarlik	12	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
	Jami soat:	300	25	25	25	25	25	23	25	25	25	25	25	27
	Umumiy soatlar soni:	312	26	26	26	26	26	24	26	26	26	26	26	28

Bolalarning salomatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlar belgilandi. Rejada o'quvchilarning salomatliklari holatini kuzatish uchun doimiy vrachlik kuzatuvini nazarda tutilgan. Bolalarning ma'naviy o'sishi ham e'tiborsiz qolmagan. Ekskursiyalar, badiiy havoskorlik, o'qish va mashg'ulotlarning yakunlarini muhokama qilish – tayyorgarlik dasturi tarkibiga kiritilgan. Tadqiqotlar davomida, biz, quyidagi savollarga ob'ektiv javoblar olishga intildik:

- ✓ mashg'ulot muassasalarining para dzyudo kurash to'g'arraklarida bo'yicha bolalar bilan tashkiliy va uslubiy ishlarni qanday o'tkazish kerak?;
- ✓ bolalar sportchilar bilan ishlashda tayyorgarlikning qanday hammabop vositalarini qo'llash maqsadga muvofiq?;

✓ respublikamizning issiq iqlim sharoitidagi hududlarini hisobga olgan holda para dzyudo kurash turlaridan olib boriladigan mashg'ulotlarning borishi va dam olishini muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi kun tartibi qanaqa bo'lishi kerak?

O'tkazilgan so'rovnomadan olingan natijalar tahlil qilinib, navbatdagi tajribalar tashkil qilindi. Tajribalarni muvaffaqiyatli o'tkazilishi maqsadida, o'quvchilar, testlash natijalariga ko'ra, har biri 12 nafardan iborat bo'lgan ikkita. O'quvchilarning yoshini hisobga olgan holda testlash natijalari, ularni u yoki bu guruhga kiritish uchun dastlabki ko'rsatkich sifatida olindi guruhida esa Sport maktab dasturi asosida o'quv mashg'ulotlar olib borildi. O'quv mashg'ulotlar dasturlaridagi asosiy farq shundan iborat ediki, guruhida para dzyudo kurash turlarini o'rganishga ajratilgan vaqt guruhidagiga nisbatan 40-50% kamroq bo'ldi. Guruhlardagi qolgan vaqt umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalariga va sportning boshqa turlariga: suzish, gimnastika, akrobatika, sport va harakatli o'yinlarga va umumiy rivojlantiruvchi mashqlarga ajratildi. Guruhida umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalarining yillik xajmidan 5-6 sinflarga – 100 %, tashkillashtirilgan o'quv-umumiy mashg'ulotlari yiliga 48 hafta davomida o'tkazildi. Qolgan 4 hafta faol dam olishga ajratildi. Mikrotsikldagi mashg'ulotlar soni yildan-yilga qarab 1-2 martagacha oshirildi.

**O'quv mashg'ulotlarga qabul qilish uchun zarur bo'lgan 10-12 yashar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi**

**3-jadval**

Aniqlanadigan qobiliyatlar	Nazorat test-mashqlari	Sport hini yoshi	Darajasi			
			Past	O'rt	Yuqori	
UJT	Tezkorlik	Yugurish 30m,sek.	11	6,3 va yuqori	6,1-5,5	5,0 va yuqori
			12	6,0	5,8-5,4	4,9
	Chidamlilik	6 minutlik yugurish, m	11	900 va yuqori	1000-1100	1300 va yuqori
			12	950	1100-1200	1350
	Tezkor-kuch	Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	11	140 va yuqori	160-180	195 va yuqori
			12	145	165-180	200
	Kuch	Baland turnikda osilib turgan holatda tortilish, marta	11	1	4-5	6 va yuqori
			12	1	4-6	7
	Egiluvchanlik	Tik turgan holatda oldinga egilishlar, sm	11	2 va yuqori	6-8	10 va yuqori
			12	2	6-8	10

O'quv mashg'ulotlarining miqdorini va yuklamalar xajmini oshirish, tibbiy ko'rik natijalarini va musobaqalar sharoitida o'tkazilgan nazorat sinovlari ko'rsatkichlarini hisobga olish bilan amalga oshirildi.

O'quv mashg'ulotlari vaqtini biz tomondan taqsimlanishi va ularning miqdori Sport maktab dasturida nazarda tutilganidan farq qiladi. Tajriba uslubiyati o'quv mashg'ulotlarida har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) vositalarini qo'llashni va har xil tezlik bilan har xil masofalarga yugurish, sakrashlar, uloqtirishlar, maxsus va imitatsion mashqlar kabi para dzyudo kurash mashqlarini bajarishni nazarda tutgan.

UJTda sportning boshqa turlaridagi mashqlar, sport va harakatli o'yinlar qo'llanilgan. Mashg'ulotlar vaqtini haftalar bo'yicha detallashtirilgan rejalashtirish paytida, biz, o'quvchilarni imtihonlarga tayyorgarlik va topshirish bosqichidagi yuklamalarini hisobga oldik va ularni mos

ravishda kamaytirdik, ta'til vatida esa, mashg'ulotlar soatining xajmi va ularning miqdori oshirildi.

Ilgari aytilganidek, sport to'garaklariga bolalarni qabul qilishda, bolalarni sport bilan shug'ullanishga bo'lgan xohishlari va ularning ota-onalarini ruxsati asos bo'lgan. Sport to'garaklarining o'quvchilari, uni shakllantirilishi paytida jismoniy rivojlanishda ustivorlikka ega bo'lishmagan va shunga qaramasdan, bir yillik ishdan keyin, bizning shug'ullanuvchilarimiz, tengdoshlari o'rtasidagi musobaqalarda yuqori natijalarga erishdilar.

#### **Xulosa**

qilib aytganda tajribaning birinchi va ikkinchi bosqichi natijalarini tahlil qilish, biz tomondan ishlab chiqilgan va qo'llanilgan uslubiyat bolalarni para dzyudo kurash turlaridan ixtisoslashtirilgan umumiyga tayyorlash vazifasini ancha muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlashini ko'rsatdi.

Shuningdek tizimli va puxta tibbiy nazorat natijalarining ko'rsatishicha, bolalarning salomatligi ancha yaxshilandi, ular jismonan baquvvat bo'lishdi, organizmini yuqumli va shamollash kasalliklariga nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati ortdi, buni, vrachlar o'tkazgan ko'riklar tasdiqlaydi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va tanlangan uslubiyatini to'g'riligini tajribaning yakuniga kelib ko'ra guruhni tark etganligi tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-noyabrdagi PQ – 5279 – sonli farmoni. Mabuot.uz
2. Kerimov.F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Toshkent "Ilmiy-texnika axboroti – press nashriyoti" -2021.-68.b;
3. To'ychiyev.T.S Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlarni jismoniy shakllantirishda zamonaviy dzyudo pedagogik texnologiya elementlarini qo'llashning afzalliklari". Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. - T. 2022 B.351-358.
4. Salomov.R.S Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b;
5. Petrunina S. V. reabilitatsiya adaptiv texnologiyalari: uslubiy tavsiyalar. - Penza: PGPU, 2005. - 70 bilan
6. Adaptiv jismoniy madaniyatda jismoniy tarbiya va sport faoliyati texnologiyasi: o'quv qo'llanma / mualliflar-kompilyatorlar O. E. Aksenov, S. P. Evseyev / Ed.- Moskva: Sovet.

## **BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHDA YOSH QO'L JANGICHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNI QO'LLANILISHI**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Jismoniy tarbiya, sport nazaryasi va  
uslubiyati kafedrasida v.v.b., professor

Tojiyev Muzaffar Akbarovich

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada boshlang'ich tayyorgarlik bosqichdagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlar va ularni yosh xususiyatlariga hamda jismoniy sifatlarga mos tarzda qo'llashga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, kuchlilik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik.

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКШН ИГР В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ РУКОПАШНИКОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ**

Узбекский государственный университет физического воспитания и спорта, кафедра  
физического воспитания, теории и методики спорта в.з.и., профессор

Таджиев Музаффар Акбарович

*Аннотация:* В данной статье представлены сведения о применении игр-действий и их использовании в соответствии с возрастными особенностями и физическими качествами для повышения физической подготовленности юных рукопашников на начальном этапе подготовки.

*Ключевые слова:* Общая физическая подготовленность, специальная физическая подготовленность, быстрота, сила, ловкость, выносливость, гибкость.

## **THE USE OF ACTION GAMES IN IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF YOUNG HAND-TO-HAND FIGHTERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE**

Uzbekistan State University of Physical Education and Sports, Department of Physical  
Education, Sport Theory and Methodology, t.t.e., professor

Tajiyeu Muzaffar Akbarovich

*Annotation:* This article presents information on the use of action games and their use in accordance with age characteristics and physical qualities to increase the physical fitness of young hand-to-hand fighters at the initial training stage.

*Key words:* General physical fitness, special physical fitness, quickness, strength, agility, readiness, flexibility.

### **Dolzarbligi**

Dunyoda bolalar va o'smirlar sporti nazaryasi va amaliyotida yosh sportchilarni o'quv-mashg'ulotlarini rejalashtirish, sportga saralash, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishd, psixologik, texnik-taktik hamda funksional tayyorgarligida qo'llaniladigan vosita va usullarni amaliyotga tadbiiq etish borasida ko'plab imliy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jahonda

sportchilarning sportdagi natijalari shiddat bilan o'sishi, ushbu sohada hozirgi kun talablariga mos o'quv mashg'ulotlarini tashkillash uchun eng qulay tizimini ishlab chiqish talabini qo'yimoqda. Yosh qo'l jangichilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda shug'ullanuvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni zamon talablariga mos tarzda tashkillash bolalar va o'smirlar sporti nazaryasi va uslubiyotini rivojlantirish, respublika hamda xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.[2. 34-b.] Dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llaniladigan harakatli o'yinlarni jismoniy sifatlarga, harakat texnikasini rivojlantirishga mos tarzda qo'llash zarur hisoblanadi. [3.27-b] Mazkur usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish hozirda dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda mazkur sohadagi ishlarni oqilona amalga oshirish bo'yicha bir qator meyoriy huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish tog'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori<sup>124</sup>. Mazkur qaraorning uzviy davomi sifatida yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to'g'risida" gi 5924-sonli Farmoni <sup>125</sup> . Yurtboshimizning 20.06.2022 yildagi PQ-287-son "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-287-son qarorida<sup>126</sup> belgilangan vazifalar ham bu boradagi ishlarni amalga oshirishga tayanch bo'lish bilan bir qatorda uni qanchalik dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga mos qo'llanilishini o'rganish.

**Tadqiqotning vazifalari:** Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlarni yoshga mosligini aniqlash;

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlarni jismoniy sifatlarga mosligini aniqlash;

**Tadqiqotni tashkil etilishi.** Tadqiqot Namangan viloyati tumanida qo'l jangi federatsiyaning 25 nafar malakali murabbiylari bilan anketa so'rovnomalari hamda intervyu-suhbat asosida tashkillandi. Murabbiylarning 65% 10 yildan ortiq tajribaga ega bo'lib ularning 4 nafari oliy toifali. Ushbu uyushtirilgan suhbatning asosiy maqsadi hozirda sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichi bolalar mashg'ulot jarayoni tegishli hujjatlar hamda mashg'ulotda qo'llaniladigan vosita va usullarni haqida ma'lumot olish edi.

Bundan tashqari uchrashuvda qatnashgan trenirlardan hozirgi kunda mashg'ulot jarayonida jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida qo'llab kelayotgan harakatli o'yinlarni aniqlashga doir o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

<sup>124</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish tog'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori

<sup>125</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog'risida" 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni.

<sup>126</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 20.06.2022 yildagi PQ-287-son Qarori

**Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarga o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi trenirlardan olingan anketa so'rovnomasi natijalari**


<b>№</b>	<b>Savollar mazmuni</b>	<b>“Ha” javobni berganlar soni</b>	<b>“Yo‘q” javobini berganlar soni</b>
<b>1</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar chaqqonlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?	7	18
<b>2</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar tezkorlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?	10	15
<b>3</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar kuch sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?	9	16
<b>4</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar chiqamlilik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?	5	20
<b>5</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar egiluvchanlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?	12	13

**Natijalar muhokamasi**

Mazkur tadqiqotdan olingan natijalarimizga ko'ra Namangan viloyati Yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi qo'l jangi trenirlaridan olingan anketa savolimizni birinchisi "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar chaqqonlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?" ga 25 nafar trenirdan 7 nafarri "Ha", 18 nafari "Yo'q" degan javob berdilar. Ikkinchi savol "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar tezkorlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?" ga 25 nafar trenirdan 10 nafarri "Ha", 15 nafari "Yo'q" degan javob berdilar. Uchinchi savol "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar kuch sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?" ga 25 nafardan 9 nafari ha, 16 nafari esa yo'q degan javobni belgilashgan. To'rtinchi savol "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar chiqamlilik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?" ga 25 nafardan 5 nafari ha, 20 nafari esa yo'q degan javobni belgilagan. Uchinchi savol "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi BTG 1-guruhdagi yosh qo'l jangichilar egiluvchanlik sifatini oshirishda harakatli o'yinlargadan foydalanasizmi?" ga 25 nafardan 12 nafari ha, 13 nafari esa yo'q degan javobni belgilashgan.

Ushbu savvollarga berilgan javoblardan kelib chiqib, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llanilayotgan vositalar tarkibida harakatli o'yinlar juda kamligi, yosh xususiyati va jismoniy sifatlarni tarbiyalashga trenirlarning aynan mos bo'lgan harakatli o'yinlarni qo'llash malakasi yetarli emasligi ko'rish mumkin.

## Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarga o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi trenirlardan olingan anketa so'rovnoma natijalari



### Xulosa

1. Hozirda hayotimizni barcha jabhalarida ilmiy izlanishlar va har bir amaliy ishlar o'zining me'yoriy asosiga ega bo'lishi zamon talabiga aylangan. Shu boisdan ham Respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha trenirlarni sohadagi yetakchi olimlarning nazariy va amliy tajribalari bo'yicha ma'lumotlar bilan qurollantirish zarur.

2. Trenirlar yosh qo'l jangichilar uchun boshlang'ich tayyorgarlik bosqishlarida mashg'ulotlardagi materiallarni uzviy ketma-ketlikda, yoshga xos bo'lgan harakatli o'yinlarni to'g'ri belgilab tuzish malakasiga ega bo'lishlarini ta'minlashga lozim

3. Demak boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo'l jangichilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga harakatli o'yinlarni yoshga xos tarzda qellash orqali erishilishini xulosa sifatida takidlash mumkin.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 20.06.2022 yildagi PQ-287-son Qarori.
2. M.A.Tojiyev Yosh gimnastikachilar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'quv mashg'ulot jarayonining tuzilishi Diss...p.f.b.f.d, (PhD) Chirchiq 2020. -155 b.
3. S.S.Tojibayev.Yosh bokschilarni tayyorlash tizimida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasi Diss...p.f.b.f.d, (PhD) Toshkent 2017. -149 b
4. T.S. Usmonxo'jayev, P.A. Usmonov. 500 harakatli o'yinlar 2011-yil bet: 280



## SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Yuvashov Sherzod Ulmasovich,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),  
NamMQI ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.  
E-mail: yuvashov@gmail.com.

*Аннотация:* Ushbu maqolada Kreativlik va kreativ fikrlashning mohiyati, yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topish haqida so'z yuritilgan.

*Калит so`zlar:* Kreativlik, kreativ fikrlash, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, noodatiylik, intellekt.

## СУТЬ ТВОРЧЕСТВА И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Ювашов Шерзод Улмасович,  
Преподаватель кафедры общественных наук Наманганского инженерно-строительного  
института.  
Gmail: yuvashov@gmail.com

*Аннотация:* В данной статье рассматривается сущность творчества и творческого мышления, создание новых, оригинальных идей, нестандартная форма мышления, нахождение удачных решений поставленных задач.

*Ключевые слова:* Креативность, творческое мышление, дивергентное мышление, конвергентное мышление, необычность, интеллект

## THE ESSENCE OF CREATIVITY AND CREATIVE THINKING

Yuvashov Sherzod Ulmasovich,  
Lecturer at the Department of Social Sciences of the Namangan Civil Engineering Institute  
Gmail: yuvashov@gmail.com

*Abstract:* This article discusses the essence of creativity and creative thinking, the creation of new, original ideas, non-standard form of thinking, finding successful solutions to the tasks.

*Key words:* Creativity, creative thinking, divergent thinking, convergent thinking, singularity, intelligence.

### Kirish

Fikr yoki g'oya bu - aqlimizning ijod faoliyati mahsulidir. Aqlimizda turli muammolarning yechimi yoki yangiliklar haqida fikrlar tug'iladi. Fikrlar odatda biror hayotiy muammo yechimini izlash jarayonida shakllanadi. Biror bir vazifa haqida o'ylaganda, biror qiyin vaziyatga tushganda inson fikrlashga majbur bo'ladi. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ham ajoyib fikr tug'ilishi mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik

yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu o'quvchilarni noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Kreativlik bo'yicha D.Veksler, A.Maslou, Djo Pol Gilford, E.P.Torrenslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, o'quvchilarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi

### **Tahlillar va natijalar**

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur –bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun qoliplar va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovasiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Amerikalik olim D.Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrof muhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni

konvergent va divergent turiga ajratdi. Konvergent tafakkur - (lotincha convergere- "bir yo'ldan") tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Divergent tafakkur - (lotincha divergere - "bo'linish") ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur "bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarga izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta to'g'ri javoblar borligini va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi.

Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo'ladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo'lib qolavermaydi, ya'ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin. Buni Djo Gilford tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin. Gilford o'z kreativlik strukturasiida divergent tafakkurdan tashqari o'zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtasida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o'z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: - muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - farazni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning - o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. Umuman olganda, kreativlik - bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Kreativ fikrlashda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Mazkur ko'nikma, yoshlarga bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, zamonaviy axborot kommunikasiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko'ra ko'proq natija ya'ni tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so'z bilan aytganda XXI asr ko'nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim.

Birinchidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanligini xis qildirib borish; Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; Uchinchidan, boshqaruv jarayonida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llash; To'rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g'oyalarni va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo'llab quvvatlash lozim.

Zero, jamiyatda lokomotiv sifatida har doim liderlar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida to'g'risidagi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 y., 28.01. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Madraximova G. R. , Nasullayeva Yo. N. "Iqtisodchi uchun kreativ fikrlash nima uchun kerak?" - Fan va ta'lim / 2022-yil 4-son.
5. Akbarov B. A. Pedagogical system of formation of professional thinking in secondary school students //Author. dis.... DcS. – 2020.

UDK 1072

### **KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNI BAHOLASH ME'ZONLARI**

Ismatova Yulduz Nu'mon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Kredit-modul tizimi o'quv jarayonini tashkil etish modeli bo'lib, u ikkita komponent: modulli o'qitish texnologiyasi va kreditlar (kredit birliklari) kombinatsiyasiga asoslangan bo'lib, bilim, ko'nikma va o'quv faoliyati sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllarini qamrab oladi. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim muhim rol kasb etgani uchun ham ushbu maqolada aynan uni tashkil etish va baholash me'zonlari, unga quyiladigan talablarga to'xtalib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** kredit-modul tizimi, modulli o'qitish, mustaqil ta'lim, o'quv moduli, baholash tizimi, baholash me'yorlari, monitoring, nazorat turlari.

### **ASSESSMENT CRITERIA OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM**

**Abstract.** The credit-module system is a model of the organization of the educational process, which is based on the combination of two components: modular teaching technology and credits (credit units), the content of knowledge, skills and quality control of educational activities. Due to the important role of independent education in the credit-module system, this article focused on the criteria for its organization and evaluation, as well as the requirements for it.

**Keywords:** credit-module system, modular teaching, independent education, educational module, assessment system, assessment standards, monitoring, types of control.

### **КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ**

**Абстракт.** Кредитно-модульная система представляет собой модель организации образовательного процесса, которая основана на сочетании двух компонентов: модульной технологии обучения и кредитов (зачетных единиц), содержания знаний, умений и навыков и

контроля качества образовательной деятельности. В связи с важной ролью самостоятельного образования в кредитно-модульной системе в данной статье основное внимание уделено критериям его организации и оценки, а также требованиям к нему.

**Ключевые слова:** кредитно-модульная система, модульное обучение, самостоятельное обучение, образовательный модуль, система оценивания, стандарты оценивания, мониторинг, виды контроля.

Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish va shakllantirish mohiyatini tushuntirib o'tish uchun avvalo kredit-modulga asoslangan ta'lim haqida tushunchaga ega bo'lmoq zarur.

Kredit modulli asosiy ta'lim dasturlarini tashkil etishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

– o'quv jarayonida amalga oshirilayotgan barcha kurslar va fanlar o'quv modullari ko'rinishida tavsiflanishi kerak;

– o'quv moduli – o'quv jarayonining rasmiylashtirilgan qismi bo'lib, u amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni, birlashtirilgan materialni va shakllantirilgan kompetensiyalar va tushunchalar shaklida ko'zda tutilgan maqsadni belgilagan holda muallif tomonidan belgilanadigan o'quv faoliyatining mantiqiy bog'langan ketma-ketligidir;

– o'quv modullarini o'zlashtirish uchun mehnat hajmi ECTS kreditlarida (kredit birliklarida) tuziladi.

Ma'lumki, kredit-modul asosida o'qtish asosiy (majburiy) va tanlov fanlarga asoslanadi. Buni hisobga olgan holda modulli tuzilmada asosiy ta'lim dasturini loyihalashda quyidagilar zarur:

- modul nomini aniq va qisqacha shakllantirish;
- modulli o'quv dasturining potentsial iste'molchilari doirasini aniqlash;
- maqsadga yaqin mavjud tegishli ta'lim dasturlarini tahlil qilish;
- modulni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar ro'yxatini aniqlash;
- modulni o'rganish natijasida shakllangan kompetensiyalar ro'yxatini aniqlash;
- uning rivojlanish genezasiga mos keladigan kompetensiya darajalarini aniqlash va asoslash;
- modulli o'quv dasturi bo'yicha modullar ro'yxatini aniqlash;
- agar kerak bo'lsa, yetishmayotgan modullarni ishlab chiqish.

Baholash tizimi ta'lim jarayonining eng muhim elementidir. To'g'ri ta'kidlaganidek, I.V. Kleshchevaning fikriga ko'ra, talabalarining intellektual, tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha mustaqil ish jarayoni va natijalari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash uchun turli xil baholash turlaridan mohirona foydalanish talabalarining yutuqlarini obyektiv baholashning asosiy kalitidir. Talabalarining yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlar nafaqat barcha talabalarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni differentsiallashtirishga yordam beradi, balki ularga o'z ta'limini nazorat qilish va hozirgi va keyingi hayotda ta'lim muhitida maksimal vakolatlarini rivojlantirishga yordam beradi [3, 78].

Baholashning reyting tizimi – joriy modul va yarim semestr yakunlari bo'yicha talaba tomonidan bajarilgan barcha turdagi auditoriya va mustaqil ishlarning sifatini hamda ushbu ish natijalariga ball qo'yish orqali u olgan bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlash tizimi. Shu o'rinda

nazorat orqali to'plangan reyting ballarini an'anaviy milliy shkala va ECTS shkalalariga o'tkaziladi.

Har bir ta'lim dasturi bo'yicha o'quv natijalari kompetensiyalardan foydalangan holda tavsiflanadi, bu bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, malakalar va shaxsiy fazilatlarining dinamik majmui bo'lib, talaba ta'lim dasturini yoki uning bir qismini tugatgandan so'ng ko'rsatishi kerak. Kompetensiyalar o'quvchida turli xil turdagi o'quv ishlari jarayonida shakllanadi, ular birgalikda o'quv modulini ifodalaydi.

O'quv modulining majburiy komponenti uni o'rganish natijalari bo'yicha vakolatlarining rivojlanish darajasini baholashdir.

O'quv jarayonini kredit-modulli tashkil etish jarayonida ta'lim yutuqlarini monitoring qilish va baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- ta'lim yutuqlarining oldindan belgilangan majburiy darajasiga yo'naltirish;
- fanlar ishini faollashtirish va o'quv jarayoniga qiziqish;
- o'rganilayotgan material bo'yicha ishlarni tizimlashtirish;
- muayyan materialni o'rganishda yuzaga keladigan individual masalalar bo'yicha tushunmovchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;
- talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini operativ boshqarish;
- modulni o'rganish jarayonida o'quv mazmunini o'zlashtirish darajasini tizimli ravishda tekshirish, ta'lim yutuqlarini monitoring qilish va baholashning o'quv, rag'batlantirish va tuzatish funksiyalarini ustuvor ravishda amalga oshirish;
- test yoki imtihon paytida bilimlarni sinab ko'rishning asabiylashish va tanlab olish xususiyatini yo'q qilish.

Ta'lim jarayonini kredit-modul tashkil etish doirasida baholash tizimi amalga oshiriladi. Talabani baholashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- moduldagi har bir ish uchun ma'lum miqdordagi ball qo'yiladi va barcha mumkin bo'lgan baholarni umumlashtirib, bir semestrda talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball (o'quv intizomi doirasidagi barcha ishlar uchun) aniqlanadi;

- ishning murakkabligiga qarab (mustaqil yoki guruhli) ballar soni o'zgarishi mumkin (murakkabroq va ko'p vaqt talab qiladigan ish yuqori baholanadi, kamroq murakkab ish kamroq ball oladi);

- talaba o'quv intizomi doirasida bajarishi kerak bo'lgan har bir ish 0 balldan har bir aniq ish uchun belgilangan maksimal ballgacha baholanishi mumkin.

Baholash mezonlari quyidagilarga asoslanadi:

- bajarilish sifati va ish uchun dastlab qo'yilgan talablarga muvofiqligi;

- jarimalar tizimi, masalan, ishni bir yoki ikki kunga kechiktirish uchun (o'qituvchining ixtiyoriga ko'ra) qo'llanilishi mumkin;

- semestr yakunida umumiy ball aniqlanadi va imtihon yoki testga kirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Oraliq nazoratga kirish uchun talab qilinadigan ballar soni oldindan belgilanadi va kelishiladi. Talaba mustaqil ish (yakka, guruh), darsda faol ishlash, kurs ishlarini bajarish, testlar, rolli o'yinlarda qatnashish va boshqalar uchun ball to'plashi kerak.

O'quv modulining majburiy komponenti talabalar tomonidan uning o'zlashtirish darajasini baholash bo'lib, u butun semestr davomida nazorat imkonini beradi, talabalarni butun o'qish davrida muntazam ishlashga undaydi.

Baholash tizimi dastalabgi hamda yakuniy bilim darajasini aniqlash tartibini, o'quv natijalarini doimiy monitoring qilish tartibini, ball-reyting tizimidan foydalangan holda oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga olishi kerak.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish baholashning asosiy tamoyillariga rioya qilgan holda mumkin bo'ladi:

– ahamiyati – talabalarning auditoriya va sinfdan tashqari mustaqil ishlarining eng muhim natijalarini baholashga e'tibor.

– adekvatlik – malakalarni baholashning o'quv maqsadlari va natijalariga muvofiqligi.

– xolislik, adolat va xayrixohlik – baholashning aniq mezonlarini sinchkovlik bilan tanlash. Baholash bosim vositasi (yoki natijasi) bo'lmasligi kerak. Yutuqlar o'sishini rag'batlantiradigan o'qituvchilar va talabalar o'rtasida hamkorlik holatlarini yaratish. Bunda talabalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratiladi.

– integratsiya – baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida amalga oshiriladi.

– ochiqlik – mezonlar va baholash strategiyalari talabalarga oldindan yetkaziladi. Imkoniyat bo'lsa, talabalar baholash mezonlarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

– mavjudlik – baholash shakllari, uning maqsadlari va jarayonning o'zi ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun sodda va tushunarli bo'lishi kerak.

– tizimlilik – baholash jarayonlari ketma-ket, ma'lum bir chastota bilan amalga oshiriladi.

Baholash komponenti o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishida, fanlar bo'yicha olgan bilimlari va rivojlangan malakalarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Uni amalga oshirish asosiy pedagogik vazifalarni – diagnostika, o'qitish, tashkil etish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4391-sonli qarori. 12.07.2019
2. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 b.
3. Клещева И.В. Оценка эффективности научно-исследовательской деятельности студентов [Текст] / И.В. Клещева. – СПб.: НИУ ИТМО, 2014. – 91 с.
4. Федосеева О.Ю. Анализ эффективности самостоятельной работы студентов с использованием информационных технологий // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. – Тольятти: ВУиТ, 2015. - №2(24). – 117-126 с.
5. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=en&user=yC145qMAAAAJ&citation\\_for\\_view=yC145qMAAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=yC145qMAAAAJ&citation_for_view=yC145qMAAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
6. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=en&user=yC145qMAAAAJ&citation\\_for\\_view=yC145qMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=yC145qMAAAAJ&citation_for_view=yC145qMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)

**TIL IXTISOSLIGI BO'LMAGAN TALABALARGA INGLIZ TILI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA SO'ZLARNI BIRIKTIRISH KO'NIKMALARINI O'QITISHNING PREDMET MAZMUNINI ANIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH UCHUN TIL VA NUTQ MATERIALLARINI TANLASH**

Alimov Jamshid Ravshanovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti v.b dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.B.Nizomova taqrizi asosida.

***Annotatsiya.** Taraqqiyotning tarkibiy qismi bo'lgan madaniyatlararo munosabatlarning asosi hisoblanayotgan aloqalar samaradorligini oshirish va ko'p madaniyatli shaxsning chet tilini bilish ko'nikmalarini shakllantirish asoslari yoritilgan. Ushbu maqolada so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida qaraldi. Shu bilan birga ingliz tilidagi so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini shakllanishi, o'quv jarayonida so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini tarmoqlaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatlari orqali talabalar o'rtasida ommalashishiga e'tibor qaratilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish va chet tili kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha jahon ilmfan taraqqiyoti tendensiyalarini hisobga olgan holda ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlari:** so'zlar, so'zlarni biriktirish texnologiyasini, kasbiy axborot kompetensiyasi, chet tili kompetensiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, til gramatikasi, ingliz tilini o'qitish metodikasi, nofilologik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish, ingliz tilini o'qitishning samarali usullari;*

**SELECTION OF LANGUAGE AND SPEECH MATERIALS TO DETERMINE THE SUBJECT CONTENT OF TEACHING WORD COMBINATION SKILLS IN THE FORMATION OF ENGLISH SPEECH TO STUDENTS WITH NO LANGUAGE MAJORITY AND ITS IMPLEMENTATION**

***Abstract.** The fundamentals of improving the effectiveness of communication and the formation of foreign language skills of a multicultural person, which are considered the basis of intercultural relations, which are a component of development, are highlighted. In this article, the technology of teaching word association was considered as an additional tool for teaching English. At the same time, attention is paid to the formation of the technology of teaching English word conjugation, its popularity among students through the specific features of the use of networks of the technology of word conjugation in the educational process. In this regard, scientific and practical recommendations have been made, taking into account the trends of world scientific development, on the improvement of the working mechanisms of English language teaching and the formation of foreign language professional competence in higher education institutions.*

***Key words:** words, word linking technology, professional information competence, foreign language competence, social networks, language grammar, English language teaching methodology, English language teaching in non-philological directions, English language teaching effective teaching methods;*



## ПОДБОР ЯЗЫКОВОГО И РЕЧЕВОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРЕДМЕТНОГО СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ НАВЫКАМ СЛОВСОЧАСТИЯ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ АНГЛИЙСКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВОГО БОЛЬШИНСТВА И ЕГО РЕАЛИЗАЦИЯ

**Аннотация.** Выделены основы повышения эффективности общения и формирования иноязычных навыков поликультурной личности, которые считаются основой межкультурных отношений, являющихся компонентом развития. В данной статье технология обучения словесным ассоциациям была рассмотрена как дополнительный инструмент обучения английскому языку. При этом уделяется внимание формированию технологии обучения спряжению английских слов, ее популярности среди учащихся через особенности использования сетей технологии спряжения слов в учебном процессе. В связи с этим даны научно-практические рекомендации с учетом тенденций мирового научного развития по совершенствованию рабочих механизмов преподавания английского языка и формирования иноязычной профессиональной компетентности в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** слова, технология связывания слов, профессиональная информационная компетентность, иноязычная компетенция, социальные сети, грамматика языка, методика преподавания английского языка, преподавание английского языка по нефилологическим направлениям, эффективные методы преподавания английского языка;

### Kirish

Chet tilini o'qitishning istalgan nuqtasida talabaning nutq aloqalari va yangi hosil bo'lgan so'z birikmalarining mavjudligi **uchta pozitsiyadan** tavsiflanishi mumkin.

1. So'z birikmalarini grammatik tuzilmalarning leksik tarkibi sifatida ifodalash mumkin. Agar grammatik tuzilmalarni o'rgatish jarayonida ularning maksimal leksik to'liqligini ta'minlash kerak bo'lsa, unda barcha tuzilmalar o'zlarining umumiylikidagi barcha yoki deyarli barcha mumkin bo'lgan so'z birikmalarini qamrab oladi. Masalan, sifatning qiyoslash darajalarini o'zlashtirish mashqlarida shu paytgacha o'rganilgan barcha sifatlar va qiyoslash mumkin bo'lgan barcha otlar kiritiladi. The Past Indefinite Tenseni o'zlashtirish mashqlarida o'quvchilarga tanish bo'lgan barcha fe'llar topiladi va ular bilan qo'shib, vosita, qo'shimcha va ish-harakatning holatlarini bildiruvchi maksimal leksik birliklar topiladi. Natijada, grammatik tuzilmalar va shakllarning bunday leksik to'liqligi o'rganish paytida so'zlarning va hatto jumalarning barcha mumkin bo'lgan birikmalarini amalda tugatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, adabiyotlarda va eksperimental ma'lumotlarda ifodalangan nuqtai nazarga ko'ra, grammatik tuzilmalarni o'rgatish doimo o'rganilgan so'z boyligini maksimal darajada qamrab olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Aslida, grammatik tuzilmalarning cheklangan leksik to'yinganligi orqali hozirgi vaqtda mumkin bo'lgan barcha so'z birikmalarini aniqlash va shunga mos ravishda kombinatsion asoslar va prekombinatsiya birliklarini aniqlash mumkin. Kelajakda, mashqlar majmualarini ishlab chiqishda, so'z birikmalarini hisobga olishning ushbu usuli tinglovchilarning nutqining to'g'riligini ta'minlash uchun foydali bo'lishi mumkin, ammo bu kombinatsiyani o'rganishda amalga oshiriladigan tanlov, til va nutq materiallari uchun juda mos emas, chunki u ushbu materialga yetarlicha cheklovlar qo'ymaydi.

2. Lug'atning ma'lum bir chegarasi uchun ruxsat etilgan maksimal so'z birikmalarini

boshqa yo‘l bilan o‘rnatish mumkin, ya‘ni nutqning predmet mazmuni va ularning aloqalarining asosiy bo‘limlari va bo‘limlarining tugun so‘zlari deb ataladigan narsalarga e‘tibor qaratish. Og‘zaki nutq mavzusida va uning pastki mavzularida barcha so‘zlar bir xil darajada muhim kommunikativ yukni ko‘tarmaydi; asosiy tarkib tugunlar atrofida qanday to‘plangan so‘zlarni va shu bilan birga boshqa so‘zlarning bir-biri bilan va tugun so‘zlari bilan birikmalarining keng tarmog‘ini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, masalan, “bizning qishloq” mavzusida tugunli so‘zlar bo‘lishi mumkin: dalalar, turar-joy binolari, kinoteatr va boshqalar. agar siz o‘zingizni ingliz tilida tugunli so‘zlar bilan ifodalangan tushunchalarni tavsiflovchi, aniqlashtiradigan, ochib beradigan hamma narsani ifoda etish vazifasini qo‘ysangiz, unda shu bilan birga tugunli so‘zning mo‘l-ko‘l aloqa tarmog‘ining og‘zaki ifodasi paydo bo‘ladi. Keyin, masalan, ingliz tilidagi “kinoteatr” tuguniga ko‘ra, qishloqda qancha kinoteatr borligi, ular qayerda joylashganligi, qaysi binolar joylashtirilganligi, ular har kuni ishlaydimi yoki faqat ma‘lum kunlarda ishlaydimi, filmlar repertuari qanchalik tez-tez o‘zgarib turadi, so‘nggi kunlarda qanday filmlar namoyish etildi, talaba tez-tez sayohat qiladimi? kino, va qaysi kunlar va sessiyalar, so‘nggi paytlarda qaysi filmlarga borganim, qaysi biri menga yoqadi, odatda kim bilan kinoga boradi, butun guruh bo‘ylab sayohatlar bormi, ular qaysi joylarda o‘tirishni yaxshi ko‘radilar (yaqin yoki uzoq) va hokazo. Tasavvur qiling-a, xuddi shu ish barcha tugunli so‘zlar bilan amalga oshiriladi, shundan so‘ng mavzu bo‘yicha mumkin bo‘lgan so‘z birikmalarining aksariyati birgalikda amalga oshishi aniq va bu, albatta, ko‘plab yangi nutq aloqalarining paydo bo‘lishini ta‘minlaydi.

Talabalarining nutq faoliyatini tugunli so‘zlarga jamlash yangi kombinatsiyalarni shakllantirish uchun yaxshi rag‘bat ekanligi shubhasizdir va shuning uchun kombinatsion ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun mashq turlaridan biri sifatida foydalanish kerak. Shu bilan birga, bir qator sabablarga ko‘ra tugun so‘zlarining qo‘shma birikmalarini aniqlash kombinatsiyani o‘qitishning predmet tarkibini aniqlash usuli sifatida juda mos kelmaydi: birinchidan, u asosiy asosiy birikmalarni (kombinatsiya asoslarini) ajratib ko‘rsatishga imkon bermaydi, ular atrofida keyinchalik kombinatsiyalash harakatlari amalga oshirilishi mumkin; ikkinchidan, so‘zlarning bunday “muzokaralari” bilan so‘zlar va grammatik tuzilmalar kombinatsiyasining o‘zaro bog‘liqligi e‘tibordan chetda qoladi.

3. Chet tilini o‘qitishning ma‘lum bir nuqtasida so‘zlarning mumkin bo‘lgan birikmalarining “xaritasini” yaratishning uchinchi usuli, ya‘ni tematik va tarkibiy deb atash mumkin bo‘lgan usul bilan farq qiladi. Uning mohiyati quyidagicha. Oldingi usulda bo‘lgani kabi, og‘zaki nutq mavzulari (ONM) ham asosiy rol o‘ynaydi. Faqat bu safar mavzuda tugunli so‘zlar emas, balki tugunli nutq vazifalari (TNV) deb ataladi. Ushbu tushuncha uslubiy adabiyotlarda birinchi marta A. Imomovning dissertatsiya tadqiqotida kiritilgan [67]. Muallif og‘zaki nutqning har bir mavzusi doirasida xususiy ko‘nikmalarning ma‘lum bir ro‘yxatini aniqlash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi, ularning har biri talabalarni ma‘lum bir muhim kommunikativ vazifani chet tilida hal qilishga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Masalan, “Sport” mavzusida siz o‘quvchilarda quyidagi shaxsiy ko‘nikmalarni shakllantirishga erishishingiz mumkin: jismoniy tarbiya darslari to‘g‘risida o‘rnatish ma‘lumotlarini etkazish: haftada necha marta ular taqdim etiladi, ular mavsumga qarab qayerda sodir bo‘ladi va hokazo; guruh jismoniy tarbiya darslarida nima qilayotgani haqida xabar va so‘rov; ushbu darslarda individual talabani ishtiroki - (qaysi sport turini afzal ko‘rishini baholash, ushbu turdagi ko‘rsatkichlar) va boshqalar. tasavvur qilaylik, ushbu guruh dasturining og‘zaki nutqning barcha asosiy

mavzulari va umuman chet tilidagi og‘zaki nutqni o‘qitishning butun dasturi bunday tugunli nutq vazifalariga bo‘linadi. Bunday holda, mavzular ustida ishlash o‘quvchilarga ushbu tugunli nutq vazifalari bo‘yicha muloqot qilishni tizimli ravishda o‘rgatishdir, boshqacha qilib aytganda, ushbu vazifalarni hal qilishda talabalar ushbu bosqichda qodir bo‘lgan barcha o‘quv va nutq aloqalari amalga oshiriladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Shu bilan birga, har bir tugunli nutq vazifasini va barcha tugunli nutq vazifalarini maksimal darajada batafsil hal qilish uchun zarur bo‘lgan so‘z birikmalarining paydo bo‘lishi rag‘batlantiriladi. Bu mavzular bo‘yicha barcha kommunikativ yo‘naltirilgan nutq materiallarini tizimlashtirishdir; shu bilan birga, so‘zlar, iboralar va jummalarning maksimal va etarli kombinatsiyalari aniqlanadi va tizimlashtiriladi. Bunga quyidagilarni qo‘shamiz: tugunli nutq vazifasi talabalar tomonidan iloji boricha batafsil, kengaytirilgan va har tomonlama hal qilinishi uchun uni yakunlovchi bo‘g‘in bir qator tayyorgarlik mashqlarini yuborishi kerak [53] yodlash jarayonida rag‘batlantiriladi va shu bilan ko‘plab yangi so‘z birikmalarini shakllantirish osonlashadi. Agar o‘qituvchi TNV mavzusini va ularga tayyorgarlik mashqlarini oldindan ishlab chiqqan bo‘lsa, loyiha shaklida shakllangan so‘z birikmalarining ro‘yxatini aniq tasavvur qilsa va tuzatsa, u holda ushbu mavzu doirasida kombinatsiyani o‘qitishning mavzu mazmuni aniqlanadi. TNV so‘z birikmalarining bunday “xaritasi”, albatta, to‘liq bo‘lishi mumkin emas, ammo bu talab qilinmaydi. Agar tugunli nutq vazifalari to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, agar ular har bir keyingi TNV oldingi vazifalarning maksimal elementlarini o‘z ichiga oladigan tarzda joylashtirilgan bo‘lsa va nihoyat mavzu kengaytirilgan rejada ko‘rib chiqilsa (masalan, “kinoteatr” elementini “bizning qishloq” mavzusiga kiritish), unda shu tarzda aniqlangan so‘z birikmalari etarli va kommunikativ zarur kombinatsiyalar to‘plamini tashkil qiladi tizimli shaklda.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ushbu usulni tematik-tarkibiy deb atash mumkin, ammo hozirgacha bu faqat uning tematik jihati haqida edi. Keling, strukturaga murojaat qilaylik.

Har bir tugunli nutq vazifasini hal qilish uchun juda ko‘p turli xil grammatik tuzilmalar qo‘llaniladi va agar biz og‘zaki nutq mavzulari talabalarning asosiy faoliyatini aks ettiradigan va grammatik tuzilmalar eng ko‘p ishlatiladigan boshlang‘ich va o‘rta bosqichlar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda har safar, ya‘ni. har bir TNV doirasida hamma yoki deyarli hamma foydalanishi mumkin o‘rganilgan grammatik tuzilmalar.

Shunday qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: rejalashtiruvchi ushbu tuzilmalar ro‘yxatiga ega bo‘lishi, ularni tugunli nutq vazifalarini hal qilish mazmuni bilan bog‘lashi va shu bilan har bir TNV uchun mumkin bo‘lgan bayonotlarning tarkibiy inventarizatsiyasini optimal leksik tarkibida aniqlashi kerak. Bu har bir tuzilish doirasida asl yoki asosiy kombinatsiyalarni va ularni o‘zgartirish, kengaytirish, birlashtirish va boshqalar uchun zarur bo‘lgan nutq materialini o‘rnatishga imkon beradi keling, ushbu protsedura haqida batafsilroq to‘xtalamiz.

### **Muhokama va natijalar.**

Shunday qilib, birinchi vazifa - bu ingliz tilining grammatik hodisalarining tarkibiy modellarida ifoda bo‘lib, ular oliy ta‘lim muassasatalimining ma‘lum bir bosqichida kombinatsion ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun mos keladi - bizning holatlarimizda o‘rta maktabning IV-VI (V-VII) guruhlarida. Bu so‘z birikmalarining tarkibiy modellari bo‘lishi kerak va shu munosabat bilan tilshunoslarning iboralar va jummalarni ajratish kerakmi yoki B. A. Ilyishning fikriga ko‘ra, iboralar “analitik shakllardan tashqari grammatik birlik bo‘lgan ikki

yoki undan ortiq soʻzlarning har qanday kombinatsiyasini” oʻz ichiga olishi kerak. Ushbu nuqtai nazardan, B. A. Ilyishdan tashqari, V. V. Vinogradov, iboralar odatda “nutqning muhim qismlariga tegishli boʻlgan ikki yoki undan ortiq soʻzlarni birlashtirish orqali hosil boʻlgan va baʼzi bir, ammo ajratilgan tushuncha yoki vakillikning belgisi boʻlib xizmat qiladigan grammatik birliklar” deb nomlanadi, deb yozadi. Boshqacha qilib aytganda, nutqdagi mustaqil soʻzlarning har qanday birikmasi - bu butun psixologik hukmning yoki uning bir qismining ifodasi boʻladimi - ibora shuning uchun jumlar ham iboradir. Bundan farqli oʻlaroq, koʻpchilik tilshunoslar bu iborani “mustaqil grammatik birlik”, “sintagma”, “indikativ boʻlmagan sintagma”, “ogʻzaki guruh”, “kombinatsiya”, “qurilish” deb talqin qiladilar va jumlag qarama-qarshi.

Ushbu nuqtai nazar jumlani jumlag boʻysundirgan A. A. Shaxmatov tomonidan aniq ifodalangan. Soʻz birikmalarini (F. F. Fortunatov kabi) tugallangan va tugallanmagan soʻzlarga boʻlish orqali Shaxmatov soʻz birikmasi haqidagi taʼlimot faqat tugallanmagan soʻz birikmalarini koʻrib chiqadi, deb hisoblaydi. Soʻzlarning toʻliq birikmasining asosiy belgisi uning kesimligi hisoblanadi. A.A.Shaxmatov va uning izdoshlari kontseptsiyasida soʻzlarning” tugallanmagan “ birikmalari jumlaning bir qismi boʻlgan iboralardir va ular sintaksisda iborani oʻrganish mavzusini tashkil qiladi.

Ibora jumla uchun “qurilish materiali” boʻlib, ular yagona, boʻlinmaydigan tushunchani ifodalaydi, lekin ularning kesimligi yoʻqligi sababli mustaqil emas va shuning uchun faqat jumla orqali ular tilning kommunikativ vositalari tizimiga kiradi.

Maʼlumki, metodist oʻz tadqiqotlarida tilshunoslarning qarama-qarshi nuqtai nazarlaridan biriga tayanishga haqlidir va bu holda metodologiya nuqtai nazaridan ibora va jumlani ajratib turadigan nuqtai nazarni tanlash yanada samarali va istiqbolli koʻrinadi. Ushbu tanlovning asosi lingvodidaktik xarakterni hisobga olish boʻlishi mumkin, yaʼni chet tilini oʻqitishda ibora (sintagma) nisbatan mustaqil pozitsiyani egallaydi, bu uning nutq asoslarini elementlararo shakllantirishdagi roli bilan tasdiqlanadi, uning davomida bir muncha vaqt nutq reaksiyasi faqat iboralar bilan taʼminlanadi yoki iborani elementga asoslangan tayyorlash va hatto soʻz birikmalarini oldindan shakllantirish orqali superfrazal birlik.

Maxsus tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, har xil turdagi iboralar ona tilini oʻrganuvchi nutqning etakchi tarkibiy qismlari hisoblanadi. Masalan, mahalliy boʻlmagan tilda talabalar nutqini tahlil qilish statistik maʼlumotlariga koʻra, ular yaratgan 10 000 ta jumlada 6 060 ta atribut iboralar qayd etilgan. Ammo kombinatsion koʻnikmalarni oʻrgatishda ibora va jumlag aniq boʻlinish alohida ahamiyatga ega boʻladi, birinchi navbatda, ibora (=feʼl soʻzlarning ifodasiz birikmasi) kombinatsiya birligi (ilgari oʻrganilgan iboralarning yangi kombinatsiyalari), ikkinchidan, morfologik oʻzgarishni oʻrganish, feʼl shakllarining oʻzgarishidan tashqari, juda tez-tez uchraydi. ichida sodir boʻladi sintagm va leksik oʻzgaruvchanlik koʻp hollarda - sintagmatik, uchinchidan, jumalarning kengayishi odatda qoʻshilish orqali sodir boʻladi sintagmalar (*On Monday + I go to school at 7 oʻclock + in the morning*), va baʼzida sintagmaning kengayishi xuddi shu tarzda sodir boʻladi (*the beautiful houses + of our village*). Ushbu fikrlarning barchasi bizga tarkibiy modellarni iboralar (sintagmalar) va jumlar uchun alohida ajratish uchun etarli asos boʻlib tuyuladi. Shu bilan birga, ibora yoki sintagma keyinchalik ikki yoki undan ortiq “semantik” va xizmat soʻzlarining nohaq erkin birikmasi sifatida tushuniladi, ularning tasvirida va oʻxshashligida tilda sintaktik jihatdan bir xil turdagi birikmalarning bir necha soni yaratilishi mumkin.

Shunday qilib, iboralar (sintagm) va jumalarning tarkibiy modellarida kombinatsion koʻnikmalarni oʻqitishning tarkibiy inventarizatsiyasini oʻrnatishga qaror qilib, ularni aniqlash manbalari va tartibini aniqlash kerak edi. Sizing tadqiqotingiz oʻzbek maktabida ingliz tilini oʻqitishning dastlabki uch yilidagi materiallar asosida olib borilganligi sababli, sintagmalar va jumalarning tarkibiy modellari roʻyxati IV-VI (V-VII) guruhlar uchun ingliz tili dasturi va darsligida nazarda tutilgan grammatik hodisalar va leksikon bilan cheklanishi kerak edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Бехтерева Н.П. Нейрофизиологические аспекты психической деятельности. Изд-во "Медицина", М., 1974. - 126 с.
2. Бычева А.Н. Интерференция родного языка и внутриязыковая интерференция при формировании грамматического навыка с помощью переводных упражнений // Проблемы обучения грамматическому и лексическому аспектам иноязычной речи. - Владимир, 1960. – С.122-141.
3. Гордилова Г.Г. К вопросу об оптимальном пути развития речевых навыков и речевых умений на начальном этапе обучения. - //Психологические и психолингвистические проблемы владения и овладения языком. - М.: Изд-во МГУ, 1969.
4. Горчев А.Ю. О путях реализации принципа противопоставления при обучении грамматической стороне речи. - Иностранные языки в школе, 1979. - №6. - С.
5. Горчев А.Ю. О системном подходе к организации грамматического материала для обучения устной речи // Отбор и организация языкового материала для обучения говорению на иностранном языке в средней школе. - М., 1982. - С.37-42.
6. Григорян С.Т. Проблема мотивации в психологии научения иностранному языку. // Проблемы обучения иностранному языку. Том 5, ч.1. - Владимир, 1970. - С.15-24.
7. Гурвич П.Б. Положительное и отрицательное в концепции сторонников структурального подхода к методике преподавания иностранных языков. ИЯВН. - Вып. I. - 1965. - 27-41 с.
8. Gilpin D. R. *Working the Twittersphere: Microblogging as professional identity construction. A networked self: Identity, community, and culture on social network sites.* New York, 2011, Chapter11, pp. 232–250.
9. Barnes J.A. Class and Committees in Norwegian Island Parish // Human Relations. Hafner Press. — NY., 1975. — P. 39–58.
10. Nizomova, M. B. (2022). Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(03), 1-6.
11. Baratboyevna, N. M. Features of the Formation and Development of Ecological Terms in Languages. *Journalnx*, 6(06), 55-57
12. Nizomova M. B. Ingliz va oʻzbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning tarjima qilish tamoyillari, muammolari va oʻziga xos texnologiyalari. // 2022-6/4 Вестник Хорезмской академии Маъмуна. Хива – 2022. 55-59 betlar. (10.00.00 № 21)



## ТЕХНИЧЕСКИЕ ДВИЖЕНИЯ БОРЦОВ ГРЕКО-РИМСКОЙ БОРЬБЫ НА СОРЕВНОВАНИЯХ И УРОВЕНЬ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Ташназаров Джасур Юлдашевич

п.ф.б.ф.д. (доктор философии педагогических наук) (PhD),

Заведующий научно-исследовательской лабораторией биомеханического анализа и коррекции движений в спорте Института физического воспитания и спорта.

Электронная почта: [d.tashnazarov88@gmail.com](mailto:d.tashnazarov88@gmail.com) Телефон: +998977519626

**Аннотация:** В данной научно-исследовательской работе проводится исследование итоговых технических приемов сложных атакующих движений, применяемых борцами греко-римского стиля на престижных соревнованиях, и внедрение этих технических приемов в тренировочный процесс юных борцов греко-римского стиля для проведения соревнований борцами раскрыта научная сущность и объяснено, что полученная информация поможет обогатить и расширить теоретические знания в области теории и методики спортивной борьбы.

**Ключевые слова:** физическая подготовленность. техническое обучение. моделирование, виды подготовки.

## TECHNICAL MOVEMENTS OF GRECO-ROMAN WRESTLERS AT COMPETITIONS AND THEIR EFFECTIVENESS LEVEL

Tashnazarov Jasur Yuldashevich

p.f.b.f.d. (Doctor of Philosophy of Educational Sciences) (PhD),

Head of the research laboratory of biomechanical analysis and correction of movements in sports at the Institute of Physical Education and Sports.

Email: [d.tashnazarov88@gmail.com](mailto:d.tashnazarov88@gmail.com) Phone: +998977519626

**Abstract:** In this research work, a study of the final technical techniques of complex attacking movements used by Greco-Roman style wrestlers at prestigious competitions is carried out, and the introduction of these technical techniques into the training process of young Greco-Roman style wrestlers for competitions by wrestlers, the scientific essence is revealed and explained that the information received will help enrich and expand theoretical knowledge in the field of theory and methodology of wrestling.

**Key words:** physical fitness. technical training. modeling, types of training.

## YUNON-RUM KURASHCHILARINI MUSOBAQA BELLASHUVLARIDAGI TEXNIK HARAKATLARI VA ULARNI SAMARADORLIK DARAJALARI

Tashnazarov Djasur Yuldashevich

p.f.b.f.d. (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori) (PhD),

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, sportda biomexanik tahlil qilish va harakatlar korreksiyasilash laboratoriyasi mudiri.

E-mail: [d.tashnazarov88@gmail.com](mailto:d.tashnazarov88@gmail.com) Tel: +998977519626

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy tadqiqot ishida yunon-rum kurashchilari tomonidan nufuzli musobaqalarda qo'llaniladigan murakkab hujum harakatlaridagi yakunlovchi texnik usullarini o'rganish va shu texnik usullarni yosh yunon-rum kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy etish asosida

*kurashchilar tomonidan bellashuvlarni olib borishning ilmiy mohiyati ochib berilgan va mazkur olingan ma'lumotlar sport kurashi nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarini boyitish va kengaytirishga yordam berishi bilan izohlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *jismoniy tayyorgarlik. texnik tayyorgarlik. modellashtirish, tayyorgarlik turlari.*

### **Mavzusining dolzarbligi**

Dunyo miqyosida yunon-rum kurashchilarining mashg'ulot jarayonlarida asosiy e'tibor psixologik, funksional tayyorgarliklardan tashqari jismoniy va texnik tayyorgarlikka katta ahamiyat berib kelinmoqda, sababi jismoniy va texnik tayyorgarlikning uzviy uyg'unlashishi musobaqa bellashuvlaridagi natijalarning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Yunon-rum kurashi yakkakurash sport turlari turkumiga kiruvchi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan sport turi bo'lib, unda jismoniy sifatlarni yaxshi rivojlantirilishi talab etiladi, shu sababdan yunon-rum kurashchilarining jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda yakkakurash sport turlariga kiradigan barcha mashqlar bo'yicha o'quv-mashg'ulot jarayonini modellashtirish asosida tashkil qilish, sportchilarning texnik tayyorgarliklarini takomillashtirish orqali yuqori natijalarga erishish nazarda tutiladi.

Yunon-rum kurash turida o'qitish kurash turlari nazariyasi va uni o'qitish usuliyati to'g'risidagi bilimlar kurashchining asosiy o'ziga xos musobaqa, hakamlik, pedagogik, tashkiliy faoliyati hisoblangan ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tashkil qilingan pedagogik jarayondir. O'qitish maqsadi shug'ullanuvchilarda trenerning kasb faoliyati konsepsiyasini aks ettiruvchi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu konsepsiya bilimlar va malakalar, ilmiy fikrlash uslublari, shug'ullanuvchilarda ongli hamda amaliy faoliyatga ijodiy munosabatni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Bu o'z navbatida yosh yunon-rum kurashchilarni ruhiy holatini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishi bilan mashg'ulot tizimi ishlab chiqilishi ta'minlaydi va kurash nazariyasi va o'qitish metodikalarini ishlab chiqilishiga sabab bo'ladi [1,5].

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'quv fanining o'ziga xos sharoitlari hamda xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy vazifalar quyidagilardan iborat: sport turi nazariyasi va o'qitish usuliyati bo'yicha bilimlarning optimal hajmi, har tomonlamaligi va yetarlicha chuqur bo'lishini ta'minlash; - ijodiy anglash imkoniyatlarini takomillashtirish; - kurashchining umumiy tayyorgarlik mashqlarini bajarish malakalarini shakllantirish va takomillashtirish; - kurash texnikasi usullari himoyalaniqlar va qarshi usullarni bajarishni shakllantirish hamda takomillashtirish; - musobaqa bellashuvlaridagi texnik-taktik harakatlarning optimal hajmi va turli xilligini shakllantirish; - o'quv, o'quv-trenirovka, nazorat, musobaqa va ko'rgazmali bellashuvlarni olib borish ko'nikmalari hamda malakalarini shakllantirish; - kurash usullarini bajarish texnikasini tahlil qilish bilimlari malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; - kurash texnikasini ko'rsatib berish va tushuntirish malakasini egallash; - murakkab texnik-taktik harakatlarni bajarishga o'rgatish va takomillashtirish bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; - kurash bo'yicha mashg'ulotlarni tahlil qilish va o'tkazish malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; - kurash musobaqalariga hakamlik qilish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish [2,4].

Yunon-rum kurashchilarda vazifalarni tamoyillarga bo'lib o'rganish optimallashtirilgan. Zamonaviy pedagogikada o'qitish tamoyillari o'qituvchi faoliyati va o'quvchining bilish faoliyati

xususiyatini belgilab beradigan asosiy talablar hamda yo'naltiruvchi qoidalar sifatida tushuniladi. Amaliy pedagogik faoliyatda o'qitish tamoyillari asoslanadi, ular o'qitish amaliyotini rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish uchun yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'riqnoma yunon-rum kurashchilarni boshlang'ich tayyorgarlik davridagi o'quv-mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri rejalashtirishda xizmat qiladi [3,6].

**Tadqiqotning maqsadi** malakali yunon-rum kurashchilarning texnik harakatlari va ularning samaradorlik darajalari o'rganish asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yunon-rum kurashchilarni musobaqa bellashuvidagi oddiy hujum harakatlarini takomillashtirishda qulay dinamik holatlarda shoh usullarni bajarish darajalarini o'rganish;

yunon-rum kurashchilarni bellashuvlardagi murakkab vaziyatlarda samarali harakatlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;

yunon-rum kurashchilarni musobaqa bellashuvidagi murakkab hujum harakatlariga o'rgatishda texnik usullarni samarali bajarishni modellashtirish asosida imkoniyatlarini o'rganish;

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, natijalarni tahlili usullaridan foydalanilgan.

Yunon-rum kurashchilarni tinimsiz mashg'ulotlarini asosiy vazifasi moslashish jarayonlarining juda tez kechishini keltirib chiqarishga qodir bo'lgan mashg'ulot vositalaridan maksimal foydalanishdan iborat. Mashg'ulot jarayonida berilayotgan yuklamaning hajmi va shiddatining umumiy yig'indisi o'lchamlari, katta yuklamali mashg'ulot jarayonlari keng miqyosda rejalashtirib boriladi. Bu musobaqadagi bellashuv taktik tayyorgarlik jarayonini tuzilishi va shakllanishini ta'minlaydi va o'z navbatida mashg'ulot jarayonidagi mashqlar tartibi o'zgarib borishiga va ularni takkorlanish soni keskin oshib borishiga sabab bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonini tuzish o'ta alohida xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Muayyan sportchini tayyorlashdagi katta murabbiylik tajribasi shu sportchiga xos bo'lgan xususiyatlarni, uning tayyorgarligining har jihatdan o'rganishga shu qatorda eng samarali texnik-taktik harakatlarni hamda vositalarini, mashg'ulot yuklamasini rejalashtirish variantini aniqlashga yordam beradi. Mashg'ulot jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish hisobiga yunon-rum kurashchining natijalari darajasini ushlab turish yoki oshirish imkonini beradi.

Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchilarning malakasi hamda tayyorgarlik darajasini oshirish va harakatlarga o'rgatish jarayoni ma'lum bir vaqt davomida amalga oshiriladi, bular dastlabki, qismlarga bo'lib, mustahkamlash va keyingi takomillash bohqichlariga ajratilgan. Dastlabki o'rganish bosqichida kurashchilarda texnik harakatlarini to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan tasavvurlar yaratiladi. Lekin ushbu xususiyatlarni rivojlantirmasa hamda vaqt va makonda harakatlarning yetarli darajada aniq bo'lmasa, mushak kuchlanishlarining noaniqligi, ortiqcha harakatlarning mavjudligi toliqish kuchayishi boshlanadi va oqibatda natija pasayib ketaveradi.

Bu borada kurashchilarni ko'pgina ortiqcha kuch sarflashlari va yunon-rum kurash turidagi musobaqa harakatlari va ko'pgina gavda mushaklarini zo'riqtirish bilan bajarishlari, yunon-rum kurash turining texnik usullarini bajarishda fazalar yaxlitligini buzib bajarishga olib keladi. Tez toliqib qolish va ayniqsa yosh kurashchilarda ish qobiliyatining yetarli darajada emasligi bilan ifodalanadi.



Yuqori malakali yunon-rum kurashchilari musobaqa jarayonlarida bu xolatlariga ko'p bora to'qnash kelishgan va o'zlarining mustahkam iroda va sabr bardoshlari sababli, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tadilar. Bu esa bizga boshlang'ich tayyorgarlik guruhida shug'ullanuvchi yunon-rum kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonlarida katta maktab vazifasini o'taydi.

Biz olib borgan tadqiqotimizning birinchi bosqichida nufuzli musobaqalarda yetakchilikni hech kimga bermay kelayotgan yuqori malakali yunon-rum kurashchilarni bellashuvlarda foydalanadigan texnik usullari arsenalini tahlil qildik. Unga ko'ra yuqori malakali yunon-rum kurashchilari nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishlarida birinchi navbatda o'z vazn toifalari va shu vazndagi barcha ishtrokchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni murabbiylari boshchiligida o'rganib chiqishlari va tahlil qilishlari, ularni g'alabaga bo'lgan taktik tayyorgarligi hisoblanadi. Bu esa nufuzli musobaqalarda eng saralangan va juda chuqur o'zlashtirilgan texnik usullardan tuzilgan murakkab taktik harakatlar bajarilishidan darak beradi.

Shu qatorda biz bu olingan natijalarning aniqligini bilish uchun O'zbekiston Respublikasi yunon-rum kurashi ixtisosligi bo'yicha terma jamoa tarkibidagi kurashchilarda intervyu o'tkazdik. Mazkur so'rovnoma savollari kurashchilarni o'zlari haqida qisman ma'lumotlar berishlariga ham sabab bo'ldi, 1-jadvalda nufuzli musobaqalar va terma jamoa kurashchilaridan olingan intervyu natijalari aks etgan.

1-jadval

**Yunon-rum kurashi bo'yicha nufuzli musobaqalarning peshqadam kurashchilarining bellashuvlarda foydalangan texnik usullarini tahlili**

T/r	Kurashchilar FISH		Tik turgan holatda bajariladigan texnik usullar			Parter holatida bajariladigan texnik usullar	
			Parterga tushirish usullari	Yiqitish usullari	Tashlash usullari	Parterda to'ntarish usullari	Parterda tashlash usullari
1	Kayaalp, Рыза (Turkiya)	X	**	*	*	***	*
		O	*	-	-	*	-
2	Belenyuk, Jan Vensanovich (Ukraina)	X	***	**	**	***	***
		O	*	-	-	*	*
3	Lyorins, Tamash (Vengriya)	X	***	**	**	***	**
		O	*	-	-	*	-
4	Borrero, Ismael (Kuba)	X	***	**	***	***	**
		O	*	-	*	*	-
5	Vlasov, Roman Andreyevich (rossiya)	X	***	**	**	***	***
		O	*	-	-	*	*
6	Aleksanyan, Artur Gevorkovich (Armeniya)	X	***	**	**	**	***
		O	*	-	-	-	*
7	Lopes Nunyes, Mixain (Kuba)	X	***	**	***	***	***
		O	*	-	*	*	*

*Izoh – \* yulduzchalarni baholash tartibi sifatida olindi, unga ko'ra:*

*1 ta \* - 3 bahoga bajara olganligi;*

*2 ta \*\* - 4 bahoga bajara olganligi;*

*3 ta \*\*\* - 5 bahoga bajara olganligi.*

*X – oxirgi musobaqalarda kurashchilar tomonidan ko'p g'alaba keltirgan texnik usullar.*

*O – birinchi musobaqalarda kurashchilar tomonidan ko'p bajarilgan texnik usullar.*

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda 2015 yildan buyon yunon-rum kurashi bo'yicha Jahon miqyosida yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgan kurashchilarning musobaqalarda ko'p foydalaniladigan usullari tahlil qilingan. Yuqori malakali kurashchilarning yengil vazn toifasidagilari yani:

Borrero Ismael (Kuba davlatining terma jamoa a'zosi) 2014 yilda O'zbekistonda o'tgazilgan Jahon chempionatida hamyurtimiz Elmurot Tasmurodovga katta xisobda mag'lub bolgan bo'lsa. 2015 yildan o'zini tez tiklab olgan va ketma ket nufuzli musobaqalarda g'olib bo'lib kelmoqda. Raqibini siquvga olib har laxzada ustunligini bildirib kurashuvchi bu kurashchi asosan raqibini bir qo'lini maxkam ushlab oladi va shu holatdan bir nechta usullarni bajarishga harakat qiladi. Parter holatida raqibini gilamdan oson ko'tarib olib tashlash usullaridan birini bajarish xususiyatiga ega kurashchilar toifasiga kiradi.

Vlasov Roman Andreyevich (rossiya davlatining terma jamoa a'zosi) parter holatida to'ntarish usullari va tashlash usullarini Jahon miqyosida juda maromiga yetkazib bajaruvchi yetakchi kurashchilardan biri xisoblanadi.

Belenyuk Jan Vensanovich (Ukraina davlatining terma jamoa a'zosi) bu kurashchi o'zining chidamkorligi bilan nom qozongan, uning raqiblarining ko'pginasi bunga nisbatan balandroq jussaga ega bo'lishgan. Ko'pgina musobaqadagi raqiblari bilan kurashda 2-bo'lib kurashishiga antropometrik o'lchamlari kichkinaroq bo'lganligi sabab bo'lgan va bu o'z navbatida kurashchidan ko'proq kuch talab qilgan.

Aleksanyan Artur Gevorkovich (Armeniya davlatining terma jamoa a'zosi) juda shiddatli vaznda bellashuvchi kurashchilardan biri. Bu vazn toifasidagi kurashchilar tezkor-kuch va kuchchidamkorligi sifatleri juda yaxshi rivojlangan bo'lishi shart, aks holda biron bir musobaqada natijaga erisha olishmaydi. Artur Gevorkovichning mazkur sifatlerini rivojlanish darajasi yuqori bo'lgani sababli va texnik-taktik tayyorgarligi ham yaxshi bo'lganligi bilan Jahon miqyosida yaxshi natijalarga erishib kelmoqda.

Lyorins Tamash (Vengriya davlatining terma jamoa a'zosi) bu kurashchining antropometrik o'lchamlari raqiblarinikidan kattaroq bo'lganligi sababli nufuzli musobaqalarda yetakchi o'rinlardan birini egallashiga sabab bo'lib kelmoqda desak ham bo'ladi. Bellashuvlarni shiddat bilan olib borishi tinimsiz xujamlar qilishi bilan ajralib turadi.

Kayaalp Rıza (Turkiya davlatining terma jamoa a'zosi) 1989 yilda tavallud topgan bu kurashchi o'zining bellashuvlarida tinimsiz hujum qilish xususiyatiga ega. Parterga tushurish va tik turgan holatda yiqitish usullaridan ko'p foydalanadi. Og'ir vazn toifasida Jahon miqyosida ikkinchi o'rinda turadi.

Lopes Nunyes, Mixain (Kuba davlatining terma jamoa a'zosi) Og'ir vazn toifasidagi Jahonda etakchi kurashchilardan biri. Ketma ket 3 karra olimpiada g'olibi va bir necha bor jahon chempioni. Asosiy yutuqlaridan biri o'ta kuchli kurashchi, ushlashlari juda mustaxkam.

Usullarni har doim oxiriga yetkazib bajaradi. Parter holatda qarshi hujum harakatlariga ustunlik, va tushe holatidan ham oson chiqib ketish tajribasiga ega kurashchidir.

Yuqorida nomlari keltirilgan yuqori toifadagi kurashchilarning bellashuvlarda bajaradigan texnik usullarini hozirda Jahon miqyosida eng kerakli usullar deb xisoblab, ular bu mahoratni boshlang'ich tayyorgarlik davrlaridan buyon o'rganib keyin takomillashtirib borishgan va yillar davomida bo'lib o'tgan musobaqalarda shakllantirib boraverganlar.

Yunon-rum kurashida kurashchilarni ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini samarali boshqarish uchun ko'p yillik dasturning ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini hisobga olgan holda tuzilgan alohida tarkibi yunon-rum kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonining ustuvor yo'nalishini to'g'riroq aniqlashga, muayyan ko'rsatkichlarni belgilashga, yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi kurashchilar tayyorgarligi davomida ularga tayaniladi va takomillashtirishga imkon beradi. Yunon-rum kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi kurashning o'quv-mashg'ulot jarayonlariga qadam qo'ygan laxzasidan to oxirgi o'quv-mashg'ulot jarayonigacha davom etadi. Ayrim ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi mustaqil izlanuvchilar oxirgi musobaqadan keyin sportni tark etadi degan fikrlari bor, lekin musobaqadan keyingi tiklanish, tanani o'rta yuklamada olib borish ham tayyorgarlik bosqichidir.

### **Xulosa**

Mustaqillikka erishish bilan yoshlarimizni kamolot sari yetaklash maqsadida yurtimizning ko'plab maktablarining ta'lim olishga va sport turlari bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Mamlakatimizda ko'plab ijodiy yo'nalishlarga ixtisoslashtirilgan maktablarini tashkil etish va ularni ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va mazkur jarayonlarni sport mashg'ulotlariga joriy etish maqsadi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatish uchun sport mashg'ulot jarayonlarida zamonaviy uslublardan foydalanish, yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgan sportchilarni model sifatida ulardan andoza olish va mashg'ulot jarayonlarimizga modellashtirish uslubi orqali kiritish, joriy etish orqali jahon arenalarida g'alaba qozonishlari bo'yicha ilmiy izlanish ishlari olib borilmaganligi kuzatildi.

Biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarimizda respondent-trenerlar fikri va maslahatlari asosida o'rganilgan yuqori malakali yunon-rum kurashchilarni Jahon arenalarida ko'rsatib kelayotgan natijalari va musobaqa bellashuvlarini kuzatish va tahlil natijalariga ko'ra, ular tomonidan bajarilayotgan texnik usullar o'z maromiga yetkazilib bajarilayotganligi va noqulay vaziyatlardan ham yengillik bilan chiqib ketish holatlari tadqiqot davomida aniqlandi. Bu borada Jahon arenalarining kuchli kurashchilarni g'alaba qozonishdagi hujum va himoya harakatlari to'g'risidagi ilmiy izlanishlarda yetarlicha ma'lumotlar yoritib berilmaganligi o'rganildi. Texnik harakatlarni saralashda faqatgina nufuzli musobaqalarda muvofaqiyatli bajarilgan texnik harakatlar emas, balkiy shu texnik usullarni maromiga yetkazib bajargan bir qancha yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining texnik-taktik mahorat darajalari o'rganildi. Yunon-rum kurashi bo'yicha nufuzli musobaqalarda peshqadam kurashchilarning bellashuvlar jarayonida oddiy va murakkab hujum harakatlarini tizimlashtirishlarida asosiy parterga tushurish usullari va parterda to'ntarish va tashlash usullaridan ko'p marotaba foydalanganligi aniqlandi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tastanov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O'quv-qo'llanma. T. 2014 y.
2. Tastanov N.A. –Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T. 2017 y.
3. Tastanov N.A., Abdullayev Sh.A., Tursunov Sh.S., Adilov S.Q. – Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin va Yunon-rim kurash turlari bo'yicha). O'quv-qo'llanma. T. 2018 y.
4. Tursunov Sh.S. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O'quv-qo'llanma. T. 2017 y.
5. Tashnazarov D.Yu. – Sport pedagogik mahoratini oshirish yunon-rim kurashi bo'yicha (1-jild). T. 2019 y.
6. Tashnazarov D.Yu. – Sport pedagogik mahoratini oshirish yunon-rim kurashi bo'yicha (2-jild). T. 2019 y.

### НАУЧНЫЙ СТИЛЬ КАК ОДИН ИЗ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СТИЛЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

**Алимсаидова Сайёра Амидъеевна,**

Кокандский государственный  
педагогический институт имени Муками  
доктор педагогических наук (DSc), доцент  
E-mail: [kokand-sayyora@mail.ru](mailto:kokand-sayyora@mail.ru)

***Аннотация:** В данной статье раскрываются основные стороны Языка как общественного явления неразрывно связанного с человеком. Язык, речь в качестве одной из специфических черт человека как социальной личности теснейшим образом связаны с другими особенными человеческими свойствами – мышлением и, шире, сознанием, духовной жизнью и способностью к осознанной и целенаправленной трудовой деятельности.*

***Ключевые слова:** взаимоотношения, коммуникативная компетенция, эмоционально-эстетическое воздействие, воспитание, своеобразие в языке, социальные факторы, речевое поведение.*

### SCIENTIFIC STYLE AS ONE OF THE FUNCTIONAL STYLES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE

Ilmiy turlardan biri funktsional  
Alimsaidova Sayyora Amidievna,  
Kokand State

Pedagogical Institute named after Mukimi  
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), dotsent  
E-mail: [kokand-sayyora@mail.ru](mailto:kokand-sayyora@mail.ru)

***Annotation:** This article reveals the main aspects of Language as a social phenomenon inextricably linked with man. Language and speech as one of the specific features of a person as a social personality are closely connected with other special human properties - thinking and, more broadly, consciousness, spiritual life and the ability for conscious and purposeful work activity.*

***Key words:** relationships, communicative competence, emotional and aesthetic impact, education, originality in language, social factors, speech behavior.*

## RUS TILINI O'QITISHDA ILMIY USLUB FUNKSIONAL USLUBLARDAN BIRI SIFATIDA

Alimsaidova Sayyora Amidievna,  
Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat  
pedagogika instituti  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
E-mail: [kokand-sayyora@mail.ru](mailto:kokand-sayyora@mail.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tilning inson bilan uzviy bog'langan ijtimoiy hodisa sifatidagi asosiy jihatlari ochib berilgan. Til va nutq insonning ijtimoiy shaxs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida insonning boshqa maxsus xususiyatlari - tafakkur va kengroq aytganda, ong, ma'naviy hayot va ongli va maqsadli mehnat faoliyati qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir.*

***Kalit so'zlar:** munosabatlar, kommunikativ kompetentsiya, hissiy va estetik ta'sir, ta'lim, tildagi o'ziga xoslik, ijtimoiy omillar, nutq xatti-harakati.*

### Введение

По определению В.Г.Костомарова, «наука о явлениях, связанных с употреблением, применением, использованием, функционированием языка (эти слова употребляются как синонимы) в зависимости от природы обслуживаемого им фрагмента действительности» называется **стилистикой**. Однако эти явления «не покрывают всех сторон общения (или коммуникации), поскольку далеко не всегда можно учесть многообразные параметры этого процесса, часто находящиеся вне царства языка: прежде всего среду, т.е. характер и статус, способ и вид контакта общающихся людей, и что еще важнее – сферу, т.е. тематику обсуждаемой информации. Именно общественно осознанные, исторически устойчивые применения языка находятся в центре рассмотрения стилистики» [6].

### Литературный обзор

А.Н.Гвоздев уточняет: «стилистика рассматривает целесообразность использования имеющихся в языке, соответствующих его нормам средств для тех задач, которые стоят перед участниками общения. Она ставит целью способствовать осознанию того, как лучше использовать возможности, предоставляемые языком. Она рассматривает языковые явления со стороны их значения и экспрессии, оценивая, насколько они пригодны для того, чтобы точнее, яснее и ярче выразить известную мысль...» [3].

Проблема разграничения стилей по функциональному признаку была поставлена русскими учеными еще в XVIII столетии. Определение стиля тогда еще не представляло собой четко очерченной категории, но уже рассматривалось как новое языковое явление со своими особенностями и функциями. Сам термин «стиль» (и соответствующее ему понятие) входит в довольно широкий оборот в литературе, употребляется в трудах Феофана Прокоповича и В.К.Тредиаковского.

В 20-30-х гг. получает свое оформление и собственно функциональная стилистика. В работах академика В.В.Виноградова с их функционально- стилистической проблематикой, по существу, представлено это направление исследований.

Следует отметить, что у истоков русского функционально- стилистического исследования языка помимо В.В.Виноградова стояли такие выдающиеся лингвисты, как Л.В.Щерба, Г.О.Винокур, А.И.Ефимов, Б.А.Ларин, Л.П.Якубинский, В.М.Жирмунский и др.

Их научные исследования во многом определяют развитие современной функциональной стилистики.

В 1954-1955 гг. по инициативе В.В.Виноградова на страницах журнала

«Вопросы языкознания» была организована дискуссия, в ходе которой обсуждались многие вопросы стилистики, в том числе и вопрос классификации функциональных стилей. Эта полемика сыграла важную роль в дальнейшем развитии стилистики. Она способствовала активизации функционально-стилистических исследований прежде всего теоретического плана, а также и практических, описательных (характеризующих определенный функциональный стиль по отдельным языковым чертам или по их совокупности). Знаменательно, что эта дискуссия имела большое значение для развития не только русской стилистики, но и зарубежной. Основными обсуждавшимися в ходе дискуссии проблемами были следующие: предмет стилистики; определение понятия «стиль»; разграничение понятий «стилязыка» и «стили речи»; историзм в определении стиля; место языка художественной литературы среди функциональных стилей. Так, в ходе обсуждения о стилистике, В.В.Виноградов предлагает определение, ставшее классическим: «*Стиль* – это общественно осознанная и функционально обусловленная, внутренне объединенная совокупность приемов употребления, отбора и сочетания средств речевого общения в сфере того или иного общенародного, общенационального языка, соотносительная с другими такими же способами выражения, которые служат для иных целей, выполняют иные функции в речевой общественной практике данного народа» [4].

В.В.Виноградов обосновывает разграничение стилей их коммуникативной функцией. «Разговорный противопоставлен книжному и отграничивается от других стилей вследствие присущей ему коммуникативно-бытовой функции, поэтому в этой сфере иногда выделяются обиходно-бытовой и обиходно-деловой стили; научно-деловой, специальный, определяющийся своеобразными свойствами и принадлежностями научно-коммуникативной функции; газетно- или журнально-публицистический, выделяющийся по характерным качествам и приметам агитационно-коммуникативной функции, официально-канцелярский или официально-документальный и некоторые другие» [4].

Таким образом, функционально-стилевая концепция, утверждающая экстралингвистическую, социальную основу расслоения литературного языка, восходит к трудам В.В.Виноградова, Ш.Балли, ученых Пражского лингвистического кружка. В 60-80-е годы XX в. в российской русистике было разработано развернутое обоснование данной концепции с определением набора основных экстралингвистических факторов и выполнено уровневое описание функциональных стилей русского языка.

#### **Цель исследования**

В данной статье раскрываются основные стороны Языка как общественного явления неразрывно связанного с человеком. Язык, речь в качестве одной из специфических черт человека как социальной личности теснейшим образом связаны с другими особенными человеческими свойствами – мышлением и, шире, сознанием, духовной жизнью и способностью к осознанной и целенаправленной трудовой деятельности.

#### **Основной материал**

М.Н.Кожина в своей работе «О диалогичности письменной научной речи» отмечает, что «изменение парадигмы языкознания в 80-е годы,

В «Лингвистическом энциклопедическом словаре» выделяется пять функциональных стилей: обиходно-литературный, газетно-политический, производственно-технический, официально-деловой и научный [7].

Наука как особая сфера деятельности человека, специфика научного мышления, установленные каноны научной коммуникации обусловили определенный выбор языковых конструкций и своеобразие их функционирования в научном общении. Следствием этого стало появление научного функционального стиля как особой функционально-речевой разновидности, характеризующейся отличительными признаками, что практически было признано всеми лингвистами.

Так же, как и люди, чья деятельность далека от лингвистики, работая с научной литературой, «на подсознательном уровне понимают, что в ней есть что-то очень устойчиво-своеобразное, сохраняющееся в «ткани» научных произведений» [5].

Невиданные ранее темпы и размах развития науки, превращение ее в непосредственную производительную силу общества, естественно, привели к возросшему самосознанию науки. Оно выражается в актуализации проблем истории и психологии научного творчества и мышления, проблем прогнозирования науки и управления наукой и вызвало к жизни появление особой новой отрасли знаний – науковедения или науки о науке.

Среди аспектов комплексного изучения науки, научного творчества и мышления называют обычно философский, логический, психологический, исторический. К ним, конечно, следует присовокупить и лингвистический, ибо мышление человека, ученого в процессе творчества и объективация результатов творчества фиксируются в речи. Следовательно, изучение речи и, таким образом, лингвистический аспект исследования должны помочь выяснению некоторых сторон комплексной науковедческой проблематики.

### **Выводы**

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi sohasida "hududiy (mintaqaviy) komponent" tushunchasi mavjud bo'lib, pedagogika fanida doimiy tadqiq etib kelinadi. Hudud (lotincha *regio* - mamlakat, viloyat, tuman) - kenglik, makon (geografik, ijtimoiy hayot, madaniyat) bilan bog'liq bo'lib, bunda insonning ijtimoiylashuvi, hayot tarzining shakllanishi, milliy urf-odatlarni saqlab qolishi va kelajak avlodga yetkazish hodisasi sodir bo'ladi. Bu dunyoda ijtimoiy hayot normalarining yo'qolib ketayotgan bir davrda juda muhim sanaladi. Shu ma'noda tasviriy san'at darslarida milliy-hududiy mazmundagi materiallardan foydalanish nafaqat qadriyatlarini saqlash vositasi, balki, tasviriy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirish omili sifatida ham ahamiyatlidir.

Ilmiy adabiyotlapda "mintaqa" va "hudud" tushunchalarining aniq ta'rifi mavjud emas buning sababi jahon zamonaviy mintaqashunoslik yo'nalishlarida tushunchalarning xilma-xil ma'noda qo'llanishidadir. Shu o'rinda rus tadqiqotchilari V.G. Ignatov va V.I. Butov tomonidan berilgan ta'rifga to'xtalamiz. Olimlarning yozishicha: "O'lka - bu tupli millat kishilarini yagona jamoaga birlashtiruvchi umumiy hudud. O'lka - deb geografik, ijtimoiy va madaniy tarixiy o'ziga xoslikka ega bo'lgan va unda yashovchi aholi o'rtasida ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar o'rnatilgan hudud tushuniladi".

Tasviriy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirishda milliy-hududiy materiallardan foydalanish - deganda tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning tarixiy-madaniy obidalar tarixini chuqur o'zlashtirgan va xalq amaliy san'at namunalaridan foydalangan holda Farg'ona vodiysi hududida yashovchi xalqlarning milliy-madaniyatini boshqa madaniyat vakillariga jumladan, jahonga tanitish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Milliy-hududiy madaniyat deganda ma'lum bir hududda, mintaqada yashovchi xalqlarning turmush

tarzi, milliy-madaniy va ma'naviy hayotini tashkil etuvchi "butun madaniy va ma'naviy boyligi" tushuniladi.

### **Tahlil va natijalari:**

Shu ma'noda tasviriy san'at darslarida milliy-hududiy mazmundagi materiallardan foydalanish nafaqat qadriyatlarni saqlash vositasi, balki, tasviriy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirish omili sifatida, milliy-hududiy materiallarning badiiy va pedagogik imkoniyatlari art ta'limning milliy madaniyat va san'atga yo'naltirilgan etnobadiiy, zamonaviy o'qitish texnologiyalariga doir loyihaviylik, qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik, natijaviylik kabi metodik-texnologik komponentlarini "madaniy dialog" konsepti bilan muqobillik darajasini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali aniqlashtirilgan.

### **Xulosa**

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san'atni o'qitish hamda amaliy bezak san'at mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi kursi alohida o'rin egallaydi. Chunki o'qitish metodlarini bilmay turib, mashg'ulot olib borib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3. <https://conferencepublication.com>.
2. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278). (Ulrich's Periodicals Directory 18)
3. Ghiasi G., Larivière V., Sugimoto C.R. On the compliance of women engineers with a gendered scientific system // PLOS ONE. 2015.
4. Ганиева Г.Ж. Гендерные исследования в Центральной Азии. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти илмий тўплами. № 16 сон. Т. 2013, Б.131-136.
5. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н., Давлаткулова М.Х. (2014) Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый №8, стр.804-807.
6. Каримова М.Н. (2019) Проблемы и перспективы преподавания предмета "Технология" в общеобразовательных школах. Вестник науки и образования №2-2, (56), стр.17-19.



## THE EFFECTS OF CLASSROOM SEATING ARRANGEMENT ON SCHOOL STUDENTS' PERFORMANCE

Buriyeva Sanobar Farkhad kizi

English teacher of Karshi lega technical college

**Annotation:** This article is aimed at teaching in our developing country, enriching the educational process with improved methods. It provides information about the placement of students in groups and classrooms in foreign language teaching and highlights the results of research. The types of placements in the learning process and their impact on student learning are covered with extensive information and results.

**Key words:** seating arrangement, orderly rows, a horseshoe shape, u- shaped seating, undivided, flexible arrangements, circles, clusters.

## ВЛИЯНИЕ РАСПОЛОЖЕНИЯ В КЛАССЕ НА УСПЕШНОСТЬ ШКОЛЬНИКОВ

Буриева Санобар Фархадовна

Преподаватель английского языка

Каршинского Юридического Технического Колледжа

**Аннотация:** Данная статья направлена на преподавание в нашей развивающейся стране, обогащение образовательного процесса усовершенствованными методами. Приведена информация о размещении студентов в группах и аудиториях при обучении иностранному языку и освещены результаты исследований. Типы размещения в процессе обучения и их влияние на обучение учащихся представлены в обширной информации и результатах.

**Ключевые слова:** расположение сидений, стройные ряды, подковообразная форма, П-образная рассадка, неразделенная, гибкая компоновка, круги, кластеры.

## DARS JARAYONLARIDA O'QUVCHILARNING JOYLASHUVINI O'ZLASHTIRISH JARAYONIGA TASIRI

Bo'riyeva Sanobar Farhod qizi

Qarshi yuridik texnikumi ingliz tili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqola rivojlanayotgan mamlakatimizda ta'lim jarayonini takomillashtirilgan metodlar bilan boyitgan holda o'qitishga qaratilgan. Unda chet tilini o'qitishda guruhlarda hamda sinf xonalarida o'quvchilarning joylashuvi haqida ma'lumot berilib tadqiqotlar natijasi yoritiladi. Dars jarayonidagi joylashuv turlari va ularning o'quvchilar o'zlashtirishidagi ta'siri keng ma'lumot va natijalar bilan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'tirish tartibi, tartibli qatorlar, taqa shakli, U shaklidagi o'tirishlar, bo'linmagan, moslashuvchan tartiblar, doiralar, klasterlar.

One of the most important processes is to improve the efficiency of the education system at a time when education is important for the development of a country. Therefore, a number of experiments are being conducted to improve the effectiveness of the educational process. One of them is analyzing the efficiency of classroom seating arrangement.

To conduct and manage the classroom effectively teachers have to organize the seating arrangement well. A classroom is an adaptable and often a flexible setting for which teachers make an arrangement for the tables, chairs, and other materials in order to stimulate active involvement in the lessons. Also, teachers decide which location is the best to stimulate an individual student's academic and social development, while encouraging teacher-student interaction, reducing distractions, aggression, and "downtime" [1:750]. A seating arrangement has a direct impact on students academic performance of all ages in the course of the lesson. According to most teachers, students in the front rows tend to be more attentive to the learning process than those who sit in the back rows. From students' points of view, most students sit in the back rows in order to avoid being attended or addressed to. In some cases students try to sit down near to the windows or the door to distract if they are not interested in class. However, in order to improve the learning environment, teachers are required to find the seating arrangement that is convenient for all students.

There are many seating arrangements which can be suitable for different tasks. In many teaching processes teachers choose *orderly rows*. Sometimes, the students will have desks in front of them. At the front of such classrooms - often on a raised platform (so that all the students can see them) - stands the teacher or you may see small groups of them working in different parts of the room. Sometimes, they are arranged in *a horseshoe shape* around the teacher [2:40]. *U-shaped seating*, or a classroom with *undivided, flexible arrangements*. Some of these arrangements are more common than others, such as an arrangement in rows or small groups (McCorskey and McVetta 1978; Wannarka and Ruhl 2008). A particular type of seating arrangement can be chosen with different goals in mind (Fives and Buehl 2008; Gest and Rodkin 2011; Kuzborska 2011). For instance, a seating arrangement in rows may be chosen to improve information dissemination, whereas an arrangement in small groups maybe chosen to promote student interactions [1:751].

### **Row arrangement**

This is the most common and traditional arrangement in a class. The room is divided into three columns and the extreme ends have two seats each and the center portion has four seats joined together. Rows can especially support students' on-task behavior during independent work. In contrary, it has been shown that seating arrangements in small groups can facilitate interaction between students due to proximity and close positions between peers [1 :751]. Arranging classroom in rows may seem somewhat restrictive and boring, but there are advantages of this arrangement. The teacher has a clear view of all the students and the students can all see the teacher and the direction she is facing. It makes lectures easier enabling the teacher to maintain an eye contact with the people he or she is talking to. In many countries there are classes which include 40 to 200 students. In such cases supervision and teaching can be easier with the row method and it will be a practical solution for seating arrangement. However, we cannot say it has no any disadvantages. To be more precise, this may appear boring to a certain extent, because all students know

when they are going to be asked. Moreover, this seating arrangement is less suitable to have paired conversation activities.

**U-shaped arrangement.** The U-shape often fits for classroom which has less students. If teachers

try to use it in larger larger classes, it may not be effective. U-shaped seating arrangement may always be suitable for the process when instruction moved from teacher centered to student centered. This encourages students to discuss and interact and makes connection between students and educator easy. Whereas the traditional rows was isolating this arrangement is more welcoming to become a part of greater whole. According to Wengel (1992), when the students are seated in this configuration, they have much freedom of interaction as compared with the other types of seating arrangements meanwhile engage in a class by paying full attention to their teacher [3:7]. On the other hand, this normally works well with adult students who can take responsibility of their behaviour. If you arrange classroom in *U-shape* for the young students this may cause some behavioural problems. If the students of a group are not communicative, this arrangement may not work well. The size of the classroom and students number may make the seating arrangement effective.

**Circles.** To arrange the classroom in the circle arrangement the size of the room should be adequate and the number of students should be moderate. This form is inconvenient, if there are more students in the classroom. *The Round Table* in the British and French legends about King Arthur was specially designed so that there would not be arguments about who was more important than who and that included the king himself when they were in a meeting. With all the people in the room sitting in a circle, there is a far greater feeling of equality than when the teacher stays out at the front [2:42]. There are other advantages too. Students will be able to see each other's facial expressions during the interview and they will be involve in a whole class interaction. Unless there is table in the middle of the circle, students are unobstructed and can speak directly each other. However, it always suits for small groups and some people feel uncomfortable or exposed in this type of arrangement.

**Clusters.** As asserted by Abcede and Esguerra (2015) learners are divided into small groups by joining 4 to 6 desks in a group. If it is happened to place the fifth or sixth table, this table automatically go to the end of the combination of 4 tables [3:6]. This seating in a classroom is for teachers who want to create small safe spaces in a larger classroom structure to encourage everyone to speak. Classes, presentations, discussions, games, and more can be easily held in the classroom. Another benefit is that the teacher secretly organizes high-achieving students to help teach low-achieving students. Clusters arrangement have some disadvantages too. It is not favorable during exams since there is a chance of cheating in the exam. It also creates problems when teacher is giving instruction since the students may not face towards the teacher. Instead of listening to the instructions or doing the tasks, students may talk among themselves [4:9].

### **Conclusions:**

As a conclusion, we cannot say that a particular sitting order is the best one for any classroom management, since each classroom process requires a specific seating arrangement. Each seating arrangement has its own negative and positive effects. For this reason seating can play a major role on students performance. Thus, the task of the teachers is to choose an arrangement that best suits their

circumstances and classes.

### References

1. Gremmen, Mariola; Van den Berg, Y.H.M.; Segers, E.; Cillessen, A.H.N. Considerations for classroom seating arrangements and the role of teacher characteristics and beliefs. 2016.
2. Jeremy Harmer. How to teach. Pearson education limited, 2007.
3. Effectiveness of classroom seating arrangement on students' reading achievement. Tee Xue Ting. March 2019.
4. Classroom management: Seating arrangement in ESL Classroom by Safe Zerin. December 2009.
5. Learning teaching. Jim Scrivener. Third edition.

### ONA TILIDAN O'QUV TOPSHIRIQLARI TASNIFI

Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
"Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi  
e-mail: [zjavohir6@gmail.com](mailto:zjavohir6@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda til ta'limida amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor ahamiyat kasb etishi, nutqiy kompetentsiyalar tarkibiga pragmatik kompetentsiyaning ham kiritilishi, o'quvchilarda maktab ta'limidan boshlab nutq vaziyatiga mos ravishda so'zlash ko'nikmalarini, dialog, poliloglarda muloqot ishtirokchisiga aylanish, suhbatdoshlar bilan polemikaga kira olish va o'z fikrini asoslay olish kompetentligini tarbiyalab borish xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mashq, topshiriq, tafakkur, o'quv faoliyati, biluv faoliyati, nutq, kompetentsiya.

### КЛАССИФИКАЦИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Закиров Жавахир Гайбуллоевич  
Термезский университет экономики и сервиса  
Преподаватель кафедры «Педагогика»  
электронная почта: [zjavohir6@gmail.com](mailto:zjavohir6@gmail.com)

**Аннотация.** В статье отмечается, что сегодня в языковом образовании приоритетным является развитие практических речевых навыков, включение в речевые компетенции также прагматической компетенции, начиная со школьного обучения, воспитание у учащихся навыков речи в соответствии с речевой ситуацией, компетентности стать участником диалога, полилога, уметь вступать в полемику с собеседниками и обосновывать свое мнение рассуждения.

**Ключевые слова:** упражнение, задание, мышление, учебная деятельность, познавательная деятельность, речь, компетентность.

### CLASSIFICATION OF STUDY TASKS FROM MOTHER TONGUE

Zakirov Javohir  
Termiz University of Economics and Service  
Teacher of the "Pedagogy" department  
e-mail: [zjavohir6@gmail.com](mailto:zjavohir6@gmail.com)

**Abstract.** *In the article, the priority of developing practical speech skills in language education today, the inclusion of pragmatic competence in the composition of speech competences, starting from school education, students' speech skills in accordance with the speech situation, dialogue, polylogues it is thought about developing the competence to be able to turn, to engage in polemics with interlocutors and to justify one's opinion.*

**Key words:** *exercise, assignment, thinking, educational activity, cognitive activity, speech, competence.*

### **Kirish**

Ona tilining kommunikativ rivojlanishini har bir bolaning ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan, ya'ni tengdoshlar o'rtasida kattalar bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan, ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Nutqiy qobiliyatni shakllantirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va o'quvchining umumiy ta'limiy ko'nikmalarini shakllantirish darajasiga bog'liqdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tilshunoslik fanining asoschisi Gumbolt [1, 270 b] nutqni til mahsuli sifatida yuzaga kelishini, Ferdinand De Sossyur esa, til nutq orqali reallashuvini ko'rsatib o'tganlar. De Sossyur ijtimoiy hodisa bo'lgan tilni imkoniyat, nutqni esa yuzaga chiqadigan hodisa sifatida tilning ifoda vositalaridan foydalanishini alohida ta'kidlaydi [2, 91 b].

Nutq nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutq nutq faoliyatining mahsulotidan, ma'lum shaklga kirishidan iborat. "...yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay iloji yo'q" [2, 95 b]. Til tashuvchisining shakllanish darajasiga ta'sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Insonda nutqning shakllanishi faqat maktab ta'limi jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi. Ona tili ta'limida nutqiy ko'nikmalarning shakllanishi psixologik omillarga ham bog'liq bo'lib, unda nutqiy ko'nikmalar – doimiy intellektual rivojlanish: ruhiy jarayonlar (xotira – vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy); – insonning ma'naviy boyligi – doimiy ma'naviy rivojlanish, axloqiy me'yorlar, avvalo, muloqot me'yoriga rioya qilish kabilarni o'zi ichiga oladi.

Bu ham didaktik, ham psixologik (ruhiy) jarayon bo'lib, jumladan, psixolog olim M.Neppning ta'kidlashicha, bola 2–3 yoshida ona tili grammatikasini egallay boshlaydi, chunki boshqa odamlarning nutqini anglab, so'zlar kombinatsiyasi va jumlar tuzilishida ongosti sezgilari orqali kodlangan ob'ektiv qonuniyatlarni, ko'plab ajdodlarning tajribasini qabul qiladi. Odam ongida nutqi rivojlanishi bilan bir qatorda, ongostida mumkin bo'lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi.

L.S.Vgotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog'liqligi haqida gapirishga imkon beradi. I.Ya.Zimnyayaning fikricha, "Ona tilining – kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi; – umumiy dunyoqarash darajasi [4, 128-b]. Muloqot qilish uchun zarur bo'ladigan kompetentsiyalar quyidagilardan iborat: – til kompetentsiyasi; – nutq kompetentsiyasi; – pragmatik kompetentsiya; – kommunikativ kompetentsiya.

Mazkur talablarni amalga oshirish, kompetentsiyalarni shakllantirish, albatta, til ta'limida maxsus o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta'limning afzalliklarini o'rganib chiqishni talab etadi.

Pragmatizm – ta'limni hayotga yaqinlashtirish, ta'lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo'lgan falsafiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, dastlabki pragmatistlarning g'oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan [5, 248 b]. Uning qayd etishicha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o'zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim.

Asosiy til birligi sifatida denotativ va konnotativ vazifalarni bajaruvchi so'zni o'rgatishda o'quvchini uning ma'noviy qirralarini anglay olish hamda nutqiy vaziyatlarga mos ravishda to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish ona tili ta'limining birlamchi vazifasidir. Biroq, buning o'zi yetarli emas. Til ta'limining keyingi vazifasi o'rganilgan so'zlarni qo'shish orqali so'zlovchiga o'z fikrini to'liq, tushunarli yetkazib bera olish va ayni paytda suhbatdoshning ifodalagan fikridagi mazmun-mohiyatni anglash.

Ko'rinadiki, ona tili ta'limi bolani atrofdagi voqelikni to'g'ri anglash va u haqdagi o'z fikr-mulohazalarini to'g'ri ifodalay olishi lozim. Ayni vaqtda o'zgarlar fikrini tushunib qabul qilish, ularga munosabat bildirish (ma'qullash, rad etish) bola (o'quvchi, talaba) dunyoqarashining o'sib borishiga olib keladi. SHu bois ona tili barcha fanlarni egallashning asosi ham sanaladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Til ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvda aynan shu jihatlar e'tiborga olingan holda tayanch va tilga oid kompetentsiyalar alohida ajratib berilgan. Tayanch kompetentsiya tarkibida berilgan kommunikativ kompetentsiyaning vazifasi belgilab berilgan. Ushbu DTSdan xususiy kompetentsiyalar tarkibiga til va nutqiy kompetentsiyalar kiritilgan (DTS, 2017).

DTS talablari asosida ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o'quv topshirig'i zamon talabiga mos va samarali bo'ladi:

- bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- o'quvchilarning o'quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi;
- o'quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi;
- o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak: – o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; – o'quvchilarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga; – nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos topshiriqlar ishlab chiqishga erishish lozim.

### **Tahlillar va natijalar**

Davlat ta'lim standartlari mazmunida ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash, o'quvchini mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish vazifasi ham mavjud. SHu ma'noda zamonaviy dars qanday

tashkil etilishi, o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan qanday muloqot qilishi, qanday topshiriq va savollar berish asosiy masala hisoblanadi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.
2. Darsni o'quv topshiriqlaridan o'rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.
3. O'quvchilarning bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o'quv topshiriqlari ishlab chiqish.
4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog'lanishlarni e'tiborda tutish.
5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog'lanish, o'quvchilarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.
6. SHaxsning barcha muloqot uchun zarur bo'lgan barcha nutqiy malakalarini rivojlantirish, natijalariga ko'ra rag'batlantirish va faollashtirish.
7. O'quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionalligi mezonlarini hisobga olish.
8. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish.
9. O'quv topshiriqlarini o'quvchilarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog'lash.
10. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko'zda tutish.
11. O'quv topshiriqlari o'quvchida bilim olish, fikrlash, nutqiy ko'nikmalarni egallashdan tashqari, o'zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Ma'lumki, har bir dars uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish. Ona tili ta'limida, asosan, grammatik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutildi. To'g'ri, grammatikasiz dars ham, darslik ham bo'lmaydi, biroq me'yorida bo'lishi kerak. Til o'rganishni murakkab jarayonga aylantirib qo'ymaslik, kasbiy malakalar alohida e'tibor berish, nega ona tili o'qituvchilarning bilimi past baholanayotganligini tekshirib ko'rish lozim, chunki bilim ko'nikma va malakalar noto'g'ri o'lchanayotgan bo'lishi mumkin. Maktab o'qituvchisidan til nazariyasi – qonuniyatlar so'ralmaydi, aslida olimlar ham tilshunoslikning kichkina bir sohasini biladi xolos. O'qituvchidan lingvistikaning hamma sohasini bilishni talab qilish noto'g'ri, albatta.

Grammatika qoidalar emas, ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish, o'quvchining adabiyotga mehr qo'yishini ta'minlaydi, turli nutq vaziyatiga xos bo'lgan matnlar mazmuni, kerakli ma'lumotni anglaydi, ona tilining ifoda imkoniyatlarini his etadi.

Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, topshiriq va mashqlar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo'lamiz. SHu o'rinda "mashq" va "topshiriq" atamalarini mohiyatan farqlash masalasida metodist M.Saidovning yondashuviga ham e'tibor qaratish lozim.

Olim o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori

A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi [7, 160 b].

Ma'lumki, til darsliklarida, asosan, "mashq", "savol" va "topshiriq" atamaları tabiiy va aniq fanlarda masala atamasi qo'llaniladi. Ularning barchasi o'quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo'lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o'quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi. Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi til ta'limining asosiy maqsad vazifasi o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. SHu bois tadqiqot ishimizda "mashq", "savol", "topshiriq" atamaları mazmuni va qo'llanishi jihatidan alohida to'xtalib o'tishni ma'qul topdik. Bizningcha, bu o'rinda eng keng qamrovlisi "topshiriq" bo'lib, darslik va qo'llanmalarda u savol va mashqni o'z ichiga oladi.

Milliy qadriyatlar, jumladan, ona tilini mukammal bilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. SHuning uchun ham ona tili o'qitish metodikasida nimani, qanday o'qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo'lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog'liq bo'lganligi bois, zamon o'z talabini qo'yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. SHuning uchun ham nimani qanday o'qitish masalasi doimiy dolzarblikga egadir. Bu borada o'quv topshiriqlari masalasining "Ona tili" darsliklari mazmunida berilishi, ularda o'quv topshiriqlarining vazifa jihatidan farqlanishi, o'quv topshiriqlariga munosabat tahliliy o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi ona tili ta'limida fanning asosiy o'quv materialı – grammatik ma'lumotlar va ularni o'zlashtirish hamda mustahkamlash uchun berilgan o'quv topshiriqlar hisoblanadi. Aslida bu eskicha yondashuv bo'lib, bugungi zamonaviy ta'lim – grammatik qoidalarga asoslanishni inkor qilmoqda. MDH mamlakatlarida, jumladan rus tili darsliklarida ham uzoq muddat grammatizm hukmronlik qilib keldi, jumladan, o'zbek tili darsliklari mazmuniga ham mazkur grammatizm rus tili darsliklaridan (prof. Бархударов, доц. Досичева "Грамматика русского языка") 1939 yilda tarjima yo'li bilan kirib keldi va bugungi kunga qadar amal qilib keldi. Qoidalar sistemasidan iborat mazmun turli davrlarda turlicha metodika asosida o'qitildi. M.Asqarova (1970–1993) va H.Ne'matov (1998–2006) lar muallifligida nashr qilingan O'zbek tili (Ona tili) darsliklarida an'anadan chiqish, yangicha yondashuvlar kuzatilgan edi. Aytish joizki, mazkur mualliflar ham grammatik ma'lumotlar hajmini qisqartirmadi, biroq o'quv topshiriqlar mazmunida sezilarli o'zgarishlar mavjud edi. Keyingi N.Mahmudov boshchiligida yaratilgan darsliklar mazmunida (2007 yildan hozirgi kunga qadar) grammatik qoidalar hajmi nisbatan ortdi, ilmiylashdi va o'quv topshiriqlar o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirildi, muayyan darajada soddalashdi. Darslikning metodika qismi – o'quv topshiriqlar ham shunga xizmat qilib keldi. Ta'kidlash lozimki, B.Mengliev ona tili ta'limi mazmunini yangilash, yangi o'qitish metodikasini amaliyotga joriy qilish – o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash muammosini tadqiq qiladi.

An'anaviy ta'limda ona tili darslari, asosan, o'quvchiga bilim berish, xususan, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jumalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. SHu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi.



Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rnini bilan mashqlar ham ishtirok etadi. Bunda o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: – bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi; – bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi.

Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega.

Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usulda o'quvchilar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

### **Xulosalar**

Ona tili ta'limida qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: – bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak; – o'qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar orqali yangi bilimlar izlanadi; – o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo'lgan muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli ravishda mustahkam bilim hosil qiladilar.

Zamonaviy darslik barqaror va mobil bo'lishi kerak. Barqarorlik talablariga muvofiq ravishda darslik mustahkam asosga ega bo'lishi kerak. Mobillik asosiy dizaynni buzmasdan yangi bilim, ko'nikmalarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi. Darslikning tarkibiga matn (turli nutq uslubiga doir matnlar-tavsiflar, matnlar-qissa va matnlar-dalillar) asosiy tarkibiy qism va matndan tashqari yordamchi komponentlar (tashkil etish va o'zlashtirish tuzilmasi) kiradi. Bu o'rinda o'zlashtirish tuzilmasi sifatida o'quv topshiriqlari katta vazifa bajaradi.

Ta'kidlash lozimki, o'quv topshiriqlari qo'llaniladigan asosiy manba darslik va qo'llanmalar bo'lib, har bir darslik o'quv jarayonida o'quvchilarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik o'quv topshiriqlari orqali quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi: – o'quvchilarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyoq uyg'otadi; – o'quvchiga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari orqali bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;

– mashg'ulotning borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun o'quv topshiriqlarini bajarish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy darslik asos sifatida ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda o'quv topshiriqlari paravozni o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar,



ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar orilgan vagonlarga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. ф. номз. - дисс. - Тошкент: ТДПИ, 2011. – 270 б.
2. Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. - № 3. - С. 91-95.
3. Неъматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001. – 96 б.
4. Сафарова Р., Нуржанова Р., Неъматов Ш., Қучкарова Ф. Замонавий дарсликларда концентризм принципи асосида тақдим этиладиган ўқув материалларини танлаш ва блокларга ажратиш. –Т.: Фан ва технология, 2013. – 128 б.
5. Мирзаев И.К. Таълим дарслиқдан бошланади. Республика илмийамалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2008. – 244–248 б.
6. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981. –186 с.
7. Ғуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.

## XOKKEYCHINING ASOSIY TURISH HOLATI TEXNIK HARAKATLARI BIOMEXANIK TAHLILI KO'RSATKICHLARI

Soyibjon Tajibaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

<https://orcid.org/0000-0003-0298-8158>

Shohruh Xojiyev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0003-4805-6751>

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada sportning xokkey turi bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar o'tab kelayotgan sportchining asosiy turish holatidagi texnik harakatlarining biomexanik ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

*Kalit so'zlar:* Xokkeychi, texnik harakat, sagittal o'q, asosiy turish, bukulish, ko'rsatkichlar.

### Dolzarbligi

Hozirgi davrda butun dunyo miqyosida sportning xokkey turiga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi va ushbu sport turining jahon miqyosida ommalashib ulgurayotgani asl sabablaridan biri bu murakkab texnik xarakatlar va o'ziga mutanosib ravishda xarakat elementlarini uyg'unlashuvi tamoshabinlar yodida o'chmas iz qoldirmoqda. Xokkey sport turi bilan muntazam ravishda mashg'ulot olib borayotgan yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirib borish maqsadida ko'plab soha mutahassislari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qaror va farmonlari yurtimizda har bir sport turning yuqori darajada taraqqiy etib borishida zamin yaratib kelmoqda.

Xokkey sport turi bilan mashg'ulot olib borayotgan yoshlarning yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritib nufuzli musobaqalarda yurtimiz sharafini munosib ximoya etishlari uchun biz tomonimizdan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot faoliyatida xokkeychilarning asosiy turish holati texnik harakatlarining biomexanik ko'rsatkichlarini aniqlash masalalari yoritib berilgan. Ushbu harakat ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish davomida xokkeychilarning asosiy turish holatlari va harakatga o'tish bosqichlarini to'g'ri yo'lga qo'yish ko'zda tutiladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Xokkeychilarning asosiy turish holati texnik harakatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning vazifasi:** Mavzuga doir adabiyotlar tahlilini qilish;

- xokkeychilarning asosiy turish holati texnik harakatlarini aniqlash.
- o'tkazilgan tadqiqot natijalari davomida aniqlangan muammolar yuzasidan kerakli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** Ilmiy-tadqiqot faoliyatlari uchun mo'ljallangan ilmiy laboratoriya markazi (O'zDJTSU).

**Tadqiqotning predmeti:** Xokkeychilarning asosiy turish holati texnik harakatlarini o'rganish va tahlil etish orqali xokkeychilarning harakat samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning usullari:** Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, matematik-statistik tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash.

**O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili:** Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lgan sportchilarning funksional imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda musobaqa sharoitlarida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etish va samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy ravishda ushlab turish barchamizga ma'lumki murakkab jarayon hisoblanadi. Yosh xokkeychilarning tayyorgarlik jarayonida dastlabki xarakat amallaridan boshlab to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tayyorgarlik darajalari va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida Xokkey sport turida asosiy turish holati texnik harakat ko'rsatkichlarini aniqlash va takomillashtirib borish yuzasidan olib borgan tadqiqot amaliyotimiz davomida aniqlangan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

### 1. UMURTQA



#### EGILISH

*Oldinga[+]/Orqaga[-]*

**Min** 26°

**Mak** 31°

**Diapazon** 5°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida umurtqa pog'onasining saggital o'q bo'ylab oldinga va orqaga egilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida umurtqa pog'onasi saggital o'q bo'ylab orqaga tomonga -5° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich saggital o'q bo'ylab oldinga ko'chib 26-31° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Gavda tik turgan holda oldinga egilishi bu xokkeychining muvozanat ushlab turishi uchun yordam beradi.


#### YONGA EGILISH

*O'ngga [+]/Chapga[-]*

**Min** -11°

**Mak** -7°

**Diapazon** 4°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida umurtqa pog'onalari ko'ndalang o'q bo'ylab yon tomonlarga egilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakat davomida umurtqa pog'onasi ko'ndalang o'q bo'ylab chap yonga -7° dan -11° gacha burchak osti oralig'ida joylashgan. Tananing chap tomonga og'ganligi bu chapyonni qo'lda joylashishi (o'ng qo'l chapyonning tepa qismini va chap qo'l nisbatan pastroq qismini ushlashi) bilan

izohlashimiz mumkin.

## 2. BO'YIN


### BUKULISH

*Bukish[+]/Yozish[-]*

**Min** -25°

**Mak** -19°

**Diapazon** 5°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida bo'yinning sagittal o'q bo'ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida bo'yin sagittal o'q bo'ylab orqaga tomonga -12° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich -25° dan -19° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida bo'yinning ortga bukulishi bu xokkeychi tanasi tik turgan vaqtda maydonni ko'ra olish imkoniyatini yaratadi.


### YONGA BUKULISH

*O'ngga [+]/Chapga[-]*

**Min** -4°

**Mak** 6°

**Diapazon** 9°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida bo'yinning ko'ndalang o'q bo'ylab yon tomonlarga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida bo'yin ko'ndalang o'q bo'ylab chap tomonga -5° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich -4° dan 9° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida bo'yinning ko'proq o'ng yonga bukulishi bu xokkeychi chapyonni qo'lda joylashishi (o'ng qo'l chapyonning tepa qismini va chap qo'l nisbatan pastroq qismini ushlashi) bilan izohlashimiz mumkin.


**BURULISHI**

*O'ngga [+]/Chapga[-]*

**Min** -43°

**Mak** 16°

**Diapazon** 10°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida bo'yinning yon tomonlarga gorizontal sath bo'ylab burulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida bo'yin gorizontal sath bo'ylab chap tomonga -40° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich -43° dan 16° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida bo'yinning chap va o'ng yon tomonlarga burulib harakatlanishi bu xokkeychining raqiblari, sheriklar yoki shayba yo'nalishlarini kuzatib borish bilan xarakterlanadi.

**3. YELKALAR**

**BURULISHI**


*Oldinga[+]/Orqaga[-]*

**CHAP O'NG**

**Min** 15° 0°

**Mak** 26° 11°

**Diapazon** 11° 11°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap qo'llar yelka suyaklari sagittal o'q bo'ylab oldinga va orqaga burulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l yelka suyaklari sagittal o'q bo'ylab orqa tomonga -5° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 0° dan 11° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap qo'l yelka suyaklari esa sagittal o'q bo'ylab old tomonga 11° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 15° dan 26° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap qo'llar yelka suyaklarining burulishlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut bu xokkeychi chapyonning turli qismlaridan tutib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni yuqori qismidan tutib turgan o'ng qo'l kamroq sagittal o'q bo'ylab oldinga burilgan bo'lsa, chap qo'lning chapyonning pastrog'idan tutilishi hisobiga tabiiy ravishda chap qo'l yelka suyaklari oldinga ko'proq burilgan.

**YON TOMONGA  
SILJISHI**


Tashqariga[+]/Ichkariga[-]  
]

**CHAP O'NG**

**Min** 80° 67°

**Mak** 83° 75°

**Diapazon** 2° 7°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap qo'llar yelka suyaklari ko'ndalang o'q bo'ylab yon tomonlarga siljishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l yelka suyaklari ko'ndalang o'q bo'ylab 64° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich tashqariga 67° dan 75° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap qo'l yelka suyaklari esa ko'ndalang o'q bo'ylab tashqariga tomonga 79° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 80° dan 83° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap qo'llar yelka suyaklarining yon tomonlarga siljish ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut bu xokkeychi chapyonning turli qismlaridan tutib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni yuqori qismidan tutib turgan o'ng qo'l kamroq ko'ndalang o'q bo'ylab tashqariga burilgan bo'lsa, chap qo'lning chapyonning pastrog'idan tutilishi hisobiga chap qo'l yelka suyaklari tashqariga ko'proq siljigan.

**4. TIRSAKLAR**

**BUKULISH**


Bukish[+]/Yozish[-]

**CHAP O'NG**

**Min** 25° 60°

**Mak** 30° 80°

**Diapazon** 13° 20°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap qo'llar tirsak bo'imlari tegishli tartibda saggital va ko'ndalang o'q bo'ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l tirsak bo'g'imi ko'ndalang o'q bo'ylab orqa tomonga 84° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 60° dan 80° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap qo'l yelka suyaklari esa saggital o'q bo'ylab old tomonga 37° burchak ostida joylashgan, harakat



davomida ushbu ko'rsatkich  $25^{\circ}$  dan  $30^{\circ}$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap qo'llar tirsak bo'g'imlaridagi burulish ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut bu xokkeychi chapyonning turli qismlaridan tutib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni yuqori qismidan tutib turgan o'ng qo'l ko'proq ko'ndalang o'q bo'ylab bukilgan bo'lsa, chap qo'l chapyonning pastrog'idan tutilishi hisobiga sagittal o'qda kamroq bukulilgan.

### 5. SON

#### BUKULISH

*Bukish[+]/Yozish[-]*

	CHAP	O'NG
Min	$16^{\circ}$	$20^{\circ}$
Mak	$48^{\circ}$	$47^{\circ}$
Diapazon	$32^{\circ}$	$27^{\circ}$





Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap oyoqlar son suyaklari sagittal o'q bo'ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng oyoq son suyaklari sagittal o'q bo'ylab  $18^{\circ}$  burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $20^{\circ}$  dan  $47^{\circ}$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap oyoq son suyaklari esa sagittal o'q bo'ylab  $13^{\circ}$  burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $16^{\circ}$  dan  $48^{\circ}$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap oyoq son suyaklarining bukulish ko'rsatkichlari normal holatda deyarli simmetrik ko'rsatkichda bo'lishi kerak ( $\pm 5$ ).

#### YON TOMONGA SILJISHI

*Tashqariga[+]/Ichkariga[-]*

	CHAP	O'NG
Min	$10^{\circ}$	$9^{\circ}$
Mak	$25^{\circ}$	$21^{\circ}$
Diapazon	$15^{\circ}$	$12^{\circ}$







Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap oyoq son suyaklari ko'ndalang o'q bo'ylab yon tomonlarga siljishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng oyoq son suyaklari ko'ndalang o'q bo'ylab 7° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich tashqariga 9° dan 21° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap oyoq son suyaklari esa ko'ndalang o'q bo'ylab tashqariga tomonga 9° burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 10° dan 25° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap oyoq son suyaklarining yon tomonlarga siljish ko'rsatkichlari normal holatda deyarli simmetrik ko'rsatkichda bo'lishi kerak ( $\pm 5$ ).

## 6. TIZZALAR

### BUKULISH

*Bukish[+]/Yozish[-]*

	CHAP	O'NG
Min	0°	25°
Mak	0°	56°
Diapazon	0°	31°



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap oyoq tizza suyaklari sagittal o'q bo'ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l oyoq tizza bo'g'imi sagittal o'q bo'ylab 23° burchak ostida bukilgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 23° dan 56° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap oyoq tizza bo'g'imi esa sagittal o'q bo'ylab 16° burchak ostida bukilgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich 18° dan 52° burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap oyoq tizza bo'g'imlari bukilishi ko'rsatkichlari normal holatda deyarli simmetrik ko'rsatkichda bo'lishi kerak ( $\pm 5$ ).


## 7. TO'PIQ

### BUKULISH

*Yuqoriga[+]/Pastga[-]*

	CHAP	O'NG
Min	10°	10°
Mak	15°	20°
Diapaz	4°	10°

on



Xokkeychining asosiy turish holati texnik harakati davomida o'ng va chap oyoqlar to'piq bo'g'imi sagittal o'q bo'ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l yelka suyaklari sagittal o'q bo'ylab  $9^\circ$  burchak ostida yuqorida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $10^\circ$  dan  $20^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan, chap to'piq bo'g'imi esa sagittal o'q bo'ylab  $11^\circ$  burchak ostida yuqorida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $12^\circ$  dan  $20^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelgan. Asosiy turish holatida o'ng va chap oyoq to'piq bo'g'imlari bukulishi ko'rsatkichlari normal holatda deyarli simmetrik ko'rsatkichda bo'lishi kerak ( $\pm 5$ ).

### Xulosa

Tadqiqot amaliyoti yakunida shunday xolosaga kelishimiz mumkinki xokkeychilarning asosiy turish holatida xarakat faoliyati texnik ko'rsatkichlari jarayonida aniq ijro etilishi va bajariladigan harakatlar ketma-ketligida tezkorlik qobiliyati muhim rol o'ynashi uchun dastlabki harakat traektoriyasi aniqligiga e'tibor qaratish lozim. Xokkeychilarning asosiy turish holatlari aniqlanganda egilish burchagi harakatning boshlang'ich nuqtasida umurtqa pog'onasi sagittal o'q bo'ylab orqaga tomonga  $-5^\circ$  burchak ostida joylashgan, harakat davomida ushbu ko'rsatkich sagittal o'q bo'ylab oldinga ko'chib  $26-31^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishi aniqlandi.

Harakatning boshlang'ich nuqtasida bo'yinning bukulish holati sagittal o'q bo'ylab orqaga tomonga  $-12^\circ$  burchak ostida joylashganligi, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $-25^\circ$  dan  $-19^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelganligi aniqlandi.

Xokkeychilarning harakatning boshlang'ich nuqtasida o'ng qo'l yelka suyaklari sagittal o'q bo'ylab orqa tomonga  $-5^\circ$  burchak ostida joylashganligi, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $0^\circ$  dan  $11^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelganligi, chap qo'l yelka suyaklari esa sagittal o'q bo'ylab old tomonga  $11^\circ$  burchak ostida joylashganligi, harakat davomida ushbu ko'rsatkich  $15^\circ$  dan  $26^\circ$  burchak osti oralig'ida ko'rinishiga kelganligi aniqlandi.

Barcha qayd etilgan ko'rsatkichlar orqali xokkeychilarning harakat faoliyati biomexanikasi aniqlandi. Xato va kamchiliklar yuzasidan kerakli ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Soyibjon Tajibaev, Khojiev Shokhrukh. (2023). DEVELOPMENT OF A TECHNOLOGY FOR DETECTING AND ELIMINATING BIOKINEMATIC AND BIODYNAMIC ERRORS IN ATHLETES INVOLVED IN ICE HOCKEY. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY, 2(4), 119–123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7793919>

2. Khojiev Shokhrukh. (2023). BIOMECHANICAL CHARACTERISTICS OF HOCKEY PLAYERS. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, 2(10), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7793923>
3. Khojiyev, Shokhrukh (2022) "Problems of technical training of young hockey players," Karakalpak Scientific Journal: Vol. 5: Iss. 2, Article 1.
4. Завитаев С. П. Здоровьесберегающая методика спортивной подготовки юных хоккеистов: дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2004. 167 с.
5. Маслюков А. В. Совершенствование координационных способностей у юных хоккеистов 8-9 лет с учетом типа телосложения на начальном этапе подготовки: автореф. дис. ... кан. пед. наук. Омск, 2001. 19 с.
6. Михалкин Г. П. Хоккей. Для мальчиков. М.: Астрель, 2000. 160 с.
7. Сергеев А. В. Дифференцированная методика силовой и скоростно-силовой подготовки юных хоккеистов разных амплуа на этапе спортивного совершенствования: дис. ... канд. пед. наук. Тула, 2010. 156 с.

UDK: 796.035:421:07

## SKANDINAVCHA YURISH AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH VA MUSTAXKAMLASHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

Azizov Mirzoxid Mirzolim o'g'li

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti doktoranti (DSc). E-mail:

[mirzohid.azizov@bk.ru](mailto:mirzohid.azizov@bk.ru)

**Anotasiya:** mazkur maqolada sog'lomlashtiruvchi skandinaviya usulida yurishning aholi salomatligini saqlash va mustaxkamlashdagi ahamiyati, inson organizmiga ijobiy ta'siri, mashg'ulotlar olib borishning qonun qoidalari xamda skandinavcha yurishning boshqa sport turlaridan farqi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Skandinavcha yurish, jismoniy tarbiya, shaxsiy yondashuv, innovasion texnologiya, sog'lom xayot, kislorod iste'moli, funksional rivojlanish, hozirlovchi mashqlar, nerv-muskul, immunitet tizimi, mikroserkulyatsiya, adaptatsiya, o'z-o'zini nazorat qilish, jismoniy tayyorgarlik.

## СКАНДИНАВСКАЯ ХОДЬБА КАК ОСНОВНОЕ СРЕДСТВО СОХРАНЕНИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ

Азизов Мирзохид Мирзолим угли

Докторант (DSc) научно-исследовательского института физической культуры и спорта

E-mail: [mirzohid.azizov@bk.ru](mailto:mirzohid.azizov@bk.ru) Тел: +99894 276 13 03

**Abstract:** this article talks about the importance of healthy walking according to the Nordic method in preserving and strengthening the health of the population, its positive effect on the human body, legal rules for conducting exercises, as well as the difference between Nordic walking and other sports.

**Ключевые слова:** Скандинавская ходьба, физкультура, личностный подход, инновационные технологии, здоровый образ жизни, потребление кислорода, функциональное развитие, тренировочные упражнения, нервно-мышечная система, иммунная система, микроцеркуляция, адаптация, самоконтроль, физическая подготовка

## SCANDINAVIAN WALKING AS THE MAIN MEANS OF PRESERVING AND STRENGTHENING THE HEALTH OF THE POPULATION

Azizov Mirzohid Mirzolim ogli

*Doctoral student of (DSc) the Research Institute of Physical Culture and Sports*

E-mail: [mirzohid.azizov@bk.ru](mailto:mirzohid.azizov@bk.ru) Phone: +99894 276 13 03

**Аннотация:** в данной статье говорится о значении здоровой ходьбы по скандинавскому способу в сохранении и укреплении здоровья населения, ее положительном влиянии на организм человека, юридических правилах проведения упражнений, а также отличии скандинавской ходьбы от других видов спорта.

**Keywords:** Nordic walking, physical education, personal approach, innovative technologies, healthy lifestyle, oxygen consumption, functional development, training exercises, neuromuscular system, immune system, microcirculation, adaptation, self-control, physical training.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib, millat genofondini yaxshilash, yosh avlodni yuksak jismoniy va intellektual salohiyatga ega etib tarbiyalash vositasi sifatida milliy istiqloq g'oyalarini targ'ib etishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan eng muxim soxa sifatida foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakterlar strategiyasi"ning PF-4947-sonli farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi "yoshlarni ma'naviy- axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni, qarorlaridan ma'lumki yoshlarga ayniqsa jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak yetibordan dalolat beradi. [1,2]

**Mavzuning o'rganilganligi** Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud, xususan, G.V.Julin, I.A.Koshbaxtiyev, D.D.SHaripov, L.I.Lubishov, T.S.Usmanxodjaev va boshqalar.

Sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish muammolari M.V.Zvereva, A.M.Kozin, L.V.Smurygina, I.A.Sennikova, A.G.O'edrin, T.A.Daminova, B.T.Xalmatova va boshqalar [3,4]

### **Tadqiqotning maqsadi**

Aholi barcha qatlamlariga Skandinaviya usulida yurishni innovasion texnologiyalardan foydalangan holda qo'llash orqali ularning salomatligini mustahkamlash, funksional rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari**

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish ta'siriga qarab, skandinavcha yurish vositalari tasnifini ishlab chiqish.

Aholini barcha qatlamlarini skandinavcha yurishdan foydalangan xolda jismoniy va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari samaradorligini oshirish.

Sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish va aholining salomatlik darajasi, morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarligi darajasini baxolash.

Axoli salomatligini saqlash va mustahkamlashda skandinavcha yurish vositalaridan foydalanish metodikasini asoslash.

**Tadqiqot usullari:** ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik test; tibbiy va biologik usullar; pedagogik eksperiment; matematik statistika usullari.

### **Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi**


Shimoliy yurish (skandinaviyada yurish, fin yurush, tayoq bilan yurish, shimoliy yurish) butun dunyoda mashxurlik kasb etmoqda. Ushbu sog'lomlashtirish sporti Finlyandiyada, o'tkan asrning o'ttizinchi yillari boshlanishi, chang'ichilarni tayyorlash usuli sifatida paydo bo'ldi.

Skandinaviyada yurish-maxsus mo'ljallangan tayoqlar yordamida ma'lum bir usul va yurish usulidan foydalanadigan yuqori samarali jismoniy faoliyat turi. Finlyandiyalik olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, skandinavcha yurish bel og'rig'ini kamaytiradi, umurtqa pog'onasini tuzatadi.

Skandinaviyada tayoq bilan yurish usuli odatiy yurishga juda o'xshaydi: qo'llar, oyoqlar erkin va sinxron tarzda harakat qiladi: chap qo'l va o'ng oyoq oldinga, keyin keyingi qadam o'ng qo'l va chap oyoq oldinga, va hokazo. Yurish paytida siz avval tovonni, keyin esa oyoqni kaft qismini so'ngra uchini qo'yishingiz kerak, xarakatlar yengil bajarilishi lozim.

Skandinaviyada yurish tezligi odatda oddiy yurishdan ko'ra ancha kuchli. Shu bilan birga, qo'l harakatining amplitudasi qadamning kengligini va shunga mos ravishda tananing mushaklaridagi umumiy yukni aniqlaydi. Qo'llarning yuk hajmini kamaytirganda, qadam kichikroq bo'ladi va yuk kamayadi va agar yurish yanada qizg'in bo'lishi kerak bo'lsa, qo'l harakati amplitudasi oshadi. Skandinavcha yurish usuli turli xil variantlarni taqdim etadi: sekin va tez yurish, keng va kichik qadamni almashtirishingiz mumkin. Bundan tashqari, qisqa yurish va dam olish yoki yurish tayoqchalari bilan mashq qilish mumkin. Yuqori jismoniy faoliyatni yaxshi ko'radiganlar uchun tayoqlar uchun maxsus og'irliklar mavjud.

Jismoniy tarbiya mashqlarida yurish paytida yurak urish tezligi maksimal vaznning 60-80% bo'lishi kerak. Bundan tashqari skandinavcha yurish dunyo xamjamiyatida eng tez rivojlanayotgan xamda dunyo tan olgan tibbiyot muassasalari tomonidan eng ko'p reabilitatsiya jarayoni uchun tavsiya etilayotgan sport turi xisoblanadi. Ushbu yurish boshqa yurish turlariga nisbatan tana muskullarining 90% ni xarakatlanishini ta'minlab, ortiqcha vazndan xalos bo'lishning eng yaxshi usuli xisoblanadi. Skandinaviya yurishining inson tanasining turli qismlariga ta'siri (1.1. – rasmga qarang



1 – rasm. Sog'lomlashtiruvchi skandinavcha yurishni inson tanasining turli qismlariga ijobiy ta'siri  
 Активация W  
 Чтобы активировать



Skandinavcha yurish bilan shug'ullangan inson kislorod iste'molini 20 % ga sezilarli darajada o'zgarishini aniqlandi. Muntazam skandinavcha yurish bilan shug'ullanish yuqori mexanik kuchga ega bo'lgan suyaklarning tuzilishini mustahkamlaydi va yaxshilaydi. Skandinavcha yurishning asosiy foydasi adaptatsiya zahiralarning ko'payishi deb baholanadi va yurak urish tezligining oshishi bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya mashqlarida yurish paytida yurak urish tezligi maksimal vaznning 60-80% bo'lishi kerak. Yugurish uzoq vaqt va muntazam ravishda fitnes bilan shug'ullanadigan, sog'ligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmaydigan va ortiqcha vaznga ega bo'lgan, yuqori yuklamaga osonlikcha bardosh bera oladigan professional sportchilar, tajribali odamlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Skandinaviya yurish oddiy yurishdan xatto yugurishdan juda ko'p afzalliklarga ega. Shunday qilib, Avstriyadagi Paracelsus tibbiyot universiteti olimlari shimoliy yurish bir xil tezlikda odatdagidek yurishdan 46% ko'proq kaloriya iste'mol qilishini tasdiqlamoqda va ushbu universitet professori prof. doktor Jozef Niebauerning aytishicha, bu yurishda deyarli barcha skelet va mushaklarning 90% ishtirok etadi. Bugungi kunda Skandinaviya piyoda yurishi qayta tug'ilishni boshdan kechirayotgani bejiz emas, chunki sog'liqni saqlash va dam olish uchun ushbu turdagi jismoniy mashqlar jismoniy terapiya bo'yicha mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan.

Skandinavcha yurish toza havoda muntazam yurish qon tomirlarining elastikligini oshiradi, qon mikrosirkulyatsiyasini tiklaydi, ichki organlarga foydali kislorod yetkazib berishni ko'paytiradi, demak u butun tanani qon bilan ta'minlashni, ichki organlarning ishini, metabolik jarayonlarni yaxshilaydi va immunitet tizimini mustahkamlaydi. Jismoniy mashqlar nafas olish tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Vanihoyat, yurish sog'ayish uchun ajoyib vosita va depressiyani davolashdir.

### **Xulosa va amaliy tavsiyalar**

Adabiyotlar va amaliy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz va dunyo hamjamiyatida so'nggi yillarda o'quvchi yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo darsdan tashqari bo'sh vaqtlarda turli xil innovatsion metodlardan foydalanish orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda yangicha sport mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu masala o'z yechimini topishni taqozo etadi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan o'quvchi yoshlarni sog'ligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan darsdan tashqari vaqtlarda skandinaviya usulida yurish mashg'ulotlari yordamida jismoniy tayyorgarlik hamda sog'lik holatini baholashda tegishli normativlar ishlab chiqish orqali o'z-o'zini nazorat qilishda hozirlovchi mashqlar tizimini yaratish hisobiga skandinaviya usulida yurish mashg'ulotlarining organizm funksional holatiga ta'sir etish darajasi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 3 iyundagi PQ 3031- sonli qarori. LEX.Uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakteristik strategiyasi" ning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy- axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi

bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3907-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi / [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

4. F.A.Kerimov Sportda ilmiy tadqiqotlar. T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. -348 B.

5. Алексеева Н. V. Технология обучения скандинавская ходьба как компоненту здорового юз жизни / Н. V. Алексеева // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. - 2013. №4. S. 19-22.

6. Полетаева А. Скандинавскажа ходьба. Легким шагом / А. Полетаева, М.: "копиринг", 2012. - 80-йиллар

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI МАКТАБ ТА'ЛИМИГА TAYYORLASH – PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi

University of Business and Sciens nodavlat oliy ta'lim muassasasi pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori(PhD), v.b.b.dotsent

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: [shahinabonu16@gmail.com](mailto:shahinabonu16@gmail.com)

***Annotatsiya:** Zamonaviy sharoitda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bugungi kunning pedagogik zaruriyati bo'lib qolmoqda. Chunki bolaning bilish jarayonlari, yutuqlari va kamchiliklari vaqtida e'tiborga olinsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, tarbiyalash ishlari samarali bo'ladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limga oid ish shakllari, didaktik o'yinlardan, ko'rgazmali-predmetli mashg'ulotlardan, bolalarning amaliy va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo'llagan holda amalga oshirilish zarurligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, tashxislash, aqliy rivojlanish, "maktabga tayyorgarlik" o'rganish, tahlil qilish, yosh dinamikasi, psixologik tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik.*

## ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Абдугопирова Феруза Акрамжон кизи

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам НОУ «University of Business and  
Sciens», доцент

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: [shahinabonu16@gmail.com](mailto:shahinabonu16@gmail.com)

***Аннотация:** В современных условиях подготовка детей к школьному обучению и сегодня остается педагогической необходимостью. Ведь при своевременном учете познавательных процессов, достижений и недостатков ребенка, при использовании современных педагогических технологий воспитательная работа будет эффективной. В данной статье рассматривается необходимость реализации методов воспитательной работы с широким использованием форм работы, связанных с дошкольным воспитанием, дидактических игр, показательно-предметной деятельности, различных форм практической и изобразительной деятельности детей.*





**Ключевые слова:** современные технологии, диагностика, психическое развитие, исследование «подготовка к школе», анализ, возрастная динамика, психологическая подготовка, интеллектуальная подготовка, специальная подготовка.

## PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN MODERN CONDITIONS - AS A PEDAGOGICAL NECESSITY

Abdugopirova Feruza Akramjon kizi

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences of the University of Business and Sciences non-state higher educational institution, associate professor

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: [shahinabonu16@gmail.com](mailto:shahinabonu16@gmail.com)

**Annotation:** In modern conditions, preparing children for school education remains a pedagogical necessity today. Because if the child's cognitive processes, achievements and shortcomings are taken into account in time, if modern pedagogical technologies are used, the educational work will be effective. This article discusses the need to implement educational work methods with the wide use of forms of work related to preschool education, didactic games, demonstration-subject activities, various forms of practical and visual activities of children.

**Key words:** modern technologies, diagnosis, mental development, "preparation for school" study, analysis, age dynamics, psychological preparation, intellectual preparation, special preparation.

### Kirish

“Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi. Bu borada bir fikrni alohida ta’kidlash joizki, keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar va tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda”<sup>127</sup> hamda ushbu islohotlar bevosita ta’lim, xususan, maktabgacha ta’lim tizimida ham muhim ijobiy yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun – 100 maqsad” belgilangan bo‘lib, ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar alohida o‘ringa ega. Strategiyaning 39-maqsadi “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish”<sup>128</sup> deb nomlanib, unda “Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish”<sup>129</sup> asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Albatta, ulkan taraqqiyot sari intilayotgan har bir jamiyat o‘z e’tiborini yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga qaratishi, asosiy investitsiyani bola kelajagi uchun sarflashi va bu borada samarali natijalarni ko‘rsatuvchi yo‘nalishlarni tanlashi lozimligi dunyo olimlari tomonidan alohida ta’kidlab o‘tilmoqda.

<sup>127</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T. 2021. – B. 6.

<sup>128</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-y.dagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. - <https://lex.uz/docs/-5841063>.

<sup>129</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. - <https://lex.uz/docs/-5841063>.

**Mavzuning dolzarbligi** Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni uch yoshdan qabul qilish belgilab qo'yilgan<sup>130</sup>. Bu holat tibbiy, pedagogik, psixologik, metodik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, bolalar uch yoshga to'lganda o'z fikrini fodalash, mustaqil tarzda ovqatlanish, o'yin faoliyatiga kirishish, atrofdagi narsa-buyumlarga o'z qiziqishlarini bayon etish, tengdoshlari bilan o'zaro muloqot o'rnata olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola yosh rivojlanish bosqichlarida uning jismoniy, ma'naviy, imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib, uni intensiv mashg'ulotlar bilan maktab ta'limiga tayyorlovga o'rgatish mumkin emas. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun maktab ta'limining shakl va metodlarini qo'llamaslik kerak. Bolalarning yoshga bog'liq psixofiziologiyasi, ushbu yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'limga oid ish shakllari, didaktik o'yinlardan, ko'rgazmali-predmetli mashg'ulotlardan, bolalarning amaliy va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo'llagan holda amalga oshirilish zarur. Bunday shakllar va usullar yosh bolaning fikrlash va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladi, uning bilim faoliyatini rag'batlantiradi va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Pedagogika va psixologiyaning asosiy muammolaridan biri bolalarning maktabga tayyorgarligi masalasidir. Bolalarni maktabga tayyorlash muammosi ta'limning rivojlanishi jarayonida paydo bo'ldi. Yillar davomida turli avlod vakillari o'rtasida o'zaro munosabatlar shakllandi. Bunda esa hayot tajribalarining ko'rsatishicha, insonlar o'rtasida yosh va individual farq darajalari sezildi. Shu sababdan, bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishning turli toifalari yuzaga keldi. Bu esa bolalarni bilim egallashlariga tayyorlashni taqozo etdi.

Aristotel fan tarixida birinchi bo'lib yosh davriyligini taklif etgan bo'lib, u yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash zarurligini ta'kidlagan<sup>131</sup>.

Antik davrning yana bir taniqli faylasufi, rim notiq va o'qituvchisi Fabiy Kvintilian "Notiqqa ko'rsatma" nomli maxsus pedagogik risolasida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning ayrim masalalari o'z aksini topgan. Xususan, ushbu risolada bolani maktab hayotiga tayyorlashga alohida to'xtalib o'tilgan.

Buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy maktabgacha ta'lim masalalarini batafsil ishlab chiqishga muvaffaq bo'ladi va u bola hayotining yettinchi yili maktab ta'limida davom etishini hamda ona farzandini jismoniy, axloqiy va aqliy jihatdan maktabga tayyorlashi, bu bolada ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun optimal vaqt ekanligiga katta e'tibor qaratadi. U ota-onalarga bolada oldindan maktabga muhabbat va qiziqish uyg'otishni, bolalarga maktabda o'qish qanchalik muhimligini tushuntirishni, bolalarning harakatlarini tartibga solishni tavsiya etadi<sup>132</sup>.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan, Abu Nasr Farobiyning ta'kidlashicha, "Inson aqliy qobiliyati u tug'ilgan vaqtidayoq (bola miyasida) tabiiy holda salohiyat holda aqliy tushunchalarni (olam haqidagi bilimlarini) idrok etishga tayyorlangan bo'ladi. Ammo idrok etish qobiliyatlari turli insonlarda turlichadir. Yoki odamlarda aqliy tushunchalarni idrok etishga

<sup>130</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019-y., 09/19/391/3120-son.

<sup>131</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-detey-k-obucheniyu-v-shkole-vchera-i-segodnya>.


<sup>132</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-detey-k-obucheniyu-v-shkole-vchera-i-segodnya>

imkoniyat bo'lmasa, ba'zilar bu imkoniyatlarni ishlatmaydi"<sup>133</sup>. Farobiyning ushbu fikrlaridan anglash mumkinki, bolalar qaysidir ma'noda ma'lum qobiliyatlarga ega bo'ladi, lekin uni tashqi olamda namoyon eta olish uchun yetarlicha muhit mavjud bo'lishi talab etiladi.

Etnopedagogikaning dunyoviy hikmatlari, o'tmish faylasuf va mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalash haqidagi g'oyalari bolalarni maktabga tayyorlash muammosining empirik asosini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha katta izlanishlar olib borgan bo'lib, u bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonidan "ilm" olishga o'rgatish kerakligini ta'kidladi. Bunda u maktabga tayyorgarlikning mohiyatini, bolalar bog'chasi ishining mazmunini chuqur o'rgandi hamda bog'cha maktabdan nusxa ko'chira olmasligini isbot etdi<sup>134</sup>. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda bolalarning maktabga tayyorgarligini shakllantirish muammosi tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy sharoitda maktablarning faoliyatida quyidagi jarayonlarni hisobga olgan holda ushbu masalani o'rganish, tahlil etish, buning doirasida izlanishlar olib borish zarurati yuzaga keldi:

- birinchidan, maktab yoshiga yetgan, maktabga ilk qadam qo'yayotgan bolalarga qo'yiladigan talablar oshdi;
- ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda metodist - innovatorlar tomonidan ishlab chiqilgan yangi dasturlarning joriy etilishi natijasida bolaning maktabga tayyorgarlik darajasiga qarab u yoki bu dastur bo'yicha ta'limini tanlash imkoniyati paydo bo'ldi;
- uchinchidan, ijtimoiy sharoitlar o'zgarganligi sababli, ko'plab bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnaganligi yoki uyda tarbiyalanganligiga qarab maktabga tayyorgarlikning turli darajalarini egallaganligi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, "maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi<sup>135</sup>:



### **Bolalarni maktabga tayyorlash yo'nalishlari<sup>136</sup>.**

<sup>133</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri / Tuzuvchi A.Irisov, M.Maxmudov va bosh. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 48.

<sup>134</sup> Возрастная и педагогическая психология / Л.С.Выготский. – М.: Академия, 1998. – 325 с.

<sup>135</sup> Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi // O'quv qo'llanma. – T. 2002. – B. 139.

<sup>136</sup> Возрастная и педагогическая психология / Л.С.Выготский. – М.: Академия, 1998. – 325 с.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash, ularning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash asosiy vazifalar sifatida belgilab o'tilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari – bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'ligini mustahkamlash, organizmini chiniqtirishni maqsad qiladi.

Bolaning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishning yosh dinamikasi V.S.Farfel, F.G.Kazaryan, L.V.Karmanova, N.A.Fomin, V.P.Filin va boshqalarning ishlarida ochib berilgan<sup>137</sup>.

G.M.Kasatkina, V.N.Novoxatkolarning izlanishlari natijasiga ko'ra, bola hayotining oltinchi yili kuchni, jumladan, tezlik-kuch qobiliyatlari hamda harakatlar tezkorligini tarbiyalashning asosiy davri hisoblanadi. Negaki, olti yoshda mazkur sifatlarni shiddat bilan rivojlantirish qobiliyati saqlanib qoladi va umumiy chidamlilikni tarbiyalash imkoniyatlari paydo bo'ladi<sup>138</sup>.

T.Yu.Logvinaning<sup>139</sup> fikricha, 5-6 yoshli bolalarda kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, makonda mo'ljal olish kabi sifatlar eng kuchli namoyon bo'ladi va asosan o'g'il bolalarda ushbu ko'rsatkichlar qizlarga nisbatan yanada yuqoriroq darajadaga ko'tariladi.

Respublikamiz olimlaridan D.Asqarova maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ahamiyati va ularni tashkil etish usullari haqida o'z izlanishlarini olib borgan va bolaning har jihatdan kamol topishida jismoniy o'sishning ijobiy natijalarini ko'rsatib o'tgan<sup>140</sup>.

Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bular:

- bola salomatligining yaxshi bo'lishi;
- organizmning chiniqqanligi;
- ma'lum darajada chidamliligi;
- ish qobiliyati;
- kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishi kabilar.

Bolaning maktab hayotiga jismoniy tayyorgarligi uning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va kurish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning maktabga **shaxsiy tayyorligi**, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi.

Ye.Ye.Kravsovaning<sup>141</sup> xulosalariga ko'ra maktabga ruxiy tayyorlik ko'rsatkichlari bolaning kattalar va tengdoshlari orasida bir-biri bilan kelishib amalga oshiriladi. Umuman

---

<sup>137</sup> Abdullayev Z.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat ko'nikmalarini rivojlantirish // Academic research in educational sciences 3.1, 2022. – B. 288-298.

<sup>138</sup> Ноткина Н.А. Развитие двигательных качеств у детей дошкольного возраста. Игры и упражнения. - СПб., 1995.- 64 с.

<sup>139</sup> Логвина, Т.Ю. Физкультура, которая лечит. Пособие для педагогов и медицинских работников дошкольных учреждений / Т.Ю. Логвина. – Мозырь : ООО ИД «Белый ветер», 2003. – 172 с.

<sup>140</sup> Asqarova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish usullari // Журнал Мир исследований, 3/2021. – B. 42-49.

<sup>141</sup> Кравцова Е.Е. Психология и педагогика обучения дошкольников: учебное пособие. – Мозаика-Синтез, 2013. – 264 с.

olganda, bolaning yuqori ko'rsatkichlari uning intellektual rivojlanishining yaxshiligini namoyon etadi.

Rus pedagog-olimlari N.V.Nijegorodseva, V.D.Shadrikov, va N.P.Voroninlar<sup>142</sup> maktabda o'qitishga psixologik tayyorlikni alohida bir tizim deb hisoblaydilar. Bu tizim esa o'quv sifatidan iborat. Mana shu sifat maktabda yutuqli o'qitishga turli xilda ta'sir etadi. Shuning natijasida, fundamental va boshlovchi sifatga bo'linadi, bu esa bir qator dastur materiallarini o'zlashtirishga yordam beradi.

**Maqolaning ilmiy yangiligi.** Maktabga tayyorlik tashxisi quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

– bolalarning psixologik rivojlanish turlarini tushunish. Bunda maqsad o'quv-tarbiyaviy jarayonga yakka holda yondoshish;

– maktabda bilim olishga tayyor bo'lmagan bolalarni aniqlash va ular bilan yakka tartibda ish olib borish;

– bo'lg'usi birinchi sinf o'quvchilarini saralash, ularning rivojlanish darajasiga qarab, bolaning kelajakda yaxshi natijalar bilan rivojlanishi;

– maktabga tayyor bo'lmagan bolalarni yana bir yilga kechiktirish ko'zda tutiladi.

Bolani maktabga tayyorlashning keyingi bosqichi uning **intellektual tayyorgarligi** hisoblanib, unda bolaning dunyoqarashi, [jonli tabiat](#), insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi<sup>143</sup>. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil [eta olish](#), [umumlashtira olish](#), ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi.

Maktabda o'qishga intellektual tayyorgarlik bolaning yuqori aqliy jarayonlari: diqqat, xotira, idrok, fikrlash, tasavvur va nutqning ma'lum darajada rivojlanishini, shuningdek, atrof-muhit to'g'risida zarur bilimlar zaxirasining mavjudligini nazarda tutadi.

**Tatqiqotning maqsadi.** 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalar asosan mantiqiy operatsiyalarni (umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish, taqqoslash va boshqalar), semantik yodlashni o'zlashtirishi kerak. Maktabga intellektual tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishi kerak. Bolalar turli voqeliklar o'rtasidagi aloqalarni sezish, ko'rish qobiliyati, bolaning bu jarayonni nima va nima uchun ekanligini tushunishi kerak. Bugungi zamonaviy sharoitda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash har bir pedagogning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda:

– birinchidan, bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab kolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok qilish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar;

– ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

<sup>142</sup> Нижегородцева Н.В., Шадриков В.Д., Воронин Н.П. "Готовность к обучению в школе: теория и методы исследования" Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 1999. – 247 с.

<sup>143</sup> <http://psihdocs.ru/maktabgacha-yosh-davrining-psixologik-xususiyatlari-bog'cha-yoshi.html?page=4>

– uchinchidan bolada atrof-muhitga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o‘qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>144</sup>.

**Asosiy qism.** Ta’lim samaradorligi, yangi ta’lim darajasi sharoitlariga moslashish muvaffaqiyati ko‘p jihatdan maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maxsus tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Maktab ta’limiga maxsus tayyorlash – katta yoshdagi guruhlarining o‘ziga xos roli, butun pedagogik jarayonning muhim vazifalari va natijalaridan biri.

Maktabga maxsus tayyorgarlik – bu bolaning birinchi sinfda asosiy fanlar (matematika, o‘qish, yozish kabi) bo‘yicha o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta’minlaydigan bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonidir<sup>145</sup>.

**Xulosa** o‘rnida shuni takidlash joizki uzluksizlikning ifodasi – tayyorlov bosqichlarida bolaning shaxsiyatini har tomonlama shakllantirishning yagona, progressiv yo‘nalishini amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabda bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari o‘rtasida chuqur bog‘liqlikni o‘rnatishdan iboratdir.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T. 2021. – B. 6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-y.dagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. <https://lex.uz/docs/-5841063>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. <https://lex.uz/docs/-5841063>.
4. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019-y., 09/19/391/3120-son.
6. To‘ychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. diss. – T. 2020. – B. 152. ( - 12 b.)
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-detey-k-obucheniyyu-v-shkole-vchera-i-segodnya>.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-detey-k-obucheniyyu-v-shkole-vchera-i-segodnya>
9. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri / Tuzuvchi A.Irisov, M.Maxmudov va bosh. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 48.

<sup>144</sup> Dosboyeva Sh.A. Bolaning maktab ta’limiga aqliy tayyorligi // “Science and Education” Scientific Journal March 2021 / Volume 2 Issue 3. – B. 384-351.

<sup>145</sup> Нижегородцева Н.В., Шадриков В.Д., Воронин Н.П. “Готовность к обучению в школе: теория и методы исследования” Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 1999. – 247 с.



10. Возрастная и педагогическая психология / Л.С.Выготский. – М.: Академия, 1998. – 325 с.
11. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi // O'quv qo'llanma. – T. 2002. – B. 139.
12. Abdullayev Z.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat ko'nikmalarini rivojlantirish // Academic research in educational sciences 3.1, 2022. – B. 288-298.
13. Ноткина Н.А. Развитие двигательных качеств у детей дошкольного возраста. Игры и упражнения. - СПб., 1995.- 64 с.
14. Логвина Т.Ю. Физкультура, которая лечит. Пособие для педагогов и медицинских работников дошкольных учреждений / Т.Ю. Логвина. – Мозырь : ООО ИД «Белый ветер», 2003. – 172 с.
15. Asqarova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish usullari // Журнал Мир исследований, 3/2021. – B. 42-49.
16. Samadov S.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining yosh xususiyatlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari // Fan va ta'lim jurnali, 5-son, 2022. – B. 1383-1388.
17. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: ped. fanl. bo'yicha fals. doktori (PhD)... diss. avtoreferati. –T.: – B. 11. (48).

## IIV XODIMLARI VA KURSANTLARI TIBBIY-IJTIMOIIY KOMPETENTLIGI TUZILMASI

IIV Markaziy poliklinikasi boshlig'i

Zokirova Feruza Gulyamovna

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada IIV xodimlari va kursantlari tibbiy-ijtimoiy kompetentligi tuzilmasi yoritilgan. Tibbiy-ijtimoiy kompetensiya tadqiqotlarda yetarli darajada o'rganilmagani bois, tibbiy kompetensiya bilan ijtimoiy kompetensiyaning integratsiyasida uning komponentlarini aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar organlari xodimlari, kadrlarini tayyorlash, sog'lom turmush tarzi komponenti, ijtimoiy-huquqiy komponent, kommunikativ komponent, o'quv komponenti, ijtimoiy-iqtisodiy komponent, madaniy va dam olish komponenti, hayotning o'zini o'zi belgilash komponenti.

### Kirish

Ichki ishlar organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlash va joy-joyiga qo'yish, shuningdek xodimlarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimi quyidagilardan iborat belgilandi:

ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash;

kadrlarini tayyorlash;

ichki ishlar organlari xodimlarini rag'batlantirish;

ichki ishlar organlari xodimlarining sog'lig'ini saqlash.

Ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash quyidagicha amalga oshiriladi (1-rasmga qarang):

ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash, o'rganish va joy-joyiga qo'yishni, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlashni tashkil etish;

kadrlar bilan ishlash holatini tahlil qilish va baholash, uni yanada takomillashtirish va ichki ishlar organlarining kadrlar salohiyatini kuchaytirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni begilash;

ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, korupsiya holatlari va qonunga zid boshqa xatti-harakatlar sodir etilishini o'z vaqtida aniqlash, bartaraf etish va profilaktikasini amalga oshirish

### 1-rasm. Ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kadrlarini tayyorlash quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy, jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish;

ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini tashkil etish;



ichki ishlar organlari ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlash;


ichki ishlar organlarining jangovar va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash.

Ichki ishlar organlari xodimlarini rag'batlantirish quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari xodimlari bilan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni, ularni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortishni tashkil etish;

ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy faoliyatiga aralashish holatlariga barham berish choralarini ko'rish.

Ichki ishlar organlari xodimlarining sog'lig'ini saqlash quyidagicha amalga oshiriladi (2-rasmga qarang):



## 2-rasm. Ichki ishlar organlari xodimlarining sog'lig'ini saqlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi" Kodeksida ichki ishlar organlarida kasbiy madaniyat qoidalari va xizmat intizomi talablariga rioya etish xodimlarda yuksak ongu tafakkurni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borish, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llash yoritilgan [1] (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

### Ichki ishlar organlari xodimlari va kursantlarni rag'batlantirish choralari

Xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralari	Kursantlar(tinglovchilar)ga nisbatan rag'batlantirish choralari
